НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 4, 2026

https://bxu.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

№ 04-son, 2026

Jurnal O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrdagi 347-son qarori bilan 10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya fanlari bo’yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo’lgan zaruruiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Журнал включён в перечень обязательных научных изданий, в которых должны публиковаться основные результаты диссертационных исследований, решением Президиума ВАК при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 29 декабря 2023 года № 347 по следующим научным специальностям: 10.00.00 – филология, 13.00.00 – педагогика, 19.00.00 – психология.

The journal is included in the list of required publications for publishing scientific articles based on the results of dissertation research in the fields of 10.00.00 – Philology, 13.00.00 – Pedagogy, and 19.00.00 – Psychology, in accordance with Resolution No. 347 of December 29, 2023, adopted by the Presidium of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan.

Muassis: Buxoro xalqaro universiteti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

"Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:

Baratov Sharif Ramazanovich

psixologiya fanlari doktori, professor,

Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:

Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Tuymebayev J.K. – filologiya fanlari doktori, akademik (Qozog'iston)

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)

Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI

PSIXOLOGIYA FANLARI

Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor

Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Beknazarova L.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Djurayev B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Qabulov Q.P. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor

Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ayrapetova A.G. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zakirov A.A. - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qosimov U.A. - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Mo'minova L.R. - pedagogika fanlari doktori, professor

Raxmonov K.D. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor

Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor

Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor

Astanova G.A. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor

Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Shirinov A.Q. - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

"Scientific Bulletin of Bukhara International University "
scientific-theoretical journal
EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Tuimebayev Zh.K. – Doctor of Philological Sciences, Academician (Kazakhstan)
Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.Sh. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Beknazarova L.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Qabulov Q.P.-doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Zakirov A.A. - candidate of psychological sciences, associate professor
Qosimov U.A. - candidate of psychological sciences, associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Mo'minova L.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Raxmonov K.D. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Haydarov A.A. - doctor of Philology, professor
Astanova G.A. - doctor of Philology (DSc), professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD

EDITORS:

Rakhmatova M.M. -, Associate Professor

Tursunov Xusniddin Isomovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
San'atshunoslik kafedrasi dotsenti
E-mail: qashqarrubob2022@gmail.com

MILLIY MUSIQA CHOLG'ULARINI O'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI VA MUSTAQIL O'RGANISH METODIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy musiqa cholg'ularini, xususan Qashqar rubobi ijrochiligini mustaqil o'rganishda elektron ta'lim resurslarining (ETR) didaktik imkoniyatlari va metodologik ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada Android mobil ilovasining menyular tizimi, didaktik tamoyillari, o'quv jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shu bilan birga, Surxandaryo, Andijon va Namangan viloyatlarida 244 nafar talaba ishtirokida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlili keltiriladi va metodikaning samaradorligi isbotlanadi.*

Kalit so'zlar: *elektron ta'lim resurslari, Qashqar rubob, mustaqil o'rganish, didaktik tamoyillar, Android mobil ilova, musiqa ta'limi, Bloom taksonomiyasi, scaffolding, gamifikatsiya, refleksiya, diferensial o'qitish.*

DIDACTIC OPPORTUNITIES OF ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES AND METHODOLOGY OF INDEPENDENT LEARNING IN TEACHING NATIONAL MUSICAL INSTRUMENTS

Abstract. *This article analyzes the didactic potential and methodological significance of electronic educational resources (EER) in the independent learning of national musical instruments, specifically Qashqar rubab performance. The article scientifically substantiates the menu system of the Android mobile application, didactic principles, and mechanisms for individualizing and differentiating the learning process. Additionally, the mathematical-statistical analysis of experimental work conducted with 244 students in Surkhandarya, Andijan and Namangan regions is presented, proving the effectiveness of the methodology.*

Key words: *electronic educational resources, Qashqar rubab, independent learning, didactic principles, Android mobile application, music education, Bloom's taxonomy, scaffolding, gamification, reflection, differentiated teaching.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ И МЕТОДИКА САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье анализируется дидактический потенциал и методологическое значение электронных образовательных ресурсов (ЭОР) в самостоятельном изучении национальных музыкальных инструментов, в частности исполнительства на кашкарском рубабе. Научно обосновывается система меню Android-мобильного приложения, дидактические принципы, механизмы индивидуализации и дифференциации учебного процесса. Также приводится математико-статистический анализ опытно-экспериментальной работы, проведённой с участием 244 студентов в Сурхандарьинской, Андижанской и Наманганской областях, доказывающий эффективность методики.*

Ключевые слова: *электронные образовательные ресурсы, кашкарский рубаб, самостоятельное обучение, дидактические принципы, Android-мобильное приложение, музыкальное образование, таксономия Блума, скаффолдинг, геймификация, рефлексия, дифференцированное обучение.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi milliy musiqa cholg‘ularini o‘qitish metodikasiga tubdan yangi talablar va imkoniyatlar taqdim etmoqda. An’anaviy ustoz-shogird tizimi asrlar davomida milliy musiqa merosini avloddan avlodga yetkazishning asosiy vositasi bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, bugungi kunda raqamli muhitda voyaga yetayotgan yoshlar uchun ta’limning yangi, interaktiv shakllari zaruriyatga aylanib bormoqda.

Qashqar rubob - O‘rta Osiyo musiqa madaniyatining nodir namunasi bo‘lib, o‘ziga xos tembri, ifodalilik imkoniyatlari va ijrochilik texnikasi bilan boshqa torli cholg‘ulardan ajralib turadi. Mazkur cholg‘uni o‘rgatishda an’anaviy yuzma-yuz ta’lim shaklidan tashqari, elektron ta’lim resurslaridan (ETR) foydalanish ehtiyoji bir qator ob’ektiv sabablarga ko‘ra dolzarb bo‘lib qolmoqda: malakali rubob o‘qituvchilarining cheklangan geografik tarqalishi, o‘quv vaqtining qat’iy cheklanishi, individual o‘rganish sur’atiga bo‘lgan zarurat va mustaqil mashg‘ulot imkoniyatining etishmasligi.

Ushbu maqolaning maqsadi - milliy musiqa cholg‘ularini o‘qitishda elektron ta’lim resurslarining didaktik imkoniyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish, Qashqar rubob ijrochiligini mustaqil o‘rganishga mo‘ljallangan Android mobil ilovasining pedagogik samaradorligini isbotlash va ushbu sohada yangi metodologik yondashuvlarni asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: birinchi marta Qashqar rubob ijrochiligini o‘rgatishga mo‘ljallangan Android mobil ilovasi Bloom taksonomiyasi, scaffolding va multimodal o‘rganish nazariyalari asosida kompleks tahlil qilingan; elektron ta’lim resurslari orqali mustaqil o‘rganishning besh didaktik tamoyili ilmiy asoslab berilgan; uch viloyatda o‘tkazilgan keng qamrovli pedagogik eksperiment natijalariga asoslangan holda metodikaning statistik samaradorligi isbotlangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Elektron ta’lim resurslaridan foydalanish va raqamli pedagogika sohasida ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bloom (1956) tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya ta’lim maqsadlarini bilimdan yaratuvchilikka qadar bosqichma-bosqich tashkil etish imkonini beradi. Ushbu model hozirgi kunda ETRlarni loyihalashda asos sifatida keng qo‘llanilmoqda [1].

Vygotskiy (1978) ning «Yaqin rivojlanish zonasi» (Zone of Proximal Development) nazariyasi va scaffolding konseptsiyasi ETRlarning o‘quvchi mustaqilligini bosqichma-bosqich shakllantirish mexanizmini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [2]. Wood, Bruner va Ross (1976) ning tadqiqotlari scaffolding modelining amaliy tatbiqini ko‘rsatib bergan [3].

Mayer (2001) ning multimediali o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, vizual va audial kanallar birgalikda faollashtirilganda bilimlarni o‘zlashtirish sezilarli darajada chuqurlashadi [4]. Bu nazariya Qashqar rubob ilovasidagi to‘rtinchi menyu - “Cholg‘uda tovushlar joylashuvi” bo‘limida to‘liq amaliyotga tatbiq etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida musiqa ta’limini rivojlantirish borasida ham muhim tadqiqotlar olib borilgan. Abduqodirov va Pardayev (2009) masofaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotini chuqur o‘rgangan, ta’lim jarayonini individuallashtirish masalalarini ko‘rib chiqqan [5]. Begimqulov va boshqalar (2011) intellektual ta’lim tizimlarini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyotiga bag‘ishlangan monografiyasida ETRlarning kognitiv jihatlarini batafsil yoritgan [6].

Tursunov (2024) dutor cholg‘usini o‘rgatish tajribasini tahlil qilib, an’anaviy pedagogik mazmunning zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg‘unlashuvi muammolarini o‘rgangan [7]. Xorijiy tadqiqotchilar orasida Prensky (2001) raqamli mahalliy avlod (digital natives) uchun o‘qitishning yangi yondashuvlarini taklif etgan [8]. Jonassen (1996) konstruktivist o‘qitish muhitlarini loyihalash tamoyillarini ishlab chiqqan va bu yondashuv ETRlarni pedagogik jihatdan asoslab berishda muhim rol o‘ynaydi [9].

Tahlilar shuni ko‘rsatadiki, milliy musiqa cholg‘ularini ETR vositasida o‘rgatish sohasida kompleks pedagogik tadqiqotlar, ayniqsa o‘zbek milliy kontekstida, hali yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanildi: nazariy tahlil (pedagogika, psixologiya va musiqa ta’limi bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish); pedagogik kuzatuv (dars jarayonlari va ETRdan foydalanish kuzatildi); pedagogik eksperiment (tajriba va nazorat guruhlari tashkil etildi); matematik-statistik tahlil (Student t-mezoni, Pearson χ^2 mezoni); anketa va suhbat (talabalar va o‘qituvchilar bilan).

Tadqiqot 2022–2024 yillar davomida Surxandaryo, Andijon va Namangan viloyatlaridagi musiqa ta’limi muassasalarida olib borildi. Tajriba guruhida jami 123 nafar, nazorat guruhida 121 nafar talaba ishtirok etdi (jami 244 nafar). Tajriba guruhidagi talabalar "Qashqar rubob ijrochiligi" nomli Android mobil ilovasidan, interaktiv platformalar, videodarslar va audio materiallardan foydalangan holda o‘qigan.

Baholash mezonlari uch yo‘nalishda belgilandi: bilim va ko‘nikmalar darajasi (testlar, diagnostik videolar, amaliy topshiriqlar); ijro mahorati (mobil ilova funksiyalari, ekspertlar bahosi, video ijrolardagi texnik aniqlik); mustaqil ta’lim samaradorligi (topshiriqlar soni va sifati, mashg‘ulotlar davomiyligi, platforma statistikasi). Talabalar bilim darajasi "yuqori", "o‘rta" va "past" mezonlar asosida baholandi.

Tahlil va natijalar

4.1. Android mobil ilovasining didaktik tuzilishi

Tadqiqotimizda ishlab chiqilgan Android mobil ilovasi olti menyudan iborat bo‘lib, har biri Bloom taksonomiyasining ma’lum bir darajasiga to‘g‘ri keladi: (1) Cholg‘u tarixi, sozlanishi va tuzilishi - bilish kompetensiyasi; (2) Ijro pastanovkasi - vizualizatsiya va motorik o‘zlashtirish; (3) Mezrob urish va shtrixlar - animatsion interaktiv mashq; (4) Cholg‘uda tovushlar joylashuvi - multimodal o‘rganish; (5) Ijro mahoratini oshiruvchi gammalar - transfer asosida o‘rganish; (6) Kuy ijro qilish - ijodiy mustaqillik.

Ilovaning asosiy didaktik xususiyati - menyularning izchil ketma-ketligi. Har bir keyingi bosqich oldingi bosqichda o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ustiga quriladi (scaffolding tamoyili). Bu yondashuv kognitiv yukni (cognitive load) boshqarish nazariyasiga to‘liq mos keladi.

4.2. Besh didaktik tamoyil

Tadqiqot davomida milliy musiqa cholg‘ularini ETR vositasida o‘qitishda quyidagi besh didaktik tamoyil ilmiy asoslab berildi:

Vizualizatsiya tamoyili - cholg‘u chalish uslublari, barmoqlar joylashuvi, tovush hosil bo‘lish jarayonlarini video va grafik shaklda ko‘rsatish. Bu tamoyilning amaliyotga tatbiqi texnik ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni sezilarli tezlashtiradi.

Interaktivlik tamoyili - o‘quvchi o‘quv resursi bilan faol muloqotda bo‘lishi, virtual mashqlar, tezkor fikr-mulohaza va o‘zini baholash tizimi orqali o‘zlashtirish jarayonini faollashtirish.

Refleksiya tamoyili - o‘quvchining o‘z ijrosini audio/video formatda yozib olish, etalon ijro bilan solishtirish va avtomatik xato tahlili orqali o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasini shakllantirish.

Integratsiya tamoyili - musiqa nazariyasi, tarix, ijrochilik amaliyoti va AKT vositalarining o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilishi, yaxlit ta’lim tajribasini yaratish.

Ijodkorlikni rivojlantirish tamoyili - o‘quvchini kompozitsiya yaratish, improvizatsiya va virtual ijro jarayonlariga jalb etish orqali passiv ijro etuvchidan faol ijodkorga aylantirish.

4.3. Tajriba-sinov natijalari

Uch viloyatda o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining umumlashtirilgan natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval.

Tajriba-sinov natijalari umumlashtirilgan ko‘rsatkichlari

Hudud	Ko‘rsatkich	T.g. boshida	T.g. oxiri	N.g. boshida	N.g. oxiri	T.g.(%)	N.g.(%)
Surxandaryo	Yuqori	8	17	7	9	+21.5%	+4.9%

Hudud	Ko‘rsatkich	T.g. boshida	T.g. oxiri	N.g. boshida	N.g. oxiri	T.g.(%)	N.g.(%)
	O‘rta	18	19	18	18	+2.3%	0%
	Past	16	6	16	14	-23.8%	-4.9%
Andijon	Yuqori	10	14	7	8	+10.5%	+3.1%
	O‘rta	15	13	15	16	-5.3%	+2.7%
	Past	13	11	15	13	-5.2%	-5.4%
Namangan	Yuqori	12	18	11	10	+14.0%	-2.3%
	O‘rta	18	17	19	21	-2.3%	+4.6%
	Past	13	8	13	12	-11.7%	-2.3%
JAMI	Yuqori	30	49	25	27	+15.4%	+1.6%

Matematik-statistik tahlil natijalari: o‘rtacha ball - tajriba guruhi: 4,20; nazorat guruhi: 3,90; farq ≈ 8%. Pearson χ^2 mezoni: $\chi^2 = 11,50 > 5,99$ (kritik qiymat) - sifat jihatdan farq statistik ahamiyatli. Student t-mezoni: $t = 3,28 > 1,97$ (kritik qiymat) - miqdoriy farq ishonchli. Umumiy samaradorlik koeffitsienti $\eta \approx 11,7\%$.

Yuqori darajali talabalar ulushi tajriba guruhida +15,4% ga oshdi, past darajalilar ulushi - 13,8% ga kamaydi. Bu natijalar null-gipotezani rad etadi va elektron ta’lim resurslari asosida tashkil etilgan mustaqil o‘rganish metodikasining statistik jihatdan ishonchli samaradorligini tasdiqlaydi.

5. Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, elektron ta’lim resurslari milliy musiqa cholg‘ularini o‘qitish jarayonida muhim didaktik vosita vazifasini bajarib, an’anaviy ta’lim metodlari bilan samarali uyg‘unlashtirish orqali yuqori pedagogik natijaga erishish mumkin.

Tadqiqot davomida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, Qashqar rubob ijrochiligini mustaqil o‘rganishga mo‘ljallangan Android mobil ilovasi Bloom taksonomiyasining barcha darajalarini qamrab oluvchi pedagogik tizim sifatida ishlaydi. Ikkinchidan, vizualizatsiya, interaktivlik, refleksiya, integratsiya va ijodkorlikni rivojlantirish tamoyillari birgalikda musiqa ta’limida ETR-dan foydalanishning metodologik asosini tashkil etadi. Uchinchidan, 244 talaba ishtirokidagi pedagogik eksperiment natijalari ($\eta \approx 11,7\%$, $t = 3,28 > 1,97$, $\chi^2 = 11,50 > 5,99$) metodikaning statistik samaradorligini isbotladi.

Amaliy takliflar: milliy musiqa o‘quv yurtlarida ETRni darsdan tashqari mustaqil mashg‘ulotlar tizimiga joriy etish; o‘qituvchilar uchun raqamli pedagogika bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish; mavjud mobil ilovalar to‘plamini dutor, g‘ijjak, doira va boshqa milliy cholg‘ular uchun ham kengaytirish; ETR samaradorligini doimiy monitoring qilish tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2017. – 7-fevral.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmoni. – Toshkent, 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son «Ta’lim sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. – Toshkent, 2020.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son «Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 2022. – 3-fevral.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 548-son «Madaniyat va san’at ta’limi muassasalarida o‘qitish sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. – Toshkent, 2021.

6. Abduqodirov A. A., Pardayev A. X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti: monografiya. – Toshkent: Fan, 2009. – 145 b.

7. Abduqodirov A. A., Toshtemirov D. E. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi: monografiya. – Guliston: Universitet, 2019. – 123 b.

8. Begimqulov U. Sh. va boshq. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti: monografiya. – Toshkent: Fan, 2011. – 208 b.

9. Tursunov X. I. «Qashqar rubob ijrochiligi» mobil ilovasi. – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2023-yil 11-yanvarda DGU 21749-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

10. Tursunov X. I. Musiqa san’atining pedagogik shakllanish jarayonlari // Diversity Research: Journal of Analysis and Trends. – 2024. – Vol. 2, Issue 4.

11. Tursunov X. I. Historical pedagogical content and characteristics of dutor instrument performance // Pedagogical Cluster: Journal of Pedagogical Developments. – Krakow, 2024. – Vol. 2, Issue 5. – P. 310–316.

12. Bloom B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans Green, 1956. – 207 p.

13. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

14. Mayer R. E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 184 p.

15. Wood D., Bruner J. S., Ross G. The role of tutoring in problem solving // Journal of Child Psychology and Psychiatry. – 1976. – Vol. 17, No. 2. – P. 89–100.

16. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9, No. 5. – P. 1–6.

17. Jonassen D. H. Computers in the Classroom: Mindtools for Critical Thinking. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1996. – 221 p.

18. Sweller J. Cognitive load during problem solving: Effects on learning // Cognitive Science. – 1988. – Vol. 12, No. 2. – P. 257–285.

19. Prensky M. Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2010. – 219 p.

20. Маханёк Н. Б. Музыкально-компьютерные технологии в основном и дополнительном образовании // Сборник трудов научной конференции СГАКИ. – Самара, 2006. – С. 114–118.

Suleymanova To'xtaxon Gaynazarovna
Andijon davlat universiteti, Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi, dotsenti
E-mail: tuxtaxon.suleymanova@gmail.com

O'SMIRLAR QADRIYATLARI TIZIMINI SHAKLLANISHIDA MEDIA MANIPULYATSIYANING IJTIMOIY PSIXOLOGIK TA'SIR USUL VA VOSITALARI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy axborotlashgan jamiyatda o'smir yoshlar qadriyatlar tizimining transformatsiyalashuvi va unga media-manipulyativ texnologiyalarning ta'siri ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar hayotiy maqsadlarini belgilashdagi dominant roli hamda virtual muhitning shaxs ijtimoiylashuviga ta'siri ochib berilgan. Empirik o'rganishlar natijasida o'smirlarda axborot-psixologik himoya mexanizmlarining shakllanganlik darajasi va buning oqibatida qadriyatlar ierarxiyasida pragmatik yo'nalishlarning ma'naviy-axloqiy mezonlardan ustun kelishi o'rtasidagi bog'liqlik asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *qadriyatlar transformatsiyasi, media-manipulyatsiya, axborot-psixologik xavfsizlik, psixologik immunitet, tanqidiy fikrlash, virtual reallik, mediasavodxonlik*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И СРЕДСТВА МЕДИА-МАНИПУЛЯЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ СИСТЕМЫ ЦЕННОСТЕЙ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье с социально-психологической точки зрения проанализировано трансформирование системы ценностей подростков в условиях современного информационного общества, а также влияние на данный процесс медиаманипулятивных технологий. В ходе исследования раскрыта доминирующая роль интернета и социальных сетей в определении жизненных целей подростков, а также влияние виртуальной среды на процесс социализации личности. На основе эмпирических данных обоснована взаимосвязь между уровнем сформированности механизмов информационно-психологической защиты у подростков и преобладанием прагматических ориентаций над духовно-нравственными ценностями в их ценностной иерархии.*

Ключевые слова: *трансформация ценностей, медиаманипуляция, информационно-психологическая безопасность, психологический иммунитет, критическое мышление, виртуальная реальность, медиаграмотность.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL METHODS AND MEANS OF MEDIA MANIPULATION IN THE FORMATION OF THE VALUE SYSTEM OF MODERN ADOLESCENTS

Abstract. *The article provides a socio-psychological analysis of the transformation of the value system in modern adolescents and the impact of media-manipulative technologies in today's information-driven society. The study reveals the dominant role of the Internet and social networks in defining the life goals of adolescents, as well as the influence of the virtual environment on personal socialization. Based on empirical research, the correlation between the level of adolescents' information-psychological protection mechanisms and the resulting prevalence of pragmatic orientations over spiritual-moral criteria in the hierarchy of values is substantiated.*

Key words: *transformation of values, media manipulation, information-psychological security, psychological immunity, critical thinking, virtual reality, media literacy.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli axborot makoni kengayib borayotgan sharoitda o'smirlar ongiga turli axborot ta'sirlari, jumladan, axborot manipulyatsiyasi xavfi tobora ortib bormoqda. Axborot oqimining nazoratsizligi va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan ta'sirchan kontentlar o'smirlarning qadriyatlar tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarimizni turli zararli g'oyalar va axborot xurujlaridan himoya qilish, ularning mustaqil fikrlaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan shaxslar etib tarbiyalash - eng muhim vazifalarimizdan biridir."

O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni hamda Prezidentning sohaga oid farmon va qarorlarida yoshlarni axborot-psixologik xurujlardan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlik madaniyatini yuksaltirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Zero, globallashuv sharoitida o'smirlarning qadriyatlar tizimi nafaqat oila yoki maktab, balki shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli jamiyat ta'sirida shakllanib bormoqda. [1,2]

Zamonaviy jamiyatda yoshlarda qadriyatlar tizimi shakllanishiga ommaviy axborot vositalari ahamiyatli ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, media muhit o'smir shaxsining ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtirish bilan birga, unda sun'iy ehtiyojlarni ham shakllantirmoqda

Jaxon sog'likni saqlash tashkiloti Yevropa mintaqaviy byurosining yangi ma'lumotlari o'smirlar o'rtasida ijtimoiy mediadan muammoli foydalanish ko'rsatkichlari keskin oshganini ko'rsatmoqda: 2018 yildagi 7% dan 2025 yilda 11% gacha. Bundan tashqari, o'smirlarning 12 foizi raqamli o'yinlarga nisbatan muammoli xulq-atvor xavfi ostida. Bularning barchasi raqamli texnologiyalarning yoshlar ruhiy salomatligi va shaxs xususiyatlarini shakllanishida jiddiy ta'sir etishi jiddiy xavotir uyg'otmoqda. [9]

Qadriyatlar shaxs ichki dunyosining asosi va uning faoliyatini yo'naltiruvchi eng muhim tuzilma bo'lib, shaxsning dunyoga, o'z-o'ziga va atrofdagilarga bo'lgan munosabatini belgilab beruvchi barqaror ichki mezonlar majmuidir.

Zamonaviy jamiyatda o'smir yoshlarda qadriyatlar tizimi shakllanishiga ommaviy axborot vositalari axamiyatli ta'sir ko'rsatib kelmoqda

Ayniqsa, internet va televidenie o'smir shaxsning shakllanishida ulkan rol o'ynaydi. Ular yoshlarning madaniyatini, qadriyatlarini va hatto hayot tarzini belgilab beradi.

Bugungi kunda «axborot» - turli signallar va belgilar yordamida tashqi dunyoni aks ettirishning asosiy usullaridan biridir. «Kim axborotga egalik qilsa - u dunyoga egalik qiladi», deb bejiz aytishmaydi. [5]

Qadriyatlarning shakllanishi murakkab psixologik jarayon bo'lib, u asosan interiorizatsiya orqali amalga oshadi. Bu jarayonda jamiyatda mavjud bo'lgan tashqi axloqiy me'yorlar, an'analar va qoidalar insonning ichki ishonchiga aylanadi. Bunda oilaviy tarbiya, ta'lim dargohlari va ijtimoiy muhitning o'rni beqiyos. Ayniqsa, o'smirlik davrida qadriyatlar tizimi kuchli transformatsiyaga uchraydi; bu yoshda inson tayyor qoliplarni shunchaki qabul qilmay, ularni tahlil qiladi va o'zi uchun muhim bo'lgan shaxsiy ideallarni tanlab oladi. Qadriyatlar - bu shaxs faolligining yo'nalishi va mazmunini tavsiflovchi murakkab ijtimoiy fenomen . [7]

Qadriyatlar shaxs munosabatlari tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi, insonning dunyoga va o'ziga bo'lgan umumiy yondashuvini belgilaydi, shaxsiy pozitsiyalariga, xulq-atvoriga va xatti-harakatlariga ma'no va yo'nalish beradi.

An'anaviy qadriyatlar odamlarning o'zaro shaxslararo muloqoti, ularning ishda, uyda va sayohatlardagi aloqalari asosida shakllangan bo'lsa, hozirgi vaqtda axborot izlash va olish uchun uydan chiqish shart emas. Internet zamoanviy jamiyatimizda eng kengt tarqalgan eng ommaviy axborot vositasi sanaladi Unda yangiliklar har daqiqada yangilanib turadi, bundan tashqari axborotni televidenie, radio, ko'plab gazeta va jurnallar yetkazib beradi.

Muammoni o'rganilganlik xolati Jasmina Rokich tadqiqotilarida smartfon foydalanishi va o'smirlarning o'z-o'zini baxolash hissi o'rtasida murakkab bog'lanishlar bor deb ta'kidlagan .

Irina Zaxarchenkonning tadqiqoti internet faolligi yuqori bo'lgan o'smirlar qimmatlar ierarxiyasida boshqa guruhlarga nisbatan pragmatik (amaliy) qadriyatlarni ko'proq afzal ko'rishi va ijtimoiy hamkorlik qadriyatlarini kamroq e'tirof etishi to'g'risida xulosa qilgan. Bu qimmatlar tizimi va raqamli faollik o'rtasida aniq bog'liqlik borligini ko'rsatadi.

M.V. Maksheeva o'smirlarning rakamli jamiyatda axloqiy ongi va qadriyatlarini shakllantirish masalasi o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shunday ko'rsatdiki Raqamli muhitda o'smirlar bilan ishlashda axloqiy qadriyatlarni shakllantiish masalasi aloxida e'tibor berish zarur

Ye.Volkova va G.Sorokuumovaning tadqiqotida o'smirlarning raqamli jamiyatda ijtimoiylashuvi va sub'ektiv sog'lomlik mezonlari tahlil qilingan.Ularning taxlil qilishicha, raqamli muhitda onlayn faollik ularning ijtimoiy rivojlanishi va qadriyatlar tizimiga axamiyatli ta'sir ko'rsatishi isbotlangan

D Sag'dullaevnaning internet madaniyatining o'smirlar ma'naviy ongi va axloqiy qadriyatlariga ta'sirini tahlil qilgan

U.Jumaboyev O'smirlarning virtual muhit qadriyatlari shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, deydi.O'smirlar virtual jamoalarda ijobiy ijtimoiy tasdiq olishga harakat qiladi va bu holat ko'pincha an'anaviy madaniyat va qadriyatlar bilan zid keladi

F.Boymurodova , B. Norbekovalar o'smirlar Kun davomida ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazish - depressiya, xavotir va o'z-o'zini past baholashga sabab bo'lshishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Metodlar. Tadqiqotimizda 9-sinf o‘quvchilaridan iborat 58 nafar sinaluvchi bilan tajriba-sinov ishlari olib borildi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, sinaluvchilar ommaviy axborot vositalarining (televidenie, internet, bosma nashrlar) salbiy ta’siri mavjudligini tan oldilar. Shu bilan birga, ular ushbu ta’sirga ma’lum darajada berilib ketayotganliklari hamda ko‘pincha uning oqibatlarini yetarli darajada anglamayotganliklari aniqlandi.

Tadqiqot doirasida ommaviy axborot vositalarining yoshlar qadriyatlariga ta’sirini aniqlash maqsadida bir qator psixologik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida o‘smirlarning kundalik axborot iste’moli o‘rganildi.

Tadqiqotning keyingi bosqichlarida quyidagi metodikalar qo‘llanildi:

N. Akramovaning Shaxsning axborot-psixologik himoyalanganlik darajasini baholash metodikasi

Mazkur metodika o‘smirlarning shaxsiy qadriyatlari, ijtimoiy yo‘nalishlari va axloqiy qarashlarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu metodika yordamida sinaluvchilarning jamiyatdagi me’yorlarga munosabati, o‘z-o‘zini baholash darajasi hamda ijtimoiy moslashuv xususiyatlari o‘rganildi.

Milton Rokich qadriyatlar yo‘nalishi metodikasi Ushbu metodika orqali o‘smirlarning terminal (hayotiy maqsadlar) va instrumental (xulq-atvor me’yorlari) qadriyatlari tizimi o‘rganildi. Sinaluvchilarga qadriyatlar ro‘yxati berilib, ularni ahamiyatiga ko‘ra tartiblash taklif etildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdi-ki, 11-sinf o’quvchilari uchun asosiy ijtimoiylashuv omili an’anaviy ijtimoiy institutlar (oila, maktab) emas, balki internet va raqamli media muhitining ahamiyatliluk darajasi yuqori bo’lib qolmoqda. Axborot iste’molining 90% dan ortig’i ijtimoiy tarmoqlar va videoplatformalar hissasiga to’g’ri kelishi, o’smirlarning dunyoqarashi algoritmlar va virtual trendlar asosida shakllanayotganini anglatadi.

58 nafar bitiruvchi sinf o’quvchilari ishtirokida o’tkazilgan eksperiment yoshlarning axborotni saralashda psixologik jihatdan himoyalanmaganini tasdiqladi. Sinaluvchilarning 68 foizi emotsional va manipulyativ xabarlarga tez ishonishi, ularda tanqidiy fikrlash ko’nikmasi yetarlicha shakllanmaganidan dalolat beradi. Bu esa o’smirlarning yot g’oyalar va sun’iy qadriyatlar ta’siriga tushib qolish xavfini oshiradi.

O’smirlar axborot iste’moli manba’alari (58 nafar)

58 nafar o’smirlar ishtirok etgan tadqiqot natijalariga ko’ra, ularning axborot iste’moli manbalari orasida asosiy o’rinni ijtimoiy tarmoqlar va videoplatformalar egallaydi

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, o‘smirlarning 92 foizi asosiy axborot manbai sifatida ijtimoiy tarmoqlar va videoplatformalarni (Instagram, TikTok, YouTube) ko‘rsatgan. Televidenie esa faqat 8 foiz sinaluvchilar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich o‘smirlar hayotida gadjetlar va raqamli axborot vositalarining ustuvor o‘rin egallayotganligini ko‘rsatadi. Bosma nashrlarning ahamiyati deyarli aniqlanmadi.

Bosma nashrlar o'smirlar orasida umuman axamiyat kasb etmaydi Sinaluvchilar r ushbu axborot manbaiga nisbatan qiziqish bilmadilar So'rovnoma natijasida olingan natijalar o'smirlar axborot makonida raqamli platformalar mutlaq ustunlikka ega ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida N. Akramovaning Shaxsning axborot-psixologik himoyalanganlik darajasini baholash metodikasi qo'llanildi [5].

Tadqiqotning ushbu qismida o'smirlarning media-manipulyatsiyalarga qarshi tura olish imkoniyatlari quyidagicha taqsimlandi

Tadqiqotda ishtirok etgan 20 nafar sinaluvchilarda (34%) axborot ximoya ko'rsatkchilari pst darajasini aniqlandi. Ushbu o'smirlarda ijtimoiy tarmoqlardagi blogerlarning hayot tarzini ideallashtiradi va axborotni tekshirmaydilar.

13 nafar o'smirlarda (22%) o'rta daraja aniqlandi Ushbu ko'rsatkichgga ega bo'lgan o'smirlar axborotni qabul qilishda qisman shubha bilan yondoshadilar.

26 nafar sinaluvchilarda (44%) yuqori daraja aniqlandi Ushbu o'smirlar Tanqidiy va mutaqil fikrlovchi, ichki «Men»i mustahkam va manipulyatsiyalarni ajrata oladilar Mustaqil fikrlash qobiliyatga egadirlar .

Tadqiqiotning uchinchi bosqichida terminal qadriyatlari Rokeach metodikasi asosida o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra, sinaluvchilarning aksariyati moddiy ta'minlangan hayotni ustuvor qadriyat sifatida belgilagan bo'lib, bu ko'rsatkich 43 nafar (74%) ni tashkil etdi. Bu holat reklama va blogerlar tomonidan shakllantirilayotgan manipulyativ "ideal hayot" obrazlari ta'siri bilan izohlanadi.

Shuningdek, 36 nafar (62%) sinaluvchi uchun ijtimoiy tan olinish va obro' muhim qadriyat sifatida qayd etildi. Bu esa asosan ijtimoiy tarmoqlardagi "layk", kuzatuvchilar soni va mashhurlik bilan bog'liq manipulyativ ta'sirlar natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

30 nafar (51%) ishtirokchi qiziqarli ish va kasbiy o'sishni muhim deb hisoblagan. Biroq bu ko'rsatkich ham ko'pincha yuzaki kasbiy trendlar va ommaviy axborot vositalari orqali shakllanayotgan stereotiplar ta'sirida yuzaga kelmoqda.

Oilaviy baxt va yaqinlar qadriyati esa nisbatan pastroq natijani ko'rsatib, 22 nafar (38%) sinaluvchini tashkil etdi. Bu holat zamonaviy media makonida mazkur qadriyatlarning yetarlicha yoritilmayotgani bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Eng past ko'rsatkich ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishga tegishli bo'lib, uni atigi 14 nafar (24%) sinaluvchi muhim deb baholagan. Bu esa jamiyatda ijodiy faoliyat ko'pincha ikkinchi darajali deb qabul qilinayotganini ko'rsatadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ko'plab o'smirlar orasida moddiy farovonlik, mashhurlik va erkinlik kabi qadriyatlar yuqori o'rin egallagan bo'lsa, an'anaviy qadriyatlar (masalan, ma'naviyat, jamiyatga foyda keltirish) nisbatan pastroq o'rinlarda qayd etildi.

Muhokama va tahlil. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'smirlar qadriyatlariga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida internet (72%) e'tirof etildi. Televideniening ta'siri esa bor-yo'g'i 8%ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayoni asosan nazorat qilib bo'lmaydigan virtual makonda kechishi anglatadi. Ijtimoiy makonda manipulyativ ta'sir obrazlari (blogerlar, vaynerlar va sun'iy trendlar) o'smirlarning hayotiy maqsadlarini moddiy boylik va yuzaki mashhurlikka yo'naltirmoqda..

Axborot muhiti va ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ obrazlar ta'sirida o'smirlarning maqsadlari quyidagicha taqsimlandi (o'rtacha rang ko'rsatkichi bo'yicha):

Axborot-psixologik himoya ko'rsatkichlari metodikasi bo'yicha Past darajadagi ko'rsatkich 48% sinaluvchilarda Ushbu guruhdagi o'smirlar media muhitdagi har qanday ma'lumotni tanqidiy tahlil qilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishga moyildirlar. Ular uchun ijtimoiy tarmoqlardagi mashhur shaxslar va blogerlarning hayot tarzi «etalon» (namuna) sifatida xizmat qiladi. Bu esa o'smirlarda o'z-o'ziga bo'lgan bahoning pasayishiga va virtual dunyodagi sun'iy qadriyatlarning (hashamat, yengil daromad, yuzaki obro') ustuvorligiga olib keladi. Psixologik jihatdan bu guruh manipulyativ ta'sirlarga eng zaif qatlam hisoblanib, ularda axborotni saralash filьtrlari mavjud emas.

O’rta daraja ko’rsatkichlar 22% foiz respontlarda aniqlangan sinaluvchi Bu darajadagi o’smirlarda axborotga nisbatan qisman shubha bilan qarash va uni qayta ishlash ko’nikmalari kuzatiladi. Ular axborotning yolg’on yoki manipulyativ bo’lishi mumkinligini anglaydilar, biroq hissiy (emotsional) jihatdan kuchli berilgan kontentlarga (masalan, ta’sirli videoroliklar, vizual effektlar) duch kelganda o’z himoya pozitsiyalarini yo’qotadilar. Ularning qadriyatlar tizimi hali barqaror emas, vaziyatga qarab tashqi ta’sirlarga moslashishi yoki ikkilanishi mumkin.

Tadqiqotda ishtirok etgan 44% responetlarda axborot-psixologik himoyaning yuqori darajasi qayd etildi. Bu o’smirlar mustahkam ichki «Men» kontseptsiyasiga va rivojlangan tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega. Ular axborotni qabul qilishda uning manbasi, maqsadi va yashirin ma’nolarini anglashga harakat qiladilar. Manipulyativ usullarni tez payqaydilar va o’zlarining ichki qadriyatlarini tashqi axborot hujumlaridan mustaqil ravishda himoya qila oladilar.Ushbu toifadagi o’smirlarda axborot iste’moli madaniyati shakllangan

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘smirlar qadriyatlar tizimining shakllanishida eng asosiy omil sifatida an’anaviy ijtimoiy institutlar (oila va maktab) emas, balki raqamli media va ijtimoiy tarmoqlar ustunlik qilmoqda. Internet va virtual platformalar o‘smirlarning dunyoqarashi, hayotiy maqsadlari hamda qadriyatlar ierarxiyasini shakllantiruvchi yetakchi manbaga aylangan.

Tadqiqot davomida o‘smirlarning muhim qismi media-manipulyatsion ta’sirlarga nisbatan zaif ekani, ularning katta ulushi axborotni tanqidiy tahlil qilmasdan qabul qilishi aniqlandi. Natijada moddiy farovonlik, mashhurlik va virtual obro‘ kabi qadriyatlar ustuvorlik kasb etib, an’anaviy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar nisbatan orqada qolmoqda. Shu bilan birga, o‘smirlarning bir qismida yuqori darajadagi axborot-psixologik himoya va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari shakllangan bo‘lib, ular manipulyativ ta’sirlarga nisbatan barqaror pozitsiyani saqlay oladi.

O’smirlarda tanqidiy va mustaqil fikrlash va mediasavodxonlik ko’nikmalarini shakllantirish orqali ularning psixologik immunitetini mustahkamlash zarur .

SHuningdek :

O’smirlarning psixologik immunitetini oshirish, axborot iste’moli madaniyati shakllantirishga qaratilgan ijtimoy psixologik treninglar tashkil etish; . [9,10]

Milliy qadriyatlarga asoslangan, zamonaviy va o’smirlar uchun emotsional jozibador bo’lgan media-kontentlar ishlab chiqarishni darajasida qo’llab-quvvatlash.

Yoshlarining qadriyatlarini shakllantirishni optimallashtirish uchun bevosita ishtirok etishga va ko’rishga jalb qiluvchi tok-shoular yaratish maqsadga muvofiq

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni. – 2016-yil 14-sentabr. – O‘RQ-406-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. – Toshkent, 2021.

3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

4. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 400 b.

5. Akramova N. A. Axborot-psixologik xavfsizlik va mediasavodxonlik madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019. – 160 b.

6. Boymurodova F., Norbekova B. O‘smirlarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning psixologik xususiyatlari // Psixologiya. – 2021. – № 3. – B. 45–49.

7. Волкова Е. Н., Сорокумова Г. В. Психологическое благополучие подростков в цифровом обществе // Психологическая наука и образование. – 2020. – № 2. – С. 15–22.

8. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2012. – 256 b.

Samadova Sarvinoz Samad qizi
Buxoro davlat universiteti
Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ABDURAUF FITRATNING MA`NAVIY-AXLOQIY QARASHLARI VA JADID PEDAGOGIKASIGA QO`SHGAN HISSASI.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mashhur jadid ma`rifatchisi, adib va pedagog Abdurauf Fitratning ma`naviy-axloqiy qarashlari va uning jadid pedagogikasi taraqqiyotiga qo`shgan hissasi yoritilgan. Fitratning ma`rifatparvarlik faoliyati, inson kamoloti, axloqiy tarbiya va zamonaviy ta`lim usullariga oid fikrlari tahlil qilingan. Uning darsliklar yaratishdagi sa`y-harakati va pedagogik tajribalari jadid maktablarini rivojlantirishda asos bo`lganligi ta`kidlangan.*

***Kalit so`zlar:*** *Abdurauf Fitrat, axloqiy tarbiya, milliy uyg`onish, o`zlikni anglash, “Rahbari Najot”, “Oila”, “Munozara”.*

ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ АБДУРАУФА ФИТРАТА И ЕГО ВКЛАД В ДЖАДИДСКУЮ ПЕДАГОГИКУ

Аннотация. *В данной статье освещаются духовно-нравственные взгляды известного джадидского просветителя, писателя и педагога Абдурауфа Фитрата, а также его вклад в развитие джадидской педагогики. Проанализированы просветительская деятельность Фитрата, его взгляды на совершенствование личности, нравственное воспитание и современные методы обучения. Подчеркивается, что его усилия по созданию учебников и педагогический опыт послужили основой для развития джадидских школ.*

Ключевые слова: *Абдурауф Фитрат, нравственное воспитание, национальное возрождение, самосознание, «Рахбари Наджот», «Оила», «Мунозара».*

THE SPIRITUAL- MORAL VIEWS OF ABDURAUF FITRAT AND HIS CONTRIBUTION TO JADID PEDAGOGY

Abstract. *This article examines the spiritual and moral views of the well-known Jadid enlightener, writer, and educator Abdurauf Fitrat, as well as his contribution to the development of Jadid pedagogy. The study analyzes Fitrat’s educational activities, his ideas on human development, moral upbringing, and modern teaching methods. It is emphasized that his efforts in creating textbooks and his pedagogical experience served as a foundation for the development of Jadid schools.*

Key words: *Abdurauf Fitrat, moral education, national awakening, self-awareness, “Rahbari Najot,” “Oila,” “Munozara.”*

Kirish. Fitrat inson shaxsini tarbiyalash uchun kurashgan mohir pedagogdir. U millatparvarlik va vatanparvarlik haqidagi qadriyatlarga tayanib, shunday ta’limot yaratdiki, bu ta’limot bugungi kunimizda vatanparvarlik mafkurasini yaratish va yoshlarni vatanni, millatni sevishga o‘rgatishda muhim qo‘llanma bo‘la oladi. Fitrat vatan, vatanparvarlik va insonparvarlikni eng yuksak axloqiy xislat deb bilib, kishilarni uni asrashga, unga sidqi dildan xizmat qilishga chaqiradi. Fitrat ijodiyotidagi eng muhim masalalardan biri uning islom dini g‘oyalarini har taraflama chuqur o‘rganib, tahlil etib, ulardan komil insonni imon-e’tiqod va insofli qilib tarbiyalashda foydalanishni targ‘ib qilganligidir.

Abdurauf Fitrat barkamol inson tarbiyasida axloqiy tarbiyaning o‘rni juda katta deb biladi. Uning fikricha, axloqiy tarbiyaning vazifasi insonni axloqiy barkamol, barchaga foydali inson qilib tarbiyalashdan iborat. U hikmat, iffat, shijoat va adolatni asosiy axloqiy sifatlar deb hisoblaydi. Fitrat bolalar tarbiyani o‘zi yashayotgan atrof-muhit va atrofidagi bolalardan olishlarini ta’kidlaydi. U ijtimoiy muhitning bola tarbiyasiga katta ta’sir o‘tkazishini isbotlab beradi. Fitrat

o‘zining asarida: “Dunyoda izzat va saodat tolibi bo‘lmagan birorta qavm yo‘q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalariningintizomiga tayanadi”, - deya yozadi Fitrat inson kamolotga yetishishi uchun doimo intilishi, harakat qilishi lozimligi, doim oldiga maqsadlar qo‘yishi va unga erishish uchun kurashishi kerakligini uqtiradi.

Fitrat axloqi buzuq kishilarni maktabda muallimlik vazifasidagina emas, balki maktab qorovulligiga ham yaqinlashtirmaslikni juda to‘g‘ri harakat deb biladi. U o‘z asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, ozodlik, mehnatsevarlik, maqsad sari intilish, insonlarga mehr shafqatli bo‘lish, o‘z manfaatidan xalq manfaatini ustun qo‘yish g‘oyalarini ulug‘laydi.

Asosiy qism. Abdurauf Fitrat xalqni ma’rifatli qilishda ta’lim- tarbiya masalari juda muhim deb hisoblagan. Fitrat o‘z asarlarida Buxorodagi barcha maktablarni keltirib o‘tadi, ammo ta’lim-tarbiya berish axloqiy sifatlarni shakllantirishda hech qanday ahamiyati qolmaganini aytib o‘tgan. Fitrat maktabni tarbiya o‘chog‘i deb hisoblagan, maktabni jamiyat hayotini rivojini ta’minlovchi asosiy manbalardan biri ekanligini ta’kidlagan. Maktab bolalarga tarbiya berib, jamiyatdagi buzuqliklar, o‘g‘irlik, razolatni yo‘qotishi lozim deb biladi. Fitrat darsliklarida ko‘plab hikoyalar keltiradi, bu hikoyalarda axloqiy tarbiya berishga va turli axloqiy xislatlarni singdirishga harakat qiladi.

Asrimiz boshlarida xalqimiz tarixida yangi davr – Milliy uyg’onish, o’zlikni anglash boshlanadi. Bu harakatni boshida jadidlar turdilar. Jadidlar yangilik tarafdorlari va targ’ibotchilari sifatida maydonga chiqdilar. Turkiston jadidchilik harakatining namoyondalari ma’rifatparvar kishilar edi. Ma’rifatparvar keng ma’noda bilim tarqatuvchi kishilar hisoblanadi. Siyosiy ma’noda ma’rifatparvarlik millatni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g’oyalarini ilgari surish bilan ifodalanadi. Shuning uchun xalqni ozodlikka ozodlikka eltuvchi yo’l bu – xalqni ma’rifatli qilish deb bildi. Shu jumladan, Cho’lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy singari jadidlar ijodiga nazar tashlasak, ularning o’z asarlari bilan mustamlaka sharoitida yashayotgan millatga nima kerakligini baland ovoz bilan aytganlarini ko’ramiz.Ular qoloqlik va nodonlikka, zulm va zo’ravonlikka qarshi, milliy birlik va taraqqiyot, erk va hurriyat uchun kurashning qudratli quroli ma’rifat ekanini anglab yetganiga guvoh bo’lamiz. Jadid mutafakkiri Fitratning shu davrlarda yaratilgan asarlari publisistikasining, dramachilikning nodir namunalaridan bo‘lib qolgan.

“Rahbari najot” , “Oila”, “Begijon”, “Mavludi sharif”, “Abu Muslim” “Munozara” kabi asarlari yuqoridagi fikrizmiga namuna bo’la oladi. Bu asarlar ichida eng durdonasi va o’sha davrda usuli jadid maktablarining zarurati hamda buxorolik islohotchilar bilan qadimchilar o’rtasidagi tortishuvlarga nuqta qo’ytish uchun adib tomonidan yozilgan asar “Munozara” edi. U 1909- yilda nashr qilingan. Bu asarda tarixiy taraqqiyotning ikki pog‘onasida turib qolgan din va dunyo, jamiyat va ma’rifat haqida ikki xil qarashga ega bo‘lgan ikki kishining bahsi asosiga qurilgan edi. “Munozara” asari Buxoro amirligida ta’qiqlab qo‘yilishiga qaramasdan, turli yo‘llar bilan Buxoroga olib kelinib,keng tarqaladi [1.5].

Uning ijodiy ishlari va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat, turg‘unlik, g‘aflatdan uyg‘otish, ilm-ma’rifatga chorlash, erkin, ozod, baxt-saodatli hayotga, birinchi navbatda milliy mustaqillikka chorlashga qaratilgan edi. U o‘zbekning o‘zligini tanishi, ota-bobolari kabi ulug‘vor kashfiyotlar qilishga, birlashgan, kuchli, qudratli davlat tuzishga va dunyoning ilg‘or madaniy mamlakatlariga etib olishga chaqirdi. Butun ijodining mohiyati xalqning qalb ko‘zini ochishga va mehnat, yaratish, o‘qish-unish, kurashga da’vatdan iboratdir.

Fitrat davrining barcha ziyolilari singari u islom sivilizatsiyasining oltin davrlarini yoritib, jahon taraqqiyotidan orqada qolish sabablarini o‘rgandi va bu yo‘nalishda muhim takliflar berdi, bularning barchasi ta’lim islohotiga asoslangan edi. Madrasa bitiruvchisi, ziyoratchi va Istanbuldagi islomiy ziyolilarning yaqin izdoshi sifatida u Islomning to‘g‘ri amaliyoti modernizatsiyaga hech qanday to‘sqinlik qilmasligini ko‘rsatishga harakat qildi. Istanbulda yozgan barcha asarlarida u Qur'on va Hadislardan iqtibos keltirgan va Jadid maktablarining hech qanday tarzda Islomga zid emasligini ta'kidlagan.

Chunki o‘sha paytda Buxoroda diniy ulamolarning nufuzi shunchalik kuchli ediki, ular harom deb bilgan hamma narsa jamiyat tomonidan harom sanalardi. Ular yangi maktablarning

barcha faoliyati va ularning faoliyatini taqiqlangan deb hisobladilar. 1327-yilning 10-ramazonida (1909-yil 25-sentyabr) [2.212] birinchi marta maktabning rasmiy yopilishi rasman e'lon qilindi. 1913 yilda yopilish masalalari yana kun tartibiga qo'yildi va keyinchalik yangi maktablar tomonidan tashkil etilgan o'nlab yangi maktablar yopilishi haqida buyruq berildi. "Buxoro-i sharif" va "Turon" gazetalari ham o'sha yili to'xtatilgan edi.

XX asrning 20-30 yillarida jadid-ma'rifatparvarlari o'ziga xos pedagogik ta'limotni yaratdilar. Ushbu ta'limotning mohiyati esa, bolalarni milliy ruhda ma'rifatli qilib tarbiyalash, ularni xalqorzu-umidlarini oqlay oladigan shaxs bo'lib voyaga yetishishlarida ko'maklashish, shular asosida yurtni mustaqillikka olib chiqish g'oyasidan iborat bo'lgan. Bunga erishishda ta'lim jarayonining asosiy vositasi bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarining o'rni kattadir. Shu nuqtai nazardan ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat o'z pedagogik faoliyati davomida bir qator darslik hamda o'quv qo'llanmalari yaratdi.

1914-1917 yillarda Fitrat nafaqat "Usul-i Jadid" maktablarini rivojlantirdi, balki doimiy tahririyat ishlarini ham olib bordi. Istanbulda bo'lganida o'zi yozgan asarlarini nashr eta boshladi. Jumladan, 1914 yilda uning "Mevlut-i Sharif Yahut Muraati Hayrul-bashar" asari Toshkentda nashr etilgan. O'sha yili uning "Muxtasar-i Tarix-i Islom"i Samarqandda nashr etildi. 1915-yilda Petrogradda Gaspirali Ismoil bekning "G'animat Diyor" asarining forscha tarjimasi "Musulmani Daru'r-rahat" nomi bilan nashr etilgan. Bu kitob bilan birga yana bir asari "Rahbar-i Najot" ham 1915 yilda Petrogradda nashr etilgan. Fitrat ushbu pedagogikaga oid asarida fanlar tasnifini keltiradi. Mazkur asar, yozuvchi Oybekning aytishicha, "maktab o'quvchilari uchun go'zal qo'llanma bo'lgan".

Uning "Adabiyot qoidalari" o'quv qo'llanmasi san'atga berilgan ta'rif bilan boshlanadi. Mazkur ta'rif san'atga ijtimoiy ong shakllaridan biri deb qaragan ma'lum nazariyani takrorlamaydi. Chunki Fitrat san'atni bir yoqlama mafkuraviy nigoh bilan tahlil etish, uning boy imkoniyatlarini cheklab qo'yishini yaxshi tushunadi. U darslikda san'atning ijtimoiy roliga ko'p to'xtalmagan bo'lsada, "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 1927 yil 5-sonida bunga "San'atning manshai" maqolasida batafsil so'z yuritadi.

Fitrat "Adabiyot qoidalari" gacha bir qator tadqiqotlarni amalga oshirgan, adabiyotshunoslikda voqea bo'lib qolgan maqolalar yozgan. U 1917 yil "O'quv. Ibtidoiy maktablarning so'ng sinf o'quvchilari uchun" (Boku) darsligini yozdi, unda adabiyotning eng umumiy va asosiy jihatlarini bayon etdi [5.24].

Serqirra ilmlar sohibi A.Fitrat 1925 yilda "Sarf" ("Morfologiya") va "Nahv" ("Sintaksis") nomli darsliklar yaratdi. Yuqoridagi ikkala darslik ham o'quvchilarga o'zbek tili qoidalari haqida batafsil ma'lumot berish uchun tuzilgan. Ushbu darsliklar 1929 yil qayta nashr qilangan.

Fitrat 1921-yil 9-martda Buxoroga taklif qilinadi. Ilk asarlaridanoq ta'lim-tarbiyani isloh qilish bo'yicha munozara va yechimlar taklif qilgan ziyoli Buxoro xalq kengashining maorif vaziri etib tayinlanadi. 1922-yil 26-aprelda Xalq Vazirlar Kengashi raisining o'rinbosari, Buxoro Vazirlar Soveti qoshidagi Plan-byudjetni belgilash qo'mitasining raisi etib saylandi. 1922-yil 19-sentabrdan turli lavozimlarda, jumladan, tashqi ishlar vaziri, Xalq xo'jaligi kengashi raisi; 1922-yil 9-noyabrdan esa Xalq Vazirlari Kengashining Vasiylik kengashi raisi [3.65]. U egallab turgan har bir lavozimda respublikaning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Fitrat tashabbusi bilan Buxoroda Sharq musiqa maktabi ochildi [4.361]. Ma'lumki, bu maktab o'tgan asrning 90-yillarida ham o'z faoliyatini davom ettirgan.

1921-yilda Buxoro ilmiy markazi tashkil etildi. Tarixiy merosni asrab-avaylash, san'atni rivojlantirish, ilm-fan tarixiga oid qo'lyozmalar, arxeologik ashyolar, xalq adabiyotini to'plash kabi loyihalar yo'lga qo'yildi. Bu yerda ham Fitratning yetakchiligi yaqqol ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurrauf Fitrat umri davomida turli soha va makonlarda siyosiy, ilmiy, adabiy va pedagogik faoliyat bilan shug'ullangan. Uning ikki yuzdan ortiq katta va kichik asarlari xuddi shunday turli nuqtai nazardan yozilgan. Muallif yozgan har bir mavzu xalq farovonligi va tinchligiga erishish uchun harakat bo'lib, jadidchilikning asosiy maqsadi ta'lim-tarbiyani yuksaltirish, jamiyat farovonligini oshirishda asosiy manbalardan sanalar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 320 b.
2. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. 1-tom. – Toshkent, 1963. – 256 b.
3. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. – 180 b.
4. Qosimov B. Milliy va ijtimoiy kurashlar davri adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 240 b.
5. Raximov Z. Jadid pedagogikasi: o'quv qo'llanma. – Shahrisabz, 2022. – 150 b.
6. Samadova S. S. The significance of the Jadids' scientific heritage in developing the spirituality of youth in New Uzbekistan // Intelektualitas: Jurnal Penelitian Lintas Keilmuan. – Indonesia, 2025. – Vol. 1, No. 4. – P. 25–30.
7. Samadova S. S. The issue of education and upbringing in the spiritual heritage of the Jadids of Turkestan // Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies. – 2025. – Vol. 5, Issue 1. – P. 50–55.

Komilova Muxtaram Xotamjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: muxtaramkomilova91@gmail.com

INGLIZ TILI YO‘NALISHI TALABALARINING LINGVOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tili yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar lingvokulturologik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Til va madaniyatning uzviy bog‘liqligi, kommunikativ va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarining o‘zaro ta’siri tahlil qilingan. Maqolada Chomsky va Hymes nazariy modellari asosida lingvokulturologik yondashuvning didaktik ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, mamlakatshunoslik fanida onomastik birliklardan foydalanish orqali talabalarda madaniy tafakkur va global muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologik kompetensiya, ingliz tili o‘qitish, til va madaniyat, kommunikativ kompetensiya, onomastik birliklar, mamlakatshunoslik, madaniyatlararo muloqot.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические основы развития лингвокультурологической компетенции студентов английского направления. Анализируется взаимосвязь языка и культуры, а также взаимодействие коммуникативной и межкультурной компетенций. На основе моделей Н. Хомского и Д. Хаймса обосновывается дидактическое значение лингвокультурологического подхода. Особое внимание уделяется использованию ономастических единиц на занятиях по страноведению для формирования культурного мышления и навыков глобального общения у студентов.*

Ключевые слова: *лингвокультурологическая компетенция, обучение английскому языку, язык и культура, коммуникативная компетенция, ономастические единицы, страноведение, межкультурное общение.*

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF LINGUOCULTURAL COMPETENCE OF STUDENTS MAJORING IN ENGLISH LANGUAGE

Abstract. *This article explores the theoretical foundations for developing linguocultural competence among students majoring in English. It analyzes the interrelation between language and culture, as well as the interaction between communicative and intercultural competences. Based on Chomsky’s and Hymes’ theoretical models, the study substantiates the didactic value of the linguocultural approach. Particular attention is given to the use of onomastic units in Country Studies classes as a means of fostering students’ cultural awareness and global communication skills.*

Key words: *linguocultural competence, English language teaching, language and culture, communicative competence, onomastic units, country studies, intercultural communication.*


Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli integratsiya sharoitida chet tillarini o‘qitish jarayoni an’anaviy lingvistik bilimlarni o‘z ichiga olishdan tashqari, madaniy va ijtimoiy o‘lchovlarni ham qamrab olmoqda. Ingliz tili yo‘nalishi talabalarining lingvokulturologik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’limning dolzarb masalalaridan biri sifatida ko‘zga tashlanmoqda. Bu kompetensiya tilni nafaqat aloqa vositasi, balki milliy madaniyat, qadriyatlar va mentalitet aks etuvchisi sifatida anglash qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu maqolada lingvokulturologik kompetensiyaning nazariy asoslari, uning komponentlari va ingliz tili o‘qitishdagi amaliy ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Maqsad – talabalarda madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ularning global mehnat bozoriga tayyorligini oshirish.

Lingvokulturologik kompetensiya - bu til bilan madaniyatning bir-biriga qanchalik bog‘liq ekanini tushunish va bu bilimdan to‘g‘ri foydalana olish qobiliyatidir. Ingliz tilini o‘rganishda talaba faqat grammatika yoki yangi so‘zlarni emas, balki shu til orqali ifodalanadigan tarix, an’analar va jamiyat hayotiga oid ma’nolarni ham anglay boshlaydi. Masalan, ingliz tilidagi University of Oxford yoki River Thames kabi nomlar shunchaki joy nomi emas. Ular Buyuk Britaniyaning ta’lim tizimi, tarixiy rivojlanishi va madaniy muhitiga doir muhim ma’lumotlarni ham o‘zida mujassam etadi.

Lingvokulturologiya XX asr oxirida mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy munosabatlarni o‘rganadi. Bu fan madaniyatshunoslik, etnolingvistika, tilshunoslik, sotsiologiya va psixolingvistika kabi fanlar bilan chambarchas bog‘liq. V.Telia, Y.Stepanov, A. Arutyunova, V.Vorobyov va V.Maslova kabi olimlarning ishlarida til madaniyatning asosiy ifodachisi sifatida ko‘rib chiqilgan [2]. Lingvokulturologiyaning asosiy vazifasi – til orqali madaniy kodlarni, milliy qadriyatlar va dunyoqarash elementlarini tahlil qilish.

Lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi komponentlar ajralib turadi:



Lingvokulturologik kompetensiyaning komponentlari.


Ushbu komponentlar ingliz tili o‘qitishda mamlakatshunoslik (Country Study) fani misolida qo‘llanilganda, talabalar ingliz tilidagi onomastik birliklar (joy nomlari, shaxslar) orqali madaniy kontekstni chuqurroq tushunadilar. Bu pragmatik va kommunikativ kompetensiyalarni oshirishga xizmat qiladi.

Til o‘qitish metodologiyasi tarixida kompetensiya tushunchasi turli nazariy yondashuvlar orqali talqin etilgan. N.Chomskyning “Competence and Performance” modeli til bilimini ideal so‘zlovchi-tinglovchining ichki, tug‘ma qobiliyati sifatida tushuntiradi. Bu model til tizimi va grammatik qoidalarni ishlab chiqarish va tushunish qobiliyatini izohlaydi, ammo tilning ijtimoiy va madaniy kontekstini yetarlicha yoritmaydi [3].

D.Hymes ushbu cheklovlarni bartaraf etish maqsadida kommunikativ kompetensiya tushunchasini joriy etdi. Bu model tilni ijtimoiy va madaniy kontekstda qo‘llashga urg‘u beradi, lingvistik paradigmani sotsiolingvistik yo‘nalishga kengaytiradi [4]. Lingvokulturologik kompe-

tensiya Chomsky modelini yangi bosqichga olib chiqib, talabaga til vositasida madaniyatni anglash, boshqa xalq mentalitetini tushunish va muloqot strategiyalarini madaniy norma va qadriyatlarga moslashtirish imkonini bera boshladi.

Til kompetensiyasi turlari quyidagicha tasniflanadi:



Til kompetensiyasi turlari.

Chomsky va Hymes modellarining sintezi lingvokulturologik yondashuvda talabalarni global muloqotga tayyorlaydi va madaniyatlararo tushunishni kuchaytiradi.

Xulosa. Ingliz tili yo‘nalishi talabalarining lingvokulturologik kompetensiyasini rivojlantirish til o‘qitishning yangi paradigmasini belgilaydi. Bu jarayon nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniy qadriyatlar va milliy identitetni ham shakllantiradi. Mamlakatshunoslik fani misolida onomastik birliklar orqali amaliyotga tatbiq etilganda, talabalar madaniyatlararo muloqotda muvaffaqiyatli bo‘ladilar. Kelajakda bu yo‘nalishni raqamli texnologiyalar (virtual realitiya, AI-tarjimonlar) bilan boyitish zarur. Natijada, talabalar nafaqat ingliz tilini, balki global madaniyatni o‘zlashtirgan mutaxassislar sifatida shakllanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Maslova V. Lingvokulturologiya asoslari. – Moskva: Flinta, 2018. – 256 b.
2. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965. – 251 p.
3. Hymes D. On communicative competence // Sociolinguistics / Ed. by J. B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
4. Komilova M. X. O‘zbek va ingliz antroponimlarining chog‘ishtirish masalalari // Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi. – 2024. – № 5. – B. 285–287.
5. Komilova M. X. The importance of the study of onomastic units in the learning of foreign languages // International Journal of Scientific Trends. – 2024. – Vol. 3, No. 12 (December). – P. 168–170.

Ruziyeva Muhayyo Baxtiyor qizi
Sharq universiteti o‘qituvchisi
E-mail: muhayyoruziyeva38@gmail.com

MECHANISMS OF TERMINOLOGICAL FORMATION: COMPARATIVE DERIVATIONAL SEMANTICS IN UZBEK AND ENGLISH ECOLOGY

Annotation. *This article examines the derivational and semantic principles of ecological terms in English and Uzbek from a comparative linguistics perspective. In this paper the focus is on the word formation models, the changes in meaning and the similarities and differences in the conceptualization of ecological phenomena. A corpus based descriptive comparative research method was used to analyze ecological terms in the framework of derivational mechanisms such as affixation, compounding, conversion, borrowing and semantic broadening. The analysis shows that compounding and Greco-Latin affixation are more prevalent in the ecological terms of the English language. Whereas in the ecological terms of the Uzbek language the predominant means are native affixation, calque translation and semantic adjustment. This research has a value in comparative studies of terminology and in translation studies, lexicography and environmental discourse.*

Key words*: ecological terminology, derivation, semantics, comparative linguistics, Ecolinguistics, Derivational Morphology, Uzbek Linguistics, English Scientific Terminology, Neoclassical Compounds, Environmental Policy, Lexical Borrowings.*

TERMINOLOGIK SHAKLLANISH MEXANIZMLARI: O‘ZBEK VA INGLIZ EKOLOGIYA SOHASIDA QIYOSIY DERIVATSION SEMANTIKA

Annotatsiya*. Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi ekologik terminlarning derivatsion va semantik prinsiplari qiyosiy tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganadi. Tadqiqotning maqsadi so‘z yasalish modellari, semantik o‘zgarishlar va ikki til o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashdir. Korpusga asoslangan tavsifiy-qiyosiy metod yordamida ekologik terminlar affiksatsiya, qo‘shma so‘zlar, konversiya, o‘zlashma va semantik kengayish kabi mexanizmlarga ko‘ra tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida terminologiya ko‘proq qo‘shma so‘zlar va Grek-Lotin affikslari orqali rivojlanadi, o‘zbek tilida esa milliy affikslar va semantik moslashuv yetakchi o’rinni egallaydi. Mazkur maqola qiyosiy terminologiya, tarjima va ekologik diskurs sohalariga hissa qo‘shadi.*

Kalit so’zlar: *ekologik terminlar, derivatsiya, semantika, qiyosiy tilshunoslik, Ekolingvistika, O‘zbek tilshunosligi, Ingliz ilmiy terminologiyasi birikmalar, Ekologik siyosat, Leksik o‘zlashma (o‘zlashgan so‘zlar).*

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТЕРМИНОЛОГИИ: СРАВНИТЕЛЬНАЯ ДЕРИВАЦИОННАЯ СЕМАНТИКА В УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ ЭКОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются деривационные и семантические принципы формирования экологических терминов в английском и узбекском языках с позиции сравнительной лингвистики. Цель исследования заключается в выявлении моделей словообразования, семантических изменений, а также сходств и различий между двумя языками. С использованием описательно-сравнительного метода на основе корпусного анализа экологические термины были проанализированы по таким механизмам, как аффиксация, словосложение, конверсия, заимствование и семантическая деривация. Результаты исследования показывают, что в английском языке терминология преимущественно развивается через словосложение и использование греко-латинских аффиксов, в то время как в узбекском языке ведущую роль играют национальные аффиксы и семантическая адаптация.*

Данная работа вносит вклад в области сравнительного терминоведения, переводоведения и экологического дискурса.

Ключевые Слова: *экологические термины, деривация, семантика, сравнительная лингвистика, эколингвистика, узбекское языкознание, английская научная терминология, композиты, экологическая политика, лексическое заимствование.*

Introduction. Ecology, being an interdisciplinary science, calls for a vocabulary that could be specific enough for scientific usage but general enough for broader applications, such as policymaking or education. The development of scientific vocabulary is anything but context-free, as it is deeply rooted in the morphology, development, and worldview of each language. When English, a language belonging to the Germanic language family, is compared with Uzbek, a language belonging to the Turkish family, the chance to understand the adaptation of languages to scientific imperatives under the new era provides a fascinating perspective.

Unlike them, the history of the development of the Uzbek language is relatively unique. As an agglutinative Turkic language, Uzbek has been in contact with many languages, such as Persian, Arabic, and Russian, which have influenced the language's dialect. In the history of the Uzbek language, its system of ecological terminology is chronologically its "beginnings" The Uzbek language system of ecological terminology is in a state of a paradox. As a result of the Soviet Union's rule of Uzbek language, the ecological system of the Uzbek language contributed what is known as an "ecological rupture". This is the result of the Soviet style suppression of the indigenous knowledge and native lexicon that described the local systems of soil and water management, which was replaced with the Russian-based technocratic language. The system of local language management, which, by its very nature, was a means of conceptualizing the distinct systems of soil and water management, was disconnected from the means of control and contributed to such things as the ecological disaster of the Aral Sea.

Since Uzbekistan gained independence, and particularly after the reforms of 2025, the country has made the first steps in focusing on the standardization and revitalization of the country's ecological terminology. The first of these, Presidential Decree No. UP-217 and the subsequent Resolution No. PP-343, have created new institutional arrangements which restructure the ministries by turning the Ministry of Ecology into the National Committee on Ecology and Climate Change. These changes are more than just nominal; they will create new administrative routines that will facilitate the implementation of the "Yashil Makon" (Green Space) project and the activities of the newly created "Eco-police". This paper will examine the evolution of this new terminology and attempt to analyze its components and compare them to the existing English terminology to provide a model for standardization and effective scientific communication. The paradigm of this paper is within the scope of ecolinguistics, which centers language as the medium that encapsulates the relationship between humans and the environment. The metaphor of the linguistic ecosystem, coined by Einar Haugen on the 'ecology of language', is a simple yet effective way of describing the relationship between a language and the society that speaks it.[10]

Because of the developing of the environmental sciences, there has been a need for a more precise and structured ecological terminology. The terminology as well as the system of ecological categorization is a direct result of the advancement of the respective science and the structure of the respective language. A comparative analysis of the ecological terminology of the English and Uzbek languages provides the study of the universal derivational-semantic and various particular mechanisms. This study has focused on the derivational process, as they are of utmost value in translation, policy, and education.

Literature Review. The role of derivation in the formation of terms has been noted in the theory of terminology (Cabré, 1999; Sager, 1990). [3] The Semantics of Language studies show the role of affixation, compounding, and semantic broadening on the formation of terms (Lyons, 1995; Fillmore, 1982).[8] The studies of the English language ecological terminology show the abundant use of the Greco-Latin Affix, compound words, and the use of the international English language. The studies of the terms in Uzbek language show the native affixation, calque, and mor-

phological adaptation. The present study is of almost importance, because of the absence of the comparative studies of the English and Uzbek ecological terminology.

Methodology. The study employed a descriptive comparative, and corpus-based methodology. The study collected ecological terminology from such sources as scientific journals, textbooks, policy documents, and online environmental databases. The collected terminology was analyzed in terms of its derivational structure affixation, compounding, borrowing, conversion) and semantic features (narrowing, broadening, metaphorical extension). Frequency distribution, semantic transparency, and cross-linguistic adaptation were evaluated. Comparative tables were created to illustrate the correspondences and divergences between English and Uzbek terms.

Overall, 60% of words in English are created through morphological processes, whether native or within neoclassicism. 35% of these processes are via affixation, with a wide variety of used prefixes (eco-, bio-, de-, enviro-) and used suffixes (-logy, -system, -sphere, -friendly). Compounding adds 25% to this category via transparent, multi-word expressions like ‘greenhouse effect’ or ‘carbon footprint’ as single terms. In contrast, 70% of Uzbek ecological terminology consists of borrowed words - mostly from English or Russian, and terms like ekologiya, ekotizim (ecosystem), or biogaz are directly adopted into the Uzbek language. Native word formation in Uzbek employs agglutinative suffixation (10%), and native compounding (15%) to a lesser degree. Significant native formations are atrof-muhit (environment, literally “surrounding-world”) and terms like barqarorlik (sustainability/stability) formed with the suffix -lik.[4]

The analysis reveals significant distinctions in how ecological concepts are lexicalized in both languages.

1-table

The distribution of word-formation mechanisms highlights English as a “source system” and Uzbek as a “recipient system”.[1]

Word Formation Type	English (%)	Uzbek (%)	Examples (Eng / Uzb)
Affixation	35	10	Deforestation / Ifloslanish
Compounding	25	15	Greenhouse effect / Atrof-muhit
Borrowing	10	70	Hydrosphere / Gidrosfera
Calquing	15	4	Green economy / Yashil iqtisodiyot

Structural Complexity

Both languages exhibit a strong trend toward “polycomponent” (multi-word) terms, with Uzbek at 83% and English at 81.9%.[5]

Simple Terms (Monolexemic): English: forest, flora, sea; Uzbek: o‘rmon, o‘simliklar, dengiz.

Two-Component Terms: English: carbon footprint, climate change, riverside; Uzbek: karbon izi, iqlimg o‘zgarishi, daryo bo‘yi.

Three-Component Terms: English: emissions intensity, disaster preparedness; Uzbek: tabiatni muhofaza qilish, falokatga tayyorgarlik.

Scientific Phrases: English: assessment of the environment; Uzbek: atrof-muhit holatini baholash.[9]

Results and Analysis. English ecological terminology is composed of compound words (greenhouse effect, biodiversity loss), affixed words (deforestation, pollution), and loanwords (ecosystem, biosphere). Compound words ensure semantic transparency, while affixed words make it possible to produce new lexemes in a productive way. International uniformity is kept through loanwords. Uzbek ecological terminology makes substantial use of indigenous affixes like -lik, -chi, -lanish (ifloslanish, ekologiklik). International loanwords are adapted phonemically, semantically, or translated by calquing (atrof-muhit muhofazasi). The preference for Uzbek ecologi-

cal terminology is based on semantic transparency and native speaker understanding, with the incorporation of international terminology according to the syntactic structure of these multi-word terms displays a high degree of stability. In English, these often take the form of noun-noun or adjective-noun compounds (e.g., “emissions intensity”). In Uzbek, they are frequently rendered as analytic phrases or through descriptive translation, such as tabiatni muhofaza qilish (protection of nature) or iqlimg o‘zgarishi (climate change). The slightly higher percentage of polycomponent terms in Uzbek (83%) reflects its tendency toward descriptive translation when direct lexical equivalents are absent.

Semantic Features and Transparency. The semantic analysis of ecological neologisms reveals a divide between scientific precision and metaphorical accessibility. English ecological neologisms frequently describe processes (-ing), capabilities (-able), and actions (de-). They are often characterized by high semantic transparency, where the meaning can be inferred from the constituent parts (e.g., “biodegradable”).

In Uzbek, semantic development is often shaped by the intermediary role of Russian. Many English concepts entered Uzbek via Russian, leading to “semantic transfers” where the Uzbek term may carry slightly different connotations than the original English. For example, “sustainability” is translated as barqarorlik, but while the English term encompasses a complex socio-economic-environmental triad, barqarorlik is often perceived more traditionally as “stability” or “durability”.[7]

Ecolinguistic Embedding in Proverbs and Zoonyms

The analysis of 240 proverbs reveals that ecological knowledge is culturally situated. English proverbs often use animal traits to reflect individual-centered moral evaluations (e.g., “Eagles do not catch flies”). Uzbek proverbs, rooted in pastoral life, emphasize communal harmony and patience, frequently featuring the camel (tuya), horse (ot), and wolf (bo‘ri). This cultural embedding suggests that while scientific terminology is becoming standardized, the conceptual frameworks through which the public understands ecology remain distinct.

Discussion. Principles of derivation and meaning in ecological terminology depend on typological properties of languages and linguistic factors such as globalization and international collaboration in scientific research. English is the source language for many international terms, and Uzbek has developed these terms using affixation, calquing, and meaning conversion. Results have implications for translation, standardization of terminology, and preparation of bilingual texts for education.

The Impact of Agglutination in Uzbek. Uzbek, as an agglutinative language, constructs technical words by attaching multiple suffixes to a root. While this is used for terms like o‘quvchi (learner), technical ecology often bypasses native resources for borrowing.12 However, native formations like ifloslantirmoq (pollute), o‘rmonlarni kesish (deforestation), and qurg‘oqchilik (drought) show the potential for native derivational expansion.

Historical Erasure and Restoration. The suppression of Uzbek terms like zovur (drainage) and sho‘rlik (salinization) in favor of Russian technocratic terms during the Soviet era caused an “ecological rupture”.[7] Reintegrating these terms is critical for sustainable management.[7]

2025–2026 Institutional and Terminological Reforms

The recent Presidential reforms (UP-217) have introduced new terminological needs:

Institutions: National Committee on Ecology and Climate Change (Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi).[10]

Law Enforcement: Eco-police (Eko-politsiya) with specialized powers.[6]

Digital Platforms: Unified Environmental Online Platform to be operational by 2026.[6]

National Projects: Yashil Makon (Green Space), Toza Havo (Clean Air), and Bio Meros (Bio Heritage).[6]

Conclusion. Ecological terminology in English and Uzbek is characterized by common linguistic principles and specific mechanisms of word formation. Mastery of these processes is extremely important for standardization, translation, and environmental education. For further re-

search, one could consider tracing these processes through time and how new environmental terms impact this process.

Comparative studies in the field of ecology English and Uzbek are in the process of breakthrough development. English terminology uses neoclassical compounding and gives a steady model to the world, while Uzbek uses more borrowing and a more transforming model of compound standardization. To remain in the sphere of control and understanding of the public, the Uzbek language ecology needs to:

1. Eliminate the incoherence in the use of the terminology of biodiversity (bioxilma-xillik vs ekotizim).
2. Repair the historical “rupture” of the local ecological vocabulary
3. Use the agglutinative system to make terms, which will be transparent and of native origin, and will be in a more democratic style.

References.

1. Ахманова О. С. Словообразование и лексикология. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – 312 с.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2018. – 400 p.
3. Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins, 1999. – 248 p.
4. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019. – 506 p.
5. Haugen E. The analysis of linguistic borrowing // Language. – 1950. – Vol. 26, No. 2. – P. 210–231.
6. Ҳожиев А. Ўзбек тили терминологияси. – Тошкент: Фан, 2010. – 220 б.
7. Kurbanov Sh., Saidova M. Linguistic peculiarities of ecological terminology in English and Uzbek // Scientific journal. – 2021. – P. 45–50.
8. Lyons J. Linguistic Semantics: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995. – 376 p.
9. Nigmatullina A. S. Comparative analysis of ecological terminology in the English, Uzbek, and Russian languages // International Journal of Scientific Research. – 2020. – P. 581–583.
10. Presidential Decree No. UP-217 of November 19, 2025 “On measures to establish a management system in ecology and tourism”. – Tashkent, 2025.
11. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2006. – 384 б.
12. Sager J. C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam: John Benjamins, 1990. – 256 p.
13. Saliyeva Z., Norboev A. Translation of ecological terms from English into Uzbek: challenges and strategies // Journal of New Century Innovations. – 2024. – Vol. 59, No. 1. – P. 198–201.
14. Stibbe A. Ecolinguistics: Language, Ecology and the Stories We Live By. – London: Routledge, 2015. – 210 p.
15. Yule G. The Study of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 464 p.

Fayziyeva Sabina Shuhratjon qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistranti

O'SMIRLAR IJTIMOIY MOSLASHUVIDA O'ZINI VA BOSHQALARNI QABUL QILISHNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Anotatsiya. *Mazkur maqolada o'smirlarning ijtimoiy moslashuvini shakllantirishda o'zini qabul qilish va boshqalarni qabul qilishning psixologik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarida xususan internallik hamda emotsional qulaylik ko'rsatkichlarining ham ijtimoiy moslashuv bilan ijobiy bog'liqligini, eskapizm esa salbiy bog'liqlikni namoyon etishini ko'rsatdi. Olingan natijalar o'smirlarning ijtimoiy moslashuv jarayonida shaxsiy hamda shaxslararo omillarning muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *o'smirlar, ijtimoiy moslashuv, o'zini qabul qilish, boshqalarni qabul qilish, internallik, emotsional qulaylik, eskapizm.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ САМОПРИНЯТИЯ И ПРИНЯТИЯ ДРУГИХ В СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается психологическая значимость самопринятия и принятия других в процессе формирования социальной адаптации подростков. Результаты исследования показали, что самопринятие, принятие других, внутренний локус контроля и эмоциональный комфорт положительно связаны с социальной адаптацией, тогда как эскапизм оказывает отрицательное влияние на её показатели. Полученные данные подтверждают, что личностные и межличностные факторы играют важную роль в процессе социальной адаптации подростков.*

Ключевые слова: *подростки, социальная адаптация, самопринятие, принятие других, внутренний локус контроля, эмоциональный комфорт, эскапизм.*

THE PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF SELF-ACCEPTANCE AND ACCEPTANCE OF OTHERS IN THE SOCIAL ADAPTATION OF ADOLESCENTS

Abstract. *This article examines the psychological significance of self-acceptance and acceptance of others in the development of adolescents' social adaptation. The findings indicate that self-acceptance, acceptance of others, internal locus of control, and emotional comfort are positively associated with social adaptation, whereas escapism exerts a negative effect on its indicators. The results confirm that personal and interpersonal factors play an important role in adolescents' social adaptation.*

Key words: *adolescents, social adaptation, self-acceptance, acceptance of others, internal locus of control, emotional comfort, escapism.*

Kirish. Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarning ta'lim-tarbiyasi sifatini oshirish, ularning o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z-o'zini anglashiga qaratilgan islohotlar ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi hamda bu borada zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi. Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviy-axloqiy kamoloti hamda ijtimoiy muhitdagi o'rni bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratilishi mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Globallashuv jarayonlari, axborot oqimining kuchayishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida o'smirlarning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi, o'zini qabul qilishi va boshqalarni qabul qilishi ularning shaxsiy rivojlanishi hamda ijtimoiy barqarorlikka erishishida muhim psixologik omil hisoblanadi.

Shu bois o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvida o‘zini va boshqalarni qabul qilishning psixologik ahamiyatini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb vazifalardan biridir. O‘smirlik davri shaxs shakllanishining eng murakkab va inqirozli bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda o‘smirlarning maktab jamoasi va tengdoshlar guruhiga moslashuvi ularning ruhiy salomatligi, ta’limdagi muvaffaqiyati hamda kelajakdagi ijtimoiy faoliyati uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy dinamik jamiyatda ijtimoiy aloqalar murakkablashib borayotgani va tashqi muhit omillari tez o‘zgarib turishi o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi muammosini yanada dolzarb etadi. Chunki shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabati uning ijtimoiy xulq-atvori, kommunikativ faoliyati va moslashuv strategiyalarini bevosita belgilaydi. Ya’ni o‘smir o‘zini qanday qabul qilsa, atrofdagilarni ham shunga mos ravishda idrok etadi va munosabat bildiradi.Ijtimoiy-psixologik moslashuv - bu nafaqat tashqi muhit talablariga ko‘nikish, balki shaxsning o‘z ichki dunyosi va ijtimoiy borliq o‘rtasidagi muvozanatni saqlash jarayonidir. L.V. Mardakhaev fikriga ko‘ra, ijtimoiy moslashuv - bu bolaning individual imkoniyatlari va holatini atrof-muhit bilan muvofiqlashtirish jarayoni va natijasi bo‘lib, uning o‘zgaruvchan muhitga, yangi hayotiy sharoitlarga, muayyan ijtimoiy-psixologik guruhlar doirasidagi munosabatlar tizimiga moslashuvi hamda xulq-atvorining ushbu muhitda qabul qilingan norma va qoidalarga mos kelishini ta’minlaydi.[1,c 79]

Ijtimoiy moslashuv insonning optimal ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun zarur shart hisoblanadi. U shaxsga o‘zini namoyon etish, boshqalarga va faoliyatga nisbatan munosabat bildirish hamda ijtimoiy jarayonlar va hodisalarda faol ishtirok etish imkonini beradi. Shu bilan birga, aynan moslashuv orqali shaxs o‘zining tabiiy ijtimoiy o‘zini takomillashtirish jarayonini ham amalga oshiradi. Moslashuv bola uchun turli muhitlarda - oila, maktabgacha ta’lim muassasasi va maktab sharoitida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. [1,c 81].

A.V. Mudrik ta’kidlashicha, o‘smirlarning moslashuvi asosan tengdoshlar guruhi orqali amalga oshadi. Bu jarayon ayniqsa muhim, chunki tengdoshlar , bir-birlariga kattalar tomonidan ko‘pincha oshkor qilinmaydigan hayotiy va kommunikativ normalarni o‘rgatadilar va shu orqali bilimdagi bo‘shliqlarni to‘ldiradilar. Bolalik, o‘smirlik va yoshlik davrida shaxsning erkaklik va ayollik xususiyatlari jadal shakllanadi va bu jarayon ko‘p jihatdan tengdoshlar bilan real muloqot tajribasiga bog‘liq bo‘ladi. Qarama-qarshi jins vakillariga qiziqish bir tomondan hali yuzaga kelmagan kattalar hayotining oldindan his etilishini ifodalasa, ikkinchi tomondan tengdoshlar ta’siri bilan kuchayadi. Katta o‘smirlar muhitida qarama-qarshi jins vakillari bilan muloqot qilish nufuzli hisoblanadi. Shu sababli, hatto o‘smir bunday muloqotga ichki ehtiyoj sezmasa yoki undan qo‘rqsa ham, “moslashish” uchun bunday munosabatlarni izlashga, ba’zan esa sun’iy tarzda yaratishga majbur bo‘ladi.[2, c441]

O‘zini qabul qilish deganda o‘smirning o‘z shaxsiy xususiyatlari, imkoniyatlari, kamchiliklari va yutuqlarini real hamda adekvat baholashi, o‘zini inkor etmasdan, ichki barqarorlik bilan qabul qilishi tushuniladi. U o‘zini boricha qabul qilganligi sababli, odatda atrofdagilarning tanqidini og‘ir kechirmaydi, muvaffaqiyatsizliklardan to‘g‘ri xulosa chiqaradi, o‘z qadrini saqlagan holda ijtimoiy aloqalarni davom ettira oladi. Aksincha, o‘zini past baholash yoki haddan tashqari tanqidiy qabul qilish o‘smirning jamoadagi faolligini kamaytirish bilan birga ijtimoiy xavotirni keltirib chiqaradi. Bu esa uning tengdoshlar bilan muloqotga kirishishini qiyinlashtiradi, ijtimoiy izolyatsiya yoki agressiv xulq-atvor shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Boshqalarni qabul qilish esa o‘smirning atrofidagi insonlarning fikri, hissiyoti, xarakteri va xulq-atvoridagi farqlarga nisbatan tolerant, tushunuvchi va moslashuvchan munosabat bildirishidir. Ijtimoiy moslashuv aynan shu sifat orqali mustahkamlanadi, chunki inson jamiyatda yolg‘iz yashamaydi, u doimo tengdoshlar, oila a’zolari, o‘qituvchilar va boshqa ijtimoiy guruhlar bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Boshqalarni qabul qila oladigan o‘smir nizoli vaziyatlarda murosaga kelishga, o‘z fikrini zo‘ravonliksiz ifodalashga, hamkorlik qilishga va ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo‘ladi.

Psixologik jihatdan o‘zini qabul qilish va boshqalarni qabul qilish o‘zaro chambarchas bog‘liq. O‘zini ichki jihatdan inkor etayotgan o‘smir ko‘pincha boshqalarga ham ishonchsizlik bilan qaraydi, ularda salbiy tomonlarni ko‘proq ko‘rishga moyil bo‘ladi. Bunday holat ijtimoiy izol-

yatsiya, muloqot qiyinchiliklari va tengdoshlar bilan kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda o‘smirlarning jonli muloqot doirasi o‘zgarishi ularning ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlariga turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, moslashuvning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqliklarni matematik-statistik usullar orqali o‘rganish muammoni yanada aniqroq tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur tadqiqotda o‘zini va boshqalarni qabul qilishning o‘smirlar sotsializatsiyasidagi o‘rni empirik ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqiladi. K.Rojers va R.Daymondlarning ijtimoiy-psixologik moslashuv so’rovnomasi shaxsning jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarida moslashuvchanlik, emotsional qulaylik va ijtimoiy faollik darajasini aniqlashga qaratilgan. Ushbu shkala dastlab mashhur amerikalik psixologlar gumanistik psixologiyaning asoschilari va yetakchilaridan biri va shaxsga yo'naltirilgan psixoterapiya asoschisi K. Rodjers va Rosalind Daymond tomonidan 1954-yilda "psixoterapiya va shaxsiyatning o'zgarishi: mijozga yo'naltirilgan yondashuv bo'yicha muvofiqlashtirilgan tadqiqotlar" jurnalida ishlab chiqilgan. [7] Metodologiyaning tavsifi birinchi marta 1987 yilda psixologiya fanlari nomzodi T.V.Snegireva tomonidan rus tiliga tarjima qilingan [6], va 2004 yilda so'rovnoma psixologiya fanlari nomzodi A.K.Osnitskiy tomonidan sezilarli darajada o'zgartirilgan va "psixologiya va maktab" jurnalida chop etilgan [3]. Metodikadan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uni sinfda jamoaviy tarzda qo‘llash kamida 12–13 yoshdan (VI–VII sinflar) boshlab mumkin. Undan kichik yoshda esa metodikani faqat individual eksperiment sharoitida qo‘llash tavsiya etiladi.[5] Savollar 101 ta bayonotdan iborat. Mazkur metodika 7 ta asosiy integral ko‘rsatkichni o‘z ichiga oladi:

1- Moslashuv; 2- O‘zini qabul qilish; 3- Boshqalarni qabul qilish; 4- Emotsional qulaylik; 5- Internallik; 6- Ustunlikka intilish; 7- Eskapizm ; 8. Yolg’on

Natija va muhokama. Tadqiqotning empirik qismi o‘smirlar o‘rtasida ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasini va uning shaxsiy determinantlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda tanlab olgan obyektimiz bo’yicha Toshkent shahridagi 3 ta umumta’lim maktablarining 7-8-9-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi.

Jadval-1.

Ijtimoiy moslashganlik so‘rovnomasi ko‘rsatgichlari bo‘yicha sinaluvchilarning jins tavofutlari (O‘zaro bog‘liq bo‘lmagan tanlanmalar uchun Styudent-t mezoni n=185)

	Jinsi	№	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t	Ishonch darasi
Ijtiomoiy moslashganlik so‘rovnomasi IPM						
Moslashuvchanlik	Yigitlar	90	56,2831	8,58609	-2,302	0,022*
	Qizlar	95	59,4098	9,81028		
Yolg‘on shkalasi	Yigitlar	90	33,1222	8,30571	0,165	0,869
	Qizlar	95	32,9368	6,88787		
O‘zini qabul qilish	Yigitlar	90	70,5000	10,98761	-3,775	0,000***
	Qizlar	95	76,8784	11,93997		
Boshqalarni qabul qilish	Yigitlar	90	54,9771	11,26285	-,743	0,459
	Qizlar	95	56,1739	10,62360		
Hissiy qulaylik	Yigitlar	90	55,1869	12,09985	-1,878	0,062
	Qizlar	94	59,2030	16,47474		
Internallik	Yigitlar	90	58,1970	11,14945	-1,386	0,168
	Qizlar	95	60,6665	13,05647		
Ustunlikka intilish	Yigitlar	90	51,3880	11,12430	-1,923	0,056
	Qizlar	95	54,7577	12,61709		
Eskapizm (muammodan qochish)	Yigitlar	90	16,0556	5,18719	1,275	0,204
	Qizlar	95	15,0632	5,38677		


Tadqiqotimizdavomida biz sinaluvchilar o'rtasidagi geder tahlili bo'yicha tafovutini o'rganishga qaror qildik. Bu uchun biz o'zaro bog'liq bo'lmagan tanlanmalar uchun Styudent-t mezonidan foydalandik.

Natijalar tahliliga ko'ra Moslashuvchanlik shkalalasi (t=-2,302;p<0,05) bo'yicha 95% li , O'zini qabul qilish shkalasi (t=-3,775;p>0,01) bo'yicha 99% li ishonch darjasida yigitlar va qizlar o'rtasida farq kuzatildi.

Demak moslashuvchanlik shkalasi bo'yicha yigitlarga nisbatan qizlarning natijalari yuoqrori ekanligini ko'rishimiz mumkun. Qiz bolalar yigitlarga nisbatan yangi sharoitlarga tez moslashishi bilan ajralib turadi, ular ko'nikuvcha va tashqi muhitga qisqa muddatda moslashuvchan bo'lishadi shu sababli ham qizlarning natijalari yuqori chiqqan bo'lishi mumkun. O'g'il bolalar esa aksincha qat'iyroq bo'lishadi yoki o'z pozitsiyasini oxirgacha himoya qiladi.

Keyingi O'zini qabul qilish shkalsi bo'yicha ham qizlarning natijalari yigitlarga nisbatan yuqori chiqqanligini kuzatishimiz mumkun. Bunga sabab qiz bolalarda ko'pincha o'zidan no-rozilik holatlari kam kuzatiladi. Shuningdek ular o'z his-tuyg'ularini ko'proq tahlil qilishgani sab-abli ham o'zini qabul qilishi yuqori bo'lishi mumkin, o'g'il bolalarda esa o'smirlik davri bir qiyin kechishi natijasida o'zini qabul qilish hissi pastlashi kuzatilganli uchun ham ularning natijasi qizlarga nisbatan past chiqqan bo'lishi mumkun.

So'rovnomaning yolg'on shaklasi (t=0,165;p>0,05), boshqalarni qabul qilish shkalasi (t=-749;p>0,05), hissiy qulaylik shkalasi (t=-1,878;p>0,05), internallik shkalasi (t=-1,386;p>0,05), ustunlikka intilish shkalasi (t=-1923;p>0,05), ekapizim (muammodan qochish) shkalasi (t=1,275;p>0,05) bo'yicha 95% li ishonch darjasida farq kuzatlilmadi. Ushbu shkalalar bo'yicha yigitlkar va qizlarning natijalari bir-biriga yaqinligini kuzatishimiz mumkun. Shu sabali ham farq kuzatilmagan bo'lishi mumkun.



Rasm-6. Moslashuvchanlik va o'zini qabul qilish shkalasi bo'yicha jins tafovutlarinin gistogrammali ko'rinishi.

Jadval-2.

Ijtimoiy moslashganlik so‘rovnomasi bo‘yicha sinaluvchilarning oilada nechanchi farzandligi ko‘rsatgichlari orasidagi tafovutlarini o‘rganish (Dispersion tahlil ANOVA-F n=185)

Shakala nomi		N	O‘rtacha qiymat	Standart o‘gish	F	p
Ijtiomoiy moslashganlik so‘rovnomasi IPM						
Moslashuvchanlik	1-farzand	62	57,1273	9,64784	3,066	0,029*
	2-farzand	77	56,5229	9,14526		
	3-farzand	39	61,8015	8,52735		
	4-farzand	7	57,8569	8,99584		
	Jami	185	57,8887	9,34242		
Boshqalarni qabul qilish	1-farzand	62	55,3498	10,96856	4,094	0,008**
	2-farzand	77	53,5032	10,25827		
	3-farzand	39	60,6385	10,93709		
	4-farzand	7	52,5896	10,70031		
	Jami	185	55,5917	10,92587		
Internallik	1-farzand	62	58,4518	12,32786	2,714	0,046*
	2-farzand	77	57,8375	12,25568		
	3-farzand	39	64,2969	11,32132		
	4-farzand	7	59,4243	10,28883		
	Jami	185	59,4651	12,19625		
Eskapizm (muammodan qochish)	1-farzand	62	15,6290	5,01223	2,855	0,039*
	2-farzand	77	16,5584	5,55710		
	3-farzand	39	13,6154	4,83744		
	4-farzand	7	14,4286	5,25538		
	Jami	185	15,5459	5,29964		

Yuqorida keltirilgan jadvalda biz ijtimoiy moslashganlik so‘rovnomasi natijalariga ko’ra sinaluvchilarning oilada nechanchi farzandligi bo‘yicha tafovutlarini o‘rgandik.

Moslashuvchanlik shkalasi bo’yicha sinaluvchilarning oilada nechanchi farzandligi o‘rtasida 95 % li ishonch darajasida farq kuzatildi (F=3,066;p<0,05). Bu shkala bo’yicha oilada 3-farzand bo’lgan sinaluvchilarning natijalri yuqori chiqqanligini kuzatishimiz mumkun. Eng past ko’rsatgich esa 1-farzand sinaluvchilarda kuzatildi. Demak insonlarni moslashuvchanligi oilada nechinchi farzandligiga qarab ham turli xil rivojlanishi mumkin ekan. Keyingi Boshqalarni qabul qilish shkalasi bo’yicha ham sinaluvchilarning oilaa nechanchi farzandligi o’rtasida 99 % li ishonch datajasida farq kuzatildi (F=4,094;p<0,01). Bu shkalada ham oilada 3-farzand sinaluvchilarning natijalari yuqori chiqqanligi kuzatildi. Eng past ko’rsatgich qayd etgan sinaluvchilar esa oilada 4-farzand hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi: Bolalarda yuqorida keltirilgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda, asosiy nazariy tarkibiy qismini tashkil etuvchi " Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasi" , " Bolalarning musiqiy ta'limi ", " Musiqa o'qitish metodikasi", bilimlariga alohida e'tibor qaratish muhimdir. Bu faoliyat bolalarda musiqiy savodni shakllantirish bilan bir qatorda musiqani ongli ravshida idrok etishni ham rivojlantiradi . Bu esa bolalarda mashg'ulotlarning vakal , xor , jamoa bo'lib qo'shiq aytish , musiqa nazariyasi , musiqa tinglash kabi boshqa qator faoliyatlarini osonlik bilan o'zlashtirishlarida juda katta yordam beradi . Mashg'ulotlarning unumli bo'lishi uchun mashg'ulotlari davomida solfedjio , ya'ni nota o'qish , notaga qarab kuylash mashg'ulotlari barcha faoliyatlarni nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga bog'laydi.Ritmik his–tuyg'u va tafakkurni tarbiyalashda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqayotgan pedagoglar buyuk allomalar me'rosini o'rganish, izlanish, dars jarayonida tadbiq etish, bolalarni improvizatsion fikrlash asosida musiqa bilan birgalikda ijodiy shug'ullanishning dastlabki ko'nikmalarini singdirish, ularning qobiliyatlaridan qat'iy nazar, musiqaga jalb qilish individual ijodiy imkoniyatlarini ochish, tug'ma musiqiy qobiliyatni rivojlantirish bugungi kun talabi va asosiy maqsadi hisoblanadi .

Tadqiqot metodologiyasi: Musiqa idrok qilishda harakatlarning roli muhimligi , musiqiy eshitish qobiliyatining shakillanishida qo'shiq aytishning muayyan ta'siri haqida guvohlik beruvchi dalillar musiq amaliyotida anchadan beri ma'lum . Tinglash tashqi shakllarning qo'shiq aytish , chalish , ritmik harakatlarda " ichki eshitish " yashirin harakatiga o'tish hodisasiga ma'lum . Bu dalillar idrokni yangicha yoritilishidir . Shunday ekan, har qanday pedagogik texnologiya ta'limning yangi loyihasini rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslangan bo'lib, bola shaxsiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak . Musiqa rahbarining hamkorligi o'zaro muloqot, bir – biriga ko'rsatadigan ta'siri zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozim. Bunday jarayonda bolalar bilan ishlash malakalari shakllanadi, bolalarning faol, samarali faoliyat ko'rsatishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda pedagogik texnologiyasi ta'lim

oluvchilarga qaratiladi, shuningdek shaxsiy va bola bilan birgalikda faoliyatini hisobga olgan holda ,o'quv materialini va ijro asarlarini o'zlashtirishga sharoit yaratadi .

Tahlil va natijalar: Bu o'rinda musiqiy mashg'ulotlar jarayonida bolalarning ijodiy faolligini ta'minlash alohida ahamiyatga molik. Musiqani tushunish , musiqiy fikr va musiqiy idrokni hosil qilish , uning hissiy emotsional ta'siridan bahramand bo'lish , malaka va ko'nikmalar qatori emotsinal his tuyg'ularning ishtirokiga ham bog'liq. " Bolalarni san'atga o'rgatish nihoyatda murakkab " – deb takidlaydi taniqli kompozitor , pedagog D. B. Kabalevskiy , hamma murakkabligi shundaki , ularni emotsinal tarzda qiziqtirmay turib chinakkam san'atga o'rgatish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun bolalarning birinchi navbatda musiqiy idrokini shakllantirish maqsadga muvifiqdir. Bu jarayon bolalarning san'atga bo'lgan mehr-muhabbatini kuchayishiga yordam beradigan muhim omillardan biridir.

Asarni ijro va idrok etishda his – tuyg'ular qanchalik faol va chuqur bo'lsa, ularni tushunish va o'zlashtirish, ta'sirlanish shuncha ongli va samarali bo'ladi. Bu xolatlar esa o'z o'rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo'ladigan jarayondir. Zero , zerikarli va birxillik sinfda jonli xissiyot holatini vujudga keltira olmaydi . Bolalarni darsga qiziqtirish birinchi navbatda tishlash va ijro etish uchun tanlangan repertuar va uslublarga " an'anaviy yoki innovatsion metodlar " bog'liq. Bolalar uchun tanlangan asarlar repertuarning asosiy me'zoni ularning yoshi , qiziqishi , bilim va malakalari ko'nikmalari darajasiga bog'liq. Bu o'rinda zamonaviy kuylar, xalq kuylari, qardosh xalqlar va kompozitorlari asarlaridan foydalanish, darslarni yanada sermazmun va faol bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar: Innovatsion texnologiya turini tanlash mashg'ulotlarda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish nazarda tutilganligiga bog'liqdir. Bolalarda musiqiy fikr va musiqiy idrokni hosil qilishda bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg'ulotdir . Chapak va cholg'u asboblarida ritmik jo'r bo'lish, musiqaning harakteri va obrazini chuqurroq his etishda , ularga xos emotsional tuyg'ular hosil etish ayniqsa, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlarda bolalar cholg'u asboblaridan foydalanish ijobiy natijalar berish bilan birga bolalarning mashg'ulotga intiluvchanligini, qiziqish va musiqiy uquvini xotirasi , ritmini his etish tuyg'usini o'stiradi . Cholg'u asboblarida ijro etganda avval , bolalar kuy – ritmini to'g'ri his etib ijro etishlari uchun , cholg'u asboblarida chalib , musiqaga jo'r bo'ishlari lozim . Birinchi ijrodagi yutuq va kamchiliklarni bartaraf qilib, yana bir takrorla , chiroyli, to'g'ri ijro etiladi so'ngra musiqiy o'quv va bo'sh bo'lgan bolalarga cholg'u asboblarida jo'r bo'lish taklif etiladi . Shu tarzda sinfdagi bolalarni galma – gal cholg'u asbobida jo'r bo'lishga undab, ularning qiziqishini oshiradi. Cholg'ularda chalishga hamma intiladi, albatta. Shuning uchun berilgan asarni bolalar hato qilmay musiqani to'g'ri his etishga va hotirada saqlashga harakat qiladilar. Keyinchalik ijrochilik turlari murakkablashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ro'ziyeva O. I. Bolalarning musiqiy ta'limi : o'quv qo'llanma. – Qarshi : Intelekt nashriyoti, 2023. – 120 b.

2. Abdullayev M., Tursunov H. Maktab repertuari : o'quv qo'llanma. – Qarshi : Nasaf NMIU, 2022. – 140 b.

3. Abdullayev M. Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasi. – Qarshi : Nasaf NMIU, 2024. – 160 b.

4. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. – 488 b.

5. Sharipova G., Xodjayeva Z. Musiqa o'qitish metodikasi : darslik. – Toshkent : NIF MISH, 2020. – 256 b.

Isakova Muazzam To‘lkinovna
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya fanlari doktori, professor,
Sultonbekova O’g’iloy Ilyosjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistri

TALABALARDA AYBDORLIK HISSINI NAMOYON BO‘LISHIDA OILA MUHITINING TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarda aybdorlik hissini namoyon bo‘lishi hamda uni namoyon bo‘lishida oila muhitining ta’siri haqida yoritib berilgan. Aybdorlik hissi esa shaxsning o‘ziga xos xatti-harakatlarini salbiy baholash bilan bog‘liq bo‘lgan uyat hissiga nisbatan bir muncha og‘riqsiz kechinma bo‘lib, u tavba qilish, kechirim so‘rash va pushaymonlik hislari bilan birgalikda kechadi.*

Kalit so‘zlar: *aybdorlik, monipulyatsiya, emotsional, hissiyot, ekzistensial-ontologik, refleksivlik.*

ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНОЙ СРЕДЫ НА ПРОЯВЛЕНИЕ ЧУВСТВА ВИНЫ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье освещается проявление чувства вины у студентов и влияние семейной обстановки на это проявление. Чувство вины является менее болезненным переживанием по сравнению со стыдом, который связан с негативной оценкой личностью своих конкретных поступков, и протекает совместно с чувствами покаяния, просьбы о прощении и раскаяния.*

Ключевые слова: *вина, манипуляция, эмоциональный, чувство, экзистенциально-онтологический, рефлексивность.*

THE INFLUENCE OF THE FAMILY ENVIRONMENT ON THE MANIFESTATION OF GUILT IN STUDENTS

Abstract. *This article explores the manifestation of guilt in students and the influence of the family environment on its development. The feeling of guilt, a less painful experience compared to shame - which is associated with the negative evaluation of one's specific actions - is accompanied by feelings of repentance, apology, and remorse.*

Key words: *guilt, manipulation, emotional, feeling, existential-ontological, reflexivity.*

Jahon ta’lim va ilmiy markazlarida aybdorlik hissini korreksiya qilish, aybdorlik kechinmasining inson xulqiga tabiiy regulyativ (boshqaruvchi), adaptatsion (muvofiqlashtiruvchi) ta’sirining optimal darajasini aniqlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada shaxs xulqidagi aybdorlik hissi tufayli emotsional beqarorlik namoyon bo’lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini maxsus ilmiy tadqiq etish hamda zarur ilmiy xulosalar ishlab chiqish ayni davrning dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizning so‘nggi yillarida «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyati shakllantirilishiga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilanib, zaruriy asoslari yaratilmoqda: «Yoshlarni vatanparvarlik fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan hayotga bo’lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash» vazifalariga asoslanib, shaxsda refleksivlik xususiyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

Aybdorlik insonning asosiy hissiyoti va shu bilan birga bizni inson hayotining tub mohiyatiga jalb qiluvchi axloqiy kategoriyadir. Aybdorlik hodisasi inson tafakkuri tarixi davomida turli yo‘llar bilan o‘rganilgani tasodif emas. Faqat psixologiya va psixoterapiyada, tadqiqotchining nuqtai nazariga qarab, u ba’zan biron bir obyektiv asosga ega bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z-o‘zidan ahamiyatli bo‘lgan subyektiv tuyg‘u sifatida taqdim etiladi (S. Freyd), ba’zan ontik voqelik sifatida, uning markazi ruh emas, balki hayotning o‘zi (Buber, 1999) va ba’zan tashqi emas, balki ekzistensial-ontologik asoslarga asoslangan voqelik sifatida, aybdorlik vijdonga ega bo‘lishning shaxsiy tanloviga javob sifatida qaralganda (Vlasova, 1999). Bundan tashqari, shuni ta’kidlash mumkinki, umuman olganda, ayniqsa rus madaniyatida aybdorlik hodisasi asosan ijobiy nuqtai nazardan, jamiyat hayotida ijtimoiy regulyator rolini o‘ynaydigan, uning axloqiy tamoyillarga integratsiyalashuvini osonlashtiradigan axloqiy tuyg‘u sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ko‘plab adabiy manbalarga asoslanib, biz aybdorlikning kamida ikkita asosiy shakli - ongli va ongsiz, irratsional - va natijada bu tuyg‘u shaxs va umuman jamiyat hayotiga juda ko‘p turli xil ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi haqida gapirishimiz mumkin. Shuning uchun aybdorlikni faqat ijobiy nuqtai nazardan - odamlarni birlashtiradigan axloqiy tajriba sifatida ko‘rib chiqish qabul qilib bo‘lmaydigan darajada bir tomonlama ko‘rinadi. Bunday qarash etika, aksiologiya va din manfaatlarini qondirishi mumkin, ammo inson psixikasining murakkabligi tufayli psixologiya emas. Bu biz tadqiqotimizni boshlaganimizda va o‘zimizga zamonaviy insonda shaxslararo munosabatlar va muloqotga aybdorlikning ta’sirini o‘rganish vazifasini qo‘yganimizda olib borgan asoslarimizdir.

E.L. Dotsenkoning fikriga ko‘ra, manipulyator "ma’lum ma’noda manipulyatsiya qurbonidir" (Dotsenko, 1996). Kattalarning majburiyatlari faqat ota-onalik bilan cheklanib qolmay, balki keng ko‘lamli ijtimoiy rollar bilan belgilanadiganligi sababli, ustuvorliklar ko‘pincha bola bilan muloqot qilish uchun vaqt qolmaydigan tarzda tuzilgan. Bu, o‘z navbatida, ota-onalarning farzandlari uchun o‘zlarini aybdor his qilishlariga olib keladi. Keyin ularning xatti-harakatlari kompensatsiyaga aylanadi. Ular farzandlariga o‘yinchoqlar yog‘dira boshlaydilar va ularning istaklarini qondira boshlaydilar. Bola ota-onalarning qarama-qarshi xatti-harakatlarining sabablarini tushuna olmaydi: ba’zan ular qattiqqo‘l va doimiy ravishda taqiqlaydilar, ba’zan esa mehribon va ruxsat beruvchi bo‘lib qoladilar. Shunday qilib, bolaning dunyoqarashi yaxlitligini yo‘qotadi. Shu bilan birga, manipulyatsiya uchun ichki shaxslararo shartlardan biri aynan shu yaxlitlikning yo‘qligidir (Izard, 1980). Endi bola ota-onasini manipulyatsiya qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Ular ularni barcha istaklarini bajarishga majbur qiladilar, ongsiz ravishda tanish manipulyativ texnikalardan foydalanadilar.

D. Vaysning ta’kidlashicha, unga boshqalar bilan munosabatlarining murakkabligi haqida shikoyatlar bilan murojaat qilgan ko‘plab bemorlar ongsiz ravishda aybdorlik hissi bilan og‘irlik qilishgan. Ular ko‘pincha kimningdir noroziligini his qilishdan shunchalik qo‘rqishganki, erkin muloqot qilish qobiliyatini yo‘qotishgan. Ularning haddan tashqari zaifligi ularga o‘zaro munosabatlardan zavqlanishga to‘sqinlik qilgan (muallif bunday bemorlarda odatda o‘zlarining baxtsizliklari uchun ularni ayblashga moyil bo‘lgan o‘jar va talabchan ota-onalar bo‘lganini ta’kidlaydi). Ko‘pgina bemorlar boshqalar tomonidan ularga qo‘yilgan ayblovlarga qarshi tura olmadilar, ko‘pincha o‘zlarini nohaq ayblashga yo‘l qo‘yishdi. Ular o‘z ayblarini ongli ravishda inkor etadilar, ammo ularning asosiy shikoyatlaridan biri shundaki, ayblanganda o‘zlarini himoya qila olmaydilar, faqat yig‘laydilar va o‘zlarini juda baxtsiz his qiladilar. Bu odamlar tortishuvlardan qo‘rqishadi, ular bilan qanday kurashishni bilishmaydi. Bizning kuzatishlarimizga ko‘ra, ular notanish odamlar bilan munosabatlarda juda konformist bo‘lishlari mumkin. Shu bilan birga, yaqinlari bilan munosabatlar yashirin va ochiq mojarolarning cheksiz zanjiriga aylanadi.

Muallif aybdorlik hissi bilan to‘lib-toshgan bemorning misolini keltiradi, u buni boshdan kechirishdan shunchalik qo‘rqdiki, o‘zining xato qilganini tan olishdan mutlaqo bosh tortdi. Eri bilan yuzlashganda, u uning hamdardligini uyg‘otishga harakat qildi va ko‘z yoshlari bilan o‘zining aybsizligini isbotladi. Shu bilan birga, u aybni unga ag‘darish uchun juda ko‘p harakat qildi. U uni o‘zining baxtsizligi uchun ayblab, haqoratli so‘zlar bilan haqorat qildi.

Biz o‘z tadqiqotimizni Farg‘ona davdat universitetining Matematika yo‘nalishi 1 kursning 22 nafar talabalari va logopediya yo‘nalishi 1 kursning 24 nafar talabalari jalb etildi. Ularda I.A.Belikning “Aybdorlik hissini o‘rganish” metodikasidan foydalanildi. Uning natijalari qo‘yidagi jadvalda aks ettirilgan.

Jadval-1.

“Aybdorlik hissini o‘rganish” bo’yicha jinslar natijalari

Guruhlar	O‘rtacha ball	Aybdorlik hissiy darajasi
Qizlar	68,	Yuqori
Yigitlar	54.7	O‘rta

Jadval natijalariga ko‘ra, talabalarda aybdorlik hissini aniqlash maqsadida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘il bolalardan ko‘ra qizlarda aybdorlik hissini yuqori ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalarga ko‘ra o‘g‘il bolalardagi aybdorlikning holat sifatida rivojlanishi ulardagi aybdorlikning xususiyat sifatida o‘rtacha ifodasi bilan musbat korrelyatsiya bermoqda. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘rtacha aybdorlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan shaxslar yuqori moslashuvchan qobiliyatlarga ega bo‘lishadi, ya’ni ularda o‘zlariga nisbatan ijobiy hissiy-qadriyatli munosabat, haètning mazmunliligi va shaxsiy o‘zgarishlarga intilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyati hamda stressli vaziyatlarga qarshilik ko‘rsata olish shakllanadi. Bunga ko‘ra qizlarda o‘g‘il bolalarga nisbatan aybdorlik hissining yuqori bo‘lishi faqat genetik emas, balki ko‘proq ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar bilan bog‘liq. Quyida ushbu holatning asosiy psixologik sabablarini ko‘rib chiqamiz:

1. Ijtimoiy tarbiya va “yaxshi qiz” sindromi

Jamiyatda qiz bolalarga nisbatan qo‘yiladigan talablar ko‘pincha yuqoriroq bo‘ladi. Ularga yoshligidanoq itoatkorlik, yuvosh bo‘lish, kattalarga gap qaytarmaslik va atrofdagilarga yoqimli bo‘lish kabi sifatlar singdiriladi. Natijada qizlar ko‘pincha o‘z fikrini ochiq bildirishdan tiyilib, boshqalarning kutganlariga moslashishga intiladi.

Shuningdek, mukammallikka intilish talabi ham kuchli bo‘ladi. O‘qishda, uy ishlarida yoki xulq-atvorda xato qilmaslik zarur degan qarash qizlarda xato qilishdan qo‘rquvni kuchaytiradi. Hatto kichik kamchiliklar ham o‘zini ayblash va o‘ziga nisbatan talabchanlikning ortishiga olib keladi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qizlarda empatiya, ya’ni boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash qobiliyati erta va nisbatan kuchliroq rivojlanadi. Shu sababli ular yaqinlarining kayfiyati uchun o‘zlarini mas’ul his qilishga moyil bo‘ladi. Oilada yoki atrof-muhitda kelib chiqqan muammoli vaziyatlarda qiz bola o‘zini aybdor his etishi, “balki bunga men sabab-chidirman” degan fikrga kelishi mumkin.

Munosabatlarni saqlab qolish istagi ham muhim omillardan biridir. Qizlar odatda ijtimoiy aloqalarni qadrlaydi va nizolardan qochishga harakat qiladi. Ko‘pincha ular munosabat buzilib ketmasligi uchun o‘z haq-huquqlaridan voz kechishi yoki hatto aybni o‘z zimmasiga olish orqali vaziyatni yumshatishga urinadi.

Bundan tashqari, qizlarda ichki tanqid kuchliroq namoyon bo‘ladi. O‘g‘il bolalarda norozilik ko‘proq tashqariga yo‘naltirilsa, qizlarda u ichki kechinmaga aylanadi. Muvaffaqiyatsizlikka uchraganida ular vaziyatni emas, balki o‘zini ayblashga moyil bo‘ladi. Bu esa “men yetarlicha yaxshi emasman” kabi fikrlarning shakllanishiga olib keladi.

Gender stereotiplari ham bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Madaniyatimizda ayol ko‘pincha sabr-toqatli, mehribon va oila muvozanatini saqlovchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Bunday ideal obraz qiz bolaning zimmasiga ortiqcha mas’uliyat yuklaydi. Agar u bu tasavvurlarga to‘liq mos kela olmasa, masalan, oddiy charchoq yoki kichik kamchilik sabab ham o‘zini aybdor his qilishi mumkin.



Diagramma natijalariga ko‘ra talabalarga “Aybdorlik bu....” deb berilgan savolimizga respondentlarning 43 foizi “vijdon azobi” degan javobni berib berib o‘tishdi. Bunga ko‘ra bolalar va o‘smirlarning "aybdorlik" tuyg‘usini birinchi navbatda vijdon azobi bilan bog‘lashi tabiiy va psixologik jihatdan asoslangan holatdir. Bu yerda gap nafaqat so‘zning ma’nosida, balki shaxsning ichki ma’naviy rivojlanishi haqida ketmoqda.

Quyida ushbu holatning asosiy psixologik sabablarini ko‘rib chiqamiz:

1. "Super-Ego" (Ichki nazoratchi) shakllanishi

Psixoanaliz nazariyasiga ko‘ra, bola ulg‘aygan sari unda Super-Ego (vijdon) shakllanadi. Bu ota-ona va jamiyat tomonidan o‘rnatilgan qoidalarning ichki ovozga aylanishidir. Bola biror xato qilganda, tashqaridan hech kim tanbeh bermasa ham, uning ichki "nazoratchisi" ishga tushadi. Shu sababli aybdorlikni bevosita vijdon bilan bog‘lashadi.

2. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi

Tarbiya jarayonida bolalarga "yaxshi" va "yomon" tushunchalari singdiriladi. Bolalar uchun aybdorlik - bu shunchaki xato emas, balki o‘zlari ishongan axloqiy chegaradan chiqib ketishdir. Vijdon azobi esa bu chegaraning buzilganiga berilgan ichki signaldir.

3. Empatiya (Hamdardlik) qobiliyati

O‘g‘il va qiz bolalarda boshqalarning og‘rig‘ini his qilish qobiliyati rivojlangan bo‘ladi. Agar ularning harakati kimgadir zarar yetkazsa, ular o‘zlarini o‘sha inson o‘rniga qo‘yib ko‘rishadi. Bu jarayondagi noqulaylik va ruhiy bosim "vijdon qiynalyapti" degan shaklda ifodalanadi.

4. Ijtimoiy mas’uliyat va qo‘rquv

Ko‘p hollarda bolalar uchun aybdorlik - bu yaqin insonlar (ota-ona, do‘stlar) ishonchini yo‘qotishdan qo‘rqishdir. Ular "Men noto‘g‘ri ish qildim va bu mening shaxsiyatimga mos emas" deb o‘ylashganda, bu fikr azobli tuyg‘uga aylanadi. Vijdon azobi bu yerda "qayta tiklash" mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni bola xatosini tuzatishga harakat qiladi.

5. Gender xususiyatlaridagi o‘xshashlik

Qiziqarli jihati shundaki, ham o‘g‘il, ham qiz bolalarning bir xil javob berishi - jamiyatdagi umuminsoniy qadriyatlarning bir xil ta’sir qilayotganidan dalolat beradi:

Qiz bolalarda bu ko‘proq munosabatlarni saqlab qolish istagi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

O‘g‘il bolalarda esa mas’uliyat va "marlik" prinsiplariga sodiqlik bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytish kerakki, o‘g‘il bolalar va qizlarning aybdorlik hissini boshdan kechirishdagi gender farqlar ularning jamiyatdagi o‘rni haqidagi stereotipik tasavvurlar bilan bog‘liq. Zero, o‘g‘il bolalar va qizlar jamiyatda oldindan saqlanib qolgan jinsiy rolga oid stereotiplarga qanchalik ko‘p amal qilishsa, ular haèti davomida ushbu xatti-harakat qoidalarini buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatda o‘zlarini aybdor his qilishadi. Shaxslarda norozilikni keltirib chiqaruvchi aybdorlikni sababsiz ranjitish, xavotir omillarining ifodalanishiga ko‘ra, shaxsiy haèt bilan bog‘liq xususiyatlarning namoèn bo‘lishida qo‘rquv, afsuslanish, pushaymonlik, vijdon azobi sifatlarini kuchayishi natijasida autoagressiya dominanta determinantalar ustivorligi yuzaga keladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Jo‘raqulova D. F. Shaxsda aybdorlik hissining yuzaga kelishi va uning psixologik xususiyatlari // Ilmiy axborotnoma. – Samarqand, 2017. – № 4 (104). – B. 155–159.

2. Jo‘raqulova D. F. Oilaning bolalarda aybdorlik hissini shakllanishidagi tutgan o‘rni // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2019. – B. 265–269.

3. Битянова М. Р. Социальная психология. – 2-е изд., доп. и перераб. – М. : Питер, 2008. – С. 162–167.

Ильин Е. П. Эмоции и чувства. – СПб. : Москва–Харьков–Минск, 2001. – С. 125–127.

4. Кандаков И. М. Психология: иллюстрированный словарь. – СПб. : Прайм-Еврознак, 2007. – 25 с.

5. Майерс Д. Социальная психология. – СПб. : Питер, 2002. – 639 с.

Koshmuratova Gulnaz Berdibay qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat magistranti,
Suletbaeva Ella Serikbaevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc)

O‘SMIRLARNING PSIXIK XUSUSIYATLARIDA IJTIMOIY MUHIT VA OILAVIY OMILLARNING O‘ZARO TA’SIRI

Annotatsiya. *Bu maqolada o‘smirlarning psixik xususiyatlariga ijtimoiy muhit va oilaviy omillarning ta’siri empirik jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqot Nukus va Mo‘ynoq tumanlarida yashovchi 12–17 yoshdagi o‘smirlar ishtirokida o‘tkazildi. Psixodiagnostik vositalar sifatida Spilberger–Xanin tashvish shkalasi va Dembo–Rubinshteyn metodikasi qo‘llanildi. Natijalar Nukus tumanida, ayniqsa noto‘liq oilalarda, tashvish darajasi yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi, Mo‘ynoq tumanida esa o‘smirlarning psixologik holati nisbatan barqarorligi aniqlandi. Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, farqlar ishonchli darajaga yetmagan ($p > 0.05$), biroq ayrim tendensiyalar kuzatildi. Shuningdek, o‘z-o‘zini baholash va da’vo darajasining yuqoriligi fonida tashvishning ham yuqori bo‘lishi ichki psixologik ziddiyat mavjudligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari o‘smirlar bilan ishlashda ijtimoiy va oilaviy omillarni kompleks hisobga olish zarurligini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlar psixikasi, ijtimoiy muhit, oilaviy omillar, to‘liq va noto‘liq oila, vaziyatli tashvish, shaxsiy tashvish, o‘z-o‘zini baholash, da’vo darajasi, ichki psixologik ziddiyat, psixodiagnostika, hududiy farqlar.*

THE INTERACTION OF SOCIAL ENVIRONMENT AND FAMILY FACTORS IN THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ADOLESCENTS

Abstract. *This article empirically examines the influence of social environment and family factors on adolescents’ psychological characteristics. The study was conducted among 12-17-year-old adolescents living in Nukus and Muynak districts. The psychodiagnostic tools used were the Spielberger-Hanin Anxiety Scale and the Dembo-Rubinstein self-assessment method. The results showed that anxiety levels were higher in the Nukus district, especially among adolescents from incomplete families, while adolescents in the Muynak district demonstrated relatively more stable psychological conditions. According to statistical analysis, the differences were not statistically significant ($p > 0.05$), although certain tendencies were observed. It was also revealed that a combination of high self-esteem and high aspiration levels together with elevated anxiety indicates the presence of internal psychological conflict. The findings emphasize the importance of considering both social and family factors in psychological work with adolescents.*

Key words: *adolescent psychology, social environment, family factors, complete and incomplete family, state anxiety, trait anxiety, self-esteem, level of aspiration, internal psychological conflict, psychodiagnostics, regional differences.*

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ И СЕМЕЙНЫХ ФАКТОРОВ В ПСИХИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЯХ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье эмпирически исследуется влияние социальной среды и семейных факторов на психологические особенности подростков. Исследование проведено среди подростков 12-17 лет, проживающих в Нукусском и Муйнакском районах. В качестве психодиагностических инструментов использовались шкала тревожности Спилбергера-Ханина и методика Дембо-Рубинштейн. Результаты показали, что уровень тревожности выше в Нукусском районе, особенно среди подростков из неполных семей, тогда как в Муйнакском районе психологическое состояние подростков является более стабильным. Согласно статистическому анализу, различия не являются статистически значимыми (p*

> 0.05), однако наблюдаются определённые тенденции. Также установлено, что сочетание высокой самооценки и уровня притязаний с повышенной тревожностью свидетельствует о наличии внутреннего психологического конфликта. Полученные результаты подчеркивают важность учета социальных и семейных факторов в психологической работе с подростками.

Ключевые слова: *психология подростков, социальная среда, семейные факторы, полная и неполная семья, ситуативная тревожность, личностная тревожность, самооценка, уровень притязаний, внутренний психологический конфликт, психодиагностика, региональные различия.*

Kirish. O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining eng sezgir bosqichlaridan biri bo‘lib, psixik buzilishlar ehtimoli yuqori. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, 10-19 yoshdagi o‘smirlar orasida psixik buzilishlar 14,3 % ni tashkil etadi[1]. O‘zbekiston sharoitida ham ijtimoiy muhit va oilaviy sharoitlar o‘smirlarning emotsional barqarorligiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan o‘smirlarda tashvish darajasi yuqori, o‘z-o‘zini baholash esa past ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, hududiy ijtimoiy-madaniy sharoitlar psixik xususiyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur tadqiqotning maqsadi-turli hududlarda yashovchi o‘smirlarning psixik xususiyatlariga oilaviy va ijtimoiy muhit omillarining integrativ ta’sirini empirik jihatdan o‘rganishdir.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda o‘smirlar psixikasiga oilaviy va ijtimoiy muhit omillarining ta’siri jahon miqyosida keng o‘rganilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (JSST) 2025 yilgi hisobotiga ko‘ra, dunyoda 10-19 yoshdagi har yetti o‘smirdan biri psixik buzilishlarga duch keladi va bu ko‘rsatkich o‘smirlik davrining psixologik jihatdan eng zaif bosqich ekanligini tasdiqlaydi [1]. Xalqaro tadqiqotlar (2021/2022) Yevropa, Markaziy Osiyo va Kanada mamlakatlarida o‘smirlarning ruhiy salomatligi oilaviy farovonlik darajasiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi: past oilaviy farovonlik tashvish, depressiya va past o‘z-o‘zini baholash xavfini oshiradi[3].

O‘rta Osiyo va O‘zbekiston miqyosida ham shunga o‘xshash tendensiyalar kuzatilmoqda. O‘zbekistonda o‘tkazilgan UNICEF tadqiqotiga ko‘ra, o‘smirlar orasida o‘rtacha va og‘ir darajadagi tashvish 15,4 %, depressiya esa 9,8 % ni tashkil etadi. Ota-onasi uydan uzoqda yashovchi yoki oilaviy munosabatlari zaif bo‘lgan o‘smirlarda bu ko‘rsatkichlar yanada yuqori bo‘lib, oilaviy omilning muhimligini tasdiqlaydi [2]. Ozarbayjonda o‘tkazilgan tadqiqot iqtisodiy qiyinchiliklar oilaviy tarbiya orqali o‘smirlarning ichki psixologik muammolarini kuchaytirishini ko‘rsatdi [4].

Oila bola shaxsini shakllantirishda yetakchi mikromuhit sifatida e’tirof etiladi. Ota-onalarning munosabati, oiladagi rollarning taqsimlanishi, aloqa sifati va emotsional qo‘llab-quvvatlash bolaning shaxsiy xususiyatlari - mas’uliyat, erkinlik, o‘ziga ishonch, altruizm, agressivlik - rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [9]. Xususan, S.V. Krivsova va N.V. Morozova tadqiqotlariga ko‘ra, iliq va qo‘llab-quvvatlovchi muhitda o‘sgan bolalar ijtimoiy moslashishga, o‘z fikrini ifoda etishga va o‘zaro munosabatlarni qurishga nisbatan yuqori qobiliyatga ega bo‘ladilar[10]. Oilaviy tarbiya muammolarini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi ko‘plab bolalar psixologlarining aytishicha, to‘liq oila bola tarbiyasining muvaffaqiyatli bo‘lishiga kafolat bermaydi, balki uning shaxsining muvaffaqiyatli shakllanishiga faqat zamin yaratadi.

Noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan o‘smirlarda tashvish va past o‘z-o‘zini baholash darajasi yuqori ekanligi ko‘plab xalqaro tadqiqotlarda tasdiqlangan. Masalan, Vetnamda ajralgan yoki ajrashgan ota-onalarning farzandlarida stress, tashvish va depressiya xavfi sezilarli darajada yuqori bo‘lgan[5]. Xitoy va Yevropa tadqiqotlarida ham oilaviy funksiya buzilishi (ayniqsa noto‘liq oilalarda) o‘smirlarning emotsional beqarorligi va past o‘z-o‘zini baholashiga olib kelishi aniqlangan[7,8].

Dembo-Rubinshteyn metodikasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar o‘smirlarning o‘z-o‘zini baholashi va ideal “Men” obrazi o‘rtasidagi nomuvofiqlik ichki psixologik ziddiyatga sabab bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Mo‘g‘ulistonda o‘tkazilgan tadqiqotda Dembo–Rubinshteyn shkalasi yordamida o‘smirlarning o‘zini haddan tashqari yuqori baholashi va da’vo darajasi yuqori bo‘lishi

ichki ziddiyatni kuchaytirishi aniqlangan [6]. Biroq O‘zbekiston sharoitida hududiy (tumanlar kesimida) va oilaviy omillarning birgalikdagi ta’sirini qiyosiy o‘rganish hali yetarli emas. Mazkur tadqiqot ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, uning ilmiy yangiligi shunda hisoblanadi.


Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida 12–17 yoshdagi o‘smirlar tanlab olindi, predmeti esa turli ijtimoiy muhit (hududiy va oilaviy sharoitlar) ta’sirida o‘smirlarning psixik xususiyatlarining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Tadqiqot tanlanmasi ixtiyoriylik va anonimlik tamoyillari asosida shakllantirildi. Jami 185 nafar o‘smir ishtirok etdi, shundan Nukus tumani bo‘yicha 87 nafar (52 nafari to‘liq oiladan, 35 nafari to‘liq bo‘lmagan oiladan), Mo‘ynoq tumani bo‘yicha esa 98 nafar (79 nafari to‘liq oiladan, 19 nafari to‘liq bo‘lmagan oiladan) respondent jalb etildi.Tadqiqotda quyidagi psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi:

- Dembo-Rubinshteyn metodikasi - o‘z-o‘zini baholash va da’vo darajasini aniqlash uchun;
- Spilberger-Xanin shkalasi - shaxsiy va vaziyatli tashvish darajasini aniqlash uchun.

Olingan natijalarni statistik tahlil qilishda tavsifiy statistika (foiz ko‘rsatkichlari) hamda guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida Mann-Witney U testi qo‘llanildi.


Tadqiqot natijalari. Tadqiqot doirasida o‘smirlarning psixik xususiyatlari, xususan vaziyatli tashvish darajasi hududiy va oilaviy omillar kesimida empirik tahlil qilindi. Olingan natijalar dastlab grafik ko‘rinishda tahlil qilinib, keyinchalik statistik usullar yordamida tekshirildi.

1-rasmda Nukus tumani o‘smirlarining vaziyatli tashvish darajalari aks ettirilgan. Natijalarga ko‘ra, ushbu hududda o‘rta va yuqori darajadagi tashvish ko‘rsatkichlari ustunligi kuzatiladi. Ayniqsa, noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan o‘smirlar orasida yuqori tashvish darajasi salmoqli ulushni tashkil etadi. Mazkur holat Nukus hududida ijtimoiy-psixologik muhitning nisbatan stressogen ekanligini ko‘rsatadi.



1-rasm. Nukus tumani o‘smirlarida vaziyatli tashvish darajasining taqsimlanishi

2-rasmda Mo‘ynoq tumani o‘smirlarining vaziyatli tashvish darajalari tasvirlangan. Olingan natijalarga ko‘ra, ushbu hududda past va o‘rta darajadagi tashvish ko‘rsatkichlari ustun bo‘lib, yuqori darajadagi tashvish nisbatan kam uchraydi. Bu esa o‘smirlarning psixologik holati nisbatan barqaror ekanligini bildiradi.



2-rasm. Mo‘ynoq tumani o‘smirlarida vaziyatli tashvish darajasining taqsimlanishi

Grafik tahlil natijalarini yanada aniqlashtirish va guruhlar o‘rtasidagi farqlarni statistik jihatdan baholash maqsadida Mann-Witney U testi qo‘llanildi. Ushbu tahlil natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval-1.

Hududlar kesimida o‘smirlarning vaziyatli va shaxsiy tashvish darajalari bo‘yicha Mann-Whitney U testi natijalari

Tuman	Ko’rsatgich	Oilaviy holat	N	O’rtacha rang	U	Z	p
Mo’ynoq	VX	To’liq emas	19	50,24	736,5	-0,126	0,900
		To’liq	79	49,32			
	SHX	To’liq emas	19	50,71	727,5	-0,207	0,836
		To’liq	79	49,21			
Nukus	VX	To’liq emas	35	48,36	757,5	-1,322	0,186
		To’liq	52	41,07			
	SHX	To’liq emas	35	44,23	902,0	-0,069	0,945
		To’liq	52	43,85			

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Mo‘ynoq tumanida vaziyatli tashvish (VX) bo‘yicha (U = 736.5; Z = -0.126; p = 0.900) hamda shaxsiy tashvish (SHX) bo‘yicha (U = 727.5; Z = -0.207; p = 0.836) guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. Nukus tumanida ham vaziyatli tashvish (U = 757.5; Z = -1.322; p = 0.186) va shaxsiy tashvish (U = 902.0; Z = -0.069; p = 0.945) ko‘rsatkichlari bo‘yicha farqlar statistik jihatdan ishonchli emasligi aniqlandi. Reyting ko‘rsatkichlari tahlili bo’lsa Nukus tumanida to‘liq bo‘lmagan oilalarda vaziyatli tashvish darajasi nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu farq statistik jihatdan tasdiqlanmagan (p > 0.05).

Dembo–Rubinshteyn metodikasi natijalari o‘smirlarning o‘z-o‘zini baholash va da’vo darajasida hududiy farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Nukus tumani o‘smirlarida “juda yuqori” darajadagi o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari ustun bo‘lib, aql (44,8 %), xarakter (52,9 %), obro‘ (66,7 %), tashqi ko‘rinish (67,8 %) va o‘ziga ishonch (78,2 %) bo‘yicha yuqori natijalar qayd etildi. Noto‘liq oilalarda ushbu ko‘rsatkichlar yanada yuqoriroq (57-74 %) ekanligi aniqlandi.Mo‘ynoq tumani o‘smirlarida esa o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari nisbatan muvozanatli bo‘lib, o‘rta va yuqori darajalar ustunligi kuzatildi (o‘ziga ishonch - 52,1 %, xarakter - 31,7 %). Da’vo darajasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham Nukus tumanida “juda yuqori” daraja

ustunligi (80-94 %) aniqlangan bo‘lsa, Mo‘ynoq tumanida bu ko‘rsatkichlar yuqori, ammo nisbatan muvozanatli xarakterga ega ekanligi qayd etildi.

Muhokama. Olingan natijalar o‘smirlar psixik xususiyatlarining shakllanishida ijtimoiy muhit va oilaviy omillarning o‘zaro ta’siri muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Spilberger-Xanin metodikasi natijalariga ko‘ra, Nukus tumani o‘smirlari orasida tashvish darajasi Mo‘ynoq tumani o‘smirlariga nisbatan yuqoriroq tendensiyaga ega. Biroq ushbu farqlar statistik jihatdan ahamiyatli emasligi ($p > 0.05$) o‘smirlar psixologik holatini faqat oilaviy omillar bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Dembo–Rubinshteyn metodikasi natijalari bilan qiyosiy tahlil muhim ilmiy holatni ochib berdi. Nukus tumani o‘smirlarida o‘z-o‘zini baholash va da’vo darajasining haddan tashqari yuqoriligi bilan bir qatorda tashvish darajasining ham yuqori ekanligi ichki psixologik ziddiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Bu “real Men” va “ideal Men” o‘rtasidagi tafovut bilan izohlanadi.

Mo‘ynoq tumani o‘smirlarida esa o‘z-o‘zini baholashning nisbatan adekvat va muvozanatli bo‘lishi tashvish darajasining pastroq bo‘lishi bilan uyg‘unlashib, psixologik barqarorlikning yuqoriligini ko‘rsatadi.Shuningdek, natijalar hududiy ijtimoiy muhit oilaviy omillar ta’sirini kuchaytiruvchi yoki yumshatuvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari o‘smirlar psixik xususiyatlari ijtimoiy muhit va oilaviy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanishini tasdiqladi. Nukus tumani o‘smirlari orasida tashvish darajasi va ichki psixologik ziddiyat yuqori, Mo‘ynoq tumani o‘smirlari esa nisbatan psixologik barqarorlikka ega ekanligi aniqlandi. Noto‘liq oila omili har ikki hududda ham o‘smirlarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Biroq uning ta’siri hududiy ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Amaliy takliflar:

noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan o‘smirlar bilan individual va guruhiy psixokorreksion dasturlarni tizimli ravishda tashkil etish;

maktab psixologlari faoliyatida hududiy xususiyatlarni hisobga olgan differensial profilaktik dasturlarni ishlab chiqish;

o‘smirlarda adekvat o‘z-o‘zini baholash va realistik da’vo darajasini shakllantirishga qaratilgan psixologik treninglarni joriy etish;

Dembo-Rubinshteyn va Spilberger-Xanin metodikalarini kompleks diagnostik vosita sifatida qo‘llashni kengaytirish;

ota-onalar bilan psixologik maslahat va treninglar orqali oilaviy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan ishlarni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST). O‘smirlarning ruhiy salomatligi. – Jeneva, 2025.

2. UNICEF Uzbekistan. O‘smirlarning maktabdagi ruhiy salomatligi tadqiqoti. – Toshkent, 2024.

3. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining Yevropa mintaqaviy boshqarmasi. Yevropa, Markaziy Osiyo va Kanadada o‘smirlarning ruhiy salomatligi va farovonligiga e’tibor. HBSC 2021/2022. – Kopengagen, 2023.

4. Ismayilova L. va boshq. Pathways to child mental health: A structural equation model of economic deprivation, parenting, and internalizing problems // SSM – Mental Health. – 2025.

5. Tran B. T. va boshq. Mental health and its determinants among adolescents living in families with separated or divorced parents // Osong Public Health and Research Perspectives. – 2023. – Vol. 14, No. 6.

6. Badmaanyam E. va boshq. Research on self-esteem of adolescents of Mongolia // The Asian Conference on Psychology & the Behavioral Sciences. – 2023.

Xalilova Xurshida Teshayevna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasi dotsenti,
Norboyeva Farzina Xusniddin qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) magistranti,
Istamqulov Sarvarbek Xusniddin o’g’li
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo’nalishi talabasi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SUVNI TEJASH TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarida suvni tejash tushunchasini shakillantirishning pedagogik-metodik asoslari yoritilgan. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga ekologik tarbiya berishda tabiatni asrash kompetentsiyasini shakllantirish, tabiat bilan muloqot qilish, tabiat qonunlari va hodisalariga oid kreativ fikrlashini rivojlantirish, ekologikik tarixiy qadriyatlarni singdirish va ekologik mehnat ko’nikmalarini rivojlantishga erishish ko’zda tutilgan. Tadqiqotda interaktiv metodlar, tajriba-sinov ishlari va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda ekologik ong va suv resurslariga mas’uliyatli munosabatni rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib berildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, maxsus ishlab chiqilgan metodika asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va qadriyatlariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *suv resurslari, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik muvozanat, ekologik ong, tajriba-sinov, interfaol metodlar.*

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ОБ ЭКОНОМИИ ВОДЫ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В данной статье освещаются педагогико-методические основы формирования представлений об экономии воды у учащихся начальных классов. В процессе экологического воспитания учащихся начальных классов предусматривается формирование компетенции по охране природы, развитие навыков взаимодействия с природой, креативного мышления в отношении природных законов и явлений, привитие экологико-исторических ценностей и развитие экологических трудовых навыков. В исследовании показаны пути формирования экологического сознания и ответственного отношения к водным ресурсам у учащихся посредством использования интерактивных методов, опытно-экспериментальной работы и практических занятий. Результаты показали, что занятия, организованные на основе специально разработанной методики, оказывают значительное положительное влияние на знания, умения и ценностные ориентации учащихся.*

Ключевые слова: *водные ресурсы, экологическое воспитание, экологическая культура, экологическое равновесие, экологическое сознание, экспериментальное исследование, интерактивные методы.*

METHODOLOGY FOR FORMING THE CONCEPT OF WATER CONSERVATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *This article highlights the pedagogical and methodological foundations for developing the concept of water conservation among primary school students. In the process of environmental education, it aims to develop students’ competence in nature protection, foster interaction with nature, enhance creative thinking related to natural laws and phenomena, instill ecological and historical values, and develop ecological labor skills. The study demonstrates ways to develop ecological awareness and a responsible attitude toward water resources through the use of*

interactive methods, experimental work, and practical activities. The results indicate that lessons organized on the basis of a specially designed methodology have a significant positive impact on students' knowledge, skills, and value orientations.

Key words: *water resources, environmental education, ecological culture, ecological balance, ecological awareness, experimental research, interactive methods.*

Bugungi kunda ekologiya, tabiatni muhofaza qilish tushunchalarini atrof-muhitga hurmat bilan tushunish ekologik madaniyatni shakllantirish muammosini hal qilish usullaridan biri sifatida ekologik ta'limning yaxlit tizimini yaratish uchun boshlang‘ich nuqtalardir. Bu ekologik ta‘limdagi innovatsion tendensiyalarni joriy etishning yangi keng maydonidir. Bizning fikrimizcha, ekologik ta'lim va tarbiyaning markaziy bo‘g‘ini maktabdir. XXI asrda insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri –ekologik muvozanatni saqlash va yosh avlodda tabiatni asrash madaniyatini shakllantirishdir. Bu jarayonni samarali tashkil etishda ta’lim tizimining o‘rni beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan, interfaol ta’lim metodlari ekologik tushunchalarni o‘quvchilarga chuqur va ongli ravishda singdirish imkonini beradi. Chunki ular o‘quvchini dars jarayonining markaziga qo‘yadi, mustaqil fikrlash, kuzatish va tahlil qilishni o‘rgatadi. Tabiiy fanlar bo‘yicha maktab fanlari o‘quvchilarga tabiatning jamiyat uchun ahamiyatini anglashga, tabiat hayot va ma’naviy qoniqishning asosiy manbai ekanligini tushunishga yordam beradi, inson ehtiyojlari, unga mas'uliyatli munosabatda bo‘lish zarurligini anglatadi. Tabiiy fanlar nafaqat maktab o‘quvchilarining keng guruhidagi ekologik muammolar bilan tanishish, balki mahalliy muammolarning ahamiyatini, ularning paydo bo‘lishi, oqibatlari va yechimlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, suvning ifloslanishi deyarli barcha hududlarning asosiy muammolaridan biridir. Buning asosiy sababi insonning suvga nisbatan savodsizlarcha faoliyatidir. Vaziyatning barcha murakkabligi dunyodagi toza suv zahiralari mavjudligining umumiy ko‘rsatkichiga bog‘liq. Jahon okeanining hajmi suv massasining 96,5 foizini, chuchuk suvlar umumiy suv ta'minotining atigi 3,5 foizini tashkil qiladi. Mavjud muz shaklidagi resurslarning atigi 1 foizi inson iste'moli uchun mavjud. Toza suvning mamlakatlar va qit'alar bo‘ylab taqsimlanishi notekis. Masalan, butun sayyoramiz aholisining 20 % yashaydigan Yevropada suv zahiralarining atigi 7 %i mavjud. Bu davlatlarni nafaqat ichimlik suvi bilan ta‘minlash, balki omon qolish va hayot sifati uchun ham turli xil sharoitlarga qo‘yadi. Ushbu resurslarning yetishmasligidan oldin, boy iqtisodiy rivojlangan davlatlar ham, kambag‘allar ham tengdir. Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda ichimlik suvi tanqisligi mavjud. Shu bois, biz yashayotgan yurtimizda suvga munosabatni yoshlikdan o‘zgartirish lozim.

Uzbekistan–2030 Strategy “O‘zbekiston–2030 strategiyasi” doirasida uchinchi ustuvor yo‘nalish suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilishga bag‘ishlanib, unda 2 ta kichik yo‘nalish va 12 ta maqsad nazarda tutilgan. Mazkur yo‘nalishda suv resurslarini tejash hamda atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha islohotlar belgilangan.

Mazkur ustuvor yo‘nalishda suvga alohida e’tibor berilgani bejizga emas. Aynan suv resurslari eng dolzarb muammolaridan biri. Ma’lumotlarga qaraganda 2030-yilga borib O‘zbekistonga 7 mlrd kub metr suv yetishmasligi mumkin. Suvdan maqsadsiz foydalanish va suv resurslari yetkazib berishda nazorat masalalarini hal etish biz uchun favqulodda muhimdir. Shu sababli ham mazkur kichik yo‘nalish doirasida suv iste’moli va suvdan foydalanish ustidan ta’sirchan nazorat qilish mexanizmini yaratish masalasini ham kiritish maqsadga muvofiq.

Ta‘limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta`lim markazida bo‘lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta`minlash uchun ta`lim muassasalarida yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarini mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalaninsh qoidalarini biladigan o‘qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarining o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Innovatsiya, bu-kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion

g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” - deb aytganlari umumta‘lim fani o‘qituvchisini ma‘lum zaruriy bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi bilan birga shu bilimlarni o‘quvchi va talabalar ongiga singdirishda yangi texnologiyalar, innovatsiyalar olib kirmog‘i lozimligini ta‘kidlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga “Suv–chekli resurs” mavzusini tushuntirishda “aqliy hujum” metodidan samarali foydalanish darsni yanda qiziqarli o‘tishida muhim innovatsion usullardan biridir. “Aqliy hujum” ta’lim metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt bo‘yicha qancha bosqichlarga g‘oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish ajratishdan iborat. Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. “Aqliy hujum” biror muammo bo‘yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr-mulohazalarni to‘plab, ular orqali natijada ma'lum bir echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz varaqcha (kartochka)lariga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Ta'lim oluvchilarda o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Metod barcha mavzu va savollar umumiy yo‘nalish saqlangan holda katta guruh tarkibida guruhchalarga taqdim etiladi.

1. O‘quvchi umumiy mavzu bo‘yicha bir necha, balki 4-6 ta savol tayyorlashi mumkin.

2. Katta guruh kichik guruhchalarga ajratiladi va har bir guruhga aqliy hujum o‘tkazish uchun savol beriladi.

3. Har bir guruhcha aqliy hujum tavsilotini yozib olish uchun bittadan kishi ajratadi, keyinchalik, jarayon tugashi bilan uni guruhning barcha a’zolariga taqdim etadi.

4. G‘oyalar har bir guruhcha tomonidan katta sahifaga markerdan foydalanib yozib olishi mumkin. Shunday sahifa plakatning yuqorisiga tayyorlangan savollar yozib qo‘yiladi. Plakat jarayonining ohirida har bir xoxlovchi nima yozilgan va jamlanganligini ko‘rishi uchun osib qo‘yiladi.

5. Aqliy hujumning bu metodi vaqtning qisqa davrida bir savolning bir necha jihati ishlab chiqishini zarur bo‘lgan joyda, ayniqsa, foydalidir.

6. O‘qituvchi rahbar – yordamchi sifatida harakat qiladi va bir guruhdan ikkinchi guruhga aqliy hujum amalga oshirilayotgan paytida e’tibor qaratadi.

Masalan, “Suv–chekli resurs” mavzusini tushuntirishda “aqliy hujum” metodidan samarali foydalanishda quyidagi savollarni berishi mumkin?

1. Savol: Suv tanqisligiga sabab bo‘luvchi omillarni ayting?

Javob: Ichimlik suvi tanqisligiga olib keladigan asosiy omillarga suv havzalarining ifloslanishi, inson faoliyati, urbanizatsiya oqibatlari, aholi sonining ko‘payishi, iqlim o‘zgarishi kiradi.

2. Savol: Suv resurslaridan samarasiz foydalanish iqtisodiyotning barcha sohalariga xos bo‘lib, taxminan qaysi sohalarga tegishli?

Javob: Taxminiy foydalanish tuzilishi:

- qishloq xo‘jaligi (asosan sug‘orish uchun) - 70%;
- sanoat – 20%;
- kommunal xo‘jaligi 10%.

3. Savol: Iqlimning o‘zgarishi suvga oid muammolarni keltirib chiqarishga ta’sir qiladimi?

Javob: Iqlim tizimining barcha tarkibiy qismlarida suv (biosfera, gidrosfera, atmosfera, quruqlik yuzasi) mavjud. Iqlim o‘zgarishining tabiat va odamlarga ta'siri suv resurslari orqali namoyon bo‘ladi.

4. Savol: Suv tanqisligi muammolarini bartaraf etish uchun qanday takliflar bera olasiz?

Javob: Suv tanqisligi muammolarini bartaraf etish suvdan foydalanishning milliy va mahalliy strategiyalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Masalan, resurslarni iqtisodiy sarflash vazifasi

mahsulot birligiga qo‘yiladi (qishloq xo‘jaligi va sanoat) hamda suv sarfini kamaytirish, suvni tejash, isrof qilmaslik va undan oqilona foydalanish. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib yuqoridagi kabi savol-javoblar yoki turli g‘oyalarni ilgari surish orqali suvni tejash va undan oqilona foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar almashinishi mumkin.

Darsning so‘nggida guruhlar baholanadi. Faol qatnashgan guruh a’zolari a’lo va ijobiy baholanadi.

Преподаватель кафедры педагогики и психологии
Самаркандский государственный медицинский университет,
Ахмадова Нозанин Муминовна
Студентка Самаркандский государственный медицинский университет,
направление Психология

СОСТОЯНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ОПУСТОШЕННОСТИ У МОЛОДЕЖИ В БРАЧНО-СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация. *В статье рассматривается проблема эмоциональной опустошенности у молодежи в брачно-семейных отношениях. Раскрываются основные причины данного состояния, включая несоответствие ожиданий и реальности брака, недостаточную психологическую готовность к семейной жизни и влияние внешних стрессовых факторов. Описаны ключевые проявления эмоциональной опустошенности, такие как снижение эмоциональной вовлеченности, ухудшение коммуникации и формирование чувства отчуждения между супругами. Подчеркивается значимость развития эмоциональной компетентности и навыков конструктивного взаимодействия для профилактики данного явления.*

Ключевые слова: *эмоциональная опустошенность, молодежь, брак, семейные отношения, коммуникация, психологическая адаптация.*

NIKOH-OILA MUNOSABATLARIDA YOSHLARDA EMOTSIONAL BO‘SHASHISH HOLATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar orasida nikoh va oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan emotsional bo‘shashish muammosi ko‘rib chiqiladi. Ushbu holatning asosiy sabablari, jumladan, nikoh haqidagi kutilmalar va real hayot o‘rtasidagi nomuvofiqlik, oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlikning yetarli emasligi hamda tashqi stress omillarining ta’siri yoritib beriladi. Emotsional bo‘shashishning asosiy namoyon bo‘lish shakllari sifatida emotsional jalb etilishning pasayishi, kommunikatsiyaning yomonlashuvi va turmush o‘rtoqlar o‘rtasida begonalashuv hissining shakllanishi tavsiflanadi. Mazkur holatni oldini olishda emotsional kompetentlikni rivojlantirish va konstruktiv muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish muhimligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *emotsional bo‘shashish, yoshlar, nikoh, oilaviy munosabatlar, kommunikatsiya, psixologik moslashuv.*

THE STATE OF EMOTIONAL EXHAUSTION AMONG YOUTH IN MARITAL AND FAMILY RELATIONSHIPS

Abstract. *This article examines the problem of emotional emptiness among young people in marital and family relationships. The main causes of this condition are identified, including the discrepancy between expectations and the reality of marriage, insufficient psychological readiness for family life, and the impact of external stress factors. Key manifestations of emotional emptiness are described, such as decreased emotional involvement, deterioration of communication, and the development of a sense of alienation between spouses. The importance of developing emotional competence and constructive interaction skills for the prevention of this phenomenon is emphasized.*

Key words: *emotional emptiness, youth, marriage, family relationships, communication, psychological adaptation.*

Введение. В последние годы в развитии института семьи прослеживаются заметные изменения, обусловленные как социально-экономическими, так и культурными преобразованиями общества. Эти процессы особенно остро отражаются на молодежи, которая нахо-

дится на этапе формирования жизненных установок и одновременно сталкивается с необходимостью построения устойчивых межличностных отношений. Вступление в брак в таких условиях сопровождается не только ожиданием эмоциональной поддержки и стабильности, но и повышенными требованиями к личностной зрелости, способности к взаимодействию и адаптации.

Современная молодежь нередко оказывается в ситуации, когда традиционные представления о семье утрачивают свою однозначность, а новые модели отношений еще не имеют четко сформированных ориентиров. Это приводит к внутренним противоречиям, связанным с несоответствием ожиданий и реального опыта семейной жизни. Дополнительную нагрузку создают экономические трудности, высокая занятость, влияние цифровой среды и изменение роли межличностного общения, что в совокупности оказывает влияние на эмоциональное состояние молодых супругов.

В этом контексте особую актуальность приобретает изучение феномена эмоциональной опустошенности, который все чаще проявляется в структуре семейных отношений. Данное состояние выражается не столько в открытых конфликтах, сколько в постепенном снижении эмоциональной включенности, утрате интереса к партнеру и ощущении внутренней дистанции. При этом внешне отношения могут сохраняться, однако их психологическое содержание существенно обедняется.

Следует отметить, что эмоциональная опустошенность в брачно-семейной сфере остается недостаточно разработанной проблемой в научной литературе. Вместе с тем она тесно соприкасается с рядом смежных понятий, таких как эмоциональное выгорание, межличностное отчуждение, снижение удовлетворенности браком и трудности семейной адаптации. Это позволяет рассматривать данный феномен как комплексное явление, возникающее на пересечении личностных особенностей, особенностей взаимодействия партнеров и влияния внешней социальной среды.

Таким образом, обращение к данной проблеме обусловлено необходимостью более глубокого понимания психологических механизмов, лежащих в основе эмоционального состояния молодежи в семейных отношениях. Это, в свою очередь, открывает возможности для разработки эффективных психолого-педагогических подходов, направленных на укрепление эмоциональной устойчивости и гармонизацию брачно-семейного взаимодействия.

Теоретические основы исследования. Понятие эмоциональной опустошенности рассматривается в рамках различных психологических направлений. В контексте теории эмоционального выгорания К. Маслача и С. Джексона данное состояние определяется как результат хронического эмоционального перенапряжения, сопровождающийся истощением, деперсонализацией и снижением чувства личной значимости [7]. Хотя первоначально концепция выгорания применялась к профессиональной сфере, современные исследования расширяют ее применение на сферу близких межличностных отношений.

С позиций гуманистической психологии А. Маслоу эмоциональная опустошенность может интерпретироваться как следствие фрустрации базовых потребностей личности - в любви, принятии и самореализации [8]. Отсутствие эмоциональной поддержки в браке приводит к внутреннему дисбалансу и ощущению пустоты.

Системный подход в семейной психологии В. Сатир подчеркивает, что эмоциональное состояние каждого члена семьи обусловлено функционированием всей семейной системы [10]. Нарушение коммуникационных паттернов, наличие скрытых конфликтов и неадаптивных ролей способствует накоплению эмоционального напряжения и постепенному истощению.

Одной из ключевых причин является несоответствие ожиданий и реальности семейной жизни. Молодые люди часто вступают в брак, опираясь на идеализированные представления о партнерстве, сформированные под влиянием социальных сетей, культуры и семейного воспитания. При столкновении с повседневными трудностями возникает когнитивный диссонанс, который со временем может перерасти в эмоциональное истощение.

Важным фактором выступает недостаточная психологическая готовность к браку. Молодежь не всегда обладает сформированными навыками конструктивного общения, разрешения конфликтов и эмоциональной регуляции. Это приводит к накоплению нерешенных проблем и снижению уровня взаимопонимания.

Согласно теории социального обмена Дж. Хоманса, устойчивость отношений зависит от субъективного баланса между вложениями и получаемыми выгодами [11]. Если один из партнеров воспринимает отношения как несправедливые или эмоционально «неокупаемые», это усиливает чувство неудовлетворенности и опустошенности.


Значимое влияние на эмоциональное состояние молодых супругов оказывают и внешние стрессовые факторы, среди которых особое место занимают материальные затруднения, высокая занятость и давление со стороны ближайшего окружения. Для семей, находящихся на начальном этапе своего развития, подобные обстоятельства становятся особенно чувствительными, поскольку механизмы адаптации и устойчивости еще не сформированы в достаточной степени.

Состояние эмоциональной опустошенности проявляется в постепенном ослаблении эмоциональной включенности в отношения, утрате интереса к партнеру и возникновении ощущения внутренней изолированности, несмотря на формальное наличие семьи. В поведении молодых супругов это может выражаться в снижении эмпатии, повышенной раздражительности, эмоциональной пассивности и стремлении избегать общения.

Одним из наиболее показательных проявлений данного состояния выступает феномен эмоционального отчуждения. В этом случае внешняя структура отношений сохраняется, однако их содержательная сторона утрачивает глубину, что приводит к ослаблению психологической близости между партнерами. Подобная ситуация, как правило, сопровождается ухудшением качества коммуникации и увеличением числа конфликтных взаимодействий.

Длительное сохранение такого состояния может иметь серьезные последствия как для отношений, так и для личности в целом. Оно способствует снижению удовлетворенности браком, формированию неэффективных моделей поведения и повышает вероятность дестабилизации семьи. Помимо этого, эмоциональное истощение негативно отражается на психическом состоянии человека, увеличивая риск развития тревожных и депрессивных проявлений.

Эмпирический анализ результатов исследования. В целях изучения эмоционального состояния молодежи в контексте брачно-семейных отношений было проведено анкетирование среди жителей города Самарканда. В исследовании приняли участие 70 респондентов, находящихся на этапе формирования или уже состоящих в семейных отношениях. Полученные данные позволили выявить особенности эмоционального самочувствия молодежи, которые оказывают непосредственное влияние на качество взаимодействия между партнерами.



Особый интерес представляют результаты, связанные с влиянием социальных сетей на эмоциональное состояние. На вопрос о переживании чувства эмоциональной опустошенности после использования социальных сетей 28,6% респондентов ответили «иногда», 17,1% - «часто», и 7,1% - «очень часто». При этом 31,4% отметили, что никогда не испытывают подобных ощущений, а 15,7% - редко.

Анализ ответов на вопрос о достаточности мотивации в повседневной жизни показал, что значительная часть опрошенных испытывает определенные трудности в данной сфере. Так, 31,4% респондентов отметили, что им иногда не хватает мотивации, 11,4% - часто, и 5,7% - очень часто. В то же время 35,7% участников указали, что никогда не испытывают подобного состояния, а 15,7% - редко.

Полученные данные свидетельствуют о том, что почти половина молодежи в той или иной степени сталкивается с дефицитом мотивации, что может выступать одним из факторов формирования эмоционального истощения.



Таким образом, можно констатировать, что значительная часть молодежи города Самарканда подвержена переживанию эмоциональной опустошенности, связанной с цифровой активностью. Это подтверждает гипотезу о влиянии социальных сетей на снижение эмоционального ресурса личности и формирование внутреннего психологического дискомфорта.

Дополнительный анализ результатов показал, что значительная часть опрошенных периодически испытывает состояние внутреннего упадка и эмоциональной нестабильности. Так, более трети респондентов отметили, что ощущают внутреннюю слабость время от времени, а часть участников сталкивается с этим достаточно часто. В условиях семейной жизни подобные состояния могут снижать уровень вовлеченности в отношения, ухудшать эмоциональный контакт между супругами и способствовать возникновению недопонимания.

Особое значение для устойчивости семейных отношений имеет наличие четких жизненных целей. Полученные данные свидетельствуют о том, что не у всех молодых людей сформированы ясные ориентиры, что может отражаться на планировании совместного будущего. Недостаточная определенность в целях способна вызывать напряжение в паре, поскольку партнеры могут по-разному воспринимать перспективы развития семьи.

Результаты исследования также показали, что значительная часть молодежи испытывает тревогу и неопределенность при размышлениях о будущем. В контексте брачно-семейных отношений это может проявляться в неуверенности в стабильности союза, страхе перед ответственностью и трудностях в принятии совместных решений.

Анализ ответов, связанных с организацией свободного времени, показал, что многие респонденты периодически испытывают трудности в выборе деятельности. В семейной жизни это может приводить к снижению качества совместного досуга, что, в свою очередь,

ослабляет эмоциональную связь между партнерами и уменьшает уровень удовлетворенности отношениями.

Сравнительная самооценка также играет важную роль в построении гармоничных отношений. Несмотря на то что часть участников демонстрирует уверенность в себе, значительное число респондентов склонно периодически занижать собственную оценку. Это может способствовать формированию зависимости от мнения партнера и повышенной чувствительности к критике, что нередко становится источником конфликтов.

Также следует уделить результатам, связанным с переживанием внутренней пустоты. Значительная часть молодежи отмечает, что данное состояние в той или иной степени влияет на их повседневную жизнь. В условиях брака это может выражаться в эмоциональном дистанцировании, снижении интереса к партнеру и ослаблении чувства близости.

Схожие тенденции прослеживаются и в показателях эмоциональной усталости. Многие респонденты указывают на периодическое ощущение психологического истощения, что в семейных отношениях может проявляться в раздражительности, снижении терпимости и избегании общения.

Показательно, что значительная часть участников исследования отмечает необходимость внешней поддержки - со стороны семьи, друзей или специалистов. Это свидетельствует о понимании важности психологической помощи и может рассматриваться как позитивный ресурс для преодоления трудностей в брачно-семейных отношениях.

Таким образом, результаты проведенного исследования позволяют сделать вывод о том, что эмоциональное состояние молодежи оказывает непосредственное влияние на характер и качество брачно-семейных отношений. Наличие внутренней нестабильности, неопределенности и эмоционального истощения может снижать уровень удовлетворенности браком и затруднять формирование устойчивых и гармоничных отношений.

На наш взгляд, выявленные особенности подчеркивают необходимость внедрения психолого-педагогических программ, направленных на подготовку молодежи к семейной жизни, развитие эмоциональной компетентности и формирование навыков конструктивного взаимодействия между супругами.

Прежде всего, важным является развитие эмоциональной компетентности - способности осознавать, выражать и регулировать свои эмоции. Это позволяет снизить уровень внутреннего напряжения и повысить качество взаимодействия.

Не менее значимым является формирование навыков конструктивной коммуникации. Исследования Дж. Готтмана показывают, что успешные пары характеризуются умением обсуждать проблемы без взаимных обвинений и сохранять эмоциональную связь даже в условиях конфликта [3].

Эффективным инструментом выступает семейное консультирование, направленное на выявление скрытых конфликтов и восстановление эмоциональной близости. В ряде случаев полезными являются психообразовательные программы для молодых семей, способствующие формированию реалистичных ожиданий от брака. На социальном уровне важна поддержка молодых семей через создание условий для стабильности и снижения стрессовой нагрузки.

Практическая значимость статьи состоит в возможности применения полученных результатов в сфере психологической и педагогической практики:

материалы исследования могут быть использованы при разработке программ подготовки молодежи к семейной жизни;

полученные данные могут применяться в деятельности психологов, работающих с молодыми семьями;

предложенные выводы могут служить основой для создания тренингов по развитию эмоциональной устойчивости и навыков общения;

результаты исследования могут быть использованы в образовательных учреждениях при проведении занятий по семейной психологии;

выявленные закономерности могут способствовать повышению уровня психологической культуры молодежи и укреплению семейных отношений.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

уточнено содержание понятия эмоциональной опустошенности применительно к брачно-семейным отношениям молодежи;

выявлена взаимосвязь между уровнем эмоционального состояния, цифровой активностью и качеством межличностного взаимодействия в молодой семье;

установлено влияние таких факторов, как неопределенность жизненных целей и нестабильная самооценка, на формирование эмоционального истощения в семейных отношениях;

обоснована роль психолого-педагогических условий в профилактике и преодолении эмоциональной опустошенности у молодежи;

дополнены представления о значении эмоциональной компетентности как ресурса устойчивости брака.

Заключение. Проведенное исследование позволило выявить особенности эмоционального состояния молодежи в контексте брачно-семейных отношений и определить ключевые факторы, влияющие на их устойчивость и качество. Установлено, что значительная часть молодых людей периодически сталкивается с состоянием внутреннего напряжения, эмоциональной усталости и неопределенности, что оказывает прямое влияние на характер взаимодействия с партнером.

Анализ эмпирических данных показал, что недостаточная сформированность жизненных целей, нестабильность самооценки, а также влияние внешних стрессоров и цифровой среды способствуют развитию эмоциональной опустошенности. В условиях семейной жизни это проявляется в снижении эмоциональной вовлеченности, ослаблении психологической близости и ухудшении качества коммуникации между супругами.

Особое значение имеет тот факт, что значительная часть респондентов осознает необходимость внешней поддержки, что свидетельствует о наличии внутреннего запроса на психологическую помощь и развитие. Это открывает возможности для внедрения эффективных психолого-педагогических программ, направленных на укрепление эмоциональной устойчивости молодежи.

Таким образом, эмоциональная опустошенность выступает как важный фактор, влияющий на стабильность и гармоничность брачно-семейных отношений. Ее преодоление требует комплексного подхода, включающего развитие эмоциональной компетентности, формирование навыков конструктивного общения и создание благоприятной психологической среды в семье.

Список использованной литературы.

1. Андреева Т.В. Семейная психология. – Санкт-Петербург: Речь, 2004.
2. Боуэн М. Теория семейных систем. – Москва: ИОГИ, 2005.
3. Готтман Дж. Семь принципов успешного брака. – Москва: Эксмо, 2018.
4. Ғозиев Э.Г. Умумий психология. – Тошкент: Университет, 2005.
5. Карабанова О.А. Психология семейных отношений. – Москва: Гардарики, 2005.
6. Каримова В.М. Оила психологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008.
7. Маслач К., Джексон С. Профессиональное выгорание: теория и практика. – Санкт-Петербург: Питер, 2000.
8. Маслоу А. Мотивация и личность. – Санкт-Петербург: Евразия, 1999.
9. Нишонова З.Т. Психологик маслаҳат асослари. – Тошкент: Университет, 2016.
10. Сатир В. Как строить себя и свою семью. – Москва: Педагогика-Пресс, 1992.
11. Хоманс Дж. Социальное поведение: его элементарные формы. – Москва: Академический проект, 2001.
12. Шнейдер Л.Б. Психология семейных отношений. – Москва: Академический проект, 2010.

Toyirova Laylo Izatovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

EGIZAKLAR SHAXSINING SHAKLLANISHIDA GEN VA IJTIMOIY MUHITNING ROLI

Annotatsiya. *Egizaklar tug‘ilishi qadimdan oila uchun o‘zgacha zavq olib keluvchi holat bo‘lgan. Tabiiyki, har zamonlarda odamlar buning mo‘jiza ekanligini tasdiq qilishgan. Maqolaning dolzarbligi shundagi egizaklarning ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida gen va ijtimoiy muhitning roli, olimlar tomonidan o‘rganilganlik darajasi hamda egizaklarda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining namoyon bo‘lishidadir.*

Tayanch so‘zlar: *Egizaklar, gen, ijtimoiy muhit, monozigota, dizigota, oila, xususiyat.*

РОЛЬ ГЕНЕТИЧЕСКИХ И СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ БЛИЗНЕЦОВ

Аннотация. *Рождение близнецов издавна было особым удовольствием для семьи. Естественно, во все времена люди утверждали, что это чудо. Актуальность статьи заключается в роли генов и социальной среды в процессе адаптации близнецов к социальной среде, степени изученности учеными и проявлении социально-психологических особенностей у близнецов.*

Ключевые слова: *Близнецы, ген, социальная среда, монозигота, дизигота, семья, признак.*

THE ROLE OF GENETIC AND SOCIAL FACTORS IN THE FORMATION OF TWINS' PERSONALITY

Abstract. *The birth of twins has always been a special joy for families. Naturally, in every era, people have affirmed that this is a miracle. The relevance of the article lies in the role of genes and the social environment in the process of adapting twins to the social environment, the degree of study by scientists, and the manifestation of socio-psychological characteristics in twins.*

Key words: *Gemini, gene, social environment, monozygote, dizygote, family, trait.*

Kirish. Egizaklar tug‘ilishi ajoyib bir mo‘jiza bo‘lishi bilan bir qatorda ota-onadan katta kuch va sabrni talab etadi.

Yillar davomida egizaklarga bo‘lgan e’tibor yuqori sanalsada, egizaklarning tug‘ilishi har doim g‘ayritabiiy hodisa hisoblanib, tadqiqotchilar o‘rganishida ajablanish, qiziqish hissini uyg‘otgan.

Ilm-fanni o‘rganishdan oldin, egizak fenomeni folklyorning turli janrlari - afsona, ertak, qo‘shiqlar, va boshqa og‘zaki folklyor san’ati turlarini o‘rganish mavzusi bo‘ldi. Xuddi shu hodisa urf-odat va marosimlarda, obrazli ko‘rish san’atda, fantastika va she’rlarda aks ettirilgan. Ushbu asarning natijasi, olimlar bilimlarini kashf qilishni va egizak ilmining yangicha yondashuvni boshlagan muammoli masalalarga to‘xtaladigan narsalarni oldindan topib, umumlashtiruv va topilmalar edi. Qadim zamonlarda, Gippokrat ta’limotida egizaklarning sperma bo‘linishining ikki qismga bo‘linishi natijasida paydo bo‘lishini va ularning har biri faol naychalarining biriga tushishini aytib o‘tgan. Demokrit esa, o‘z navbatida, egizak embrionning hosil bo‘lgan moddasi "urug‘ '" ning ko‘pligi natijasidir deb taxmin qildi. Arastu o‘zgacha fikr yuritdi. U egizaklarni ezgulikka bir tomirni ikkiga ajralishi sababli paydo bo‘lishiga ishongan.

Umuman olganda, ilm-fan rivoji va egizak ilmining rivojlanishi bilan, uning tabiati alohida o‘rganish mavzusiga aylandi. Shu bilan birga, egizaklarga qiziqish va ular bilan bog‘liq ilmiy masalalar dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida jamoatchilikning turli qatlamlari tomonidan

namoyon bo‘ladi. Xususan, XIX asrning 70-yillarida ushbu hodisaga qiziqish kuchaygan: ikki turdagi egizak - monozigota va dizigota genetika usuli sifatida aniqlandi (F. Galton). Biroq, XX-asrning 20-yillarida, egizaklarning ikkita turi va ularni tashxislashning ishonchli usullari haqidagi ikkita aql-idrok fikri (Ravich-Scherbo IV) paydo bo‘lganida, egizaklarni o‘rganish haqiqiy ilmiy uslubga aylandi. Monozigota va dizigotin egizaklarini ajratish uchun, 1924 yilda G.Siemens bir yoki boshqa turdagi egizaklarni aniqlash uchun "o‘xshashlik usuli" ni ishlab chiqardi.

U bir nechta irsiy xususiyatlarni - ko‘z rangi, soch, barmoq izlarini taqqosladi. O.Fershur 1934 yilda maxsus stol tayyorladi, bu erda egizaklarning o‘xshashligi bir qator belgilar bilan aniqlandi. Biroq, egizaklarning asosiy xususiyati nafaqat umumiy genlarning 100 foizini yoki 50 foizini tashkil etadi, balki bu o‘xshashlik ularning o‘ziga xos rivojlanishiga yordam beradi.

Keyinchalik V.N.Kolbanovskiy, A.B.Luriya, A.N.Mironovlar egizaklar ustida tajriba kilib, bir tuxumdan bulgan egizaklar bir xil tabiiy sharoitda, ta’lim metodlariga karab, ijodiy faoliyatning ayrim turlarida mutlako xar xil natija olishi mumkinligini ko‘rsatib berishdi.

Fransuz psixologi R.Zazzo bir tuxumdan bo‘lgan egizaklar ustida tajriba o‘tkazib, psixik xususiyatlarning tug‘ma xarakteri nazariyasiga zarba beradi.

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, egizaklarning shaxs bo‘lib shakllanishida psixik tarakkiyotni xarakatga keltiruvchi omillar sifatida:

1)Irsiyat ya’ni gen

2)Ijtimoiy muxit

3)Ijtimoiy ta’lim-tarbiya.

4)Shaxsning faoliyatdagi faolligi belgilandi.

Bizga ma’lumki, egizaklar ikki turga ajratiladi.

1.Dizigotali (bir-biriga o‘xshamaydigan yoki ikki jinsli) egizaklardir. Bu egizaklar urug‘langan ikki tuxumdan rivojlanadi. Bir hayz siklida yetilgan ikki tuxum hujayra bir vaqtning o‘zida urug‘lanmasligi mumkin, ba’zida bir necha soatdan bir necha kungacha farq kuzatiladi. Ikki tuxumli egizaklar genetik jihatdan bir-biriga oddiy aka-ukalardek o‘xshash bo‘lishi mumkin.

2.Monozigotali (bir jinsli va bir-biriga qo‘yib qo‘ygandek o‘xshash) egizaklardir. Bunday egizaklar bitta tuxum hujayra va bir urug‘ hujayraning birikishidan yuzaga keladi. Tibbiyot ilmiga hanuzgacha ma’lum bo‘lmagan biokimyoviy hodisalarga ko‘ra, bir hujayra ikkiga bo‘linib, juft embrion rivojlana boshlaydi. Ona qornidagi muhit, DNK mutatsiyalari va boshqa bir qancha omil-larning ta’siri natijasida egizaklar bir-biridan biroz farqlanishi ham mumkin, lekin bu sezilarli da-rajada bo‘lmaydi. Monozigotali egizaklar dizigotalilarga qaraganda 5 marotaba kamroq tug‘iladi. Qiziq joyi shundaki,ularning aksariyati o‘g‘il bolalar bo‘ladi.

Boshqacha qilib aytganda, egizaklar asosan ikki xil: ikkita tuxum hujayradan va ikkita yadrosi bo‘lgan bitta tuxum hujayradan bunyod bo‘ladi. Har xil tuxumdan rivojlangan egizaklar ikki va undan ortiq tuxum hujayra bir xil vaqtda yetilgandagina paydo bo‘ladi, irsiy jihatdan egizakmas aka-uka yoki opa-singillardek bir-biriga o‘xshash, bir xil yoki har xil jinsli bo‘lishi mumkin. Bitta tuxum hujayradan rivojlangan egizaklar bir jinsli, qon guruhlari bir xil va bir-biriga nihoyatda o‘xshash bo‘lib, hatto yakinlari ham ularni bir-biridan aniq ajrata olmaydi. Chunki ular bir xildagi genotipga egadir, ular o‘rtasidagi tafovutlar esa faqat muhit ta’sirida o‘zgaradi. Bitta tuxum hujayradan dunyoga kelgan egizak kamroq uchraydi. 100 ta egizakdan 85 tasi 2 ta tuxum hujayradan paydo bo‘ladi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jahonda notinch va ijtimoiy o‘zgarishlar ro‘y bergan davrlarda egizaklarning ko‘p tug‘ilishi kuzatilgan.

Mamlakatimizning statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2017 yilda 14382 nafar egizak tug‘ilgan. Bu umumiy tug‘ilishlarning 1,9 %ni tashkil qiladi. 2018 yilda esa,14 176 nafar egizaklar dunyoga kelgan. Eng ko‘p egizaklar (1782 nafari) Samarqand viloyatida tug‘ilgani qayd etilgan. Egizak far-zandlar tug‘ilishi hakida turli xalqlarning fikri turlicha shakllangan. Bizning davlatimizda egizak-larni dunyoga keltirgan ayollar hammaning hurmat-u e’tiborida bo‘ladi. Ba’zi davlatlarda esa egizak tug‘ish baxtsizlik keltiradi deb hisoblanadi va egizak tuqqan ayollarga nafrat nazari bilan qarashadi.

Bo‘lajak ota-onalar o‘z istagiga ko‘ra egizaklar bilan homilador bo‘lish jarayoniga aralasha olmaydi. Chunki ikki hujayra birikishining o‘zidayoq tug‘ilajak bolaning jinsi, bitta yoki ikkita bo‘lishi hamda tashqi ko‘rinishi haqidagi ma’lumotlar yuzaga keladi. Biroq ayrim tashqi omillar dizigotali egizaklar tug‘ilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Eng qizig‘i bu hodisaning holati monozigotalilarga ta’siri yo‘q ekan. Oldingi asrlarda ayollar ko‘pincha egizak tuqqan. Asrlar o‘tishi bilan evolyutsion taraqqiyot natijasida ayollarda egizak tug‘ilishi tobora kamayib bormoqda. XX asrning o‘rtalarida 80 ta tug‘ruqdan bittasi egizak bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich hozir ancha kam foizni tashkil qiladi. Kuzatishlarga karaganda ayollarning yoshi ulg‘aygan sari ular o‘rtasida egizak tug‘ilishi ortib borar ekan. Egizaklar ko‘pincha 26-30 yoshli ayollarda dunyoga keladi. Egizak bolalar tug‘ilishi haqida juda ko‘p qarashlar bor. Bunda ota-onaning nasli katta rol o‘ynaydi.

Metodika. Tadqiqotimizni o’tkazish davomida egizaklarning shaxsiylik xususiyatlarini o’rganishni ,ularning individual xususiyatlarini aniqlab olishga qaratilgan metodikalardan keng foydalanildi. Olingan natijalar asosida egizaklarning o’ziga xos xususiyatlari tahlil etib va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Quyidagi o’tkazilgan metodiklardan birini Shaxs xususiyatlarini o‘rganuvchi FPI metodikasining egizaklar tipiga ko‘ra tahlili (Mann-Uittni – U mezoni) orqali egizaklarning bir-biridan farqlanuvchi xususiyatlarini yaqqol ko’rsatib berilganligini ko’rishimiz mumkin.

Shkalalar	O‘rtacha rang		Statistik qiymat	
	Monozigotali (n=84)	Dizigotali (n=64)	U	P
Asabiylashganlik	83,47	64,80	2067,000	0,008**
P-o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik	85,51	62,05	1891,000	0,001***
SH-ruhiy siqilish	86,34	60,93	1819,500	0,000***
U1-serjahllik, jizzakilik	63,33	91,86	1705,000	0,000***
U-muloqotchanlik	89,59	56,57	1540,500	0,000***
V1-og‘irlik, vazminlik	66,40	87,73	1969,500	0,003**
UP-o‘ta tajovuzkorlik	70,26	82,55	2301,000	0,083
USH-tortinchoqlik	80,11	69,30	2355,500	0,126
1X-ochiqlik, oshkoralik	84,41	63,53	1986,000	0,003**
X ekstraversiya-intraversiya	83,74	64,42	2043,000	0,006**
X1-ta’sirchanlik, o‘zgaruvchanlik	86,98	60,08	1765,000	0,000***
XP-mardlik, nazokatlilik	79,72	69,83	2389,000	0,163

Egizaklarning shaxsiy xususiyatlari o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlarni tadqiq etish maqsadida olingan navbatdagi psixodiagnostik vositalar tahliliga ko‘ra, asabiylashganlik shklasida ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar kuzatilgan bo‘lib (U=2067,000, p<0,01), monozigotali egizak o‘smirlar, dizigotali o‘smir egizaklarga qaraganda emotsional-hissiy bo‘yoqdorligi yuqori bo‘lishi aniqlandi. Ushbu jihatni, ularning bir-biriga tashqi qiyofasi juda “ikki tomchi suvdek” o‘xshashligi, shuningdek, bir-birlarining va boshqalarning kamchiliklariga ayovsiz ravishda e’tibor ko‘rsatishlarining oqibati deb baholashimiz mumkin. A.Gesell tadqiqotlariga ko‘ra, temperament belgilari kabi asosiy xususiyatlar tashqi muhit ta'sirida o‘zgarishi mumkinligiga ishora bergan. Tarbiya va irsiyat shaxsga uning tuzilishida chuqur o‘zgarishlarsiz sezilarli ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, tug‘ilishdan boshlab dizigotik egizaklar affektiv munosabatda farqlanadi: yig‘lashga moyillik, tinchlanish qobiliyati, tabassum qilishga tayyorlik va boshqalar. Bumsman va Van Baalning izlanishlariga asoslanib, go‘daklik davridagi bolalar o‘rtasidagi genetik farqlar axborotni qayta ishlash imkoniyatlari cheklanganligi

sababli funksional farqlar bilan bog‘liq bo‘lib, bola ulg‘aygan sari yaqqol namoyon bo‘ladi, degan fikrni ilgari surdilar.

O‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik ko‘rsatkichi bo‘yicha ham ahamiyatli farqlar kuzatilib (U=1891,000, p<0,01), monozigotali egizaklarda agressiv xulq-atvorga moyillik digizotali egizaklarga qaraganda yuqoriroq bo‘lishi mumkinligi ma’lum bo‘ladi. Tadqiqotlardan olingan natijalarni tahlil qilish chog‘ida ham o‘smir yoshdagi egizaklarda bir-biridan uzoqlashish kuzatilib, mazkur hodisa ulardagi ichki agressivlik darajasini ortishiga olib keluvchi faktorlar biri bo‘lib rol o‘ynar ekan. Biz tarafdan olingan tadqiqot natijalari tahlilida esa, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik o‘smir egizaklarda ijtimoiy muhit ta’sirida yuzaga keluvchi “men” komponenetidagi “tan olish va tan oldirish” ehtiyojining ehtiyojlar ierarxiyasida ustuvorlik kasb etganligi bilan ham izohlanadi.

Shuningdek, olingan psixodiagnostik metodikmizning deyarli 70% shkala ko‘rsatkichlari bo‘yicha ahamiyatli va ishonch darajasidagi farqlar aniqlanib, xususan, ruhiy siqilish (U=1819,500, p<0,001), serjahllik (U=1705,000, p<0,001), muloqotchanlik (U=1540,500, p<0,001), og‘irlik, vazminlik (U=1969,500, p<0,001), ochiqlik-oshkoralik (U=1986,000, p<0,01), ekstraversiya-intraversiya (U=2043,500, p<0,01), ta’sirchanlik-o‘zgaruvchanlik (U=1765,000, p<0,001) shular jumlasidandir.

Ruhiy siqilish shkalasi bo‘yicha monozigotali egizaklarda o‘rtacha ko‘rsatkich 86,34 ni , dizigotali egizaklarda 60,93 ni tashkil etib, bir xil tashqi ko‘rinish, bir xil jinsga mansub egizaklarda ruhiy siqilish, hodisalarni tez o‘ziga qabul qilish ko‘rsatkichi yuqoriroq bo‘lishi ma’lum bo‘ladi. Mazkur farqni egizaklardagi himoya mexanizmlarining bir-birga o‘ta bog‘langanligi ta’sirida o‘zaro yuqish effekti ko‘pligidan bir xil ko‘rinish, bitta urug‘dondan hosil bo‘lgan egizak o‘smirlarda tashqi ta’sirlarga tez beriluvchanlik oqibatida ruhiy tushkunlikka tushish ehtimolining ko‘pligi bilan ham izohlashimiz mumkin. Ulardagi bir-biriga doimiy bog‘liqlik, hayotiy strategiyalarni ham birga qurish tamoyili bitta egizak hafa bo‘lsa, ikkinchiga ham hafa bo‘lishi kerakligini ta’kidlovchi mexanizm sifatida refleksiv xarakter kasb etishi natijasida sodir bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarimiz - hayotimiz guli, ularning kelajagi porloq, ertangi kuni bundan ham go‘zal va farovon bo‘lishiga katta ishonch bor.Shu o‘rinda egizak bolalar tug‘ilgan oila esa bizning mamlakatimizda baxtlilarning baxtlisidir.Egizak farzandi bor xonadonga ularni ijtimoiy muhitdagi rolini to‘g‘ri anglashiga yordam berish uchun ikki barobar ma’suliyat yuklatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Морозова Т.Б. Формирование направленности личности близнеца-подростка как социально-педагогическая проблема в системе дополнительного образования. – Москва, 2011.
2. Зырянова Н.М. Близнецы. – Москва, 2006.
3. Сергиенко Е.А., Рязанова Т.Б., Виленская Г.А., Дозорцева А.В. Развитие близнецов и особенности их воспитания. – Москва: Институт психологии РАН, 2000.
4. Izatovna T.S. Theoretical and scientific approach to the psychology of adolescent twins in the process of social adaptation // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2022. – Vol. 3. – No. 2. – P. 51–57.
5. Izatovna T.S. The influence of psychogenetic factors on the upbringing of twins in Uzbek families // ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Vol. 2. – No. 5. – P. 297–303.
6. Twin and triplet psychology: A professional guide to working with multiples / ed. by A.C. Sandbank. – London; New York: Routledge, 1999.

Sharopov Mirjon Nurxon o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

TEXNIK IJODKORLIKKA TAYYORLASH JARAYONIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARNING INTEGRATIV TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada texnik ijodkorlikka tayyorlash jarayonida pedagogik va psixologik omillarning integrativ ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida o'quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar - motivatsiya, kognitiv faollik, kreativlik, pedagogik texnologiyalar va shaxslararo munosabatlar - bir tizimda ko'rib chiqilgan. Maqolada integrativ yondashuvning afzalliklari, uning amaliy tatbiq etilish mexanizmlari va samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Eksperimental tadqiqot natijalariga ko'ra, pedagogik-psixologik omillarning muvofiq integratsiyasi texnik ijodkorlikni shakllantirishda 34% samaradorlikni oshirishga olib kelganligi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *texnik ijodkorlik, pedagogik omillar, psixologik omillar, integrativ yondashuv, kreativlik, motivatsiya, kognitiv rivojlanish, texnik ta'lim, shaxsiyat psixologiyasi.*

THE INTEGRATIVE IMPACT OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE PROCESS OF PREPARING FOR TECHNICAL CREATIVITY

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the integrative influence of pedagogical and psychological factors in the process of preparing students for technical creativity. The study examines key factors affecting the development of technical creativity skills in students - motivation, cognitive activity, creativity, pedagogical technologies, and interpersonal relationships - within a unified system. The advantages of the integrative approach, mechanisms of its practical implementation, and ways to improve its effectiveness are demonstrated. According to experimental research results, appropriate integration of pedagogical-psychological factors led to a 34% increase in effectiveness in forming technical creativity.*

Key words: *technical creativity, pedagogical factors, psychological factors, integrative approach, creativity, motivation, cognitive development, technical education, personality psychology.*

ПОД ИНТЕГРАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ К ТЕХНИЧЕСКОМУ ТВОРЧЕСТВУ

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически проанализировано интегративное влияние педагогических и психологических факторов в процессе подготовки к техническому творчеству. В рамках исследования основные факторы, влияющие на развитие технических творческих способностей учащихся - мотивация, когнитивная активность, креативность, педагогические технологии и межличностные отношения - рассматривались в единой системе. В статье представлены преимущества интегративного подхода, механизмы его практического применения и пути повышения эффективности. Согласно результатам экспериментального исследования, соответствующая интеграция педагогических и психологических факторов привела к увеличению эффективности формирования технического творчества на 34%.*

Ключевые слова: *техническое творчество, педагогические факторы, психологические факторы, интегративный подход, креативность, мотивация, когнитивное развитие, техническое образование, психология личности.*

1. Kirish. Zamonaviy texnologiyalar asrida texnik ijodkorlik - insoniyatning eng muhim intellektual ne’mati va sivilizatsiya rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib qolmoqda.

Mazkur ilmiy-tadqiqot ishida ilgari surilgan g‘oyalar 2017-yil 20-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, hamda mazkur- faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Shu bilan birga, texnik ijodkorlik faqat bilim va ko'nikmalar yig'indisi emas - u pedagogik va psixologik omillarning murakkab o'zaro ta'sirida shakllanadigan integrativ shaxs xususiyatidir. Aynan shu integrativlik - ya'ni pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari, motivatsion muhit, kognitiv faollik va kreativlikning birgalikdagi ta'siri - texnik ijodkorlikni shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Mamlakatimiz olimlaridan N.Muslimov, B.Yo'ldoshev, R.Mavlonova, shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar J.Guilford, T.Amabile, K.Robinson, M.Csikszentmihalyi, R.Sternberg va boshqalarning ishlarida texnik ijodkorlikning turli jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, pedagogik-psixologik omillarning integrativ ta'sirini yaxlit tizim sifatida tahlil qiluvchi tadqiqotlar hali yetarli emas. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirish maqsadida yozilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda birinchi marta pedagogik va psixologik omillar alohida-alohida emas, balki yaxlit integrativ tizim sifatida ko'rib chiqilib, ularning sinergik ta'siri eksperimental yo'l bilan isbotlangan. Shuningdek, integrativ ta'sir modeli ishlab chiqilib, uning amaliyotga tatbiq etilish mexanizmlari ko'rsatib berilgan.

2. adabiyotlar tahlili va muammo holati. Texnik ijodkorlik muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida uzoq tarixga ega bo'lib, ilmiy yondashuvlar evolyutsiyasi bir necha bosqichni bosib o'tgan. Birinchi bosqich (XX asr boshlari) - texnik ijodkorlikni asosan mahsulot sifatida ko'rish; ikkinchi bosqich (1950-1970) - jarayon sifatida o'rganish; uchinchi bosqich (1970-2000) - shaxs xususiyati sifatida talqin etish; to'rtinchi bosqich (2000-yillardan hozirga) - tizimli va integrativ yondashuv.

J.Guilford (1967) divergent tafakkurni ijodkorlikning asosi deb ta'riflagan va uni o'lchovchi testlarni ishlab chiqqan [1]. T.Amabile (1983) ijodkorlik uchun uch komponent zarurligini asoslagan: ichki motivatsiya, sohaviy bilimlar va ijodiy ko'nikmalar [2]. K.Robinson (2011) esa an'anaviy ta'lim tizimi ijodkorlikni bo'g'ishini ta'kidlab, ularni erkin rivojlantiradigan muhit yaratish lozimligini ko'rsatgan [3].

O'zbek pedagogika fanida N.Muslimov (2018) kasbiy ta'limdagi ijodkorlik muammolarini, B.Yo'ldoshev (2019) pedagogik texnologiyalarning ijodkorlikka ta'sirini, R.Mavlonova (2020) esa boshlang'ich ta'limda kreativlikning shakllanishini o'rganganlar [4, 5, 6]. Biroq bu ishlarning aksariyatida pedagogik va psixologik omillar alohida ko'rib chiqilgan, ularning integrativ ta'siri esa yetarlicha tadqiq etilmagan.

Psixologiya fanida M.Csikszentmihalyi (1990) "flow" (oqim) nazariyasi orqali ijodiy faollikni psixologik jihatdan asoslagan [7]. R.Sternberg va T.Lubart (1991) ijodkorlikning investitsion nazariyasini taklif etib, unda olti resurs (intellektual qobiliyat, bilim, tafakkur uslubi, shaxsiyat, motivatsiya, muhit) birikmasini zarur deb ko'rsatganlar [8]. Zamonaviy neyropedagogika yo'nalishida D.Sousa va T.Pilecki (2013) miya faoliyati va ijodkorlik o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan asoslaganlar [9].

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, texnik ijodkorlik faqat kognitiv (bilimga asoslangan) jarayon emas, balki motivatsion, emotsional, ijtimoiy va pedagogik omillarning murakkab sintezi mahsulidir. Shu sababli integrativ yondashuv - ya'ni ushbu omillarni bir tizimda ko'rib chiqish - zamonaviy tadqiqotning asosiy metodologik tamoyiliga aylanmoqda.

3. tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot 2022-2024-yillarda O'zbekistonning uchta viloyatidagi texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari asosida o'tkazildi. Tadqiqotda jami 324 nafar talaba ishtirok etdi: tajriba guruhi - 162 nafar, nazorat guruhi - 162 nafar. Guruhlar tarkibi yosh (18-22 yosh), jinsi va dastlabki o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha bir xillashtirildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llandi:


Metod turi	Qo'llanilishi
Nazariy metodlar	Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tizim-lashtirish, qiyosiy tahlil, modellashtirish
Empirik metodlar	Kuzatish, so'rovnoma, intervyu, test, ek-speriment (aniqlash, shakllantirish, nazorat bosqichlari)
Psixodiagnostik metodlar	Torrens ijodiy tafakkur testi (TTCT), Guil-ford divergent tafakkur testi, motivatsiya diagnostikasi (A.Rean metodikasi)
Statistik metodlar	Student t-kriteriyasi, korrelyatsion tahlil, dispersiya tahlili (ANOVA), Cohen d koef-fitsienti

Tajriba guruhi bilan integrativ pedagogik-psixologik dastur bo'yicha o'qitish olib borildi. Nazorat guruhida an'anaviy o'qitish uslubi saqlab qolindi. Dastur davomiyligi - 2 o'quv semestri (18 hafta). O'lchashlar uch bosqichda amalga oshirildi: dastlabki (pretest), o'rta (midtest) va yaku-niy (posttest).

4. texnik ijodkorlikka tayyorlashda pedagogik-psixologik omillar

4.1. Pedagogik omillar tizimi

Texnik ijodkorlikni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik omillar to'rt asosiy guruhga ajratiladi: (1) o'qituvchining kasbiy kompetentligi va ijodiy uslubi; (2) qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar; (3) ta'lim muhiti va resurslar; (4) baholash tizimi va fikr-mulohaza mexanizmlari.



O'qituvchining roli integrativ jarayonda markaziy o'rin egallaydi. E.Torrance (1965) o't-kazgan klassik tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi o'zi ijodkor bo'lgandagina o'quvchilarda ijodkorlikni to'laqonli shakllantira oladi. Bizning tadqiqotimizda ham o'qituvchining kreativlik koeffitsienti ($r=0,68$, $p<0,01$) bilan talabalar texnik ijodkorlik darajasi o'rtasida kuchli musbat korrelyatsiya aniqlandi.

Pedagogik texnologiyalar orasida eng yuqori samaradorlikni quyidagilar ko'rsatdi: muammo asosida o'qitish (Problem-Based Learning - PBL), loyiha usuli, design thinking metodologiyasi, STEM/STEAM yondashuvi va kooperativ o'qitish. PBL ni qo'llagan guruhlarda texnik ijodkorlik ko'rsatkichi an'anaviy usulga nisbatan 28% yuqori bo'ldi.


4.2. Psixologik omillar tizimi

Psixologik omillar tizimida beshta asosiy komponent ajratilgan: motivatsiya (ichki va tashqi), kognitiv faollik, kreativlik, emotsional intellekt va o'z-o'ziga ishonch (self-efficacy). Bu komponentlar mustaqil emas, balki o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatadi.

Motivatsiya texnik ijodkorlikning psixologik zaminini tashkil etadi. Deci va Ryan (1985) ishlab chiqqan o'z-o'zini determinatsiya nazariyasiga ko'ra, ichki motivatsiya (qiziqish, quvonch, mazmunli maqsad) tashqi motivatsiyaga (baho, mukofot, nazorat) nisbatan ijodkorlikni samaraliroq rivojlantiradi [10]. Bizning tadqiqotimizda ichki motivatsiyasi yuqori bo'lgan talabalar (umumiy namuning 43%) texnik ijodkorlik testlarida 41% yuqori natija ko'rsatdi.

Kognitiv faollik - ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash va yangi g'oyalar generatsiya qilish qobiliyati - texnik ijodkorlikning intellektual asosi hisoblanadi. Tadqiqotda kognitiv faollik va texnik ijodkorlik o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya aniqlandi ($r=0,72$, $p<0,001$). Kognitiv faollikni oshirish maqsadida metakognitiv strategiyalar, qiziqarli muammolar va "scaffolding" (qo'llab-quvvatlovchi tuzilma) texnikasi qo'llandi.

Kreativlik - texnik ijodkorlikning yadrosi bo'lib, u divergent tafakkur (ko'p yechim topish), assotsiativ tafakkur, analogiya qurish va orijinallik kabi sub-komponentlardan iborat. Torrens testida tajriba guruhining yakuniy natijasi nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori bo'ldi ($t=4,23$; $df=322$; $p<0,001$).



Kognitiv va kreativ omillar asosida texnik ijodkorlik modeli

4.3. Pedagogik-psixologik omillarning integrativ ta'sir modeli

Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan Integrativ Ta'sir Modeli (ITM) to'rt qatlamli tuzilmaga ega:

Qatlam	Pedagogik-psixologik komponent	Vazifasi
I qatlam (Zamin)	Psixologik xavfsiz muhit	Talabalar xato qilishdan qo'rqmaydi, ijodiy riskga tayyor
II qatlam (Motivatsiya)	Ichki motivatsiyani	Qiziqarli muammolar,

	uyg'otish	maqsadga yo'naltirilgan faoliyat
III qatlam (Kognitiv)	Aqliy faollikni ta'minlash	Muammo asosida o'qitish, loyiha usuli, STEM
IV qatlam (Integratsiya)	Sinergik natija	Texnik ijodiy mahsulot yaratish, komandali ish

Modelning asosiy tamoyili - qatlamlar ketma-ket emas, balki parallel va o'zaro ta'sir qiluvchi holda ishlaydi. Psixologik xavfsizlik muhiti bo'lmasa, kognitiv faollik ham, motivatsiya ham to'laqonli kuch bermaydi. Shu sababli I-qatlam boshqa barcha qatlamlar uchun asos vazifasini bajaradi.

Eksperimental tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

Ko'rsatkich	TG pretest	NG pretest	TG posttest	NG posttest	p-qiymat
Texnik ijodkorlik (TTCT, ball)	48,3 ± 6,2	49,1 ± 5,8	67,4 ± 7,1	52,3 ± 6,4	p<0,001
Ichki motivatsiya (ball/100)	54,2 ± 8,1	55,0 ± 7,9	78,6 ± 6,3	57,1 ± 8,2	p<0,001
Kognitiv faollik (ball/100)	51,7 ± 7,4	52,3 ± 6,9	74,8 ± 7,6	54,9 ± 7,1	p<0,001
Kreativlik indeksi	0,52 ± 0,09	0,51 ± 0,08	0,79 ± 0,07	0,55 ± 0,09	p<0,001
O'z-o'ziga ishonch (Bandura)	58,9 ± 9,2	59,4 ± 8,7	81,2 ± 6,8	61,3 ± 8,9	p<0,001

Izoh: TG - tajriba guruhi; NG - nazorat guruhi; qiymatlar O'rtacha ± Standart og'ish shaklida berilgan

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha statistik jihatdan sezilarli o'sish kuzatildi (p<0,001). Texnik ijodkorlik ko'rsatkichi 39,5% ga o'sdi (48,3 dan 67,4 ballga), nazorat guruhida esa atigi 6,5% o'sish kuzatildi. Cohen d koeffitsienti (d=2,41) katta effekt o'lchamini ko'rsatmoqda, bu integrativ dasturning yuqori amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Korrelyatsion tahlil natijalari pedagogik va psixologik omillar o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlikni ko'rsatdi. Eng yuqori korrelyatsiya quyidagi juftliklar o'rtasida aniqlandi: ichki motivatsiya - kreativlik (r=0,76), kognitiv faollik - texnik ijodkorlik (r=0,72), psixologik xavfsizlik muhiti - ijodiy riskga moyillik (r=0,69). Bu natijalar omillarning integrativ tizim sifatida ishlashini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar T.Amabile va K.Robinson ning ijodkorlik uchun qulay muhit yaratish zarurligiga doir nazariy g'oyalarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Shuningdek, M.Csikszentmihalyi ning "oqim" nazariyasi ham tadqiqotda o'z aksini topdi: ichki motivatsiya va kognitiv qiyinlik muvozanatda bo'lganida talabalar eng yuqori ijodiy natijaga erishdi. Bizning tadqiqotimizning o'ziga xos hissasi shundaki, ushbu omillar birgalikda (sinergik tarzda) alohida-alohida ta'sir ko'rsatganidan 1,8 baravar samaraliroq ishladi.

Amaliy tavsiyalar.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Manfaatdor tomonlar	Tavsiyalar
O'qituvchilar uchun	1) Psixologik xavfsiz va ijodiy muhit yarating; 2) Muammo asosida o'qitishni keng qo'llang; 3) O'z ijodkorligingizni doimiy rivojlantiring; 4) Ichki motivatsiyani qo'llab-quvvatlang; 5) Kreativ ish uchun etarli vaqt ajrating
Muassasa rahbarlari uchun	1) O'qituvchilarni integrativ yondashuv bo'yicha tayyorlash dasturlarini joriy eting; 2) Moddiy-texnik bazani ijodiy faoliyat uchun moslang; 3) Ijodiy yutuqlarni baholash tizimini yangilang; 4) Psixolog-pedagog hamkorligini institutsional darajada ta'minlang
Ta'lim tizimi uchun	1) O'quv dasturlarida integrativ yondashuvni asosiy tamoyil sifatida belgilang; 2) Kreativlikni o'lchash standartlashtirilgan instrumentlarini joriy eting; 3) O'qituvchilarning ijodiy kompetentligini malaka oshirish kurslarida alohida modul sifatida o'rgating

Xulosa. Ushbu tadqiqot texnik ijodkorlikka tayyorlash jarayonida pedagogik va psixologik omillarning integrativ ta'sirini ilmiy-empirik jihatdan asoslab berdi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Texnik ijodkorlik pedagogik va psixologik omillarning alohida emas, balki integrativ (birgalikdagi) ta'siri natijasida shakllanadi. Ularning sinergik ta'siri alohida ta'sir yig'indisidan 1,8 baravar samaraliroq ekanligi eksperimental jihatdan isbotlandi.


2. Psixologik xavfsizlik muhiti integrativ tizimning asosiy sharti hisoblanadi. Bu muhitsiz boshqa pedagogik omillarning samaradorligi sezilarli darajada pasayishi aniqlandi.

3. Ichki motivatsiya va kreativlik o'rtasidagi korrelyatsiya (r=0,76) eng kuchli bo'lib, bu tashqi mukofotlarga asoslangan baholash tizimini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlik davrida mantiqiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari nazariy-analitik jihatdan tahlil qilingan. Mahalliy va xorijiy psixologik yondashuvlar asosida abstrakt va nazariy fikrlash shakllariga o‘tishning kognitiv hamda shaxsiy omillari yoritilgan. Yoshlik davrida bilish sohasida yuz beradigan sifat o‘zgarishlari, refleksiya rivojlanishi va ularning kasbiy o‘zini-o‘zi belgilashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Mantiqiy tafakkur shaxs intellektual yetukligining muhim ko‘rsatkichi sifatida talqin etilgan.*

Kalit so‘zlar: *mantiqiy tafakkur, yoshlik davri, abstrakt fikrlash, kognitiv rivojlanish, refleksiya, kasbiy o‘zini-o‘zi belgilash.*

Введение. Развитие логического мышления является одной из центральных проблем психологии развития и психологии образования. В условиях усложнения образовательной среды и роста требований к самостоятельности обучающихся особое значение приобретает анализ возрастных закономерностей формирования абстрактного и теоретического мышления. Юношеский возраст представляет собой этап завершения перехода к формально-логическим операциям и интеграции их в структуру личностной саморегуляции. Логическое мышление отражает уровень организации познавательной деятельности и степень включённости субъекта в систему понятийных связей. Его развитие связано не только с ко-

гнитивным созреванием, но и с расширением социального опыта, образовательных требований и процессами личностного самоопределения.

Теоретические основания анализа. В отечественной психологии мышление рассматривается как высшая форма познавательной деятельности, обеспечивающая опосредованное и обобщённое отражение действительности [1]. С.Л. Рубинштейн подчёркивал аналитико-синтетическую природу мышления, рассматривая его как активный процесс раскрытия существенных связей объективного мира [1]. А.Н. Леонтьев трактовал мышление как высшую ступень познания, возникающую в условиях решения задач при неполной информации, подчёркивая его деятельностный характер [2]. По мнению Р.С. Немова, логическое мышление формируется в процессе овладения системой научных знаний и мыслительных операций, обеспечивающих построение доказательных рассуждений [3]. Согласно культурно-исторической концепции Л.С. Выготского, развитие понятийного мышления связано с усвоением научных понятий и их включением в систему логических отношений [4]. Ж. Пиаже связывал переход к формально-операциональному мышлению со способностью оперировать гипотезами и строить дедуктивные рассуждения [5]. Современные исследования интеллекта подчёркивают, что логическое мышление определяется не только объёмом знаний, но и особенностями их структурирования и уровнем рефлексивного контроля [6].

Сопоставление данных концепций показывает, что логическое мышление трактуется как интегративное образование, формирующееся в процессе освоения культурно-исторического опыта и включённости субъекта в познавательную деятельность. Различия теоретических позиций касаются преимущественно механизмов развития, однако все исследователи сходятся в признании его поэтапного и социально опосредованного характера. При этом подчёркивается, что становление логических операций связано не только с накоплением знаний, но и с усложнением внутренней структуры мышления, развитием рефлексии и способностью к осознанному контролю собственных рассуждений. Именно в юношеском возрасте данные характеристики достигают качественно нового уровня, что позволяет рассматривать этот период как этап окончательной интеграции формально-логических операций в систему личностной саморегуляции.

Структура и механизмы логического мышления. Логическое мышление опирается на систему мыслительных операций - анализа, синтеза, сравнения, обобщения и абстрагирования. Эти операции обеспечивают переход от единичных фактов к выявлению закономерностей и формированию целостной системы знаний. В отличие от интуитивного или ситуативного рассуждения, логическое мышление предполагает осознанное построение аргументации и внутренний контроль последовательности умозаключений. Формами логического мышления выступают понятие, суждение и умозаключение. В юношеском возрасте данные формы используются на абстрактном уровне: субъект способен выдвигать гипотезы, аргументировать позицию и делать выводы на основе логических связей. Особое значение приобретает способность к дедуктивным рассуждениям и оперированию условными конструкциями, что позволяет рассматривать не только реальные, но и возможные ситуации развития событий. Развитие словесно-логического мышления завершает переход от наглядно-образных форм к понятийному уровню анализа. При этом возрастает роль внутренней речи как средства организации мыслительной деятельности и саморегуляции. Логическое мышление начинает выполнять функцию внутреннего планирования действий и оценки их последствий, что особенно значимо в условиях профессионального и личностного самоопределения.

Возрастная специфика развития в юности. Переход к юношескому возрасту сопровождается качественным усложнением познавательной сферы. Как отмечают М.Г. Давлетшин и соавторы, старшие подростки в полной мере обладают логическим мышлением, способны к теоретическому рассуждению и самоанализу [7, с. 87] , что свидетельствует о завершении формирования формально-логических операций. Юношеский возраст характеризуется усилением рефлексии и ориентацией на будущее. Как отмечает И.С. Кон, данный пе-

риод связан с мировоззренческим и профессиональным самоопределением [8], что требует развитых аналитических способностей.

Современные эмпирические исследования. В работе Н.Г. Павловской и Д.В. Байкадамова анализируются особенности логического мышления современных подростков [9]. Авторы фиксируют преобладание среднего уровня сформированности логических операций и подчёркивают зависимость их развития от образовательной среды. Полученные данные позволяют рассматривать подростковый возраст как этап формирования предпосылок абстрактно-логического мышления, окончательное усложнение которого происходит в юности. В юношеском возрасте логические операции интегрируются в систему саморегуляции и мировоззренческого анализа, что свидетельствует о качественном этапе когнитивного развития.

Заключение. Юношеский возраст представляет собой этап завершения становления формально-логического мышления и его интеграции в структуру личностной саморегуляции. Развитие логического мышления связано с формированием рефлексивности, критичности и способности к теоретическому обобщению. Логическое мышление выступает условием профессионального самоопределения и интеллектуальной зрелости личности. Перспективы дальнейших исследований могут быть связаны с анализом влияния образовательной среды и цифровых факторов на динамику развития логического мышления.

Список литературы.

1. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 720 с.
2. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. – 304 с.
3. Немов Р.С. Психология: в 3 т. – Москва: Владос, 2003.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 350 с.
5. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. – Москва: Педагогика-Пресс, 1994. – 526 с.
6. Холодная М.А. Психология интеллекта. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 384 с.
7. Давлетшин М.Г. и др. Ёш ва педагогик психология. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2007. – 144 с.
8. Кон И.С. Психология ранней юности. – Москва: Просвещение, 1989. – 212 с.
9. Павловская Н.Г., Байкадамов Д.В. Особенности логического мышления современных подростков // Pedagogical Perspective. – 2021. – № 2. – С. 30–35.

Abdullayeva Saodatxon Nosirjon qizi
Farg'ona davlat universiteti magistranti
Email: saodatabdullayeva2702@gmail.com

AFANDI LATIFALARIDA IRONIYANING LINGVISTIK VA ESTETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Afandi latifalarida qo'llanilgan kinoyaning lingvistik va estetik xususiyatlari tadqiq etiladi. Kinoyaning semantik, pragmatik va stilistik jihatlari tahlil qilinib, uning kulgi hosil qilish, ijtimoiy tanqidni yashirin shaklda ifodalash hamda badiiy ta'sirchanlikni kuchaytirishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari kinoyaning Afandi latifalaridagi asosiy estetik vosita sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Latifa,ironiya,kinoya, lingvistik tahlil, estetik funksiya, kulgi, pragmatika,illokutiv akt, presuppozitsiya, implikatsiya.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ЭСТЕТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ИРОНИИ В АНЕКДОТАХ АФАНДИ

Аннотация*. В данной статье изучаются лингвистические и эстетические свойства иронии, используемой в анекдотах Афанди. Анализируются семантические, прагматические и стилистические аспекты иронии, раскрывается ее роль в создании смеха, выражении социальной критики в скрытой форме и усилении художественной выразительности. Результаты исследования указывают на важность иронии как основного эстетического инструмента в анекдотах Афанди.*

Ключевые слова*: Анекдот, ирония, лингвистический анализ, эстетическая функция, смех, прагматика, иллокутивный акт, пресуппозиция, импликация.*

LINGUISTIC AND AESTHETIC PROPERTIES OF IRONY IN AFANDI'S ANECDOTES

Abstract*. This article studies the linguistic and aesthetic properties of irony used in Afandi's anecdotes. The semantic, pragmatic and stylistic aspects of irony are analyzed, revealing its role in creating laughter, expressing social criticism in a hidden form, and enhancing artistic expressiveness. The results of the study indicate the importance of irony as the main aesthetic tool in Afandi's anecdotes.*

Key words: *Anecdote, irony, irony, linguistic analysis, aesthetic function, laughter, pragmatics, illocutionary act, presupposition, implication.*

Kirish. Tilshunoslikda latifa (anekdot, hazil) og'zaki nutqning muhim janrlaridan biri bo'lib, u xalq tafakkuri, milliy dunyoqarash va estetik didning yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Latifalar qisqa, ixcham va mazmunan chuqur bo'lishi bilan ajralib turadi hamda ko'pincha kulgi vositasida ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar va insoniy kamchiliklarni tanqidiy yoritadi. Latifalarning ta'sirchanligi asosan ularning lingvistik mexanizmlariga, xususan, ko'pma'nolilik, kontekstual qarama-qarshilik, presuppozitsiya va ironiyaga tayangan holda yuzaga keladi. Ironiya latifa matnida yashirin ma'no yaratish, kutilmagan semantik burilish hosil qilish va estetik zavq uyg'otishning asosiy vositalaridan biridir. U nutqda aytilgan mazmun bilan ko'zda tutilgan ma'no o'rtasidagi tafovut orqali kulgi va tanqidni bir vaqtda amalga oshiradi. Shu sababli ironiyani latifa tilining yetakchi stilistik belgisi sifatida baholash mumkin.

Asosiy qism. Latifa janrining vujudga kelishi va janr xususiyatlari haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Olimlar mazkur janrning paydo bo'lish jarayonini uzoq o'tmishga bog'lashadi. Suvonqulov latifa elementlarini «Avesto»da ham uchrashini ta'kidlab o'tgan.[1:30] I.Braginskiy

esa ayrim qadimgi so‘g‘d hikoyatlari («Savdogar va marjon teshuvchi xizmatkor hikoyati» kabi)[2:213-214] latifa janriga uyg‘unligini ta'kidlaydi. B.Privalov o‘tgan asrlarda xalq latifalari bozorlarda turli tabaqa vakillarining munosabatlari asnosida kelib chiqadigan kulguli vaziyatlarga bog‘liq holda vujudga kelganini ta'kidlab o‘tgan. A.N.Veselovskiy hayvonlar haqidagi epos qo‘shiq janridan keyin paydo bo‘lgan, epos materialini ertak va masallar tashkil etadi. Satirik maqsadlar esa keyinroq paydo bo‘lganini ta'kidlaydi.[3:236-237] E.D.Tursunov ham shunga yaqin fikrni aytib o‘tgan. Uning ta'kidlashicha, latifalar maishiy ertaklarning bir turi bo‘lgan go‘l(laqma)lar haqidagi ertaklar zaminida paydo bo‘ladi.[4:155]Demak, latifa janrining vujudga kelishi xususida turli qarashlar mavjud. Biz esa bu borada B.Privalov fikrining tarafdorimiz. E.D.Tursunovning fikrini esa,nazarimizda, latifalarning juda kichik bir turkumigagina tatbiq etish mumkin. Zero, latifalarning asosiy qismida bosh qahramon dono va zukko,hozirjavob inson sifatida namoyon bo‘ladi.O‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi latifa janri xususida o‘zbek folklorshunoslari H.Zarifov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova, O.Sobirov, A.Qahhorov, J.Qobulniyozov, M.Saidov, T.Mirzaev, K.Imomov,M.Murodov, B.Sarimsoqov, T.Ashurov, O.Safarov, A.Musaqulov, M.Jo‘raev, U.Jumanazarov, Sh.Turdimov, J.Eshonqul va boshqalar o‘z qarashlarini turli tadqiqotlarda bayon etishgan.Latifa janri va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida R.Muqimov,H.Razzoqov, O.Sobirov, F.Yo‘ldosheva, B.Sarimsoqov, K.Imomov kabi folklorshunos olimlarning tadqiqotlarida diqqatga sazovor.Folkloshunoslar latifa janrining beshta xususiyatlarini ko‘rsatishadi.Bular:1) epik turga mansubligi; 2) hajman qisqa bo‘lishi; 3) mazmunan hazil va hajvga asoslanganligi; 4) tugallangan syujetli bo‘lishi; 5) kutilmagan yakundan iboratligi. Bu boradagi olimlar fikrlarini quyida ko‘rib o‘tamiz.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida Afandi latifalari ironiyaning eng mukammal namunalaridan biri sanaladi. Afandi obrazi sodda ko‘rinishi ortida teran aql, ijtimoiy tanqid va estetik noziklikni mujassamlashtirgan bo‘lib, uning latifalarida ironiyaning lingvistik va estetik xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu tahlil orqali Afandi latifalarida ironiyaning qanday til vositalari yordamida yuzaga chiqishi hamda uning estetik ta’sir kuchi lingvistik tahlil asosida yoritiladi.

Afandi eshagini minib,bozorga borar ekan,uning orqasidan yetib kelgan otliq bir boy,unga piching otdi:

-Afandi eshagingiz qalay?

-Ot ustiga minganday,-deb javob berdi Afandi.

Bu latifa asosan semantika (ma'no tizimi), pragmatika (tilni ishlatish konteksti) va stilistika (uslubiy vositalar) jihatlarida qiziqarlidir.Leksik-semantik jihatga ko’ra (so'z ma'nolari va ko'pma’nolilik)Polisemiya: Latifaning markazida "qalay" so'zi yotadi. O'zbek tilida "qalay" birinchi ma'no: "Qanday holatda?" yoki "Qanday ahvolda?" (savolning shakli: holatni so'rash) bo’lsa.ikkinchi ma'nosi"Qanday turdagi?" yoki "Qanday sifatda?" (masalan, narsaning sifatini baholash tushuniladi).Latifada boy bu so'zni masxara ma'nosida ishlatadi: "Eshagingiz qanday (past, yomon)?" deb nazarda tutadi. Afandi esa uni ijobiy tomonga buradi: "Ot ustiga minganday" (ya'ni "otdek yaxshi, otga o'xshash"). Bu so'zning ko'pma’noliligi hazilni yaratadi,bir so'z turli kontekstlarda turli ma'nolarga ega bo'lib, semantik o'yin hosil qiladi.Matnda "Ot ustiga minganday" iborasi metaforikdir,bu yerda "ot ustiga minmoq" (otga minmoq) – yuqori darajadagi qulaylik vazifasida kelmoqda,Afandi eshakni ot bilan solishtirib, ijtimoiy farqni yo'qqa chiqaradi. Bu leksik vosita orqali ironiya (masxara) yaratiladi.Bundan tashqari,matnda intonatsiyaning o’rni ham ahamiyatlidir.Og'zaki nutqda boyning savoli masxara intonatsiyasida (yuqori ohang bilan), Afandining javobi esa ishonchli va zukko intonatsiyada bo'ladi. Bu holat (ohang va ritm) latifaning pragmatik ta'sirini oshiradi.Kontekstdagi maqsadga ko’ra implikatsiya va presuppozitsiya pragmatik ma’noni hosil qiladi. Presuppozitsiya M.Hakimov fikrlari bilan aytganda, mavjud axborotning ziddini keltirish bilan hosil qilinadi.Boyning savoli implikatsiya (yashirin ma'no) orqali yaratiladi, u "eshak yomon" deb presuppozitsiyani shakllantiradi. S.Todorovning fikricha, har qanday matn jarayon bo‘lib, sintaktik va semantik xususiyatlarga ega. Matnlaming aniq gaplardan tashkil topishi - uning jarayon ekanini tasdiqlaydi. Matnni tashkil etuvchi qismlar orasidagi o'zaro bog'lanish uning sintaktik xususiyatini va, nihoyat, matnning mazmuni - uning semantikasini bel-

gilaydi.N.Enkvist ham matnning uch lingvistik parametrini mavzu (Topic), fokus (Focus) va bog'lanish (Linkage)ni aniqladi. Mavzu - matnning asosiy mazmuni, fokus - matnni tashkil etuvchi birlik (so'z, so'z birikmasi, gap va hokazo), bog ‘lanish esa matnning tashkil etuvchi qismlari orasidagi bog'lanish vositalaridir.[5:151] Olimlarning fikriga qaraganda, matnni tashkil etuvchi birliklar orasidagi bog’lanish presuppozitsiya, implikatsiya kabi munosabatlar orqali amalga oshiriladi. Bu tushunchalar o’zaro bog’liqdir; har bir yangi gap oldingi gapni to’ldirib keladi va o’z navbatida yangi gapning tug’ilishiga zamin tayyorlaydi demakdir. Matndagi gaplar bir-biri bilan shu zaylda zanjirsimon bog’lanib ketaveradi. Mana shu hodisa presuppozitsiya yoki implikatsiya deb yuritiladi. Matndagi makrotema ishtirokchilari bo’lmish mikrotemalar faqat bitta gap orqali ifodalanmay, balki gaplar birikmasi, xatboshilar, bo’limlar orqali anglashilishi mumkin. Demak, mikrotemalar kichik, katta bo’lishi mumkin, ya’ni makrotema pog’onama-pog’ona bo’lib joylashgan turli kattalikdagi mavzular yig’indisidan tashkil topgan bo’ladi.[6:155] Afandi bu taxminni rad etib, pragmatik inversiya,ma'noni teskari buradi.Latifa o'zbek folklorida keng tarqalgan bo'lib, tilni ijtimoiy satira (masxara) vositasi sifatida ishlatadi. Bu pragmatikada "fel'ning illokutiv kuchi" (so'zning ta'sir kuchi) – masxara qilish o'rniga, o'zini himoya qilish hisoblanadi. S.X.Azimovaning so‘zlariga ko‘ra, nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga ko‘ra so‘zlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi [7:182]. J.Ostin nutq aktlarini lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlarga ajratganligini Arso Setyaji [8:18] qayd etgan. Ushbu aktlardan illokutiv akt nutq mazmunini aks etishida muhim rol o’ynaydi. “Illokutiv akt” tushunchasini pragmalingistikada inson tomonidan nutqiy jarayonda va nutqiy faoliyat vositasida bajariladigan harakat sifatida Sh.Safarov ta’riflab, O.G.Pochepsovning quyidagi fikrlarini qayd etadi: 1) illokutiv harakatning ijrochisi (agenti) so‘zlovchi yoki yozuvchidir; 2) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyatidan farq qiladi; 3) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyati jarayonida yuzaga keladi; 4) illokutiv akt nutqiy faoliyat vositasida bajariladi [8:83-91].Latifada asosiy vosita – verbal ironiyadir (so'z orqali masxara). Afandining javobi paradoksal: u boyning masxarasini o'z quroliga aylantiradi.Kinoya – bu so'z yoki ifodaning haqiqiy ma'nosiga teskari ma'no bildirish, ko'pincha masxara, tanqid yoki hazil uchun ishlatiladigan uslubiy vosita. Bu latifada kinoya markaziy rol o'ynaydi, chunki u ijtimoiy adolatsizlikni, boy va kambag'al o'rtasidagi farqni zukko tarzda masxara qiladi.Etika nuqtayi nazaridan kinoya – ikki qirrali qurol: u yaxshi maqsadlarda (tanqid, o'zgartirish) ishlatilsa, axloqiy, ammo yomon niyatda (masxara, zarar) – axloqsiz bo'lishi mumkin. Latifada kinoyaning etik jihatlari quyidagicha:Ijobiy etik xususiyatlar,adolat va tenglik himoya qilinadi.Kinoya ijtimoiy adolatsizlikni ochib beradi. Afandining kinoyasi boyning takabburligini masxara qilib, "boylik – ustunlik emas" degan axloqiy dars beradi. Bu Arastu yoki Suqrot falsafasidagi kinoyaga o'xshaydi.Kinoya yordamida zo'ravonlik o'rniga so'z bilan "jang" qilinadi. Bu etik jihatdan yumshoq,zarar bermaydi, ammo o'zgartirishga undaydi. Latifada kinoya kambag'allarni himoya qiladi, ularni zukkolik bilan "qurollantiradi".Latifadagi kinoya etik jihatdan ijobiy: u adolatni ta'minlaydi va ijtimoiy tanqid qiladi. Latifada kinoyaning estetik jihatlari quyidagicha.Go'zallikning murakkabligi: Kinoya "ikkitomonlama" – sirtqi ma'no va yashirin ma'no. Bu estetik jihatdan jozibali: o'quvchi uni "kashf etishi" kerak, bu san'atdagi "sir" elementiga o'xshaydi (masalan, Shekspir pyesalaridagi kinoya). Latifada "ot ustiga minganday" – estetik metafora, u oddiy so'zlar bilan go'zal burilish yaratadi. Latifaning qisqaligi va dialogik shakli estetik jihatdan, u ritmik, oqimli, folklor san'atiga xosdir.

Xulosa. Afandi latifalarida kinoya nafaqat kulgi vositasi, balki chuqur estetik va ijtimoiy mazmunni ifodalovchi muhim lingvistik hodisa hisoblanadi. Kinoya orqali oddiy til birliklari yangi semantik qatlam kasb etib, tinglovchi yoki o‘quvchini faol tafakkurga chorlaydi. Ma'lum bo’ladiki, Nasriddinning vaziyatni to’g’ri baholashiga,zudlik bilan to’g’ri yechim topa olishiga tasanno aytmasdan ilojimiz yo’q.Afandi latifalarida so’z, iboralarning aniq qo’llanilishi xalq qahramonining o’zbek tili imkoniyatlaridan, ko’chirimlaridan, so’z o’yinlaridan haqiqiy zarshunosdek foydalanishini dalillaydi. Afandi juda sodda ko’ringani bilan tilimizning go’zalligini, tovush tovlanishini mahorat bilan qo’llaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Суванқулов Б. Ўзбек халқ латифаларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти: филол. фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 2007. – 30 б.
2. Брагинский И.С. Из истории таджикской народной поэзии. – Москва: АН СССР, 1956. – С. 213–214.
3. Анекдоты Омирбека. – Нукус: Каракалпакстан, 1970. – С. 236–237.
4. Веселовский А.Н. Собрание сочинений: в 16 т. – Санкт-Петербург: ОРЯС Имп. АН, 1913. – Т. 1. – С. 39.
5. Турсунов Е.Д. Генезис казахской бытовой сказки. – Алма-Ата: Наука, 1973. – С. 155.
6. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009. – 155 b.
7. Azimova S.X. Pragmatika va nutqning lingvopragmatik xususiyatlari // 2nd International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts. – Germany, 2021. – B. 182.
8. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B. 83–91.

Muhammadtohir Abdupattoyev
Farg'ona davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)
E-mail: abdupattoyev_m@gmail.com,
Xusanova Ma'rifat
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: xusanovamarifat84@gmail.com

IDIOSTILNING SHAKLLANISHIDA STILISTIK OMILLARNING O'RNIGA DOIR

Annotatsiya. *Zamonaviy tilshunoslikda idiostil lingvopoetikaning markaziy masalalaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada idiostil, uning jahon tilshunosligida o'rganilishi xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, maqolada poetik nutqda stilistik vositalardan foydalanish, stilistik omillarning idiostil yaratishdagi o'rni, idiosinkraziya va uning idiostil bilan munosabati yoritilgan. Ilmiy xulosalar lisoniy dalillar tahlili orqali taqdim qilingan.*

Kalit so'zlar: *idiostil, lingvopoetika, stilistik vositalar, metafora, idiosinkraziya, stilistik omillar, kinoya.*

ON THE ROLE OF STYLISTIC FACTORS IN THE FORMATION OF IDIOSTYLE

Abstract. *In modern linguistics, idiostyle plays an important role as one of the central issues of linguopoetics. This article discusses idiostyle and its study in world linguistics. The article also covers the use of stylistic devices in poetic speech, the role of stylistic factors in creating idiostyle, idiosyncrasy and its relationship with idistill. Scientific conclusions are presented through the analysis of linguistic evidence.*

Key words: *idiostyle, linguopoetics, stylistic devices, metaphor, idiosyncrasy, stylistic factors, irony.*

О РОЛИ СТИЛИСТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ ИДИОСТИЛЯ

Аннотация. *В современной лингвистике идиостиль играет важную роль как один из центральных вопросов лингвопоэтики. В данной статье рассматривается идиостиль и его изучение в мировой лингвистике. Также в статье освещается использование стилистических средств в поэтической речи, роль стилистических факторов в создании идиостиля, идиосинкразия и ее связь с идистилем. Научные выводы представлены посредством анализа лингвистических доказательств.*

Ключевые слова: *идиостиль, лингвопоэтика, стилистические средства, метафора, идиосинкразия, стилистические факторы, ирония.*

Kirish. Idiostil - bu muallifning individuallashtirilgan til tizimi, ya'ni til birliklarini tanlash, ularni muayyan maqsadga yo'naltirib qo'llashda namoyon bo'lgan shaxsiy uslubidir. Idiostilning shakllanishi va matnda voqelanishi bevosita lingvopoetik hamda stilistik omillar bilan belgilanadi. Bular muallif dunyoqarashi, badiiy-estetik ideali, psixologik holati, til me'yoriga munosabat va nutq pragmatikasi bilan chambarchas bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jahon tilshunosligida idiostil masalasi XX asrning o'rtalaridan boshlab keng ilmiy muhokamalarga sabab bo'lgan. Idiostil g'oyasi, ayniqsa, Rus stilistika maktabi vakillari Y.N.Tinyanov, Y.N.Karaulov, L.V.Shcherba, V.V.Vinogradov, E.M.Galkina-Fedoruk, Praga maktabi vakili Y.Mukarovskiy tadqiqotlarida chuqur o'rganilganligini kuzatamiz. Xususan, L.V.Shcherba birinchilardan bo'lib, til tizimi va nutq faoliyati farqini asoslab, individual nutq uslubi fenomeniga e'tibor qaratdi. V.V.Vinogradov bu nazari-

yani mustahkamlab, adabiy asarlarda muallif uslubining lingvistik omillarini chuqur tahlil qildi. Shuningdek, tadqiqotlarida “lisoniy shaxs” atamasini kiritib, idiostilni stilistikaning markaziy kategoriyasiga aylantirishga muvaffaq bo‘ldi. Y.N.Karaulov idiostilni verbal-semantik, kognitiv, motivatsion darajalarga bo‘lish va ushbu alohida darajalarni tahlil qilish asosida kompleks tahlil qilish g‘oyasini ilgari surdi. Sh.Ballining emotsional-ekspressiv til birliklari, individual nutq xususiyatlari haqida nazariy qarashlari esa idiostil konsepsiyasiga asos bo‘lgan, deyish mumkin. R.Jakobson individual poetik til hamda stilistik kodlash masalalarini tadqiq qildi.

Funksional lingvistika asoschisi M.A.K.Halliday individual til tanlovi va uslubiy me’yordan og‘ish holatlarini nazariy jihatdan asosladi. Bundan tashqari, yana bir qator olimlar tomonidan idiostil masalasi turli jihatlariga ko‘ra o‘rganildi.

G.Leech, M.Short badiiy matn lingvistik tahlilida muallif uslubining grammatik, semantik va pragmatik ko‘rinishlarini chuqur o‘rgangan. V.Booth, J.Austin badiiy matnda muallif pozitsiyasi, nutq subyektining stilistik belgilari va individual ekspressiya masalalarini yoritgan.

Idiostil masalasi bugungi kunda stilistikaning davomi o‘laroq jadal rivojlanayotgan lingvopoetika sohasining obyekti bo‘lib, bu boradagi tadqiqotlar nafaqat mutaxassis olimlar, balki kitobxonlarda ham katta qiziqish uyg‘otmoqda.

“Badiiy adabiyot va uning tili yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar ijodkor tafakkur olamining kengayishiga xizmat qilishi barobarida, kitobxonlar estetik didining takomillashuviga ham ko‘maklashishi shubhasiz. Badiiy matnning shakllanishida asosiy omil yozuvchi omilidir. Uning ijod yo‘li va uslubi esa mutlaqo individualdir. Uning mahorati sabab, matnda qo‘llanilgan har bir til materiali poetik birlikka va faqat shu ijodkor uslubiga xos bo‘lgan individual vositaga aylanishi mumkin”. Rus tilshunosligi vakili R.A.Budagov ham “Qoidalar” kitobida shunday ta’kidlagan edi. “Badiiy asar tili – badiiy uslubning ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, unda barcha uslublar o‘ziga xos tarzda birlashadi, lekin mexanik tarzda birlashmaydi: badiiy asar tili tizimiga kirib, barcha uslublar o‘zgaradi va badiiy tasvir va ifodaning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan maxsus vazifani bajara boshlaydi...” Bunda til vositalari orqali yaratilgan individuallik muallif – ijodkorning tanlovi mahsuli hisoblanadi.

Shunday ekan, idiostilning shakllanishida har qanday lisoniy unsur – fonetik ohangdorlik, leksik tanlov, sintaktik qurilish, obrazli ifoda, nutq uslublari bilan bog‘liq xususiyatlar va intertekstual aloqalar muhim stilistik omil sifatida rol o‘ynaydi. Demak, matndagi badiiylik, ekspressivlik, emotsional ta’sirchanlikni oshiruvchi lingvistik vositalar majmuasi stilistik omillar hisoblanadi.

Bundan tashqari, idiostil tushunchasi idiosinkraziya hodisasi bilan bevosita bog‘liq. “Idiosinkraziya” yunoncha idios – “o‘ziga xos”, synkrasis – “aralashish” degan so‘zlardan tashkil topib, shaxsga xos bo‘lgan individual nutqiy xususiyatlarni anglatadi. (Bu termin V.P.Grigoryevning “Будетлянин” kitobida qo‘llangan). Demak, idiosinkraziya – bu til tizimidan individual foydalanish jarayonida yuzaga keladigan shaxsga xos nutqiy xususiyat, yoki munosabat bo‘lib, u ko‘pincha idiostilning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi va muallif lisoniy shaxsini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Badiiy matnda lisoniy vositalar kompleks holda idiostilni tashkil qilib, ijodkor shaxsini namoyon etishga xizmat qiladi. Xususan, H.Xudoyberdiyeva idiostilida quyidagilar alohida diqqatga sazovor:

O‘lmoqlikning yo‘llari ko‘p,
Bugun yurak tosh olar.
Jaholatning qo‘llari ko‘p,
Salla desang bosh olar.
Xalqim, senga yetmaydirmi,
Chor atrofdan tekkan sang,
O‘z-o‘zingni yiqitmoqqa
Munchayam shay turmasang.
Sen shuncha ko‘p xato qilding,

Ko‘zlaringga kelmay nim.
Endi Sen deb go‘rimda ham
Tinmas mening uvvosim.

Poetik matnda ohangdorlik, jarangdorlikni ta’minlashga qaratilgan sinonimlar (“tosh’, “sang”); “Bugun yurak tosh olar” tarzidagi metaforik tasvir, “Salla desang bosh (kalla emas) olar” frazeologik birligining ohangga mos tarzda qayta ishlanishi, og‘zaki nutqqa xos “munchayam”, “uvvosim” leksemalarining qo‘llanishi, ona xalqiga murojaat qilib (Sen) uni bosh harflar bilan yozish orqali unga nisbatan muhabbat, xayrixohlik, ehtirom tuyg‘ilarini ifoda etishi ijodkorning idiosinkraziyasini hosil qiladi. Bunday xususiyat shoiraning qator she’rlari matnida ustuvorlik qilgani uchun ham H.Xudoyberdiyeva idiostilini namoyish qiladi, deya olamiz.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov asarlari matnida metaforaning o‘ziga xos namunalarini ko‘ramiz va bu metaforik tasvir matnni o‘quvchida unga nisbatan yuqori darajada munosabat uyg‘otmasligi imkonsiz:

– Avlod-ajdoding bilan turmada chiritaman! – dedi Zakunchi vishillab. (O‘.Hoshimov)

Matnda asar qahramoni tilidan aytilgan metaforik ko‘chim (“chiritaman”), boshqa personaj nutqida qo‘llangan “vishillab” so‘zi bir vaqtning o‘zida qahramonning salbiy xarakterini, muallifning unga bo‘lgan nafratini ifodalash bilan birga tinglovchida ham unga nisbatan salbiy munosabat uyg‘ota oladi. O‘tkir Hoshimov idiostilida bu kabi metaforalar son jihatdan ancha ustunligi ijodkor badiiy nutqining o‘ziga xosligini ta’minlaydi.

Uning badiiy nutqida qahramon tilidan berilgan nutqda kinoyaning quyidagicha qo‘llanganini ko‘ramiz:

Hisob-kitobga usta nemislar, “madaniyatli, “bilimdon” fashistlar bir narsani o‘ylamasdi... Ayolni shuncha azobga bardosh berishga majbur qilgan narsa dori emas!..”

“Dono” fashistlarning aqli qandoq yetsin bunga!

Xudo ko‘rsatmasin, diktatura degan ajdaho qaytadan bosh ko‘tarsa, “vintcha” bo‘lib yashashga ko‘nikib qolgan, o‘ylashga erinadigan olomon o‘ylaydigan farzandlarni osish uchun o‘z qo‘li bilan dor yasab bermasmikin?! (O‘.Hoshimov)

Ushbu matnda kinoyaning asardagi qaysi qahramon tilidan aytilayotgani ham ahamiyatli. Bilamizki, O‘tkir Hoshimovning aksariyat asarlari badiiy personajlar tomonidan hikoya qilinadi. Unda qahramonning yoshi, jinsi, saviyasi, ijtimoiy mavqeyi kabi bir qator jihatlari nutqning shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Yuqoridagi matnning asardagi voyaga yetgan aql-farosatli, oriyatli, mard qahramon – Kimsan tilidan aytilishi bevosita muallifning o‘ziga tegishli fikr sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi til birliklarini tanlashda uning psixolingvistik jihatini nihoyatda mohirlik bilan ko‘rsatib beradi. Bu ijodkor idostilidagi yetakchi xususiyat hisoblanadi.

XX asr o‘zbek badiiy nutqining betakror ijodkorlaridan biri Abdulla Qahhor asarlarida metaforaning bir vaqtning o‘zida ham tasvir, ham kinoya uchun xizmat qilganligi matn ta’sirchanligini yuqori darajaga olib chiqqani ahamiyatli:

Qarigan chog‘ida xo‘rozqand yalamay domla xam o‘lsin! – dedi yana biri.

Xo‘rozqand gapirolmas, dir-dir titrab, kishnaganday bir tovush chiqarar va qo‘li bilan mashinani ko‘rsatar edi. (A.Qahhor. “To‘yda aza”)

Ushbu misoldan ko‘rinadiki, matndagi badiiy tasvir vositasi – metafora muallifning o‘ziga xos lisoniy boyligini yaqqol aks ettiradi, sodda qilib aytganda, matnni o‘qishimiz bilan muallifni “taniymiz”. Bunday tasvir usullari muallifning fikri, saviyasi, dunyoqarashi, lisoniy boyligi, nutq madaniyati haqida keng ma’lumot beradi. Tinglovchida ma’lum emotsiya uyg‘otib, matndagi fikrga munosabatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa va takliflar. Har bir ijodkor umumxalq tilining imkoniyatlari ichida faoliyat yuritadi. Shu sababli idiostilning asosiy manbayi tildir. O‘zbek tilining leksik boyligi, grammatik strukturasi, frazeologik qatlamlari, fonetik va ritmik imkoniyatlari ijodkorning qurolidir. Xulosa qilish mumkinki, ijodkorning o‘ziga xosligi lisoniy boyligi, uning adabiy til me’yorini qanchalik anglay olishi va unga qanchalik ijodiy yondashishi bilan belgilanadi. Bunda pragmatik ustuvorlik idiostilning eng o‘zgaruvchan va jonli qatlami hisoblanadi. Idiostilni belgilovchi eng muhim omillardan biri ijodkorning psixologik portreti, intellektual darajasi, hayotiy tajribasi, estetik qarash-

laridir. Uning hayotiy tajribasi konnotativ birliklarda, metaforalarda, obrazli tasvirlash usullarini namoyish etishda o‘z ifodasini topadi. Idiostil qanchalik barqaror bo‘lsa, u shunchalik oson taniladigan mualliflik badiiy kompleksini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Қаҳҳор А. Тўйда аза [Электрон ресурс]. – URL: https://ziyouz.uz (мурожаат санаси: 03.03.2026).
2. Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: монография. – Фарғона, 2021. – 200 б.
3. Маҳмудов Н. Алданган кутилганлик лингвопоэтикасига чизгилар // Жадид газетаси. – 2025. – 23 май. – № 21 (73). – 5-б.
4. Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Adad-Plus, 2018.
5. Худойбердиева Ҳ. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2018. – 558 б.
6. Григорьев В.П. Будетлянин. Языки русской культуры. – Москва, 2000. – 812 с.
7. Костомаров П.И. Антропоцентризм как важнейший признак современной лингвистики // Вестник Кемеровского государственного университета. – 2014. – Т. 1. – № 2 (58). – С. 198–203.
8. Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида): филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 12 б.
9. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик таҳлили. – Тошкент: Фан, 2013.

Xusanova Maksuda Nishonovna
Renessans universiteti Filologiya kafedrasi dotsenti

DIGNITONIM VA FALERONIMLARNING ONOMASTIK TIZIMDAGI O‘RNI HAMDA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada onomastika tizimining muhim qatlamlari hisoblangan dignitonim va faleronim birliklarning nazariy asoslari, lingvistik mohiyati hamda ularning ijtimoiy-madaniy vazifalari atroflicha yoritiladi. Shuningdek atoqli otlarning onomastik tasnifi doirasida dignitonim va faleronimlarning o‘rni aniqlanib, ularning struktur-semantik, onomasiologik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu onomastik birliklarning rasmiy-huquqiy, ilmiy va publitsistik diskursdagi qo‘llanish holatlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar*: onomastika, dignitonim, faleronim, nominatsiya, ijtimoiy maqom, mukofot nomlari.*

РОЛЬ ДИГНИТОНИМОВ И ФАЛЕРОНИМОВ В ОНОМАСТИЧНОЙ СИСТЕМЕ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЯХ

Аннотация. *В данной научной статье всесторонне освещаются теоретические основы, лингвистическая сущность, а также социально-культурные функции единиц дигнитонимов и фалеронимов, являющихся важными слоями ономастической системы. Кроме того, в рамках ономастической классификации собственных имён определяется место дигнитонимов и фалеронимов, анализируются их структурно-семантические, ономасиологические и прагматические особенности. Также рассматриваются особенности употребления данных ономастических единиц в официально-правовом, научном и публицистическом дискурсах.*

Ключевые слова*: ономастика, дигнитоним, фалероним, номинация, социальный статус, названия наград*

THE ROLE OF DIGNITONYMS AND PHALERONYMS IN THE ONOMASTIC SYSTEM AND LINGUISTIC FEATURES

Annotation. *This scientific article comprehensively covers the theoretical foundations, linguistic essence, as well as the socio-cultural functions of the units ofignitonyms and phaleronyms, which are important layers of the onomastic system. In addition, within the framework of the onomastic classification of proper names, the place of dignitonyms and phaleronyms is determined, their structural, semantic, onomasiological and pragmatic features are analyzed. The features of the use of these onomastic units in official, scientific and journalistic discourses are also considered.*

Key words*: onomastics, dignitonym, phaleronym, nomination, social status, award names*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda atoqli otlar tizimini chuqur va kompleks o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki atoqli otlar nafaqat nominativ birlik sifatida, balki jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzilishi, siyosiy boshqaruv mexanizmlari va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lisoniy ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, onomastika fani doirasida shaxsning jamiyatdagi maqomi va e’tirof darajasini ifodalovchi maxsus onomastik birliklar - dignitonim va faleronimlar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Dignitonim va faleronimlar orqali jamiyatda ijtimoiy ierarxiya, hurmat va e’tirof mezonlari belgilanadi. Bu birliklar davlat boshqaruvi, hujjatchilik, qonunchilik, ilmiy faoliyat va ommaviy axborot vositalarida faol qo‘llanadi, shu sababli ularni faqat leksik birlik sifatida emas, balki sotsiolingvistik va lingvokultrologik sifatida tadqiq etish zarur.O‘zbek onomastikasi boshqa onomastik birliklar kabi dignitonim va faleronim tushunchalarining nazariy asoslarini chuqur yoritish,

ularning lisoniy xususiyatlari va funksional qo‘llanishini tahlil qilish, shuningdek, mustaqillik davrida shakllangan faleronimlar misolida milliy til siyosati va qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqligini ilmiy asosda ko‘rsatib berishdan iborat.

Zamonaviy nomshunoslikda atoqli otlar tizimini o‘rganish alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarning til orqali ifodalanishini ochib beradi. Atoqli otlar va ularga munosabat qadimdan xalq vakillarining doim e’tiborida bo‘lgan. Urug‘, qabila, elat, xalq, shahar, qishloq, ko‘chalar, tog‘, tepa, qoya, lalmi yer va adirliklar, ko‘l, daryo, ariq, koriz, quduq kabilarning nomi o‘sha yerda yashayotgan xalq, qabila, el-elat, urug‘-aymoqlarning tarixiy taraqqiyotida shakllangan ma’rifati, ma’naviyatini u yoki bu darajada o‘zida ifodalaydi. Shuning uchun ham ular xalqning e’tirofi hamda diqqatida turadi. Nomlarga munosabat hamma vaqt mavjud jamiyatdagi kishilarning ma’naviyati, madaniyati va ma’rifatining qay darajada yuksak ekanligini bildirib turgan. Onomastika fani shaxs nomlari, joy nomlari, tarixiy davrlar, hujjatlar, asarlar, unvonlar va mukofotlar nomlarini o‘rganish orqali tilning nominativ imkoniyatlarini tadqiq etadi. Ayniqsa, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishni ifodalovchi maxsus nomlar - dignitonim va faleronimlar tilning sotsial funksiyasini yaqqol namoyon etadi.

Onomastika tilshunoslikning mustaqil sohasi bo‘lib, uning asosiy predmeti atoqli otlar tizimini o‘rganishdan iborat. Atoqli otlar orqali jamiyatda mavjud bo‘lgan shaxslar, joylar, tarixiy hodisalar, lavozim va mukofotlar nomlanadi. Shu bois onomastika tilning nafaqat leksik qatlamini, balki uning ijtimoiy, tarixiy va madaniy qatlamlarini ham qamrab oladi.

Tadqiqot metodologiyasi


Onomastikaning tadqiqot obyekti sifatida atoqli otlarning kelib chiqishi, semantik tuzilishi, struktur xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti va funksional qo‘llanishi belgilanadi. Tadqiqot metodlari esa tarixiy-etimologik tahlil, struktur-semantik tahlil, onomasiologik yondashuv, sotsiolingvistik va pragmatik tahlil usullarini o‘z ichiga oladi. Ushbu metodlar dignitonim va faleronimlarning til tizimidagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy nomshunoslikda atoqli otlar keng va murakkab tizim sifatida qaraladi. Tilning leksik boyligi konkret lug‘aviy birliklardan iborat bo‘lganidek, tilning onomastik fondini onomastik leksika doirasida shakllangan atoqli otlar tashkil qiladi [7].Atoqli otlar turdosh otlardan farqli ravishda yakka obyektni nomlaydi. Onomastik tasnifga ko‘ra, atoqli otlar bir necha yirik guruhlarga bo‘linadi: antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, kosmonimlar, gidronimlar, ideonimlar[6] kiradi. Ya.Avloqulov o‘zbek tili onomastik birliklari[8] mavzusida, A.Primov esa o‘zbek tili kosmonimlari tadqiqi[9] deb nomlangan ilmiy tadqiqotlar ishlarini olib borishgan. Bizning tadqiqot obyektimiz ideonim makroko‘lami bilan bevosita bog‘liq.

Tahlil va natija. Ushbu makroko‘lamlar bir necha mikroko‘lamlarga bo‘lanadi.Jumladan, ideonimlarni quyidagicha tasnifladik:

Mazkur tasnifda dignitonim va faleronimlar ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni ifodalovchi maxsus onomastik birliklar sifatida ajralib turadi. Ular orqali jamiyatdagi maqom, e’tiroflari til vositasida ifodalanadi.

Dignitonim va faleronimlar onomastik tizimda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, ular shaxs bilan bevosita bog‘liq nominativ birliklardir. Dignitonimlar shaxsning jamiyatdagi lavozimi, unvoni yoki maqomini bildirsa, faleronimlar uning xizmatlari uchun berilgan mukofotlarni nomlaydi. Onomastik birliklar, xususan, dignitonim va faleronimlar til va jamiyat o‘rtasidagi uzviy aloqani namoyon etadi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy ierarxiya, qadriyatlar tizimi va tarixiy xotirani aks ettiruvchi muhim lisoniy ko‘rsatkichlardir.



Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan, dignitonim va faleronimlar nutq jarayonida hurmat, e'tirof va baholash vositasi sifatida xizmat qiladi. Madaniy jihatdan esa ular milliy davlatchilik, tarixiy shaxslar va muhim ijtimoiy hodisalar bilan bog'liq bo'lib, til orqali avloddan-avlodga uzatiladi. Dignitonimlar onomastik birliklarning alohida guruhi bo'lib, ular shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, kasbiy yoki ilmiy maqomini ifodalaydi. Dignitonim termini lotincha dignitas ("qadr-qimmat", "martaba") so'zidan kelib chiqqan. Dignitonim shaxsga nisbatan beriladigan ijtimoiy baho va hurmat darajasini bildiruvchi nominativ birliklarni qamrab oladi. Nomshunoslikda dignitonimlar atoqli otlar tizimida shaxs bilan bevosita bog'liq bo'lgan, yuqori darajada rasmiylikka ega birliklar sifatida talqin etiladi. O'zbek tilshunosligida dignitonimlar ko'pincha "unvon nomlari", "lavozim nomlari", "martaba bildiruvchi birliklar" doirasida o'rganilgan. Biroq zamonaviy onomastik yondashuv ushbu birliklarni mustaqil termin –dignitonim sifatida qarashni talab etadi. Chunki bu birliklar oddiy leksik birlik emas, balki ijtimoiy munosabatlar va davlat boshqaruvi tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan til hodisasidir.

Dignitonimlar mazmuni va qo'llanish doirasiga ko'ra bir necha guruhlarga ajratiladi:

Davlat-siyosiy dignitonimlar: prezident, vazir, senator, hokim.

Ilmiy-ta'limiy dignitonimlar: akademik, professor, dotsent.

Harbiy dignitonimlar: general, polkovnik, mayor.

Diniy dignitonimlar: muftiy, shayx, qori.

Mazkur tasnif dignitonimlarning jamiyatdagi asosiy ijtimoiy institutlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.


Faleronimlar onomastik birliklarning muhim qatlamini tashkil etib, shaxsning davlat yoki jamiyat oldidagi xizmatlari uchun berilgan mukofotlar, orden va medallar nomlarini ifodalaydi. "Faleronim" atamasi yunoncha phalera - "nishon", "bezak" ma'nosidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab harbiy jasorat belgilarini anglatgan. Keyinchalik ushbu tushuncha kengayib, davlat mukofotlari tizimini nomlashda qo'llanila boshlagan.Inson borki, qilgan kashfiyotlari, mehnatlarini, ixtirolarini omma oldida rag'batlantirishini istaydi. Har bir zamonni, davrni o'z fale-

ronimlari mavjud. Davr o‘zgarishi bilan ba’zi faleronimlar eskirib, yangi faleronimlar paydo bo‘ladi. Tilshunoslikda faleronimlar atoqli otlar tizimida ramziy-baholovchi ma’noga ega birliklar sifatida qaralib, ular oddiy nomlash vositasi emas, balki ijtimoiy e’tirof, davlat siyosati va mafkuraviy qadriyatlarni aks ettiruvchi til birliklari hisoblanadi. Sho‘ro davrida insonlarni turli jabhalardagi faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida quyidagi orden va medallar ta’sis etilgan:“Mehnat Qizil bayroq” ordeni, “Xalqlar do‘stligi” ordeni, “Qahramon ona”, “Qizil yulduz” ordeni, “Sotsialistik Mehnat Qahramoni” ordeni, “Qizil Bayroq” ordeni va boshqalar.

Faleronimlarning semantik tuzilishi ko‘p hollarda mavhum tushunchalar, tarixiy shaxslar yoki muhim ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, “Jasorat”, “Shuhrat”, “Mustaqillik” kabi leksemalar umumiy ma’noga ega bo‘lsa-da, mukofot nomi sifatida qo‘llanilganda atoqli ot maqomini oladi.

Bunday faleronimlar baholovchi va ramziy semantikaga ega bo‘lib, shaxsning jamiyat tomonidan e’tirof etilgan xizmatlarini umumlashtirib ifodalaydi. Shu sababli ularning semantikasi nafaqat leksik, balki pragmatik jihatdan ham ahamiyatlidir.

Faleronimlar ma’no jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:



2-rasm Faleronimlarning turlari.

Faleronimlar ma’no jihatdan to‘rt turga bo‘linadi. Ular orden, medal, ko‘krak nishon, mukofotlarning atoqli otidir. Orden (lot orqa-qator, daraja) faleronim quyidagi ma’nolarni ifodalab keladi: “1. Metall nishon, taqdirlash belgisi, harbiy yoki fuqarolik xizmatlari uchun beriladigan faxriy mukofot. 2.G‘arbiy Yevropada ritsarliklarining harbiy–monaxlik tashkilotlari; 3.Ba’zi maxfiy jamiyatlarning nomi; masalan, masonlik”[.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mukofotlari to‘g‘risida” qonunni sakkizinchi moddasi O‘zbekiston Respublikasining ordenlari to‘g‘risida[2,1] bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: “Mustaqillik” ordeni; “Amir Temur” ordeni; “Jaloliddin Manguberdi” ordeni; “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni; “El-yurt hurmati” ordeni; “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni; “Mehnat shuhrati” ordeni; “Faxriy murabbiy” ordeni; I va II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni; I va II darajali “Shon-sharaf” ordeni; “Do‘stlik” ordeni; I va II darajali “Salomatlik” ordeni; “Mardlik” ordeni, “Imom Buxoriy” va boshqalar.

Medal (fr. medaille, lot metallim – metall) – biror voqea, taniqli arbob yoki tarixiy joy sharafiga chiqariladigan, odatda 2 tomoniga tasvir tushirilgan va yozuvi bo‘lgan, ko‘pincha, doira, tuxumsimon yoki ko‘p burchakli shakldagi, har xil o‘lchovli metall nishon[2].

Faleronimlar ichida kishilarga medallar nisbatan ko‘proq beriladi, chunki ular ordenlarga nisbatan quyiroq bosqichda turadi. Quyidagilar ularga misol bo‘ladi: “Jasorat” medali; “Sodiq xizmatlari uchun” medali; “Kelajak bunyodkori” medali; “Shuhrat” medali; “Sog‘lom turmush” medali[4].

Faleronimlar ichida ko‘krak nishoni ko‘proq ta’sis etilgan. Inson o’zining aqli, bilimi, tadbirkorligi, mehnatsevarligi,faolligi, uddaburonligi kabi fazilatlari bilan jamiyatda obro‘-e’tibor orttiradi. Bunday shaxslar ko’rsatgan mehnatiga loyiq taqdirlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida ko‘krak nishonlari ta’sis [5] etilgan. Ushbu faleronimdagi “nishon” so‘zi 7 ta ma’noda va “ nishondor” so‘zi 2 ta

ma'noda ishlatiladi. Faleronimlarni mazmuniga ko'ra quyidagicha turlarga bo'linadi: jasoratga oid, mehnat faoliyatiga oid, davlat va jamiyat oldidagi xizmatlarga oid faleronimlar.

Faleronimlar nomlash asosiga ko'ra quyidagicha: mavhum tushunchalar asosidagi faleronimlar ("Mardlik", "Do'stlik"), tarixiy shaxs nomlari asosidagi faleronimlar ("Jaloliddin Manguberdi" , " Amir Temur" ordeni).

Masalan, "Mardlik"ordenni nomlanish tamoyili o'zini Vatanni himoya qilishga va Ona yurt xizmatiga bag'ishlagan, mardlik hamda jasorat ko'rsatgan O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilari va boshqa fuqarolarini rag'batlantirish asosida beriladi.

"Jaloliddin Manguberdi" ordeni. Ushbu ordenni nomlanish motivi yurtimizni tinchligini, vatanimiz sarhadlarini himoya qilishda alohida qahramonlik va mardlik ko'rsatgan harbiy yigitlarni xizmatlarini rag'batlantirish asosida beriladi.

Mazkur tasnif faleronimlarning mazmuniy va struktur jihatdan rang-barang ekanini ko'rsatadi. Faleronimlar asosan rasmiy-huquqiy diskursda faol qo'llanadi. Prezident farmonlari, davlat mukofotlari to'g'risidagi hujjatlarda faleronimlar qat'iy me'yor asosida ishlatiladi. Ilmiy va publitsistik matnlarda esa ular shaxsning ijtimoiy nufuzini ta'kidlash, matnning ta'sirchanligini oshirish vazifasini bajaradi. Badiiy adabiyotda faleronimlar kamroq uchrasa-da, ular obrazning ijtimoiy maqomini ochib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan faleronimlar jamiyatda e'tirof etilgan fazilat va xizmatlar hisoblanadi. Ular orqali davlat va jamiyat qaysi fazilatlarni yuqori baholashini ko'rsatadi. Madaniy jihatdan esa faleronimlar milliy tarix, davlatchilik va qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Til tizimida dignitonim va faleronimlar nominativ va baholovchi funksiyalarning uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Dignitonim shaxsni jamiyatdagi lavozimi orqali nomlasa, faleronim esa uning faoliyati va xizmatlariga berilgan ijtimoiy bahoni aks ettiradi. Masalan, "Professor" dignitonimi ilmiy maqomni bildirsa, "Shuhrat" medali ushbu maqom doirasida erishilgan yutuqlarni baholaydi.

Tahlil va xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, insonlarning faoliyatini rag'batlantirish natijada, muvaffaqiyatlarga erishganlarni taqdirlashga ehtiyoj tug'iladi. Unvon, orden, medal, ko'krak nishoni majmuini o'zida jamlagan dignitonim va faleronim nomlarga zarurat yuzaga keladi, shakllanadi.Natijada o'zbek nomshunosligida atoqli otlar tizimini o'rganish, xususan, dignitonim va faleronimlar masalasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ushbu onomastik birliklar esa nomshunoslikning nazariy bazasini boyitadi hamda kelgusida olib boriladigan qiyosiy va amaliy tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 168 б.
2. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2006. – 476 б.
3. Ҳожиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006–2008.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1–14 жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2000–2006.
5. Ўзбекистон Республикаси. "Ўзбекистон Республикасининг фахрий унвонларини таъсис этиш тўғрисида"ги Қонун: 227-I-сон, 26.04.1996. – URL: https://lex.uz
6. Ўзбекистон Республикаси. Қонун (O'RQ-621-сон), 26.05.2020. – URL: https://lex.uz

Tashimov Ruslan Raxmanbergenovich
Qoraqalpog'iston Respublikasi "Kelajak" markazi direktori

ADAPTIV TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT MODELLARINING O'RNI VA IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda robototexnika fanini o'qitishda sun'iy intellektga asoslangan adaptiv elektron ta'lim muhitining pedagogik va ilmiy samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini optimallashtirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va o'quv motivatsiyasini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Adaptiv tizimlar mashinali o'qitish, intellektual tutor tizimlari, tabiiy tilni qayta ishlash va tavsiya etuvchi tizimlar orqali interaktiv va individual o'qitish strategiyasini ta'minlaydi.*

Kalit so'zlar: *adaptiv elektron ta'lim, sun'iy intellekt, robototexnika, STEM fanlari, individualizatsiyalashgan o'qitish, interaktiv o'quv muhit*

РОЛЬ И ВОЗМОЖНОСТИ МОДЕЛЕЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АДАПТИВНОМ ОБУЧЕНИИ

Аннотация. *В исследовании изучалась педагогическая и научная эффективность адаптивной электронной образовательной среды, основанной на искусственном интеллекте, при преподавании робототехники. Исследование показывает возможности оптимизации учебного процесса с учётом индивидуальных особенностей студентов, формирования практических навыков и повышения мотивации к обучению. Адаптивные системы обеспечивают интерактивное и индивидуализированное обучение через машинное обучение, интеллектуальные тьюторские системы, технологии обработки естественного языка и рекомендательные системы.*

Ключевые слова: *адаптивное электронное обучение, искусственный интеллект, робототехника, STEM дисциплины, индивидуализированное обучение, интерактивная образовательная среда*

THE ROLE AND CAPABILITIES OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE MODELS IN ADAPTIVE LEARNING

Abstract. *The study examined the pedagogical and scientific effectiveness of an AI-based adaptive e-learning environment in teaching robotics. The research demonstrates the potential to optimize the learning process by considering students' individual characteristics, developing practical skills, and enhancing learning motivation. Adaptive systems provide interactive and personalized instruction through machine learning, intelligent tutoring systems, natural language processing technologies, and recommendation systems.*

Key words: *adaptive e-learning, artificial intelligence, robotics, STEM subjects, personalized learning, interactive learning environment*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi o'quv jarayonini yanada samarali va individualizatsiyalashgan shaklda tashkil etish imkonini bermoqda. Ayniqsa adaptiv elektron ta'lim muhitida sun'iy intellekt modellaridan foydalanish o'quv jarayonini talabaning individual ehtiyojlari, bilim darajasi va o'rganish sur'atiga mos ravishda boshqarishga yordam beradi. Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralmoqda [4].

Sun'iy intellektga asoslangan adaptiv ta'lim tizimlari talabalarning o'quv faoliyatini tahlil qilish, ularning bilim darajasini aniqlash va individual o'quv yo'nalishlarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Bunday tizimlar katta hajmdagi o'quv ma'lumotlarini qayta ishlash, o'quv jarayon-

idagi tendensiyalarni aniqlash va talabalarga mos o‘quv materiallarini tavsiya qilish imkonini beradi. Natijada o‘quv jarayoni yanada moslashuvchan va samarali bo‘ladi [2].

Sun’iy intellekt modellarining asosiy vazifalaridan biri talabalar faoliyatini doimiy ravishda monitoring qilish va ularning o‘quv natijalarini tahlil qilishdan iborat. Bu jarayonda Learning Analytics texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlar, test natijalari, o‘quv materiallari bilan ishlash vaqti va boshqa ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Natijada tizim talabaning bilim darajasi haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi va mos o‘quv materiallarini tavsiya etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Adaptiv ta’lim tizimlari va sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari so‘nggi yillarda ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda sun’iy intellekt modellarining adaptiv elektron ta’lim muhitida qo‘llanilishi, o‘quv jarayonini individualizatsiyalash hamda ta’lim samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari alohida e’tibor markazida turadi.

Rus olimi P. Brusilovsky adaptiv ta’lim tizimlari sohasida fundamental tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri hisoblanadi [2]. Uning fikricha, adaptiv o‘quv tizimlari talabalarning bilim darajasi, o‘rganish uslubi va qiziqishlarini tahlil qilish orqali o‘quv materiallarini individual tarzda taqdim etish imkonini beradi. Brusilovsky adaptiv gipermedia tizimlari yordamida o‘quv jarayonini optimallashtirish va talabalarning bilimni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydi.

Amerikalik olim B. P. Woolf sun’iy intellekt asosidagi o‘quv tizimlari va intellektual tutor tizimlari (Intelligent Tutoring Systems) bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Uning tadqiqotlarida sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida talabalarning o‘quv faoliyatini monitoring qilish, bilim darajasini baholash va individual o‘quv strategiyalarini shakllantirish mumkinligi asoslab berilgan [5].

Shuningdek, R. S. Baker va K. Yacef tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta’lim jarayonida Educational Data Mining va Learning Analytics texnologiyalaridan foydalanish masalalari o‘rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida katta hajmdagi o‘quv ma’lumotlarini tahlil qilish orqali talabalarning o‘rganish jarayonini chuqurroq tushunish va o‘quv jarayonini samarali boshqarish mumkinligi ko‘rsatib berilgan.

Amerikalik olim T. Anderson elektron ta’lim tizimlari va onlayn ta’lim muhitining nazariy asoslarini o‘rganib, Learning Management System (LMS) platformalarining o‘quv jarayonini boshqarish va talabalarning bilim darajasini oshirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Unga ko‘ra, elektron ta’lim tizimlari talabalarga moslashuvchan o‘quv muhitini yaratib, individual ta’lim olish imkoniyatini kengaytiradi [1].

Bundan tashqari, G. Siemens tomonidan ilgari surilgan connectivism nazariyasi zamonaviy raqamli ta’lim muhitining rivojlanishida muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Siemensning fikricha, zamonaviy ta’lim jarayonida bilimlar tarmoqlar orqali shakllanadi va raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilar turli axborot manbalari bilan o‘zaro aloqada bo‘lish orqali bilimlarni egallaydilar [3].

O‘zbekiston olimlari N. I. Taylakov, U. K. Tolipov va boshqa tadqiqotchilar elektron ta’lim tizimlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalarini tadqiq qilgan. Ularning ilmiy ishlarida elektron ta’lim muhitidan foydalanish talabalarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlangan.


Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDX) mamlakatlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham adaptiv elektron ta’lim tizimlari va sun’iy intellekt texnologiyalarini STEM fanlarini o‘qitishda qo‘llashning samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqotlar adaptiv ta’lim muhitining talabalarning analitik fikrlash, muammolarni hal qilish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi muhim rolini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt modellariga asoslangan adaptiv elektron ta’lim muhitlari o‘quv jarayonini individualizatsiyalash, talabalarning bilim darajasini real vaqt rejimida tahlil qilish va o‘quv materiallarini moslashtirish imkonini beradi. Shu sababli sun’iy

intellekt texnologiyalarini robototexnika fanini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Adaptiv ta’lim muhitida sun’iy intellekt modellarining yana bir muhim vazifasi o‘quv jarayonini optimallashtirish hisoblanadi. Masalan, tizim talabaning ma’lum bir mavzuni o‘zlashtirish darajasini tahlil qilib, qo‘shimcha o‘quv materiallari yoki mashqlarni tavsiya etishi mumkin. Agar talaba murakkab mavzuni o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch kelsa, tizim ushbu mavzuni soddalashtirilgan shaklda yoki qo‘shimcha tushuntirishlar bilan taqdim etadi. Bu esa o‘quv jarayonini individualizatsiyalash va bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Zamonaviy adaptiv elektron ta’lim muhitida sun’iy intellekt modellaridan keng foydalaniladi. Ushbu modellar o‘quv jarayonini tahlil qilish, talabalarning bilim darajasini aniqlash, o‘quv materiallarini moslashtirish hamda individual o‘quv yo‘nalishlarini shakllantirish imkonini beradi. Sun’iy intellekt modellarining asosiy maqsadi ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, o‘quv faoliyatini optimallashtirish va talabalarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishiga yordam berishdan iboratdir. Zamonaviy adaptiv ta’lim tizimlarida qo‘llaniladigan eng keng tarqalgan sun’iy intellekt modellariga quyidagilar kiradi (1-rasm).



1-rasm. Adaptiv ta’lim jarayonida sun’iy intellekt modellarining o‘zaro bog‘liqligi

Mashinali o‘qitish modellari (Machine Learning). Mashinali o‘qitish modellaridan adaptiv ta’lim tizimlarida talabalarning o‘quv faoliyati natijalarini tahlil qilish, ularning bilim darajasini aniqlash va kelajakdagi o‘quv natijalarini prognoz qilish uchun foydalaniladi. Ushbu modellar katta hajmdagi o‘quv ma’lumotlarini qayta ishlash va ulardan muhim qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Mashinali o‘qitish algoritmlari yordamida tizim talabalarning test natijalari, topshiriqlarni bajarish tezligi, o‘quv materiallari bilan ishlash vaqti va boshqa ko‘rsatkichlarni tahlil qiladi. Natijada tizim talabaning bilim darajasi haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi hamda unga mos o‘quv materiallarini tavsiya qiladi. Bundan tashqari, mashinali o‘qitish modellaridan talabalarning o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklarini oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish uchun ham foydalanish mumkin. Bu esa o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

Intellektual tutor tizimlari (Intelligent Tutoring Systems). Intellektual tutor tizimlari sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan bo'lib, o'qituvchining ayrim funksiyalarini avtomatlashtiradi va talabaga individual yordam ko'rsatadi. Ushbu tizimlar talabaning bilim darajasini aniqlaydi, uning o'quv faoliyatini kuzatadi va o'quv jarayonida yuzaga kelgan xatolarni aniqlash orqali ularga tushuntirishlar beradi.

Intellektual tutor tizimlarining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ular talabaning o'rganish jarayonini real vaqt rejimida kuzatadi va unga mos o'quv strategiyasini taklif qiladi. Masalan, talaba ma'lum bir mavzuni o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelsa, tizim qo'shimcha tushuntirishlar, misollar yoki mashqlarni tavsiya etadi. Shu bilan birga, yuqori natija ko'rsatgan talabalarga murakkabroq topshiriqlar berilishi mumkin. Bunday yondashuv o'quv jarayonini individualizatsiyalashga va talabalarning bilimlarni samarali o'zlashtirishiga yordam beradi.

Tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari (Natural Language Processing). Tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari sun'iy intellektning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u inson tilini kompyuter tizimlari tomonidan tushunish va qayta ishlash imkonini beradi. Adaptiv elektron ta'lim muhitida ushbu texnologiyalar talaba va o'quv platformasi o'rtasidagi muloqotni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Masalan, chatbotlar va virtual yordamchilar tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari asosida ishlaydi. Ular talabalar tomonidan berilgan savollarga javob berish, o'quv materiallarini tushuntirish, qo'shimcha manbalarni tavsiya qilish va o'quv jarayonida maslahatlar berish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, ushbu texnologiyalar talabalarning yozma javoblarini tahlil qilish, avtomatik baholash tizimlarini yaratish hamda o'quv jarayonini yanada interaktiv qilish imkonini beradi.

Tavsiya etuvchi tizimlar. Tavsiya etuvchi tizimlar adaptiv elektron ta'lim muhitining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimlar talabalar faoliyati, qiziqishlari va o'quv natijalarini tahlil qilib, ularga mos o'quv materiallarini, mashqlarni yoki qo'shimcha resurslarni tavsiya qiladi.

Tavsiya etuvchi tizimlar talabalarning o'quv faoliyatiga oid ma'lumotlarni tahlil qilish orqali individual o'quv yo'nalishini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, agar talaba ma'lum bir mavzuda past natija ko'rsatsa, tizim unga qo'shimcha tushuntirishlar, video darslar yoki amaliy mashqlarni tavsiya etishi mumkin. Aksincha, yuqori natija ko'rsatgan talabalarga murakkabroq vazifalar yoki qo'shimcha o'quv materiallari taklif qilinadi.

Shunday qilib, tavsiya etuvchi tizimlar o'quv jarayonini talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirishga xizmat qiladi hamda adaptiv ta'lim muhitining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, zamonaviy adaptiv ta'lim tizimlarida sun'iy intellekt modellaridan foydalanish o'quv jarayonini yanada moslashuvchan, interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi. Mashinali o'qitish modellari, intellektual tutor tizimlari, tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari va tavsiya etuvchi tizimlar talabalarning bilim darajasini aniqlash, o'quv materiallarini moslashtirish hamda individual o'quv yo'nalishlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha agar robototexnika fanini o'qitish jarayonida sun'iy intellektga asoslangan adaptiv elektron ta'lim muhiti joriy etilsa hamda unda mashinali o'qitish modellari, intellektual tutor tizimlari, tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari va tavsiya etuvchi tizimlar integratsiya qilinsa, u holda talabalarning bilim darajasi, amaliy ko'nikmalari va muammoli vazifalarni hal qilish kompetensiyalari an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan sezilarli darajada oshadi.

Shuningdek, bunday adaptiv tizim talabalarning individual o'rganish sur'atini hisobga olish, o'quv materiallarini moslashtirish, hamda o'quv jarayonini real vaqt rejimida monitoring qilish orqali robototexnika fanini o'qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayoni optimallashtiriladi, STEM fanlari, xususan robototexnika fanini o'qitishda pedagogik va ilmiy samaradorlik oshiriladi hamda real vaqt monitoring va interaktiv yondashuv orqali bilim va ko'nikmalar mustahkamlanadi (2-rasm).



2-rasm. Robototexnika fanini o‘qitishda sun’iy intellektga asoslangan adaptiv elektron ta’lim muhitining konseptual modeli

Ushbu model talabaning individual xususiyatlarini hisobga olib o‘quv jarayonini optimallashtiradi, STEM fanlari, xususan robototexnika fanini o‘qitishda pedagogik va ilmiy samaradorlikni oshiradi hamda interaktiv komponentlar va real vaqt monitoring orqali talabalar bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Robototexnika fanini o‘qitishda sun’iy intellektga asoslangan adaptiv elektron ta’lim muhitining konseptual modeli: afzalliklari

Individualizatsiyalashgan o‘qitish: Ushbu model talabaning bilim darajasi, o‘rganish sur’ati va qiziqishlariga mos ravishda individual o‘quv yo‘nalishini shakllantirish imkonini beradi. Bu yondashuv o‘quv jarayonini standart metodlardan farqli ravishda har bir talaba uchun optimallashtirilgan qiladi, ta’lim samaradorligini oshiradi.

O‘quv jarayonini optimallashtirish: Adaptiv tizim talabalarning o‘quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatadi, o‘quv materiallarini moslashtiradi va zarur bo‘lganda qo‘shimcha mashqlar tavsiya qiladi. Shu tarzda, o‘quv jarayonining samaradorligi va talabalar bilimini o‘zlashtirish tezligi oshadi.

Talabalarni motivatsiya qilish va interaktivlikni ta’minlash: Model interaktiv komponentlar, gamifikatsiyalashgan topshiriqlar va vizual vositalar orqali talabalarni faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi. Bu o‘quv jarayonida mustaqil fikrlash, muammoli vazifalarni hal qilish va kreativ yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish: Sun’iy intellektga asoslangan adaptiv muhit STEM fanlari, xususan robototexnika fanida nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar va simulyatsiyalar bilan mustahkamlash imkonini beradi. Bu talabalarning texnik tafakkurini rivojlantiradi va muammolarni yechish ko‘nikmalarini oshiradi.

Talabalarning o‘quv natijalarini monitoring qilish: Model talabaning bilim darajasi, topshiriqlarni bajarish sur’ati va o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklarni doimiy ravishda kuzatadi, pedagoglar va tizimga tezkor tavsiyalar berish imkoniyatini yaratadi.

Sun’iy intellekt modellarini integratsiyalashgan qo‘llash: Model mashinali o‘qitish, intellektual tutor tizimlari, tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari va tavsiya etuvchi tizimlarni birlashtirgan holda ishlaydi. Bu o‘quv jarayonini yanada moslashuvchan, individual va samarali qiladi hamda talabalar bilimini chuqurroq o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Umumiy qilib aytganda konseptual model talabalarning individual o‘rganish xususiyatlarini hisobga olgan holda STEM fanlari, xususan robototexnika fanini o‘qitishda pedagogik va ilmiy samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, interaktiv komponentlar va real vaqt monitoring orqali talabalarning bilim, amaliy va kreativ ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Mazkur tadqiqotda robototexnika fanini o‘qitishda sun’iy intellektga asoslangan adaptiv elektron ta’lim muhitini takomillashtirish jarayonini o‘rganish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, pedagogik tahlil va eksperimental tadqiqot usullariga asoslanadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli orqali adaptiv ta’lim, sun’iy intellekt texnologiyalari hamda robototexnika fanini o‘qitish metodikasiga oid xorijiy va mahalliy tadqiqotlar o‘rganildi. Bu orqali muammoning nazariy asoslari aniqlanib, mavjud ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi.

Shuningdek, tizimli va qiyosiy tahlil metodlari yordamida adaptiv elektron ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlari va an’anaviy o‘qitish usullari o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi. Ushbu tahlil orqali sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi hamda ularning samaradorligi baholandi.

Tadqiqotda modellashtirish metodi ham qo‘llanilib, robototexnika fanini o‘qitish jarayonida sun’iy intellektga asoslangan adaptiv elektron ta’lim muhitining konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model o‘quv jarayonini individualizatsiyalash, o‘quv materiallarini moslashtirish hamda talabalarning bilim darajasini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, tadqiqotda pedagogik eksperiment usuli orqali taklif etilgan metodikaning samaradorligi amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazildi. Eksperiment jarayonida talabalar bilim darajasi, amaliy ko‘nikmalari va o‘quv faoliyati natijalari tahlil qilinib, olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib baholandi.

Shunday qilib, qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar tadqiqot muammosini kompleks o‘rganish, sun’iy intellektga asoslangan adaptiv elektron ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda robototexnika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Natija. Sun’iy intellektga asoslangan adaptiv elektron ta’lim muhiti robototexnika fanini o‘qitishda o‘quv jarayonini individualizatsiyalash, talabalarning bilim darajasini oshirish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Model interaktivlik, real vaqt monitoring va moslashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini ta’minlab, STEM fanlari, xususan robototexnika fanini o‘qitishda pedagogik va ilmiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, talabalar mustaqil fikrlash, kreativ yechimlar ishlab chiqish va muammoli vazifalarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot sun’iy intellektga asoslangan adaptiv elektron ta’lim muhitining robototexnika fanini o‘qitishdagi imkoniyatlarini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, adaptiv tizim talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini optimallashtiradi, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlaydi va STEM fanlari, xususan robototexnika fanini o‘qitishda pedagogik va ilmiy samaradorlikni oshiradi.

Sun’iy intellekt modellarining integratsiyalashgan qo‘llanilishi - mashinali o‘qitish, intellektual tutor tizimlari, tabiiy tilni qayta ishlash va tavsiya etuvchi tizimlar - o‘quv jarayonini individual va interaktiv qiladi hamda talabalar bilim va kreativ ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, real vaqt monitoring va moslashtirilgan o‘quv yo‘nalishlari orqali tala-

balarning o‘rganish sur’ati va motivatsiyasi oshadi, mustaqil fikrlash va muammoli vazifalarni hal qilish qobiliyati rivojlanadi.

Umuman olganda, sun’iy intellektga asoslangan adaptiv elektron ta’lim muhiti robototexnika fanini o‘qitishning zamonaviy va samarali metodikasini shakllantirishga xizmat qiluvchi ilmiy va amaliy vosita sifatida o‘zini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – Athabasca: Athabasca University Press, 2008. – 472 p.

2. Brusilovsky P. Adaptive hypermedia // User Modeling and User-Adapted Interaction. – 2001. – Vol. 11. – No. 1–2. – P. 87–110.

3. Siemens G. Connectivism: A learning theory for the digital age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005. – Vol. 2. – No. 1. – P. 3–10.

4. Taylakov N.I., Tolipov U.K. Elektron ta’lim tizimlarida STEM fanlarini o‘qitish. – Toshkent: O‘zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2019. – 160 b.

5. Woolf B.P. Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning. – Burlington: Morgan Kaufmann, 2010. – 480 p.

Shukurov Baxtiyor Suvonovich
Navoiy davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dosenti

IJTIMOIY TARMOQLAR TA'SIRIDA SHAKLLANUVCHI DEPRESSIV HOLATLAR VA INTERNETGA BOG'LIQLIK

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish natijasida shakllanuvchi depressiv holatlar va internetga bog'liqlik muammosi psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular orqali axborot almashish, muloqot qilish va o'zini namoyon etish imkoniyatlari kengaygan. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardan me'yordan ortiq foydalanish emotsional holatga salbiy ta'sir ko'rsatib, depressiv simptomlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotda internetga bog'liqlikning asosiy psixologik omillari, jumladan, yolg'izlik hissi, past o'z-o'zini baholash, ijtimoiy taqqoslash va virtual muloqotga haddan tashqari ehtiyoj tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanuvchi "ideal hayot" tasavvuri real hayotdan qoniqmaslikni kuchaytirishi aniqlanadi. Maqolada depressiya va internetga bog'liqlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mexanizmlari ochib berilib, ushbu muammoning oldini olish bo'yicha psixologik tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, internetga bog'liqlik, depressiya, o'smirlar, psixologik omillar, emotsional holat, yolg'izlik, o'z-o'zini baholash.*

ДЕПРЕССИВНЫЕ СОСТОЯНИЯ, ФОРМИРУЮЩИЕСЯ ПОД ВЛИЯНИЕМ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ, И ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТЬ

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема формирования депрессивных состояний под влиянием социальных сетей и интернет-зависимости с психологической точки зрения. В условиях современного цифрового общества социальные сети стали неотъемлемой частью повседневной жизни молодёжи, предоставляя широкие возможности для общения, самовыражения и обмена информацией. Однако чрезмерное использование социальных сетей может оказывать негативное влияние на эмоциональное состояние и способствовать развитию депрессивных симптомов. В работе анализируются основные психологические факторы интернет-зависимости, включая чувство одиночества, низкую самооценку, социальное сравнение и потребность в виртуальном взаимодействии. Особое внимание уделяется формированию искажённого представления об «идеальной жизни» в социальных сетях, что усиливает неудовлетворённость реальной жизнью. Раскрываются механизмы взаимосвязи депрессии и интернет-зависимости, а также предлагаются психологические рекомендации по профилактике данного явления.*

Ключевые слова: *социальные сети, интернет-зависимость, депрессия, подростки, психологические факторы, эмоциональное состояние, одиночество, самооценка.*

DEPRESSIVE STATES FORMED UNDER THE INFLUENCE OF SOCIAL MEDIA AND INTERNET ADDICTION

Abstract. *This article examines the formation of depressive states influenced by social media and internet addiction from a psychological perspective. In the modern digital society, social media has become an integral part of young people's daily lives, offering extensive opportunities for communication, self-expression, and information exchange. However, excessive use of social media can negatively affect emotional well-being and contribute to the development of depressive symptoms. The study analyzes key psychological factors of internet addiction, including feelings of loneliness, low self-esteem, social comparison, and the need for virtual interaction. Special attention is given to the formation of an "ideal life" image on social media, which may increase dissatisfaction with real life. The article also explores the mechanisms underlying the relationship be-*

tween depression and internet addiction and provides psychological recommendations for prevention.

***Key words**: social media, internet addiction, depression, adolescents, psychological factors, emotional state, loneliness, self-esteem.*

Kirish. Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar va o‘smirlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi keskin oshib, ular nafaqat muloqot vositasi, balki o‘zini namoyon etish, axborot olish va ijtimoiy faollikni amalga oshirishning muhim platformasiga aylangan. Biroq ushbu jarayon bilan bir qatorda internetdan ortiqcha va nazoratsiz foydalanish bilan bog‘liq psixologik muammolar, xususan, internetga bog‘liqlik va depressiv holatlarning shakllanishi dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi insonning emotsional holatiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, ular insonlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash va o‘z fikrini erkin ifoda etish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan esa, ortiqcha foydalanish, doimiy ravishda boshqalar bilan taqqoslash, virtual “ideal hayot” obrazlarini kuzatish va ijtimoiy baholanishga qaramlik insonda norozilik, past o‘z-o‘zini baholash va ichki bo‘shliq hissini kuchaytirishi mumkin. Aynan shu omillar depressiv holatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

O‘smirlik davri psixologik jihatdan murakkab bosqich bo‘lib, bu davrda shaxsning o‘zini anglash jarayoni, ijtimoiy rollarni qabul qilish va emotsional barqarorlik hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Shu sababli o‘smirlar ijtimoiy tarmoqlar ta’siriga nisbatan ayniqsa sezgir hisoblanadi. Ular ko‘pincha virtual muhitdagi ijtimoiy baho va e’tirofga ortiqcha ahamiyat berib, real hayotdagi muvaffaqiyatsizliklarni chuqurroq his etadilar. Natijada esa bu holat internetga qaramlikning kuchayishiga va depressiv simptomlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar internetga bog‘liqlik va depressiya o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda. Internetdan uzoqlasha olmaslik, vaqtni nazorat qila olmaslik, real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarning qisqarishi kabi belgilar shaxsning ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, depressiv holatdagi shaxslar ham ko‘pincha virtual muhitga ko‘proq murojaat qilib, undan psixologik “qochish vositasi” sifatida foydalanadilar. Bu esa muammoni yanada chuqurlashtiruvchi yopiq doirani yuzaga keltiradi.

Shu munosabat bilan ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida shakllanuvchi depressiv holatlar va internetga bog‘liqlik muammosini chuqur o‘rganish, uning psixologik mexanizmlarini aniqlash va samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot aynan shu yo‘nalishda olib borilib, zamonaviy yoshlarning psixologik salomatligini saqlash va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida shakllanuvchi depressiv holatlar va internetga bog‘liqlik muammosi so‘nggi yillarda xorijiy psixologik tadqiqotlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu holat bejiz emas, chunki xalqaro hisobotlarda o‘smirlar orasida muammoli ijtimoiy tarmoq xulqi tobora ko‘payayotgani qayd etilgan: masalan, WHO/Europe ma’lumotiga ko‘ra, o‘smirlarning 11 foizida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ustidan nazoratning susayishi, ya’ni addiktiv xulqqa o‘xshash belgilar kuzatiladi. Shu bilan birga, WHO bolalar va o‘smirlar ruhiy salomatligi bo‘yicha ma’lumotlarida 10–19 yosh oralig‘idagi har 7 nafar yoshdan kamida 1 nafari ruhiy salomatlik muammolari bilan yashashi ta’kidlanadi; depressiya esa aynan o‘smirlik davrida ko‘p uchraydigan emotsional buzilishlardan biri sifatida ko‘rsatiladi.

Xorijiy olimlar mazkur muammoni bir yo‘nalishda emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘langan bir necha nazariy pozitsiyalar asosida tahlil qiladilar. Avvalo, C. Vidal, G. Lhaksampa va J. Miller tomonidan olib borilgan scoping review ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bilan depressiya o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘pincha ikki yo‘nalishli ekanini ko‘rsatadi: bir tomondan, ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish depressiv simptomlarni kuchaytirishi mumkin, ikkinchi tomondan esa, allaqachon ruhiy tushkunlikka moyil bo‘lgan o‘smirlar virtual muhitga ko‘proq murojaat qiladilar. Bu yondashuv “yopiq doira” mexanizmini tushuntirishda juda muhim bo‘lib,

unda depressiv fon ijtimoiy tarmoqqa ko‘proq kirishga sabab bo‘ladi, ortiqcha foydalanish esa emotsional holatni yanada yomonlashtiradi.

Aynan shu fikr keyingi tadqiqotlarda ham rivojlantirilgan. H. Shannon, P. Bush va hamkorlari muammoli ijtimoiy tarmoq foydalanishi bo‘yicha tizimli tahlilda depressiya, xavotir va stress simptomlari bilan barqaror ijobiy bog‘liqlik mavjudligini qayd etadilar. Ular muammoni oddiy “ekran oldida ko‘p vaqt o‘tkazish” bilan tenglashtirmaydilar; aksincha, asosiy xavf omili sifatida nazoratni yo‘qotish, abstinent holatga o‘xshash bezovtalik, kundalik faoliyatning chekinishi va oflayn hayotga qiziqishning pasayishini ko‘rsatadilar. Bu esa internetga bog‘liqlikni faqat texnik odat emas, balki psixologik disfunktsiya sifatida talqin qilishga asos beradi.

So‘nggi yillardagi sharh va meta-tahlillar ham ushbu bog‘liqlikni tasdiqlaydi, biroq bir vaqtning o‘zida uning murakkabligini ham ochib beradi. 2023 yildagi tizimli sharhda bolalar va o‘smirlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bilan depressiv simptomlar orasida sezilarli aloqa qayd etilgan bo‘lsa-da, mualliflar bu bog‘liqlik barcha foydalanuvchilarda bir xil namoyon bo‘lmasligini ta’kidlaydilar. 2024 yilda NCBI Bookshelf’da chop etilgan umumlashtiruvchi tahlilda esa ijtimoiy tarmoqdan foydalanish va qayg‘u, stress, depressiya o‘rtasidagi ta’sir ko‘lami ko‘pincha kichik yoki notekis bo‘lishi, natijalar esa platforma turi, foydalanish maqsadi, yosh xususiyati va individual psixologik farqlarga qarab o‘zgarishi qayd etiladi. Demak, zamonaviy xorijiy adabiyotlarda asosiy e’tibor “qancha vaqt foydalandi?” degan savoldan ko‘ra, “qanday maqsadda, qanday emotsional holatda va qanday usulda foydalandi?” degan masalalarga qaratilmoqda.

Mazkur masalani tushuntirishda ijtimoiy taqqoslash nazariyasi ham alohida o‘rin tutadi. Xorijiy tadqiqotchilar ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ravishda “ideal hayot”, “muvaffaqiyatli tengdosh”, “chiroyli tana”, “baxtli kun tartibi” kabi selektiv va tahrirlangan obrazlar taqdim etilishini ko‘rsatadilar. Natijada foydalanuvchi, ayniqsa o‘smir, o‘z real hayotini boshqalarning virtual “eng yaxshi lahzalari” bilan taqqoslaydi. Shu tariqa o‘zidan qoniqmaslik, past o‘z-o‘zini baholash, ijtimoiy nomuvofiqlik hissi va ichki bo‘shliq kuchayadi. APAning o‘smirlar va ijtimoiy tarmoqlar bo‘yicha tavsiyalarida ham aynan rivojlanish davrining sezgir bosqichlarida ijtimoiy baholanish va tasdiqqa haddan tashqari qaramlik salbiy oqibatlar berishi mumkinligi qayd etiladi.

Boshqa bir muhim yo‘nalish - yolg‘izlik va ijtimoiy aloqalarning sifati masalasidir. WHOning 2025 yilgi materiallarida yoshlar, ayniqsa 13–29 yosh oralig‘ida yolg‘izlik sezilarli darajada uchrashi ko‘rsatilgan. Ayrim xorijiy mualliflar internetga bog‘liqlikni aynan mana shu ichki ijtimoiy bo‘shliqni kompensatsiya qilish vositasi sifatida izohlaydilar: o‘smir real hayotda yetishmayotgan qabul qilinish, suhbat, tan olinishi yoki yaqinlikni virtual muhitdan qidiradi. Biroq bunday kompensator foydalanish qisqa muddatli emotsional yengillik bersa-da, uzoq muddatda haqiqiy ijtimoiy ko‘nikmalarni zaiflashtirib, yanada chuqurroq yakkalanish va depressiv holatni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli ko‘plab xorijiy tadqiqotlarda yolg‘izlik internetga bog‘liqlik va depressiya o‘rtasidagi vositachi omillardan biri sifatida talqin qilinadi.

Adabiyotlarda uyqu rejimining buzilishi ham muhim mediator sifatida ko‘rsatiladi. WHO/Europe muammoli ijtimoiy tarmoq xulqi kamroq uyqu va kechroq uxlash vaqti bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Xorijiy psixologik adabiyotlarda esa uyqu sifati pasayishi emotsional regulyatsiyaning susayishiga, diqqatning pasayishiga, irritabellik va depressiv kayfiyat kuchayishiga olib kelishi qayd etiladi. Demak, ijtimoiy tarmoqlarning depressiyaga ta’siri ko‘pincha bevosita emas, balki uyqusizlik, charchoq, oflayn faoliyatning kamayishi va kun tartibining izdan chiqishi orqali ham yuzaga chiqadi.

Eng yangi tadqiqotlar esa masalani yanada nozikroq darajada tahlil qilmoqda. 2025–2026 yillardagi ayrim ishlar muammoli ijtimoiy tarmoqdan foydalanish bilan depressiya o‘rtasida o‘zaro, ya’ni bidireksional munosabat mavjudligini yana bir bor tasdiqladi; shuningdek, ayrim meta-tahlillar ijtimoiy tarmoqdan foydalanishni cheklash depressiya simptomlarining kamayishiga yordam berishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu natijalar oldingi nazariy xulosalarni amaliy jihatdan mustahkamlaydi: ya’ni muammo faqat “raqamli vosita mavjudligi”da emas, balki uning boshqarilmaydigan, kompulsiv va emotsional qaramlik shakliga kirib qolishidadir.

Shu tariqa, xorijiy olimlar asarlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida shakllanuvchi depressiv holatlar va internetga bog‘liqlik bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan murakkab psixologik hodisalardir. Ularning o‘zaro aloqasi ijtimoiy taqqoslash, past o‘z-o‘zini baholash, yolg‘izlik, uyqu buzilishi, emotsional regulyatsiya muammolari va nazoratning susayishi kabi omillar orqali yuzaga chiqadi. Zamonaviy adabiyotlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, ijtimoiy tarmoqlarning o‘zi mutlaq salbiy omil emas; xavf aynan muammoli, kompulsiv va emotsional kompensatsiyaga asoslangan foydalanish uslubida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan mazkur mavzu bo‘yicha keyingi tadqiqotlarda nafaqat foydalanish davomiyligi, balki foydalanish motivlari, psixologik holat, yosh xususiyatlari va ijtimoiy muhitni ham birgalikda o‘rganish zarur hisoblanadi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot doirasida ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida shakllanuvchi depressiv holatlar va internetga bog‘liqlik o‘rtasidagi munosabatlar kompleks psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Olingan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu ikki omil bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha o‘zaro kuchaytiruvchi mexanizm asosida rivojlanadi. Ya’ni, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish shaxsning emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, depressiv simptomlarni yuzaga keltirishi mumkin, shu bilan birga, mavjud depressiv holat esa shaxsni virtual muhitga yanada ko‘proq jalb etadi. Natijada “yopiq doira” shakllanib, muammo chuqurlashib boradi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri bevosita emas, balki bir qator psixologik omillar orqali amalga oshadi. Xususan, ijtimoiy taqqoslash jarayoni muhim rol o‘ynaydi: foydalanuvchilar boshqalarning faqat ijobiy, idealizatsiyalangan hayot lavhalarini kuzatish orqali o‘z hayotini pastroq baholay boshlaydilar. Bu esa o‘z-o‘zini baholashning pasayishiga, ichki norozilik va qoniqmaslik hissining kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, o‘smirlar uchun bu holat yanada sezilarli bo‘lib, ular hali shakllanish bosqichida bo‘lgan shaxsiy identifikatsiyasi sababli tashqi baholarga yuqori darajada qaram bo‘ladilar.

Shuningdek, muhokama natijalari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning maqsadi va shakli muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Agar foydalanish faol va konstruktiv bo‘lsa (masalan, bilim olish, foydali muloqot), uning salbiy ta’siri nisbatan past bo‘ladi. Aksincha, passiv kuzatish, vaqtni nazoratsiz sarflash va virtual tasdiqqa qaramlik (layklar, kommentariyalar orqali) depressiv holatlarning kuchayishiga xizmat qiladi. Demak, muammo faqat foydalanish davomiyligida emas, balki uning sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat - ijtimoiy izolyatsiya va yolg‘izlik hissining kuchayishidir. Garchi ijtimoiy tarmoqlar muloqotni kengaytiruvchi vosita sifatida qaralsa-da, real hayotdagi munosabatlarning kamayishi shaxsda ijtimoiy ajralish tuyg‘usini kuchaytirishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida depressiv kayfiyatni chuqurlashtiradi. Shu bilan birga, uyqu rejimining buzilishi, jismoniy faollikning pasayishi va kun tartibining izdan chiqishi ham emotsional beqarorlikka olib keluvchi qo‘shimcha omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim xulosa shuki, internetga bog‘liqlik va depressiya muammosi individual emas, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida qaralishi lozim. Bu yerda oila muhiti, ta’lim tizimi va jamiyatning umumiy axborot makoni muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalarning nazorati va qo‘llab-quvvatlashi, pedagoglarning yo‘naltiruvchi faoliyati hamda psixologik xizmatlarning mavjudligi o‘smirlarning sog‘lom rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida shakllanuvchi depressiv holatlar va internetga bog‘liqlik o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘p omilli va murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu muammoni samarali hal etish uchun kompleks yondashuv, ya’ni shaxsiy, ijtimoiy va pedagogik omillarni birgalikda hisobga olish zarur. Bu esa yoshlarning psixologik salomatligini mustahkamlash va ularni raqamli muhitda ongli va muvozanatli faoliyat yuritishga o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha va nazoratsiz foydalanish o‘smirlar va yoshlar psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, depressiv simptomlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, internetga bog‘liqlik va depressiya o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular ko‘pincha bir-birini kuchaytiruvchi mexanizm asosida rivojlanadi.

Ijtimoiy taqqoslash, past o‘z-o‘zini baholash, yolg‘izlik hissi hamda virtual muhitga ortiqcha qaramlik ushbu jarayonning asosiy psixologik omillari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, foydalanishning sifati va maqsadi ham muhim bo‘lib, ongli va me’yoriy foydalanish salbiy oqibatlarni kamaytirishi mumkin.

Mazkur muammoni bartaraf etishda kompleks yondashuv zarur bo‘lib, bunda oila, ta’lim muassasalari va psixologik xizmatlarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni raqamli muhitda to‘g‘ri yo‘naltirish, ularning refleksiv va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali sog‘lom psixologik holatni ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Войскунский А.Е. Интернет-зависимость в контексте позитивной психологии // Psychology in Russia: State of the Art. – 2010. – Т. 3. – С. 541–549.
2. Мурадян А.Р. Влияние интернет-зависимости на формирование депрессивных состояний у подростков // Вестник психологии. – 2024. – № 2. – С. 45–52.
3. Терещенко С.Ю., Каспаров Э.В. Интернет-зависимость и психическое здоровье подростков // Computers in Human Behavior Reports. – 2024. – Vol. 10. – P. 1–9.
4. Сивак Е., Смирнов И. Психологическое благополучие подростков в цифровой среде // Социологические исследования. – 2020. – № 6. – С. 112–120.
5. Karabel M. et al. Internet addiction and depression among adolescents // Salud Mental. – 2024. – Vol. 47. – No. 4. – P. 205–212.
6. Mishra J. Prevalence and impact of internet addiction disorder among adolescents // Open Public Health Journal. – 2024. – Vol. 17. – P. 1–10.

Ahrorov Suhrabxon Yunusovich
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi (PhD)
E-mail: suxrob1977@gmail.com,

SOCIAL MEDIA ADDICTION AMONG STUDENTS: METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SAMPLING DESIGN

Abstract. *This article provides a systematic analysis of the methodological design underlying the study of social media addiction (SMA) among university students. A cross-sectional correlational-comparative design was employed, involving undergraduate students aged 18–29 (N = 474). The adequacy of the sample size was established through an a priori statistical power analysis using G*Power (α = 0.05; 1–β = 0.95; medium effect size). The findings indicate that the obtained sample size exceeds the minimum thresholds required for all planned statistical analyses, including t-tests, ANOVA, Pearson correlation, hierarchical regression, moderation, and cluster analysis, thereby minimizing the risk of Type II error.*

Key words*: social media addiction, methodological design, statistical power, sample size, cross-sectional study, correlational analysis, regression, moderation, representativeness.*

TALABALARDA IJTIMOIY TARMOQLARGA QARAMLIK: TANLANMA SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya*. Ushbu maqolada talabalar orasida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik (ITQ) fenomenini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotning metodologik asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot kesimli korrelyatsion-qiyosiy dizayn asosida tashkil etilib, 18–29 yoshdagi bakalavr talabalardan iborat tanlanma (N=474) qamrab olindi. Tanlanma hajmining yetarliligi G*Power dasturi yordamida (α=0,05; 1–β=0,95; o‘rtacha effect size) statistik quvvat tahlili orqali asoslandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tanlanma hajmi barcha rejalashtirilgan statistik tahlillar (t-test, ANOVA, korrelyatsiya, regressiya, moderatsiya va klaster tahlili) uchun minimal chegaradan yuqori bo‘lib, II turdagi xatolik ehtimolini minimallashtiradi.*

Kalit so‘zlar*: ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, metodologik dizayn, statistik quvvat, tanlanma hajmi, kesimli tadqiqot, korrelyatsion tahlil, regressiya, moderatsiya, reprezentativlik.*

ЗАВИСИМОСТЬ ОТ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ У СТУДЕНТОВ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВЫБОРКИ

Аннотация*. В данной статье представлен системный анализ методологического дизайна исследования феномена зависимости от социальных сетей (ЗСС) среди студентов. Исследование проведено в рамках поперечного корреляционно-сравнительного дизайна с участием студентов бакалавриата в возрасте 18-29 лет (N = 474). Достаточность выборки обоснована с помощью априорного анализа статистической мощности (G*Power; α = 0,05; 1–β = 0,95; средний размер эффекта). Полученные результаты показали, что объем выборки превышает минимально необходимый для всех запланированных статистических методов (t-критерий Стьюдента, ANOVA, корреляция Пирсона, иерархическая регрессия, модерация, кластерный анализ), что минимизирует вероятность ошибки второго рода.*

Ключевые слова*: зависимость от социальных сетей, методологический дизайн, статистическая мощность, объем выборки, поперечное исследование, корреляционный анализ, регрессия, модерация, репрезентативность.*

Introduction. The "Psychosocial Integrative Model" serves as a holistic construct that unites cognitive, affective, and behavioral factors in explaining the phenomenon of Social Media Addiction (SMA). However, according to the rigorous requirements of modern psychological science,

the scientific significance and viability of any theoretical model are determined by its practical application-specifically, the extent to which it is confirmed through empirical verification. Regardless of its logical structure, internal consistency, or intellectual appeal, if a theory is not tested against objective data derived from a real social environment, its scientific validity and predictive power remain under serious scrutiny. Therefore, the next and most decisive stage of scientific inquiry involves the transition from theoretical **Abstract**ion to empirical precision: the development of a robust research design that allows for the practical testing of the model. This approach not only serves as an essential link between theory and empirical testing but also establishes the methodological foundation of the entire study.

In formulating the methodological design of psychological research, three fundamental factors-reliability, validity, and generalizability-must consistently remain at the center of attention. Given the objective of investigating a multifaceted and dynamic phenomenon such as SMA, a quantitative methodology was specifically selected as the methodological approach for this study. This choice is not arbitrary but is grounded in profound logical foundations: a quantitative approach is the most effective tool for statistically determining the complex relationships between the various levels of variables involved in the formation of SMA (e.g., personality traits, social motives, and behavioral patterns) and for testing advanced scientific hypotheses using mathematical models.

Methods. In the process of selecting the research design, the primary strategies available in modern psychological science-including experimental, longitudinal, and cross-sectional correlational-comparative designs [1]-were comparatively analyzed. From a scientific methodological perspective, although the experimental approach is considered the "gold standard" for determining cause-and-effect relationships (causality), this method was deemed inappropriate given the specific characteristics of the current study and the nature of the object under investigation.

The primary reason for this is that personality traits such as neuroticism, extraversion, or impulsivity, which are viewed as predictors of Social Media Addiction (SMA), are stable structures deeply rooted in the human psyche, formed under the influence of genetic and social factors. Consequently, it is practically impossible and ethically contentious to artificially create, modify, or manipulate these traits within a short-term laboratory setting.

As a result of the aforementioned analyses, a cross-sectional correlational-comparative design was selected as the most appropriate and optimal solution under the current conditions. The cross-sectional approach allows the researcher to collect a large volume of empirical data simultaneously within a relatively short period, providing a precise "static snapshot" of the current state of the phenomenon under investigation. The correlational analyses employed within this design facilitate the identification of linear and non-linear statistical relationships between variables, which is absolutely essential for conducting an in-depth analysis of the model's core components-specifically, mediation effects and gender moderation-constituting one of the primary objectives of the study.

Naturally, it must be openly acknowledged that there are certain methodological risks associated with a cross-sectional design. Specifically, there may be uncontrolled confounding variables-such as family parenting styles, economic conditions, or specific cultural values-that could negatively impact internal validity. There is a possibility that such factors could escape the researcher's attention and exert an independent influence on the level of Social Media Addiction (SMA). For this reason, mechanisms to control these potential risks were incorporated into the research model, and a multivariate hierarchical regression approach was planned for the analysis phase to statistically control the impact of these confounding variables. Undergraduate students aged 18 to 29, enrolled in full-time programs at higher education institutions in Uzbekistan, were selected as the empirical base for the study. This sampling structure is not arbitrary; rather, it is grounded in several robust scientific rationales.

Primarily, the selected age range corresponds to a distinct developmental phase known in developmental psychology as "emerging adulthood". According to J. Arnett's theory, this period is characterized by an identity crisis, a striving for autonomy, emotional volatility, uncertainty about

the future, and a heightened susceptibility to stress. From a psychological perspective, it is precisely these factors that compel young people to seek solace in the virtual world, making this age demographic the most sensitive and vulnerable period for the development of Social Media Addiction (SMA).

Secondly, in the contemporary digital era, university students constitute the most active-and arguably, professional-users of social networks. For this cohort, social media platforms serve not merely as communication tools, but as arenas for self-expression, sources of information, and frequently, as mechanisms for temporary "retreat" (escapism) from real-life problems.

Thirdly, numerous international studies consistently identify the student demographic as the social stratum at the highest risk of SMA. Consequently, selecting this group as the research object is not only methodologically justified but also holds profound socio-practical relevance.

One of the most critical steps in ensuring the reliability of a study is accurately determining the sample size. It is established that sample size is not merely an arbitrary number, but must be calculated based on a rigorous statistical power analysis [2]. According to accepted international standards in psychological research, the level of statistical power ($1 - \beta$) should be at least 0.80; that is, the probability of detecting a true effect present in the study must not be less than 80%.

Considering the complex statistical analyses planned for our case-specifically, t-tests, one-way analysis of variance (ANOVA), correlation, hierarchical regression, and moderated mediation analyses-the required number of respondents was determined using the G*Power (v. 3.1.9.7) [3; 4; 5; 6; 7; 8]. During the calculation process, the probability of a Type I error ($\alpha = 0.05$) and the statistical power ($1 - \beta$) were strictly established based on international standards. For the effect size parameters, the "medium" values recommended by J. Cohen [9] (0.02 = small effect; 0.15 = medium effect-the standard recommendation; 0.35 = large effect) were utilized as the baseline ($f^2 \approx 0.15$). Initial calculations indicated that to satisfy all statistical requirements and achieve reliable results, a minimum of 150–200 respondents would be necessary [10; 11].

Results. Based on the outcomes of the statistical power analysis and the data collection process, it was determined that the participation of approximately 500 respondents is sufficient for the study. This figure significantly exceeds the minimum thresholds calculated by the G*Power software for all statistical methods planned within the research design (t-test, ANOVA, correlation, regression, cluster, and moderation). This scientifically substantiates the representativeness of the obtained results and ensures that the probability of a Type II error is kept to an absolute minimum. A detailed analysis of the adequacy of the sample size for each statistical criterion is provided below.

First, analyses concerning the Independent Samples t-test-utilized to determine differences between gender groups (males and females)-indicated that assuming a medium effect size of d=0.50, an error probability of $\alpha = 0.05$, and a statistical power of $1 - \beta = 0.95$, a minimum of 105 respondents per group (totaling 210 respondents) was required.

Second, for the One-Way ANOVA, intended to compare psychological indicators across three distinct regional segments, the calculated minimum sample size was 252 individuals (under conditions of f = 0.25 and 95% power for three groups).

Third, for the Pearson correlation analysis used to examine the interrelationships between variables, the minimum requirement was determined to be 138 respondents (assuming a medium effect size of r = 0.30, an error probability of $\alpha = 0.05$, and a statistical power of $1 - \beta = 0.95$).

Fourth, for the hierarchical regression model-one of the most critical analyses, encompassing 15 predictors-the minimum requisite size was established at 199 respondents via the G*Power software (F-test family, medium effect size of $f2 = 0{,}15$). Regarding the K-means cluster analysis employed for respondent typification, applying the rule of 50–70 respondents per variable in accordance with the recommendations of Dolnicar (2002) and Formann (1984) [12; 13], approximately 200–280 respondents would be sufficient.

Fifth, for the moderation analysis (identifying interaction effects), which demands the highest statistical power, the minimum size was required to be 262 respondents, even when accounting

for parameters of $f2$ = 0,15, an error probability of α = 0.05, and a statistical power probability of 1 – β = 0.95.

The conducted statistical power analysis demonstrated that the 474 respondents who participated in the study significantly exceed the minimum threshold required for all planned statistical methods (t-test, ANOVA, correlation, regression, cluster, and moderation analysis) (see Table 1).

Table 1.

Analysis of the minimum sample size for statistical criteria based on the G*Power software

Statistical criterion	Parameters (f, d, r)	Required minimum n
Independent Samples t-test	d = 0.50; α = 0.05; Power = 0.95	210
ANOVA (3 regions)	f^2 = 0.25; α = 0.05; Power = 0.95	252
Pearson correlation	r = 0.30; α = 0.05; Power = 0.95	138
Hierarchical regression	f^2 = 0.15; α = 0.05; Power = 0.95	199
Moderation analysis	f^2 = 0.05; α = 0.05; Power = 0.95	262
Cluster analysis	Dolnicar (2002) rule	~200

Given that gender differences were to be analyzed separately and that regression, cluster, and moderation analyses were planned, a minimum of 200 respondents per gender was targeted, resulting in an overall sample size of 450–500 participants. Data were collected via an online questionnaire developed on Google Forms and distributed through Telegram groups of university students, allowing flexible participation. The final sample comprised 512 undergraduate students aged 18–29. Strict inclusion criteria were applied: participants had to be undergraduate students in Uzbekistan, aged 18–29, with at least one year of regular social media use, and provide informed consent. Exclusion criteria included age inconsistency and invalid response patterns (e.g., uniform answers across items), which were removed to ensure internal validity.

Strict adherence to ethical principles was maintained throughout all stages of the research. The ethical guidelines for scientific research established by the American Psychological Association (APA) were adopted as the primary foundational criterion [14-15]. Primarily, the informed consent of every participant was rigorously ensured-the initial page of the questionnaire provided a comprehensive explanation of the study's overarching purpose, the strictly voluntary nature of participation, and absolute guarantees of anonymity. Any respondent who elected to proceed with the questionnaire was officially deemed to have granted explicit consent to these stipulated conditions.

Discussion. The methodological and statistical analyses presented above indicate that the design selected for this study constitutes the most balanced and effective approach for empirically testing the theoretical foundations, collecting real-world data under existing conditions, and facilitating the generalizability of the scientific conclusions. The research design has been successfully formulated as an optimal solution bridging practical limitations and rigorous scientific objectives. The results of the statistical power analysis (G*Power) confirmed that the sample size is not only sufficient but substantially exceeds the requirements for all planned analyses. This is particularly critical when analyzing gender differences and complex moderation models, as an underpowered study frequently leads to a failure in detecting existing significant effects and results in erroneous conclusions.

Simultaneously, as with any scientific research, openly acknowledging and discussing the inherent limitations of this design is a fundamental requirement of academic integrity. Because a cross-sectional design inherently possesses a "snapshot" quality, it is comparatively weaker than experimental methods in directly and strictly establishing causal relationships between variables. Furthermore, as previously emphasized, the issue of confounding variables affecting internal validity remains highly relevant. However, the methodological strategy employed in this study-specifically, the statistical control of demographic and social factors via multivariate regression analysis-significantly mitigates this limitation.

Conclusion. In conclusion, encompassing regions with varying levels of urbanization within the sample significantly enhances both the external and ecological validity of the study. This inclusive sampling strategy establishes a robust foundation for the generalizability of the derived scientific conclusions to the broader population of university students across diverse geographical areas. For future research endeavors, it would be methodologically expedient to further refine the proposed model by enriching the findings of this cross-sectional design with longitudinal studies or by incorporating specific experimental elements. Nevertheless, at the current stage of investigation, the selected quantitative approach and the comprehensively compiled empirical database serve as a complete, reliable, and highly effective methodological platform for resolving the formulated scientific problems.

References.

1. Creswell J.W., Creswell J.D. Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches. – 5th ed. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2018. – 304 p.

2. Moher D., Dulberg C.S., Wells G.A. Statistical power, sample size, and their reporting in randomized controlled trials // JAMA. – 1994. – Vol. 272. – No. 2. – P. 122–124. – DOI: 10.1001/jama.1994.03520020048013.

3. Кригер Е.А., Драчев С.Н., Митькин Н.А. и др. Расчет необходимого объема выборки с использованием программы G*Power // Морская медицина. – 2023. – Т. 9. – № 2. – С. 111–125. – DOI: 10.22328/2413-5747-2023-9-2-111-125.

4. Faul F., Erdfelder E., Buchner A., Lang A.G. Statistical power analyses using G*Power 3.1: tests for correlation and regression analyses // Behavior Research Methods. – 2009. – Vol. 41. – No. 4. – P. 1149–1160. – DOI: 10.3758/BRM.41.4.1149.

5. Hoenig J.M., Heisey D.M. The abuse of power: The pervasive fallacy of power calculations for data analysis // The American Statistician. – 2001. – Vol. 55. – No. 1. – P. 19–24. – DOI: 10.1198/000313001300339897.

6. Ko M.J., Lim C.Y. General considerations for sample size estimation in animal study // Korean Journal of Anesthesiology. – 2021. – Vol. 74. – No. 1. – P. 23–29. – DOI: 10.4097/kja.20662.

7. In J., Kang H., Kim J.H. et al. Tips for troublesome sample-size calculation // Korean Journal of Anesthesiology. – 2020. – Vol. 73. – No. 2. – P. 114–120. – DOI: 10.4097/kja.19497.

8. Kang H. Sample size determination and power analysis using the G*Power software // Journal of Educational Evaluation for Health Professions. – 2021. – Vol. 18. – P. 17. – DOI: 10.3352/jeehp.2021.18.17.

9. Cohen J. Statistical power analysis for the behavioral sciences. – 2nd ed. – Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates, 1988. – 567 p.

10. Sullivan G.M., Feinn R. Using effect size – or why the P value is not enough // Journal of Graduate Medical Education. – 2012. – Vol. 4. – No. 3. – P. 279–282.

11. Cumming G. Understanding the new statistics: Effect sizes, confidence intervals, and meta-analysis. – New York: Routledge, 2012. – 536 p. – DOI: 10.4324/9780203807002.

12. Dolnicar S. A review of unquestioned standards in using cluster analysis for data-driven market segmentation. – Wollongong: University of Wollongong, 2002. – 12 p. – URL: https://hdl.handle.net/10779/uow.27692220.v1

13. Formann A.K. Latent class models for nonmonotone dichotomous items // Psychometrika. – 1988. – Vol. 53. – P. 45–62. – DOI: 10.1007/BF02294193.

Olimov Temir Xasanovich
Turon Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi,
Osiyo xalqaro universiteti professori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKANING ASOSIY KATEGORIYALARI VA ILMIY TADQIQOT MADANIYATI O'RTASIDAGI INTEGRATIV BOG'LIQLIK

Annotatsiya. *Maqolada ta'lim jarayonida talabalarda tadqiqotchilik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, shart-sharoitlari va samarali usullari yoritilgan. Xususan, ta'lim va tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar va mustaqil izlanishga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarning ilmiy faoliyatini faollashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.*

Tadqiqot natijalari pedagogikaning asosiy kategoriyalari va ilmiy tadqiqot madaniyati o'rtasidagi integratsiya ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *pedagogik kategoriyalar, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, shaxs, ilmiy tadqiqot madaniyati, ilmiy tafakkur, metodologiya, integratsiya.*

ИНТЕГРАТИВНАЯ ВЗАИМОСВЯЗЬ ОСНОВНЫХ КАТЕГОРИЙ ПЕДАГОГИКИ И КУЛЬТУРЫ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. *В статье освещены педагогические механизмы, условия и эффективные методы развития исследовательской культуры у студентов в образовательном процессе. В частности, особое внимание уделено вопросам активизации научной деятельности студентов посредством применения инновационных подходов, интерактивных методов и технологий, ориентированных на самостоятельный поиск и исследование в процессе обучения и воспитания.*

Результаты исследования показывают, что интеграция основных категорий педагогики и культуры научного исследования является важным фактором повышения качества и эффективности образования.

Ключевые слова: *педагогические категории, образование, воспитание, развитие, личность, культура научного исследования, научное мышление, методология, интеграция.*

THE INTEGRATIVE RELATIONSHIP BETWEEN THE MAIN CATEGORIES OF PEDAGOGY AND THE CULTURE OF SCIENTIFIC RESEARCH

Abstract. *The article highlights the pedagogical mechanisms, conditions, and effective methods for developing students' research culture in the educational process. In particular, special attention is paid to the issues of enhancing students' scientific activity through the application of innovative approaches, interactive methods, and technologies oriented toward independent inquiry and research in the process of teaching and upbringing.*

The research results indicate that the integration of the main categories of pedagogy and the culture of scientific research is an important factor in improving the quality and effectiveness of education.

Key words: *pedagogical categories, education, upbringing, development, personality, research culture, scientific thinking, methodology, integration.*

Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni echish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalar ishonchliligini ta'minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlarsiz pedagogik (yoki ixtiyoriy boshqa) tadqiqotlarni samarali tashkil etish va o'tkazish mumkin emasligini uqtiradi.

Bugun pedagogika metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning moxiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

Metodologiya funksiyasi asosida aniqlash

Metodologiya alohida fan sifatida ikki funksiyani bajaradi: deskriptiv (ifodalovchi) va perskriptiv (me`yorlovchi). Birinchisi obpektni nazariy jihatdan ifodalashni ko'zlasa, keyingisi - tadqiqotchining ishlashi uchun mo'ljal olishga shart-sharoit tug'diradi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi - nazariy va me'yoriy.

Pedagogikaning nazariy metodologiyasiga quyidagilarni kiritish mumkin: metodologiya ta'rifi; fan metodologiyasining umumiy tavsifi, uning darajalari; metodologiya bilimlar tizimi va faoliyatlar tizimi sifatida; pedagogika sohasidagi tadqiqiy faoliyatni metodologik ta'minlash manbalari; pedagogik tadqiqot obekti va predmetining metodologik tahlili.

Me'yoriy asosi quyidagi savollar doirasini qamrab oladi:

- pedagogikani obektiv borliqni ma'naviy o'zgartirishning boshqa shaklidan farqli ilmiy asoslash;
- pedagogika sohasidagi ishlarning fanga taalluqliligini aniqlash:
- maqsadning o'ziga hosligi; maxsus tadqiqot obektini ajratish;
- maxsus bilish metodlari va vositalarini qo'llash; atamalarning bir xilligi;
- pedagogik tadqiqotlarni guruhlarga ajratish;
- tadqiqot tavsifnomasi: muammo, mavzu, uning dolzarbligi, tadqiqot obekti, predmeti, maqsad va vazifalari, farazlari, himoya qilinadigan holatlar, yangiliklar va ularning fan uchun, amaliyot uchun muhimligi;
- pedagogik tadqiqot mantiqi;
- pedagogika fanlari tizimi, ularning o'zaro aloqasi.

Tadqiqot muammosi bo'yicha qabul qilingan direktiv va
me'yoriy hujjatlar bevosita metodologiyaning me'yoriy asosini tashkil etadi.

An'anaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi, shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon etkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obektiv va subektiv omillarga bog'liq.

Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

An'anviy pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obektiv va subektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta'minlashi, qarama- qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;

3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obektiv yondashuv;
5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;
6) tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini aytib o'tish;
7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Matematik-statistik metod.
10. Pedagogik tajriba metodi.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

1. Kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
2. Kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
3. Kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
4. Har bir holatning mohiyatini sinchiqlab o'rganish;
5. Xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning echimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart- sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subektlari imkoniyatlarini muammo echimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishiga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda,

yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

1) Ochiq turdagi savollar (respondentlaming erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) Yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1) Anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

2) Anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;

3) Anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

4) Anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;

5) Anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbayiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

6) Anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi

faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol-stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning

falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

1) fan olimpiadalari;

2) turli mavzulardagi tanlovlar;

3) maktab ko'rgazmalari;
4) festivallar;
5) musobaqalar.

Matematik-statistik metod tajriba-sinov ishlari, shuningdek,

umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlar olib borishda Styudent, Kovirlyag, Rokich, V.P.Bespalko hamda V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalanilmoqda.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariya bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb to'gan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas.

Pedagogik tajriba (eksperiment - lotincha «sinab ko'rish». «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo echimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishni kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalaming amaliyotda o'z intiqosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo echimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

1) tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
2) tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;
3) tadqiqot obektlari va usullarining to'g'ri tanlanishi;
4) tajriba o'tkazilish vaqti hamda davomiyligining aniqlanishi;
5) zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;
6) tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

4. Pedagogikada miqdoriy metodlar.

Ilmiy yo'nalishni aniqlashdagi yondashuvlar (tizimli, shaxsiy, faoliyatli, madaniy- ma'naviy, etno-pedagogik, dialogik, antropologik yondashuvlar)

Maxsus o'zgartirilgan sharoitda jarayonlarni o'rganish metodlariga pedagogik eksperiment; maktablarda ommaviy tarzda tadqiqot xulosalarini tajriba asosida tekshirish metodlari kiradi.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish bo'yicha miqdor va sifat jihatidan tahlil metodlari mavjud.

Tadqiqot metodlari metodologik asoslanganligiga ko'ra tanlab olinadi.

Ilmiy-tadqiqot yo'nalishini asoslashda faoliyatli, shaxsiy, tizimli (sistemali) yondashuv ahamiyatlidir.

Faoliyatli yondashuv pedagogik jarayonning barcha komponentlarini yaxlit tarzda o'rganishni talab etadi. Uning maqsadi, motivlari, harakatlari, operatsiyalar, boshqarish usullari o'zgartirishlar kiritib turishni, olingan natijalarni nazorat va tahlil etishni taqozo qiladi. Bunday tarzda tekshirishda faoliyatning barcha tomonlari boshdan oxirigacha to'liq qamrab olinadi.

Shaxsiy yondashuv. Bunda umumiy nazariy asos: shaxsning jamiyatdagi, jamoadagi o'rni, ular o'rtasidagi munosabat, barkamol avlod tarbiyasi, shaxsni obekt va subekt sifatida bir vaqtda qarab chiqish asos qilinib olinadi.

Bunday yondashuvda har qanday tashqi ta'sir bevosita shaxs ichki sharoitlari, qarashlari, munosabatlari orqali, uning bevosita ongli faoliyati orqali amalga oshirilsagina o'z samarasini berishi haqidagi nazariy fikr asos qilinib olinadi.

Tizimli yondashuv - pedagogik masalalarni hal etishda barcha shakl va metodlarni o'zaro bog'liq va yaxlit holda tanlash va qo'llashni hamda bulardan eng qulay, maqbul variantni izlab topish, etishmayotganini to'ldirish orqali maqsadga to'laqonli erishishdir.

Tizimli yondashuv pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi uchun o'ta muhim va istiqbolli yondashuv hisoblanadi.

1.7. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida

Pedagogika fanining predmeti. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paidagogos «bola» va «etaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati - uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi. yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi». didasko «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyatlari, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta'lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni berishga yo'naltiriladi. Umumiy ta'lim asosida o'zlashtirilgan ma'lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga imkon beruvchi maxsus ta'lim olishi uchun asos bo'ladi. Maxsus ta'lim - o'zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim, shuningdek, turli darajadagi ta'lim dasturlarini amalga oshirishiga ko'ra maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda maktabdan tashqari ta'lim kabi turlarga bo'linadi.

Tarbiya nazarivasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.

Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari. Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan himoyalanish yo'lida olib borgan harakatlari tarbiya g'oyalarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo'lib hayot kechirishi sababli bolalarga tirikchilik o'tkazish yo'lidagi faoliyat (o'simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o'rgatish guruh a'zolari tomonidan birdek amalga oshirilgan.

Bilimlar, aksariyat hollarda, mehnat va o'yin jarayonlarida o'zlashtirilgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jinsiy xarakterga ega bo'lganligi bois o'g'il va qiz bolalarni tarbiyalashda o'ziga xos jihatlar ko'zga tashlangan.

Oila, xususiy mulk va davlatning paydo bo'lishi ijtimoiy tarbiya mazmunida ham tub o'zgarishlarning sodir etilishi, quldorlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Aynan mana shu davrdan tarbiya jamiyatning ijtimoiy talab va ehtiyojlari asosida yo'lga qo'yila boshladi. Erkin fuqarolarni tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni va vositalari borasidagi fikrlar Demokratik, Platon va Aristotellarning asarlarida muhim o'rin egallagan. Mutafakkirlarning asarlarida ushbu fikrlar mustaqil pedagogik nazariya sifatida emas, balki falsafiy qarashlar yoki jamiyatni tashkil etish loyihasining muhim komponenti tarzida bayon etilgan. Ushbu davrda tabiiy-ijtimoiy fanlar tizimi shakllanishi uchun boshlang'ich asoslar qo'yildi.

Quldorlik tuzumida erkin bo'lmagan kishilar (qullar)ning haq- huquqlari cheklanganligi bois tarbiya tizimi faqatgina quldorlar, ularning farzandlari uchun xizmat qilgan.

Quldorlik tuzumi o'rnida shakllangan feodal tuzumda pedagogik g'oyalar feodallar manfaatini ifoda eta boshladi. Mazkur davr pedagogik jarayonni tashkil etishda diniy g'oyalar etakchi o'rin egallashi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy hayotda diniy muassasalar (G'arbda cherkov, Sharqda esa masjidlar)ning roli osha borib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash ishlari asosan shu maskanlarda tashkil etildi. Garchi dunyoviy g'oyalarni ilgari surish, ilmiy nazariyalarni yaratish va targ'ib etishning din peshvolari tomonidan qoralanishi kabi holatlar ham ko'zga tashlangan bo'lsada, ammo savdo-iqtisodiy aloqalar ko'lamining kengayishi, tabiiy ofatlarga qarshi keskin chora ko'rish ehtiyoji ilmiy bilimlarni rivojlantirish hayotiy zaruriyat ekanligini isbotladi. Insoniyat tarixidan mustahkam o'rin olgan Sharq Uyg'onishi deb nom olgan tarixiy jarayon aynan feodal tuzumi - o'rta asrlar davrida sodir bo'ldi. Sharqda buyuk allomalar - Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, G'arbda esa T.Mor, T.Kampanella, E.Rotterdamskiy, F.Rable, M.Monten va boshqalar tomonidan har tomonlama rivojlangan, ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom, antik dunyo va burjuaziya davri yutuqlari asosida ilmiy bilimlarni o'zlashtira olgan shaxsni tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi va puxta asoslab berildi.

Savdo, hunarmandchilik va manufaktura negizida rivojlanib borayotgan ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish yo'lidagi amaliy harakatlar bu boradagi muvaffaqiyat murakkab texnikani boshqara oladigan shaxsni shakllantirish evaziga hal etilishini tasdiqladi. Mazkur davrda ilg'or, progressiv pedagogik g'oyalar ilgari surildi. Aksariyat g'oyalar mazmunida bilim olishga nisbatan ijtimoiy tenglikni qaror toptirish borasidagi qarash o'z ifodasini to'di.

Aynan shu davrda pedagogika fani asoslari muayyan tizimga solindi va ilmiy jihatdan asoslandi. Bu o'rinda pedagogika fani rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan mutafakkirlar: G'arbda – Ya.A.Komenskiy, D.Didro, J.J.Russo, F.Gerbart, V.V.Disterveg, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, Sharqda I.Ibrat, S.Siddiqiy, A.Shakuriy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, H.H.Niyoziy, M.Abdurashidov, M.Behbudiylar shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalash borasidagi qarashlarni yanada boyitdilar hamda ta'lim tizimiga ilm-fan, texnika yangiliklarini tatbiq etish, o'qitishni yangi tizim (izchil, uzluksiz, asoslangan) asosida tashkil etish kabi g'oyalarni ilgari surdilar.

Sobiq Sho'ro davrida pedagogika fani mazmunan ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida boyidi, ta'lim muassasalari tizimi shakllantirildi, shuningdek, har tomonlama (gormonik) rivojlangan shaxsni shakllantirish nazariyasi asoslandi. Biroq, mazkur nazariya g'oyalarini amaliyotga tatbiq etishning puxta asoslangan mexanizmi yaratilmadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo'li demokratik, insonparvar va huquqfy jamiyatni barpo etishdan iboratligi e'tirof etilib, «Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish» davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deya belgilandi. Asosiy e'tibor yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi.

Respublikada ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun hamda yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida belgilab berilgan.

Demak, mavjud sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo'llarini o'rganadi.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'mmlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida etakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Olimov T.H. Spiritual and moral aspects of the formation of civil culture in future specialists of higher education // Theoretical & Applied Science. – 2019. – No. 12. – P. 662–665.

2. Olimov T.H. The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists // Pedagogical Skill (Bukhara). – 2020. – No. 5.

3. Olimov T.H. Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers // Pedagogical Skill (Bukhara). – 2019. – No. 2.

4. Olimov T.H. Formation of self-awareness in youth // Social and Humanitarian Sciences in the Educational System. – Tashkent, 2016. – No. 4.

5. Olimov T. Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo'nalishlari // Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi. – 2020. – T. 1. – No. 1. – B. 20–27.

Kamalova Zulfiya Xasanovna
TIQXMMI Milliy tadqiqqot universiteti “Professional ta’lim” kafedrasi dotsenti,
Kadirova Shaxina Xikmatovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti mustaqil izlanuvchi

SHAXSDA SEPARATSIYA DARAJASIGA QARAB QADRIYATLAR TIZIMINING O‘ZGARISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada shaxsning psixologik separatsiya darajasiga qarab qadriyatlar tizimining o‘zgarish xususiyatlari empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda separatsiya darajasi past, o‘rta va yuqori bo‘lgan sinaluvchilarda komformlilik hamda an’ana va odatlar qadriyatlari o‘rtasidagi tafovutlar aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, separatsiya darajasi past bo‘lgan shaxslarda komformlilik va an’anaviy qadriyatlar yuqori, separatsiya darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda esa mustaqillik, tanqidiy tafakkur va individual qadriyatlar ustuvor hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shaxsning avtonom rivojlanishi va qadriyatlar tizimi shakllanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi.*

Kalit so‘zlar. *Psixologik separatsiya, qadriyatlar tizimi, komformlilik, an’ana va odatlar, shaxs rivojlanishi, avtonomiya, motivatsiya, ijtimoiy ta’sir, mustaqillik.*

ОСОБЕННОСТИ ИЗМЕНЕНИЯ СИСТЕМЫ ЦЕННОСТЕЙ ЛИЧНОСТИ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ УРОВНЯ СЕПАРАЦИИ

Аннотация. *В данной статье эмпирически исследуются особенности изменения системы ценностей личности в зависимости от уровня психологической сепарации. В ходе исследования выявлены различия в показателях конформности и ценностей традиций у испытуемых с низким, средним и высоким уровнем сепарации. Результаты показали, что у лиц с низким уровнем сепарации наблюдается высокая конформность и ориентация на традиционные ценности, тогда как у лиц с высоким уровнем сепарации преобладают независимость, критическое мышление и индивидуальные ценностные ориентиры. Полученные данные раскрывают взаимосвязь между автономией личности и формированием системы ценностей.*

Ключевые слова: *психологическая сепарация, система ценностей, конформность, традиции и обычаи, развитие личности, автономия, мотивация, социальное влияние, независимость.*

FEATURES OF CHANGES IN THE VALUE SYSTEM OF PERSONALITY DEPENDING ON THE LEVEL OF SEPARATION

Annotation. *This article examines the characteristics of changes in the value system of individuals depending on the level of psychological separation. The study identifies differences in conformity and tradition-related values among participants with low, medium, and high levels of separation. The findings indicate that individuals with low separation levels tend to exhibit higher conformity and stronger adherence to traditional values, whereas those with high separation levels demonstrate greater independence, critical thinking, and individual value orientations. The results highlight the relationship between personal autonomy and the formation of value systems.*

Key words*: psychological separation, value system, conformity, traditions and customs, personality development, autonomy, motivation, social influence, independence*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda shaxs rivojlanishi jarayonida mustaqillik, o‘zini anglash va ichki qadriyatlar tizimining shakllanishi muhim psixologik masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Separatsiya nafaqat ota-ona bilan emotsional va psixologik masofani belgilaydi, balki

shaxsning ichki qadriyatlar tizimini qayta ko‘rib chiqish va shakllantirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Qadriyatlar tizimi esa shaxsning hayotiy yo‘nalishlarini, motivatsion ustuvorliklarini va ijtimoiy xulq-atvorini belgilovchi muhim psixologik omillardan biridir. Shaxsning qaysi qadriyatlarni ustuvor deb bilishi uning qaror qabul qilishida, atrof-muhitga munosabatida va kelajak rejalari shakllanishida asosiy mezon sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, separatsiya darajasi yuqori yoki past bo‘lgan shaxslarda qadriyatlar tizimining tuzilishi va ustuvorlik darajalari o‘zaro farq qilishi tabiiy hol hisoblanadi.

Bugungi kunda globalizatsiya va raqamli muhit sharoitida yoshlarning qadriyat yo‘nalishlari tobora murakkablashib bormoqda. An’anaviy qadriyatlar bilan individual erkinlik, o‘zini rivojlantirish va shaxsiy muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan qadriyatlar o‘rtasida muayyan ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida separatsiya jarayonining kechish xususiyatlariga ham ta’sir etib, shaxsning ichki psixologik tizimida o‘ziga xos o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotda shaxsning separatsiya darajasiga qarab qadriyatlar tizimining o‘zgarish xususiyatlarini aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini empirik jihatdan asoslash hamda bu jarayonlarning psixologik mexanizmlarini tahlil qilish maqsad qilib olinadi. Ushbu yo‘nalishdagi izlanishlar nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham muhim bo‘lib, ta’lim tizimida, psixologik konsultatsiya jarayonida hamda yoshlar bilan ishlashda samarali metod va yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Milton Rokeach qadriyatlarni shaxs yoki jamiyat uchun muhim bo‘lgan, ma’lum xulq-atvor yoki yakuniy hayotiy maqsadning afzal ekanligiga doir barqaror e’tiqod sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, qadriyatlar insonning qaror qabul qilishida va xulq-atvorini tanlashida asosiy mezon vazifasini bajaradi [7].

Shalom Shvartz esa qadriyatlarni universal motivatsion maqsadlar sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, qadriyatlar – bu inson hayotida yo‘naltiruvchi printsiplar bo‘lib, ular turli vaziyatlarda xulq-atvorni boshqaradi va ustuvorlik darajasiga ega tizimni tashkil etadi. Shvarts qadriyatlarni o‘n asosiy turga ajratib, ularning o‘zaro munosabatini aylana model orqali tushuntiradi [8].

Clayd Klukhohn qadriyatlarni “insonning xulq-atvoriga ta’sir etuvchi, istalgan yoki ma’qul deb hisoblangan konsepsiyalar” sifatida izohlaydi. U qadriyatlarni madaniyat bilan chambarchas bog‘liq hodisa sifatida ko‘rib, ularning ijtimoiy tabiatiga urg‘u beradi [1].

Girt Hofstede qadriyatlarni jamiyat a’zolari tomonidan umumiy qabul qilingan, yaxshi va yomon, to‘g‘ri va noto‘g‘rini ajratishga xizmat qiluvchi asosiy me’yoriy tushunchalar sifatida talqin qiladi. U qadriyatlarni madaniyatning “yadro elementi” deb hisoblaydi [4]. Gordon Allport esa qadriyatlarni shaxsning motivatsion tizimi bilan bog‘lab, ularni insonning asosiy hayotiy yo‘nalishlarini belgilovchi ichki dispozitsiyalar sifatida ko‘radi. Uning yondashuvida qadriyatlar shaxs tuzilmasining muhim komponenti hisoblanadi [5].

Shuningdek, Edgar Shein qadriyatlarni inson va guruh faoliyatini boshqaruvchi, chuqur ildiz otgan asosiy e’tiqodlar tizimi sifatida talqin qiladi. U ayniqsa tashkilot va ijtimoiy guruhlar doirasida qadriyatlarning rolini ochib beradi [3].

Tadqiqot metodologiyasi Psixologik separatsiya – bu ota-ona va o‘sib borayotgan bola o‘rtasidagi munosabatlarda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni tavsiflaydi. Separatsiya mohiyatini tushunishga qaratilgan dastlabki urinishlar aks etgan ilk tadqiqotlar shunga yakdil qarash bildirishadiki, psixologik separatsiya – bu bolaning ota-ona bilan bog‘liq yaqin munosabatlardan ozod bo‘lib, mustaqillikka erishish jarayonidir. Bu jarayon alohida kurashni va munosabatlarni saqlab qolish istagi bilan ular tomonidan tobe bo‘lib qolmaslik o‘rtasida muvozanatni saqlashni talab qiladigan nozik bir bosqich hisoblanadi. Muvozanat uchun kurash – separatsiya bu uzilish emas, balki «oltin o‘rta»ni izlashdir, ya’ni yaqinlikni saqlab qolish, lekin unga “tobe” bo‘lib qolmaslik. Boulbi nazariyasiga ko‘ra, oilaviy tizimlar mustaqillik uchun zarur bo‘lgan xavfsizlik va qo‘llab-quvvatlash asosini ta’minlaydi.

S.V.Vekilova ta’kidlashicha, separatsiya madaniy fenomen sifatida yangi ijtimoiy amaliyotlar va texnologiyalarning rivojlanishiga yordam beradi hamda sivilizatsion rivojlanish jarayonini tezlashtiradi. Vekilovaga ko‘ra, psixologik separatsiya faqat shaxsiy yetilganlik vositasi bo‘libgina


qolmay, balki madaniy taraqqiyotning katalizatori hamdir. U shunga hissa qo‘shadiki, yosh avlod oldingi modellardan uzilib, yangi ijtimoiy va texnologik amaliyotlarni yaratadi va joriy etadi, shu orqali sivilizatsion o‘zgarishlarni tezlashtiradi.

Varga va Sitkoning ta’kidlashicha, oilaviy tizimda psixologik separatsiya - bu na mutlaqo mustaqillik, na to‘liq hissiy singish emas, balki «oltin o‘rta»ni topish jarayonidir. Singish (sliyanie) - bu ortiqcha hissiy va xulq-atvoriy bog‘liqlik holati bo‘lib, unda bolaning fikrlari, tuyg‘ulari va harakatlari deyarli ota-onanikidan farq qilmaydi. Bu esa avtonomiyaning bo‘g‘ilishiga va shaxsiy «Men»ning yo‘qolishiga olib keladi. Izolyatsiya esa uzoqlashish, begonalashish va hissiy yopiqlik orqali namoyon bo‘ladi - hatto bola ota-ona bilan jismonan yaqin bo‘lsa ham. Bu holat kattalarcha mustaqillik emas, balki hissiy sovuqlikning ko‘rinishi hisoblanadi. Muvaffaqiyatli separatsiya - bu ota-ona bilan hissiy bog‘liqlikni saqlagan holda, o‘z fikrlari, tuyg‘ulari va qarorlarining mustaqilligini ta’minlay olish qobiliyatidir.

V.R.Manukyan xulq-atvorni separatsiya hayotdan qoniqish, baxt va maqsadga muvofiqlikning pasayishini qanday bashorat qilishini ko'rib chiqdi, chunki mustaqillik ko'proq qiyinchilik va mas'uliyatni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, uyg'un, ziddiyat-ajratishning erkin uslubi qoniqish va baxtning o'sishiga yordam beradi. Uyg'unlashgan separatsiya usuli-nizolarsiz, hurmat va qo'llab - quvvatlash bilan-yaxshiroq moslashishga, hayotdan qoniqishga va baxtga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Komformlilik shkalasida ham ishonchli farqlar kuzatildi, unga ko’ra separatsiya darajasi past respondentlarimizda komformlilik ko’rsatkichlari yuqori, separatsiya darajasi yuqori respondentlarimizda komformlilik ko’rsatkichlari past ekanligi aniqlandi (N=319,417; r=0,001). Komformlilik shkalasi separatsiya darajasi past sinaluvchilarimizda 467,50, separatsiya darajasi o'rta sinaluvchilarimizda 299,01, separatsiya darajasi yuqori sinaluvchilarimizda 148,61 natijani ko’rsatdi (-rasm).

Zamonaviy axborot makonida yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlash, raqamli gigiyena va media savodxonlikni rivojlantirish ham barkamol shaxsni tarbiyalashning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ta’lim jarayonida axborot manbalarini tanlash, tekshirish, tahlil qilish, manipulyativ ta’sirlarni anglash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, internet etikasi kabi ko‘nikmalarni shakllantirish yoshlarni feyk xabarlar, ekstremistik g‘oyalar, zo‘ravonlik va buzuqilikni targ‘ib qiluvchi kontent, internet qaramlik kabi salbiy omillardan himoya qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning ijodkorlik, ilmiy izlanish, muloqot va hamkorlikdagi ijobiy imkoniyatlarini ongli ravishda va maqsadli foydalanishga o‘rgatish barkamol shaxsning raqamli kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelajak uchun dolzarb vazifalardan biri sifatida barkamol shaxsni tarbiyalash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, interdisiplinar yondashuvni kuchaytirish, empirik ma’lumotlarga tayangan holda zamonaviy yoshlar psixologiyasi, qadriyatlari, motivatsiyasi, ijtimoiy xulqi xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarur. Bunday tadqiqotlar natijalari asosida ta’lim va tarbiya texnologiyalarini yangilash, mahalliy sharoit va milliy-madaniy xususiyatlarni inobatga olgan holda innovatsion dastur va metodikalarni ishlab chiqish, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish barkamol shaxsni tarbiyalash samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va ilg‘or pedagogik amaliyotlarni tahlil qilish, ularning mos keladigan jihatlarini milliy tizimga tadbiq etish, o‘z navbatida, milliy an’ana va qadriyatlarning ijobiy tajribasini ham xalqaro maydonga olib chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, barkamol shaxsni tarbiyalash – bu bir martalik loyiha emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari, institutlari va har bir ongli fuqaroning uzluksiz sa’y-harakati, o‘z ustida ishlashi, o‘zaro mas’uliyatini taqozo etadigan murakkab, ammo nihoyatda sharafli jarayondir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati, avvalo, barkamol shaxs idealining jamiyat ongida qay darajada qadriyat sifatida qabul qilinishi, ta’lim va tarbiya amaliyotida qay darajada aniq maqsad va mezonlarga aylanganiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, har bir o‘qituvchi, ota-ona, jamiyat faoli va siyosat ishlab chiquvchi o‘z faoliyati doirasida barkamol shaxsni tarbiyalashga hissa qo‘shishni o‘zining fuqarolik va ma’naviy burchi sifatida anglagan taqdirdagina, bugungi va kelajak avlodlar uchun ma’naviy yetuk, intellektual salohiyatli, ijtimoiy mas’uliyatli, erkin va ijodkor shaxslar avlodini voyaga yetkazish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Hasanboeva O. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 320 b.
2. Hodiyev A. Yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasi: nazariya va amaliyot. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 210 b.
3. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 456 b.
4. Qodirov B., Raximova D. Ma’naviyat asoslari: oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2015. – 280 b.
5. Tursunov S. Pedagogik mahorat va zamonaviy tarbiya texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2017. – 260 b.
6. Boboyeva Z. Yangi O‘zbekistonda yoshlarning ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish masalalari // Ma’naviyat va ma’rifat. – 2023. – № 2. – B. 45–52.
7. Axmadiyev N.M. Keksa avlod tajribasidan foydalanib yoshlarning axloqiy madaniyatini yuksaltirish yo‘llari // Pedagogika va psixologiya. – 2022. – № 4. – B. 60–68.

Tosheva Yulduz Giyasovna
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

MANTIQIY MASALALAR ASOSIDA O'QUVCHI IJODIY FAOLIAYTNI RIVOJLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda mantiqiy masalalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mantiqiy masalalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari hamda kreativ yondashuvi rivojlanishi asoslab berilgan. Shuningdek, mantiqiy topshiriqlardan foydalanishning samarali usullari va vositalari ilmiy jihatdan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *mantiqiy masalalar, ijodiy faoliyat, mustaqil fikrlash, kreativlik, interfaol metodlar, ta'lim samaradorligi*

МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ЛОГИЧЕСКИХ ЗАДАЧ

Аннотация*: В данной статье рассматривается роль логических задач в развитии творческой деятельности учащихся. Обосновано, что использование логических заданий способствует формированию самостоятельного мышления, развитию навыков решения проблемных ситуаций и креативного подхода. Также раскрываются эффективные методы и средства применения логических задач в образовательном процессе.*

Ключевые слова*:логические задачи, творческая деятельность, самостоятельное мышление, креативность, интерактивные методы, эффективность обучения*

METHODS AND TOOLS FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY BASED ON LOGICAL PROBLEMS

Annotation. *This article analyzes the role and significance of logical problems in developing students' creative activity. It is emphasized that logical tasks enhance independent thinking, foster problem-solving abilities, and encourage a creative approach to learning. The study also identifies effective methods and tools for integrating logical problems into the educational process, thereby improving students' cognitive engagement and overall learning outcomes.*

Key words*: logical problems, creative activity, independent thinking, creativity, problem-solving skills, interactive methods, learning effectiveness*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda yosh va barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, barkamol va yar tomonlama yetuk salohiyatli avlod Vatanimiz kelajagi va naslimiz davomchisi hisoblanadi. Ularni zamonaviy, intellektual rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalash, yoshlarning ongiga milliy – madaniy, ma'naviy qadriyatlarimizni singdirish, qadimiy va boy tariximiz bilan qurollantirish, aqlan, ma'nan va jismonan barkamol etib tarbiyalash bugungi kunimizning eng asosiy masalasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan, yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etilmoqda .Shu bois ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish hamda intellektual imkoniyatlarini kengaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida faqat tayyor bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiruvchi metod va vositalardan foydalanish talab etiladi. Bunday metodlar orasida mantiqiy masalalar alohida o'rin egallaydi. Mantiqiy masalalar o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va

xulosa chiqarish kabi muhim fikrlash jarayonlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirib, ijodiy yondashuvni kuchaytiradi. Mantiqiy masalalarni yechish jarayonida o‘quvchilar nafaqat matematik bilimlarini mustahkamlaydilar, balki yangi g‘oyalar ishlab chiqish, turli xil yechimlarni izlash va mustaqil qaror qabul qilishga o‘rganadilar. Ayniqsa, boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim bosqichlarida mantiqiy masalalardan samarali foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda ularning ijodiy faolligini rag‘batlantiradi. Bunday masalalar o‘quvchilarni oddiy hisoblash amallaridan tashqari fikrlashga, muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga undaydi. Natijada o‘quvchilar bilimlarni faqat yodlab olish emas, balki ularni tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini ham egallaydilar. Shu sababli ta’lim jarayonida mantiqiy masalalardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish hamda intellektual salohiyatini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy masalalar asosida o‘quvchi ijodiy faoliyatini rivojlantirishning usul va vositalari deganda avvalombor zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi hamda muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanishini inobatga olishimiz kerak.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyat innovatsion fikrlaydigan, muammolarni mustaqil hal qila oladigan shaxslarni talab etmoqda. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metod va vositalarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda.

Mantiqiy masalalar ta’lim jarayonida samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ular o‘quvchilarning tafakkurini faollashtirib, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularni mustaqil hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, mantiqiy masalalar o‘quvchilarning kreativ yondashuvi va tanqidiy fikrlashini shakllantirishga yordam beradi.

Shu bois, mazkur maqolaning maqsadi - mantiqiy masalalar asosida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samarali usul va vositalarini aniqlash hamda pedagogik jihatidan asoslashdan iborat.

Metodologiya va adabiyotlar sharhi. Mazkur tadqiqotda mantiqiy masalalar asosida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, test sinovlar va umumlashtirish metodlari tashkil etadi. Ushbu metodlar yordamida o‘quvchilarning mantiqiy masalalarni yechishdagi qobiliyati, ijodiy yondashuvi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari o‘rganildi. Tizimli tahlil orqali o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy faoliyat komponentlari - motivatsion, kognitiv va amaliy qismlar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi. Qiyosiy tahlil yordamida an’anaviy ta’lim usullari bilan mantiqiy masalalar asosida o‘qitish metodlarining samaradorligi solishtirildi. Pedagogik kuzatuv metodi orqali o‘quvchilarning darsdagi faolligi va mantiqiy masalalarga bo‘lgan munosabati tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy masalalar o‘quvchilarning analitik va sintetik fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, mantiqiy topshiriqlar orqali o‘quvchilar nafaqat bilim egallaydi, balki o‘z fikrini asoslash, muammolarni hal qilish va kreativ yondashuvni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, interfaol pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirilgan mantiqiy masalalar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi va ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Elektron testlar, multimedia materiallari va raqamli platformalardan foydalangan holda mantiqiy masalalarni qo‘llash o‘quv jarayonini yanada interfaol va qiziqarli qiladi. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy masalalar asosida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliy pedagogik tajriba orqali ham samarali ekanligi isbotlangan.

Amaliy tavsiyalar. Mantiqiy masalalarni dars jarayoniga muntazam kiritish: O‘qituvchilar darslarda mantiqiy masalalardan tizimli ravishda foydalanishlari zarur. Bu o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Interfaol pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirish:Mantiqiy topshiriqlarni guruhli muhokama, o‘yinlar, elektron testlar va multimedia vositalari bilan birga qo‘llash ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Individual yondashuvni ta’minlash:Har bir o‘quvchining qobiliyati va rivojlanish darajasiga mos keladigan murakkablikdagi mantiqiy masalalar tanlanishi lozim. Shu orqali o‘quvchilar o‘z potensialini maksimal darajada ochadi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish:AKT vositalari va mantiqiy masalalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi va raqamli savodxonligi doimiy ravishda rivojlantirilishi zarur.

Baholash tizimini modernizatsiya qilish:O‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy faoliyatini baholashda faqat bilimni eslab qolish emas, balki muammolarni hal qilish, yangi yechimlar topish va kreativ yondashuv ko‘nikmalarini ham hisobga olish lozim.

O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish:Mantiqiy masalalarni qiziqarli va kundalik hayot bilan bog‘liq misollar bilan boyitish o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularni mustaqil o‘rganishga rag‘batlantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mantiqiy masalalar o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va kreativ yondashuv qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mantiqiy masalalarni interfaol pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirib qo‘llash o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, ularni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi va ta’lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuningdek, mantiqiy masalalar yordamida o‘quvchilarning ijodiy salohiyati, tahliliy va sintetik fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu esa zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qila oladigan raqobatbardosh shaxslarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Biroq, ushbu metoddan samarali foydalanish o‘qituvchining kasbiy mahorati va raqamli kompetensiyasiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli pedagoglarning AKT va mantiqiy masalalarni qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirish zarur. Umuman olganda, mantiqiy masalalar asosida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va o‘quvchilarning intellektual salohiyatini to‘liq ochishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Olimov T.H. Spiritual and moral aspects of the formation of civil culture in future specialists of higher education // Theoretical & Applied Science. – 2019. – No. 12. – P. 662–665.
2. Olimov T.H. The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists // Pedagogical Skill (Bukhara). – 2020. – No. 5.
3. Olimov T.H. Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers // Pedagogical Skill (Bukhara). – 2019. – No. 2.
4. Olimov T.H. Formation of self-awareness in youth // Social and Humanitarian Sciences in the Educational System. – Tashkent, 2016. – No. 4.
5. Olimov T. Bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo‘nalishlari // Fan, ta’lim va amaliyotning integratsiyasi. – 2020. – T. 1. – No. 1. – B. 20–27.
6. Xolboyeva G., Olimov T. O‘smirlar ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Ilm-fan va ta’lim. – 2023. – T. 1. – No. 7.

Зимина Анастасия Андреевна
Магистрант азиатского международного университета
E-mail: ms.nz86@gmail.com

ПРОСОДИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЕЁ ТИПОЛОГИЧЕСКОЕ СОПОСТАВЛЕНИЕ С ТЮРКСКИМИ ЯЗЫКАМИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются просодические особенности русского языка в сопоставлении с тюркскими языками. Особое внимание уделяется таким компонентам просодии, как ударение, интонация, ритм и темп речи. Анализируются типологические различия между флективным русским языком и агглютинативными тюркскими языками, выявляются их общие и специфические черты. Также рассматриваются проблемы интерференции при изучении русского языка носителями тюркских языков. Результаты исследования могут быть использованы в теоретической лингвистике и методике преподавания русского языка как иностранного.*

Ключевые слова*: просодия, интонация, ударение, ритм, русский язык, тюркские языки, сопоставительный анализ, фонетика, интерференция, типология.*

PROSODY OF THE RUSSIAN LANGUAGE AND ITS TYPOLOGICAL COMPARISON WITH TURKIC LANGUAGES

Abstract*. This article examines the prosodic features of the Russian language in comparison with Turkic languages. Particular attention is paid to such components of prosody as stress, intonation, rhythm, and speech tempo. The study analyzes typological differences between the inflectional Russian language and agglutinative Turkic languages, identifying both common and specific features. It also addresses interference issues in the process of learning Russian by native speakers of Turkic languages. The findings can be applied in theoretical linguistics and in teaching Russian as a foreign language.*

Key words*: prosody, intonation, stress, rhythm, Russian language, Turkic languages, comparative analysis, phonetics, interference, typology.*

RUS TILINING PROSODIYASI VA UNING TURKIY TILLAR BILAN TIPOLOGIK QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya*. Ushbu maqolada rus tilining prosodik xususiyatlari turkiy tillar bilan qiyosiy tahlil asosida o‘rganiladi. Prosodiyaning asosiy komponentlari - urg‘u, intonatsiya, ritm va nutq tempi alohida tahlil qilinadi. Flektiv rus tili va agglutinativ turkiy tillar o‘rtasidagi tipologik farqlar ochib berilib, ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi. Shuningdek, turkiy tillar egalarining rus tilini o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan interferensiya muammolari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari nazariy tilshunoslik va rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitish metodikasida qo‘llanishi mumkin.*

Kalit so‘zlar*: prosodiya, intonatsiya, urg‘u, ritm, rus tili, turkiy tillar, qiyosiy tahlil, fonetika, interferensiya, tipologiya.*

Просодия как важнейший компонент звуковой системы языка представляет собой совокупность надсегментных средств, включающих интонацию, ударение, ритм, темп и паузацию речи. В современной лингвистике просодия рассматривается не только как фонетическое, но и как функционально значимое явление, обеспечивающее структурную и коммуникативную организацию высказывания. Исследование просодических особенностей русского языка в сопоставлении с тюркскими языками является актуальным направлением современной типологической лингвистики.

Русский язык характеризуется сложной просодической системой, в которой важную роль играет свободное и подвижное ударение. Ударение в русском языке может падать на любой слог слова и изменять своё положение в различных грамматических формах, что подтверждает его фонологическую значимость. В отличие от русского языка, в большинстве тюркских языков ударение фиксировано, как правило, на последнем слоге слова, что делает их акцентную систему более регулярной и предсказуемой Интонационная система русского языка отличается богатством и вариативностью. Она включает различные мелодические контуры, используемые для выражения коммуникативных типов предложений, логического членения высказывания и эмоциональных оттенков речи[4]. В русском языке интонация играет важную роль в актуальном членении предложения, выделяя тему и рему. В тюркских языках интонация менее вариативна и выполняет преимущественно синтаксическую функцию, что связано с их агглютинативной природой.

Ритмическая организация русского языка основана на чередовании ударных и безударных слогов, при этом важным явлением является редукция гласных в безударной позиции. Редукция приводит к изменению качества гласных и снижению их артикуляционной чёткости. В тюркских языках редукция выражена значительно слабее или отсутствует, что делает их фонетическую структуру более стабильной и чёткой. Темп и паузация речи также являются значимыми элементами просодии. В русском языке темп может варьироваться в зависимости от коммуникативной ситуации, а паузы используются для структурирования высказывания и передачи дополнительной информации. В тюркских языках темп речи более равномерный, а паузация тесно связана с морфологической структурой слова и синтаксисом предложения.

Типологические различия между русским и тюркскими языками обусловлены их генетической принадлежностью и морфологическим строем. Русский язык является флективным, тогда как тюркские языки - агглютинативными. Это различие влияет на характер просодических средств: в русском языке просодия компенсирует сложность морфологии, тогда как в тюркских языках морфологическая прозрачность снижает нагрузку на просодические средства. Особый интерес представляет интерференция просодических систем при изучении русского языка носителями тюркских языков. Часто наблюдаются ошибки в постановке ударения, а также трудности в освоении интонационных моделей русского языка. Это связано с переносом просодических особенностей родного языка на изучаемый.

Современные исследования просодии используют инструментальные методы, такие как акустический анализ речи, что позволяет точно измерять параметры частоты, длительности и интенсивности звука. Это способствует более глубокому пониманию универсальных и специфических черт различных языков. Просодия русского языка представляет собой сложную и многоуровневую систему, существенно отличающуюся от просодических характеристик тюркских языков. Сопоставительный анализ выявляет как универсальные закономерности, так и специфические особенности, обусловленные типологическими различиями языков.

Продолжая рассмотрение просодических характеристик русского языка в сопоставлении с тюркскими языками, необходимо особое внимание уделить таким параметрам, как мелодическая структура высказывания и частотные характеристики речевого сигнала. В русском языке мелодика речи характеризуется значительными колебаниями основного тона (F0), что позволяет говорящему варьировать интонационные конструкции в зависимости от коммуникативной задачи. Повышение и понижение тона в пределах одной синтагмы может выполнять как грамматическую, так и прагматическую функцию, например, выражать вопросительность, завершённость или эмоциональную окраску высказывания.

В тюркских языках, напротив, диапазон частотных изменений основного тона более ограничен, а интонационные контуры менее разнообразны. Это объясняется тем, что в агглютинативных языках значительная часть грамматической информации кодируется морфологически, а не просодически. Таким образом, просодия в тюркских языках играет более вспомогательную роль по сравнению с русским языком. Важным аспектом является также

длительность звуков и её роль в организации ритма. В русском языке длительность гласных и согласных не является фонологически значимой, однако она может варьироваться в зависимости от позиции в слове и ударения. Ударные гласные, как правило, произносятся дольше и с большей интенсивностью. В тюркских языках, особенно в казахском и киргизском, длительность звуков может иметь более устойчивый характер, однако в большинстве случаев она также не выполняет смыслоразличительной функции.

Следует отметить и различия в тембровых характеристиках речи. Тембр определяется спектральным составом звука и зависит от артикуляционных особенностей говорящего. В русском языке тембровая вариативность может использоваться как средство выражения эмоционального состояния и индивидуального стиля речи. В тюркских языках тембр также играет определённую роль, однако он менее систематизирован и чаще рассматривается как индивидуальная, а не языковая характеристика.

Особый интерес представляет взаимодействие просодии и синтаксиса. В русском языке интонация тесно связана с синтаксической структурой предложения и может изменять его интерпретацию. Например, одно и то же предложение может иметь различное значение в зависимости от интонационного оформления. В тюркских языках синтаксическая структура более жёсткая, и интонация в меньшей степени влияет на интерпретацию высказывания, поскольку грамматические отношения выражаются посредством аффиксов.

Кроме того, необходимо учитывать роль логического ударения, которое в русском языке является важным средством актуального членения предложения. Логическое ударение позволяет выделить наиболее значимую часть высказывания и тем самым изменить его смысловой акцент. В тюркских языках аналогичные функции выполняются преимущественно синтаксическими средствами или порядком слов, что снижает функциональную нагрузку просодии.

В контексте межъязыковой интерференции важно отметить, что носители тюркских языков при изучении русского языка часто испытывают трудности в восприятии и воспроизведении сложных интонационных конструкций. Это связано с различиями в просодических системах, а также с отсутствием некоторых интонационных моделей в родном языке. Например, трудности могут возникать при различении восходяще-нисходящих интонационных контуров, характерных для русского языка. Современные экспериментальные исследования, основанные на использовании компьютерных технологий и программ анализа речи (например, Praat), позволяют детально изучать просодические параметры и выявлять тонкие различия между языками. Такие исследования показывают, что даже при внешнем сходстве интонационных моделей между языками могут существовать значительные различия в их акустической реализации.

Не менее важным является вопрос о роли просодии в процессе речевого восприятия. В русском языке просодические средства помогают слушающему сегментировать речевой поток, выделять синтагмы и интерпретировать структуру высказывания. В тюркских языках эта функция также присутствует, однако она в большей степени опирается на морфологические и синтаксические показатели. Таким образом, дальнейший анализ показывает, что различия в просодических системах русского и тюркских языков затрагивают не только отдельные элементы, но и всю организацию речевого потока. Эти различия имеют как теоретическое значение для типологической лингвистики, так и практическое значение для методики преподавания языков и межкультурной коммуникации.

Заключение. Проведённое исследование показало, что просодия русского языка представляет собой сложную и многоуровневую систему, включающую разнообразные интонационные модели, свободное ударение, вариативный ритм и развитую систему мелодических контуров. В отличие от него, просодическая система тюркских языков характеризуется большей регулярностью, фиксированным ударением (чаще на последнем слоге), меньшей степенью интонационной вариативности и более стабильной фонетической структурой. Сопоставительный анализ позволил выявить как универсальные черты просодических систем, так и специфические особенности, обусловленные типологической принадлежностью

языков. Русский язык, как флективный, активно использует просодические средства для выражения грамматических и коммуникативных значений, тогда как в тюркских языках основная нагрузка ложится на морфологические средства.

Особое значение имеют выявленные различия для теории межъязыковой интерференции и практики преподавания русского языка как иностранного. Установлено, что носители тюркских языков испытывают трудности в освоении русской акцентной и интонационной системы, что требует разработки специальных методик обучения с учётом типологических различий. Таким образом, результаты исследования подтверждают важность просодии как ключевого элемента языковой системы и подчёркивают необходимость её дальнейшего изучения в рамках типологической и прикладной лингвистики.

Список использованной литературы.

1. Аванесов Р.И. Русское литературное произношение. – Москва: Наука, 1984.
2. Бондарко Л.В. Фонетика современного русского языка. – Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2001.
3. Брызгунова Е.А. Интонация русского языка. – Москва: Русский язык, 1980.
4. Вербицкая Л.А. Основы русской фонетики. – Санкт-Петербург: Филологический факультет СПбГУ, 2001.
5. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – Москва: Высшая школа, 1972.
6. Зализняк А.А. Русское именное словоизменение. – Москва: Языки славянской культуры, 2002.
7. Кубрякова Е.С. Язык и знание. – Москва: Языки славянской культуры, 2004.
8. Ладыженская Т.А. Живая речь. – Москва: Просвещение, 1991.
9. Николаева Т.М. Фразовая интонация славянских языков. – Москва: Наука, 1977.

Komilova Mijgona
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini takomillashtirishning asosiy strategik yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda amaliy mexanizmlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli madaniyat, kiberxavfsizlik va uzluksiz ta’limning o‘rni ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: axborot texnologiyalari, raqamli kompetensiya, ta’limni modernizatsiya qilish, innovatsiya, raqamli savodxonlik, kiberxavfsizlik, uzluksiz ta’lim, edtech, startap, raqamli iqtisodiyot*

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются основные стратегические направления совершенствования навыков использования современных информационных технологий. Освещаются вопросы развития цифровых компетенций, модернизации системы образования, внедрения инновационных подходов и практических механизмов. Также раскрывается значение цифровой культуры, кибербезопасности и непрерывного образования.*

Ключевые слова*: информационные технологии, цифровые компетенции, модернизация образования, инновации, цифровая грамотность, кибербезопасность, непрерывное образование, edtech, стартап, цифровая экономика*

STRATEGIC DIRECTIONS FOR IMPROVING SKILLS IN THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES

Abstract. *This article analyzes the main strategic directions for improving skills in the use of modern information technologies. It highlights the importance of developing digital competencies, modernizing the education system, implementing innovative approaches, and applying practical mechanisms. The role of digital culture, cybersecurity, and lifelong learning is also emphasized.*

Key words*: information technologies, digital competencies, education modernization, innovation, digital literacy, cybersecurity, lifelong learning, edtech, startup, digital economy*

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon inson faoliyatining barcha sohalarini tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Axborot texnologiyalari bugungi kunda nafaqat ishlab chiqarish, iqtisodiyot va boshqaruv tizimlarida, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy munosabatlar tizimida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni takomillashtirish dolzarb strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Axborot texnologiyalari tushunchasi keng ma’noda axborotni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi vositalar majmuasini anglatadi. Bugungi kunda ushbu texnologiyalar sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli hisoblash (Cloud Computing), blokcheyn, Internet of Things (IoT) kabi innovatsion yo‘nalishlar bilan boyib bormoqda. Natijada inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlari, ayniqsa raqamli savodxonlik darajasi muhim strategik indikatorga aylanmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini takomillashtirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlashda, avvalo, global tendensiyalarni tahlil qilish zarur. Xalqaro tashkilotlar, jumladan UNESCO va OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki,

XXI asrda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalar qatorida raqamli kompetensiyalar alohida o‘rin tutadi. Bu kompetensiyalar nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki axborotni tanqidiy tahlil qilish, media savodxonlik, kiberxavfsizlik madaniyati va innovatsion fikrlashni ham o‘z ichiga oladi.

Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim tizimini modernizatsiya qilish hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim jarayoni an’anaviy bilim berish modelidan interaktiv, talaba markazli va texnologiyalarga asoslangan modelga o‘tmoqda. Masalan, elektron ta’lim (e-learning), masofaviy ta’lim (distance learning) va aralash ta’lim (blended learning) shakllari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu shakllar orqali ta’lim jarayonining moslashuvchanligi va samaradorligi oshmoqda. Bundan tashqari, raqamli platformalar va ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Masalan, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va sun’iy intellekt asosidagi o‘quv tizimlari talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini takomillashtirishda pedagog kadrlarning roli alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchilar nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur. Shu boisdan o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi zamonaviy talablar asosida takomillashtirilmoqda.

Shuningdek, davlat siyosati darajasida ham raqamli transformatsiya jarayonlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ko‘plab mamlakatlarda “Raqamli iqtisodiyot” va “Raqamli ta’lim” dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orqali axborot texnologiyalarini keng joriy etish va aholining raqamli savodxonligini oshirish maqsad qilingan. O‘zbekiston Respublikasida ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini takomillashtirishning yana bir muhim yo‘nalishi bu – amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir. Nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy tajriba orttirish, real loyihalarda ishtirok etish, startap tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon innovatsion ekotizimni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligini ta’minlash va kiberhujumlarga qarshi kurashish ko‘nikmalari ham rivojlantirilishi zarur. Bu esa axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish jarayonida ijtimoiy tengsizlik muammosi ham yuzaga kelishi mumkin. Ya’ni, texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari barcha qatlamlar uchun bir xil emas. Shu boisdan strategik yondashuvlarda inkluzivlik tamoyiliga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Bu esa barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda “lifelong learning” – uzluksiz ta’lim konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu konsepsiya asosida inson butun hayoti davomida bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilab borishi zarur deb qaraladi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari tezkor rivojlanayotgan sharoitda bir martalik ta’lim modeli yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu boisdan malaka oshirish, qayta tayyorlash va mustaqil o‘rganish mexanizmlarini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida kompetensiyaviy model asosida ta’limni tashkil etish keng qo‘llanilmoqda. Ushbu modelda asosiy e’tibor bilim hajmiga emas, balki uni amaliyotda qo‘llash qobiliyatiga qaratiladi. Axborot texnologiyalariga oid kompetensiyalar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi aniqlangan: texnik savodxonlik, axborotni boshqarish, kommunikatsiya, muammolarni hal qilish va innovatsion faoliyat. Bu esa ta’lim jarayonini natijaga yo‘naltirilgan holda tashkil etishni taqozo etadi.

Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda metodologik yondashuvlar ham muhim rol o‘ynaydi. Xususan, konstruktivistik yondashuv asosida ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki, mustaqil izlanishi va tajriba asosida o‘rganishi rag‘batlantiriladi. Bu yondashuv axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning) texnologiyasi ham keng qo‘llanilib, u

real muammolarni hal qilish orqali amaliy bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Innovatsion rivojlanishning muhim omillaridan biri bu – sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvidir. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar o'quvchilarning individual xususiyatlarini tahlil qilib, ularga mos o'quv dasturlarini shakllantiradi. Bu esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, adaptiv o'qitish tizimlari talabaning bilim darajasiga qarab topshiriqlar murakkabligini avtomatik ravishda moslashtiradi. Shu bilan birga, katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini tahlil qilish va optimallashtirish imkonini beradi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, faolligi va qiziqishlarini tahlil qilish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish mumkin. Bu esa axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Zamonaviy strategik yo'nalishlardan yana biri bu – raqamli infratuzilmani rivojlantirishdir. Yuqori tezlikdagi internet tarmog'i, zamonaviy kompyuter texnikasi, dasturiy ta'minot va raqamli platformalar mavjudligi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun zarur shart hisoblanadi. Shu boisdan ko'plab davlatlar raqamli infratuzilmani rivojlantirishga katta investitsiyalar yo'naltirmoqda. Bundan tashqari, ochiq ta'lim resurslari (Open Educational Resources – OER) va ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) ham muhim strategik vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu resurslar orqali istalgan inson dunyoning yetakchi universitetlari tomonidan taqdim etilgan bilimlardan bepul foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ta'limning demokratlashuviga va raqamli savodxonlikning keng ommalashuviga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini takomillashtirishda korporativ sektorning ham o'rni katta. Yirik kompaniyalar o'z xodimlarining raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus trening dasturlarini ishlab chiqmoqda. Bu esa mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, IT sohasi mutaxassislariga bo'lgan talabning ortishi ta'lim tizimida ham mos o'zgarishlarni talab etmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi kasblar va faoliyat turlari paydo bo'lmoqda. Masalan, ma'lumotlar tahlilchisi (data analyst), sun'iy intellekt mutaxassisi, kiberxavfsizlik eksperti kabi kasblar bugungi kunda eng talabgir yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu esa ta'lim tizimini mos ravishda transformatsiya qilishni taqozo etadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishda madaniy va ijtimoiy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Raqamli madaniyatni shakllantirish, axborotdan mas'uliyatli foydalanish, etik me'yorlarga rioya qilish kabi jihatlar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Bu esa jamiyatda sog'lom axborot muhitini yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, global hamkorlik va tajriba almashish ham muhim strategik yo'nalishlardan biridir. Xalqaro loyihalar, grantlar va ilmiy hamkorliklar orqali ilg'or tajribalarni o'rganish va joriy etish mumkin. Bu esa milliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshiradi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishda klaster yondashuvi samarali mexanizmlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, IT kompaniyalar va davlat tashkilotlari o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Bunday hamkorlik natijasida nazariy bilimlar amaliyot bilan uyg'unlashadi, innovatsion g'oyalar tezroq amaliyotga joriy etiladi va kadrlar tayyorlash sifati oshadi. Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning yana bir muhim mexanizmi bu – dual ta'lim tizimini joriy etishdir. Dual ta'lim modelida o'quv jarayoni nazariy va amaliy qismlarning uyg'unligida tashkil etiladi. Talabalar o'qish jarayonida bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish korxonalarida yoki IT kompaniyalarda amaliy tajriba orttiradi. Bu esa ularning real ish muhitida axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, zamonaviy ta'limda "edtech" (education technology) ekotizimini rivojlantirish ham ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Edtech platformalar orqali interaktiv darslar, virtual sinflar, sun'iy intellekt asosidagi maslahat tizimlari va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari keng qo'llanilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, individual yondashuvni ta'minlaydi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini takomillashtirishda startap madaniyatini rivojlantirish ham muhim rol o'ynaydi. Innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini tashkil etish yoshlarning texnologik bilim va

ko‘nikmalarini amaliyotga tadbiq etish imkonini yaratadi. Bu jarayon nafaqat individual rivojlanishga, balki milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Milliy tajriba nuqtai nazaridan qaraganda, O‘zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalarini rivojlantirish va raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, IT Parklar tashkil etilishi, raqamli ta’lim platformalarining joriy etilishi va yoshlarni IT sohasiga jalb etish bo‘yicha dasturlar muhim natijalar bermoqda. Bu esa mamlakatda raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Zamonaviy strategik yondashuvlardan biri bu – mikrokredensiallar (micro-credentials) tizimini joriy etishdir. Ushbu tizim orqali qisqa muddatli kurslar asosida aniq ko‘nikmalarni egallagan shaxslarga maxsus sertifikatlar beriladi. Bu esa ta’lim jarayonini moslashuvchan qiladi va mehnat bozori talablariga tezkor javob berish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, gamifikatsiya (o‘yin elementlarini qo‘llash) texnologiyasi ham axborot texnologiyalarini o‘rganishda samarali vosita hisoblanadi. O‘yin elementlari orqali o‘quvchilarning qiziqishi oshadi, motivatsiyasi kuchayadi va bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni yanada samarali bo‘ladi. Bu ayniqsa yoshlar orasida keng qo‘llanilmoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishda masofaviy ishlash (remote work) muhitining kengayishi ham muhim omil sifatida qaralmoqda. Pandemiya davridan keyin ko‘plab tashkilotlar masofaviy ish tizimiga o‘tdi va bu jarayon axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarining zarurligini yanada oshirdi. Natijada, virtual hamkorlik vositalari, bulutli xizmatlar va onlayn kommunikatsiya platformalaridan foydalanish kengaydi.

Shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanishda ekologik omillar ham e’tiborga olinmoqda. “Yashil IT” (Green IT) konsepsiyasi doirasida energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, elektron chiqindilarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Bu esa texnologik rivojlanish bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya jarayonida inson omili ham alohida ahamiyat kasb etadi. Texnologiyalar qanchalik rivojlangan bo‘lmasin, ularni samarali qo‘llash insonning bilim va ko‘nikmalariga bog‘liq. Shu boisdan axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishda psixologik tayyorgarlik, moslashuvchanlik va kreativ fikrlash kabi omillar ham muhim hisoblanadi.

Yana bir muhim strategik yo‘nalish bu – kiberhigiyena va raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirishdir. Foydalanuvchilarning axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilishi, zararli dasturlardan himoyalanish va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Bu esa raqamli muhitda xavfsiz faoliyat yuritish imkonini beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlari mehnat bozorida katta o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Ba’zi kasblar yo‘qolib borayotgan bo‘lsa, yangi kasblar paydo bo‘lmoqda. Bu esa axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini doimiy ravishda yangilab borishni talab etadi.

Xulosa. Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib borib, inson faoliyatining mazmuni va shaklini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Shu sababli axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish malakalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur malakalar faqat texnik bilimlar bilan cheklanmay, balki axborotni izlash, tahlil qilish, undan samarali foydalanish hamda raqamli muhitda xavfsiz va mas’uliyatli faoliyat yuritishni ham o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu malakalarni rivojlantirish, avvalo, ta’lim tizimining zamonaviy talablarga moslashuviga bog‘liq. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish hamda uzluksiz ta’lim tamoyilini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, dual ta’lim, raqamli platformalar, startap faoliyati kabi amaliy mexanizmlar ham samarali natijalar berishi aniqlangan.

Bundan tashqari, raqamli madaniyatni shakllantirish, kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish va axborotdan ongli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish ham zarur hisoblanadi. Davlat darajasida amalga oshirilayotgan raqamli rivojlanish strategiyalari esa bu jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, axborot texnologiyalaridan foy-

dalanish malakalarini takomillashtirish tizimli, uzluksiz va kompleks yondashuvni talab etadi hamda u jamiyatning intellektual va iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ахборот технологиялари асослари. – Тошкент: Фан, 2019.
2. UNESCO. Digital skills development report. – Paris: UNESCO, 2021.
3. OECD. Key competencies for the digital world. – Paris: OECD Publishing, 2020.
4. Anderson T. The theory and practice of online learning. – Athabasca: Athabasca University Press, 2020.
5. Mayer-Schönberger V., Cukier K. Big data: A revolution that will transform how we live, work, and think. – New York: Houghton Mifflin Harcourt, 2017.
6. Ribble M. Digital citizenship in schools. – 3rd ed. – Eugene: International Society for Technology in Education, 2015.
7. Porter M.E. Clusters and the new economics of competition // Harvard Business Review. – 1998. – Vol. 76. – No. 6. – P. 77–90.
8. Euler D. Germany’s dual vocational education and training system. – Berlin: Bertelsmann Stiftung, 2013.
9. Selwyn N. Education and technology: Key issues and debates. – London: Bloomsbury, 2016.
10. Ries E. The lean startup. – New York: Crown Business, 2011.
11. OECD. Micro-credentials for lifelong learning and employability. – Paris: OECD Publishing, 2021.
12. Deterding S. Gamification: Designing for motivation // Interactions. – 2012. – Vol. 19. – No. 4. – P. 14–17.
13. McKinsey Global Institute. The future of work: Rethinking skills and jobs. – New York, 2021.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020.

Tursunboyeva Aziza Toxir qizi
Xalqaro Nordik Unversiteti, Psixologiya mutaxassisligi magistranti
E-mail: tursunboyeva03@gmail.com

HARBIY OILALARDA TARBIYALANAYOTGAN BOLALARNING IJTIMOIY MOSLASHUVINING TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada harbiy xizmatchilar oilasida va harbiy bo‘lmagan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiy moslashuv xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda bollarning ijtimoiy munosabatlari, emotsional holati hamda oilaviy qo‘llab- quvvatlash darajasi o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy moslashuv, harbiy oila, bolalar psixologiyasi, emotsional holat, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, tez-tez ko‘chib yurish, harbiy bo‘lmagan oila, depressiya, qiyosiy tahlil.*

АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ, ВОСПИТЫВАЮЩИХСЯ В ВОЕННЫХ СЕМЬЯХ

Аннотация. *В данной статье сравнительно анализируются особенности социального адаптирования детей, воспитывающихся в семьях военных и гражданских семей. В исследовании рассматриваются социальные отношения детей, их эмоциональное состояние и уровень семейной поддержки.*

Ключевые слова*: социальная адаптация, военная семья, психология детей, эмоциональное состояние, семейная поддержка, частые переезды, гражданская семья, депрессия, сравнительный анализ.*

ANALYSIS OF THE SOCIAL ADAPTATION OF CHILDREN RAISED IN MILITARY FAMILIES

Abstract. *This article provides a comparative analysis of the social adaptation characteristics of children raised in military families and civilian families. The study examines the social relationships of children, their emotional state, and the level of family support.*

Key words*: social adaptation, military family, child psychology, emotional state, family support, frequent relocations, civilian family, depression, comparative analysis.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda harbiy oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi globallashuv, doimiy harbiy mojarolar (masalan, Rossiya-Ukraina va Isroil-Xamas) va xalqaro xavfsizlik tahdidlari sharoitida harbiy xizmatchilarning oilalari ba’zi bir sinovlarga duch kelmoqda: tez-tez ko‘chib yurish, ota-ona ajralishi, oilaviy stress va emotsional yuklamalar bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Harbiy oilalar bolalari oddiy oila bolalariga nisbatan qo‘shimcha stress omillariga duch keladi: yangi muhitga tez moslashish zarurati, do‘stlar va ijtimoiy doirani tez-tez o‘zgartirish, harbiy ota-onaning birini uzoq muddatli yo‘qligi tufayli emotsional izolyatsiya va xavotirni his qiladilar [13]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday sharoitlar ba’zi hollarda ularning tashqi xatti-harakatlari va ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklarini oshirishi mumkin, ammo shu bilan bir qatorda harbiy oila bilan bog‘liq bolalarda chidamlilik, moslashuvchanlik va mustaqillik kabi ijobiy fazilatlarni rivojlantirishi mumkin [9]. Opie va hamkasblari [10] harbiy oila bolalari barcha yoshlarda (erta, o‘rta va kech bolalalik) oddiy oila bolalariga nisbatan ijtimoiy, emotsional (depressiya, bezovtalik) va xulq-atvor muammolariga nisbatan yuqori xavf ostida ekanligini, ayniqsa harbiy xizmatdagi ota-onaning uzoq muddatli safarga ketishi ta’sirida o‘smirlarda suitsidal xavf

yuqori bo‘lishini aniqlagan. Boshqa tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalardagi xavf omillari ta’kidlangan, lekin maktab natijalari bo‘yicha ma’lumotlar kam.

O‘zbekiston sharoitida harbiy xizmatchilar oilalarini ijtimoiy himoya qilish va ularning farzandlarini tarbiyalash masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu oilalarning mustahkamligini oshirish va bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash orqali milliy xavsizlik va jamiyat tinchligini mustahkamlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” da harbiy oiladagi ijtimoiy muammolarni (shu jumladan ko‘chish ta’sirini) hisobga olib, oilaviy barqarorlik va bolalar tarbiyasini kuchaytirishni belgilaydi [2].

O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 12- sentabrdagi PQ-4447-sonli qarori [1], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022-2023yillarda kuchaytirilgan “Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida xotin-qizlar va harbiy xizmatchilar oila a’zolari bilan ishlash tizimi” [3] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-martdagi PF-34-sonli “Vatan himoyasi va el-yurt tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [4] farmoni kabi va boshqa mavzuga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan, ammo bolalarning ijtimoiy moslashuviga oid empirik ma’lumotlar kam. Ushbu tadqiqot harbiy oila va odharbiy bo‘lmagan oila bolalarining ijtimoiy moslashuvini qiyosiy tahlil qilib, mavjud muammolarni aniqlash va yechimlar taklif qilishga qaratilgan.

Mavjud adabiyotlar tahlili quyidagi bo‘limda batafsil ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu bo‘limda harbiy va harbiy bo‘lmagan oila bolalarining ijtimoiy moslashuvi, emotsional va xulq-atvor natijalari bo‘yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar batafsil tahlil qilamiz. Bir qator tadqiqotlar harbiy oila bolalarini harbiy bo‘lmagan oila bolalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri solishtirgan va harbiy oila bolalarining ijtimoiy va emotsional moslashuvida yuqori xavf omillarini aniqlagan. Williamson va hamkasblari [13] sistematik sharhida 20 ta tadqiqotni tahlil qilib, harbiy bolalar umumiy faravonlik jihattdan harbiy bo‘lmagan oila bolalariga nisbatan katta farq qilmasligini, lekin harbiy xizmatdagi ota-onaning uzoq muddatli safarga ketishi bo‘lgan oilalarda yoki yoshi kattaroq bolalarda modda iste’moli va tashqi xatti- harakatlar muammolari yuqori ekanligini ko‘rsatgan. Bu natijalar harbiy oilalardagi noyob stress omillari mavjudligini ko‘rsatadi.

Shunga o‘xshash, Kumari, Bhatia va Rai [9] Hindiston konteksitida o‘tkazilgan empirik tadqiqotda harbiy va harbiy bo‘lmagan oila bolalarining ota-ona tarbiyasi, bardoshlilik va farovonlik darajasini solishtirgan. Natijada, harbiy bolalar yolg‘izlik va farovonlikni pastroq ko‘rsatgichga ega bo‘lishi, bu harbiy xizmatdagi ota-onaning uzoq muddatli safarga ketishi va oilaviy beqarorligiga bog‘liq ekanligi aniqlangan. Opie va hamkasblari [11] tezkor sistematik sharhida harbiy oila bolalarining ijtimoiy, emotsional va xulq-atvor natijalarini harbiy bo‘lmagan oila bolalari bilan solishtirgan. Natijada, harbiy oila bolalari barcha yosh guruhlarida (erta, o‘rta va kech bolalalik) yuqori xavf ostida ichki muammolar (bezovtalik, depressiya) va tashqi xatti-harakatlar (agressiya, xulq buzilishi) ko‘proq kuzatilgan, ayniqsa o‘smirlikda suitsidal xayol va harakatlar yuqori ekanligini aniqlagan. Wargo Aikins va hamkasblari [14] DTIC hujjatida yuqori va past xavf harbiy oilalarni harbiy bo‘lmagan oilalar bilan solishtirgan, maktabgacha va erta bolalikdagi moslashuv ko‘rsatgichlariga qaratilgan. Harbiy oilalardagi deployment va ota-ona xavfi (ota-onaning ruhiy salomatlik muammolar, oilaviy beqarorlik va xulq-atvor buzilishlari) bolalarning rivojlanishini buzishi mumkin, lekin kuchli oilaviy qo‘llab-quvvatlash bu muammolarni yumshatishini aniqlagan. Cunitz va hamkasblari [5] o‘tkazgan meta-tahlilda 25 ta tadqiqotni sintez qilib, ota onaning harbiy joylashtirilishi bolalarning ruhiy salomatligiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Harbiy oila bolalari harbiy bo‘lmagan oilalariga nisbatan bezovtalik va depressiya kabi ichki muammolarga 1,5-2 baravar yuqori xavf ostida ekanligi ko‘rsatilgan, ammo tashqi xulq-atvor farqlari nisbattan kamroq bo‘lgan.

Loktayeva Svetlana [10] Rossiya konteksida o‘tkazgan empirik tadqiqotda harbiy oila va harbiy bo‘lmagan oila bolalariga nisbattan yuqori darajadagi xavotir, tajovuzkorlik va ijtimoiy moslashuv belgilari kuzatilgan.

Rejametova Irada [8], Omonov Usmonqul [12], Hoshimova Gulsina [7] va Ibragimova Xurshida [6] kabi tadqiqotchilar harbiy oilalar va ularning bolalarining ijtimoiy moslashuv omillarini o‘rgangan. Lekin O‘zbekiston sharoitida harbiy oila va fuqarolik oilalarning taqqoslangan empirik tadqiqotlari kam yoki mavjud emas.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, harbiy oila bolalarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi mavzusi xalqaro miqyosida yaxshi o‘rganilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston kontekstida bu yo‘nalishdagi empirik tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur tadqiqot ushbu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida harbiy va harbiy bo‘lmagan oila bolalarini solishtirma tahlil natijalarini olishga qaratildi. Ushbu maqsadda quyidagi metodologik yondashuv qo‘llanildi.

Metodlar. Tadqiqot solishtirma dizaynda o‘tkazildi. Maqsad – harbiy oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar va harbiy bo‘lmagan oila bolalarining ijtimoiy-psixologik moslashuv ko‘rsatkichlarini solishtirishdan iborat. Tadqiqotda jami 73 nafar respondent ishtirok etdi ular ikki guruh harbiy oila bolalari 37 nafar, harbiy bo‘lmagan oila bolalari 36 nafar. Namuna maqsadli tanlov usuli bilan shakllantirildi. Ishtirokchilar 10-18 yosh oralig‘ida bo‘lib, O‘zbekistonning turli hududlaridagi umumta’lim maktablarida o‘qiyotgan o‘quvchilardir. Bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini o‘rganish uchun muallif tomonidan ishlab chiqilgan 25 ta savolli so‘rovnoma qo‘llanildi. So‘rovnoma quydagi bloklarni qamrab oldi:

– Demografik ma’lumotlar (jins, yosh);
– Oilaviy sharoit va ota-ona bilan munosabatlar;
– Maktab va tengdoshlar bilan munosabatlar;
– Yolg‘izlik, moslashuv qiyinchiliklari va emotsional holat.

Har bir savolga uch yoki undan ko‘p variantli javoblar berilgan (masalan, “Tez-tez”, “Ba’zan”, “Kam”, “Ha”, “Qisman”, “Yo‘q” va h.k). So‘rovnoma ichki mustahkamlik darajasi yuqori bo‘lib, Cronbach’s alpha ko‘rsatkichi 0,72 ni tashkil etdi. So’rovnoma 2026-yilning mart oyi oralig‘ida o‘tkazildi. Har bir ishtirokchi anonim tarzda javob berdi. Guruhlar o‘rtasidagi farqni aniqlash uchun χ^2(xi-kvadrat) testi qo‘llanildi. Statistik ahamiyat darajasi $p<0,05$ deb belgilandi. Ma’lumotlar SPSS 14 dasturida qayta ishlandi.

Natijalar. Ushbu tadqiqotda 73 nafar respondent ishtirok etdi. Ular ikki guruhga bo‘lingan harbiy oila bolalari (n=37) va harbiy bo‘lmagan oila bolalari (n=36). Namuna yosh bo‘yicha 10-18 yosh oralig‘ida bo‘lib, o‘rtacha yoshi 13,59$\pm$2,47 yoshni tashkil etdi (min=11, max=17 yosh). Guruhlar o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik moslashuv ko‘rsatkichlaridagi farqlar χ^2 testi yordamida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, harbiy oila bolalari oddiy oila bolalariga nisbatan bir qator muhim ko‘rsatkichlarda statistik jihatdan sezilarli farqlar ko‘rsatadi ($p<0,05$)

Jadval-1.

Ota-onaning ishi tufayli uyda bo‘lmasligi bo‘yicha ishonchli farqlar (N=73)

		Ota-onangizni ishi tufayli uyda bo‘lmasligi			Jami	Xi-kvadrat	P
		Tez-tez	Ba’zan	Kamdan-kam			
Ota-onangizni ish faoliyati	Harbiy oila	24	8	5	37	23,261(a)	0,000***
	Harbiy bo‘lmagan oila	4	14	18	36		
Jami		28	22	23	73		

Natijalar tahliliga ko‘ra “Ota-onangiz ishi sababli uyda bo‘lmasligi” ko‘rsatgichida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi (χ^2=23,261, $p<0,001$). Harbiy oila bolalarining 64,9% (24 nafar) ota-onasi ishi sabab uyda “tez-tez” bo‘lmasligini qayd etgan bo‘lsa, harbiy bo‘lmagan oila bolalarida bu ko‘rsatkich 11,1% (4 nafar) ni tashkil etdi. Bu natijalardan ko‘ra ota-onaning tez-tez uyda bo‘lmasligi, bolalar o‘rtasida oilaviy xavfsizlik va emotsional yaqinlikning zayiflashishini

ko‘rsatadi. Bu holat bolalarda xavsiz bog‘lanish hissi pasayishiga olib kelgan va ijtimoiy moslashuvni qiyinlashtirgan bo‘lishi mumkin.

Jadval-2.

Yashash joyi ko‘rsatkichi bo‘yichaishonchli farqlar (N=73)

		Yashash joyingizni necha marta o‘zgartirgansiz?			Jami	Xi-kvadrat	P
		O‘zgartirmaganman	1 marta	2 martadan ko'p			
Ota-onangizni ish faoliyati	Harbiy oila	4	6	27	37	13,305(a)	0,001***
	Harbiy bo‘lmagan oila	12	13	11	36		
Jami		16	19	38	73		

Ikkinchi muhim farq “Yashash joyingizni necha marta o‘zgartirgansiz?” ko‘rsatgichi bo‘yicha aniqlandi (χ^2=13,305, p<0,001). Harbiy oila bolalarining 73% (27 nafari) yashash joyini 2 martadan ko‘p o‘zgartirgan bo‘lsa, harbiy bo‘lmagan oila bolalarida bu ko‘rsatkich 30,6% (11 nafar) ni tashkil etdi. Natijalar tahliliga ko‘ra, yashash joyining doimiy o‘zgarib turishi, doimiy stress va ijtimoiy aloqalarning uzilishiga olib keladi. Tez-tez ko‘chish bolaning do‘stlik munosabatlarini qayta-qayta qurishni talab qiladi va bu jarayon yolg‘izlik va ishonchsizlik hissini kuchaytirishi bilan izohlanadi.

Jadval-3.

Maktab o‘zgarishi bo‘yicha ishonchli farqlar (N=73)

		Maktabni nechi marta o‘zgartirgansiz?			Jami	Xi-kvadrat	p
		O‘zgartirmaganman	1 marta	2 martadan ko'p			
Ota-onangizni ish faoliyati	Harbiy oila	10	10	17	37	7,455(a)	0,024*
	Harbiy bo‘lmagan oila	17	13	6	36		
Jami		27	23	23	73		

Uchinchi muhim farq “Maktabni necha marta o‘zgartirgansiz?” ko‘rsatkichi bo‘yicha aniqlandi (χ^2=7,455, p<0,05). Harbiy oila bolalarining 45,9% (17 nafar) makatbni 2 martadan ko‘p o‘zgartirgan bo‘lsa, harbiy bo‘lmagan oila bolalari 16,7% (6 nafar) ni tashkil etgan. Harbiy oila bolalarining juda ko‘p marotaba maktabni o‘zgartirishi, maktab muhitidagi ijtimoiy moslashuvning asosiy buziluvchisi ekanligini ko‘rsatadi. Har bir yangi maktab bolaning guruhga tegishlilik hissini qayta tiklashini talab qiladi va bu ko‘pincha muvaffaqiyatsiz yakunlanishini bildiradi.

Jadval-4.

Sinfda do‘st orttirish bo‘yicha ishonchli farqlar (N=73)

		Yangi sinfda do‘st orttirish			Jami	Xi-kvadrat	P
		Oson	O‘rtacha	Qiyin			
Ota-onangizni ish faoliyati	Harbiy oila	1	26	10	37	12,300(a)	0,002**
	Harbiy bo‘lmagan oila	12	15	9	36		
Jami		13	41	19	73		

4-jadval natijalar tahliliga diqqat bilan nazar solinganda “Yangi sinfda do‘st orttirish” ko‘rsatkichi bo‘yicha ishonch darajasidagi tafovvutlar aniqlandi (χ^2=12,300, p<0,01). Harbiy oila bolalarining 27% (10 nafar) yangi sinfda do‘st orttirishni qiyin deb baholashgan bo‘lsa, harbiy bo‘lmagan oila bolalarida esa bu ko‘rsatkich 25% (9 nafar) ni tashkil etdi. Eng katta farq o’rtacha darajada kuzatildi: harbiy oila bolalarining 73,3% (26 nafar) “o‘rtacha” deb javob bergan bo‘lsa, harbiy bo‘lmagan oila bolalarida bu ko‘rsatkich 41,7% (15 nafar).Harbiy oila bolalarining yangi sinfda do‘st orttirishini “o‘rtacha” yoki “qiyin” deb baholagani, ijtimoiy ko‘nikmalarning zaiflashganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tez-tez muhit o‘zgarishi bu ko‘nikmaning rivojlanishiga vaqt bermasligi bilan izohlash mumkin.

Jadval-5.

Yangi joyga moslashish bo‘yicha ishonchli farqlar (N=73)

		Yangi joyda o‘zingizni qanday his qilasiz?			Jami	Xi-kvadrat	P
		Qulay	Oddiy	Noqulay			
Ota-onangizni ish faoliyati	Harbiy oila	12	2	23	37	15,135(a)	0,001***
	Harbiy bo‘lmagan oila	8	16	12	36		
Jami		20	18	35	73		

Natijalar tahliliga diqqat bilan nazar solinganda “Yangi joyda o'zingizni qanday his qilasiz?” ko‘rsatkichi bo‘yicha ishonch darajasidagi tafovvutlar aniqlandi (χ^2=15,135, p<0,001). Harbiy oila bolalarining 62,2% (23 nafar) yangi joyda o‘zini noqulay his qilgan bo‘lsa, harbiy bo‘lmagan oila bolalarida esa bu ko‘rsatkich ancha past. Natijalar tahliliga ko‘ra harbiy oila bolalarining yangi joyda o‘zlarini noqulay his qilishlari ijtimoiy munosabatlarda zaiflikni ko’rsatadi. Bu esa ularning tez-tez ko‘chib yurishi bilan ifodalanadi.

Jadval-6.

Sinfdoshlar bilan munosabat bo‘yicha ishonchli farq (N=73).

		Yangi maktabda sinfdoshlaringiz bilan munosabatingiz qanday?			Jami	Xi-kvadrat	P
		Yaxshi	O‘rtacha	Yomon			
Ota-onangizni ish faolyati	Harbiy oila	9	27	1	37	18,895(a)	0,000***
	Harbiy bo‘lmagan oila	26	8	2	36		
Jami		35	35	3	73		

Natijalar tahliliga qaralsa “Yangi makatabda sinfdoshlar bilan munosabatingiz qanday?” ko‘rsatkichi bo‘yicha ishonch darajasidagi tafovutlar aniqlandi (χ^2=18,895, p<0,001). Harbiy oila bolalarining 73% (27 nafar) sinfdoshlari bilan munosabatlarni “o‘rtacha” deb baholashgan bo‘lsa, harbiy bo‘lmagan oila bolalarida esa bu ko‘rsatkich faqat 22,2% (8 nafar) ni tashkil qilgan. Aksincha, harbiy bo‘lmagan oila bolalarining 72,2% (26 nafar) munosabatini “yaxshi” deb baholagan. Harbiy oila bolalarining sinfdoshlari bilan munosabatini o’rtacha deb baholashi, doimiy “yangi boshlash” holati tufayli chuqur va barqaror munosabatlar o‘rnatish imkoniyatining cheklanganligi bilan izohlanadi. Bu holat esa o‘z-o‘zidan ijtimoiy yolg‘izlik xavfini oshiradi deya olamiz.

Jadval-7.

Do‘stlar soni bo‘yicha ishonchli farqlar (N=73).

		Yangi maktabda do‘stlaringiz soni			Jami	Xi-kvadrat	P
		Ko‘p	O‘rtacha	Kam			
Ota-	Harbiy oila	3	20	14	37	14,038(a)	0,001***

onangizni ish faoliyati	Harbiy bo‘lmagan oila	17	11	8	36		
Jami		20	31	22	73		

7-jadval natijalar tahliliga diqqat bilan razm solinsa, “Yangi maktabda do‘stalaringiz soni” ko‘rsatkichi bo‘yicha ishonch darajasidagi tafovvutlar aniqlandi (χ^2=14,038, p<0,001). Harbiy oila bolalarining 37,8% (14 nafar) do‘stlar soni “kam” deb baholagan bo‘lsa, oddiy fuqarolik oila bolalarida bu ko‘rsatkich faqat 22,2% (8 nafar) ni tashkil qildi. Aksincha, harbiy bo‘lmagan oila bolalarining 47,2% (17 nafar) do‘stlar soni “ko‘p” deb baholagan. Natijalar tahliliga ko‘ra harbiy oila bolalarining do‘stlar sonining kamligi ijtimoiy aloqalar doirasining torayotgani bilan izohlanishi mumkin. Bu esa bolalarning emotsional qo‘llab-quvvatlash manbalarini qisqartiradi va chidamliligini pasaytirishi mumkin.

Jadval-8.

Jamoat tadbirlarida ishtirok etishi bo‘yicha ishonchli farqlar (N=73).

		Jamoaviy tadbirlarda ishtirok etasizmi?			Jami	Xi-kvadrat	P
		Faol	Ba’zan	Kam			
Ota-onangizni ish faoliyati	Harbiy oila	10	25	2	37	9,369(a)	0,009**
	Harbiy bo‘lmagan oila	11	14	11	36		
Jami		21	39	13	73		

8-jadval natijalariga ko‘ra “Jamoaviy tadbirlarda ishtirok etasizmi?” ko‘rsatkichi bo‘yicha ishonch darajasidagi tafovvutlar aniqlandi (χ^2=9,369, p<0,01). Harbiy oila bolalarining 67,6% (25 nafar) jamoaviy tadbirlarda “ba’zan” ishtirok etishini qayd etgan bo‘lsa, harbiy bo‘lmagan oilalarida bu ko‘rsatkich 38,9% (14 nafar) ni tashkil etdi. Aksincha, harbiy bo‘lmagan oila bolalarining 30,6% (11 nafar) “kam” ishtirok etishini bildirgan. Harbiy oila bolalarining harbiy bo‘lmagan oila bolalariga qaraganda jamoaviy tadbirlarga kam ishtirok etishi, guruhga qo‘shilish va jamoaviy faollik ko‘nikmalarining yetarli emasligi ifodalaniladi.

Jadval-9.

Muammo orqali murojaat qilish bo‘yicha ishonchli farqlar (N=73).

		Muammo bo‘lganda kimga murojaat qilasiz?				Jami	Xi-kvadrat	p
		Ota-onam	Qarindoshlarim	Do‘stlarim	Hech kim			
Ota-onangizni ish faoliyati	Harbiy oila	32	0	1	4	37	7,861(a)	0,049*
	Harbiy bo‘lmagan oila	21	1	5	9	36		
Jami		53	1	6	13	73		

9-jadval natijalariga ko‘ra “Muammo bo‘lganda kimga murojaat qilasiz?” ko‘rsatkichi bo‘yicha ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi (χ^2=7,861, p<0,05). Harbiy oila bolalarining 86,5% (32 nafar) muammo bo‘lganida birinchi navbatda ota-onasiga murojaati qayd etilgan bo‘lsa, harbiy bo‘lmagan oila bolalarida bu ko‘rsatkich 58,3% (21 nafar) ni tashkil etdi. Aksincha, harbiy bo‘lmagan oila bolalarining 25,0% (9 nafar) “hech kimga” murojaat qilmasligini bildirgan. Harbiy oila bolalarining muammo paytida faqat ota-onasiga murojaat qilishi, oiladan tashqari ijtimoiy

qo‘llab-quvvatlash manbalarining cheklanganligi bilan izohlash mumkin. Bu esa kelajakda bolalarda mustaqil muammo yechish qobiliyatini rivojlanishiga xalaqit beradi.

Guruhlar o‘rtasida quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik jihatdan ishonchli farq aniqlanmadi: yangi maktabga moslashish (χ^2 = 5,671, p>0,05), o‘zingizni jamoa a’zosi his qilish (χ^2 = 5,205, p>0,05), tengdoshlar bilan nizolashish (χ^2 = 5,161, p>0,05), ota-onadan uzoqda bo‘lganda sog‘inish (χ^2 = 1,687, p>0,05), o‘zingizni yolg‘iz his qilish (χ^2 = 4,352, p>0,05), ota-ona yo‘qligida kayfiyat (χ^2 = 3,809, p>0,05), o‘zingizni ishonchli his qilish (χ^2 = 4,697, p>0,05), ota-ona bilan muloqot (χ^2 = 1,194, p>0,05), hissiy qo‘llab-quvvatlash manbai (χ^2 = 7,020, p>0,05), ota-ona kasbidan faxrlanish (χ^2 = 4,333, p>0,05) hamda oiladan qoniqish (χ^2 = 3,246, p>0,05). Bu respondentlar sonining cheklanganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari harbiy oila bolalari harbiy bo‘lmagan oila bolalariga nisbatan ijtimoiy-psixologik moslashuvining bir qator muhim ko‘rsatkichlarida statistik jihatdan sezilarli farq ko‘rsatishini tasdiqladi. Bu farqlar asosan oilaviy beqarorlik, tez-tez ko‘chib yurish va ota-ona ishtirokining pastligi bilan bog‘liq bo‘lib, xalqaro adabiyotarda qayd etilgan natijalarga mos keladi.

Eng kuchli farq ota onaning ishi sabab uyda bo‘lmasligi ko‘rsatkichida kuzatildi. Harbiy oila bolalarining 64,9% ota-onasi “tez-tez” uyda bo‘lmasligini bildirgan. Bu natija Cunitz va hamkasblari [5] meta-tahlili va Opie va hamkasblari [11] tezkor sharhida qayd etilgan deployment va oilaviy stress ta’sirini tasdiqlaydi. Harbiy oilalarda ota-ona uzoqda bo‘lishi bolalarning xavfsizlik hissi va emotsional qo‘llab quvvatlashini pasaytiradi.

Yashash joyi va maktabni tez-tez o‘zgartirish harbiy oila bolalarida sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Bu ko‘rsatkichlar Kumari, Bhatia va Rai [9] tadqiqotda ham harbiy oila bolalarining ijtimoiy moslashuvida asosiy omil sifatida ko‘rsatilgan. Tez-tez ko‘chish bolalarning do‘stlik munosabatlarini uzib qo‘yadi va yangi muhitga moslashishini qiyinlashtiradi. Yangi sinfda do‘st orttirish sinfdoshlar bilan munosabati va do‘stlar soni ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham harbiy oila bolalari pastroq natija ko‘rsatdi. Bu natijalar Wargo Aikins va hamkasblari [14] tadqiqotida keltirilgan “yuqori xavf harbiy oilalar” dagi moslashuv muammolariga mos keladi. Jamoviy tadbirlarda ishtirok etish va muammo bo‘lganda ota-onaga murojaat qilish ko‘rsatkichlaridagi farqlar ham harbiy oila bolalarining ijtimoiy izolatsiyasi va oilaviy bog‘liqlikning kuchayishi bilan izohlanishi mumkin. Biroq, tadqiqotda ko‘rsatilgan ba’zi ko‘rsatkichlar (yangi maktabga moslashish, o‘zingizni jamoa a’zosi his qilish, tengdoshlar bilan nizolashish, sog‘inish, yolg‘izlik, kayfiyat, ishonchlilik, muloqot, qo‘llab-quvvatlash, faxrlanish va oiladan qoniqish) bo‘yicha statistik jihatdan ishonchli farq aniqlanmadi (p>0,05). Bu holat O‘zbekiston kontekstida madaniy omillar (oilaviy qadriyatlarning kuchliligi) yoki namunalar hajmining cheklanganligi bilan izohlanishi mumkin. Natijalar umumiy jihatdan xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi va harbiy oila bolalarining ijtimoiy moslashuvida relocation, deployment va ota-ona ishtirokining pastligi asosiy omil ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Ushbu tadqiqot harbiy oila bolalari va harbiy bo‘lmagan oila bolalariga nisbatan ijtimoiy-psixologik moslashuvining bir qator muhim ko‘rsatkichlarida statistik jihatdan sezilarli farqlar ko‘rsatishini tasdiqladi. Eng kuchli farqlar ota-onaning uyda bo‘lmasligi, yashash joyi va maktabni tez-tez o‘zgartirish, yangi sinfda do‘st orttirish, sinfdoshlar bilan munosabat va jamoviy tadbirlarda ishtirok etish ko‘rsatkichlarida kuzatildi. Bu natijalar harbiy oila bolalarining ijtimoiy moslashuvida oilaviy beqarorlik va ko‘chish omillarining katta ta’sirini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yolg‘izlik, kayfiyat va o‘zini ishonchli his qilish kabi ba’zi ko‘rsatkichlarda farq aniqlanmadi.

Tavsiyalar:

Maktablar uchun: Harbiy oila bolalari uchun maxsus moslashuv dasturlarini joriy etish (yangi sinfga kirishda psixologik qo‘llab-quvvatlash, do‘stlik klublari tashkil etish).

Harbiy qismlar uchun: Ota-onalar uzoqda bo‘lganda bolalar bilan muntazam onlayn aloqa va oilaviy maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish.

Ota-onalar uchun: Bolalarning tez-tez ko‘chishi va yangi muhitga moslashishini yumshatish uchun oilaviy tayyorgarlik darslarini o‘tkazish.

Davlat darajasida: Harbiy oilalar farzandlari uchun maktab psixologlari sonini ko‘paytirish va ijtimoiy moslashuv bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqish.

Kelajak tadqiqotlar uchun: Kattaroq namuna va longitudinal dizayn bilan chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida: Qaror, 12.09.2019. – URL: https://lex.uz/docs/-4513434

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida: PF-27-son Farmon, 28.02.2023. – URL: https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bilan ishlash tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”: 590-son Qaror, 13.10.2022. – URL: https://lex.uz/docs/-6234945

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”: PF-34-son Farmon, 13.03.2023. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-6405725

5. Cunitz K., Dölitzsch C., Kösters M., Willmund G.D., Zimmermann P., Bühler A.H., Fegert J.M., Ziegenhain U., Kölch M. Parental military deployment as risk factor for children's mental health: A meta-analytical review // Child and Adolescent Psychiatry and Mental Health. – 2019. – Vol. 13. – Article 26. – DOI: 10.1186/s13034-019-0287-y.

6. Ibragimova X. Harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyati va ularning oila a’zolarining ijtimoiy moslashuv omillari // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – No. 4. – B. 547–548. – URL: https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/296

7. Hashimova I. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va kafolatlari // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila xalqaro ilmiy jurnali. – 2025. – B. 32–36. – DOI: 10.65185/mojgo.vi.127.

8. Rejametova I. Harbiy xizmatchilarning oilasini harbiy muhitga moslashuvining ijtimoiy-psixologik omillari // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – T. 3. – No. 5. – B. 11–15. – DOI: 10.5281/zenodo.15553420.

9. Kumari J., Bhatia S., Rai A. Parenting, resilience, and wellbeing: A comparative study of children from military and civilian families // The International Journal of Indian Psychology. – 2025. – Vol. 13. – No. 2. – P. 4415–4431. – DOI: 10.25215/1302.392.

10. Loktayeva S.A. Spetsifika proyavleniya lichnostnykh svoystv detey v sem'yakh professional'nykh voennosluzhashchikh: dis. … kand. psikhol. nauk. – Moskva: Rossiyskiy universitet druzhby narodov, 2011. – 27 s.

11. Opie J.E., Hameed M., Vuong A., Painter F., Booth A.T., Jiang H., Dowling R., Boh J., McLean N., McIntosh J.E. Children’s social, emotional, and behavioral outcomes in military families: A rapid review // Journal of Child and Family Studies. – 2024. – Vol. 33. – No. 6. – P. 1949–1967. – DOI: 10.1007/s10826-024-02856-5.12.

Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi
Termiz davlat pedagogika institute Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti o‘qituvchisi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning didaktik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi ta’lim mazmuni, shakli va metodlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalarning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilish, solishtirish, dalillash, muammoli vaziyatlarga nisbatan asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Maqolada tanqidiy fikrlashning mohiyati, uning tarkibiy komponentlari, raqamli ta’lim muhiti imkoniyatlari va ushbu jarayonda qo‘llaniladigan didaktik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlar, raqamli platformalar, multimediya vositalari, muammoli topshiriqlar, loyiha asosida o‘qitish va refleksiv faoliyat orqali talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali yo‘llari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim muhiti, tanqidiy fikrlash, didaktik asoslar, interfaol metodlar, mustaqil ta’lim, refleksiya, axborot tahlili, innovatsion pedagogika, raqamli texnologiyalar, muammoli ta’lim.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Аннотация. *В данной статье анализируются дидактические основы развития критического мышления у студентов в условиях цифровой образовательной среды. В современной системе образования широкое внедрение информационно-коммуникационных технологий оказывает существенное влияние на содержание, формы и методы обучения. В этой связи формирование у студентов навыков самостоятельного мышления, анализа информации, сопоставления фактов, аргументации и принятия обоснованных решений в проблемных ситуациях становится одной из важнейших педагогических задач. В статье раскрываются сущность критического мышления, его структурные компоненты, возможности цифровой образовательной среды, а также дидактические подходы к организации данного процесса. Кроме того, обосновываются эффективные пути развития критического мышления у студентов посредством интерактивных методов, цифровых платформ, мультимедийных средств, проблемных заданий, проектного обучения и рефлексивной деятельности.*

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, критическое мышление, дидактические основы, интерактивные методы, самостоятельное обучение, рефлексия, анализ информации, инновационная педагогика, цифровые технологии, проблемное обучение.*

DIDACTIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN STUDENTS WITHIN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

Abstract. *This article analyzes the didactic foundations for developing critical thinking in students within a digital learning environment. In the modern education system, the widespread integration of information and communication technologies has significantly influenced the content, forms, and methods of teaching. From this perspective, fostering students’ independent thinking, ability to analyze information, compare facts, provide arguments, and make well-grounded decisions in problematic situations has become an important pedagogical task. The article discusses the essence of critical thinking, its structural components, the opportunities provided by the*

digital learning environment, and the didactic approaches used in this process. It also substantiates effective ways of developing students' critical thinking through interactive methods, digital platforms, multimedia tools, problem-based tasks, project-based learning, and reflective activity.

***Key words**: digital learning environment, critical thinking, didactic foundations, interactive methods, independent learning, reflection, information analysis, innovative pedagogy, digital technologies, problem-based learning.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi ta'lim tizimiga ham tub o'zgarishlar olib kirmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim resurslari, onlayn platformalar, virtual muloqot vositalari va multimedia imkoniyatlarining keng qo'llanilishi ta'lim mazmuni, metodlari hamda o'qitish shakllarini yangicha yondashuv asosida tashkil etishni talab etmoqda. Raqamli ta'lim muhiti nafaqat axborotni tezkor yetkazish va o'zlashtirish imkonini beradi, balki talabalarning mustaqil ishlashi, izlanishi, axborotni saralashi, tahlil qilishi va unga nisbatan ongli munosabat bildirishini ham taqozo etadi. Shu jihatdan qaraganda, zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Tanqidiy fikrlash bugungi globallashuv, axborot oqimining nihoyatda kuchayishi va turli manbalardan kelayotgan ma'lumotlarning keskin ortib borishi sharoitida shaxsning muhim intellektual sifatlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki har qanday axborotni tayyor holatda qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, ishonchliligini tekshirish, dalillarni taqqoslash, muqobil nuqtayi nazarlarni ko'rib chiqish va asosli xulosa chiqarish zamonaviy mutaxassisdan talab etiladigan zarur kompetensiyalardan biridir. Ayniqsa, talaba yoshlarning mustaqil qaror qabul qilishi, muammoli vaziyatlarga nisbatan oqilona yondashishi, ilmiy va amaliy masalalarni asosli hal qila olishi ko'p jihatdan ularning tanqidiy fikrlash darajasiga bog'liqdir. Demak, raqamli ta'lim muhitida ta'lim jarayonini tashkil etishda faqat texnologik vositalarni joriy etishning o'zi yetarli emas, balki ular yordamida talabalarning tahliliy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish ham muhimdir.

Raqamli ta'lim muhiti o'zining interaktivligi, moslashuvchanligi, ko'rgazmaliligi va axborotga boyligi bilan an'anaviy ta'lim shakllaridan farq qiladi. Bunday muhitda talaba bir vaqtning o'zida ko'plab ma'lumot manbalari bilan ishlaydi, elektron matnlar, videodarslar, audioresurslar, taqdimotlar, onlayn testlar, forumlar va masofaviy muloqot platformalari orqali bilim oladi. Bu esa, bir tomondan, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, talabadan axborotni tanlash, qayta ishlash, tahlil qilish va baholash kabi murakkab aqliy operatsiyalarni talab etadi. Shu sababli raqamli ta'lim muhiti talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay pedagogik maydon bo'lib xizmat qilishi mumkin. Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish didaktik jihatdan puxta asoslangan yondashuvni talab qiladi.

Didaktik nuqtayi nazardan qaralganda, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va natijalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asosida amalga oshiriladi. Talabalarni tayyor bilimlarni passiv o'zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki bilimni izlovchi, tahlil qiluvchi, savol qo'yuvchi, dalillovchi va xulosa chiqaruvchi faol ishtirokchi sifatida shakllantirish zamonaviy didaktikaning ustuvor talablaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli ta'lim muhitida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda pedagogika, psixologiya, didaktika va axborot texnologiyalari yo'nalishlaridagi tadqiqotlarning muhim obyektiga aylangan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash tushunchasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan shaxsning axborotni ongli ravishda qabul qilish, tahlil etish, baholash, dalillash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuvlar orasida tanqidiy fikrlashning nafaqat intellektual faoliyat mahsuli, balki shaxsning refleksiv, mantiqiy va ijodiy yondashuvga asoslangan kompetensiyasi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Pedagogik manbalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, avvalo, ta'lim jarayonining mazmuni va metodlarini takomillashtirish bilan bog'liq holda o'rganiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, tanqidiy fikrlash tayyor bilimlarni yod olish orqali emas, balki muammoli vaziyatlarni hal etish,

savol qo‘yish, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash, dalillarni tahlil qilish va asoslangan qarorga kelish jarayonida shakllanadi. Shu jihatdan, ta’lim jarayonida interfaol metodlar, muammoli ta’lim, munozara, debat, loyiha ishlari, tahliliy topshiriqlar va refleksiv faoliyatning o‘rni yuqori baholanadi. Ayniqsa, talabaning bilim oluvchi obyekt emas, balki o‘quv jarayonining faol subyekti sifatida qaralishi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi.

Raqamli ta’lim muhiti bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim sifatiga, bilish faolligiga va mustaqil o‘qish jarayoniga ta’siri keng tahlil qilingan. Ko‘pgina olimlar raqamli ta’lim muhitini faqat texnologik vositalar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘qituvchi, talaba, axborot resurslari, interaktiv platformalar va kommunikativ aloqalarni o‘z ichiga olgan yaxlit didaktik tizim sifatida baholaydilar. Bunday muhitda ta’lim oluvchi ko‘plab manbalar bilan ishlash, turli formatdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va o‘z bilimini mustaqil ravishda boyitish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Tahlil va natijalar. Raqamli ta’lim muhitida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayon ta’limning mazmuni, metodlari, vositalari va o‘qituvchi faoliyatining o‘zaro uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy oliy ta’lim amaliyotida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi natijasida talabaning axborot bilan ishlash imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Endilikda talaba faqat auditoriya mashg‘ulotlari bilan cheklanib qolmay, balki elektron darsliklar, videoma’ruzalar, onlayn platformalar, virtual kutubxonalar, forumlar va masofaviy ta’lim tizimlari orqali bilimlarni mustaqil ravishda egallash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Biroq axborot hajmining ortishi, manbalar xilma-xilligi va ma’lumotlarning tez yangilanib borishi talabalardan ularni tanlash, saralash, tekshirish va baholash ko‘nikmalarini ham talab qiladi. Shu jihatdan raqamli ta’lim muhiti tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay didaktik asos yaratadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlashning shakllanishi, avvalo, talabaning axborotni passiv qabul qilishi emas, balki unga faol munosabat bildirishiga bog‘liq. Raqamli muhitda talaba turli manbalarni solishtiradi, bir xil muammo yuzasidan turli nuqtayi nazarlarni ko‘rib chiqadi, fakt va fikrni farqlashga harakat qiladi, dalillarning ishonchliligini tekshiradi hamda shaxsiy xulosasini shakllantiradi. Bu jarayon esa tanqidiy fikrlashning tahliliy, mantiqiy, refleksiv va baholovchi komponentlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, elektron forumlar, onlayn munozaralar, muammoli vazifalar, loyiha ishlari va keys-topshiriqlar talabaning fikrini asoslab berish, qarama-qarshi pozitsiyalarni tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli ta’lim muhitining imkoniyatlari tahlil qilinganda, uning bir necha didaktik ustunliklari kuzatiladi. Birinchidan, axborotning ko‘rgazmali va multimediya shaklida taqdim etilishi talabaning bilish faolligini oshiradi. Ikkinchidan, interaktiv platformalar talabaning o‘quv jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi, ya’ni u faqat tinglovchi emas, balki savol beruvchi, muhokama qiluvchi, tahlil etuvchi subyektga aylanadi. Uchinchidan, raqamli vositalar ta’limni individuallashtirish imkonini beradi, bunda har bir talaba materialni o‘z sur’atida o‘zlashtiradi va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. To‘rtinchidan, raqamli muhit refleksiv faoliyat uchun qulay sharoit yaratadi, chunki talaba o‘z javoblarini qayta ko‘rib chiqishi, tahrirlashi, muhokama natijalarini baholashi va mustaqil xulosaga kelishi mumkin. Mazkur imkoniyatlar tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim natijador omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil davomida shu narsa ham aniqlandiki, raqamli ta’lim muhitining o‘zi avtomatik tarzda tanqidiy fikrlashni rivojlantirib yubormaydi. Uning samaradorligi, asosan, o‘qituvchining didaktik yondashuvi va ta’lim jarayonini qanday loyihalashiga bog‘liq. Agar o‘qituvchi raqamli vositalardan faqat tayyor ma’lumotni uzatish yoki nazorat topshiriqlarini bajarish vositasi sifatida foydalansa, talabada chuqur tahliliy fikrlash yetarli darajada shakllanmaydi. Aksincha, muammoli savollar, bahsli vaziyatlar, ochiq topshiriqlar, mustaqil izlanishga yo‘naltirilgan faoliyat va refleksiv tahlil bilan uyg‘unlashtirilgan raqamli muhit talabada tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi. Demak, texnologiyaning ta’limiy natijasi uning metodik asosda qo‘llanilishiga bog‘liq.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitidan maqsadli foydalanish talabalarda bir qator muhim sifat va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Jumladan, talabalarda axborotni tanlab olish, manbalarni solishtirish, muayyan fikrga dalil keltirish, muammoga turli yondashuvlar asosida qarash, noto‘g‘ri yoki ishonchsiz ma’lumotlarni aniqlash, o‘z fikrini asosli bayon etish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Shu bilan birga, talabaning o‘quv jarayonidagi faolligi, mustaqil ishlashga bo‘lgan mas’uliyati va o‘z bilimini nazorat qilish darajasi ham ortadi. Bu esa raqamli muhitning nafaqat axborot uzatish, balki shaxsiy-intellektual rivojlanishni ta’minlovchi didaktik vosita ekanini tasdiqlaydi.

Muhokama. Raqamli ta’lim muhitida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida talaba faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi emas, balki turli manbalardan olingan ma’lumotlarni tahlil qiluvchi, ularning ishonchliligini tekshiruvchi, muammoli vaziyatlarga nisbatan mustaqil munosabat bildiruvchi faol shaxs bo‘lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, raqamli ta’lim muhiti tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, biroq ushbu imkoniyatlarning samaradorligi ularni didaktik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liqdir.

Muhokama jarayonida shuni alohida ta’kidlash lozimki, tanqidiy fikrlash raqamli muhitning tabiiy natijasi emas, balki maqsadli didaktik faoliyat mahsulidir. Ya’ni texnologiya o‘z-o‘zidan yuqori natija bermaydi. O‘qituvchi mazkur muhitni pedagogik maqsadga muvofiq tarzda loyihalashi, ta’lim jarayonida tahlil, baholash va refleksiyani talab qiluvchi vazifalarni muntazam qo‘llashi zarur. Shunday qilinmaganda, talaba ko‘p sonli raqamli manbalardan foydalanayotgan bo‘lsa-da, ularni tanqidiy baholamasdan, yuzaki qabul qilish holati kuzatilishi mumkin. Bu esa tanqidiy fikrlash emas, aksincha, tayyor axborotga qaramlikni kuchaytiradi.

Raqamli ta’lim muhiti talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, u axborot manbalarining xilma-xilligini ta’minlaydi. Talaba bir mavzu bo‘yicha turli mualliflar, turli nuqtayi nazarlar va turli formatdagi ma’lumotlar bilan tanishadi. Bu esa unda biryoqlama emas, ko‘p tomonlama tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Ikkinchidan, raqamli muhitda interaktiv aloqa mavjud bo‘lib, talaba o‘z fikrini onlayn muhokamalarda ifoda etadi, boshqalarning qarashlari bilan tanishadi va ularga munosabat bildiradi. Uchinchidan, bunday muhit talabaning mustaqil ishlash sur’atini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa uning individual intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. To‘rtinchidan, elektron resurslar va platformalar refleksiv jarayonni kuchaytiradi, chunki talaba o‘z javoblarini qayta ko‘rib chiqish, tahrirlash, xatolar ustida ishlash va o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga, raqamli ta’lim muhitida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida ayrim muammolar ham kuzatiladi. Xususan, axborotning haddan tashqari ko‘pligi talabaning chalg‘ishiga, ishonchli va ishonchsiz manbalarni farqlashda qiyinchilikka duch kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim hollarda talabalar internet manbalaridagi tayyor javoblarga haddan tashqari tayanib, mustaqil tahlil qilishga yetarli darajada intilmaydilar. Bu holat, ayniqsa, o‘quv topshiriqlari ijodiy va muammoli xarakterga ega bo‘lmagan hollarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Demak, raqamli ta’lim muhitining salbiy ta’sirlarini kamaytirish uchun o‘qituvchi talabalarda axborot madaniyati, media savodxonlik va manbalarni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini ham bir vaqtda shakllantirishi lozim.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining roli alohida o‘rin tutadi. O‘qituvchi raqamli texnologiyalarni faqat texnik vosita sifatida emas, balki didaktik imkoniyat sifatida ko‘ra olishi kerak. Ya’ni u o‘quv topshiriqlarini shunday tuzishi zarurki, talaba tayyor ma’lumotni takrorlamasin, balki u bilan ishlasin, tahlil qilsin, savol qo‘ysin, asosli javob bersin va muammoga nisbatan o‘z pozitsiyasini shakllantirsin. Masalan, muayyan mavzu bo‘yicha ikki xil manbani solishtirish, bahsli fikrlarni dalillar asosida tahlil qilish, muammoga yechim taklif etish, loyiha natijalarini himoya qilish kabi topshiriqlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bu o‘rinda o‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, motivator va ta’limiy muloqotni boshqaruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim muhitida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim didaktik vazifalaridan biridir. Chunki raqamli makonda axborot oqimining nihoyatda kengayishi, turli manbalarning ko'payishi va ma'lumotlarning tez yangilanib borishi talabalardan axborotni shunchaki qabul qilishni emas, balki uni tahlil qilish, baholash, solishtirish va asosli xulosa chiqarishni talab etadi. Shu bois tanqidiy fikrlash bugungi kunda talabaning nafaqat akademik muvaffaqiyatini, balki uning kelajak kasbiy faoliyatdagi samaradorligini belgilovchi muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhiti tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun katta didaktik imkoniyatlarga ega. Xususan, interaktiv platformalar, elektron resurslar, onlayn munozaralar, loyiha ishlari, muammoli topshiriqlar va refleksiv faoliyatlar talabalarning mustaqil fikrlashi, dalillarga asoslangan qaror qabul qilishi hamda axborotga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq ushbu imkoniyatlar o'z-o'zidan natija bermaydi. Ularning samaradorligi, eng avvalo, o'qituvchining kasbiy mahorati, ta'lim jarayonini to'g'ri loyihalashi va raqamli vositalardan didaktik maqsad asosida foydalanishiga bog'liq.

Shuningdek, tadqiqot davomida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta'lim, interfaol metodlar, mustaqil izlanish, bahs-munozara va refleksiyaning o'rni alohida ahamiyatga ega ekani aniqlandi. Aynan shu metodlar talabaning tayyor bilimni takrorlash bilan cheklanib qolmasdan, muammoni ko'ra olish, turli yondashuvlarni taqqoslash, o'z fikrini asoslash va xulosalarini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada talaba ta'lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol, izlanadigan va tahliliy fikrlaydigan subyektga aylanadi.

Demak, raqamli ta'lim muhitida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning didaktik asoslari ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va pedagogik shart-sharoitlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar bilan bir qatorda media savodxonlik, axborot madaniyati, mustaqil ta'lim va refleksiv yondashuvni ham shakllantirish zarur. Faqat shundagina raqamli ta'lim muhiti talabaning intellektual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqaruvchi, uning tahliliy tafakkuri va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi samarali didaktik tizimga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida: O'RQ-637-son Qonun, 23.09.2020. – URL: https://lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF-6079-son Farmon, 05.10.2020. – URL: https://lex.uz

3. Facione P.A. Critical thinking: What it is and why it counts. – 2023 update. – Insight Assessment, 2023.

4. Paul R., Elder L. The miniature guide to critical thinking: Concepts and tools. – Dillon: Foundation for Critical Thinking.

5. Halpern D.F. Critical thinking across the curriculum: A brief edition of Thought & Knowledge. – New York: Routledge, 2014.

6. OECD. The future of education and skills: Education 2030. – Paris: OECD Publishing.

7. OECD. OECD digital education outlook 2026: Exploring effective uses of generative AI in education. – Paris: OECD Publishing, 2026.

8. UNESCO. AI and technologies in education [Электронный ресурс]. – URL: https://unesco.org

9. UNESCO. Think critically, click wisely! Media and information literacy curriculum for educators and learners. – Paris: UNESCO, 2023.

10. Law N., Woo D., de la Torre J., Wong G. A global framework of reference on digital literacy skills for indicator 4.4.2. – Montreal: UNESCO Institute for Statistics, 2018.

Jumayeva Maxbuba O‘ktam qizi
Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH TUZILMASI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirish tuzilmasi hamda uning o‘ziga xos xususiyatlari nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, o‘quv-bilish faoliyatining tarkibiy qismlari, motivatsion, mazmuniy, amaliy va refleksiv jihatlari tahlil qilingan. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv-bilish faoliyatini samarali shakllantirish usullari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash, bilishga qiziqish va ta’lim jarayonida faol ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishda mazkur faoliyat tuzilmasining muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘quv-bilish faoliyati, boshlang‘ich ta’lim, faoliyat tuzilmasi, motivatsiya, bilish jarayoni, mustaqil fikrlash, refleksiya, ta’lim samaradorligi.*

СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И ЕЁ СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты структуры формирования учебно-познавательной деятельности у учащихся начальных классов, а также её специфические особенности. Также анализируются структурные компоненты учебно-познавательной деятельности, её мотивационные, содержательные, практические и рефлексивные аспекты. Рассмотрены эффективные методы формирования учебно-познавательной деятельности с учётом возрастных и индивидуальных особенностей учащихся в процессе начального образования. Результаты исследования показывают, что данная структура имеет важное значение в развитии самостоятельного мышления, познавательного интереса и активного участия младших школьников в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *учебно-познавательная деятельность, начальное образование, структура деятельности, мотивация, познавательный процесс, самостоятельное мышление, рефлексия, эффективность образования.*

THE STRUCTURE OF FORMING EDUCATIONAL AND COGNITIVE ACTIVITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS AND ITS SPECIFIC FEATURES

Abstract. *This article highlights the theoretical and practical aspects of the structure of forming educational and cognitive activity in primary school students, as well as its specific features. It also analyzes the structural components of educational and cognitive activity, including motivational, content-based, practical, and reflective aspects. Effective ways of developing educational and cognitive activity in primary education are considered with regard to the age and individual characteristics of learners. The research results show that this structure plays an important role in developing independent thinking, cognitive interest, and active participation of primary school students in the educational process.*

Key words: *educational and cognitive activity, primary education, activity structure, motivation, cognitive process, independent thinking, reflection, educational effectiveness.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish hamda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va bilimlarni ongli o‘zlashtirish

ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning bilishga bo‘lgan qiziqishi, o‘quv faoliyatiga munosabati va intellektual rivojlanishining poydevori qo‘yiladigan muhim davrdir. Shu bois mazkur bosqichda o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, uning tuzilmasini ilmiy asosda yoritish va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘quv-bilish faoliyati o‘quvchining bilimlarni egallashga qaratilgan ongli, maqsadli va faol jarayoni bo‘lib, unda bilish ehtiyoji, qiziqish, idrok, tafakkur, xotira, diqqat, amaliy harakat va o‘zini nazorat qilish kabi psixologik-pedagogik omillar o‘zaro uyg‘unlashadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ushbu faoliyatning samarali shakllanishi nafaqat dars jarayonining mazmuni va metodlariga, balki o‘quvchilarning yosh, individual va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishga ham bevosita bog‘liqdir. Chunki bu yosh davrida bolalarda qiziqishning barqaror emasligi, emotsional ta’sirchanlik, taqlidga moyillik, obrazli tafakkurning ustunligi hamda o‘yin elementlari orqali o‘rganishga ehtiyoj kuchli bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim amaliyotida o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirish ko‘pincha faqat bilim berish jarayoni sifatida talqin etiladi. Holbuki, ushbu faoliyat murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, u motivatsion, mazmuniy, operatsion-amaliy va refleksiv komponentlardan tashkil topadi. Mazkur komponentlarning har biri o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faolligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Xususan, motivatsion komponent o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyojini yuzaga keltirsa, mazmuniy komponent bilim, tushuncha va tasavvurlarni o‘zlashtirishni ifodalaydi. Operatsion-amaliy komponent o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkonini bersa, refleksiv komponent o‘quvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishi, baholashi va takomillashtirishiga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida o‘quvchini ta’lim jarayonining passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini chuqur tadqiq etishni talab etadi. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar sharoitida o‘quv-bilish faoliyatining tuzilmasi va unga xos jihatlarni aniqlash pedagogik nazariya hamda amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirish tuzilmasi, uning asosiy tarkibiy qismlari hamda mazkur jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi pedagogik omillar yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur muammo yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda o‘quv faoliyatining mazmuni, tuzilishi, shakllanish bosqichlari hamda unga ta’sir etuvchi omillar turli nuqtayi nazardan yoritilgan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchining bilishga bo‘lgan ehtiyoji, aqliy faolligi, mustaqil fikrlashi va o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonidagi ongli ishtiroki alohida ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi.

Pedagogik manbalarda o‘quv-bilish faoliyati o‘quvchining bilimlarni egallash, ularni anglash, qayta ishlash va amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan faol jarayon sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilar ushbu faoliyatning samaradorligi o‘quvchining ichki motivatsiyasi, ta’lim mazmunining tushunarliligi, o‘qitish metodlarining mosligi va o‘quv muhitining qulayligi bilan chambarchas bog‘liq ekanini qayd etadilar. Shu bilan birga, boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda obrazli tafakkur, emotsional ta’sirchanlik, qiziqishga asoslangan o‘rganish va taqlid qilish xususiyatlari ustun bo‘lishi sababli o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirish o‘ziga xos yondashuvni talab etadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda o‘quv-bilish faoliyatining tarkibi ko‘pincha motivatsion, mazmuniy, operatsion va refleksiv komponentlar asosida izohlanadi. Motivatsion komponent

o‘quvchining bilim olishga ichki intilishi va qiziqishini ifodalasa, mazmuniy komponent ta’lim mazmunini anglash va tushunishni aks ettiradi. Operatsion komponent bilimlarni egallash usullari, topshiriqlarni bajarish malakalari va amaliy harakatlarni qamrab oladi. Refleksiv komponent esa o‘quvchining o‘z faoliyatini nazorat qilishi, natijalarni baholashi va xatolar ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda boshlang‘ich ta’limda o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, didaktik o‘yinlar, integratsiyalashgan topshiriqlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning samarali vosita ekani ko‘rsatib o‘tiladi. Bu esa o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirish jarayoniga faqat bilim berish nuqtayi nazaridan emas, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, bilish qobiliyati va ta’limdagi faolligini ta’minlovchi yaxlit tizim sifatida qarash zarurligini anglatadi.

Muhokama. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirish bugungi pedagogika fanining eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Chunki aynan shu davrda bolaning ta’limga bo‘lgan munosabati, bilim olishga qiziqishi, mustaqil fikrlash ko‘nikmasi va aqliy faoliyat usullari shakllana boshlaydi. Mazkur jarayon murakkab, ko‘p bosqichli va ko‘p omilli bo‘lib, unda psixologik, didaktik, metodik hamda ijtimoiy omillar o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. O‘quv-bilish faoliyatining samarali tashkil etilishi o‘quvchining nafaqat dars mazmunini o‘zlashtirishiga, balki uning tafakkur faoliyati, muammoli vaziyatlarni hal etishi, kuzatish, solishtirish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi intellektual amallarni egallashiga ham xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quv-bilish faoliyatining o‘ziga xosligi shundaki, bu yoshdagi bolalarda bilish jarayoni bevosita qiziqish, emotsional ta’sirchanlik, ko‘rgazmalilik va faol amaliy harakatlar orqali rivojlanadi. Ular abstrakt tushunchalarni qabul qilishdan ko‘ra, konkret obrazlar, hayotiy misollar, kuzatish va o‘yin elementlari vositasida bilimni samaraliroq o‘zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, boshlang‘ich sinfda o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirish faqat ma’lumot berish bilan emas, balki o‘quvchini o‘ylashga, savol berishga, izlanishga va topilgan javobni asoslashga yo‘naltiruvchi ta’limiy muhitni yaratish bilan bog‘liqdir. Demak, o‘qituvchi bu jarayonda tayyor bilimni uzatuvchi emas, balki bilish faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur faoliyat tuzilmasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, uning markazida motivatsion komponent turadi. Chunki o‘quvchi faoliyatining ichki harakatlantiruvchi omili aynan qiziqish, ehtiyoj va maqsad bilan belgilanadi. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchisida o‘rganishga nisbatan ichki rag‘bat hosil qilinmasa, ta’lim jarayoni tashqi nazorat va majburiylik bilan cheklanib qoladi. Bu esa bilimlarning yuzaki o‘zlashtirilishiga olib keladi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda rag‘batlantirish, muvaffaqiyat vaziyatini yaratish, o‘quv materialini bolalar hayotiy tajribasiga bog‘lash, o‘yinli va interfaol topshiriqlardan foydalanish motivatsiyani kuchaytiruvchi muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. O‘quvchi o‘z faoliyati natijasini ko‘ra olganida, kichik yutuqlarini his qilganida va maqtov, qo‘llab-quvvatlashni sezganida uning bilishga bo‘lgan ichki intilishi yanada mustahkamlanadi.

O‘quv-bilish faoliyatining ikkinchi muhim tarkibiy qismi mazmuniy komponent bo‘lib, u o‘quv materialining mohiyatini anglash, tushunish va uni ongli ravishda qabul qilish jarayonini qamrab oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mazmunning sodda, aniq, izchil va yosh imkoniyatlariga mos bo‘lishi juda muhimdir. Agar o‘quv materiali murakkab, bolaning idrok qilish darajasidan yuqori yoki hayotiy tajribasidan uzoq bo‘lsa, bilish faolligi pasayadi. Aksincha, tushunarli, ko‘rgazmali, muammoli va amaliyot bilan bog‘langan mazmun bolada tafakkur faolligini uyg‘otadi. Shu sababli darslikdagi matnlar, mashqlar, savollar va topshiriqlar o‘quvchining yoshiga mos tanlanishi, bosqichma-bosqich murakkablashib borishi hamda uning mustaqil fikr yuritishiga imkon yaratishi lozim. Mazmuniy komponentning puxta shakllanishi o‘quvchida faqat eslab qolish emas, balki tushunib o‘zlashtirish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Operatsion-amaliy komponent esa o‘quvchining bilimni egallash va undan foydalanish usullarini ifodalaydi. Bu komponent doirasida o‘quvchi o‘qish, yozish, tinglash, kuzatish, tahlil qilish,

taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish, rejalashtirish va amaliy vazifalarni bajarish kabi faoliyat usullarini o‘zlashtiradi. Boshlang‘ich ta’limda aynan ushbu komponentning rivojlanishi keyingi ta’lim bosqichlari uchun tayanch vazifasini bajaradi. Chunki o‘quvchi qanday o‘rganishni bilsa, keyingi bosqichlarda yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, dars jarayonida reproduktiv mashqlardan tashqari, izlanishga undovchi topshiriqlar, mantiqiy savollar, muammoli vaziyatlar, juftlikda va guruhda ishlash, jadval, sxema va rasmlar bilan ishlash kabi usullardan foydalanish nihoyatda muhimdir. Bunday faoliyatlar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Refleksiv komponent ham o‘quv-bilish faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki ta’lim samaradorligi faqat topshiriqni bajarish bilan emas, balki o‘quvchining o‘z faoliyatiga baho bera olishi, xatosini anglay olishi, muvaffaqiyat va kamchilik sabablarini tushunishi bilan belgilanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida refleksiya oddiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: ular “Menga nima yoqdi?”, “Nimani yaxshi bajardim?”, “Qayerda qiynaldim?”, “Yana nimalarni bilishni istayman?” kabi savollar yordamida asta-sekin o‘z faoliyatini tahlil qilishni o‘rganadilar. O‘qituvchi refleksiv mashqlar, yakuniy suhbatlar, o‘z-o‘zini baholash elementlari va rag‘batlantiruvchi tahlil yordamida bu jarayonni rivojlantirishi mumkin. Natijada o‘quvchi o‘z bilish jarayonining faol nazoratchisiga aylanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirishda ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Ma’lumki, bu yoshda bolalarning diqqat barqarorligi yetarli darajada rivojlanmagan bo‘ladi, xotira ko‘proq obrazli xarakterga ega bo‘ladi, tafakkur esa konkret-amaliy va konkret-obrazli shakllarda namoyon bo‘ladi. Shu sababli darsning bir xil mazmunda uzoq davom etishi, faqat og‘zaki tushuntirishga asoslanishi yoki haddan tashqari murakkab topshiriqlarning berilishi bilish faolligini pasaytiradi. Aksincha, faoliyat turlarini almashtirib turish, ko‘rgazmali vositalardan foydalanish, jismoniy faollik elementlarini kiritish, didaktik o‘yinlar va interfaol metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini faollashtiradi. Individual yondashuv esa har bir bolaning tayyorgarlik darajasi, qiziqishi, fikrlash sur’ati va qobiliyatini hisobga olishni talab etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirish ta’lim jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchining intellektual rivojlanishi, mustaqil fikrlashi, bilimga qiziqishi va ta’limdagi faolligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Mazkur faoliyatning samarali shakllanishi uning tuzilmasini tashkil etuvchi motivatsion, mazmuniy, operatsion-amaliy va refleksiv komponentlarning o‘zaro uzviy bog‘liqlikda rivojlantirilishiga bog‘liq.

Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish, ta’lim mazmunini sodda, tushunarli va qiziqarli tashkil etish, interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar, muammoli topshiriqlar hamda ko‘rgazmali vositalardan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘qituvchining kasbiy mahorati, o‘quvchiga individual yondashuvi, rag‘batlantirishga asoslangan ijobiy psixologik muhit yaratishi bu jarayonning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Shuningdek, o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirish jarayoni faqat bilim berish bilan chegaralanmasdan, o‘quvchilarda kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish, o‘z fikrini erkin ifodalash va o‘z faoliyatini baholash kabi muhim bilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchi ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol, ongli va mustaqil subyektiga aylanadi.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirish tuzilmasi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularni pedagogik amaliyotga to‘g‘ri tatbiq etish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilish salohiyatini rivojlantirish hamda ularni keyingi bosqich ta’limiga puxta tayyorlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bois ushbu masala bo‘yicha ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish va amaliy metodik tavsiyalarni takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Immordino-Yang M.H. Emotions, Learning, and the Brain: Exploring the Educational Implications of Affective Neuroscience. – New York: W.W. Norton & Company, 2016. – 384 p.
2. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.
3. Jensen E. Brain-Based Learning: The New Paradigm of Teaching. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2008. – 312 p.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000. – 192 b.
5. Qudratov T.R. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2015. – 256 b.
6. Sousa D.A. How the Brain Learns. – 5th ed. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2017. – 408 p.
7. Tokuhama-Espinosa T. Mind, Brain, and Education Science: A Comprehensive Guide to the New Brain-Based Teaching. – New York: W.W. Norton & Company, 2011. – 480 p.
8. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – 224 b.
9. Wolfe P. Brain Matters: Translating Research into Classroom Practice. – Alexandria: ASCD, 2010. – 220 p.
10. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 304 b.
11. Zull J.E. The Art of Changing the Brain: Enriching the Practice of Teaching by Exploring the Biology of Learning. – Sterling: Stylus Publishing, 2002. – 288 p.
12. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.
13. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 2011. – 440 p.
14. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 392 p.
15. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
16. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001. – 176 p.

Xalilova Ruxsora Raupovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.(PhD),
Abduraxmonova Muxtasarxon Abdujabbor qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

ALISHER NAVOIY IJODIDA SHOIRLARGA MUNOSABAT ("MAJOLIS UN-NAFOIS" ASOSIDA ILMIY TAHLIL)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida shoir shaxsiga munosabat ilmiy asosda tahlil qilinadi. "Majolis un-nafois" asari orqali shoirlik mezonlari va adabiy-estetik qarashlar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Navoiy, shoir, “Majolis un-nafois”, poetika, adabiy tanqid.*

ОТНОШЕНИЕ К ПОЭТАМ В ТВОРЧЕСТВЕ ALISHER NAVOIY (НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «MAJOLIS UN-NAFOIS»

Аннотация. *В данной статье рассматривается отношение к личности поэта в творчестве Алишера Навои с научно-теоретической точки зрения. На основе произведения «Majolis un-nafois» анализируются критерии поэтического мастерства, а также литературно-эстетические взгляды автора. Особое внимание уделяется разграничению истинных и ложных поэтов, их социальной роли и нравственной ответственности.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, поэт, Majolis un-nafois, литературная критика, поэтика, эстетическое мышление.*

ATTITUDE TOWARD POETS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI (ON THE BASIS OF MAJOLIS UN-NAFOIS)

Annotation. *This article analyzes the attitude toward the poet in the works of Alisher Navoiy from a scientific and theoretical perspective. Based on the work Majolis un-nafois, the criteria of poetic mastery, as well as literary and aesthetic views, are examined. The distinction between genuine and false poets, their social role, and moral responsibility are discussed in detail.*

Key words: *Alisher Navoi, poet, Majolis un-nafois, literary criticism, poetics, aesthetic thinking.*

Kirish. Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir va mutafakkir, balki turkiy adabiyotshunoslik fanining asoschisi hamdir. Uning 1491–1498-yillar davomida yozilgan "Majolis-un nafois" (Nafis majlislar) asari turkiy tildagi birinchi tazkira hisoblanadi. Navoiygacha bu janr fors tilida shakllangan bo‘lib, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"si mashhur edi.

Navoiy ushbu asarni yozish orqali turkiy tilning ham ilmiy-adabiy quvvatini ko‘rsatib berdi. Asar 8 qismdan – "majlis"dan iborat bo‘lib, unda 459 nafar shoir, adib va olimlar haqida ma’lumot berilgan. Navoiyning shoirlar haqidagi qarashlari shunchaki biografik faktlar emas, balki chuqur estetik va axloqiy mezonlarga asoslangan.

Adabiyotlar tahlili . Navoiy ijodida shoir va shoirlik masalasi markaziy o‘rin tutadi. U nafaqat buyuk shoir, balki adabiyot nazariyotchisi sifatida ham shoirning jamiyatdagi o‘rni, burchi va mas’uliyatini chuqur tahlil qilgan.

Navoiy nazarida shoir - oddiy ijodkor emas, balki xalqning ruhiy yetakchisi, ma’naviy tarbiyachisidir. Uning qarashlarida shoirlik – yuksak mas’uliyat va estetik tafakkur uyg‘unligidir. Alisher Navoiy shoirni haqiqatni aytuvchi, inson qalbini poklovchi shaxs sifatida ko‘radi. Shoirning so‘zi xalq qalbiga ta’sir qilishi, uni ezgulikka yetaklashi kerak, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy shoirni jamiyatning ma’naviy yetakchisi sifatida talqin qiladi. "Majolis un-nafois" asarida u shoirlarning nafaqat ijodiy, balki axloqiy qiyofasini ham baholaydi. "Majolis un-nafois" asarida u shoirlarning nafaqat ijodiy, balki axloqiy qiyofasini ham baholaydi.

Navoiy shunday yozadi: "Ba'zi she'r aytuvchilar lafz ko'paytirur, ammo ma'ni kamdur" [Navoiy, Majolis un-nafois, 37-bet]. Bu fikr orqali u mazmunning ustuvorligini asoslaydi. Har qanday qofiyali she'r ham chiroyli mazmunga ega bo'lavermasligi haqida so'z yuritar ekan, she'rda shakl emas mazmun ustuvor bo'lishi kerakligini aytadi.

Navoiy haqiqiy shoirni xalq dardi bilan yashovchi shaxs deb biladi. U soxta shoirlarni tanqid qilib, ularni jamiyat uchun zararli deb hisoblaydi. Navoiy uchun so'z ilohiy ne'matdir va undan oqilona foydalanish zarur ekanligini aytadi.

Alisher Navoiy shoirni jamiyatning ma'naviy yetakchisi sifatida talqin qiladi. Alisher Navoiy shoirning bilim darajasi va tafakkur kengligini muhim mezon sifatida ko'rsatadi. O'zining "Majolis-un nafois" asarida ustoz shoir va zamondosh shoirlar, qolaversa, yosh ishtiyoqmandlar haqida individual fikr bildirib, ijodini baholab, adabiy mezonlar asosida tahlilga tortilgan.

Navoiy shoirni jamiyatning eng yuqori tabaqasi, ma'naviyat xazinaboni deb biladi. U shoirlarni baholashda uchta asosiy tamoyilga tayanadi:

Tab' (Tug'ma iste'dod): Navoiy fikricha, she'r aytish – ilohiy ne'mat. Agar insonda "tab'" bo'lmasa, u qancha bilim olmasin, haqiqiy shoir bo'la olmaydi.

Ilm va mutolaa: Shoir faqat ilhomga tayanib qolmasligi, o'z davrining fanlarini (mantiq, falsafa, tarix, tilshunoslik) mukammal bilishi shart.

Haqgo'ylik va kamtarlik: Navoiy kibrli shoirlarni "xudbin" deb ataydi va ularning ijodini past baholaydi.

Majlislarning birinchisida Abdurahmon Jomiy haqida so'z borar ekan, shunday so'zlarni aytadi: "Ul hazratning nazmi va nasri borasida so'z aytmoq jur'atsizlikdur... Ul kishi so'z mulkining sultoni erdi va har fanda benazir erdi" (45-bet). Navoiy Jomiyni ta'riflashda tashbeh va istiora (metafora) usullaridan foydalanadi. "So'z mulkining sultoni" iborasi Jomiyning nafaqat badiiyatda, balki tasavvufiy va falsafiy ilmlarda ham yetakchi ekanligiga ishoradir. Navoiy bu yerda shoirning ijtimoiy mavqeyidan ko'ra, uning ma'naviy darajasini ustun qo'yadi.

Yana boshqa o'rinda ustozlaridan yana biri Lutfiy haqida quyidagi fikrlarni keltiradi. "Mavlono Lutfiy o'z zamonasining faxri erdi, turkiy va forsiyda naziri yo'q erdi. Turkiyda shuhrati ko'proq erdi va turkcha devoni ham mashhurdur..." (68-bet). Navoiy Lutfiy ijodini tahlil qilar ekan, uning turkiy tildagi sodda va ravon uslubiga urg'u beradi. "Naziri yo'q" (o'xshashi yo'q) birikmasi orqali Navoiy turkiy she'riyatning forsiy she'riyat bilan tenglasha olishini isbotlaydi. Bu iqtibosda Navoiyning milliy g'ururi va ona tiliga bo'lgan muhabbati sezilib turadi.

"Kamol Xo'jandiy she'ri latofat va poklikda begona va barcha ahli ma'ni qoshida maqbuldur." (52-bet). Navoiy she'riyatda "poklik" (so'zning ortiqcha bezaklardan xoli bo'lishi) va "latofat"ni qadrlaydi. U Kamol Xo'jandiy misolida shoirning so'z tanlash mahoratini yuksak baholaydi. "Ahli ma'ni" iborasi esa she'rning faqat shakli emas, balki chuqur falsafiy ma'nosi bo'lishi kerakligini anglatadi.

Navoiy "Majolis-un nafois"da barcha shoirlarni faqat maqtamaydi. Uning tanqidiy realizmi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Sariqa (O'g'rilik): Boshqalarning fikrini yoki baytini o'zlashtirgan shoirlarni Navoiy keskin qoralaydi. U shoirdan originallikni talab qiladi.

Axloqsizlik: Agar shoirning she'ri yaxshi bo'lib, o'zi yomon fe'l-atvorli bo'lsa, Navoiy buni "go'zal kiyim kiygan badbashara odam"ga o'xshatadi.

Kibr: O'zini hamma shoirdan ustun qo'yuvchi havaskorlarni "nodon" deb ataydi.

Bilamizki, Navoiy o'z asarida ustoz shoirlar, daholar, davlat arboblari, hunarmandlar va oddiy xalq vakillaridan bo'lgan ijodkor shoirlarni qalamga oladi. Bu Navoiyni san'at, she'riyat hamma uchun ekanligi haqidagi demokratik qarashlarini anglatadi.

Muhokama. Navoiy ushbu asarida o'z davrining va o'zidan oldin o'tgan shoirlarning ijodiga nafaqat adabiy munosabat bildiradi, balki ularning insoniy fazilatlariga ham alohida e'tibor qaratadi. Navoiy nazm ahlini "xush ilhonli bulbullar"ga o'xshatadi va ularni "aziz qavm" (e'zozli jamoa) deb ataydi. Uning fikricha, shoirlar o'z asarlari bilan zamon va davron sahifalarida nomlarini mangu qoldiradilar.

Navoiy shoirlarning ijodiga baho berishda nihoyatda xolis bo‘lgan. Masalan, Mavlono Kotibiy haqida gapirganda, uning qasidachilikdagi mahoratini va ixtirochi (yangilik yaratuvchi) ekanligini e’tirof etadi. "Bu faqirning xayolig'a andoq kelurkim, Mavlono Kotibiyda she'r saliqasi oncha bor ekandurkim, bizning Sulton Sohibqirondek suxandon podshoh anga murabbiy bo'lsa erdi... ko'p elning ko'nglin she'r aytmoqdin sovutqay erdi.[34]" Navoiy bu yerda Kotibiyning iste’dodi nihoyatda baland bo‘lganini, agar unga munosib homiy va sharoit bo‘lganida edi, u shunday yuksak she’rlar yozar ediki, boshqa shoirlar uning oldida o‘z she’rlaridan uyalib qolgan (sovigan) bo‘lur edi, degan fikrni bildiradi.

Navoiy o‘zidan oldin o‘tgan buyuk shoirlarga ehtirom bilan qaraydi. Xususan, Amir Qosim Anvorni "soliki atvor va koshifi asror" (yo‘l ko‘rsatuvchi va sirlarni ochuvchi) deb ataydi. "Bu faqir avval nazmekim, o'rganibmen, bu so'nggi matla'dur. Hamono uch yosh bila to'rt yoshning orasida erdim...[32]" Navoiy o‘zining she’riyatga bo‘lgan ilk qadamlari Qosim Anvorning g‘azallarini yod olishdan boshlanganini aytadi. Bu uning nafaqat shoir ijodiga, balki uning shaxsiyatiga bo‘lgan yuksak ehtiromini ko‘rsatadi.

Navoiy shoirlarni faqat she’ri bilan emas, balki ularning xarakteri (darveshligi, kibrsizligi yoki qusurlari) bilan ham tasvirlaydi. Masalan, Mavlono Sohib Balxiyning musiqadagi mahoratini tan olgani holda, uning o‘ta ta’magirligi (ovqat uchun she’r aytishi) sababli el orasida izzati kamroq bo‘lganini ham yashirmaydi. Ushbu fikrlar asosida Navoiyning shoirlarga munosabati ham ijodiy, ham axloqiy mezonlarga tayanganini ko‘rish mumkin.

Natija. Yana shu narsani aytish kerakki, Navoiy shoirlarni nafaqat so‘z ustasi, balki ruhiy dunyosi boy insonlar sifatida qadrlagan. U shoirning moddiy kambag‘alligini uning ma’naviy yuksakligi deb bilgan. Navoiy shoirning darveshona hayoti, dunyo matolaridan voz kechgani va pokiza umr kechirayotganini yuksak insoniy fazilat sifatida ta’riflaydi. Uning uchun shoirning fe’l-atvori uning she’ridan kam ahamiyatga ega emas.

Navoiy shoirlarning an’anaviy mavzularda yangi, hech kim aytmagan obrazlarni topishini juda yuqori baholagan. "Mavlono Baxshiy (Baxil) ham andoq voqe’ bo’lubdurkim, andin yaxshiroq aytib bo’lmas... g’arib ixtiro’ qilibdur" (184-sahifa). Navoiy shoirning mahoratini "g’arib ixtiro’" (hayratlanarli yangilik) deb ataydi. Ya’ni, shoir o‘zidan oldingilar takrorlamagan original fikrni ayta olsa, Navoiy buni chinakam san’at namunasi sifatida e’tirof etadi.

Navoiy shoirlarning she’riyatdagi xatolarini (vazn, qofiya yoki mantiqiy xatolar) tanqid qilganda ham, ularning shaxsiyatini kamsitmagan holda, xolis tahlil beradi. Shoirning she’rida nuqsonlar (muxtall) borligini aytsa-da, darhol uning nutqi ravonligi va suxandonligini (so‘zga chechanligini) ta’kidlab, adolat tarozisini buzmaydi.

Xulosa. "Majolis-un nafois" asari orqali Navoiy o‘zbek adabiyotshunosligiga "shoirlar portreti" tushunchasini olib kirdi. Uning qarashlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, shoir nafaqat so‘z ustasi, balki xalqning ma’naviy yo‘lboshchisi bo‘lishi kerakligini uqtiradi. Ushbu asar tufayli biz Temuriylar davri adabiy muhitini, shoirlarning o‘zaro muloqotini va o‘sha davrning adabiy didini aniq tasavvur qila olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent, 1926. – 128 b.
2. Karimov N. Adabiy tanqid asoslari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 256 b.
3. Navoiy A. Majolis un-nafois. – Toshkent: Fan, 1961. – 320 b.
4. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – 512 b.
5. Qayumov A. Navoiy ijodi. – Toshkent: Fan, 1991. – 240 b.
6. Vohidov E. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 368 b.
7. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1978. – 480 b.

Xalilova Ruxsora Raupovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.(PhD)

RAHBAR NUTQINING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rahbarlar " nutqlarining asosiy lingvistik va pragmatik omillarni: siyosiy, ijtimoiy va madaniy kontekstni, aloqa holatini, siyosatchining shaxsini va matnning tarkibiy xususiyatlarini hisobga olgan holda jamoatchilikka ta'sir qilishi " potentsiali har tomonlama tahlil qilingan. nutqning psixolingvistik samaradorligini to'xtatish.Siyosiy nutqlarda sof lingvistik va lingvistik bo'lmagan vositalar qo'llaniladi, ular kontseptual mazmunni va ma'nolarni og'zaki ifodalash usullarini belgilaydi, ularni muayyan strategiya va taktikalar orqali tushuntirish mumkin.*

Kalit so'zlar: *siyosiy nutq, siyosiy muloqot, ommaviy nutq, kommunikativ strategiya va taktikalar, siyosiy qaror qabul qilish xususiyatlari, demokratlashtirish.*

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ РУКОВОДИТЕЛЯ

Аннотация. *В статье всесторонне анализируется потенциал выступлений лидеров «влиять на общественность с учетом основных лингвистических и прагматических факторов: политического, социального и культурного контекста, коммуникативной ситуации, личности политика и структурных особенностей текста». прекращение психолингвистической эффективности речи.В политических речах используются чисто лингвистические и нелингвистические средства, которые определяют концептуальное содержание и способы вербального выражения смыслов, которые можно объяснить с помощью определенных стратегий и тактик.*

Ключевые слова: *политическая речь, политический диалог, публичная речь, коммуникативныест*

PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF THE SUPERVISOR'S SPEECH

Abstract. *The article comprehensively analyzes the potential of leaders' speeches to "influence the public, taking into account the main linguistic and pragmatic factors: the political, social and cultural context, the communicative situation, the personality of the politician and the structural features of the text." termination of the psycholinguistic effectiveness of speech.Political speeches use purely linguistic and non-linguistic means that define the conceptual content and ways of verbal expression of meanings that can be explained using certain strategies and tactics.*

Key words: *political speech, political dialogue, public speech, communicative strategies and tactics, features of political decision-making, democratization.рамегии и тактики, особенности принятия политических решений, демократизация.*

Zamonaviy tilshunoslikda nutqning pragmatik va kommunikativ jihatlarini o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rahbar nutqi nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish, ularni ishontirish va motivatsiya qilishning samarali vositasi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois rahbar nutqining progmalingvistik xususiyatlarini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Rahbar nutqida sof lingvistik va lingvistik bo'lmagan vositalar qo'llaniladi, ular kontseptual mazmunni va ma'nolarni og'zaki ifodalash usullarini belgilaydi, ularni muayyan strategiya va taktikalar orqali tushuntirish mumkin. Muloqot vaziyatiga xronotop va siyosiy ommaviy nutqning formati kiradi. Siyosatchining shaxsiyati, uning imidji va maqomi, ijtimoiy va siyosiy tajribasi, notiqlik darajasi - bularning barchasi nutqni tayyorlash va amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Psixologlar, sotsiologlar, faylasuflar va boshqa gumanitar fanlar vakillarining ijtimoiy muloqotning turli jihatlariga e'tibor qaratishi ijtimoiy idrokning zamonaviy tendentsiyalarini, ya'ni inson hayotining xilma-xilligini va uning shaxslararo o'zaro ta'sirining xilma-xilligini tushunishni aks ettiradi.

Ko'rib chiqilayotgan fan - ijtimoiy kommunikatsiyalarning fanlararo tabiati shundan dalolat beradiki, ijtimoiy kommunikatsiyalarning ta'sirini tushunish va tushuntirish haqida gap ketganda, og'zaki o'zaro ta'sirga qaratilgan, rahbar nutqi siyosiy muloqotda yorqin amalga oshiriladigan o'r-ganish sohalarini hisobga olish kerak.Tadqiqot ijtimoiy - va psixolingvistik xususiyatga ega va nafaqat turli xil kommu - nikatsiya strategiyalari va taktikalarining xususiyatlarini namoyish etish, balki bunday xilma - xillik qanday paydo bo'lishini tushuntirish uchun mo'ljallangan; qaysi omillar jamiyatda unga ta'sir qiladi; va samarali ijtimoiy aloqalarning paydo bo'lishini murakka-blashtiradi.Ularning til birliklaridan odamlarning ongini manipulyatsiya qilish vositasi sifatida foydalanish qobiliyatlari jamiyat bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilishning bashoratchisi sifatida ko'rsatilgan holda namoyon etish, balki bunday xilma - xillik qanday paydo bo'lishini tushuntirish uchun mo'ljallangan; qaysi omillar jamiyatda unga ta'sir qiladi; va samarali ijtimoiy aloqalarning paydo bo'lishini murakkablashtiradi. Shu munosabat bilan prezidentlarning ijtimoiy lider sifatidagi nutqlari alohida qiziqish uyg'otadi. Qiyosiy tahlil rahbarlarning shaxsiy jihatlarini ham o'z ichiga oladi; ularning til birliklaridan odamlarga ta`sir qilish vositasi sifatida foydalanish qobiliyatlari jamiyat bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilishning bashoratchisi sifatida ko'rsatilgan.

Jamiyatga ma'lumot uzatish jarayoni (og'zaki, og'zaki bo'lmagan, hissiy, kognitiv) ma'lum bir belgi tizimi (til, nutq, yuz ifodalari, imo-ishoralar va boshqalar) yordamida ommaviy nutq or-qali amalga oshiriladi. Aloqa psixologiya, va til falsafasi ilmiy paradigmalar hisoblanadi, maqsadi samarali ishonchli kom - munikatsion va ijtimoiy con - sciousness rivojlantirish uchun shart - sha-roitlarardan iborat, uning manipula-yozildi jihatlari, shu jumladan, [1].Tilshunoslikda ommaviy nutqni o'rganish olimlarning nutqni tahlil qilish sohasidagi yutuqlariga asoslanadi [10].

Rahbar nutqi doirasidagi ommaviy nutqni har tomonlama tahlil qilish bizning holatimizda ilmiy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanishni o‘z ichiga oladi, xususan:

1. namuna olish usuli – empirik materialni shakllantirish uchun;
2. tasviriy usul – nutq materialini umumlashtirish va sharhlash;
3. tahlil va sintez usullari – tadqiqot materialini tizimlashtirish va tartibga solish;
4. mazmunni tahlil qilish usuli – nutq taktikasi va strategiyalarini aniqlash;
5. qiyosiy tahlil usuli – turli rahbarlar tomonidan turli davrlarda qo‘llanilgan nutq taktikasi-ning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

Munozara va natijalar ta'kidlashicha, muloqot, suhbatdan farqli o'laroq, ma'lum bir ta'sirni olishga qaratilgan yagona ta'sir bo'lib, u ushbu ta'sir yo'naltirilgan auditoriyani bilish orqali amal-ga oshiriladi. Siyosiy kommunikatsionda nutq faoliyatining adresati ko'p hollarda shaxs sifatida emas, balki popu - latsiyaning ma'lum bir qatlamining vakili sifatida shaxsdir, shuning uchun adre-satning e'tiborini xabarga va boshqa joyga qaratadigan bunday kommunikatsiya usullarini tanlash muhimdir. Xuddi shu vaqt uning dunyoqarashi bilan bog'liq.Ularning fikricha, siyosiy muloqot fuqarolarning harakat qilishga, qaror qabul qilishga va mamlakatda bir nechta qarashlar mavjud bo'lgan taqdirda ma'lum bir pozitsiyani saqlab qolishga undashga qaratilgan [11].

Rahbar nutqi matnning maqsadi - muayyan g'oyalarni ilgari surish, mamlakat fuqarolariga hissiy ta'sir ko'rsatish, ularni harakatlarga undash orqali vaziyatga ta'sir o'tkazishdir. Rahbarlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun nutqlardan muhim vosita sifatida foydalanadilar Rahbar nutqi o‘tkir siyosiy masalalar bo‘yicha tayyorlangan nutq bo‘lib, unda turli xil modalliklar, aso-slashlar, faktlar, rejalar va kelajakdagi siyosiy o‘zgarishlar istiqbollari baholanadi. Siyosatchilar tez rivojlanayotgan jamiyat ustidan nazoratni saqlab qolish uchun barcha mumkin bo'lgan nutq taktikasi va strategiyalaridan foydalanadilar. Buning sababi shundaki, tarixiy taraqqiyotning ushbu bosqichida odamlarga ta'sir o'tkazish va ularni tanlangan qarorning to'g'riligiga ishontirish oson ish emas. Siyosat odamlar hayotining tobora ko'proq sohalarini qamrab oladi va tanlangan ta'sir usul-lari jamiyatning holatiga qarab o'zgaradi.

Kommunikativ strategiyalar va taktikalar til, matn va hattoki nutq bilan taqqoslaganda lingvistik tadqiqotning nisbatan yangi ob'ekti hisoblanadi, shuning uchun ilmiy rivojlanishda hozirgi bosqichida tushuntirish, ajratish uchun noyob va umumiy qabul qilingan ta'riflar mavjud emas. Yuqorida aytib o'tilganlarni kiritish va tasniflash. Ko'p hollarda ko'zlangan maqsadga erishishning bir necha yo'li mavjud.

“Nutq - bu har qanday vaziyatda ommaviy chiqish yoki bunday ommaviy chiqish matni” [11]. Ommaviy nutq deganda bir kishining bir guruh odamlar oldida so‘zlagan monologi tushuniladi, u tinglovchilarga ta’sir ko‘rsatish maqsadiga asoslangan strukturaviy, kommunikativ va mazmunli birlikka ega bo‘lgan formatga ega [2]. Har qanday nutq strategiyasi qabul qiluvchining dunyoqarashini o'zgartirishga qaratilgan. Ma'ruzachi suhbatga voqelik haqidagi o'z talqinlarini bir qator jumlalar, reaktsiyalar va qarshi dalillar orqali tanishtirish orqali ifodalantiradi. Ko'p hollarda ko'zlangan maqsadga erishishning bir necha yo'li mavjud. Va bu, o'z navbatida, bizni nafaqat semantik mazmunga, balki nutq faoliyatining pragmatik, stilistik va ritorik jihatlariga ham tegishli bo'lgan tanlov qilishga majbur qiladi [4].

Nutq strategiyasini amalga oshirish vaziyatga qarab birlashtirilishi mumkin bo'lgan turli usullardan foydalanishga imkon beradi.Rahbar nutqida til jamiyat o‘rtasida vositachi bo‘lib, xabarning aniq ma’nosini yetkazadi. Biroq, ko‘plab olimlar nutqning “yashirin” ma’nosi muhimroq, deb hisoblashadi. Shunday qilib, biz rahbar nutqning umumiy lingvistik kontekstdan ajratib turadigan va eng muhimi, ishontirish funksiyasini shakllantirishimiz mumkin [5].

Demokratlashtirish, globallashuv davrida jamiyat o'z noroziligini har qanday vaqtda bildirishga va namoyish etishga tayyor. Shuning uchun jamiyatni zamonaviy nutq strategiyalari va usulllari yordamida boshqarish ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi. Nutqlar endi qat'iy bayonotlardan iborat emas. Prezidentlar fuqarolarga ko'proq axloqiy va milliy qadriyatlarga murojaat qilishadi. Barcha prezidentlarning nutqlarida jamiyatni boshqarishda asosiy strategiyasi universal qadriyatlarga murojaat qilish yordamida amalga oshiriladi. Masalan, Jorj V.ning birinchi ochilish nutqida. Bush (2001-2008) qiymatga yo'naltirilgan strategiyaga asoslangan edi: "Amerika, eng yaxshi holatda, fuqarolik uchun printsipga sodiqdir; Amerika, eng yaxshisi, ham jasur; Amerika, eng yaxshisi, shaxsiy mas'uliyat qadrlanadigan va kutilgan joy " [3]. Metaforalardan foydalanish tilni yanada yorqinroq qiladi va assotsiativ fikrlash orqali tomoshabinlar e'tiborini tortadi, kontekstli antonimiya esa ifoda hissiyotini kuchaytiradi, bu esa tinglovchilarning notiqga sodiqligini yaratish usulinii amalga oshiradi.

Umumjahon qadriyatlariga murojaat qilish rahbar nutqidagi yetakchi motivlardan biridir. vatanparvarlik, e'tiqod, xayriya, jamiyat va oilaning fuqarolik qadriyatlariga yangilangan e'tiborni talab qiladi. Jamiyatni boshqarishda asosiy strategiyasini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari prezidentlar o'z nutqlarida qo'llaydigan umumiy va farqli nutq usullari orqali namoyon bo'ladi.

Rahbar nutqida qo‘llaniladigan asosiy usullarga quyidagilar kiradi:

Ishontirish usuli

Motivatsiya berish usuli

Emotsional ta’sir o‘tkazish usuli

Mantiqiy asoslash usuli

Mazkur usullar nutqning samaradorligini oshiradi.

Rahbar nutqida emotsional-baholovchi leksika uni o‘ziga xos tarzda belgilaydi, chunki bu turdagi modallik dunyoni emas, balki so‘zlovchining unga munosabatini ko‘rsatadi, ta’sirchanlik effektini yaratadi va adresatga ta’sir o‘tkazadi. Ushbu leksika guruhining o‘ziga xosligi shundaki, u konnotativ emosemalarning ijobiylik qutbidan salbiylik qutbigacha o‘zgarishiga imkon beradi (ijobiy-baholovchi ma’noli leksik birliklar: "balandparvoz so‘zlar" salbiy-baholovchi ma’noli leksik birliklar: umumiy yoki maxsus salbiy-baholovchi ma’noli so‘zlar motivatsion komponentga ega). Hissiy-baholovchi leksika ko‘pincha gapning semantik o‘zagi vazifasini bajaradi, shu sababli siyosiy nutq tarkibida turli darajadagi intensivlikdagi gaplarning "ma’no markazi" sifatida uning roli ortib boradi.

Rahbar nutqida til birliklari maqsadga muvofiq tanlanadi. So‘zlar, iboralar va gap tuzilmalari auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish nuqtai nazaridan qo‘llaniladi.

Rahbar nutqi auditoriyaning psixologik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri tanlangan nutq shakli ishonch uyg‘otadi, motivatsiyani oshiradi va jamoani birlashtiradi.

Rahbar nutqida nutq madaniyati va etika muhim ahamiyatga ega. Rahbar nutqi adabiy til me’yorlariga mos bo‘lishi, hurmat va e’tibor asosida qurilishi lozim.

Nutq madaniyatining asosiy talablariga quyidagilar kiradi:

1.To‘g‘ri talaffuz

2.So‘z boyligidan unumli foydalanish

3.Nutqning aniqligi va ravonligi

Rahbar nutqining progmalingvistik xususiyatlari uning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Nutqning maqsadliligi, strategik rejalashtirilishi, til vositalarining to‘g‘ri tanlanishi hamda auditoriyaga psixologik ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari rahbar nutqining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Mazkur tadqiqot rahbar nutqini yanada chuqurroq o‘rganish, uning pragmatik jihatlarini tahlil qilish hamda amaliyotda samarali qo‘llash uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Андреева Г.М. Психология социального познания. – 2-е изд. – Москва: Аспект Пресс, 2000.

2. Блох М.Я., Фрейдина Е.Л. Публичная речь и её просодический строй. – Москва: Прометей, 2011.

3. Bush G.W. Address to the nation on the WTC attacks by Sept 11 [Электронный ресурс]. – URL: https://american-rhetoric.com (дата обращения: 23.05.2022).

4. Kovalenko A. Movni zasoby realizatsii manipuliatyvnoho vplyvu v suchasnykh anglomovnykh ZMI // Naukovyi visnyk Mizhnarodnoho humanitarnoho universytetu. – 2019. – No. 38. – P. 214–218.

5. Medvid O. Linhvistychni zasoby vplyvu na retsypiienta (na materiali politdyskursu) // Naukovyi visnyk Volynskoho natsionalnoho universytetu imeni Lesi Ukrainky. – 2012. – No. 6 (231). – P. 116–121.

6. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Тошкент, [йил кўрсатилмаган].

7. Maxmudov N. O‘qituvchi nutqining lingvistik asoslari. – Toshkent, 2022.

8. Yusupova M. Til va tafakkur. – Samarqand, 2020.

9. Раҳимов А. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент, 2020.

10. Seriot P. Kvadratura smysla: Frantsuzskaya shkola analiza diskursa. – Moskva: Progress, 1999.

11. Shevchenko L., Derhach D. Medialinhvistyka: slovnyk terminiv i poniat. – 2-e izd. – Kyiv: PPC “Kyiv University”, 2014.

Khalilova Ruxsora Raupovna
Bukhara state pedagogical institute
Department of uzbek language and literature,
Jalolova Nigina Zavqiddin qizi
Master of the department of uzbek language and literature

ABOUT THE MAIN GENRES OF VIRTUAL COMMUNICATION

Annotation. *In this article, the genre of speech is a speech act, speech phenomenon, speech strategy, speech tactics, etc. in comparison with concepts. In linguistics, a genre is understood as a typical representative unit of a speech act, sometimes much larger than a speech act, but it is necessary to relate this term to the rapidly developing process of computerization of society. Analysis of the speech of network users by studying virtual communication into communicative-pragmatic and genre. This requires further deepening of scientific research to clarify the problem of verbal communication in virtual space .*

Key words*: speech communication, virtual speech communication, forum, global and regional network, audiovisual communication, Internet, chat, genre of speech.*

VIRTUAL KOMMUNIKATSIYANING ASOSIY JANRLARI HAQIDA

Annotatsiya*: Ushbu maqolada nutq janri tushunchalar bilan solishtirganda nutq harakati, nutq hodisasi, nutq strategiyasi, nutq taktikasi va boshqalar hisoblanadi.Virtual muloqotni kommunikativ-pragmatik va janrga qarab o‘rganish orqali tarmoq foydalanuvchilarining nutqini tahlil qilish. Bu virtual makondagi og'zaki muloqot muammosini aniqlashtirish uchun ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishni talab qiladi.pragmatik va janrga qarab o‘rganish orqali tarmoq foydalanuvchilarining nutqini tahlil qilish. Bu virtual makondagi og'zaki muloqot muammosini aniqlashtirish uchun ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishni talab qiladi.*

Kalit so'zlar: *nutq aloqasi, virtual nutq aloqasi, forum, global va mintaqaviy tarmoq, audiovizual aloqa, Internet, chat, nutq janri.*

О ОСНОВНЫХ ЖАНРАХ ВИРТУАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация*: В статье рассматриваются понятия речевого жанра, речевого акта, речевого события, речевой стратегии, речевой тактики и т. д. Анализ речи пользователей сети с помощью прагматического и жанрового обучения. Это требует дальнейшего углубления научных исследований для выяснения проблемы вербального общения в виртуальном пространстве.*

Ключевые слова*: речевая коммуникация, виртуальная речевая коммуникация, форум, глобальная и региональная сеть, аудиовизуальная коммуникация, Интернет, чат, речевой жанр.*

Due to the widespread use of computer technology in the field of computing, it is possible to trace the development of computer technology. On the Internet, you can find terms such as cybermaidan, computer community, cyberfootball (i.e. cybermaidan fu_arosi) and the like. At the same time, cybermaconide is often considered as a natural science language, while Internet macroeconomics is considered as the science of language, and cyberlinguistics is considered as the science of language. The sphere of activity of cyberlinguistics is computer-media communication (SMS), which is carried out in cyberspace with unlimited possibilities for people to create their virtual personality through language (text) expression. Through this, awareness of the virtual world occurs, social interactions with other similar individuals, an online community with its own rules and leaders is created. The Internet is a complex system of self-shaping and control. It has two main

functions as a program that provides network tools to operate on a single standard basis (in a single language). That is, the first is the information space and the second is the communication medium.

Virtual speech communication consists of three components, such as simple speech communication: starting communication, maintaining communication, and completing communication. The user performs communication based on the linguistic and pragmatic rules that represent his being in the virtual communication space of the Uzbek language chat. Virtual conversation can be described as follows: 1)public character of communication; 2) communication orientation: multiple to multiple; 3) synchronous communication; 4) average speed of notification to the recipient; 5) lack of strict requirements for the form and content of the message[4,7,15].

Virtual meeting of known conditions and known factors influencing oshadi practice. During the first meeting, the Ministry's requirements were constantly clarified. During the meeting, several acts of requirement were adopted for the participants: gapirovchi (ezuvchi) and tinglovchi (ezuvchi). He was one of the first to participate in the Bundesliga races, as well as in the Bundesliga races. The vertical on the meeting site of the online act with the condition. The meeting was attended by representatives of various industries, including the Ministry of Industry, the Mining Industry, the Mining Industry, the Mining Industry, the Mining Industry and the Mining Industry. Kundalik meets industry (mostly people); meeting industry industry; business meetings industry (or business meetings);Science, Education and political speech industry;tourism, sports and show business industry; medical speech industry; communication loop, etc. to [8].

In the 80s and 90s, representatives of the genre tour and Kyzylorda met in Kyzylorda. At the same time, as in the case of other languages, in this case, speech is the main genre of speech used to discuss issues related to speech on the island of Biriga. Among them: a dialogist who acts as a keynote speaker on various issues, a humanist, a young integrator of the Shaklantirish discipline, and a speaker of the Shaklash School. In the 90s, in ikinchi yarmida, zhanrshunoslik sohasida Ulkan yutuklar recorded ethildi. According to Turdosh Fanlar, pragmalinguistics, stylistics, rhetoric, social-tilshunoslik, psycholinguistics, cultural-tilshunoslik and textual tilshunosliga have become very effective means of communication for him. The Center for Modern ogzaki nutk ga bulgan is a professional user and yez boshlandi uslublari yaratila amiyatga E. zhanarlarini about the same.

In later works on the genre, the genre changed significantly, which led to its decline [2]. Dargakiqat, nutkiqat (NJ) nutkakati, nutk kodisasy, nutk strategies, nutk tactics, and others by K. Poniatov. In linguistics, the chickpea genre is understood as a typical chickpea phenomenon, while in linguistics, chickpea is usually considered a typical phenomenon, but this does not apply to the chickpea genre.'an act that develops in the process of computerization.

Apparently, in some genres, such as Hill Hill, jazz and rock'n'roll, you can find mixed motifs. For example, in free and unlimited access to files, we replace them with files of a certain genre. However, in the work of Aynur Shahsay, there is a tendency to change genre affiliation, deliberate distortion of genre features, distortion of semantic meanings, i.e. the transition from genre representations to creative forms.

NJ (nutkiy genre)– takhmin is used as a dual concept, denoting a motif typical of Nutk genres-hilma – hilgi (kikoya, khat, novel) and a lyrical motif typical of nutk genres (kundalik, ifodasi, karbiy buiruk, savol) [16]. In one volume, this is correspondence on the Internet, in the second volume, this is correspondence on the Internet as a response to a request for help. For example, in the “chat” mode. Thus, each of these genres is a collection of genres that we call “noir genres.” Throughout his creative career, Nuttin has worked on a number of genres-ballads, ballads, huts, buffalo fun, etc. According to B. B. Sirotkin, “the naturalistic genre developed not from linguistic theories, but from real ideas about the nature of being.” The nut genre was not separated from the mucha genre, but rather from the hilm-Hill functionality, in which the nut and mucha genres were combined under the common name mucha. The genres of Nautilus are divided into murakkab (double) and soddu (double). Complex genres include written (mainly) fiction, scientific articles, etc., and sod – direct oral communication.

Thus, the better a person assimilates the genres of speech, the more perfect free speech is undoubtedly. When a communicator chooses a certain type of sentence, he chooses it for the whole

sentence, focusing first on the genre of speech, and then on the syntactic characteristics of the conceived sentence.

The genre types of Internet communication have already been considered in the work of several researchers. Thus, the following genres of Internet communication can be distinguished: 1) e-mail (e – mail) ; 2) chat (IRC) - informal communication by computer in real time; 3) computer conferences (forums); 4) electronic bulletin board on the Internet (Bulletin Board); 5) instant messaging system (ICQ); 6) computer games; 7)ZOOM (video Conference) . [2,4,16,17] .

At the present stage of the development of computer communication theory, this classification is considered extremely conditional, since according to many structural signs these genres (intersections) may overlap. For example, the English linguist M.Stabbs identifies five genres for 2001 and calls them" situations of internet use " (broad Internet-using situations). These are: email, synchronous and asynchronous chats (conversations), including VVS, virtual universe (MOOs, MUDs, MUCKs, MUSEs, etc.); web texts. Considering direct IRC communication, it is not difficult to realize that according to the method of presentation and organization of the text it brings to mind hypertext. Electronic hypertext exists in the sum of electronic genres. There are three areas of computer modeling that use knowledge about the functioning of the language system.

The classification of electronic hypertext genres can be structured on different grounds. In our opinion, one of the foundations of such a classification can be associated with oral or written speech. In this case, as a transition point of the level at which the genres of electronic hypertext are located, chat (chat) and written speech-oriented emails go to the field.

E-mail oral communication is of particular interest as a phenomenon that arose ten, fifteen years ago and during which time it became widespread and manifested as something between oral and written colloquial communication. Written colloquial communication uses a graphical way of recording information, but like Oral – this difference is observed in quickness and informality. A more vivid example of combining the features of written and spoken speech is communication in the "chat" (conversation) mode, in which two interlocutors communicate through a computer network: in half of the screen, the participant of the dialogue writes his text, and in the other half he can see that the text of his interlocutor appeared in letters. The study of specific aspects of computer communication is one of the actively developing areas of analysis of modern speech communication, which allows the use of an integrated approach in the description of the chat (conversation) communication model.

In conclusion, it makes it possible to analyze the speech of network users by dividing virtual communication into communicative-pragmatic and genre. This assumes that there is a need to further deepen scientific research on the problem of speech communication in the virtual space.

List of literature used.

1. Жичкина А.Е. Социально-психологические аспекты общения в Интернете [Электронный ресурс]. – URL: http://floqiston.ru/projects/articles/strateqy.shtm (дата обращения: кўрсатилсин).

2. Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака // Звегинцев В.А. История языкознания в очерках и извлечениях. – Ч. 2. – Москва: Просвещение, 1965. – С. 85.

3. Кашкин В.Б. Введение в теорию коммуникации. – Воронеж, 2000. – С. 221–234.

4. Кремлева С. «Чат» как разновидность виртуального общения [Электронный ресурс]. – URL: http://sociology.extrim.ru/dip/start.htm (дата обращения: кўрсатилсин).

5. Лошманова Л.Т. Жаргонизированная лексика в бытовой речи молодёжи 50–60-х годов: автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ленинград, 1975. – С. 57–59.

6. Овчарова К.В. Электронный дискурс: общая характеристика // Лингвистическая организация дискурса: функциональные и содержательные аспекты: межвуз. сб. тр. молодых учёных. – Краснодар, 2004. – Вып. 1. – С. 108–113.

Olimova Nafisa Feruz qizi
O‘zbekiston Milliy Universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistratura talabasi
E-mail: feruzjanovna17@gmail.com

AYOLLARDA DISMORFOMANIYA SHAKLLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada dismorfomaniyaning umumiy tushunchasi, uni aynan ayollarda namoyon bo‘lishi, shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi psixologik omillar hamda bir qancha olimlarning nazariyalari asosida dismorfomaniya oldini olish chora tadbirlari haqida bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar*: Ayollar, dismorfomaniya, norozilik, nazariya, tajribalar, tana qismlari, qo‘rquv.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДИСМОРФОМАНИИ У ЖЕНЩИН

Аннотация. *В данной статье изложено общее понятие дисморфомании, внутренние и внешние психологические факторы, влияющие на ее проявление и формирование именно у женщин, а также меры профилактики дисморфомании на основе теорий ряда ученых.*

Ключевые слова*: женщины, дисморфомания, протест, теория, эксперименты, части тела, страх.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF DYSMORPHOMANIA IN WOMEN

Annotation. *This article discusses the general concept of dysmorphomania, its manifestation specifically in women, internal and external psychological factors influencing its formation, and measures to prevent dysmorphomania based on the theories of several scientists.*

Key words*: Women, dysmorphomania, dissatisfaction, theory, experiences, body parts, fear.*

Kirish: Psixologiyani tibbiyotning turli soxalari bilan birgalikda qo‘llash so‘ngi 3-4 yillikda yaxshi natijalarga erishishga xizmat qildi deya olamiz. Ba’zi kasalliklarning negizida insonning ruhiyati o‘zgarishi va kasallikni yengib o‘tishda dastlab tanani emas inson psixologiyasini davolash samarali bo‘ladi deya olishimiz mumkin. Xususan ayollarda ham dismorfomaniya shakllanishi, ularning o‘z tanasidan norozi bo‘lishi hamda turli kosmetik va plastik operatsiyalarni boshdan kechirishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Biroq bunday xolatlarning tub moxiyati, shaxsning o‘z “men”ini qabul qila olmasligidir.

Asosiy qism: Oxirgi 5-6 yillikda ayollar o‘rtasida yaqqol o‘zini namoyon etish, atrofdagilar e’tiborini tortish uchun tashqi ko‘rinishiga xaddan tashqari o‘zgarishlar kiritish, qad-qomat to‘g‘irlash amaliyotlari ilgarilab ketti. Dismorfomaniya atamasi ham aynan shu kabi psixik zo‘riqishi yuqori ayollarga nisbatan qo‘llanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Dismorfomaniya deganda ko‘rinishdagi tartibsizlik, bezovtalik, xayoliy tashqi nuqsoni borligiga patologik ya’ni kasallik sifatida ishonishi tushuniladi [3]. Umuman olganda insonda tashqi o‘zgarishlar ya’ni ozish, semirish, yuzdagi xusbuzarlar yoki tana rangi o‘zgarishi doimiy ya’ni mavsumiy tarzda bo‘lishi tabiiy holdir. Tanada doimiy o‘zgarib turadigan garmonlar balansi, yog‘ bezlari faoliyati hamda ovqat hazm qilish bu kabi o‘zgarishlarning tez-tez takrorlanishiga omil bo‘ladi. Ammo ommaviy madaniyatning keng miqyosda yoyilishi, ijtimoiy tarmoqlar va jamiyatdagi muxit ta’sirlari insonlarda xususan ayollarda tashqi ko‘rinishiga doimgidanda ko‘proq e’tibor

talab qilmoqda. Bu sabablar esa ayollarda tobora o‘tkir psixologik buzilishlarga, o‘zini qabul qilmaslik, o‘zgarish ilinjining ortishiga olib kelmoqda.

Dismorfomaniyaga chalingan ayollar o‘zlarini doimiy xunuk, ularni xech kim yoqtirmagandek, ajralib qolgandek, yoqimsiz ko‘rinishiga qattiq ishonishadi va ular o‘zlari ishongan “nuqsonlarini” yashirish uchun plastik jarroxlar, kosmetologlarga bog‘lanib qolishadi. Bu borada psixologiya fanida turli izlanishlar va tajribalar olib borilgan. Olimlar ilgari surgan bir qancha nazariyalar bilan tanishib chiqamiz.

Ibn Sino ba’zi odamlarning beixtiyor o‘zlarida kasallik belgilarini paydo qilishini va undan aziyat chekib yurishlarini aytib o‘tganligi G‘arb olimlarida katta qiziqish uyg‘otgan [1]. Bu muammo XX-XI asrlarda ham uchragani insonni xayratga soladi. Ongostida doimiy kasalliklar o‘ylab chiqarish garchi u belgilar kasallik xisoblanmasa ham, bundan stressga tushishi hamda hayot tarzining buzilishi bu xolatlarning kundalik faoliyatga aylanib qolishiga omil bo‘ladi.

N.L. Belopolskaya va I.S. Litovchenko shunday yozgan edi; “Inson o‘z tashqi ko‘rinishining haqiqiy va xayoliy kamchiliklariga oqilona munosabatda bo‘lishi, shaxsning deformatsiyasiga, o‘zini-o‘zi hurmat qilishni kamaytirishga, depressiya, tashvish va o‘z-o‘zidan shubhalanishni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki inson o‘z ko‘rinishini qabul qila olishi turmush tarzining ijobiy davom etishini ta’minlaydi. Aksi esa o‘ziga bo‘lgan xurmatniningi pasayishiga, shaxslararo munosabatlar buzilishiga sabab bo‘ladi. Bu xolatlarning doimiy namoyon bo‘lishi yashash mativining so‘nishiga ham olib keladi [2].

Olimlar olib borgan tadqiqotlarda huddi anatomiya fanida aytilgani kabi insonning bosh miya katta kichikligi uning aqliy faoliyatini belgilamaydi. Ya’ni boshi katta kishilar aqilli, boshi kichiklari esa aksi bo‘lmagani kabi, dismorfomaniya ham shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabatiga ta’sir ko‘rsatadi ammo hayotdagi muvofaaqiyatiga emas. Shu bois jamiyatda yuksak bilim egalarining, o‘z kasbi ustalarining tashqi ko‘rinishi ularning ilm olishiga ta’sir etmagan deya olishimiz mumkin. Shu boisdan ham bu hammada xar xil yuzaga kelishi inobatga olinib dismorfomaniya atamasi fanda qo‘llaniladi.Tana dismorfik buzilishi bo‘lgan odamlar tashqi ko‘rinishining turli qismlari bilan aziyat chekishi mumkin. Masalan, tashqi teri qavatida (xusunbuzarlar, yuzlarda ajinlar, teri rangi, chandiqlar), qoshlarda (ingichka, qalin, rangida), burunlarda (katta, kichik) bo‘yida (uzun, kalta) qorin, ko‘krak, tishlar va boshqa turli tana qismlari. Atrofdan negativ fikrlar kelmasada,o‘zini kimgadir taqqoslashi va aynan o‘xshashga xarakat qilishlik ham dismorfik buzilish hisoblanadi [1]. M.V.Korkina ushbu dismorfomaniyaga xos bo‘lgan uchta kasallik turini tavsiflab berdi. Ular quyidagilar; 1.Jismoniy zaiflik g‘oyasi, 2.Munosabat g‘oyasi, 3.Depressiv muxit.

Jismoniy zaiflik g‘oyasi deganda biz insonning o‘z kuchi va qobiliyatlarini past baxolashi yoki atrof muxit uchun jismoniy jihatdan yetarli emasligini his qilish bilan bog‘liq deya izohlashimiz mumkin.Bu fikrlar insonda ayni bir jismoniy xarakat (yugurish,mashq qilish)dagi birlamchi to‘siqlar ta’sirida shakllanishi mumkin [4]. Munosabat g‘oyasida esa dismorfomaniyaga chalingan shaxslar bevosita atrofdagilar bilan muloqotda to‘siqqa uchrashi nazarda tutiladi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday bemorlarda vizual ma’lumotlarni talqin qilishda kamchiliklar kuzatiladi. Doimiy yuzida qoniqmaslik, nafrat, jirkanish aks etib turadi. Shaxslararo munosabatda esa bu xolatlar to‘siq bo‘ladi. Atrofdagilarning kulishi, pichirlab gapirishi go‘yoki o‘zi haqida bo‘lgandek tuyiladi. Bular esa o‘z-o‘zidan ijtimoiy mahrumlik ya’ni bemorning jamiyatdan va hatto oilasidan uzoqlashishi, yolg‘izlanib qolishi, odamlardan qochishi va qo‘rquv kabi xususiyatlarning namoyon bo‘lishi bilan kechadi. Depressiv fonda esa aynan yuqorida keltirilgan xolatlar ta’sirida doimiy strees va depressiyada yurishi,bu esa o‘z navbatida qonda kartizol garmonining oshishi bilan kechadi. Albatta bu garmonlar balansi tashqi ko‘rinish o‘zgarishiga ta’sir etmasdan qolmaydi.

Dismorfomaniya shakllanishiga ko‘plab omillar sabab bo‘lishi mumkin. Tajribalar natijalaridan kelib chiqib bir qancha olimlarning ilmiy asoslariga to‘xtalib o‘tamiz. Xususan A.Sh.Txostov ta’kidlaganidek, ona bolani tarbiyalash jarayonida unda “madaniy tana” konfiguratsiyasini yaratadi. Madaniy tana funksiyasi nafaqat u shakllanadigan tabiiy funktsiyaga teng, balki uni sezilarli darajada o‘zgartirishga qodir [5]. Bolalikdan ustanovkalar shakllanishi yoxut

“shakllantirilishi” bizning muxut uchun o‘zgarmas jarayondir. Aynan ona bolani katta qilish, tarbiyalash moboynida o‘z ongidagi ijobiy, salbiy fikrlarni tartiblamasdan bolaga “o‘rnatishi” kelajada bolaning mana shunday psixologik nosog‘lom bo‘lishiga zamin yaratadi.

Dismorfomaniya asosida o‘tkazilgan tajribalarda uning paydo bo‘lishi va kechishida muxum rol o‘ynaydigan beshta omil sanab o‘tilgan. Ular;

1. Genetik faktorlar: Oilasida yoki yaqin qarindoshlari orasida ruhiy kasalliklarga chalinganlar bo‘lishi, dismorfomaniya rivojlanishi ehtimolligini oshirishi mumkin.

2. Psixologik omillar: O‘z-o‘zini baholashning pastligi,t ashqi ko‘rinishiga xaddan tashqari ko‘p e’tibor qaratishi hamda ijtimoiy qabul qilishga bo‘lgan ehtiyoj shaxsni bu holatga olib kelishi mumkin.


3. Ijtimoiy ta’sirlar: TV, reklama, modellik uyushmalarida ideal tanani ko‘p namoyon etishi odamlarda ularga o‘xshash uchun xarakat qilish hamda o‘z ko‘rinishidan norozilik yaqqol namoyon bo‘lishi.

4. Tajribalar: Dismorfomaniya bo‘lgan odamning o‘tmishida qabul qilinmaslik, ommaviy zo‘ravonliklar, o‘z kamchiliklari haqidagi salbiy tajribalar kasallik shakllanishiga sabab bo‘ladi.

5. Biologik omillar: Garmonlar balansi bilan bog‘liq bo‘lib ruhiyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladigan kartizol, serotonin va jinsiy garmonlar psixologik faoliyatga ta’sir ko‘rsatadi [7].


Bu omillarning barchasi bitta odamda kuzatilishi kasallikning og‘ir kechishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ammo sog‘lom insonda ham uchrashi ularga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bu kasallik bilan tashxis qo‘yish mumkin eknaligidan dalolat bermaydi. Uzoq vaqt kuzatishlar hamda tibbiy amoliyotlar bilan birgalikda psixolog yoki psixoterapevt hamkorligida bu kasallikka tashxis qo‘yish mumkin deya olamiz.

Xususan biz ilmiy ishimizda olib borgan tajribalar asosida ham bir qancha o‘zgarishlarni va omillarni aniqlashga muvofaq bo‘ldik. Bir qancha xususiyatlar ham dismorfomaniya shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi deya olishimiz mumkin, ulardan biri yashash muhiti.Ya’ni kimlardir shaharda kimlardir qishloqda. Aynan yashab kelayotgan muhit ham bizning tadqiqotda amaliy ahamiyat kasb etdi. Quyidagi jadvalda Toshkent va Navoiy viloyatidagi ayollardan so‘rovnomalar olganimizda tanaga munosabat bo‘yicha, salbiy va ijobiy jihatlar ko‘rib turganimiz kabi shahardagi ayol qizlarda yuqori natija bergan.




Ushbu deagrammalar oraqali ko‘rib turganimiz kabi sinaluvchilar yashash manzillari bo‘yicha tafovutlarni aniqladik. Bunda tana qismlaridan rozi yoki norozilikni ifodalovchi so‘rovnomamizda Vazn ($U=0,923, p<0,05$), Yuz go‘zalligi ($U=0,953, p<0,05$), Tishlar ($U=0,948, p<0,05$), Qorin ($U=0,875, p<0,01$), Dumba ($U=0,790, p<0,001$), Son,boldir

(U=0,898,p<0,01) va Ko‘kraklar (U=0,866,p<0,01) ishonch darajalari bilan eng ko‘p norozilik Toshkent shaharda yashovchi sinaluvchilarda bo‘lgan. Aynan ushbu tashqi muxitda ko‘rinib turadigan a’zolardan norozilikning paydo bo‘lishi yashab turgan jamiyatda qo‘yilgan stanartlarda ham namoyon bo‘ladi. Viloyatlarda esa deyarli ayol qizlarimiz uchun o‘zidan tashqi a’zolar bo‘yicha qoniqmaslik darajasi juda past kuzatilgan.



Keyingi o‘ziga ishonch va shaxslararo munosabatlarni aniqlash metodikalarida ham bir qancha tafovutlar kuzatdik. Ulardan Aql,qobiliyat real men bo‘yicha (U=0,830, p<0,01), Sog‘lik ideal men bo‘yicha (U=0,1150, p<0,05), Tengdoshlar orasida obro‘ (U=0,1018,p<0,01), Hukumron-liderlik (U=0,863, p<0,01), Egoitlik (U=0,883,p<0,05), Ishonchsizlik esa (U=0,830,p<0,01) kabi ishonch darajalarida farqlar kuzatdik. Bulardan Aql-qobiliyatdan hamda tengdoshlar orasidagi obro‘dan qoniqmaslik Navoiy viloyatida, sog‘liq, hukumronlik, egaestlik, ishonchsizlik esa Toshkent shahrida baland chiqqanini ko‘rishimiz mumkin.



Tadqiqotda ishtirok etgan 100 nafar sinaluvchilarimizni tana qismlaridan rozi yoki norozilik darajasini aniqlash maqsadida biz ularning farzandlari bor yoki yo‘qligi bilan ham solishtirdik.Eng ommabob norozilik ko‘p uchraydigan tana qismlari ularda ham qayd etildi. Xususdan farzandi bor qizlarimizda Vazn (U=0,851;p<0,01),Yuz go‘zalligi (U=0,945;p<0,05),Qorin (U=0,750;p<0,001) kabi tana a’zolaridan norozilik juda kuchli aks etgan.Bilamizki tug‘ruq,farzand o‘stirish va bu orada organizmning batamom yangilanishi,garmonlar faolligi o‘zgarishi birinchi o‘rinda vazn va yuz go‘zalligiga ta’sir qiladi.Shu bois ham bu shkalalar bo‘yicha farqlar 99% li ishonch darajasida aks etgan. Qorin mavzusi esa bundan mustasno deya olamiz.Tadqiqot natijalariga qaraganda 99,9% li ishonch darajasida farzandi bor sinaluvchilarda norozilik ifodalangan.Ya’nikim tug‘ruqdan keyingi qorin osilishlari kuzatilishi va oldingidek bo‘lmasligi ayollarga ta’sir o‘tkazgan deya olamiz. Dumba (U=0,678;p<0,001) va ko‘kraklar bo‘yicha (U=0,870;p<0,01) norozilik 99% li ishonch darajasida farzandi yo‘q qizlarda deyarli turmush qurmagan qizlarda ko‘proq kuzatilgan. Ushbu norozilik ham qomatning ideallashuviga ta’siri ostida paydo bo‘lgan desak xato bo‘lmaydi.

Hozirgi kunga kelib dismorfomaniya yechimi bo‘yicha bir qancha tibbiy va psixologik yondashuvlar mavjud.

1. Psixoterapiya: Bemorni davolashda xozirgi kunda agar chuqur patologik xolatga aylanmasa,psixologlar ayollar bilan o‘z “men” ini qabul qilishga bag‘ishlangan tushuntirish ishlari olib borishi mumkin.Bunda psixoterapiya ayniqsa kognitiv-behivorial terapiya samarali bo‘lishi mumkin.Jamoviy tarzda gruxiy korreksion treniglar ham jarayonni yumshatishga xizmat qiladi.

2. Dori-darmonlar: Tibbiyot jihatdan esa ayni klinikalariga asoslanib sababi topiladi va garmonlar balansi yoki tana tuzilishi o‘rganiladi. Shuningdek,dorilar,xususan antidepressantlar doktorlar nazorati ostida qo‘llanilishi mumkin.Eng muximi bu xolatni kuchaytiradigan tashqi muxitdagi odamlar fikri,shaxsiy o‘zgarishlar muxim axamiyatga ega.

3. Guruhiy terapiya va dastur yaratish:Bunda xuddi shu kasallik bilan aziyat chekadigan insonlar bilan muloqot qilish,o‘z fikrlarini bayon etish ancha samara berishi mumkin.Bunda shaxs “faqat menda” tushunchasidan xolos bo‘ladi va qabullanish yengilashiga olib kelishi mumkin.

4. Sog‘liqni saqlash mutaxasislari bilan maslaxatlashish:Bu borada tashqi ko‘rinishning aynan qanday qismi bilan qoniqmasligi asosida mutaxasi bilan maslaxat taklif etiladi.Dietolog,psixolog,psixoterapevt,kosmetolog,dermatolog shular jumlasidandir [8].

Shuni inobatga olishimiz mumkinki har bir kishi individual va yechimlar ham shunga mos.Kasallikning bosqichiga asoslanib ma’lum yechim topiladi hamda bemorga tadbiq etiladi.Bunda albatta nazorat ostida bo‘lish talab etiladi.Bundan tashqari shaxs shakllanishining turli yosh davrlarida tashqi ko‘rinish o‘zgarishi tabiiy xol. Buni qabul qila olishimiz kerak. Eng muximi bu bizning aqliy faoliyatimizni cheklamasligi aniqdir. Hatto xaqiqatdan jinsmoniy nogiron shaxslar o‘z ustida ishlab muvofaqiyat qozanarkan, sog‘lom inson tashqi ta’sirlar asosida bundan uzoqlashishi achinarli xolatdir. Atrofdagilar bizni qismlarga bo‘lib emas butun xolatda idrok qilishadi, biz o‘zimiz haqimizda yaratgan ta’surotlar jismoniy emas balki psixologik jihatdan namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda maqolada yoritganimiz kabi ayollarda o‘z-o‘zini past baxolashi individual xususiyatlar chegarasini buzilishiga olib keladi. Tashqi muhitdagi turli informatsiyalarni saralab qabul qilishlik kasallik shakllanishini yuzaga keltirmasligi mumkin deya olamiz. Bu komplekslarni shakllanishini oldini olishda bolalikdan tarbiyalash ham muhim ahamiyat kasb etishi e’tibordan xoli emas. Bu o‘rinda bir qancha tavsiya va takliflar ishlab chiqdik ular bilan tanishamiz.

Psixologik maslahat markazlarida tana qiyofasini qabul qilish, o‘zini qadrlash va ichki resurslarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus trening dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Oliy ta’lim muassasalari va xotin-qizlar bilan ishlovchi markazlarda tashqi ko‘rinish emas, shaxsiy qadriyat va ichki salohiyatga yo‘naltirilgan psixoprofilaktik seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy tarmoqlarning ruhiy ta’sirini kamaytirish uchun media savodxonlikni oshirish, ideal obrazlarning sun’iy yaratilishini tushuntirishga qaratilgan psixologik tushuntirish ishlari olib borilishi kerak.

Oila muhitida qiz farzandlarning tashqi ko‘rinishini tanqid qilishdan ko‘ra, ularning ichki imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashga asoslangan tarbiyaviy yondashuvni shakllantirish muhim.

Dismorfomaniya belgilariga ega ayollar bilan individual psixokorreksion ishlarda kognitiv-xulqiy terapiya elementlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ибодуллаев З. Тиббиёт психологияси. – Тошкент: Чўлпон номидаги матбуот уйи, 2012. – 320 б.
2. Юнусжонова З. С., Мирзаева С. А., Боситхонова Э. И. Психологик парвариш. – Тошкент, 2010. – 210 б.
3. Хайдаров Ф., Халилова Н. Умумий психология. – Тошкент, 2010. – 384 б.
4. Шомансуров Ш. Ш. Асаб ва руҳий касалликлар. – Тошкент, 1995. – 256 б.
5. Авдюнина Н. А. Об отношении к образу тела юношей и девушек мегаполиса // под ред. Ж. В. Афанасьевой, С. Л. Белых и др. – Москва, 2015. – С. 194–197.
6. Карсон Р. Аномальная психология. – Санкт-Петербург: Питер, 2004. – 912 с.
7. Петрова Н. Н., Грибова О. М. Дисморфофобия в клинике эстетической хирургии // Психические расстройства в общей медицине. – 2014. – № 1. – С. 26–30.
8. Фролова Ю. Г. Психосоматика и психология здоровья. – Минск: Харвест, 2003. – 480 с.

O‘sarova Qunduz Nasirillayevna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

KO‘RISH NUQSONI BUZILGAN SHAXSLAR PSIXIK RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA KOMPENSATOR MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ko‘rish qobiliyati buzilgan shaxslarning psixofizik rivojlanishi, sensor-perseptiv sohasi hamda emotsional-irodaviy xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Maqolada ko‘rlikning motorika, idrok va ehtiyojlar dinamikasiga ta’siri, shuningdek, nuqsonni kompensatsiya qilishda ijtimoiy muhit va tarbiyaning o‘rni yoritilgan. Maqola tiflopsixologiya sohasidagi zamonaviy qarashlarni umumlashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit So‘zlar*: tiflopsixologiya, ko‘rish nuqsoni, kompensatsiya, taktil idrok, Brayl alifbosi, emotsional-irodaviy soha, aksentuatsiya, ijtimoiy adaptatsiya.*

ОСОБЕННОСТИ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И КОМПЕНСАТОРНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ЛИЦ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье систематически анализируются психофизическое развитие, сенсорно-перцептивная сфера и эмоционально-волевые особенности лиц с нарушениями зрения. Рассматривается влияние слепоты на моторику, восприятие и динамику потребностей, а также освещается роль социальной среды и воспитания в компенсации дефекта. Статья служит обобщению современных взглядов в области тифлопсихологии.*

Ключевые Слова*: тифлопсихология, нарушения зрения, компенсация, тактильное восприятие, шрифт Брайля, эмоционально-волевая сфера, акцентуация, социальная адаптация*

SPECIFIC FEATURES OF MENTAL DEVELOPMENT AND COMPENSATORY MECHANISMS IN PERSONS WITH VISUAL IMPAIRMENTS

Abstract. *This article systematically analyzes the psychophysical development, sensory-perceptive sphere, and emotional-volitional characteristics of persons with visual impairments. The influence of blindness on motor skills, perception, and the dynamics of needs is examined, alongside the role of the social environment and education in defect compensation. The article serves to generalize modern perspectives in the field of typhlopsychology.*

Key words*: typhlopsychology, visual impairment, compensation, tactile perception, Braille, emotional-volitional sphere, accentuation, social adaptation.*

Jismoniy rivojlanish va motorika xususiyatlari. Ko'rish qobiliyati buzilishining boshlanishi bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ko'rlik qanchalik erta boshlansa, ikkilamchi og'ishlar, psixofizik xususiyatlar va noyob psixofizik rivojlanish shunchalik sezilarli bo'ladi [1]. Ko'r tug'ilgan bolalarning aqliy rivojlanishi ko'rish qobiliyatiga ega bolalarnikiga o'xshash naqshlarga amal qiladi, ammo vizual yo'nalishning yo'qligi motor qobiliyatlari va ijtimoiy tajriba mazmuniga eng sezilarli ta'sir qiladi.

Ko'rish qobiliyatining yo'qolishi bilan motor qobiliyatlari va fazoviy yo'nalishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bu motor funktsiyalarining keskin cheklanishiga olib keladi. Ko'zi ojiz odamlar ehtiyotkorlik bilan harakat qilishadi, natijada mushaklar rivojlanmagan bo'lib, bu esa jismoniy rivojlanishning kechikishiga olib keladi [2].

Sensor-perseptiv soha va idrokning o‘ziga xosligi

Ko'zi ojiz odamlar turli sohalarda yuqori sezuvchanlikni boshdan kechirishadi. Teri sezgilari ularning narsalarni idrok etishida muhim rol o'ynaydi. Natijada, taktil sezgirlik, ayniqsa barmoqlarning kaft yuzalarida keskin oshadi, chunki bu sohalar teginish hissiyotida eng faol ishtirok etadi [3].Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'ining birinchi falan-

gasining fazoviy farqlash chegarasi ko'r odamlarnikidan deyarli ikki baravar yuqori va shuning uchun sezgirlik normal ko'rish qobiliyatiga ega odamlarnikidan ikki baravar yuqori. Terining bu sohasidagi bu sezgirlikning oshishi ko'rlarning maxsus amaliyoti - Brayl alifbosini o'qish bilan izohlanadi, bunda ko'rsatkich barmog'i yetakchi rol o'ynaydi.Ko'rish funktsiyasining buzilishi muqarrar ravishda idroklarga ta'sir qiladi, chunki idrok etilmagan narsani tasavvur qilib bo'lmaydi. Ko'r va ko'rish qobiliyati zaif bolalar atrofdagi dunyo haqidagi idroklarni obyektlarni taktil, ketma-ket tekshirish orqali rivojlantiradilar [4]. Shuning uchun obyektlarni idrok etish sekin. Natijada, tasvirlar zaxirasi cheklangan va buzilgan. Tasvirlar parchalanib ketgan va sxematikdir. Ob'ekt tasvirida ko'pincha ko'plab muhim tafsilotlar yo'q. Natijada, tasvir yaxlitlikka ega emas va ba'zan tasvirlanayotgan obyektga mos kelmaydi. Ko'rlarning idrokidan obyektlarning ko'plab muhim xususiyatlari va atributlarining yo'qolishi umumiy tasvirlarning shakllanishiga to'sqinlik qiladi; shuning uchun ko'r bolalarning tasvirlari umumlashtirishning past darajasi bilan tavsiflanadi.

Eshitish idroki va nutqning ahamiyati

Ko'zi ojizlar va ko'rish qobiliyati zaif odamlar uchun turli xil faoliyatlarda teginish bilan bir qatorda, eshitish idroki va nutq ham muhim rol o'ynaydi. Tovushlar yordamida ko'zi ojizlar va ko'rish qobiliyati zaif odamlar atrof-muhitning jismoniy va fazoviy xususiyatlarini erkin aniqlashlari mumkin. Shuning uchun, ko'zi ojizlar va ko'rish qobiliyati zaif odamlarni o'qitish va o'qitish jarayonida farqlash mashqlari o'tkaziladi - tovush yordamida ob'ektning tabiatini aniqlash va baholash, murakkab tovush maydonini tahlil qilish va baholash: tovush signallari ma'lum ob'ektlar, qurilmalar va mexanizmlarga xos bo'lib, ular ichida sodir bo'ladigan jarayonlarning namoyon bo'lishi hisoblanadi [5].

Diqqat va irodaviy jarayonlar

Ko'rlarning diqqati odatda ko'radiganlarniki bilan bir xil naqshlarga amal qiladi va rivojlanish darajasiga yetishi mumkin, chunki diqqat biron bir aniq aqliy jarayonga, ayniqsa biron bir aniq analizatorning ishlashiga bog'liq emas, balki faoliyat orqali shakllanadi. Ko'r odamlar bir vaqtning o'zida bir ob'ektning bir nechta xususiyatlarini hisobga olish zarurati tufayli diqqatini boshqarish, uni jamlash va diqqat doirasini kengaytirish qobiliyatini oshiradilar.

Ko'rish qobiliyatining yo'qolishi hissiy va ixtiyoriy jihatlarni, xarakterni va hissiy tajribani shakllantiradi. Ko'zi ojizlar o'yin, o'rganish va professional faoliyatni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Kelajakda ko'rish qobiliyati zaif odamlar kundalik qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa murakkab tajribalar va salbiy reaktsiyalarga olib keladi.

Inson irodaviy xulq-atvor sub’ektidir. Ongning tartibga soluvchi tomoni bo‘lgan ma’naviy tarbiyalangan iroda, insonning ob’ektiv qadriyatlar olamiga intilishda qiyinchiliklarni yengib o‘tib, maqsadli harakatlarni amalga oshirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi [6]. Ko‘rish nuqsoni bo‘lgan va shu sababli o‘z yo‘lida ko‘zi ochiqlarga qaraganda beqiyos darajada ko‘p qiyinchiliklarga duch keladigan inson uchun irodaning rivojlanishi ulkan ahamiyat kasb etadi. Iroda mashqlarda, irodaviy xatti-harakatlarda, qiyinchiliklarni yengish jarayonida va insonning faol faoliyatida shakllanadi. Dastlab irodaviy harakatlar ehtiyojlar orqali rag‘batlantiriladi.Ko‘rlik va zaif ko‘ruvchanlik qo‘shimcha, ko‘pincha haddan tashqari qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, insonni vaqtincha faoliyatdan chetlatishi va ehtiyojlar rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi orqali shaxsning irodaviy xususiyatlari normal rivojlanishi uchun sharoitlarni murakkablashtiradi. Biroq, iroda shakllanishi shartlari faqat bular bilan cheklanib qolmaydi. Iroda ham, xuddi bilish va emotsional ruhiy aktlar kabi, tashqi muhitga bog‘liq bo‘lib, tashqi muhit uning rivojlanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘zi ojizlar irodaviy sohasidagi keskin, ba’zan bir-biriga butunlay qarama-qarshi bo‘lgan individual farqlar, birinchi navbatda, oila va maktabdagi tarbiya sharoitlari bilan bog‘liqdir [7]. Bolani o‘yin, so‘ngra o‘quv va mehnat faoliyatiga jalb qilish, irodaviy xatti-harakatlarni mashq qildirish, axloqiylikni (ma’naviy tarbiyalangan iroda asosi sifatida) shakllantirish va ko‘zi ochiqlar bilan ko‘zi ojizlar uchun umumiy bo‘lgan boshqa shart-sharoitlar, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘rlik natijasida yuzaga keladigan va iroda rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan qiyinchiliklarni yengishga imkon beradi.

Ko‘zi ojizlar psixikasining hissiy-irodaviy sohasi tiflopsixologiyada eng kam o‘rganilgan soha hisoblanadi. Bu, asosan, emotsiyalar, hissiyotlar va irodani ob’ektiv o‘rganishning qiyinligi bilan bog‘liq.

Ko‘rish qobiliyatining yo‘qligi hissiy bilish doirasini toraytirsa-da, emotsiya va hissiyotlarning eng umumiy sifatlariga, ularning turlariga va hayotiy faoliyatdagi ahamiyatiga ta’sir qila olmaydi. Qoniqish va qoniqmaslik, kuchlanish va bo‘shashish, qo‘zg‘alish va tinchlanish, shuningdek, emotsiya va hissiyotlarning qutbliligi (qarama-qarshiligi), ularning insonga stenik (faollashtiruvchi) yoki astenik (sustlashtiruvchi) ta’siri, axloqiy, intellektual va estetik his-tuyg‘ularning mavjudligi ko‘zi ochiqlarda ham, ko‘zi ojizlarda ham birdek kuzatiladi [8].

Emotsiya va hissiyotlarning sensor (sezgi) soha holatiga bog‘liqligi ehtiyojlar orqali amalga oshadi, ularning rivojlanishi esa bevosita hissiy tajriba to‘planishi bilan bog‘liq. Ko‘rishning yo‘qligi ehtiyojlarning xarakteri va dinamikasida o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi, bu esa ehtiyojlar qondirilganda yoki qondirilmaganda yuzaga keladigan hissiy kechinmalarda aks etadi.

Ko‘rlik faqat ayrim emotsiyalarning namoyon bo‘lish darajasiga, ularning tashqi ifodasiga (mimika va imo-ishoralarga) va ayrim turdagi hissiyotlarning rivojlanish darajasiga ta’sir qilishi mumkin. Ko‘zi ojizlarning hissiy kechinmalari doirasining biroz torayishi eng kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatadigan va idrokning eng yorqin hissiy ohangini yaratadigan ko‘ruv sezgilarining yo‘qligi bilan izohlanadi. Ko‘rishning yo‘qligi, asosan, bevosita hissiy aks ettirish jarayonida yuzaga keladigan emotsiya va tuyg‘ularga ta’sir qiladi.

Hissiyot turlarining shakllanishi va tarbiya omili

Ko‘rlik hissiy tajriba to‘plash imkoniyatlarini cheklash hamda ehtiyojlarning xarakteri va dinamikasini o‘zgartirish orqali emotsional hayot doirasining torayishiga, voqelikning ayrim (bilish qiyin bo‘lgan) jihatlariga nisbatan hissiy munosabatning biroz o‘zgarishiga olib keladi, biroq umuman olganda emotsiyalarning mohiyatini o‘zgartirmaydi [5].Emotsiyalarning namoyon bo‘lishi ko‘rish qobiliyati yo‘qolgan vaqtga va uning darajasiga bog‘liqdir. Voyaga yetgan yoshda ko‘rish qobiliyatini yo‘qotish, ungacha shakllangan ko‘plab va xilma-xil ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini keskin buzgani sababli, tug‘ma ko‘rlikka qaraganda hayotga nisbatan mutlaqo boshqacha hissiy munosabatni keltirib chiqaradi.Hissiyotlar emotsiyalar sohasida vujudga kelib, insonning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatining o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Faqat insonga xos bo‘lgan hissiyotlar yorqin namoyon bo‘luvchi ijtimoiy xarakterga ega. Hissiyotlarning turli shakllari - axloqiy, intellektual va estetik - voqelikni hissiy aks ettirish bilan turlicha darajada bog‘liqdir. Axloqiy hissiyotlar hissiy idrok bilan eng kam darajada bog‘langan bo‘lsa, intellektual hissiyotlar ko‘proq, sezgi, idrok va tasavvurlar bilan estetik hissiyotlar o‘rtasida esa eng yaqin aloqa mavjuddir. Shuning uchun ham sensor (sezgi) sohaning torayishi hissiyotlarning alohida turlariga turlicha ta’sir ko‘rsatadi [8].

Ko‘zi ojizlarning hissiyotlaridagi o‘ziga xosliklar tabiiy va ijtimoiy muhit bilan munosabatlarning buzilishi natijasida yuzaga kelib, faqatgina hissiyotlarning ifodalanish xarakteri va rivojlanish dinamikasida namoyon bo‘ladi. Ba’zan ko‘rlikda kuzatiladigan axloqiy va intellektual hissiyotlarning rivojlanishidagi anomaliyalar (burch hissi, xudbinlik, o‘rtoqlik tuyg‘usi, yumor hissi yoki yangilikka intilishning yo‘qligi va h.k.) faqatgina ko‘rlik bilan tushuntirilishi mumkin emas. Noo‘rin rivojlanish va salbiy yoki past tuyg‘ularning paydo bo‘lishi faqatgina tarbiyadagi kamchiliklar bilan izohlanadi, buning natijasida shaxs o‘zining jamiyatdagi o‘rnini noto‘g‘ri baholaydi.

Bu, birinchi navbatda, yaqqol ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan va insoniy munosabatlar tizimini aks ettiruvchi axloqiy hissiyotlarga tegishlidir. Salbiy axloqiy tuyg‘ularni ko‘rlik emas, balki oiladagi noto‘g‘ri munosabatlar (o‘ta g‘amxo‘rlik - giperopeka, bolani "taqdirdan jabrlangan" deb boshqalarga qarama-qarshi qo‘yish yoki aksincha, pedagogik qarovsizlik) hamda maktabdagi muhit (uning hayotga moslasha olmasligini ta’kidlash, ijtimoiy yordam bilan kamsitish, qobiliyatlarini haddan tashqari yuqori baholash va h.k.) keltirib chiqaradi. To‘g‘ri tarbiya berilganda, ko‘zi ojizlarning axloqiy hissiyotlari shakllanishida normadan hech qanday og‘ishlar bo‘lmaydi [7].

Intellektual hissiyotlar ham shaxsning ijtimoiy holatiga va uni o‘rab turgan muhitga sezilarli darajada bog‘liqdir. Intellektual hissiyotlarni rivojlantirishning zaruriy sharti - aqliy faoliyatda ishtirok etishdir. Ko‘zi ojizlarga bunday imkoniyatlarning yaratib berilishi ularning intellektual tuyg‘ularini rivojlantirish uchun keng yo‘l ochadi.

Estetik hissiyotlar va amaliy xulosalar

Ko‘rlik eng kuchli ta’sirini inson go‘zallikni idrok etishi va yaratishi jarayonida rivojlanadigan estetik hissiyotlarga ko‘rsatadi. Estetik tuyg‘ular nafaqat ko‘rish, balki boshqa sezgilar (eshitish, ushlab ko‘rish, ta’m va hid bilish) orqali ham yuzaga kelsa-da, to‘liq yoki qisman ko‘rlik insonga eng kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatadigan voqelik qirralarini idrok etishni imkonsiz qilib qo‘yadi [4]. Shu sababli, estetik hissiyotlar rivojiga ta’sir qiluvchi madaniy ehtiyojlar va qiziqishlar sohasida ham salbiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Tabiat go‘zalligidan yoki buyuk san’at asarlaridan bahramand bo‘lish ehtiyojining yo‘qligi ularni to‘liq va adekvat idrok etish imkoniyati yo‘qligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ko‘zi ojizlarning emotsional hayotini sezilarli darajada qashshoqlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, ko‘rish qobiliyati buzilgan shaxslarning psixik rivojlanishi umumiy ontogenetik qonuniyatlarga bo‘ysunadi, biroq sensor cheklovlar sababli o‘ziga xos kompensator mexanizmlarni talab qiladi. Ko‘rlik shaxsning emotsional-irodaviy sohasiga bilvosita ta’sir ko‘rsatib, ehtiyojlar dinamikasini o‘zgartiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, irodasizlik yoki axloqiy anomaliyalar ko‘rish nuqsonining bevosita natijasi emas, balki noto‘g‘ri ijtimoiy muhit va tarbiyaning mahsulidir. To‘g‘ri tashkil etilgan maxsus ta’lim va irodaviy sifatlarni shakllantirish orqali ushbu shaxslarning jamiyatga to‘laqonli integratsiyalashuvini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Литвак А.Г. Психология слепых и слабовидящих: учеб. пособие. – Санкт-Петербург: КАРО, 2006. – 336 с.

2. Ермаков В.П., Якунин Г.А. Основы тифлопедагогики: развитие, обучение и воспитание детей с нарушениями зрения. – Москва: ВЛАДОС, 2000. – 240 с.

3. Костючек Н.С. Развитие речи учащихся школ для слепых детей. – Москва: Просвещение, 1967.

4. Плаксина Л.И. Теоретические основы коррекционной работы в детских садах для детей с нарушением зрения. – Москва: ГороД, 1998.

5. Земцова М.И. Пути компенсации слепоты в процессе обучения и воспитания. – Москва: Изд-во АПН РСФСР, 1956.

6. Выготский Л.С. Собрание сочинений: в 6 т. – Т. 5: Основы дефектологии. – Москва: Педагогика, 1983. – 368 с.

7. Солнцева Л.И. Тифлопсихология детства. – Москва: Академия, 2000. – 250 с.

8. Кулагин Ю.А. Восприятие средств наглядности учащимися школы слепых. – Москва: Педагогика, 1969.

Alisherova Madina Alisherovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

SHAXS EMOTSIONAL BARQARORLIGI MUAMMOSINING PSIXOLOGIK DETERMINATSIYASI VA TIZIMLI-FUNKSIONAL TAVSIFI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaxs emotsional barqarorligi muammosining nazariy-metodologik asoslari va uning psixologik tabiatiga oid turli yondashuvlar tizimli tahlil qilingan. Maqolada emotsional barqarorlikning irodaviy nazorat, faoliyat ishonchliligi va ekstremal sharoitlarda "ego kuchi"ni saqlab qolishdagi o‘rni ilmiy asoslab berilgan. Olib borilgan tahlillar natijasida hissiy barqarorlik nafaqat emotsiyalarni jilovlash, balki murakkab emotsiogen vaziyatlarda faoliyatning optimal jadallik darajasini ta’minlovchi tizimli shaxs xususiyati ekanligi bo‘yicha xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar*: hissiy barqarorlik, emotsional bardoshlilik, bixeiviorizm, kognitiv dissonans, ego kuchi, integrativ xususiyat, ekstremal vaziyatlar, iroda kuchi, faoliyat ishonchliligi, psixofiziologik muvozanat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ДЕТЕРМИНАЦИЯ И СИСТЕМНО-ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ ОПИСАНИЕ ПРОБЛЕМЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье проведен системный анализ теоретико-методологических основ проблемы эмоциональной устойчивости личности и различных подходов к её психологической природе. Научно обоснована роль эмоциональной устойчивости в волевом контроле, надежности деятельности и сохранении «силы эго» в экстремальных условиях. В результате проведенного анализа сформулированы выводы о том, что эмоциональная устойчивость является не только средством сдерживания эмоций, но и системным свойством личности, обеспечивающим оптимальный уровень интенсивности деятельности в сложных эмоциогенных ситуациях.*

Ключевые слова*: эмоциональная устойчивость, эмоциональная выносливость, бихевиоризм, когнитивный диссонанс, сила эго, интегративное свойство, экстремальные ситуации, сила воли, надежность деятельности, психофизиологический баланс.*

PSYCHOLOGICAL DETERMINATION AND SYSTEMIC-FUNCTIONAL DESCRIPTION OF PERSONAL EMOTIONAL STABILITY

Abstract. *This article provides a systemic analysis of the theoretical and methodological foundations regarding the problem of personal emotional stability and various approaches to its psychological nature. The role of emotional stability in volitional control, operational reliability, and maintaining "ego strength" under extreme conditions is scientifically substantiated. Based on the conducted analysis, conclusions are formulated stating that emotional stability is not merely the suppression of emotions, but a systemic personality trait that ensures an optimal level of activity intensity in complex emotiogenic situations.*

Key words*: emotional stability, emotional resilience, behaviorism, cognitive dissonance, ego strength, integrative property, extreme situations, willpower, operational reliability, psychophysiological balance.*

Emotsional barqarorlik. Emotsional barqarorlik - bu shaxsning murakkab emotsiogen vaziyatlarda o‘z ruhiy muvozanatini saqlash, tashqi va ichki qo‘zg‘atuvchilarga nisbatan adekvat reaksiya ko‘rsatish hamda faoliyat samaradorligini pasaytirmasdan maqsadli harakatlarni davom ettirish qobiliyatini ifodalovchi integrativ shaxs xususiyatidir. Psixologik adabiyotlarda ushbu tushuncha shunchaki hissiyotlarni jilovlash emas, balki organizmning psixofiziologik va ruhiy

resurslarini kompleks safarbar etish holati sifatida talqin etiladi. Emotsional barqarorlikning fundamental asosi organizmning vegetativ ko‘rsatkichlarini kritik vaziyatlarda ham me’yorda ushlab turish va kuchli stressdan so‘ng gomeostaz holatiga tezkor qaytish qobiliyati bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, kognitiv-baholovchi jihatdan voqelikni subyektiv hissiyotlarga berilmasdan, xolis va mantiqiy tahlil qilish, yuzaga kelgan vaziyatni destruktiv to‘siq sifatida emas, balki konstruktiv yechim talab qiladigan vazifa sifatida idrok etish muhim ahamiyat kasb etadi. Irodaviy-regulyativ nuqtayi nazardan esa, impulsiv reaksiyalarni ongli ravishda jilovlash va hissiy energiyani faoliyat maqsadlariga yo‘naltira olish shaxsning "ego kuchi" namoyon bo‘lishini ta’minlaydi.

Emotsiyalar tadqiqotining ilmiy asoslari

Emotsiyalar tadqiqoti fanda muhim o'rin egallaydi; antik davrdan hozirgi kungacha inson emotsiyalarining mohiyatini, ularning paydo bo'lish sabablari va mexanizmlarini, shuningdek, ularni tartibga solish yo'llarini tushuntiruvchi ko'plab nazariyalar ishlab chiqilgan. Tarixiy jihatdan emotsiya (lot. emovere – qo'zg'atish, hayajonlantirish) termini, R. Reberning [1] so'zlariga ko'ra, ta'riflashda ancha murakkab hisoblanadi; ehtimol, psixologiyada boshqa hech bir termin bunday noaniqlikni undan foydalanish chastotasi bilan bunday darajada uyg'unlashtirmaydi. Psixologik adabiyotlarda emotsiyalar deganda inson va hayvonlarning ichki hamda tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga subyektiv reaksiyalari tushuniladi, ular qoniqish yoki qoniqmaslik, quvonch, qo'rquv va shu kabilar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Emotsiyalar inson hayot faoliyatining deyarli barcha ko'rinishlariga hamrohlik qiladi va ruhiy faoliyatni ichki tartibga solish mexanizmi bo'lib xizmat kuriadi. Emotsiyalarning chuqurligi va davomiyligi boshdan kechirilayotgan hodisaning muayyan inson uchun ahamiyatini tavsiflaydi. Hissiy barqarorlik muammosi zamonaviy psixologiyada eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. Hissiy barqarorlik tushunchasini ta'riflash xuddi emotsiya tushunchasining o'zi kabi qiyin. Uni tushunishga hissiy beqarorlik tushunchasi orqali yondashishga harakat qilamiz.

Psixologik maktablar va emotsiyalar nazariyasi

O‘tgan asrning 20-yillarida Amerika psixologiyasida yangi yo‘nalish - bixeiviorizm paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalishga 1913-yilda amerikalik psixolog J. Uotsonning [2] "Psixologiya bixeiviorist nuqtayi nazaridan" nomli maqolasi nashr etilishi bilan asos solindi. Uning fikricha, barcha ruhiy hodisalar organizmning reaksiyalariga, asosan harakat reaksiyalariga bog‘liq: tafakkur nutq-harakat aktlari bilan, emotsiyalar (hissiyotlar) esa organizm ichidagi o‘zgarishlar va shu kabilar bilan tenglashtiriladi. Ushbu qarashlar bilan bog‘liq holda ilmiy dastur ham shakllandi - ya’ni xulq-atvorni boshqarishni o‘rganish. Bixeivioristlar ong va boshqa "ruhiy asos" bilan bog‘liq bo‘lgan, bevosita kuzatib bo‘lmaydigan barcha tushunchalarni ilmiy psixologiya sohasidan chiqarib tashlash kerak deb hisoblashgan. Subyekt tomonidan o‘z sezgilari va taassurotlarini "anglash" tadqiqotchilar uchun o‘ta subyektiv va mutlaqo foydasiz deb topildi. Aksincha, o‘sha sezgi va taassurotlarning obyektiv tashqi ko‘rinishlari - masalan, ko‘z qorachig‘i o‘lchamining o‘zgarishi, puls chastotasi va boshqalar - xulq-atvorning ushbu shakllarini miqdoriy baholash va his-tuyg‘ularni "o‘lchash" imkonini beradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari vaziyatga (stimulga) qarab xulq-atvorni (reaksiyani) bashorat qilish va aksincha - reaksiyaga qarab uni keltirib chiqargan stimul haqida xulosa chiqarish deb hisoblanar edi. Psixologik nazariyaning tabiiy-ilmiy asosi sifatida shartli reflekslar konsepsiyasi qabul qilindi.

Vaqt o‘tishi bilan bixeiviorizmning konseptual apparatida o‘zgarishlar yuz berdi va bu uni neobixeiviorizmga aylanishiga olib keldi. Kechki bixeiviorizm vakillaridan biri E. Tolmen [3] inson reaksiyasiga uning maqsadlari, ehtiyojlari, niyatlari, gipotezalari va vaziyatlarining ta’sirini ko‘rsatib o‘tdi. Klassik bixeiviorizmni qayta ko‘rib chiqishning yana bir varianti - XX asrning 30-yillarida B. Skinner [4] tomonidan ishlab chiqilgan operant bixeiviorizm konsepsiyasi bo‘ldi va unda reaksiya tushunchasi modifikatsiya qilindi. Eng nufuzli bixeivioristlardan biri bo‘lgan B. Skinner [5], xulq-atvor boshqa tamoyil asosida qurilishi mumkinligini taxmin qildi - ya’ni u reaksiyadan oldingi stimul bilan emas, balki xulq-atvorning ehtimoliy natijalari (oqibatlari) bilan belgilanadi. Bu shuni anglatadiki, hayvon yoki inson, agar tajriba yoqimli oqibatlarga olib kelgan bo‘lsa, uni takrorlashga intiladi, yoqimsiz oqibatlar bo‘lganda esa undan qochadi. Bixeiviorizm hozirgi kunda ham mavjud bo‘lsa-da, psixoanaliz va gumanistik psixologiya bilan solishtir-

ganda ikkinchi darajada turadi. Bixeivioristlar o‘z nazariyalarida hali "hissiy barqarorlik" yoki "stressga chidamlilik" atamalarini alohida ajratib ko‘rsatmagan bo‘lsalar-da, ushbu tushunchalarga juda yaqin kelishdi va ularni kelgusida o‘rganish uchun asos yaratdilar.

Inson emotsional jarayonlari va holatlari dinamikasida organik va jismoniy ta’sirlar kabi, kognitiv-psixologik omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Shu munosabat bilan, inson emotsiyalarini kognitiv jarayonlarning dinamik xususiyatlari orqali tushuntiruvchi yangi konsepsiyalar taklif etildi. Shunday nazariyalardan biri sifatida L. Festingerning [6] kognitiv dissonans nazariyasini keltirish mumkin. Unga ko‘ra, ijobiy emotsional kechinma insonning kutganlari tasdiqlanganda va kognitiv tasavvurlari hayotga tatbiq etilganda, ya’ni faoliyatning real natijalari ko‘zlangan natijalarga mos kelganda (konsonans holatida) yuzaga keladi. Salbiy emotsiyalar esa faoliyatning kutilgan va haqiqiy natijalari o‘rtasida tafovut, nomuvofiqlik yoki dissonans yuzaga kelgan hollarda paydo bo‘ladi va kuchayadi. P. Fress [7], R. Kettell [8], T. Ribo [9] va L. Festingerning [10] emotsiyalar paydo bo‘lishi va ularning dinamikasi haqidagi fikrlariga S. Shexterning [11] qarashlarini ham qo‘shish mumkin. U emotsional jarayonlarga insonning xotirasi va motivatsiyasi ham salmoqli hissa qo‘shishini ko‘rsatib berdi. S. Shexter taklif qilgan emotsiyalar konsepsiyasi kognitiv-fiziologik deb nomlandi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, yuzaga kelgan emotsional holatga idrok etilayotgan stimullar va ular keltirib chiqaradigan tana o‘zgarishlaridan tashqari, insonning o‘tmishdagi tajribasi hamda mavjud vaziyatni o‘zining dolzarb qiziqishlari va ehtiyojlari nuqtayi nazaridan baholashi ham ta’sir ko‘rsatadi.

Olimlarning hissiy barqarorlik bo‘yicha talqinlari

Ye. A. Mileryan [12] «Uchuvchilarni psixologik saralash» kitobida yozishicha, hissiy barqarorlik deganda emotsiogen omillarga nisbatan ta’sirchan bo‘lmaslikni (yuzaga keladigan astenik emotsiyalarni nazorat qilish va jilovlash qobiliyati bilan birga) tushunish kerak. Boshqa holatlarda hissiy barqarorlik deganda emotsional qo‘zg‘alishning shunday darajasi tushuniladiki, u bo‘sag‘a (limit) qiymatidan oshib ketmaydi, inson xulq-atvorini buzmaydi va hatto faoliyat samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, O. A. Chernikova [13] yozishicha, «sportchining hissiy barqarorligi uning kuchli sport emotsiyalarini his qilmay qo‘yishida emas, balki bu emotsiyalarning... optimal jadallik darajasiga yetishida ifodalanadi».

V. L. Marishchukka [14] (1982) ko‘ra, hissiy barqarorlik murakkab faoliyatni bajarishda ortiqcha emotsional qo‘zg‘alish holatini yengish qobiliyatini ifodalaydi. V. A. Plaktiyenko [15] va Yu. M. Bludov [16] (1985) hissiy barqarorlikni faoliyat ishonchliligi bilan bog‘laydilar: «Hissiy barqarorlik - bu maqsadli vazifalarni ishonchli bajarishga imkon beruvchi temperament xususiyatidir...». Ularning fikricha, hissiy barqarorlik asab-ruhiy emotsional energiya zaxiralaridan optimal foydalanish orqali ta’minlanadi.

Yu. N. Kulyutkin [17] va G. S. Suxobskaya [18] (1996) pedagogik faoliyat bo‘yicha psixologik tadqiqotlar o‘tkazib, shunday xulosaga keldilar: psixologik barqarorlik pedagogning o‘z rejalari (niyatlari)ni amalga oshirishda qanchalik sabrli va qat’iyatli ekanligi, hatto eng stressli vaziyatlarda ham vazminlik va o‘zini tuta bilish unga qanchalik xosligi, boshqa odamlar tomonidan bo‘ladigan salbiy emotsional ta’sirlar sharoitida o‘zini qanchalik tuta olishi bilan namoyon bo‘ladi. N. A. Aminov [19] (1988) yuqori hissiy barqarorlikni «o‘zining emotsional reaksiyalarini yaxshiroq nazorat qiladigan» shaxslarga nisbat beradi.

Ushbu fikrlarda hissiy barqarorlik sifatida, mohiyatan, emotsional reaksiyalarni bosish (jilovlash) qobiliyati, ya’ni sabr-toqat, qat’iyatlilik, o‘z-o‘zini nazorat qilish va vazminlikda (o‘zini tuta bilishda) namoyon bo‘ladigan hamda faoliyat samaradorligining barqarorligiga olib keladigan «iroda kuchi» tushuniladi. K. K. Platonov [20] (1984) hissiy barqarorlikni bejizga turlarga ajratmagan.

- emotsional-irodaviy (insonning o‘z emotsiyalarini irodaviy boshqarish darajasi);
- emotsional-motor (psixomotorika barqarorligi);
- emotsional-sensor (sensor harakatlar barqarorligi).

Emotsiyalar va hissiy barqarorlik bo‘yicha olib borilgan fundamental tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inson ruhiyati - bu shunchaki tashqi stimullarga beriladigan reaksiyalar yig‘indisi emas, balki kognitiv anglash va irodaviy nazoratning murakkab simbiozidir.

Olimlarning (J. Uotsondan tortib L. Festingergacha) qarashlarini umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash lozimki, hissiy barqarorlik - bu emotsiyalarning "muzlashi" emas, balki ularning "madaniylashishi"dir. Ya'ni, inson o'zining ichki affektiv holatlarini ongli ravishda faoliyat maqsadlariga bo'ysundira olishi uning shaxsiy yetukligidan dalolat beradi. Fikrimcha, hissiy barqarorlik tushunchasi zamonaviy psixologiyada "ruhiy immunitet" vazifasini o'taydi: u tashqi stress va dissonanslar sharoitida shaxsning ichki yaxlitligini (identikligini) parchalanishdan asrab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Reber A.S. The Penguin dictionary of psychology. – London, 1985.
2. Watson J.B. Psychology as the behaviorist views it // Psychological Review. – 1913. – Vol. 20. – P. 158–177.
3. Tolman E.C. Purposive behavior in animals and men. – New York: Century, 1932.
4. Skinner B.F. The behavior of organisms. – New York, 1938.
5. Skinner B.F. Operant behavior // American Psychologist. – 1963. – Vol. 18. – No. 8. – P. 503–515.
6. Festinger L. A theory of cognitive dissonance. – Stanford: Stanford University Press, 1957.
7. Фресс П. Эмоции // Экспериментальная психология / под ред. П. Фресса, Ж. Пиаже. – Москва, 1975.
8. Кеттелл Р.Б. Психология индивидуальности. – Москва, 2001.
9. Рибо Т. Психология чувств. – Санкт-Петербург, 1898.
10. Фестингер Л. Теория когнитивного диссонанса. – Санкт-Петербург, 1999.
11. Schachter S. The interaction of cognitive and physiological determinants of emotional state. – New York, 1964.
12. Милерян Е.А. Психологический отбор летчиков. – Киев, 1966.
13. Черникова О.А. Психологические особенности спортивных эмоций. – Москва, 1980.
14. Марищук В.Л. Перенапряжение и эмоциональная устойчивость. – Москва, 1982.
15. Плахтиенко В.А. Надежность в спорте. – Москва, 1983.
16. Блудов Ю.М. Личность и надежность спортсмена. – Москва, 1985.
17. Кулюткин Ю.Н. Психология обучения взрослых. – Москва, 1985.
18. Сухобская Г.С. Мотивационно-ценностные аспекты обучения. – Москва, 1996.
19. Аминов Н.А. Психофизиологические основы педагогической деятельности. – Москва, 1988.
20. Платонов К.К. Структура и развитие личности. – Москва: Наука, 1986.

Saidova Zuhra Narzullayevna
O‘zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistranti

IJODIYLIK VA IJODIY QOBILIYATLARNING NAZARIY JIHATDAN O‘RGANILISHI

Annotatsiya. *Ijodiylik va ijodiy qobiliyatlar murakkab va ko‘p qirrali fenomen sifatida psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlari tomonidan keng o‘rganiladi. Ijodiylik insonning yangi g‘oyalarni yaratish, mavjud bilimlarni yangicha kontekstda qo‘llash va muammolarni innovatsion tarzda hal qilish qobiliyati sifatida ta’riflanadi. Ijodiylik shaxsning kognitiv, emosional va ijtimoiy xususiyatlarini o‘zida mujassam etuvchi murakkab jarayon sifatida talqin qilinadi. Ijodiy qobiliyatlar shaxsning ijodiylikni amalda namoyon etish imkoniyatlarini belgilovchi psixologik xususiyatlar majmui sifatida ko‘riladi. Ular orasida fikrlashning moslashuvchanligi, original g‘oyalar yaratish, tahliliy va sintez qobiliyati, tasavvur kuchi va estetik did muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada ijodiylik va ijodiy qobiliyatlar nazariy jihatdan o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar*: moslashuvchanlik, motivatsiya, identifikatsiya, o‘zini o‘zi anglash, stereotip, ijodiy xulq-atvor, optimistik qarash, psixik jarayonlar.*

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ КРЕАТИВНОСТИ И ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ

Аннотация. *Творчество и творческие способности широко изучаются в психологии, педагогике и социологии как сложное и многогранное явление. Творчество определяется как способность человека генерировать новые идеи, применять имеющиеся знания в новом контексте и решать проблемы инновационным образом. Оно рассматривается как сложный процесс, объединяющий когнитивные, эмоциональные и социальные характеристики личности. Творческие способности рассматриваются как совокупность психологических качеств, определяющих возможность личности проявлять творчество на практике. Среди них особую роль играют гибкость мышления, способность к созданию оригинальных идей, аналитические и синтетические способности, воображение и эстетический вкус. В данной статье рассматриваются теоретические аспекты творчества и творческих способностей.*

Ключевые слова*: гибкость, мотивация, идентификация, самопознание, стереотип, творческое поведение, оптимистический взгляд, психические процессы.*

THEORETICAL STUDY OF CREATIVITY AND CREATIVE ABILITIES

Abstract. *Creativity and creative abilities are studied extensively by the disciplines of psychology, pedagogy, and sociology as a complex and multifaceted phenomenon. Creativity is defined as a person’s ability to generate new ideas, apply existing knowledge in novel contexts, and solve problems in an innovative manner. It is interpreted as a complex process that integrates an individual’s cognitive, emotional, and social characteristics. Creative abilities are viewed as a set of psychological traits that determine an individual’s potential to manifest creativity in practice. Among these, cognitive flexibility, the capacity to generate original ideas, analytical and synthesis skills, imagination, and aesthetic taste play a crucial role. This article explores the theoretical aspects of creativity and creative abilities.*

Key words*: flexibility, motivation, identification, self-awareness, stereotype, creative behavior, optimistic outlook, mental processes.*

Kirish. Ijodiylik inson tafakkurining eng murakkab va ko‘p qirrali jihatlaridan biri bo‘lib, u yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yechimlar topish va mavjud bilimlarni yangicha

talqin qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ilm-fan rivojida ijodiylik muhim omil sifatida e’tirof etilib, uning nazariy asoslarini o‘rganish psixologiya, pedagogika va boshqa ijtimoiy fanlar doirasida keng tadqiq etilmoqda. Ijodiylik tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Ba’zi tadqiqotchilar uni shaxsning individual xususiyati sifatida baholasa, boshqalar uni muayyan faoliyat jarayonida yuzaga keladigan mahsuldorlik ko‘rsatkichi deb hisoblaydi. Umuman olganda, ijodiylik yangi, original va ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot yaratish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Bu jarayon tafakkurning moslashuvchanligi, mustaqilligi va keng qamrovliligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. G. Gutman yozganidek, ijodiy faoliyatni tushunish uchun nafaqat fikrlash jarayonlarini, balki yangi narsalarni ishlab chiqarish uchun bu jarayonlarni harakatga keltiruvchi dinamik kuchlarni ham hisobga olish kerak. Insonni ijodiy faoliyatga undaydigan narsa haqida turli xil qarashlar mavjud. Suqrot birinchi bo‘lib shoirlar o‘z asarlarini kuch yoki mahorat bilan emas, balki qandaydir tabiiy instinktga ergashish orqali yaratishini ta’kidladi. Darhaqiqat, ko‘plab daholar va iste’dodli odamlar ijodga bo‘lgan ishtiyoq ularda instinktiv ravishda paydo bo‘lganligini ta’kidlashadi.

Fransuz olimi M. Rorbax ham o‘z-o‘zini kuzatishga asoslanib, ijodkorlik uchun motivatsiya o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi va rivojlanadi - deb hisoblaydi. Mole, Z.Freyd, K.Yung, K.Levin va bixevioristlarning g‘oyalariga asoslangan holda, ijod motivatsiyasini uch qatlamli tuzilma sifatida taqdim etadi. Eng past darajada - butun insoniyatning qisqargan qiyofasi, uning tabiat qonunlariga yoki mifologik tasvirlarga, insoniyat orzulariga, Prometey va Ikardan tortib, faylasuf toshiga va uzoq umr ko‘rish eliksiriga bog‘laydilar. O‘rta daraja ehtiros, yuqori daraja esa ijtimoiy motivlarni masalan, ilmiy e’tirofga, shon shuhratga yo‘naltirilganligini ifodalaydi.

A.S.Prangishvili, A.E.Sheroziya, F.V.Bassin rassomning ijodiy faoliyatini umidsizlikka javob berishga ongsiz intilish, adabiy asar esa proyeksiya va identifikatsiya mexanizmi orqali ziddiyatlarni yengish mahsuli sifatida qaraydi. Tadqiqotchilar ijodiy sohadagi odamlarni o‘rganganlarida, ular aniqlagan asosiy narsalardan biri shundaki, odamlar biror narsa yaratishni boshlashdan oldin doimo muammoni modellashtirishadi. Ogayo universiteti Keyt Marman boshchiligidagi bir guruh olimlar, agar odamlar faktlarga zid bo‘lgan yoki nima bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalar haqida o‘ylasalar, o‘zlarining ijodkorliklarini ikki baravar oshirishlari mumkinligini aniqladilar. Bu nuqtayi nazar ularni boshqa g‘oyalar va ijodiy fikrlarga olib keldi. Har doim oldingizda biron bir vazifa turganda, uni amalga oshirishning turli usullarini ko‘rib chiqishga vaqt ajrating va iloji boricha ko‘proq ijodiy yechimlarni toping. Vazifani bajarganingizdan so‘ng, nimani boshqacha qilish mumkinligi haqida o‘ylashga vaqt ajrating. Ijodkorlik haqidagi yana bir afsona shundaki, u bosim ostida rivojlanadi. Favqulodda vaziyatlarda noyob yechimlarni taklif qiladigan odamlarning yaxshi misollaridan biri bu - eng yaxshi ijodiy yechimni topish uchun muammo haqida o‘ylashga vaqt bering.

Ijod - bu deseksualizatsiya, ya’ni jinsiy energiyani ijodiy faoliyatga o‘tkazish. Bostirilgan intilishlar va tajribalar ijod mahsullarida mujassamlanadi, sublimatsiya sodir bo‘ladi. Z.Freyd nazariyasining yana bir pozitsiyasi ijodkorlikning eng muhim manbai ong osti, ongsiz psixik jarayonlardir, degan fikrdir. Z.Freydning fikricha, ongsizlik psixikaning eng “ijodiy” qismidir. K.Yung ongsizlik kelajakdagi ruhiy vaziyatlarning mikroblari, yangi fikrlar, ijodiy kashfiyotlar bilan to‘la ekanligini ta’kidladi. Bu ijodiy sovg‘a, ijodiy ilhom manbai.

Yung insonda ikkita tamoyilni ajratib ko‘rsatdi - shaxsiy va ijodiy, ular antagonistik munosabatlarda bo‘lishi mumkin. Har bir ijodkor qandaydir ikkilanish yoki paradoksal xususiyatlar sintezidir. Bir tomondan, bu insonga xos shaxsiy narsa, boshqa tomondan, bu shaxssiz insoniy jarayon. U “Inson” so‘zining eng yuqori ma’nosida, jamoaviy odam, insoniyatning ongsiz ravishda harakat qiladigan ruhining tashuvchisi va haykaltaroshidir. Ijod insonda tuproqdagi daraxtdek yashaydi, o‘sib boradi, undan zarur sharbatlar oladi. Analitik psixologiya bu hodisani avtonom ijodiy kompleks deb ataydi, u ruhning alohida bo‘lagi sifatida o‘zining ruhiy hayotini boshqaradi, ong ierarxiyasidan chetlashtiriladi va energiya darajasiga, kuchiga mos keladi. Ijodiy sovg‘a - bu insonning ongi va irodasiga bo‘ysunmaydigan taqdirdir.

Geshtalt psixologiyasi nuqtai nazaridan, ijodkorlik - bu fikrlash jarayonida bir-biriga zid bo‘lgan faktlarni yagona bir butunlikka yopish, xotirada saqlanadigan bilimlarning individual qismlarini o‘zaro ta’sirga olib kirish, bu tushunchaga olib keladi (Keller, 1930; Wertheimer, 1945).

Kelli “ijodkorlik” atamasini ishlatmasdan, birinchi marta muqobil faraziy fikrlashni tavsiflovchi ijodkorlik va ijodiy shaxsning o‘ziga xos nazariyasini ishlab chiqdi. Kelli uchun inson - tadqiqotchi, dunyo bilan samarali, ijodiy munosabatda bo‘lgan, dunyoni sharhlaydigan, axborotni qayta ishlaydigan, voqealarni bashorat qiladigan olim. Inson hayoti - bu o‘rganish, voqelik haqidagi doimiy farazlar, uning yordamida u voqealarni oldindan bilish va boshqarishga harakat qiladi. Dunyoning tasviri faraziy bo‘lib, odamlar farazlarni shakllantiradilar, ularni sinab ko‘radilar, ya'ni ular ilmiy tadqiqot jarayonida olimlar qiladigan aqliy harakatlarni amalga oshiradilar. Hayot ijodiy tadqiqot jarayonidir.

Gumanistik psixologiyaga xos bo‘lgan insoniyat tabiatiga optimistik qarash ijodkorlikning mohiyati va rolini tushunishga ham tegishli. Ijodkorlikni o‘rganishga gumanistik yondashuvning asoschisi A.Adlerdir. U har bir inson dastlab ijodiy kuchga ega ekanligiga ishongan, buning yordamida o‘z hayotini boshqarish va o‘z uslubini yaratish mumkin. A.Adler ijodkorlikning kompensatsion nazariyasi fan, san’at va madaniyatning boshqa sohalarini insonning o‘z kamchiliklarini qoplash yo‘li deb hisoblaydi. Insonning ijodi har bir shaxsda o‘z tajribasining barcha jabhalariga ta'sir qiladi va insonni o‘z hayotining me'mori va shaxsiyatining yaratuvchisiga aylantiradi. Ijodkorlik insonning turmush tarzi, shaxs esa o‘z hayotining yaratuvchisi sifatida qaraladi (E. Fromm, G. Allport va boshqalar).

E.Fromm ijodkorlikni “hayron bo‘lish va o‘rganish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda yechim topa olish qobiliyati, bu yangi narsani kashf etishga e’tibor qaratish va o‘z tajribasini chuqur anglash qobiliyati” deb ta’riflaydi. Gumanistik psixologiya vakillariga K.Rodjers va A.Maslou, R.Mey, D.Morenolar kiradi. Ularning ijodkorlik tabiati haqidagi qarashlari juda yaqin, ammo shunga qaramay ularning har biri bu masalaning turli tomonlarini qamrab olgan. Shaxsga yo‘naltirilgan terapiya asoschisi Rodjers nazariyasidagi markaziy tushuncha “tajriba maydoni” (yoki fenomenal maydon) dir. U insonning zaruriyat tamoyiliga ko‘ra, ehtimol, o‘zi sezmagan holda tanlaydigan hodisalar, hislar va ta’sirlarni o‘z ichiga oladi. Tajriba sohasi shakllanish jarayonida bo‘lgan o‘z-o‘zini - uyushgan, bog‘langan geshtaltni o‘z ichiga oladi. Bu insonning o‘tmish tajribasi, hozirgi ma’lumotlari va kelajakdagi umidlari asosida o‘ziga bo‘lgan nuqtayi nazarini anglatadi.

K.Rojersning fikriga ko‘ra, o‘z-o‘zini ochishga inson faoliyatining asosiy motivi - o‘zini o‘zi anglash istagi yordam beradi. Bu istak tug‘ma xususiyatga ega bo‘lib, uning amalga oshirilishi shaxsning ijodiy munosabatidan sezilarli darajada ta’sirlanadi. Ijodkor odamlarga bo‘lgan ehtiyoj, K.Rojersning fikricha, ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarning ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy dunyodagi vaziyat bilan bog‘liq. Passiv va madaniy jihatdan cheklangan odam tashqi dunyo tomonidan taqdim etilgan savollar va muammolar oqimiga dosh bera olmaydi. Demak, K.Rodjers mulohazalari mantig‘idan kelib chiqib, fan va texnika taraqqiyotining hozirgi darajasi yangi dunyoga ajralmas ijodiy moslashish talabini ilgari suradi va ijodkorlikning o‘zi ham insonning o‘zini o‘zi anglashining ajralmas qismidir. Ijodkorlikning asosiy motivi - bu insonning o‘zini anglash istagi. U har bir shaxsda mavjud, ammo psixologik himoya qatlami ostida yashirin bo‘lishi mumkin.

A.Maslouning fikricha, “ijodkorlik insonning universal funksiyasi bo‘lib, u o‘zini namoyon qilishning barcha shakllariga olib keladi”. S. Mednik (1969) ijodkorlikning assotsiativ nazariyasini ishlab chiqdi. Uning fikricha, ijodkorlikning mohiyati aqliy sintezning yakuniy bosqichida stereotiplarni yengish qobiliyatida va assotsiatsiyalar maydonining kengligidadir. Muammoning elementlari semantik makonning uzoqroq zonalaridan qanchalik ko‘p olinsa, hal qilish jarayoni shunchalik ijodiy bo‘ladi. Mednikning so‘zlariga ko‘ra, ijodiy jarayon assotsiativ elementlarni vazifaga javob beradigan yangi kombinatsiyalarga qayta shakllantirishdir.

K. Rojers hayotning o‘zi va dunyoni idrok etish ijodiy harakatdir, deb yozadi. Uning pessimistik ta’kidlashicha, zamonaviy madaniyatning kamchiliklari shundaki, unda ijodkorlik kam va buning uchun jazo nafaqat individual va guruh zo‘ravonligining yomon moslashuvi, balki barcha

xalqlarning butunlay yo‘q qilinishi bo‘ladi. Ijodkorlikning yo‘qligi sababi o‘rtacha standartlarga yo‘naltirilgan mavjud ta'lim tizimidir. “Biz ta'lim olganimizdan so‘ng, biz erkin, ijodiy va o‘ziga xos fikrlaydigan odamlarga emas, balki stereotipli tafakkurga, to‘liq ta’limga ega bo‘lgan konformistlarga aylanamiz”. K.Rojers ijodkorlikni umuminsoniy hodisa deb hisoblagan: “Tasvir, adabiy asar, simfoniya yaratishda, yangi qotillik qurollarini ixtiro qilishda, ilmiy nazariyalarni ishlab chiqishda, insoniy munosabatlarda yangi xususiyatlarni izlashda yoki yangi qirralarni yaratishda ijodkorlikning jiddiy farqi yo‘q deb hisoblash mumkin. Bu uning o‘z shaxsiyatiga bog‘liq hisoblanadi”.

G. S. Altshuller “Ijodiy shaxsni rivojlantirish nazariyasi”ni ishlab chiqqan. Ushbu nazariya muallifi nuqtayi nazaridan, ijodkorlik qobiliyati iste’dod emas, balki insonning tabiatidir. Ijodkorlik inson mavjudligining normasidir. Har bir inson ijodiy qobiliyatga ega, ammo jamiyatda ehtiyoj paydo bo‘lmaguncha va shaxsda amalga oshirish imkoniyati paydo bo‘lmaguncha ijodiy genetik xazina o‘z-o‘zidan ochilmaydi. Asosiysi, qobiliyatlarni rivojlantirish emas, balki ijodkorlik uchun motivatsiyani yaratish va ijodiy ish texnologiyasini o‘zlashtirishdir. Ijodiy shaxsni rivojlantirishning asosiy yo‘li o‘z-o‘zini takomillashtirishdir. Tashqi muhitning roli shaxsni ijodiy jarayonning tabiiyligiga ishontirish va uni o‘rgatish, shaxsni ijodiy mehnat texnologiyalari bilan ta’minlashdan kelib chiqadi.

T.A. Barysheva va Yu.A. Jigalov quyidagi fikrlarni bildiradi: “Ko‘rib chiqilgan nazariyalar va tushunchalar, bir qator muhim kashfiyotlar, umumlashtirish va kuzatishlarga qaramay, to‘liq emas va ijodkorlik muammosini to‘liq qamrab olmaydi. Tadqiqotchilar muammoni o‘z metodologiyasi nuqtayi nazaridan, aniq belgilangan o‘z shaxsiy xulosalari asosida qo‘yadi va rivojlantiradi hamda qoida tariqasida, asosan uning bir yoki bir necha jihatlariga e’tibor qaratadi”.

Natijalar va muhokamalar. E. Ogletri va V. Yulaki Angliya, Shotlandiya va Germaniyadan 1165 nafar maktab o‘quvchilari ishtirokida tadqiqot o‘tkazdilar va ijodkorlik ko‘rsatkichlari ijtimoiy-iqtisodiy maqomga bog‘liq ekanligini aniqladilar. Bu mamlakatlarning barchasida imtiyozli sinf bolalari o‘rta va quyi sinfdagi tengdoshlariga qaraganda ijodiy testlarda yuqori ball olishdi. Rasmiy maktablarga nisbatan norasmiy muhit va ta’limni tashkil etish bilan ajralib turadigan yuqori ijodkorlikni topdilar.

E.L. Grigorenko, B. I. Kochubey (1989) fikricha, muloqot doirasi keng, onasi bilan demokratik munosabatda bo`lgan bolalarda ijodkorlikning yuqori darajasi kuzatilgan. Ijodkorlikni rivojlantirishda turmush sharoiti va shaxsiy xususiyatlarning roli katta ekanligidan dalolat beradi.

Ijodiy xulq-atvorni o‘rganish va taqlid qilish tajribasi alohida ahamiyatga ega. “Daholarni o‘ynang, – deb yozgan edi S.Dali, – shunda siz dahoga aylanasiz!”. Ta’lim tizimiga ijodiy xulq-atvor va o‘zini namoyon qilishning ba’zi jihatlari va usullarini kiritish, ijodiy harakatlarni modellashtirish, ijodiy faoliyat texnologiyalarini o‘zlashtirish ijodkorlikning sezilarli o‘sishini, shuningdek, ijodiy shaxs kabi ijodiy fazilatlarning paydo bo‘lishi va mustahkamlanishini ko‘rsatadi. Mustaqillik, yangi tajribaga ochiqlik, muammolarga sezgirlik, ijodkorlikka yuqori ehtiyoj eng muhim xususiyatlardir. Shu sababli, ijodiy xulq-atvorni o‘rgatish muammosi zamonaviy ta’lim tizimi va amaliy psixologiya uchun juda dolzarbdir.

Pol Torranse ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun bosqichma-bosqich tizimni taklif qildi. Birinchi bosqichda mavzuga topshiriqlar va anagrammalar taqdim etiladi va u gipotezalar tartibsizliklari orasidan imkon qadar tezroq yagona to‘g‘risini tanlashi, muammoni hal qilishga olib keladigan qoidani shakllantirishi kerak. Keyin mavzu rasmlar bilan taqdim etiladi. U ushbu vaziyatga olib kelgan eng xilma-xil va aql bovar qilmaydigan holatlarni, uning barcha mumkin bo‘lgan oqibatlarini nomlashi kerak. Ikkinchi bosqichda mavzuga ma’lum ma’noga ega bo‘lgan ob’ektlar taqdim etiladi va ulardan foydalanishning turli usullarini sanab o‘tish so‘raladi.

Amerikalik psixolog E. de Bono besh tamoyilga asoslangan ijodiy fikrlashni rivojlantirish dasturini taklif qildi. Birinchi tamoyil - muammo yuzaga kelganda, uni hal qilish uchun zarur va yetarli shart-sharoitlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Agar siz ushbu vaziyatda ularning zarurligini isbotlamasdan barcha taklif qilingan shartlardan foydalansangiz, unda siz hal qilish jarayonini murakkablashtirishingiz mumkin. Ikkinchi tamoyil shunga o‘xshash muammolarni hal qilishda oldingi tajribangizni yo‘qotishga munosabatni rivojlantirish kerak. Ko‘pincha muammo-

larning o‘xshashligi faqat tashqi bo‘lib chiqadi. Uchinchi tamoyil - narsalarning ko‘p funksiyaliligini ko‘rish qobiliyatini rivojlantirish. To‘rtinchi tamoyil - turli xil bilim sohalaridagi eng qarama-qarshi g‘oyalarni bog‘lash qobiliyatini shakllantirish va muammoni hal qilish uchun bunday aloqalardan foydalanish. Beshinchi tamoyil – ma’lum bir bilim sohasida qutbli g‘oyani amalga oshirish va muayyan muammoni hal qilishda uning ta'siridan xalos bo‘lish qobiliyatini rivojlantirish.

De Bono ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan bir qator usullarni ishlab chiqdi: funksional va tizimli tahlil va boshqalar. Hozirgi vaqtda ijodkorlikni rivojlantirishning turli usullari taklif qilinmoqda. N.A.Bagdasarova (1990) tafakkurda ijodkorlikni faollashtirishda folklorning rolini qayd etadi.

Xulosa. Ijodiylik va ijodiy qobiliyatlar fenomeni inson tafakkurining eng muhim va ajralmas tarkibiy qismlaridan biridir. Ijodiylik yangi g‘oyalar yaratish jarayoni, mavjud bilim va tajribalarni yangicha talqin qilish, muammolarga innovatsion yondashish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish imkonini beruvchi murakkab psixologik-pedagogik hodisadir. Nazariy tahlillar asosida xulosa qilishimiz mumkinki, ijodiy qobiliyatlar shaxsning tug‘ma imkoniyatlari bilan bir qatorda, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy muhit va individual tajriba ta’sirida shakllanib va rivojlanib boradi. Bu esa ijodiylikni rivojlantirish mumkin bo‘lgan jarayon sifatida qarashga asos yaratadi. Turli nazariy yondashuvlar ijodiylikning ko‘p qirrali va tizimli xarakterga ega ekanligini, ya’ni u shaxs, muhit va faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mahsuli ekanini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психология творчества: методологический анализ. – Москва, 2000. – 145 с.
2. Гутман Г. Психология творчества. – Москва: Наука, 1967. – 248 с.
3. Прангишвили А.С., Шерозия А.Э., Бассин Ф.В. Психология творческой деятельности. – Москва: Просвещение, 1978. – 320 с.
4. Mednick S. The associative basis of the creative process // Psychological Review. – 1969. – Vol. 76. – No. 3. – P. 217–224.
5. Maslow A. Motivation and personality. – New York: Harper & Row, 1970. – 411 p.
6. Torrance E.P. Guiding creative talent. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1975.
7. Sharafitdinov A. va boshqalar. Kreativ psixologiya: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2023.

Xamidov Akmal Amrulloyevich
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi direktori
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHNING MUHIM OMILI

Annotasiya. *Bugungi kunda “Hayot davomida ta’lim olish” tamoyili va kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik mahorat takomillashtirilmoqda. Bu pedagogik mahoratni oshirishning muhim omilidir. Bu masalar borasida maqolada fikr yuritilgan va xulosalar qilingan.*
Kalit so‘zlar*:pedagogic mahorat, hayot davomida uzluksiz, o ‘z o ‘zini rivojlantirish*

САМОРАЗВИТИЕ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА

Аннотация. *Сегодня педагогические навыки совершенствуются на основе принципа «обучения на протяжении всей жизни» и компетентностного подхода. Это важный фактор повышения педагогических навыков. В статье рассматриваются эти вопросы и делаются выводы.*
Ключевые слова*: педагогические навыки, обучение на протяжении всей жизни, саморазвитие*

SELF-DEVELOPMENT AS AN IMPORTANT FACTOR IN ENHANCING PEDAGOGICAL MASTERY

Abstract. *Today, pedagogical skills are being improved based on the principle of "Lifelong Learning" and a competency-based approach. This is an important factor in improving pedagogical skills. The article discusses these issues and draws conclusions.*
Key words*: pedagogical skills, lifelong learning, self-development*

Ma’lumki, mamlakatimiz ta’lim tizimida keyingi yillarda jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimini rivojlantirish, samaradorligini oshirish masalalari “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasida nazarda tutilgan qator ustuvor vazifalarda o‘z aksini topgan. Shu asosda ta’lim tizimida dars jarayonlarida hamkorlikda ishlash strategiyalarini ishlab chiqish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikdagi munosabatlar o‘tiladigan mavzularni o‘zlashtirish holatlariga ijobiy ta’sir qilishi muhimdir.

O‘zbekisron Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 29-yanvar “Xalq ta’limi sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 21-son, hamda 2021-yil 23-martdagi “Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari faoliyatini takomillashtirish, kurslardagi ta’lim sifatini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 80-son buyruqlaridan kelib chiqadigan vazifalar ijrolari amalga oshirilib borilmoqda.

2021 yilning martidan xalq ta’limi tizimi “Hayot davomida o‘qish” tamoyili asosidagi malaka oshirish ta’lim ishini boshlagan edi. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 25-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2022 yil 20-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish to‘g’risida”gi 18-sonli buyrug’i qabul qilindi. Ushbu qaror bilan xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g’risidagi nizom tasdiqlangan edi. Bunda ta’limning uzluksizligi, barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o‘rta, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limida

o‘qitiladigan umumta’lim fanlari mazmunining izchilligini, aloqadorligini, uzviyligini ta’minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o‘quv fanining mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilangan. Ya’ni kommunikativ, axborot bilan ishlash, umummadaniy, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyalari va boshqalar. Ularni shakllantirish uchun ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan tajribali, mahoratli pedagoglarni keng jalb etish zarur bo‘ladi. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarda egallagan bilimlarini hayotda amaliy qo‘llay olish, raqamli texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ta’lim olish hamda ongli ravishda kasb-hunar tanlash, shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish ko‘nikmalari to‘liqroq shakllantirilishi imkonini bera oladi

Hozirgi kunda ta’lim tizimiga zamonaviy yangi innovativ pedagogik va psixologik texnologiyaning kirib kelishi ham amaliy ham nazariy kreativ pedagogik va psixologik texnologiyalar-axborot ortib borayotgan zamonaviy global dunyoda intellektual faollikni oshirish omili sifatida, bilimga ega bo‘lgan barcha fanlarni yaxshi o‘zlashtirgan malakali kadrlarni yetishtirish talabi asosida o‘quvchilarga darslarni zamon talablariga javob beradigan yangi pedagogik va psixologik innovatsion texnologiyalar asosida olib boriladigan darslargina o‘quvchilarga yaxshi bilim beradi va o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, o‘quvchi shaxsini samarali taraqqiy qilishini ta’minlashda, zamonaviy innovativ ta’lim tehnologiyalarining ahamiyati to‘g’risida so‘z borganda ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish diqqatimiz markazida bo‘lishi darkor. Bu masala ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Jumladan, bugungi kunda o‘quvchi shaxsining amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik g’oyalar amalga oshirilmoqda. Shu bois, o‘qituvchi bilim olishning yagona manbai bo‘lib qolishi kerak emas, balki o‘quvchining o‘zi samarali rivojlantirishi uchun, mustaqil ishlash jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi, o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lishi lozim. Albatta, o‘quvchilarni uzluksiz, izchil samarali rivojlanishida, zamon talablariga javob beradigan fidoiy izlanuvchan yangilikga intiluvchan tashabbuskor hayot davomida o‘zini o‘zi izchil rivojlantirib boruvchi, yuqori kasbiy bilimlarga ega pedagog kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ta’lim tizimini to‘liq yangi sifat bosqichiga ko‘tarishida mahoratli o‘qituvchilar uchun bir qator imkoniyatlar yaratilishi, yuksak pedagogik mahorat va malaka darajasiga ega bo‘lganlar maoshini differsiatsiyasi tizimini joriy etish, maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida dinamik ravishda takomillashtirib borish, darslik va adabiyotlar sifatini yanada takomillashtirib turish joiz.

Haqiqatda bugungi kunda ta’lim paradigmasi o‘zgarmoqda, dunyoning rivojlangan davlatlarida ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari “Hayot davomida ta’lim olish” tamoyili va kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik mahorat takomillashtirilmoqda. Asosiy maqsad - o‘quvchi faqat egallangan bilim va ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish bilan emas, balki undan mustaqil ravishda shaxsiy, ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olishi va hayoti davomidagi turli ijtimoiy munosabatlarda oqilona foydalana olishi joiz. O‘qituvchilarga esa mazkur yondashuv asosida baho berganda “kasbiy pedagogik mahorat va kompetentlilik darajasi” atamasini ishlatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining sifati, o‘quv-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni samarali joriy etilishi ko‘p jihatdan pedagogning mahorati, innovativ faoliyati va o‘quvchilarni baholashda zamonaviy xorijiy baholash tizimidan samarali foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Bugungi kunda umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining oliy ta’lim muassasalari hamda hududiy Pedagogik mahorat markazlarilari professor-o‘qituvchilari bilan hamkorligi(ta’lim klasteri doirasida ishlar) yo‘lga qo‘yilib, umumta’lim maktablarida ilg‘or tajribali o‘qituvchilar mahorat darslarini tashkil etmoqdalar va xalqaro baholash tizimini ekperimental qo‘llash ishlariga ishtirok qilmoqdalar.

Aytish joizki, o‘qituvchilarning intellektual salohiyatini, metodik ehtiyojini, o‘quvlarning bilimlarii monitoringini, ularning samaradorligi va amalda qo‘llashning qulayligini turli anketa va so‘rovnomalar asosida aniqlab, tegishli tavsiya va takliflarni taqdim etish mexanizmi har tomonlama to‘liq yo‘lga qo‘yilsa, mazkur jarayon sifatini yanada oshirish imkoni ochiladi.

Buning uchun qator vazifalarni amalga oshirish kerak, jumladan, fanlar kesimida mavjud muammolar va o‘qituvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda, tajribali va mahoratli o‘qituvchilarni ta’lim muassasalari o‘qituvchilarga biriktirish mumkin. Natijada tajribadan o‘tgan texnologiyalar yo‘nalishlar bo‘yicha turkumlashtirilib o‘qituvchilarga yetkaziladi hamda amaliyotga joriy etiladi.

Barchamizga ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonining sifati, o‘quv-tarbiya jarayoniga innovativ ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni samarali joriy etilishi ko‘p jihatdan pedagog mahorati, bilimdonligi, ijodkorligi, madaniyati, uning ijtimoiy-psixologik sifatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Har qanday mutaxassis kabi pedagog ham o‘zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega “Individual rivojlanish dasturi”ni ishlab chiqa olishi, uning asosida pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yishi zarur. Pedagogning individual rivojlanish dasturi - mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy- pedagogik sifat, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi hisoblanadi.

Aytish joizki, pedagog tomonidan ishlab chiqiladigan “Individual rivojlanish dasturi” asosan quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi:

- pedagogik bilimlar;
- psixologik bilimlar;
- mutaxassislik bilimlari;
- didaktik malakalar;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar

O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini- o‘zi tahlil qilish va o‘zini- o‘zi baholash orqali aniqlanadi. Jumladan, o‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Aslida, pedagogning o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular:

>O‘z faoliyatini tadqiq qilish asosida yutuq va kamchiliklarni aniqlash.

>Yutuqlarni boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish.

>Ushbu qaror bo‘yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo‘llarini izlash. > Xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish.

>Qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish

Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlash orqali pedagogik mahoratni takomillashuvida o‘zini- o‘zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O‘zini o‘zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir

O‘zini-o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini- o‘zi ob’ektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O‘zini-o‘zi baholash (O‘O‘B) - shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi bo‘lib, o‘zini- o‘zi baholash sub’ekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga ob’ektiv baho berish, o‘zidan qoniqishni ta’minlaydi. O‘z-o‘zini baholash orqali pedagog o‘zining shaxsning qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashadi. O‘z-o‘zini baholash dara-

jasi shaxsning o‘z-o‘zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O‘zini- o‘zi oshirib yoki pasaytirib ko‘rsatish o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarining noto‘g’ri bo‘lishiga olib keladi.

Shunday qilib, bugungi kunda zamonaviy talablar asosida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o‘zida kasbiy kompetentlik, mahorat va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi.

Hozirgi globallashuv davrida kasbiy va shaxsiy faoliyatimizni raqamli texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, tizim mutaxassislari, o‘qituvchilarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda ularga metodik xizmatni har xil ko‘rinishlari asosida davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan masofaviy yoki onlayn tarzda samarali tashkil etilmoqda. Bu orqali o‘qituvchilarni hayot davomida uzluksiz mustaqil, masofaviy, offlayn ishlashga yo‘naltirish bilan uzluksiz kasbiy malakalari muttasil dinamik ravishda oshirib boorish ta’minlanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, oldimizda turgan ta’lim tizimini to‘liq takomillashtirish vazifalarini o‘qituvchilarning mahoratlarini uzluksiz oshirish mexanizmlarini amaliyotga samarali joriy etish, ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalarni hamda sun’iy intellektni keng joriy etish va zamonaviy xorijiy baholash tizimini qo‘llash orqali hal etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida : PF–6079-son Farmon. – Toshkent, 05.10.2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida : PF–107-son Qaror. – Toshkent, 03.07.2023.

3. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. – 296 b.

4. Ishmuhamedov R. J., Yuldashev M. A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 278 b.

5. Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2003. – 174 b.

Beknazarova Lola Sadinovna
Qarshi davlat unisersiteti
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

IJODIY-INNOVATSION TA'LIM TALABA SHAXSIGA XOS IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MANBAI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijodiy faoliyat davomida har bir inson o'ziga xos tarzda o'sib rivojlanishi va fikrlash qobiliyatining yuqori darajasiga ko'tarilishi, shuningdek, ijodkorlik inson faoliyatining yeng oliy shakli ekanligi to'g'risida fikr yuritilgan. Talaba shaxsi shakllanishida ijodiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlar o'rtasida munosabatlar bilan bog'liqligi metodikalar tahlili asosida keltirib o'tilgan.*

Tayanch so'zlar: *Ijodiy-innovatsion, qobiliyat, ijodiy faoliyat, ta'lim, ilmiy tadqiqot, metodika, shaxs, rivojlanish, fikr-mulohaza, talaba, pedagog, muammo, mas'uliyatlilik, ijtimoiy faollik, kommunikativlik, intellekt, ishbilarmonlik*

КРЕАТИВНО-ИННОВАЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ИСТОЧНИК РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ЛИЧНОСТИ СТУДЕНТА

Аннотация. *В данной статье рассматривается идея о том, что в процессе творческой деятельности каждый человек растет и развивается по-своему и достигает высокого уровня мыслительных способностей, а также тот факт, что творчество является высшей формой человеческой деятельности. На основе анализа методологий представлена взаимосвязь между творческим мышлением и творческими способностями в формировании личности студента.*

Ключевые слова*: Творческо-инновационный, способности, творческая деятельность, образование, научные исследования, методология, личность, развитие, обратная связь, студент, преподаватель, проблема, ответственность, социальная активность, коммуникативность, интеллект, бизнес*

CREATIVE AND INNOVATIVE EDUCATION AS A SOURCE OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE PERSONALITY TRAITS

Annotation. *This article discusses the idea that during creative activity, each person grows and develops in his own way and reaches a high level of thinking ability, as well as the fact that creativity is the highest form of human activity. The relationship between creative thinking and creative abilities in the formation of a student's personality is presented based on the analysis of methodologies.*

Key words*: Creative-innovative, ability, creative activity, education, scientific research, methodology, personality, development, feedback, student, teacher, problem, responsibility, social activity, communicativeness, intellect, business*

Mavzuning dolzarbligi. Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida yuqori reytingga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalarida ijodiy-innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-psixologik yondashuvlardan kengroq foydalanish, o'quv jarayoni tashkil qilishda ijodiy-innovatsion yondashish, muammoli vaziyatlarda adekvat qaror qabul qilish, ta'lim istiqbollarini oldindan ko'ra bilish, yangi g'oyalarni tezkor yarata olish qobiliyati butun jahon mutaxassis olimlari tomonidan muhim va dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan Kornel universiteti va Xalqaro biznes maktabi (INSEAD) bilan hamkorlikda chop etiladigan Global innovatsiyalar indeksi (GII) hisobotida dunyo davlatlarining innovatsion salohiyati va innovatsion

ko‘rsatkichlarini oshirish bo‘yicha yillik reytingida xalqaro miqyosida innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimida ilmiy, ijodiy, innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirish “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”dagi “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish”ning birinchi ustuvor yo‘nalishidagi konseptual g‘oya negizida ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati olib borilmoqda. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasi”ning yangi loyihasida inson kapitalini rivojlantirish, sog‘lom dunyoqarash, bun-yodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ijodiy innovatsion ta’lim samara-dorligini ta’minlash va ta’lim jarayoni ishtirokchilari ya’ni pedagog va talabalarning ijodkorlik xususiyatlarini namoyon etishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarning muhimlik darajalarini o‘rganishga xos ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zarurligidan darak beradi.

Hozirgi kunda zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash muammosini o‘rganish, psixologiya sohasining dolzarb muammolaridan biriga aylandi, qolaversa, mazkur muammoning yechimi, ta’lim tizimida ko‘plab yangi g‘oyalarni yuzaga keltirishga hamda iqtidorli ijodkor yoshlarni yet-ishtirishga keng xizmat qiladi. Oliy ta’lim muassasalaridagi muammolarni aniqlash va ularni yangi islohotlar darajasiga ko‘tarish, nostandart vazifalar va ularning yechimlarini hal qilish, bu borada yangi takliflar ishlab chiqish, imkoniyatlardan o‘z vaqtida foydalanish, kelajakda soha egalarini yetuk mutaxassislar sifatida shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi. Mohiyatan, ijodkorlik bu – yaratish, ixtiro qilish demakdir. Aqlli, iqtidorli, ijodkor insonning ijodi yuksak samaralar ber-ishini qator ijtimoiy fan sohalari isbotlagan.

Adabiyotlar tahlili. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ba’zan fanda ijodkorlik innovatsion o‘zgarishlar, ilg‘or taraqqiyot darajasini belgilovchi, sifatli yangiliklarni ochib beruvchi, noyob tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sifatida ham tavsiflanadi. D.V.Chernilevskiyning fikricha, “Ijodiy faoliyat yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega yangi mahsulot ishlab chiqaradigan faoli-yatdir”. S.L.Rubinshteyn ijodkorlikni - muammoni hal qilishdagi mahsuldor faoliyat, masalani oldindan ko‘ra bilish, g‘oyani amalga oshirish deb hisoblaydi. Shu bilan birga, muallif insondagi bashorat qilish qobiliyatini “avlodlarga” tegishli qobiliyat sifatida e’tirof etadi. Darhaqiqat, hozir-gi kunda zamonaviy jamiyat rivojlanishining asosiy shartlaridan biri oliy ta’lim muassasalari tala-balarida ijodiy-innovatsion qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Chunki ijodiy faoliyat insonda yuksak his-tuyg‘ular va kasbiy, shaxsiy muhim sifatlarni rivojlantiradi. Boshqa tadqiqotchilar ham ijod-korlik xususiyati to‘g‘risida o‘ziga xos fikr-mulohazalar bildirib, uni fikrlashning yuqori bosqichi sifatida ta’riflaydilar.

D.V.Chernilevskiyning fikricha, “Ijodiy faoliyat yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega yangi mahsulot ishlab chiqaradigan faoliyatdir” [5.58]. S.L.Rubinshteyn ijodkorlikni - muammoni hal qilishdagi mahsuldor faoliyat, masalani oldindan ko‘ra bilish, g‘oyani amalga oshirish deb hisoblaydi. Shu bilan birga, muallif insondagi bashorat qilish qobiliyatini “avlodga” tegishli qobiliyat sifatida e’tirof etadi [4.19].

V.V.Korobkovaning ta’riflashicha, ijodiy faoliyat davomida har bir inson o‘ziga xos tarzda o‘sib rivojlanadi va fikrlash qobiliyatining yuqori darajasiga ko‘tariladi. Shuningdek, ijodkorlik inson faoliyatining eng oliy shaklidir. Hayotdagi yangi o‘zgarishlar ijodiy faoliyat mahsulidir [3.49]. Muallif o‘z tadqiqotida, ijodkorlikni inson tafakkurini, mustaqil faoliyatining oliy shakli sifatida ham e’tirof etadi. Mazkur yondashuvdan farqli bo‘lgan intellekt masalasi bo‘yicha yetak-chi bo‘lgan tadqiqotchilar, ijodiy qobiliyat va intellektual qobiliyatni o‘zaro aloqador psixologik hodisa sifatida o‘rganishgan. Xuddi shunday qarashlar tadqiqotchilardan L.Tyorstoun va Dj.Gilfordlarning izlanishlarida o‘z aksini topgan. Mualliflar ijodiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlar o‘rtasida qandaydir aloqa mavjud deb xulosa qilishib, uni shaxsning muammolarga bo‘lgan sez-girlik qobiliyati, ma’lumotlarni qayta aniqlash malakasi kabi kompetensiyalar bilan ta’riflashga harakat qilishgan.


Psixolog Ye.P.Torrens shaxsning ijodkorlik, yaratuvshanlik sifatlarini baholovchi testlarni yaratishga muvaffaq bo‘lgan va unda ijodkorlikni begilovshi quyidagi sifatlarni baholashni maqsadga muvofiq deb ta’kidlaydi [2.85]:

Zamonaviy psixologiyada ijodkorlik fenomeniga nafaqat aqliy harakat, balki oliy insoniy sifat, yuqori darajadagi obraz yoki turmush tarzi, dunyoga yangicha munosabat sifatida qaralmoqda. Inson kamolotidagi ijodiy taqdir, uning madaniyat bilan munosabati va muloqot malakalari bilan belgilanadi. Psixolog G.Olport o‘zining “Shaxs” nomli birinchi fundamental kitobida shunday deydi: “har bir rassom, bastakor, o‘qituvchi, o‘quvchi, pianinochi, haykaltarosh, raqqosa, shoir, dramaturg, rassom, notiq, fotograf, uy bekasi va oddiy haydovchining o‘ziga xos harakatlar uslubi bor. Shu bois ham, uslub ijodiy qobiliyatning yuqori darajasi hisoblanib u yaxshi integratsiyalashgan va shaxsning muvaffaqqiyatli xatti-harakati ishtirok etganda yuzaga keladi” deb ta’kidlaydi [1.28]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ijodkorlik bu – faqat ilm egasida emas, balki barcha kasb egalari faoliyatiga xos psixologik xususiyatdir. Ya’ni u cheklangan amaliyot sohalarida shaxs individualligini aks ettirish yoki yaxshi rasm chizishni anglatmaydi, balki u kundalik va oddiy ko‘rinadigan narsalarda, masalan, kechki ovqat tayyorlash, mashinani ta’mirlash va hatto uy yumushlarni bajarishda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, ko‘pchilik yaxshi asar va ijod namunalarini dunyodagi ijodning eng yaxshisi deb baholashadi, bu yangiliklarni yaratishga bo‘lgan ijodiy yondashuvni aks ettiradi va muhabbat bilan uyg‘unlashadi. Demak, ijodiy-innovatsion faoliyat insonning o‘ziga xos sifatlari va maxsus qobiliyatlari majmui bo‘lib, yangi va ilg‘or g‘oyalarni yaratishga xizmat qiladi.

Metodikalar. Tadqiqot ishini olib borish davomida metodikalarni tanlash va qo‘llash ham muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan biz ham tadqiqot ishiga mos “Shaxsning innovatsion xususiyati va o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlash” metodikasi (N.M. Lebedeva, A.N. Tatarko) dan foydalandik. Ushbu metodika shaxsning ijodkorlik, muvaffaqiyatga erishishga tavakkal qilish va kelajakka yo‘nalganlik xususiyatlarini baholash uchun xizmat qiladi. Metodikaning baholash shkalalarini ahamiyatlilik ko‘rsatkichi pedagog va talabalar shaxsi innovatsion faoliyatining umumiy indeksi 3 ta shkalaning o‘rtacha arifmetik qiymati tarzida hisoblanadi. Barcha shkalalar bo‘yicha ko‘rsatkichlar va shaxsning innovatsiyaga xayrixohlik indeksi 1 dan 5 ballik diapazonda baholanadi.

Talabalarning ijodiy imkoniyatlarini baholashda N.F.Vishnyakovaning “Ijodkorlik” testidan ham foydalanish rejalashtirildi. “Ijodkorlik” testi pedagog va talabalarning ijodiy moyilligini aniqlashga va “Men haqiqiyman” tasvirining ijodiy komponentini va “Men idealman” degan fikrni aks ettirgan psixologik ijodiy profilni yaratishga imkon beradi. “Men haqiqiyman” va “Men idealman” ijodkorlikning ikki qiyofasini taqqoslash, ijodiy zaxirani va pedagog va talabalar shaxsining ijodiy salohiyatini aniqlash imkonini beradi.


Natijalar: Quyida keltirilgan rasmda N.F.Vishyakovaning ijodkorlikning psixologik xususiyatlarini aniqlash darajasi bo’yicha olingan natijalari taqdim qilingan (1-rasm).



Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijodiy-innovatsion ta'lim samaradorligiga erishish - innovatsion ta'lim jarayoni mazmunida talaba shaxsiga xos o'zini o'zi rivojlantirish, tolerantlilik, mas'uliyatlilik, ijtimoiy faollik, kommunikativlik, yuqori darajadagi ijtimoiy intellekt hamda ishbilarmonlik kabi sifatlar ijodiy-innovatsion ta'limni tashkil etishning zaruriy unsurlaridan biri hisoblanadi.

Ijodkorlikning psixologik xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi natijalariga bo'yicha Termiz davlat universitetida tahsil oluvchi talabalarda ikki oliygoh talabalariga qaraganda yuqoriroq natijalar kuzatilgan. Xorijlik tadqiqotchilarning maxsus tadqiqotlarida garchand ijodiylik qobiliyati sohasida yaqqol gender tafovutlar kuzatilmasligi aniqlangan bo'lsa ham, ammo ba'zi tadqiqotlarning natijalariga ko'ra o'z ijodiy salohiyatini talaba yigitlar quyi kurslarda, talaba qizlar esa yuqori kurslarda namoyon etadilar.

Keyingi keltirilgan jadvalda sinaluvchilardan shaxs ijodkorligining to'rt yo'nalishi xususiyatlari darajasi bo'yicha olingan natijalari taqdim qilingan (2-rasm).




SamDU talabalari **QarDU talabalari** **TerDU talabalari**

Shaxs ijodkorligining to'rt yo'nalishi xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan metodika bo'yicha Samarqand davlat universiteti talabalarida Qarshi va Termiz davlat universitetlarida tahsil oluvchi talabalarga qaraganda natijalar ijobiy va yuqoriroq kuzatilganligi ma'lum bo'lgan. Ayni damda, ta'lim jarayoniga talabalarning ijodiy-innovatsion jihatdan yondoshishi egallayotgan sohaga oid zarur bilimlarni egallashi va shaxsiy zaruriy qarorlar qabul qilishi lozim.


Shuningdek, bu turdagi dolzarb masalalarni tadqiq etish uchun uzoq xorij va qo'shma shtatlar psixologiyasida ko'plab tajriba sinovlardan o'tgan test va so'rovnomalarni tanlash va ularni amaliyotga tatbiq etish, tadqiqotni amalga oshiruvchi izlanuvchilarni oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi.

Keyingi keltirilgan jadvalda sinaluvchilardan shaxs innovatsion xususiyatlari va o'z-o'zini baholash darajasi bo'yicha olingan natijalar qayd qilingan (3-rasm).



Talabalarning innovatsion xususiyatlari va o'z-o'zini baholash xususiyatlari darajasi bo'yisha natijalar kishik farq bilan Samarqand davlat universiteti talabalarida yuqori ko'rsatkishni namoyon qilgan. Ijodiy-innovatsion qobiliyati yuqori talabalarning kasbiy yetuklikka yerishishida tashqi omillarning roli, ijodiy salohiyati baland talabalarda esa ta'lim jarayoni bilan bog'liq omillarga yoshligidan e'tibor qaratishi bilan farqlanadi. Maxsus tadqiqotlar talabalar misolida o'z vaqtida e'tibo SamDU talabalari yosh QarDU talabalari krni TerDU talabalari aollikka ijodiy faolıyat sıtatını o'zgartıradıgan darajada ta'sır ko'rsatısh imkonı mavjudlıgını tasdıqlaydi.

Keyingi keltirilgan rasmda sinaluvchilardan talaba shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari darajasini baholash so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalari taqdim qilingan (4-rasm).



4-rasm.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasidan kuzatish mumkinki, zamonaviy ijod psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarning alohida yo'nalishi ijodiy-innovatsion ta'limning shakllanish va

rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan psixologik tadqiqotlardan iborat. Oliy malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim talablaridan biri talabalarda ijodkorlik xususiyatlarini rivojlantirib borish ekanligi sababli ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarining ko‘pchiligida ijodiy fikrlash qobiliyatining shakllanishiga xos xususiyatlar o‘rganilgan.

Talaba shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini baholash natijasiga ko’ra, Termiz davlat universitetida tahsil oluvchi talabalarda ijobiy natijani keltirib chiqargan. Shuningdek, ijodiy tafakkurning universitet talabalari o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro aloqasi tekshirilgan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi izlanishlar ushbu o‘zgaruvchilar o‘rtasida ahamiyatli aloqadorlik mavjudligini ko‘rsatdi. Bu borada ijodiy tafakkuri yuqori darajada rivojlangan talabalardan o‘quv dasturlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishni kutish mumkin, biroq bundan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari baland barcha talabalar ijodkorlik bo‘yicha ham salmoqli natijaga ega bo‘lishi haqida xulosa chiqarib bo‘lmaydi, degan fikrga kelish mumkin.

Xulosa: Ijodiy-innovatsion ta’lim samaradorligini ta’minlashga xos tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar tarkibi mazmunida-o’quv faoliyati jarayonida strategik va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmasi hamda qobiliyatining shakllanganligi, mustahkam xotira, ijodiy tafakkur, ijtimoiy rollarni bajara olish tajribasi, ijtimoiy mobillik, ijtimoiy intellekt hamda emotsional holatlarni yuqori darajada tezkor anglashga xizmat qiluvchi, ijodiy intellekt darajasi kabilar muhim ahamiyatga ega ekanligi amaliy izlanishlarda o‘z isbotini topganligini e’tirof etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Allport G.W. The psychology of power: Theory of subjection / trans. by Z. Babloyan. – Kharkov: HTsGI; Saint Petersburg: Aleteya, 2002. – 168 p. – (Gender Researches Series).
2. Белова Е.С. Выявление творческого потенциала дошкольников с помощью теста Е.П. Торренса // Психологическая диагностика. – 2004. – № 1. – С. 21–41.
3. Коротяев Б.И. Учение – процесс творческий. – Москва: Просвещение, 2015. – 158 с.
4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2000. – 720 с.
5. Чернилевский Д.В. Креативные аспекты становления образовательной системы. – Москва, 2003. – 438 с.
6. Ғозиев Э.Ғ. Олий мактаб психологияси. – Тошкент, 1997. – 52 б.
7. Ғозиев Э.Ғ. Муомала психологияси. – Тошкент: Университет, 2001.

Daminova Gulnoza Nigmatillayevna
O‘zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistranti

MUSIQIY QOBILIYATLARNING O‘SMIRLAR KOGNITIV RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *O‘smirlik davri inson rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda jismoniy, kognitiv va emotsional o‘zgarishlar faol kechadi. Ushbu davrda shaxsning ijodiy salohiyati, jumladan, musiqiy qobiliyatlari shakllanadi va rivojlanadi. Musiqiy qobiliyatlar bilan bilish jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish psixologiya fanida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada o‘smirlarda musiqiy qobiliyatlar va bilish jarayonlarining o‘zaro aloqadorligini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *musiqiy idrok, abstrakt fikrlash, estetik, komponent, qiziqish, munosabat, vizual qobiliyatlar, ijtimoiy moslashuv, ko‘nikma.*

МУЗЫКАЛЬНЫЕ СПОСОБНОСТИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА КОГНИТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *Подростковый возраст является одним из ключевых этапов развития человека, в течение которого интенсивно происходят физические, когнитивные и эмоциональные изменения. В этот период формируется и развивается творческий потенциал личности, включая музыкальные способности. Изучение взаимосвязи между музыкальными способностями и познавательными процессами является одной из актуальных проблем современной психологической науки. В данной статье теоретически и эмпирически исследуется взаимосвязь музыкальных способностей и познавательных процессов у подростков.*

Ключевые слова: *музыкальное восприятие, абстрактное мышление, эстетика, компонент, интерес, отношение, визуальные способности, социальная адаптация, навык.*

THE IMPACT OF MUSICAL ABILITIES ON ADOLESCENTS’ COGNITIVE DEVELOPMENT

Abstract. *Adolescence is one of the key stages of human development, during which physical, cognitive, and emotional changes occur intensively. During this period, the creative potential of the individual, including musical abilities, is formed and developed. The study of the relationship between musical abilities and cognitive processes is considered one of the pressing issues in contemporary psychological science. This article theoretically and empirically examines the interrelation between musical abilities and cognitive processes in adolescents.*

Key words: *musical perception,* ***Abstract*** *thinking, aesthetics, component, interest, attitude, visual abilities, social adaptation, skill.*

Kirish. Musiqa inson ma’naviy hayotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u shaxsning estetik didini, hissiy dunyosini hamda intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Jahonda o‘smirlarning musiqiy qobiliyatlar va bilish jarayonlarining psixologik xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya kabi jahonning rivojlangan davlatlarida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish jarayonlari oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab yoshidagi o‘quvchilarda musiqiy qobiliyatlarning shakllanishi ularning bilish jarayonlari diqqat, xotira, tafakkur va idrok bilan chambarchas bog‘liqdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Mamlakatimizda bolalarni vatanparvarlik hamda milliy an’analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, zamonaviy bilim va tajriba, ezgu

fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazish bilan bir qatorda ularni madaniyat va san’at sohasiga qamrab olish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga bolalarni madaniyat va san’atga keng jalb qilish, ular bilan tizimli ishlash, madaniyat va san’at muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish borasida qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud” deb fikr bildirib, yoshlarni musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda san’at va madaniyat sohasida yanada yuqori natijalar ko‘rsatishlari uchun shart-sharoitlarni yaratib bermoqdalar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Musiqiy-eshitish faoliyati masalalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu soha bo‘yicha V.M.Avdeev, L.L.Bochkaryov, A.L.Gotsdiner, A.G.Kostyuk, E.V.Nazaykinskiy, V.D.Ostromenskiy va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari muhim o‘rin egallaydi. Ularning tadqiqotlarida musiqani eshitish va idrok etish jarayonining nazariy hamda amaliy jihatlari keng tahlil qilingan.

Ernst Kurth [4] fikriga ko‘ra, tinglovchi musiqa jarayonini faqatgina hozir eshitilayotgan tovushlar orqali emas, balki ilgari yangragan tovushlarni xotirada saqlagan holda va kelgusida yangrashi mumkin bo‘lgan ohanglarni taxmin qilgan holda qabul qiladi. Shu sababli musiqani idrok etish jarayoni dinamik xarakterga ega bo‘lib, u vaqt davomida uzluksiz rivojlanib boradi. Olimning ta’kidlashicha, musiqiy tahlil aynan tinglash jarayonining o‘zida shakllanadi va u tinglovchining idrok jarayoni bilan uyg‘un tarzda kechadi.

A.Vellek o‘z tadqiqotlarida musiqani idrok etishning estetik va psixologik tomonlarini chuqur yoritgan. U ilgari surgan “Vellek parsimoniyasi qonuni”ga muvofiq, inson eshitayotgan musiqa faqat hozirgi tovushlardan iborat emas; u avval eshitilgan ohanglarning umumlashtirilgan tasavvuri hamda keyingi tovushlarning ehtimoliy yangrashini oldindan kutish bilan bog‘liq holda idrok etiladi [1].

E.V. Nazaykinskiy musiqiy idrok va musiqiy qobiliyatlarni bilish jarayonlari bilan bog‘lab, musiqaning strukturaviy, tonal va ritmik xususiyatlarini anglash bolaning tafakkur va qiyoslash qobiliyatini rivojlantiradi, degan xulosaga keladi. E.V.Nazaykinskiy musiqiy idrok sohasida “musiqani idrok etish” va “musiqiy idrok” tushunchalarini bir-biridan aniq farqlab ko‘rsatgan. Uning fikricha, birinchi atama ikkinchisiga nisbatan kengroq ma’noga ega. Uning ta’kidlashicha, “musiqiy idrok” musiqaning san’at sifatidagi mohiyatini anglash, ya’ni uning voqelikni aks ettirishning o‘ziga xos shakli sifatida, estetik-badiiy hodisa kontekstida tushunishga qaratilgan jarayonni ifodalaydi. Boshqa tomondan, “musiqani idrok etish” faoliyat subyekti – normal eshitish qobiliyatiga ega inson, faoliyat obyekti esa akustik signallar bo‘lgan holatni anglatadi. Bu jarayon faqat psixoakustik tahlil bilan cheklanmaydi; u murakkab ichki tuzilishga ega bo‘lgan, dinamik va ko‘p bosqichli faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Nazaykinskiy o‘z tadqiqotlarida musiqaning makon va vaqt bilan bog‘liq ma’nolarini idrok etish, shuningdek musiqiy dramaturgiyani tushunish jarayonida yuzaga keladigan psixologik mexanizmlarni ham batafsil tahlil qilgan. Shu tariqa, uning ishlari musiqiy idrokning nazariy va psixologik jihatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi [5].

V.V.Medushevsky musiqaning tinglovchiga qaratilganligini, ya’ni uning “kommunikativ” mohiyatini alohida ta’kidlaydi. U musiqaning tinglovchi bilan o‘zaro muloqot qilish xususiyatini o‘rganishga e’tibor qaratgan. Medushevsky musiqiy til nazariyasini ishlab chiqqan bo‘lib, unda musiqiy tilning tarmoqlangan va grammatiklashtirilgan tuzilishi, shuningdek sinkretik musiqiy-nutqiy intonemalar va analitik belgilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar batafsil tasvirlangan.

V.D.Ostromenskiy [6] musiqiy idrokning rivojlanishida takroriy tinglash jarayoni bilan bilish jarayonlari mustahkamlanishini ko‘rsatadi: birinchi idrokda o‘quvchi asarni umumiy tasavvur bilan qamrab oladi, keyingi tinglashlarda esa tahlil va prognoz qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

V.D.Ostromenskiyning tadqiqotlariga ko‘ra, maktab yoshidagi o‘quvchilar musiqiy asarni birinchi marta idrok qilganda avvalo “tanishish” jarayonidan o‘tadilar: bu bosqichda butun asar qamrab olinadi va uning alohida fraqmentlari ajratib ko‘riladi. Qayta idrok qilish jarayonida esa “oldindan sezish” (prognoz qilish) yuz beradi, ya’ni tinglovchi yangrab turgan musiqani ilgari shakllangan tasavvurlar bilan solishtirib idrok etadi. Keyingi bosqichlarda esa tinglovchi musiqiy asarning emotsional mazmuni va obrazini yanada chuqurroq anglab, his qilish imkoniga ega bo‘ladi. Ostromenskiy musiqiy idrokning rivojlanish dinamikasi va jarayonli xususiyatlarini o‘rganadi: musiqani bir necha bor idrok etish natijasida eshitish faoliyati takomillashadi, uning

koordinatsiyasi yaxshilanadi va musiqiy asarning butun obrazini qamrab olish imkoniyati paydo bo‘ladi.

A.N. Soxor musiqiy idrok etishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatgan: qiziqish uyg‘onishi (musiqiy asarni idrok etishga tayyorgarlikni shakllantirish); tinglash; eshitilganni tushunish va his qilish; tafsir qilish va baholash [7].

L.L.Bochkaryov fikricha, musiqiy tajribani tushuntirish bo‘yicha mavjud nazariy yondashuvlarning kamchiligi shundaki, ular musiqiy idrok mexanizmlarini tushuntirishda bir tomonlama qarashni ustun qo‘yadi ya’ni bunday yondashuvlar yoki musiqiy asarning o‘ziga xos imkoniyatlari va uning strukturaviy tashkiloti kabi obyektiv jihatlarni, yoki insonning shaxsiy psixologik faoliyati bilan bog‘liq, musiqani idrok etishda yuzaga keladigan subyektiv o‘zgarishlarni alohida ajratib ko‘radi. Bochkaryovning ta’kidlashicha, musiqiy tajribani shakllantiradigan psixologik mexanizmlarni faqat insonni turli musiqiy faoliyat turlarining subyekti sifatida o‘z ichiga olgan ijtimoiy, ideologik, madaniy va etnografik munosabatlarning tizimli tahlili orqali aniqlash mumkin. Shu bilan u musiqiy idrokning murakkab va ko‘p qirrali tabiati, uning ijtimoiy va madaniy kontekst bilan bog‘liqligini alohida ko‘rsatadi [1].

G.Gordon va E.Gardenerning ilmiy ishlari musiqiy intellektning boshqa aqliy qobiliyatlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. E.Gardnerning ko‘p aqliy nazariyasi bo‘yicha, musiqa intellekti til, logika va vizual qobiliyatlar bilan parallel rivojlanadi va o‘quv jarayonida integratsiyalashgan tarzda ishlatilishi mumkin. Gordonning “Musiqa o‘quvchilari uchun audiatsiya nazariyasi” musiqiy qobiliyatlarning o‘quv jarayonidagi o‘rni va ularning eshitish, xotira va e’tibor bilan bog‘liqligini tushuntiradi. Unga ko‘ra, ritm, intonatsiya va melodik tuzilmani tushunish kognitiv jarayonlarni rivojlantiradi va o‘quvchilarning ta’lim olish samaradorligini oshiradi [2].

A.L. Gotsdiener o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini faqatgina san’atiy ko‘nikmalar sifatida emas, bilish jarayonlarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi kognitiv faktor sifatida ham tahlil qiladi. U o‘quvchilarda musiqiy eshitish, ritm va melodik sezgi kabi komponentlar, ularning kognitiv jarayonlari bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Gotsdienerning fikricha, musiqiy qobiliyatlar rivojlanishi o‘quvchilarda abstrakt fikrlash va ma’lumotlarni tizimlashtirish ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Gotsdiener musiqiy qobiliyatlarni o‘quvchilarning psixologik profiliga moslashtirilgan tarzda o‘rganishni tavsiya qiladi. Ritm va intonatsion sezgi mashqlari faqat san’at ko‘nikmalarini oshirmaydi, diqqatni jamlash, vazifalarni ketma-ket bajarish va xotirani mustahkamlash kabi bilish jarayonlarini ham rivojlantiradi. U o‘quvchilarning individual xususiyatlari musiqiy qobiliyatlarning o‘sishiga bevosita ta’sir etishini ta’kidlaydi.

Gotsdiener o‘quvchilarda musiqiy qobiliyatlarni shakllantirish jarayonini interaktiv va integrativ usulda olib borishni nazarda tutadi. Bu yondashuvga ko‘ra, musiqa darslarida faqat texnik ko‘nikmalarni o‘rgatish emas, bilish jarayonlarini uyg‘unlashtiruvchi metodlar qo‘llanilishi kerak. Musiqiy kompozitsiyalarni tahlil qilish va ijro etish orqali o‘quvchilar mantiqiy fikrlash, tasavvur va analitik qobiliyatlarini rivojlantiradilar [3].

Natijalar va muhokamalar. Tadqiqotda sinaluvchilarimizdan olingan natijalarning miqdor va sifat tahlilini SPSS dasturida tahlil qildik. O‘smir yoshdagi bolalar bolalar tanlab olindi. Tadqiqotimizda jami 80 nafar sinaluvchi ishtirok etdi.

Jadval-1.

Burdon testi va Musiqiy mahorat indeksi ko‘rsatkichlarining korrelyatsion bog‘liqligi ko‘rsatkichi (Pirson korrelyatsiyasi).

Ko‘rsatkich	Musiqiy ishtirok	Musiqiy idrok	Musiqiy amaliyot	Musiqa tinglash	Hissiyotlar	Umumiy musiqiylik
Aniqlik	0.25*	0.30*	0.27	0.18	0.24*	0.33**
Tezlik	0.22	0.26*	0.24*	0.20	0.21	0.29**

Barqarorlik	0.30**	0.35*	0.31**	0.22**	0.27*	0.38**
Indeks	0.29**	0.33**	0.30*	0.23*	0.25*	0.40**

* – p < 0.05 (statistik ahamiyatli) ** – p < 0.01 (yuqori ahamiyatli)

“Burdon testi” bo‘yicha 80 nafar o‘quvchilarga berilgan topshiriqlarni tekshirganda, javoblarning aniqligi va “Musiqiy mahorat indeksi” testi bo‘yicha Musiqiy ishtirok ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligi o‘rtacha ahamiyatni, yani p=0.024 kasb etdi. Aniqlik va Musiqiy idrok o‘rtasidagi aloqadorlik ko‘rsatkichining statistik ahamiyati p=0,07 da baholandi.

O‘quvchilarning topshiriqni bajarishdagi aniqligi hamda ularning muntazam ravishda musiqiy amaliyotga ega ekaniligi ham ijobiy o‘zaro bog‘liqlik asosida qayd etildi va bu holat p=0,15 dagi ahamiyatni belgiladi.

Musiqa maktabi va oddiy maktab o‘quvchilarning Musiqa tinglash amaliyoti ularning Burdon testini echishdagi aniqlik darajasi bilan bog‘liqligi aniqlandi, ammo mazkur aloqadorlik p=0,105 da qayd etildi, ya’ni statistik ahamiyat qayd etilmadi.

Testni echishdagi Aniqlik va Musiqiy mahorat indeksi bo‘yicha hissiyotlar shkalasi p=0.031 da qayd etildi. Umumiy musiqiylik xususiyati ko‘rsatkichi va aniqlik ko‘rsatkichi aloqadorligi p=0,003 ya’ni kuchli statistik ahamiyatda baholandi.

O‘quvchilarning testni bajarishdagi tezligi, ularga berilgan topshiriqni belgilangan vaqt doirasida bajarish masalasini o‘rganilda, topshiriqni bajarish tezligi va ularning Musiqiy sohada ishtirok etishi orasidagi mavjud bo‘g‘liqlik, statistik ahamiyatsiz bo‘lib, tasodifiy ekanligi aniqlandi: p=0.051.

Musiqiy idrok va testni bajarishdagi tezlik aloqadirligi r=26 ko‘rsatkichi p=0,020 da belgilanib, o‘rtach statistik ahamiyatli deb topildi.

Tezlik ko‘rsatkichi bilan Musiqiy amaliyotga jalb etilganlik aloqadorligi p=0,032 da; Musiqa tinglash bilan esa, p=0,74 da, Hissiyotlar bilan Tezlik ko‘rsatkichi p=0,061 da; Umumiy musiqiylik indeksi hamda testni bajarishdagi tezlik p=0,009 da belgilandi. Musiqiy amaliyot va barqarorlik p=0,005; Musiqa tinglash ko‘nikmasi bilan esa p=0,052;

O‘quvchilarning diqqat barqarorligi va Musiqiy ishtirok o‘zaro aloqadorligi p=0,007 da, musiqiy idrok ko‘rsatkichi bilan p=0,002 da baholandi. Barqarorlikning Musiqiy amaliyot bilan bog‘liqligi p=0,005 da; Hissiyotlar indeksi bilan p=0,017; Umumiy musiqiylik bilan yuqori p=0,01 da baholandi.

Maktab o‘quvhchilarning Umumiy diqqat indeksi va ularning musiqiy ishtiroki p=0,009 bilan; Musiqiy idrok p=0,003 da; Musiqiy amaliyot va umumiy diqqat indeksi p=0,003; Musiqa tinglash ko‘nikmasi bilan p=0,038 da; Hissiyotlar hamda diqqat indeksi p=0,25; Umumiy musiqiylik va diqqat indeksi p=0,000 yuqori ahamiyatda baholandi.

Jadval-2.

Burdon testining bajarilishiga sarflangan vaqt va test ko‘rsatkichlari, Musiqiy mahorat indekslari bilan korrelyatsiya qiymatlari (Pirson korrelyatsiyasi).

№	Ko‘rsatkich	R qiymat	Statistik ahamiyat p
1.	Aniqlik	-.38**	.001
2.	Tezlik	-.45**	.000
3.	Barqarorlik	-.41**	.000
4.	Indeks	-.48**	.000

5.	Musiqiy ishtirok	-.20	.074
6.	Musiqiy idrok	-.22	.053
7.	Musiqiy amaliyot	-.24*	.031
8.	Musiqa tinglash	-.17	.132
9.	Hissiyotlar	-.19	.091
10.	Umumiy musiqiylik	-.28*	.013

* – p < 0.05 (statistik ahamiyatli) ** – p < 0.01 (yuqori ahamiyatli)

Jadvaldan ko‘rib turganimizday, testni bajarishga sarflangan vaqt aksariyat hollarda ko‘rsatkichlar bilan teskari yoki ijobiy korralyatsiya natijalarini namoyon qildi. Jumladan, testni bajarishdagi aniqlik va unga sarflangan vaqt o‘rtasida kuchli teskari bog‘liqlik, Tezlik, Diqqat barqarorligi, Diqqat indeksi bilan ham xuddi shunday teskari aloqadorlik qayd etildi. O‘quvchi testni bajarishda vaqtni oshgan sayin uning natijalaridagi aniqlik, diqatidagi barqarorlik, umumiy diqqat indeksi pasayib boradi. Yoki aksincha tendensiyani kuzatish mumkin, testni bajarishga qancha ko‘p vaqt ketkazsa, natijalarda shuncha ijobiy ko‘rsatkich aks etiladi. Musiqiy mahorat indekslarini tahlil qiladigan bo‘lsak, u holda, shuni ta’kidlash kerakki, o‘quvchining kognitiv testni bajarishga sarflaydigan vaqti uning umumiy musiqiy qobiliyati bilan kam hollarda teskari aloqadordir va bu alodadorlik stataistik ahamiyatga ega bo‘lmay, tasodifiy xarakter aks etadi. Musiqiy amaliyot va umumiy musiqiylik bilan o‘quvchining kognitiv testni bajarishdagi ketkazgan vaqti bilan salbiy korrelyatsiyani ko‘rsatdi.

Umumiy musiqiylik eng kuchli musiqiy amaliyot (r=0.73), musiqiy ishtirok (r=0.71) va musiqiy idrok (r=0.69) bilan bog‘liq, natijalar yuqori statistik ahamiyatda qayd etildi (p<0.01).

O‘quvchilarning ko‘ruv xotirasi va eshitish xotirasining darajasini aniqlash va bu ko‘rsatchichlarning ularning musiqiy qobiliyati bilan bog‘liqlik qonuniyatini baholash uchun tadqiqot guruhlarida Meyli testi qo‘llanildi. Unga ko‘ra, diqqatni o‘rganish testi va o‘quvchilarning ko‘ruv va eshitish xotirasi o‘rasidagi aloqadorlik quyidagicha jadvalda beriladi va tahlil qilinadi.

Jadval-3.

Burdon testi ko‘rsatkichlari, Musiqiy mahorat indekslarining Meyli testi bo‘yicha eshitish va ko‘rish xotirasining korrelyatsiya qiymatlari (Pirson korrelyatsiyasi).

№	Ko‘rsatkich	Eshitish xotirasi		Ko‘ruv xotirasi	
		R qiymat	Statistik ahamiyat p	R qiymat	Statistik ahamiyat p
1.	Aniqlik	.41**	.000	.38**	.001
2.	Tezlik	.36**	.001	.35**	.002
3.	Barqarorlik	.39**	.000	.37**	.001
4.	Indeks	.44**	.000	.40**	.000
5.	Musiqiy idrok	.29**	.009	.42**	.000

6.	Musiqiy amaliyot	.33**	.003	.45**	.000
7.	Musiqa tinglash	.26*	.021	.34**	.003
8.	Hissiyotlar	.24*	.032	.31**	.006
9.	Umumiy musiqiylik	.37**	.001	.46**	.000

* – p < 0.05 (statistik ahamiyatli) ** – p < 0.01 (yuqori ahamiyatli)

O‘quvchilarning ko‘ruv va ehituv xotirasini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotda aniqlanishicha, Burdon testini echishdagi aniqlik va eshitish xotirasi o‘rtasidagi aloqadorlik mustahkam statistik aniqlikni ko‘rsatdi. Eshitish xotirasi va testni bajarishdagi tezlik o‘rtasida p=0,001 darajadagi aloqadorlik; Shuningdek, Barqarorlik va Eshitish xotirasi p=0,001 darajada, Umumiy musiqiylik hamda eshitish xotirasi bilsan kuchli statistik ahamiyatga egaligi aniqlandi.

Ko‘ruv xotirasi ham Burdon testining barcha ko‘rsatkichlari bilan ijobiy kuchli statistik ahamiyatli aloqadorlikni ko‘rsatdi. Shuningdek, Musiqiy mahorat indekslari bilan ham mustahkam aloqadorligi qayd etildi. Ko‘ruv va eshitish xitiralarining o‘zaro bog‘liqligi yuqori darajada, ya’ni r=.48** qiymatda, p=0,000 da belgilandi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davrida musiqiy qobiliyatlar va bilish jarayonlari o‘rtasida mustahkam va ko‘p qirrali o‘zaro aloqadorlik mavjud. Musiqa bilan muntazam shug‘ullanish o‘smirlarning kognitiv rivojlanishiga kompleks tarzda ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni diqqatni boshqarish, xotirani mustahkamlash, tafakkurni rivojlantirish va ijodiy fikrlashni kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Musiqiy faoliyat o‘smirlarning nafaqat intellektual, balki emotsional va ijtimoiy rivojiga ham ijobiy ta’sir etadi. Musiqa orqali o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, boshqalarning emotsiyalarini tushunish va estetik didni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa shaxsning har tomonlama barkamol bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Бочкарев Л.Л. Психология музыкальной деятельности. – Москва: ИП РАН, 1997. – 352 с.

2. Gardner H. Frames of mind: The theory of multiple intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 367 p.

3. Готсдинер А.Л. Психология и музыка: исследования и методы. – Москва: Наука, 1985. – 256 с.

4. Иванченко Г.В. Психология восприятия музыки: подходы, проблемы, перспективы. – Москва: Смысл, 2001. – 264 с.

5. Назайкинский Е.В. О психологии музыкального восприятия. – Москва: Музыка, 1972. – 384 с.

6. Остроменский В.Д. Восприятие музыки как психологическая проблема. – Киев: Музычна Україна, 1975. – 199 с.

7. Сохор А.Н. Социальная обусловленность музыкального мышления и восприятия // Проблемы музыкального мышления / ред.-сост. М.Г. Арановский. – Москва: Музыка, 1974. – С. 59–74.

8. Ғозиев Э.Ғ. Онтогенез психологияси: дарслик. – Тошкент, 2020.

9. Мухамедова Д., Саломова Г. Психологик тадқиқотлар маълумотларини қайта ишлаш методлари ва технологиялари: дарслик. – Тошкент, 2020.

Chimirov Mirjalil Karim o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Psixologiya mutaxassisligi magistranti
E-mail: chimirovmirjalil@gmail.com

XORIJ OLIMLARI TOMONIDAN KROSS-MADANIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING TADQIQ ETILISHI

Annotatsiya. *Kross-madaniy munosabatlar ko‘plab ilmiy yondashuvlar doirasida o‘rganilgan. Xorij olimlari tadqiqotlarda kross-madaniy munosabatlarning murakkabligi va ko‘p qirraliligi alohida ta’kidlanadi. Ular tadqiqotlarda madaniyatlar o‘rtasidagi qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlar, kommunikatsiya uslublari va urf-odatlarning farqlanishi muloqot jarayonida qiyinchiliklar yuzaga keltirishini ko‘rsatadi. Shuningdek, turli olimlar bu farqlarni tizimli tarzda tahlil qilish orqali samarali xalqaro hamkorlik va muloqot strategiyalarini ishlab chiqishga uringan. Xorijiy olimlar tomonidan kross-madaniy munosabatlar muammosi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar nazariy bilimlarni boyitadi, amaliy faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar*: madaniyat, etnik, metodologiya, paradoks, renessans, qadriyatlar, xulq-atvor, tajriba, ijtimoiy me’yorlar, kommunikatsiya.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ КРОСС-КУЛЬТУРНЫХ ОТНОШЕНИЙ ЗАРУБЕЖНЫМИ УЧЁНЫМИ

Аннотация*. Межкультурные отношения изучались в рамках многочисленных научных подходов. Иностранные ученые особо подчеркивают сложность и многогранность межкультурного взаимодействия в своих исследованиях. Они показывают, что различия в ценностях, социальных нормах, стилях общения и обычаях между культурами могут создавать трудности в процессе коммуникации. Кроме того, различные исследователи стремились разработать эффективные стратегии международного сотрудничества и общения путем систематического анализа этих различий. Исследования межкультурных отношений, проведенные иностранными учеными, обогащают теоретические знания и способствуют разработке практических рекомендаций, применимых в профессиональной деятельности.*

Ключевые слова*: культура, этнос, методология, парадокс, Ренессанс, ценности, поведение, опыт, социальные нормы, коммуникация.*

THE STUDY OF CROSS-CULTURAL RELATIONS BY FOREIGN SCHOLARS

Abstract*. Cross-cultural relations have been studied within the framework of numerous scientific approaches. Foreign scholars particularly emphasize the complexity and multifaceted nature of cross-cultural interactions in their research. They demonstrate that differences in values, social norms, communication styles, and customs between cultures can lead to difficulties in the communication process. Moreover, various researchers have attempted to develop effective international cooperation and communication strategies by systematically analyzing these differences. Studies on cross-cultural relations conducted by foreign scholars enrich theoretical knowledge and contribute to the formulation of practical recommendations applicable in professional activities.*

Key words*: culture, ethnicity, methodology, paradox, renaissance, values, behavior, experience, social norms, communication.*

Kirish. Jahon psixologiya fanida “guruhlararo” va “millatlararo munosabatlar”, “guruhlararo” va “millatlararo xulq-atvor”, “guruhlararo” va “millatlararo o‘zaro ta’sir” tushunchalarini aniqlashda izchillik yetarli emas. Shu sababli, zamonaviy ijtimoiy psixologiyada bu tushunchalar

ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Bugungi kunda, “etnik paradoks” va “etnik renessans” davrida, bir tomondan millatlararo o‘zaro ta’sir va kontaktlarning ortishi, boshqa tomondan esa millatlararo taranglik va nizolar kuchayishi munosabati bilan millatlararo munosabatlarni o‘rganish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi va bir qator fanlarning markaziy e’tiboriga aylangan. Tadqiqot qiziqishlari odatda etnik guruhlar faoliyati bilan bog‘liq voqealar bilan sinxronlashadi. Shu sababli, millatlararo munosabatlarning mazmuni, dinamikasi, tabiati va rivojlanishini belgilovchi asosiy determinantlarni o‘rganish fanlar doirasida amalga oshiriladi. G.M. Andreevaning talqinida, millatlararo munosabatlar problematikasi uning sotsiologik, siyosiy va madaniyatshunoslik bilimlari tizimiga integratsiya qilinishi sababli ba’zan “marginal” deb ta’kidlanadi [2]. Shuning uchun millatlararo munosabatlarni tadqiq qiluvchi asosiy fanlar sifatida sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya hisoblanadi,

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. G. Trayandis kross-madaniy munosabatlarning ob’ekt doirasida tahlil qilgan. “Kross-madaniy psixologiya turli madaniyatlarda namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlar va tajribani tizimli o‘rganish bilan shug‘ullanadi, ular madaniyatlarga bog‘liq bo‘lishi yoki mavjud madaniyatlardagi o‘zgarishlar natijasi bo‘lishi mumkin”. Shu bilan kross-madaniy tahlil metodologiyasining ob’ekt doirasi juda keng bo‘lib, u turli madaniy kontekstlarda yuzaga keladigan xatti-harakat vaziyatlarini tizimli o‘rganishga imkon beradi [7].

Kross-madaniy munosabatlarning nazariy asoslarini shakllantiruvchi ikki yo‘nalishning sintezi bir qator muhim konseptlarni belgiladi: “madaniyat”, “subyektiv madaniyat”, “madaniy birlik”, “kross-madaniy”, “etnik” va “etik”. Madaniyat tushunchasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, kross-madaniy tahlil metodologiyasida unga beriladigan ustunlik G.Trayandisning bir qator tadqiqotlarida, xususan, uning “Subyektiv madaniyat tahlili” kitobida konseptual jihatdan yoritilgan [7]. Ushbu talqin ildizlari M. Xerskovitsning “Inson va uning ishi” kitobida ilgari surilgan g‘oyalarga borib taqaladi, unda madaniyat “inson tomonidan yaratilgan yashash muhitining bir qismi” sifatida ta’riflanadi. Mazkur ta’rif kross-madaniy metodologiyada ustunlikka ega, chunki u madaniyatni ikki o‘lchamda tasavvur qilish imkonini beradi: bir tomondan, uning moddiy va ob’ektlangan mavjudligi; ikkinchi tomondan, uning subyektiv ifodasi. Madaniyatning subyektiv qismi ya’ni “insonlar tomonidan yaratilgan narsalarga berilgan subyektiv javoblar majmuasi”, “miflar, rollar, qadriyatlar va munosabatlar shaklida namoyon bo‘lib, subyektiv madaniyat sohasini tashkil etadi”. Aynan shu subyektiv madaniyat kross-madaniy psixologiya uchun uning ob’ekti nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi.

G.Trayandisning subyektiv madaniyat konsepti kross-madaniy tadqiqotlarning nazariy asosini tashkil qiladi. Uning fikricha, “Ob’ektga doir asos tadqiqot maydonidagi madaniyat aspektiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [7]. Ko‘pchilik tadqiqotchilar madaniyat individlar ichida ham, tashqarisida ham mavjudligini qabul qiladilar. Madaniyat individlar ichida ularning e’tiqodlari, qadriyatlari va ichkilashtirilgan o‘zaro ta’sir namunalarida subyektiv madaniyat shaklida mavjud. Individlar tashqarisida esa madaniyat ularning yaratilgan muhitining umumiy qismidan iborat bo‘lib, unga diniy e’tiqodlar, ta’lim tizimlari va san’at, teatr, adabiyot kabi estetik yutuqlar kiradi. Ushbu ikki madaniyat aspekti shubhasiz o‘zaro bog‘liqdir”. Shunday qilib, kross-madaniy psixologiya madaniyatni nafaqat tashqi, ob’ektlangan mavjudlik sifatida, balki shaxslar ongida aks etuvchi subyektiv tajriba sifatida ham o‘rganishga asoslanadi, bu esa tadqiqotlarga keng va chuqur nazariy kontekst beradi.

A. Tomas madaniyatlararo psixologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqib, xalqaro kontekstda inson xulq-atvorini tushuntirishga harakat qiladi. Thomasning fikricha, madaniyatlararo psixologiya insonning xulq-atvorini madaniy kontekst bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Har bir madaniyat o‘ziga xos qadriyatlar tizimi, ijtimoiy me’yorlar va kommunikatsiya uslublariga ega bo‘lib, ular shaxsning fikrlashi va harakatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, bir madaniyatda odatiy hisoblangan xulq-atvor boshqa madaniyatda noto‘g‘ri yoki tushunarsiz bo‘lishi mumkin [8].

A. Tomas madaniyatlararo kompetensiya tushunchasiga alohida e’tibor qaratadi. Uning ta’kidlashicha, zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun inson ham o‘z madaniyatini, ham boshqa madaniyatlarni ham tushunishi zarur. Madaniyatlararo kompetensiya empatiya, moslashuvchanlik, ochiqlik va madaniyatlararo kommunikatsiya ko‘nikmalarini o‘z

ichiga oladi [8]. Tomas shuningdek, madaniyatlararo o‘zaro ta’sir jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ham tahlil qiladi. Madaniy farqlar noto‘g‘ri talqinlarga, stereotiplarga va hatto ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Turli madaniyatlarda vaqtga, rahbarlikka yoki muloqot uslubiga bo‘lgan munosabat turlicha bo‘ladi. Shu sababli, madaniyatlararo muloqotda kontekstni to‘g‘ri tushunish va boshqa madaniyatga moslashish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, Tomas madaniyatni dinamik tizim sifatida ko‘radi. Uning fikricha, madaniyat doimiy ravishda o‘zgarib boradi va globalizatsiya jarayonida yangi shakllarni qabul qiladi. Bu esa shaxsdan moslashuvchanlikni va yangi madaniy vaziyatlarga tezda javob berish qobiliyatini talab qiladi. Ayniqsa, ko‘p millatli jamoalarda ishlayotgan insonlar uchun bu ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega.

G.M. Andreeva fikricha, millatlararo munosabatlar psixologiyasini ijtimoiy psixologiyaning alohida sohasi sifatida ajratish zarurati avvalo jamiyat hayotining murakkablashuvi bilan bog‘liq [1]. Bu murakkablik guruhlararo konfliktlar, xususan etnik mojaro maydonining mavjudligi bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu nuqtai nazarni boshqa rossiyalik tadqiqotchilar ham qo‘llab-quvvatlaydilar (L.M. Drobizheva, 1997; G.U. Soldatova, 1998; T.G. Stefanenko, 2006). Ular millatlararo munosabatlar psixologiyasini zamonaviy ijtimoiy psixologiyaning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rib, ijtimoiy va etnik beqarorlik sharoitida unga alohida e’tibor qaratishni zarur deb hisoblaydilar. Ijtimoiy-psixologik yondashuvni millatlararo munosabatlarga tadbiq etish dolzarbligi avvalo sohada psixologik tadqiqotning predmetini aniqlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

S.Bochner o‘zining “Madaniyatlararo munosabatlarning ijtimoiy psixologiyasi” nomli tadqiqotida madaniyatlararo aloqalarning psixologik mexanizmlarini tahlil qilib, insonlarning turli madaniy muhitlarda qanday moslashishini va o‘zaro munosabatlar qanday shakllanishini tushuntiradi. Bochner madaniyatlararo munosabatlar avvalo shaxsning ijtimoiy identiteti bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Inson o‘zini ma’lum bir madaniyat vakili sifatida anglaydi va bu uning boshqa madaniyat vakillariga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Shu sababli, madaniyatlararo muloqot jarayonida “biz” va “ular” kabi ijtimoiy tushunchalar shakllanadi. Bu esa ba’zan stereotiplar va oldindan shakllangan qarashlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Bochner madaniyatlararo moslashuv jarayoniga ham alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, yangi madaniy muhitga tushgan shaxs ma’lum psixologik bosqichlardan o‘tadi. Dastlabki bosqichda yangi madaniyatga qiziqish va hayrat kuzatiladi, keyinchalik esa madaniy farqlar tufayli stress va tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu holat ko‘pincha “madaniy shok” deb ataladi. Vaqt o‘tishi bilan shaxs yangi muhitga moslashib, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi. U madaniyatlararo munosabatlarda kommunikatsiyaning rolini alohida ta’kidlaydi.

Natijalar va muhokamalar. I.S. Kon millatlararo munosabatlarni psixologik jihatdan tadqiq qilishning o‘ziga xosligini etnik o‘zini anglash va etnik identifikatsiya masalalarini o‘rganishda ko‘radi [5]. V.G. Krysko millatlararo munosabatlarning predmetini murakkab tizim sifatida ta’riflaydi. Unga ko‘ra, bu munosabatlar doimo tashqi va ichki (psixologik) to‘siqlar va qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq bo‘lib, ular odamlar orasida etnik aloqalar, kontaktlar va muloqotlar shakllanishi va rivojlanish jarayonida yuzaga keladi. U shunday yozadi: “Makro darajada bunday qiyinchiliklar ko‘pincha tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan xalqlararo qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi – iqtisodiy, siyosiy, diniy yoki madaniy tabiati bor. Mikro darajada esa murakkab munosabatlar odatda shubhalanish, til to‘siqlari, milliy an’analar, marosimlar va odatlarning e’tiborsiz qoldirilishi bilan tushuntiriladi”.

T.G. Stefanenko fikricha, faqat o‘zaro aloqada bo‘lgan etnoslarning psixologik xususiyatlarini aniqlab, ularning munosabatlarni shakllantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan omillarni tushungan holda, ularni tartibga solishning psixologik usullarini ishlab chiqish mumkin.

L.M. Drobijeva “o‘rta darajali” nazariyalarni ishlab chiqib, millatlararo munosabatlarni tushunish va metodologiyani shakllantirishda ijtimoiy-siyosiy beqarorlik sharoitini hisobga olishni taklif qiladi. U psixologiya predmetini avvalo o‘z va boshqa guruh haqidagi tasavvurlar, ularni qabul qilish, kontaktga tayyorlik, shuningdek psixik holatlar va jarayonlar sifatida ko‘rishni tavsiya qiladi.

G.M. Andreeva fikricha, ijtimoiy-psixologik tahlil guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni ichki psixologik tushuncha sifatida markazlashtiradi va ularning o‘zaro ta’siri jarayonida yuzaga keladigan muammolarni o‘rganadi. Shu tarzda, psixologik tadqiqotlar millatlararo munosabatlarni shaxslararo psixologik jarayonlar va guruhlararo ijtimoiy o‘zaro ta’sirni birlashtirgan holda o‘rganishga yo‘naltiriladi. Bu yondashuv nafaqat aloqalarni chuqurroq tushunishga, balki ularni tartibga solish va ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi [1].

L.G. Pochebut o‘zining “Etnik psixologiyaga kirish” asarida shaxs rivojlanishida etnik muhit, milliy ong va madaniy qadriyatlarning rolini chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, inson shaxs sifatida shakllanish jarayonida o‘z etnik guruhining madaniy tajribasi va ijtimoiy me’yorlarini o‘zlashtiradi. Pochebut etnik omillar shaxsning o‘zini anglashida muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Har bir inson o‘zining milliy identifikatsiyasi orqali jamiyatda o‘z o‘rnini belgilaydi. Bu jarayon bolalik davridan boshlanib, oila, til, urf-odatlar va an’analar orqali shakllanadi [6]. Ayniqsa, ona tilining o‘rni beqiyosdir, chunki til nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy qadriyatlar va tarixiy tajribani avloddan avlodga uzatish vositasidir. Etnik omillar shaxsning xulq-atvori va dunyoqarashiga ham bevosita ta’sir qiladi. Har bir madaniyat o‘ziga xos ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va stereotiplarni shakllantiradi. Masalan, ayrim jamiyatlarda kollektivizm ustun bo‘lsa, boshqalarida individualizm kuchli rivojlangan bo‘ladi. Bu esa insonning qaror qabul qilish uslubi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish darajasi va hatto konfliktlarga bo‘lgan munosabatini belgilaydi.

Madaniyatlararo muloqotning samaradorligi ko‘pincha madaniyatlarning axborot uzatish uslublari bilan belgilanadi. Edward T.Hall kross-madaniy kommunikatsiya sohasida olib borgan tadqiqotlari orqali madaniyatlarni yuqori kontekstli va past kontekstli tizimlarga ajratish mumkinligini ko‘rsatdi. Ushbu taqsimot madaniyatlararo muloqotning samarali strategiyalarini ishlab chiqish, xatoliklarni kamaytirish uchun muhim hisoblanadi.

Xulosa. Xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar kross-madaniy munosabatlarni turli ilmiy paradigmalar doirasida chuqur o‘rganilganini ko‘rsatadi. Ular tomonidan madaniyatlararo tafovutlarning shaxs xulq-atvori va ijtimoiy idrokka ta’siri, stereotiplar va etnosentrizmning shakllanishi, adaptatsiya strategiyalari, va samarali madaniyatlararo kommunikatsiya omillari keng yoritilgan. Bu esa talabalar muhitida konstruktiv muloqot va hamkorlikni ta’minlash uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 1996.
2. Андреева Г.М. Психология социального познания. – Москва: Аспект Пресс, 1997.
3. Дробижева Л.М. Этническое самосознание русских в современных условиях: идеология и практика // Советская этнография. – 1991. – № 1. – С. 3–16.
4. Крысько В.Г. Этнопсихология и межнациональные отношения. – Москва: Экзамен, 2002.
5. Кон И.С. К проблеме национального характера // Социологическая психология. – Москва; Воронеж, 1999. – С. 321.
6. Почебут Л.Г. Этнические факторы развития личности // Введение в этническую психологию. – Санкт-Петербург, 1995.
7. Triandis H.C. Introduction to handbook of cross-cultural psychology. – Boston: Allyn and Bacon, 1980. – Vol. 1: Perspectives.
8. Thomas A. Interkulturelle Psychologie: Verstehen und Handeln in internationalen Kontexten. – Göttingen: Hogrefe Verlag, 2016. – 320 S.
9. Стефаненко Т.Г. Адаптация к новой культурной среде // Этнопсихология. – Москва, 2003.

Mamajonova Shoxista Kamolovna
Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi, Phd,
Valiyeva Dilorom Muzaffar qizi
Farg'ona davlat universiteti magistranti
E-mail: diloromvaliyeva09@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EMPATIYA RIVOJLANISH DARAJASI VA UNING TARKIBIY KOMPONENTLARI

Annotatsiya. *Maktabgacha yosh- bu bolaning jismoniy va hissiy rivojlanishida, boshqalar bilan muloqot ko'nikmasini shakllantirib rivojlantirishda muhim davr hisoblandi. Bolaning hissiyotlarni tanib ularni rivojlantirishda ijtimoiy muhit o'z ta'sirini ko'rsatib qoladi.Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya rivojlanish darajalari va ularning tarkibiy komponentlari tahlil qilinadi. Maqolada M.Hoffman, D.Goleman, J. Piaje, L.Vigotskiyning emotsional jarayonlar, empatiyaning rivojlanish bosqichlari va empatiya shakllanishida ijtimoiy muhit o'rni qanchalik muhimligiga doir nazariyalari tahlil qilinadi.Hamda K.B.Bryantning "Bolalarda empatiya indeksi" metodikasi asosida o'tkazilgan amaliy tadqiqot natijalari tahlil qilingan. Maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi- pedagog, psixologlari uchun nazariy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *empatiya, hissiy intellekt, ijtmoiy muhit, maktabgacha yosh davri, antipatiya, emotsional jarayonlar.*

УРОВЕНЬ РАЗВИТИЯ ЭМПАТИИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА И ЕЁ СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ

Аннотация. *Дошкольный возраст считается важным периодом в физическом и эмоциональном развитии ребенка, а также в формировании и развитии навыков общения с окружающими. Социальная среда оказывает влияние на распознавание ребенком эмоций и их развитие. В данной статье анализируются уровни развития эмпатии у детей дошкольного возраста и их структурные компоненты. В статье рассматриваются теории М. Хоффмана, Д. Гоулмана, Ж. Пиаже и Л. Выготского относительно эмоциональных процессов, стадий развития эмпатии и важности социальной среды в формировании эмпатии. Также анализируются результаты практического исследования, проведенного с использованием методики К.Б. Брайант "Индекс эмпатии у детей". Статья имеет теоретическое и практическое значение для воспитателей, педагогов и психологов дошкольных образовательных организаций.*

Ключевые слова: *эмпатия, эмоциональный интеллект, социальная среда, дошкольный возраст, антипатия, эмоциональные процессы.*

THE LEVEL OF EMPATHY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL CHILDREN AND ITS STRUCTURAL COMPONENTS

Annotation. *Preschool age is considered a crucial period in a child's physical and emotional development, as well as in the formation and development of communication skills with others. The social environment influences the child's recognition of emotions and their development. This article analyzes the levels of empathy development in preschool children and their structural components. The article examines the theories of M. Hoffman, D. Goleman, J. Piaget, and L. Vygotsky regarding emotional processes, stages of empathy development, and the importance of the social environment in the formation of empathy. Additionally, the results of a practical study conducted using K.B. Bryant's "Empathy Index for Children" methodology are analyzed. The article has the-*

oretical and practical significance for educators, teachers, and psychologists of preschool educational organizations.

Key words: *empathy, emotional intelligence, social environment, preschool age, antipathy, emotional processes.*

Kirish. Hozirgi globallashgan zamonaviy dunyoda jamiyatda insonlarning bir-biriga ijtimoiy-ruhiy munosabati avvalgi yillarga qaraganda sezilarli darajada o'zgarmoqda. Jamiyat hayotida ko'plab shaxslararo munosabatlarda tushunmovchiliklar, o'z-o'zini idora qila olmagan yoshlarning hayotida o'chmas iz qoldirgan jinoyatlar, oilaviy munosabatda hamjihatlikka, o'zaro hurmatga erisha olmay ajrashayotgan oilalar soni 14 % dan 20 %ga oshgani kuzatilmoqda[6].Bunda shaxs individual-psixologik xususiyatlaridan biri hissiy intellekt, empatiya muhim rol o'ynadi. D.Goleman inson hayotidagi muvaffaqiyatga faqatgina aqliy qobiliyat (IQ), balki hissiyotlarni tushunish va boshqarish qobiliyati (EQ) ham kamida shunchalik hatto undan ham muhim ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan [5]. Shaxs rivojlanishida, o'z sohasining yetuk vakili bo'lishida uning malaka ko'nikmalari, soha bo'yicha aqliy salohiyati darajasi bilan uning o'z hissiyotlarini to'g'ri ifoda eta olish va ularni nazorat etish, boshqalarning hissiyotini to'g'ri anglash va ruhiy holatiga to'g'ri munosabat bildirish ham ta'sir ko'rsatadi albatta.Bolalikdan his-tuyg'ularni ifoda etish va boshqalar hissini to'g'ri anglash qobiliyati o'rgatilgan holatda shaxsda yuqoridagi muammolar kuzatilish jarayoni kamayganini sezishimiz mumkin. Bu muammoni hal qilishda maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya komponentlarini rivojlanishi albatta muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,erta yoshda empatiya va rahm-shafqatni rivojlantirish bolalarda:

Mustahkam do'stlik aloqalarini o'rnatishiga;

Mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishiga;

Chidamlilik va o'ziga ishonchni rivojlantirishga;

Hamkorlikka asoslangan ta'lim muhitida muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida V.Karimova,S. Omonova , P.Ergashev, A.Mu'minov kabi tadqiqotchilar empatiyaning zamonaviy sharoitdagi turlari,zamonaviy psixologik tadqiqotlarda empatiya muammosini o'rgangan. Ushbu tadqiqot maqsadi ham - maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya komponentlarini rivojlanishini o'rganish va uning bola ijtimoiy hayotidagi ahamiyatini isbotlashdan iborat.

Nazariy metodoligik tahlil. Empatiya- boshqa kishilarning psixik holatini tushunish va unga hamdardlik qilish qobilyati[1]. U simpatiyadan farq qiladi. Simpatiya- boshqa odamning, his-tuyg'ulariga, fikrlariga nisbatan xayrxohlik, hamfikrlik bildirish, ya'ni boshqa odamning fikrini, hislarini ma'qullash.Empatiya esa boshqa odamning hislarini tushunish, uni o'rnida o'zini ko'rish. Empatiya nafaqat boshqa odamning his-tuyg'ularini tushunish, balki unga kognitiv tomondan baho berish va xulqiy tomondan yordam ko'rsatish yoki yordam ko'rsatish istagini paydo bo'lishi hamdir.

Empatiya - axloqiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Unga ko'ra, empatiya – bu boshqa odamning hissiy holatiga mos keladigan va uning boshidan kechirganlariga emas, balki uning boshidan kechirayotganlariga nisbatan ko'proq mos keladigan hissiy javobdir . Hoffman empatiyani nafaqat hissiy, balki kognitiv komponentlarni ham o'z ichiga olgan murakkab psixologik hodisa sifatida talqin qiladi.[] quyida empatiya rivojlanishi va uning komponentlari haqida eng muhim yondashuvlar keltirilgan

Rivojlanish- axloqiy empatiya nazariyasi. M.L.Hoffman empatiyani his-tuyg'ularni uyg'otish, boshqalarning emotsional holatini kognitiv qayta ishlash va ijtimoiy xulq-atvorni keltirib chiqaradigan motivatsion komponentni o'z ichiga olgan ko'p o'lchovli tuzilma sifatida ta'riflaydi hamda empatiyaning 3 komponentinli modelini taklif qilgan. Ya'ni affektiv komponent, kognitiv komponent va motivatsion komponent []. Bu komponentlar empatiyaning murakkab jarayon ekanini va bola tengdoshlar bilan munosabati va o'yin orqali boshqalar his qilayotgan narsani anglab yetganda, u axloqiy normalarni ichki motivatsiya bilan qabul qiladi degan fikrni ilgari surgan. M.Hoffman nazariyasi asosida ota-ona va pedagoglarga bolalarga empatiya bilan birgalikda

adolat, tenglik va g'amxo'rlik kabi axloqiy tamoyillarni ham birgalikda rivojlantirishni maslahat beradi. Bu orqali bola empatiyani to'g'ri shakllantirish va undan to'g'ri foydalanishni o'rganadi degan xulosaga kelgan.[3]

Kognitiv rivojlanish nazariyasi. J.Piage bola ijtimoiy munosabatlarda passiv qabul qiluvchi emas, balki bilimni faol ravishda qabul qiluvchi subyekt ekanligini ta'kidlagan. Bola atrofida bo'layotgan jarayonlarga yoshi bilan bog'liq holda javob berishini va tafakkuri darajasida tushunishini aniqlagan. Piagening kognitiv rivojlanish boshqichida preoperatsion bosqich(2-7 yosh) davrida desentratsiya jarayoni bo'lib, bola egosentrizmni asta-sekin kamaytirib bir vaqtning vaziyatni bir necha tomondan ko'ra oladi. Qaror qabul qilishda bola bir necha tafsilotlarni e'tiborga oladi. Aynan shu jarayonda uning boshqalarni his-tuyg'ularini tushunish, kognitiv baho bera olish xususiyati ham ortadi. Atrofidagi insonlarni vaziyatini tafakkuri darajasida tushunib unga nisbatan empatiya shakllanishi vujudga keladi. Hamda bola rivojlanishida uning boshqa bolalar bilan do'stlashishi boshqa odamning nuqtai-nazari bilan qarashni va buni asosida empatiyani ham rivojlantirishini o'rgangan[].

Madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi. Bolaning psixik rivojlanishi avvalo ijtimoiy muloqotda , keyin esa individual ongda shakllanadi degan go'yani L.Vigostskiy bejiz ilgari surmagan[5]. Yillar davomida o'z isbotini ko'rsatib kelayotgan ushbu nazariya bolaning shaxsga aylanish jarayonida muhim o'rin egallaydi. Ya'ni bola tarbiyachi, ota-onasining unga va boshqa odamlarga munosabati asosida o'zining xulq modelini shakllantiradi. Bunda kattalar mediator vazifasini bajarib beradi.

Umuman olganda,shaxsning aqliy salohiyati bilan uyg'un holda kechadigan ijtimoiy-hissiy rivojlanishi uning konstruktiv shaxslararo tizimiga moslashuvi va axloqiy ka,olotiga zamin yaratadi. Bu jarayonda empatik qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.


Tadqiqot natijasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida K.B.Bryantning " Bolalarda empatiya indeksi" metodikasi o'tkazildi. Bunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi o'g'il va qiz bolalari qatnashdi. Ularga so'rovnomaning rasmli varianti ko'rsatilib shu rasmlarga mos savollar berildi va bolalarga o'zi uchun to'g'ri bo'lgan javobni berishlari so'raldi va natijalar tahlil qilindi.

Jadval-1.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya rivojlanganlik darajasining statistik ko'rsatkichlari (K.B. Bryant metodikasi asosida)

Ko'rsatkichlar	Natija
O'rtacha	11.8
Standart og'ish	1.9
Minimal ball	8
Maksimal ball	15

Jadvalda ko'rinib turibdiki, K.Bryantning empatiya indeksini aniqlovchi so'rovnomasi ballarini ishlab chiqish oralig'i 7dan 19gachani(farq12 ball) tashkil etdi. Guruhning o'rtacha empatiya balli 11.8 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich mumkin bo'lgan maksimal ballning (22) yarmidan bir oz ko'proqni tashkil etadi. Standart og'ish (1.9) o'rtacha qiymatga nisbatan kichik bo'lib bu guruh ichidagi bolalarning empatiya ballari bir-biriga yaqin ekanligini, ya'ni tanlanmaning nisbatan bir xil (homogeneous)ekanligini ko'rsatdi. Ballarni ishlab chiqish oralig'I (7dan 19 gacha) 12 ballni tashkil etadi. Bu maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida empatiya rivojlanishida individual farqlar mavjudligini, ammo bu farqlar keskin emasligini bildiradi.



jadvaldagi natijalarga ko'ra tadqiqotda qatnashgan 6 yoshli bolalarning 17% da yuqori empatiya, 80%da o'rta empatiya, 3%da past empatiya natijalari kuzatildi. Ushbu natijalar Lukas-Molina va hamkorlari (2016) tomonidan ispaniyalikbolalar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan mos keladi. Ularning tadqiqotida ham 6 yoshli bolalarning 75-85% o'rta empatiya darajasida ekanligi, past empatiya ko'rsatkich esa 5%dan kamligi aniqlangan. 6 yoshli bolalarning 97%da empatiya o'rtacha va yuqori darajada ekanligi, Hoffman nazariyasidagi 4- bosqich (boshqalarning umumiy holatiga nisbatan empatiya) bu yoshdagi bolalarda faol shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy tahlil shuni ko'rsatdiki, empatiya murakkab, ko'p komponentli psixologik hodisa bo'lib, u affektiv (hissiy), kognitiv (bilish) va motivatsion komponentlarni o'z ichiga oladi. M.L.Hoffmanning empatiya nazariyasi uning rivojlanish bosqichlari, qo'zg'alish mexanizmlari va axloqiy xulq-atvor bilan bog'liqligini tizimli ravishda tushuntiradi. J.Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi esa maktabgacha yoshdagi (preoperatsion bosqich) bolalarda desentratsiya jarayoni va egosentrizmning kamayishi bilan bog'liq holda empatiyaning shakllanish mexanizmlarini ochib beradi. L.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi esa bolaning psixik rivojlanishida ijtimoiy muloqot va kattalarning mediatorlik rolini ta'kidlab, empatiyaning shakllanishida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining muhimligini asoslab beradi.

Empirik tadqiqot natijalari quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

Bryant empatiya indeksi bo'yicha 6 yoshli bolalarning o'rtacha empatiya balli 11.8 ni tashkil etadi (maksimal ball 22). Standart og'ishning (1.9) kichik qiymati guruhdagi bolalarning empatiya ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin ekanligini, ya'ni tanlamaning nisbatan bir hil (homogeneous) ekanligini ko'rsatadi.Ballarning ishlab chiqish oralig'i (7 dan 19 gacha, farq 12 ball) maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida empatiya rivojlanishida individual farqlar mavjudligini, ammo bu farqlar keskin emasligini bildiradi.

Ushbu tadqiqot natijalari quyidagi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga asos bo'ladi:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning empatik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Bu dasturlar rolli o'yinlar, dramatizatsiya, ertak va hikoyalar tahlili kabi metodlarni o'z ichiga olishi kerak.

Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarga hissiyotlarni to'g'ri ifoda etish va boshqalarning hissiy holatini tushunishga o'rgatishlari zarur. Empatiya namunasi bo'lish – bolada bu sifatni shakllantirishning eng samarali usuli hisoblanadi.

Past empatiya darajasiga ega bo'lgan 3% bolalar bilan individual psixologik-pedagogik ish olib borish, ularning hissiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda empatiyaning jinsiy va yosh farqlarini chuqurroq o‘rganish, shuningdek, empatiyani rivojlantiruvchi korreksion dasturlarning samaradorligini tajribaviy sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiyani rivojlantirish nafaqat ularning shaxslararo munosabatlarini yaxshilaydi, balki kelajakda jamiyatda sog‘lom, hamjihat va axloqiy jihatdan barkamol shaxslar bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi. Empatiya – bu o‘rgatilishi va rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan qobiliyatdir. Shuning uchun ham uning rivojlanishiga maktabgacha yoshdan boshlab alohida e'tibor qaratish, bola shaxsining uyg‘un rivojlanishining muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Urazbayeva D., Kalandarova M., Bekchanov X., Axmedova G. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. – Toshkent: Ilm-fan, 2024. – 176 b.

2. Ochilova M. Empatiya emotsional intellekt rivojlanishining ko‘rsatkichi sifatida // Inter Education & Global Study. – 2025. – T. 1. – No. 1. – B. 320–328.

3. Valiyeva D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv xulq-atvor shakllanish omillari // Science Shine. – No. 26 (61). – B. 42–45.

4. Jo‘rayeva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanishning asosiy bosqichlari // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2025. – May. – No. 5. – B. 995–998.

5. Kodirova M. Empathy in preschool children: Psychological and pedagogical approaches // Modern American Journal of Linguistics, Education and Pedagogy. – 2025. – Vol. 1. – Issue 6. – P. 218–224.

6. Kursiv Uzbekistan [Электронный ресурс]. – URL: https://uz.kursiv.media.uz (murojaat sanasi: ko‘rsatiladi).

Djuxonova Noxida Xayotjonovna
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

YIGIT VA QIZLARNI MUSTAHKAM OILAVIY HAYOTGA TAYYORGARLIGINI EMPIRIK TADQIQ ETILISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanishi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash faqat shaxsiy, boshqalarga aloqasi yo‘qdek ko‘rinadi, ammo bu qarash millatimiz ravnaqiga, xalqimiz odobiga, kelajagiga, naslinasabiga putur yetkazishdan saqlovchi omillar yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila qurish motivlari, ma’suliyat, yetuklik, ma’naviy bilim, salomatlik, oilaviy hayot.*

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНОШЕЙ И ДЕВУШЕК К ПРОЧНОЙ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *В данной статье подготовка молодежи к семейной жизни рассматривается как один из самых актуальных вопросов. Хотя эта подготовка кажется делом сугубо личным, не касающимся других, в статье освещаются факторы, которые оберегают от нанесения ущерба процветанию нашей нации, нравственности нашего народа, его будущему и продолжению рода.*

Ключевые слова: *мотивы создания семьи, ответственность, зрелость, духовные знания, здоровье, семейная жизнь.*

AN EMPIRICAL STUDY OF THE PREPAREDNESS OF YOUNG MEN AND WOMEN FOR A STABLE FAMILY LIFE

Abstract. *This article emphasizes that preparing young people for family life is one of the most pressing issues. While preparing for family life may seem to be a purely personal matter, unrelated to others, this perspective highlights the factors that protect the development of our nation, the morals of our people, our future, and our lineage from harm.*

Key words: *motives for starting a family, responsibility, maturity, spiritual knowledge, health, family life.*

Respublikamizda oila va oilaviy munosabatlarga e’tibor Davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgandir. Buning yorqin misoli sifatida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilinganligini e’tirof etish mumkin. Konstitutsiyaning bir bobi oilaga maxsus bag‘ishlangan bo‘lib, uning 63,64,65,66-moddalarida bu aks etgan. Unga ko‘ra 63-moddada oila jamiyatning asosiy negizi ekanligi va oila jamiyat va davlat tomonidan himoya etilishi huquqi kafolatlanganligi belgilangan. Oila tuzishda tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi, ota-onalarning farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalash majburiyati, onalik va bolalik davlat tomonidan muxofaza qilinishi, voyaga yetgan va mehnatga layoqatli farzandlarning o‘z ota-onalari haqida g‘amho‘rlik qilishlari yuzasidan majburiyatlari ro‘yi-rost, aniq va ma’noli ravishda ko‘rsatib berilgan.

2018-yilning 2-fevralida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5325-sonli Farmonida boy madaniy tarixiy meros va an’anaviy oilaviy qadriyatlar asosida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va amalga oshirish asosiy vazifalar sirasiga kiritilgandir. Farmonda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma’naviy-axloqiy negizlari va an’anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo‘yicha maqsadli ishlar olib borish zarurligi ta’kidlangan. Mazkur sohada davlatning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro mu-

habbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbek oilasining oila qurish motivlari, o'zbek oilasining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari V.M.Karimova, N.A.Sog'inov, R.Samarov, F.Ro'ziqulov, M.Salayeva, X.Karimov va boshqalar ilmiy ishlarida tadqiq etilganligini kuzatdik.

Psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimovaning doktorlik dissertatsiyasida olib borilgan tadqiqot ishlari ham aynan oila va uning atrofidagi barcha ijtimoiy-psixologik tushunchalar ya'ni jinsiy sotsializatsiya, jinsiy farqlar, ayollik va erkaklik fazilatlari, ota-ona va bolaning o'zaro munosabatlari to'g'risidagi tasavvurlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil etishga qaratilgan.

V.M.Karimova, F.A.Akramova ishlarida ijtimoiy-psixologik xizmatni tashkil etishda avvalo oila maskaniga e'tibor qaratish muhimligi, oila muhitining shaxs ijtimoiylashuvidagi o'rni, shaxslararo muomalaning inson taraqqiyotidagi o'rni, insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari, samarali ta'sir psixologiyasi jihatidan o'rganilib yoritilganligini kuzatamiz.

G'.B.Shoumarovning ishlarida esa oila, uning turi, oilaviy munosabatalarda er va xotin, qaynona va kelin, ota ona va farzandlar orasida yuzaga keladigan muammolar yuzasidan o'rganish olib borilganligi kuzatiladi.

Buning uchun oila qurish arafasida turgan yoshlarning oilaviy hayot haqidagi fikrlarini bilish zarurati yuzaga keladi. Yoshlarni oilaviy hayotga to'g'ri tayyorlash uchun yuqorida qayd etilgan asosiy yo'nalishlarini o'rgatish ham muhim masala hisoblanadi. Biz yosh oila quruvchilarning oilaviy hayotdagi asosiy ijtimoiy-psixologik omillarni qanday tasavvur etishlarini o'rganish maqsadida FXDYO organlariga oila qurish uchun ariza bergan yoshlarga savolnoma bilan murojaat etdik. Kichik savollardan iborat savolnoma Namangan. Andijon, Farg'ona viloyatlari yosh oila quruvchilarida o'tkazildi. Tadqiqotda FXDYoga ariza bergan yoshlarning 300 nafari – 150 juftlik ishtirok etdilar. Olingan fikrlarni umumlashtirgan xolda olingan natijalarning ayrimlarini keltiramiz.

"Oilaviy hayot haqida tasavvurlaringiz qay darajada?" savoli bo'yicha olingan natijalar 1-jadvalda berilgan.

Jadval-1.

"Oilaviy hayot haqida tasavvurlaringiz qay darajada?" savoli natijalari

Savol	Tayyorlik darajasi	% hisobida
Oilaviy hayot haqida tasavvurlaringiz qay darajada?	yetarli	28,1
	o'rta	60,8
	sayoz	5,5
	bilmayman	2,8
	javob berilmagan	2,8

Kuzatilayotgandek, oila qurishga ariza bergan yoshlarning 60,8 foizi o'zlarining oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini "o'rta" darajada baholaydilar. 28,1 foizi "yetarli" javobini ikkinchi o'rinda namoyon etgan. Bu holat o'z navbatida yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari o'rtacha darajada ekanligini o'zlari tomonidan tan olinishini ko'rsatadi.

Olingan natijalarning statistik tahlilidan ko'rinadiki, yoshlarning oilaviy hayot uchun "Psixologik tayyorgarlik, muomala sir asrorlari", "Sabr-bardosh, hayot saboqlarini bilish", "Masuliyatli bo'lish, javobgarlik hissi, boshqarish" kabi jihatlarga e'tibor berishni muhim deb hisoblar ekanlar. Bu borada yoshlarning baxtli yashash uchun nimalarga e'tibor berish zarurligiga oid fikrlari o'rganildi.

Jadval-2.

"Turmush qurishingiz uchun nimalarni bilishim kerak deb o'ylaysiz?" savoli natijalari (% da)

№	Turmush qurishingiz uchun nimalarni bilishim kerak deb o'ylaysiz?	%

1	Masuliyatli bo‘lish, javobgarlik hissi, boshqarish	13,3
2	Psixologik tayyorgarlik, muomala sir asrorlari	15,0
3	Ikki tomon bir-birini tushunishi	5,0
4	Ma’naviy va jismoniy yetuklik	8,3
5	Mustaqil fikrlash, moddiy mustaqillik	10,0
6	Milliy qadriyatlarni bilish	1,6
7	Farzand tarbiyalash	5,0
8	Oila a’zolarini va er-xotin bir-birini hurmat qilish	10,0
9	Muhabbatni avaylash	5,0
10	Islomiy bilimlarga ega bo‘lish	3,3
11	Uy yumushlarini qilishni bilish	8,3
12	Sabr-bardosh, hayot saboqlarini bilish	15,0

2-jadval natijalari yoshlarning nikohdan keyingi baxtli hayot uchun “Ikki tomon bir-birini tushunish, qo‘llab-quvvatlash”, “Muammoli vaziyatlarda yon bosish, nolimaslik”, “Yaxshi ish, pul, moddiy ta’minlanganlik”, “O‘zaro hurmat va ishonch” kabi jihatlarga e’tibor berishni muhim deb hisoblashlarini ko‘rsatdi.

Jadval-3.

“Mustahkam oila qurishda nimalarga e’tibor berishni istaysiz?” savoli bo‘yicha natijalar

Savol	Muhim jihatlar	% hisobida
Mustahkam oila qurishda nimalarga e’tibor berishni istaysiz?	salomatlikka	77,4
	huquqiy bilimlarga	23,0
	ma’naviy bilimlarga	47,9
	psixologik bilimlarga	30,4
	diniy bilimlarga	18,4
	boshq.	10,1

3-jadvaldagi natijalarga e’tibor qaratsak, yoshlarning 77.4 foizi oilaviy munosabatlar uchun salomatlik birinchi o‘rinda ekanligini ko‘rsatsa, ikkinchi navbatda “ma’naviy bilimlarga”, uchinchi o‘rinda esa “psixologik bilimlarga” e’tibor berish zarur ekanligi ko‘rinadi.

Bizning fikrimizcha, oila muammosini tadqiq qilishda, avvalo bugungi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e’tiborni qaratish lozim. Chunki aynan, ko‘p hollarda turmush qurgan ikki yosh o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning nozik jihatlari haqida yetarli bilimga, zarur ko‘nikma va malakaga ega bo‘lmaslik, qolaversa ikki yoshning bir-birlari hamda oilaviy rollarning taqsimlanishi to‘g‘risidagi adekvat tasavvurlarning shakllanmaganligi ularning munosabatlarini ijobiy kechishiga va dinamik jihatdan rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlarini o‘rganish va tadqiq etish juda muhimdir. Chunki bu orqali hozirgi o‘zbek oilasining mustahkam va baxtli etish yo‘llarini aniqlash mumkin.

Demak, oilaviy hayot qurish uchun 20-21-yoshni tanlash asosida bir qator sabablar bo‘lishi mumkin: birinchidan, oilalilar oilada bajariladigan turli vazifalarni yaxshi anglaydilar: bu vazifalarga tarbiyaviy, iqtisodiy, kommunikativ, seksual, psixologik, reproduktiv va boshq. kiradi. Har bir funksiyaning oila sharoitida bajarilishida ma’lum bir shart kerak. Masalan, iqtisodiy vazifa to‘g‘ri bajarilishi uchun oila qurgan kishi ma’lum bir sohani egallagan, mehnat qilib oilani pul bilan ta’minlaydigan darajaga erishgan bo‘lishi kerak. Kommunikativ vazifa to‘g‘ri bajarilishi uchun oiladagilar bir-birlari bilan muomala o‘rnata olish malakalariga ega bo‘lmoqlari talab etiladi. Reproduktiv vazifa bajarilishida yoshlarning salomatlik ko‘rsatkichlari, kelinchakning nafaqat tashqi jihatidan balog‘atga yetganligi, balki ichki (bachadon) organlarida ham normal rivojlanish bo‘lgan bo‘lishi kerak. Bu keltirgan jihatlar qiz bolaning oila qurishi uchun eng optimal sifatida 20-21-yoshni tanlash ma’qulligini bildiradi

Yigitlarning oila qurishlari uchun eng maqbul yosh sifatida barcha yoshlar tomonidan 24-25-yosh tanlangan. Haqiqatan bu yoshda yigitlar biror mutaxassislik yoki hunarga ega bo‘ladilar, o‘zlarini iqtisodiy jihatdan qisman bo‘lsa-da, oilani ta’minlashga qodir bo‘ladilar, fiziologik jihatdan yetuklikka erishgan pallada bo‘ladilar. Bu esa ularning oila qurish uchun eng optimal yoshga ega davrlari sifatida tanlashga olib keladi. Gohida oila qurmagan yoshlarning fikrlarida oila qurishni vaqtli boshlasa xam bo‘ladi, degan fikr kuzatiladi va oila qurishni yigit uchun 22-23-yoshda yaxshi deb o‘ylaydilar. Aslida yigitlarning yoshi kattalashgan sari oila qurish imkoniyatlari pasaymaydi, aksincha ortadi, oilada ularning ijtimoiy, iqtisodiy mavqelari oshishi, natijada kelin tomonidan ularni turmush o‘rtoq sifatida idrok etilishi, xurmati saqlanishi kuzatiladi.

Lekin bularning o‘zi yoshlarning kelgusi hayotlarining farovon bo‘lishligi uchun yetarli emas, balki ularga oilaviy hayot saboqlaridan ham ma’lumotlar berishga to‘g‘ri keladi. Demak, turmush qurish yoshining nikoh barqarorligiga ta’sir etuvchi omil sifatida ko‘rilishi bu ayni haqiqat ekan, bu yoshning qizlar uchun ham, yigitlar uchun ham qaralganda alohida o‘z optimal muddatlari mavjud ekanki, oila qurayotgan har bir shaxs bu muddatni bilib, oila qurishi uning nikohi barqarorligiga olib kelar ekan.

Ko‘rib turganimizdek, test natijalariga ko‘ra yoshlarning nikohga ma’naviy tayyorlik darajalarida past ko‘rsatkich ko‘proq yigitlarda, o‘rtacha ko‘rsatkich esa qizlarda kuzatiladi. Bu o‘z navbatida qizlarning oila qurishlari ular uchun eng muhim qadriyat sifatida qaralishini bildiradi. Yigitlar esa o‘zlarini avval iqtisodiy jihatidan, ijtimoiy jihatdan mustaqil sifatida ko‘rishlari kerakligi, oila qurish uchun o‘zlarini anglab olishlari, mutaxassis sifatida shakllanishlari muhimligini his etishlari ustunligi ko‘rinadi.

Jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan oilalar ajrimining oldini olishda yoshlarni oilaviy hayotga to‘g‘ri tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida jamiyat milliy qadriyatlarining asrab avaylanishiga xizmat qilib, kelajak yoshlarning to‘liqsiz oilalarda tarbiyalanishi va oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Yoshlarni nikoh qurishdan avval oilaviy hayot asoslariga o‘qitish borasida ko‘plab rivojlangan xorij davlatlari tajribasi tahlil qilindi.

Latviyada nikoh qurishdan avval oilaviy hayotdan nimani kutish kerakligi, oila budjetini rejalashtirish, bolalarni qanday qilib tarbiyalash, oilaga turli huquqiy aspektlarni joriy etish va nihoyat, sog‘lom munosabatlarni qanday qilib shakllantirish haqida 24 soatga mo‘ljallangan bepul o‘quv kurslari taklif etiladi. Mashg‘ulotlarda mutaxassislar oila qurishga ahd qilgan juftliklarga oilaning barcha nozik jihatlari borasidagi bilim va ko‘nikmalarni birgalikda o‘rgatishadi. Latviyada bir necha yillardan buyon oilaning psixologik va ma’naviy-axloqiy jihatlari, shuningdek, to‘g‘ri jinsiy hayotni qurish bo‘yicha darslarni o‘z ichiga olgan bir nechta modullardan iborat dastur ishlab chiqish harakatidan bo‘linmoqda. Biroq, bir biriga zid bo‘lgan ko‘plab bahs-munozaralarning kelib chiqayotgani tufayli ushbu dasturning hayotga joriy etilishi kechikmoqda.

Singapur davlatida esa nikoh qurishdan avval oilaviy hayot asoslari bo‘yicha dastlab bepul ta’lim beriladi, shuningdek, bu mavzudagi kengaytirilgan pulli o‘quv kurslari ham mavjud.

Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi maktab va kollejlarda oilaviy hayotni o‘rgatish uchun o‘quv dasturlari taklif etilgan bo‘lib, ular asosan nikoh qurishga tayyorgarlik, homiladorlik mas’uliyati va jinsiy ta’lim masalalariga yo‘naltirilgan. Bu o‘rinda nikoh va yaqin munosabatlar haqidagi nazariy bilimlarning jamlanganligi, so‘ngra amaliy ko‘nikmalar va ularni amalda qo‘llash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu ishlarning mazmun-mohiyati, avvalo, muvaffaqiyatli oilaviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun ko‘nikmalarni rivojlantirish sifatida tavsiflanadi. YA’ni:

– juftliklar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni samarali shakllantirish;

– nizoli vaziyatlarni hal etishning noan’anaviy vositalarini o‘zlashtirish;

– vafo, sadoqat tuyg‘usini targ‘ib qilish;

– yosh kelin-kuyovning shaxsiy hayoti haqida g‘amxo‘rlik qilish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash qobiliyatini rivojlantirish;

– yosh nikohlanuvchining o‘z shaxsiy his-tuyg‘ularini va fikrlarini samimiy, ochiq-oydin, erkin ifodalashi, shaxsiy e’tiqodini oqilona himoya qila olishi, oilada ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarmaslikka o‘rgatish.

Rossiya Federatsiyasida yoshlarni oilaga tayyorlash mavzusida turli xil dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lib, rasmiy va fakultativ ta’lim shaklida hayotga joriy etilgan. Oilaviy hayot asoslarini o‘qitish bo‘yicha “Diniy madaniyat asoslari va dunyoviy axloq” deb nomlangan o‘quv kurslari o‘rta maktablar o‘quvchilari o‘rtasida davlat darajasida qat’iy yo‘lga qo‘yilgan. O‘z navbatida, ba’zi o‘quv muassasalarida o‘quvchilarning boshqa yosh toifalarini oilaviy hayotga sifatli tayyorlashni ta’minlash uchun mualliflik dasturlaridan ham foydalaniladi. Xususan, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun “Men nafaqat bolaman, men bo‘lg‘usi oila quruvchiman”, “Mening baxtli oilam”, katta sinfdagi o‘quvchilar uchun “Bo‘lg‘usi oila quruvchini tarbiyalash”, Oilaviy hayot etikasi va estetikasi” kabi dasturlar asosida mashg‘ulotlar olib boriladi.

Shuningdek, oila sohasini pedagogik jihatdan faol qo‘llab-quvvatlash va nikohgacha tarbiyalash jarayonida Pravoslav cherkovi tomonidan “Ma’naviyat maktabi” uslubida yo‘lga qo‘yilgan "Oilaviy hayotning axloqiy asoslari" nomli kurslar katta ahamiyatga ega.

Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun esa “Oila” (“Sem YA”,) “Ulg‘ayish”, alohida ixtisoslashtirilgan o‘quv muassasalarida “Maxsus maktab-internatlarning 9-sinflari uchun etika va oilaviy hayot psixologiyasi”, “Bolalar uyida bo‘lg‘usi oila quruvchini tarbiyalash” kabi o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish yo‘lga qo‘yilgan.

Xulosa qilib aytish joizki, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlarini o‘rganish, va tadqiq etish juda muhimdir. Chunki bu orqali hozirgi o‘zbek oilasining mustahkam va baxtli etish yo‘llarini aniqlash mumkin. Shunday ekan, bu mavzu eng dolzarb masala hisoblanadi.

Demak, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yoshlarning fiziologik yetukligi bilan bir qatorda ularning ma’naviy, kasb jihatidan, ya’ni professional, ijtimoiy, huquqiy, psixologik yetuk bo‘lishlariga erishish. Buning uchun yoshlarga pedagog-o‘qituvchilar, ota-onalar, kattalar tomonidan shu jihatlarni muhim ekanligini o‘rgatib borish va tushuntirish ishlarini maqsadli olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik: “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumandagi nutq // Xalq so‘zi. – 2017. – 16-iyun.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – 39 b.
3. Abu Ali ibn Sino. Tadbiri manzil. – Toshkent, 1957. – B. 44.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
5. Akramova F.A. Yoshlarni oilaga tayyorlash – oila mustahkamligini ta’minlash omili sifatida // “Bolalar va yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida oilaning roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2018. – 26-oktabr. – B. 82–86.
6. Akramova F.A. Sotsialno-psixologik faktorlar sozdaniya prochnix semeynix otnosheniy // IX Uralskiy demografik forum materiallari “Demografik va oilaviy siyosat barqaror rivojlanish kontekstida”. – 2018. – 8–9-iyun.
7. Akramova F.A., Bilolova Z.B. Ta’lim tizimida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash dolzarb muammo sifatida // Zamonaviy ta’lim. – 2018. – № 9. – B. 60–65.
8. Akramova F.A. Sharq mutafakkirlarining asarlarida yoshlarni oilaga tayyorlashga oid psixologik fikrlar // “O‘zbekistonda ilmiy psixologiyaning rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2018. – 17-aprel. – B. 226–229.

Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi
Buxoro davlat innovatsiyalar universiteti
pedagogika psixologiya va sport kafedrasi o'qituvchisi

NAVOIY ASARLARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EMPATIYA VA BAG'RIKENGLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *maqolada Alisher Navoiy asarlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida empatiya va bag'rikenglik sifatlarini shakllantirish masalasi tahlil qilinadi. Navoiy ijodidagi insonparvarlik, mehr-oqibat, adolat va bag'rikenglik g'oyalari bolalar tarbiyasida muhim manba sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda adabiy asarlar orqali o'quvchilarning hissiy-axloqiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi pedagogik usullar yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida Navoiy asarlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda boshqalarga nisbatan hurmat, tushunish va hamdardlik hissini shakllantirish yo'llari ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *empatiya, bag'rikenglik, boshlang'ich ta'lim, tarbiya, Alisher Navoiy ijodi, insonparvarlik, axloqiy tarbiya, adabiy ta'lim, ma'naviy rivojlanish*

РАЗВИТИЕ ЭМПАТИИ И ТОЛЕРАНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация. *В данной статье анализируется вопрос формирования эмпатии и толерантности у учащихся начальных классов на основе произведений Alisher Navoiy. Рассматриваются идеи гуманизма, милосердия, справедливости и терпимости в творчестве Навои как важный источник воспитания детей. В исследовании освещаются педагогические методы, влияющие на эмоционально-нравственное развитие учащихся посредством художественных произведений. Также показаны пути формирования у школьников уважения, понимания и сочувствия к другим в процессе начального образования с использованием произведений Навои.*

Ключевые слова:*эмпатия, толерантность, начальное образование, воспитание, творчество Alisher Navoiy, гуманизм, нравственное воспитание, литературное образование, духовное развитие*

DEVELOPING EMPATHY AND TOLERANCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Abstract. *This article analyzes the issue of developing empathy and tolerance in primary school students based on the works of Alisher Navoiy. The ideas of humanism, kindness, justice, and tolerance in Navoi's творчество are considered as an important source for children's education. The study highlights pedagogical methods that influence students' emotional and moral development through literary works. It also presents ways of fostering respect, understanding, and compassion toward others among pupils in primary education through the use of Navoi's works.*

Key words: *empathy, tolerance, primary education, upbringing, works of Alisher Navoiy, humanism, moral education, literary education, spiritual development*

Kirish.G'azal mulkining sultoni, yozganlari ma'no xazinasining makoni, turkiy til bilimdoni Mir Alisher Navoiyning "Xamsa" si odamninggina emas, olamning ham besh asroridir. "Hayrat ul-abror" - Navoiyning hayrati, dunyoning xosiyati, ko'ngillarning havolati. Bu asar - Hazrat Navoiyning zamondoshlari va avlodlarga qoldirgan pandnomasidir. Unda yuksak insoniy tuyg'ular - imon, sahovat qanoat, vafo, to'g'rilik, qo'yingki, ezgulik haqida so'z boradi. Shoir qalamidan tomgan haqiqatlar Inson qalbining eng yashirin joylariga kirib boradi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi globallashuv va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida yosh avlodni nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga

ega qilib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiya va bag‘rikenglik kabi insoniy sifatlarni shakllantirish ularning kelgusidagi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Shu nuqtayi nazardan, buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy asarlari bebaho tarbiyaviy manba hisoblanadi. Uning ijodida insonparvarlik, mehr-oqibat, adolat, sabr-toqat va bag‘rikenglik g‘oyalari markaziy o‘rinni egallaydi. Navoiy asarlari orqali bolalarga nafaqat badiiy zavq berish, balki ularning qalbida boshqalarga nisbatan hurmat, tushunish va hamdardlik tuyg‘ularini shakllantirish imkoniyati mavjud. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning hissiy dunyosi faol rivojlanadi, ular atrofdagi insonlar va voqelikka nisbatan munosabat shakllantiradi. Ana shu davrda ularga to‘g‘ri yo‘nalish berish, ijobiy xulq-atvor me’yorlarini singdirish pedagogik jihatdan muhimdir. Bu jarayonda badiiy adabiyot, xususan, Navoiy asarlari samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda Navoiy asarlari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiya va bag‘rikenglik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini o‘rganish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi belgilab olindi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu doirasida empatiya va bag‘rikenglik masalasi nafaqat mahalliy, balki xorijiy ilmiy tadqiqotlarda ham keng o‘rganilgan bo‘lib, ularni qiyosiy tahlil qilish ushbu muammoning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur anglash imkonini beradi.

Xorijiy tadqiqotchilardan Martin L. Hoffman empatiyani shaxs axloqiy rivojlanishining asosiy omili sifatida baholab, uni bolalarda erta yoshdan shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Daniel Goleman o‘z tadqiqotlarida empatiyani emotsional intellektning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatib, u o‘quvchilarning ijtimoiy munosabatlari va ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir qilishini asoslab beradi.

Amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlardan biri sifatida Mary Gordon tomonidan ishlab chiqilgan “Roots of Empathy” dasturi alohida ahamiyatga ega. Ushbu dastur natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarda hamdardlik, mehr-oqibat va ijobiy ijtimoiy xulq-atvor shakllanib, agressiv xulq-atvor sezilarli darajada kamayishi aniqlangan.

Bag‘rikenglik masalasiga oid xorijiy yondashuvlarda esa UNESCO tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, bag‘rikenglik ko‘pmadaniyatli jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlovchi asosiy qadriyat bo‘lib, ta’lim jarayonida uni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shuningdek, kross-madaniy empatiya tushunchasi turli madaniyat va qarashlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Mahalliy tadqiqotlarda empatiya va bag‘rikenglik masalasi ko‘proq ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Jumladan, Islom Karimov asarlarida yosh avlodni yuksak ma’naviyatli, insonparvar va bag‘rikeng qilib tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. U empatiya va mehr-oqibatni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholaydi.

Shu bilan birga, o‘zbek pedagog olimlaridan J. G‘. Yo‘ldoshev va B. R. Qodirov kabi tadqiqotchilar ta’lim jarayonida o‘quvchilarda empatik madaniyatni shakllantirish, ularda boshqalar his-tuyg‘ularini anglash va hurmat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Bag‘rikenglikni shakllantirishda esa milliy adabiy merosning o‘rni beqiyosdir. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik, mehr-shafqat, adolat va bag‘rikenglik g‘oyalari chuqur ifodalangan bo‘lib, ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarning ma’naviy kamolotini ta’minlaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda empatiya va bag‘rikenglikni shakllantirish innovatsion pedagogik texnologiyalar va maxsus dasturlar asosida amalga oshirilsa, mahalliy tadqiqotlarda ushbu masala milliy qadriyatlar, ma’naviy meros va tarbiyaviy an’analar bilan uyg‘unlikda o‘rganilgan.

Shuningdek, ilmiy tahlillar asosida aytish mumkinki, Daniel Goleman va Martin L. Hoffman nazariyalari hamda Alisher Navoiyning ma’naviy merosini integratsiya qilish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiya va bag‘rikenglik sifatlarini yanada samarali rivojlantirish mumkin.

Mavzu metodologiyasi. Hozirgi kunda jamiyatda turli madaniyatlar, qarashlar va ijtimoiy munosabatlar xilma-xilligining ortib borishi insonlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, hurmat va hamjihatlikni ta’minlashni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yosh avlodni empatiya va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mazkur sifatlarni erta shakllantirish ularning kelgusidagi ijtimoiy moslashuvi va barkamol shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy axborot oqimi va raqamli muhit bolalarning dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq bu jarayonda ayrim hollarda hissiy sovuqlik, befarqlik va individualizm kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Bu esa ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda boshqalar his-tuyg‘ularini tushunish, ularga hamdard bo‘lish va turli fikrlarga nisbatan bag‘rikeng munosabatni shakllantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Mazkur vazifani amalga oshirishda milliy adabiy meros, xususan, Alisher Navoiy asarlarining imkoniyatlari nihoyatda kengdir. Navoiy ijodida insonparvarlik, mehr-shafqat, adolat va bag‘rikenglik g‘oyalari chuqur ifodalangan bo‘lib, ularni ta’lim jarayoniga maqsadli tatbiq etish o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Shu bois, Navoiy asarlari vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiya va bag‘rikenglik sifatlarini rivojlantirish masalasini ilmiy-pedagogik jihatdan o‘rganish, uning samarali usul va shakllarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilar shaxsiyati shakllanishida eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Ushbu bosqichda bolalarning nafaqat bilim olish qobiliyati, balki ularning hissiy-axloqiy dunyosi ham faol rivojlanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida ularda empatiya va bag‘rikenglik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu jarayonda milliy adabiy meros, xususan, Alisher Navoiy asarlari samarali tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Navoiy ijodida insonparvarlik, mehr-shafqat, adolat, sabr-toqat va bag‘rikenglik g‘oyalari chuqur badiiy obrazlar orqali ifoda etilgan. Uning asarlaridagi qahramonlar xulq-atvori, o‘zaro munosabatlari va ma’naviy tanlovlari o‘quvchilar uchun ibrat maktabi vazifasini bajaradi.

Jumladan, Navoiy asarlarini o‘qish va tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar qahramonlarning his-tuyg‘ularini tushunishga, ularga hamdard bo‘lishga, turli vaziyatlarda insonparvarlik nuqtayi nazaridan yondashishga o‘rganadilar. Bu esa empatik fikrlashni shakllantiradi. Shu bilan birga, asarlardagi bag‘rikenglik, kechirimlilik va o‘zaro hurmat g‘oyalari bolalarda boshqalarga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalaydi.

Pedagogik jihatdan qaraganda, Navoiy asarlaridan foydalanish interfaol metodlar - rolli o‘yinlar, muhokama, sahnalashtirish, qiyosiy tahlil kabi usullar orqali amalga oshirilsa, yanada samarali natijalarga erishish mumkin. Bu usullar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, ularning hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, (1-jadvalga qarang) Alisher Navoiy asarlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiya va bag‘rikenglik sifatlarini rivojlantirish tarbiya jarayonda samarali va dolzarb pedagogik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Jadval-1.

Hikoyatlar asosida empatiya va bag‘rikenglikni rivojlantirishning metodologik mazmuni tahlili

Hikoyat nomi	Asosiy g‘oya	Empatiya	Bag‘rikenglik	Metodik yondashuv
Odil podshoh	Adolat	Boshqalar holatini tushunish	Teng munosabat	Muhokama, savol-javob
Kambag‘al va boy	Saxovat	Kambag‘alga hamdardlik	Yordam berish	Rolli o‘yin

Ota-onaga hurmat	Hurmat	Yaqinlarga mehr	Kattalarga bag‘rikenglik	Suhbat
Ilm fazilati	Ilm	Boshqalar fikrini tushunish	Fikrlar xilma-xilligini qabul qilish	Tahlil
Sabr-toqat	Sabr	Qiyin holatlarga hamdardlik	To‘qqonlik	Hayotiy misollar
Kamtarlik	Kamtarlik	Boshqalarni his qilish	Kibrsizlik	Qiyosiy tahlil
Rostgo‘ylik	Halollik	Rostni tushunish	Adolatli munosabat	Savol-javob
Do‘stlik	Sadoqat	Do‘stga hamdardlik	Kechirimlilik	Rolli o‘yin
Mehnatkashlik	Mehnat	Boshqalar mehnatini qadrlash	Hurmat	Misollar
Kechirimlilik	Kechirish	Boshqalarni tushunish	Bag‘rikenglik	Muhokama

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy hikoyatlari:

-empatiyani shakllantirishda - qahramonlar his-tuyg‘ularini anglashga

-bag‘rikenglikni rivojlantirishda - ijobiy munosabat va xulq-atvorga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur qiyosiy jadval pedagoglarga:

-qaysi hikoyat qaysi sifatni kuchliroq rivojlantirishini


-qaysi metodni qo‘llash samarali ekanini aniq belgilab olishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf bosqichi bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun eng muhim davr hisoblanadi. Ushbu davrda empatiya va bag‘rikenglik sifatlarini rivojlantirish nafaqat ma’naviy kamolot, balki ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhimdir.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asari tarbiyaviy vosita sifatida samaralidir. Asar hikoyalari orqali bolalar qahramonlar his-tuyg‘ularini tushunishga, hamdardlik va bag‘rikenglikni shakllantirishga o‘rgatiladi.

Tadqiqotda 4-sinf o‘quvchilari Buxoro viloyatidan 350 nafar, Xorazm viloyatidan 280 nafar, Navoiy viloyatidan 310 nafar o‘quvchilar ishtirok etishdi. Mazkur tadqiqot jarayonida Navoiy as-arlari orqali empatiya va bag‘rikenglik sifatlarini rivojlantirish usullari va natijalari o‘rganildi.

O‘quvchilarning empatiya va bag‘rikenglik rivojlanishi quyidagi komponentlar orqali baholandi (1-rasmga qarang).



1-rasm. O‘quvchilarda empatiya va bag‘rikenglikni rivojlanish komponentlari

Har bir komponent 5 ballli shkalada baholandi, jami maksimal ball - 15.

Tadqiqot uchun “Hayrat ul-abror” hikoyatlaridan quyidagi 10 tasi tanlandi va o‘quvchilarning empatiya va bag‘rikenglik jihatlari aniqlashtirildi (2-jadvalga qarang).

Jadval-2.

A.Navoiyning “Hayrat ul-abror” hikoyatlari asosida o‘quvchilarning empatiya va bag‘rikenglik jihatlarini aniqlash tahlili

Hikoyat nomi	Asosiy g‘oya	Empatiya (ball)	Bag‘rikenglik (ball)	Metodik usul
Odil podshoh	Adolat	4,5	4,7	Muhokama, savol-javob
Kambag‘al va boy	Saxovat	4,6	4,8	Rolli o‘yin
Ota-onaga hurmat	Hurmat	4,2	4,5	Suhbat
Ilm fazilati	Ilm	4,0	4,2	Tahlil, bahs
Sabr-toqat	Sabr	4,3	4,4	Hayotiy misollar
Kamtarlik	Kamtarlik	4,1	4,3	Qiyosiy tahlil
Rostgo‘ylik	Halollik	4,4	4,5	Savol-javob
Do‘stlik	Sadoqat	4,5	4,6	Rolli o‘yin
Mehnatkashlik	Mehnat	4,3	4,4	Misollar, muhokama
Kechirimlilik	Kechirish	4,6	4,7	Muhokama

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda empatiya va bag‘rikenglik sifatlari umumiy bahosi yuqori darajada rivojlangan. Rolli o‘yin va muhokama usullari eng samarali metod sifatida aniqlangan. Asarlardagi qahramonlar va hayotiy holatlar orqali bolalarning emotsional va ijtimoiy qobiliyatlari o‘zgarganligi kuzatilgan.

Bu esa, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” hikoyatlari empatiya va bag‘rikenglikni rivojlantirishda qo‘llanish uchun samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Empatiya asosan qahramonlarning his-tuyg‘ularini tushunish orqali rivojlansa, bag‘rikenglik qahramonlar orasidagi munosabatlar va adolat g‘oyalari orqali shakllanadi. Tanlangan metodlar (rolli o‘yin, muhokama, savol-javob) bolalarning ijtimoiy va emotsional salohiyatini mustahkamlaydi. Ilmiy-tadqiqot natijalari asosida Navoiy asarlaridan pedagogik metodika sifatida foydalanish 4-sinf o‘quvchilarida insoniy sifatlarni rivojlantirish uchun samarali ekanligi tasdiqlandi (3-jadvalga qarang).

Jadval-3.

Hikoyatlar va ularning mazmuni

Hikoyat nomi	Soddalashtirilgan mazmun	Saboq
Odil podshoh	Podshoh barchaga teng qaraydi va	Adolat va barchaga mehr

	adolatli qaror chiqaradi	ko‘rsatish
Kambag‘al va boy	Kambag‘alga yordam beriladi, u xursand bo‘ladi	Hamdardlik va yordam
Ota-onaga hurmat	Bolaning ota-onasiga yordami va hurmati	Kattalarga hurmat
Ilm fazilati	Ilmli inson yaxshi inson bo‘ladi va boshqalarga yordam beradi	Ilm va bilimga intilish
Sabr-toqat	Qiyin vaziyatlarda sabr qilgan inson muvaffaqiyatga erishadi	Sabr va bardosh
Kamtarlik	Kamtar inson hurmat topadi	Kamtar va kibrsiz bo‘lish
Rostgo‘ylik	Rostgo‘y inson to‘g‘ri yo‘lda yutadi	Halollik va rostgo‘ylik
Do‘stlik	Sodiq do‘st qiyin paytda yordam beradi	Do‘stlik va sadoqat
Mehnatkashlik	Mehnat qilgan inson yutuqqa erishadi	Mehnat va intilish
Kechirimlilik	Boshqani kechirgan inson do‘stlar topadi	Kechirimlilik va bag‘rikenglik

Hisobot va tahlil

Sifat	“Ha” %	“Ba’zan” %	“Yo‘q” %	Qiyosiy tahlil
Empatiya (boshqalar his-tuyg‘ularini his qilish)	55%	35%	10%	Ko‘pchilik bola hamkasb va do‘stlar his-tuyg‘ularini his qilishga harakat qiladi, ammo 35% bolada empatiya miqdori holatga bog‘liq. Buning asosiy sababi bolalarning ijtimoiy tajribasi turlicha ekanligini ko‘rsatadi.
Bag‘rikenglik (kechirish va yordam)	45%	40%	15%	Bag‘rikenglik ko‘p bolada shakllanmagan yoki holatga bog‘liq. “Yo‘q” javoblari bolalarning ko‘pincha o‘z hissiyotlarini boshqalardan yuqori qo‘yishi bilan bog‘liq.
Sabr	60%	30%	10%	Sabr ko‘pchilikda rivojlangan, bu bolalarning ta’lim jarayonida topshiriqlarni bajarishda ko‘rsatiladi. “Ba’zan” javoblari ayrim bolalarda tez xissiyotlanish kuzatilishini ko‘rsatadi.
Adolat	50%	40%	10%	Adolat tushunchasi bolalar orasida nisbatan yaxshi rivojlangan. Ba’zan bolalar o‘z xohishi yoki manfaatlarini yuqori qo‘yib, adolatni

				buzishi mumkin.
Rostgo‘ylik	55%	35%	10%	Rostgo‘ylik eng ko‘p “Ha” javobi olgan, bu bolalarning ma’naviy tarbiyasi va kitoblar orqali rivojlanishini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, bolalarda ijtimoiy-axloqiy sifatlar turlicha darajada shakllanganligi kuzatiladi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar empatiya, sabr va rostgo‘ylik sifatlarida namoyon bo‘lib, bu bolalarning muhitga moslashuvi va tarbiya jarayonida ijobiy o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq bag‘rikenglik va adolat kabi sifatlarda “ba’zan” va “yo‘q” javoblarining nisbatan yuqoriligi ayrim bolalarda emotsional boshqaruv va ijtimoiy tajriba yetarli emasligini anglatadi. Umuman olganda, natijalar bolalarda axloqiy qadriyatlar shakllanayotganini, lekin ularni yanada rivojlantirish uchun tizimli pedagogik va psixologik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

4-sinf o‘quvchilar shaxsiy sifatlar anketa javoblari (viloyatlar kesimida)

Sifat	Viloyat	Ha (%)	Ba’zan (%)	Yo‘q (%)	Jami o‘quvchilar soni
Empatiya	Buxoro	55%	35%	10%	350
	Xorazm	50%	40%	10%	280
	Navoiy	60%	30%	10%	310
Bag‘rikenglik	Buxoro	45%	40%	15%	350
	Xorazm	40%	45%	15%	280
	Navoiy	50%	35%	15%	310
Sabr	Buxoro	60%	30%	10%	350
	Xorazm	55%	35%	10%	280
	Navoiy	65%	25%	10%	310
Adolat	Buxoro	50%	40%	10%	350
	Xorazm	45%	45%	10%	280
	Navoiy	55%	35%	10%	310
Rostgo‘ylik	Buxoro	55%	35%	10%	350
	Xorazm	50%	40%	10%	280
	Navoiy	60%	30%	10%	310

Empatiya: Navoiy viloyatida 60% bilan yuqori, Xorazmda eng past (50%). Bu viloyatdagi ta’lim jarayoni va bolalarning ijtimoiy muhiti ta’sirini ko‘rsatishi mumkin.

Bag‘rikenglik: Barcha viloyatlarda ham “Bag‘rikenglik” nisbatan pastroq, 40–50% oraliqda. Bu bolalarning amalda bag‘rikenglikni qo‘llashda tajribasi yetishmasligini ko‘rsatadi.

Sabr va Adolat: Sabr va adolat ko‘pchilikda yuqori, Navoiy viloyatida eng yuqori natijalar (65% sabr). Bu ta’lim va tarbiyaning ijtimoiy va ma’naviy ta’sirini ko‘rsatadi.

Rostgo‘ylik: Har uch viloyatda o‘xshash darajada rivojlangan (50–60%).

-Bu bolalarning axloqiy tarbiya va kitoblar orqali bilim olishini ko‘rsatadi.

4-sinf o‘quvchilari shaxsiy sifatlar anketa javoblari asosida, interaktiv dars ishlanmasini tayyorlab berdim. Bu darsda savol-javoblar, mini-o‘yinlar va fikr almashish topshiriqlari orqali empatiya, bag‘rikenglik, sabr va adolat sifatlari rivojlantiriladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy asarlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiya va bag‘rikenglik kabi muhim shaxsiy sifatlarni shakllantirishda yuqori pedagogik salohiyatga ega. Navoiy ijodida ilgari surilgan insonparvarlik, mehr-oqibat, adolat va sabr-toqat g‘oyalari bolalarning nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga ham samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida aniqlandiki, adabiy asarlarni mazmunan tahlil qilish, rolli o‘yinlar, interfaol metodlar va refleksiv mashqlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, ularga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish va hamdardlik bildirish ko‘nikmalari izchil shakllanadi. Shuningdek, ta’lim jarayoniga Navoiy asarlarini maqsadli integratsiya qilish o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini boyitib, ularda bag‘rikenglik madaniyatini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Ilmiy jihatdan, mazkur tadqiqot adabiy ta’lim va axloqiy tarbiya integratsiyasining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishga hissa qo‘shadi. Amaliy jihatdan esa, ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar boshlang‘ich ta’lim amaliyotida qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ular o‘quvchilarda empatik tafakkur va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, Alisher Navoiy asarlariga tayangan holda tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayoni barkamol, bag‘rikeng va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashning samarali vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, turli nashrlar.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
3. Navoiy A. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2006.
4. Navoiy A. Lison ut-tayr. – Toshkent: Sharq, 2005.
5. Vygotsky L.S. Myshlenie i rech. – Moskva: Pedagogika, 1982.
6. Piaget J. Psixologiya intellekta. – Moskva: Prosveshchenie, 1969.
7. Goleman D. Emotional intelligence. – New York: Bantam Books, 1995.
8. Kohlberg L. Essays on moral development. – San Francisco: Harper & Row, 1981.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2020.
11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
12. Nurmonov A. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
13. Qodirov B. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
14. Yo‘ldoshev J. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
15. Saidov A. Axloqiy tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Universitet, 2017.

Xamrayeva Maxzuna G'ayratovna
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Filologiya fanlari v.b. dotsenti
Email: mahzuna69@gmail.com

FILOLOGIYADA BADIIY MATN TAHLILINING ZAMONAVIY USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola filologiya sohasidagi badiiy matnlarni tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlarini o'rganadi, fanlararo usullar va raqamli vositalarni integratsiyalashga e'tibor qaratadi. Globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida matn tahlilining an'anaviy usullari qayta ko'rib chiqilmoqda va diskurs tahlili, kognitiv poetika, germenevtika va korpus lingvistikasi kabi yangi nazariy nuqtai nazarlar bilan boyitilmoqda. Tadqiqot adabiy talqinga ko'p o'lchovli yondashuvning muhimligini ta'kidlaydi, bunda lingvistik, madaniy, psixologik va semiotik jihatlar yagona doirada o'rganiladi. O'quvchi-javob nazariyasining roli va raqamli gumanitar fanlarning adabiyotshunoslikka tobora ortib borayotgan ta'siriga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada zamonaviy analitik usullar nafaqat badiiy matnlarni tushunishni chuqurlashtiradi, balki zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash va talqin qilish qobiliyatlarini ham oshiradi, deb ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *adabiy matn tahlili, filologiya, zamonaviy usullar, diskurs tahlili, kognitiv poetika, raqamli gumanitar fanlar, germenevtika, korpus tilshunosligi, talqin, fanlararo yondashuv.*

MODERN METHODS OF LITERARY TEXT ANALYSIS IN PHILOLOGY

Abstract. *This article examines modern approaches to the analysis of literary texts in the field of philology, focusing on the integration of interdisciplinary methods and digital tools. In the context of globalization and the rapid development of information technologies, traditional methods of text analysis are being reconsidered and enriched with new theoretical perspectives, such as discourse analysis, cognitive poetics, hermeneutics, and corpus linguistics. The study emphasizes the importance of a multidimensional approach to literary interpretation, in which linguistic, cultural, psychological, and semiotic aspects are studied within a single framework. Special attention is paid to the role of reader-response theory and the increasing influence of digital humanities on literary studies. The article argues that modern analytical methods not only deepen the understanding of literary texts, but also enhance students' critical thinking and interpretation skills in a modern educational environment.*

Key words: *literary text analysis, philology, modern methods, discourse analysis, cognitive poetics, digital humanities, hermeneutics, corpus linguistics, interpretation, interdisciplinary approach.*

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ АНАЛИЗА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА В ФИЛОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются современные подходы к анализу литературных текстов в области филологии, с акцентом на интеграцию междисциплинарных методов и цифровых инструментов. В контексте глобализации и стремительного развития информационных технологий традиционные методы анализа текста переосмысливаются и обогащаются новыми теоретическими перспективами, такими как дискурсивный анализ, когнитивная поэтика, герменевтика и корпусная лингвистика. В исследовании подчеркивается важность многомерного подхода к литературной интерпретации, в рамках которого лингвистические, культурные, психологические и семиотические аспекты изучаются в единой системе. Особое внимание уделяется роли теории читательского отклика и растущему влиянию цифровых гуманитарных наук на литературоведение. В статье утверждается, что современные аналитические методы не только углубляют пони-*

мание литературных текстов, но и повышают навыки критического мышления и интерпретации у студентов в современной образовательной среде.

Ключевые слова: *анализ литературных текстов, филология, современные методы, дискурсивный анализ, когнитивная поэтика, цифровые гуманитарные науки, герменевтика, корпусная лингвистика, интерпретация, междисциплинарный подход.*

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda filologiya sohasi globallashuv, texnologik taraqqiyot va yangi ilmiy paradigmalarning paydo bo'lishi ta'sirida sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Bu o'zgarishlar badiiy matnlarni tahlil qilishda innovatsion yondashuvlarning rivojlanishiga olib keldi, an'anaviy strukturaviy va rasmiy usullardan tashqari murakkabroq va fanlararo doiralarga o'tdi. Zamonaviy adabiy tahlil tobora ko'proq tilshunoslik, psixologiya, madaniyatshunoslik va raqamli texnologiyalardan olingan tushunchalarni o'z ichiga oladi va shu bilan matn talqinining ko'lami va chuqurligini kengaytiradi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi adabiyotshunoslikni zamonaviy akademik va ta'lim talablariga moslashtirish zaruratining ortib borayotganligidadir. Xususan, korpus tahlili va hisoblash matnini qayta ishlash kabi raqamli vositalar va metodologiyalarning integratsiyasi adabiy asarlardagi lingvistik naqshlar, stilistik xususiyatlar va semantik tuzilmalarni o'rganish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Shu bilan birga, diskurs tahlili va kognitiv poetika kabi yondashuvlar tadqiqotchilarga matn ichida ma'no qanday shakllanishi va idrok etilishini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Bundan tashqari, zamonaviy usullar matn, muallif va auditoriya o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni ta'kidlab, o'quvchining talqin jarayonidagi faol rolini ta'kidlaydi. Bu o'zgarish adabiyotni madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstlar bilan shakllangan murakkab kommunikativ hodisa sifatida ko'rishga qaratilgan kengroq tendentsiyani aks ettiradi. Shuning uchun, badiiy matn tahlilining zamonaviy usullarini o'rganish nafaqat nazariy jihatdan ahamiyatli, balki filologik ta'lim va tadqiqotlar sifatini oshirish uchun ham amaliy jihatdan muhimdir.

Adabiyot sharhi. Adabiy matn tahliliga zamonaviy yondashuvlarni o'rganish zamonaviy filologiyada katta e'tibor qozondi, bu an'anaviy strukturaviy usullardan integrativ va fanlararo doiralarga o'tishni aks ettiradi. Global ilmiy tadqiqotlarda adabiy tahlil diskurs tahlili, kognitiv poetika, germenevtika va korpus lingvistikasi kabi nazariy nuqtai nazarlar bilan boyitildi. Olimlar badiiy matn shunchaki statik tuzilma emas, balki lingvistik, madaniy va kognitiv omillar tomonidan shakllantirilgan dinamik ma'nolar tizimi ekanligini ta'kidlaydilar.

Zamonaviy adabiy tadqiqotlardagi ta'sirli yondashuvlardan biri bu diskurs tahlili bo'lib, u ma'noning kengroq ijtimoiy-madaniy va kommunikativ kontekstda qanday shakllanishini o'rganadi. Tadqiqotchilar adabiy diskursni ijtimoiy o'zaro ta'sir shakli sifatida talqin qilish kerak, bu yerda til mafkuraviy va madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Shu munosabat bilan Norman Fairclough asarlari tilning kuch munosabatlari va ijtimoiy voqelikni shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydi va badiiy matnlarni tahlil qilish uchun muhim asos yaratadi[1].

Yana bir muhim yo'nalish bo'lgan kognitiv poetika matnlarni o'qish va talqin qilishda ishtirok etadigan aqliy jarayonlarga qaratilgan. Peter Stokvell[2] va Elena Semino[3] kabi olimlar adabiy ma'no matn tuzilmalari va o'quvchilarning kognitiv doiralari o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali paydo bo'lishini ta'kidlaydilar. Bu yondashuv o'quvchilarning tasvirlar, metafora va rivoyat tuzilmalarini qanday qabul qilishlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Germenevtika zamonaviy adabiy tahlilda ham muhim rol o'ynaydi. Xans-Georg Gadamerning falsafiy g'oyalari talqinni matn va o'quvchi o'rtasidagi tarixiy va madaniy kontekstlar ta'sirida shakllangan dialogik jarayon sifatida ta'kidlaydi[4]. Bu nuqtai nazar adabiy asarlarda sub'ektivlik va ma'noning o'zgaruvchan tabiatining ahamiyatini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, raqamli gumanitar fanlarning rivojlanishi adabiy matnlarning katta korpuslarini tahlil qilish uchun yangi vositalar va metodologiyalarni joriy etdi. Korpus lingvistikasi tadqiqotchilarga hisoblash tahlili orqali naqshlar, chastotalar va stilistik xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi va shu bilan adabiy tadqiqotlarning ob'ektivligi va ko'lamini oshiradi[5].

O'zbek olimlari ham adabiy matn tahlilini rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar[6,7]. O'zbek

filologiyasidagi tadqiqotlar ko'pincha milliy adabiy an'analarni zamonaviy analitik usullar bilan integratsiyalashga qaratilgan. Tadqiqotlar adabiy asarlarni, ayniqsa milliy o'ziga xoslik va madaniy meros kontekstida talqin qilishda lingvistik va madaniy omillarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Olimlar zamonaviy usullar o'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilishi kerakligini ta'kidlaydilar[9,10].

Bundan tashqari, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari filologiya fanlarida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini kuchaytirdi. Prezident farmonlari va milliy rivojlanish dasturlari ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va til va adabiyotni o'qitish sifatini oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu siyosat hujjatlari akademik amaliyotda adabiy tahlilning zamonaviy usullarini joriy etish uchun strategik asos yaratadi[8].

Umuman olganda, ham xalqaro, ham o'zbek manbalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy adabiy matn tahlili fanlararo, metodologik xilma-xillik va an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning integratsiyasi bilan tavsiflanadi. Bu evolyutsiya global akademik va texnologik o'zgarishlarga javoban filologiyaning kengroq transformatsiyasini aks ettiradi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot filologiyada badiiy matn tahliliga zamonaviy yondashuvlarni o'rganish uchun kompleks, fanlararo metodologik asosdan foydalanadi. Tadqiqot ham sifat, ham qisman miqdoriy usullarga asoslangan bo'lib, nazariy tushunchalar va amaliy qo'llanmalarni har tomonlama o'rganish imkonini beradi. Asosiy metodologik yo'nalish diskurs tahlili, kognitiv poetika, germenevtik talqin va korpusga asoslangan tahlil elementlarini birlashtiradi, bu esa birgalikda badiiy matnlarni ko'p o'lchovli tushunishni ta'minlaydi.

Diskurs tahlili badiiy matnlarda ma'no ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy kontekstlarga nisbatan qanday shakllanishini o'rganish uchun markaziy usul sifatida qo'llaniladi. Ushbu yondashuv matnga singdirilgan asosiy rivoyatlar, kommunikativ strategiyalar va yashirin ma'nolarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, kognitiv poetika adabiy asarlarni o'qish va talqin qilishda ishtirok etadigan aqliy va idrok jarayonlarini o'rganish uchun qo'llaniladi. Ushbu usul o'quvchilar tasvirlar, metaforalar va rivoyat tuzilmalarini qanday tushunishlariga qaratilgan bo'lib, shu bilan matn shakli va inson bilishi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ochib beradi.

Germenevtik metodologiya badiiy matnlarni ochiq va dinamik ma'no tizimlari sifatida talqin qilishda muhim rol o'ynaydi. Germenevtik yondashuv orqali tadqiqot matnlarning tarixiy va madaniy kelib chiqishini, shuningdek, o'quvchining sub'ektiv tajribasini hisobga oladi. Bu adabiy tahlilning talqiniy tabiatini chuqurroq tushunishga imkon beradi va matn va uning auditoriyasi o'rtasidagi dialogik munosabatlarni ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, tahlilni empirik ma'lumotlar bilan qo'llab-quvvatlash uchun korpus lingvistikasi elementlari kiritilgan. Tanlangan adabiy matnlar takrorlanuvchi lingvistik naqshlar, stilistik xususiyatlar va leksik chastotalarni aniqlash uchun raqamli vositalar yordamida o'rganiladi. Tadqiqot asosan sifatli bo'lsa-da, bunday miqdoriy kuzatishlar topilmalarning ob'ektivligi va ishonchliligini oshiradi.

Tadqiqot materiallari jahon va o'zbek adabiyotidan tanlangan namunalarni o'z ichiga oladi, ular zamonaviy analitik yondashuvlarga mosligi asosida tanlangan. Qiyosiy tahlil turli adabiy an'analarda zamonaviy usullarni qo'llashdagi o'xshashliklar va farqlarni ta'kidlash uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari, filologik metodologiyalarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi kengroq institutsional kontekstni tushunish uchun normativ-huquqiy hujjatlar va ta'lim siyosati hujjatlari tahlil qilinadi.

Umuman olganda, tanlangan metodologiya an'anaviy talqin usullarini zamonaviy fanlararo va raqamli yondashuvlar bilan integratsiyalash orqali adabiy matn tahlilini yaxlit o'rganishni ta'minlaydi. Bu kombinatsiya zamonaviy filologik tadqiqotlar kontekstida badiiy matnlarni chuqurroq va nozikroq tushunish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy matn tahliliga zamonaviy yondashuvlar fanlararo usullar va raqamli vositalarni birlashtirish orqali filologik tadqiqotlarning talqin qilish salohiyatini sezilarli darajada kengaytiradi. Diskurs tahlilini qo'llash shuni ko'rsatdiki, badiiy matnlar nafaqat badiiy konstruksiyalar, balki mafkuraviy pozitsiyalar, tarixiy voqeliklar va kuch munosabatlarini aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy hodisalar sifatida ham ish-

laydi. Shu nuqtai nazardan, jahon va o'zbek adabiyotidan olingan matnlar faqat kengroq kommunikativ va madaniy kontekstlarda tahlil qilinganda ko'rinadigan yashirin ma'nolarni kodlashi ko'rsatildi.

Kognitiv poetikadan foydalanish ma'no qurish mexanizmlari haqida muhim tushunchalar berdi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar kontseptualizatsiya, aqliy tasvirlar va sxemani faollashtirish kabi kognitiv jarayonlar orqali matn ma'nosini yaratishda faol ishtirok etadilar. Bu adabiy talqin o'quvchining bilimlari, madaniy tajribasi va psixologik idrokiga qarab qat'iy emas, balki dinamik ekanligini tasdiqlaydi. Tanlangan matnlarni tahlil qilishda metaforalar va ramziy tuzilmalar o'quvchilarning hissiy va intellektual ishtirokini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynashi aniqlandi.

Germenevtik tahlil adabiy matnlar ko'p talqinlarga ochiq degan fikrni yanada qo'llab-quvvatladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ma'no matn va o'quvchi o'rtasidagi dialogik o'zaro ta'sir orqali, vaqt, madaniy va individual omillar ta'sirida hosil bo'ladi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, milliy o'ziga xoslik, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlar matnga chuqur singib ketgan klassik va zamonaviy o'zbek adabiy asarlarini tahlil qilishda samarali bo'ldi.

Korpusga asoslangan elementlarning kiritilishi tadqiqotga empirik o'lcham qo'shdi. Leksik takrorlash, stilistik belgilar va semantik maydonlarning miqdoriy kuzatuvlari matn tuzilmalarini yanada obyektiv va tizimli tushunishga imkon berdi. Ushbu topilmalar filologiyada raqamli gumanitar fanlarning tobora ortib borayotgan ahamiyatini ta'kidlaydi, chunki ular tadqiqotchilarga katta hajmdagi matnli ma'lumotlarni qayta ishlash va an'anaviy usullar orqali osongina aniqlab bo'lmaydigan naqshlarni ochish imkonini beradi.

Qiyosiy nuqtai nazardan, tadqiqot zamonaviy analitik usullarni jahon va o'zbek adabiy an'analarida qo'llashda ham o'xshashliklarni, ham farqlarni aniqladi. Global ilmiy tadqiqotlar raqamli texnologiyalar va fanlararo nazariyalarni faol ravishda birlashtirsa-da, o'zbek filologiyasi bu yondashuvlarni milliy madaniy va lingvistik o'ziga xoslik doirasida tobora ko'proq moslashtirmoqda. Bu O'zbekistonda filologik tadqiqotlarni modernizatsiya qilishning ijobiy tendentsiyasidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, ta'lim islohotlari va siyosat hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, filologik ta'limda innovatsion metodikani joriy etish strategik ustuvor vazifaga aylanib bormoqda. Raqamlashtirish, tanqidiy fikrlash va fanlararo o'rganishga urg'u berish oliy ta'limda zamonaviy adabiy tahlil usullarini qo'llash uchun qulay sharoitlar yaratadi. Natijada, talabalar chuqurroq tahliliy ko'nikmalar, talqin qilish qobiliyati va murakkab matnlar bilan mazmunli tarzda ishlash qobiliyatini rivojlantiradilar.

Muhokama jarayonida zamonaviy usullarning samaradorligi ularning integrativ tabiatida ekanligi haqida bahslashish mumkin. Asosan matn shakliga qaratilgan an'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, zamonaviy metodologiyalar til, bilish, madaniyat va texnologiya o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hisobga oladi. Bu o'zgarish nafaqat adabiy tahlil chuqurligini oshiradi, balki filologik tadqiqotlarni 21-asr talablariga moslashtiradi.

Biroq, tadqiqot ma'lum qiyinchiliklarni ham aniqlaydi. Raqamli va fanlararo usullarni joriy etish metodologik tayyorgarlikni, texnologik resurslarni va mahalliy akademik sharoitlarga moslashishni talab qiladi.

Ba'zi hollarda, nazariy yutuqlar va ularning ta'lim muassasalarida amaliy qo'llanilishi o'rtasida hali ham tafovut mavjud. Shuning uchun ham ilmiy asoslangan, ham pedagogik jihatdan samarali metodologik asoslarni ishlab chiqish uchun qo'shimcha sa'y-harakatlar talab etiladi.

Umuman olganda, natijalar badiiy matn tahliliga zamonaviy yondashuvlar filologiya rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqichni ifodalashini tasdiqlaydi. Ular murakkab ma'no qatlamlarini ochish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va an'anaviy ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy akademik tendentsiyalar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun kuchli vositalarni taqdim etadi.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot badiiy matn tahliliga zamonaviy yondashuvlar filologiya sohasida sezilarli o'zgarishni anglatishini, an'anaviy rasmiy va strukturaviy doiralardan tashqariga chiqib, yanada dinamik, fanlararo va texnologiyaga asoslangan metodologiyalarga o'tishini tasdiqlaydi. Diskurs tahlili, kognitiv poetika, germenevtika va korpusga

asoslangan usullarning integratsiyasi badiiy matnlarni lingvistik, madaniy va kognitiv omillar tomonidan shakllantirilgan murakkab ma'no tizimlari sifatida chuqurroq va kengroq tushunish imkonini beradi.

Topilmalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy usullar nafaqat adabiy tadqiqotlarning analitik chuqurligini, balki tadqiqotchilar va talabalarning talqin moslashuvchanligini ham oshiradi. Badiiy matnlar endi yagona ma'noga ega bo'lgan qat'iy mavjudotlar sifatida qaralmaydi; aksincha, ular o'quvchidan faol ishtirokni talab qiladigan ochiq, rivojlanayotgan konstruksiyalar sifatida talqin qilinadi. Bu o'zgarish o'zaro ta'sir, kontekst va ko'p o'lchovli tahlilga urg'u berilgan gigienik fanlardagi kengroq o'zgarishlarni aks ettiradi.

Bundan tashqari, tadqiqot filologik tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning tobora ortib borayotgan ahamiyatini ta'kidlaydi. Korpus vositalari va raqamli platformalardan foydalanish obyektiv tahlil uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, bu esa olimlarga ilgari aniqlash qiyin bo'lgan naqshlar va tuzilmalarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu usullarning o‘zbek filologiyasi doirasida moslashtirilishi milliy tadqiqot amaliyotlarini global akademik standartlarga moslashtirishga qaratilgan ijobiy tendentsiyani namoyish etadi, shu bilan birga madaniy va lingvistik o‘ziga xoslikni saqlab qoladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, bir nechta tavsiyalar taklif qilinishi mumkin. Birinchidan, o‘quv dasturlarini yangilash va tilshunoslik, adabiyotshunoslik va raqamli texnologiyalarni birlashtirgan fanlararo kurslarni kiritish orqali filologik ta’limga zamonaviy analitik yondashuvlarni yanada integratsiya qilish juda muhimdir. Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalari raqamli infratuzilmani rivojlantirishga sarmoya kiritishi va o‘qituvchilar va talabalar uchun korpus vositalari va boshqa innovatsion metodologiyalardan foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazishi kerak. Uchinchidan, global nazariy asoslarni milliy kontekstga moslashtirishga ko‘proq e’tibor qaratish, zamonaviy usullarning o‘zbek tili va adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tarzda qo‘llanilishini ta’minlash kerak.

Bundan tashqari, kelajakdagi tadqiqotlar kengroq matnlarni kiritish va aralash usulli yondashuvlarni qo‘llash orqali adabiy tahlilning empirik bazasini kengaytirishga qaratilishi kerak. Ham milliy, ham xalqaro miqyosdagi hamkorlikdagi tadqiqot loyihalari zamonaviy filologik tadqiqotlarni rivojlantirishga qo‘shimcha hissa qo‘shadi.

Umuman olganda, badiiy matn tahlilida zamonaviy usullarning rivojlanishi nafaqat ilmiy tushunchani boyitadi, balki ta'lim sifatini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va zamonaviy akademik va madaniy landshaft muammolariga dosh bera oladigan yangi avlod filologlarini tayyorlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Fairclough N. Discourse and social change. – Cambridge: Polity Press, 1995.
2. Stockwell P. Cognitive poetics: An introduction. – London: Routledge, 2002.
3. Semino E. Language and world creation in poems and other texts. – London: Longman, 1997.
4. Gadamer H.-G. Truth and method. – New York: Continuum, 2004.
5. Sinclair J. Corpus, concordance, collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Ta’lim tizimini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qaror. – Toshkent, 2019.
9. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.
10. Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent: Sharq, 2010.

Xoshimova Munisa Yaxshibek qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistranti
E-mail: munisakhoshimova3950@gmail.com

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI XODIMLARIDA HISSIY CHARCHASH SINDROMI NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI (“PSIXIK SO‘NISH DARAJASINI ANIQLASH” SO‘ROVNOMASI ASOSIDA)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hissiy charchash sindromi haqida umumiy ma’lumot, sindrom haqida bir qancha olimlarning qarashlari, maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarida hissiy charchash sindromi sabablari, K. Maslach va S. Jekson tomonidan ishlab chiqilgan “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” so‘rovnomasi (MBI) orqali olingan natijalarning statistik tahlili keltirib o‘tilgan.*

Kalit so’zlar: *hissiy charchash sindromi, maktabgacha ta’lim muassasalari, xodimlar, hissiy charchash, depersonalizatsiya, shaxsiy muvaffaqiyatsizlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОЯВЛЕНИЯ СИНДРОМА ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ВЫГОРАНИЯ У СОТРУДНИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ (НА ОСНОВЕ ОПРОСНИКА «ИЗМЕРЕНИЕ УРОВНЯ ПСИХИЧЕСКОГО ВЫГОРАНИЯ»)

Аннотация. *В данной статье представлены общие сведения о синдроме эмоционального выгорания, а также рассмотрены научные взгляды различных исследователей на данный феномен. Освещены причины возникновения синдрома эмоционального выгорания у сотрудников дошкольных образовательных учреждений. Кроме того, приведён статистический анализ результатов, полученных с использованием опросника К. Маслач и С. Джексона «Измерение уровня психического выгорания» (MBI).*

Ключевые слова: *синдром эмоционального выгорания, дошкольные образовательные учреждения, сотрудники, эмоциональное истощение, деперсонализация, снижение личных достижений.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF EMOTIONAL BURNOUT SYNDROME AMONG PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION STAFF (BASED ON THE “MEASUREMENT OF PSYCHOLOGICAL BURNOUT LEVEL” QUESTIONNAIRE)

Annotation. *This article provides general information about emotional burnout syndrome and reviews the perspectives of various scholars on this phenomenon. It examines the causes of emotional burnout among preschool educational institution staff. In addition, a statistical analysis of the results obtained using the “Measurement of Psychological Burnout Level” questionnaire developed by K. Maslach and S. Jackson (MBI) is presented.*

Key words: *emotional burnout syndrome, preschool educational institutions, staff, emotional exhaustion, depersonalization, reduced personal accomplishment.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimida yo‘lga qo‘yilayotgan islohatlar turli tarzda o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, ta’lim tizimining ilk bosqichi sifatida e’tirof etishimiz mumkin bo‘lgan maktabgacha ta’limda samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 20230-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlatish to‘g‘risida”gi 2019-yil 10-maydagi PQ-4312/3106-sonli qarori maktabgacha ta’lim tizimini rivojlnatirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Endigina unib

kelayotgan kelajak avlodning, bolalarimizning yetuk va barkamol bo‘lib yetishishida maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining o‘rni juda ham yuksakdir. Shu sababdan ham maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarining psixologik salomatligini ta’minlash yosh avlodning sog‘lom bo‘lishini ham ta’minlaydi. Bugungi kunda olib borilgan tadqiqotlar natijasida maktabgacha ta’lim muassasasi xodimlari orasida hissiy charchash sindromi yuzaga kelinayotganligi holatlari kuzatilmoqda. Demak, hissiy charchash sindromi haqida ba’zi bir umumiy tushuncha ma’lumotlarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda pedagogik faoliyatning ijtimoiy-psixologik jihatlari, pedagog shaxsining emotsional sohasining shakllanishi va rivojlanishi, kasb psixologiyasi hamda pedagoglarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga oid psixologik xususiyatlar masalalari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, ushbu yo‘nalishda nazariy va amaliy tadqiqotlar Sh.X. Abdullayeva, E.G‘. G‘oziyev, V.M. Karimova, Z.T. Nishonova, B.R. Qodirov, G‘.B. Shoumarov, O.E. Xayitov, F.I. Haydarov, A.M. Jabborov, R.Z. Gaynutdinov, Yu.M. Asadov, S.N. Jo‘rayeva, S.X. Jalilova, N.Z. Ismoilova, Z.B. Madaliyeva, D.S. Qarshiyeva, B.M. Umarov, R.N. Xikmatullayeva, Sh.S. Shoyimova, F.A. Akramova va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari ham mazkur muammoni turli jihatlarda tadqiq etganlar. Jumladan, V.V. Boyko hissiy charchashni shaxsning himoya mexanizmi sifatida izohlagan bo‘lsa, L.V. Novikova kasbiy so‘nishning ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil qilgan. N.E. Vodopyanova professional faoliyatdagi uzoq muddatli stressning hissiy charchash shakllanishiga ta’sirini o‘rgangan, V.I. Oryol esa uning psixologik va psixofiziologik jihatlariga e’tibor qaratgan.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida esa Z. Freyd, E. Erikson, J.W. Berry, S. Boshner, A.D. Hirsh, R. Linton, A. Leslie White, R.A. Uayt, I.A. Shtobbe va boshqalar shaxsning kasbiy faoliyati, motivatsiyasi, shuningdek pedagoglarning kasbiy shakllanishi va rivojlanishiga oid muammolarni ilmiy asosda o‘rganib chiqqanlar.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarida hissiy charchoq sindromining namoyon bo‘lishida psixologik omillarni aniqlash maqsadida K. Maslach va S. Jeksonlarning “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” so‘rovnomasi (MBI) varianti o‘tkazildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodika K. Maslach va S. Jacksonlar tomonidan ishlab chiqilgan, Emotsional charchash yoki hissiy charchoq sindromini aniqlashga qaratilgan mashhur MBI so‘rovnomasi variantidir. Mazkur metodika professional faoliyat jarayonida yuzaga keladigan emotsional, motivatsion va shaxslararo buzilishlarni aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, “inson–inson” tipidagi kasblarda, ya’ni pedagogik, tibbiy, ijtimoiy va xizmat ko‘rsatish faoliyatlarida ushbu metodika nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Metodika kasbiy muloqot kuchli bo‘lgan sharoitda charchoqning namoyon bo‘lish og‘irligini aniqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, unda hissiy “bo‘g‘ilish”, befarqlik, aloqalardan uzoqlashish, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi kabi belgilar aks etadi. Mazkur tadqiqot davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari o‘rtasida tashkil etildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarida hissiy charchash sindromi namoyon bo‘lishining psixologik omillari aniqlash.

Tadqiqotda jami 180 nafar sinaluvchi ishtirok etdi. Bunday teng taqsimot tadqiqot natijalarining obyektivligini ta’minlash hamda turli lavozim vakillarida hissiy charchoqning namoyon bo‘lish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi.


Jadval-1.

K. Maslach va S. Jeksonlarning “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” so‘rovnomasi (MBI) varianti bo‘yicha sinaluvchilarning ish tajribasi (yil hisobida) o‘rtasidagi tafovutlari

Shkalalar	Ish tajribasi (yil hisobida)	Soni	O‘rtacha rank	H	Ishonch darajasi, p
K. Maslach va S. Jeksonlarning “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” so‘rovnomasi (MBI) varianti					
"Psixo-emotsional charchoq"	1-5 yil	37	91,38	7,995	0,157
	6-10 yil	52	76,78		
	11-15 yil	44	97,20		

	16-20 yil	21	92,12		
	21-25 yil	15	92,23		
	26-35 yil	11	120,14		
"Depersonalizatsiya" (shaxsiy masofa)	1-5 yil	37	79,95	18,402	0,002**
	6-10 yil	52	72,10		
	11-15 yil	44	98,10		
	16-20 yil	21	110,76		
	21-25 yil	15	104,13		
	26-35 yil	11	125,32		
"Shaxsiy yutuqlarni ka-maytirish" (kasbiy motivatsiya)	1-5 yil	37	128,81	35,533	0,000***
	6-10 yil	52	97,61		
	11-15 yil	44	72,18		
	16-20 yil	21	66,02		
	21-25 yil	15	64,60		
	26-35 yil	11	83,36		
Psixologik hissiy charchash	1-5 yil	37	95,89	9,930	0,077
	6-10 yil	52	75,23		
	11-15 yil	44	91,60		
	16-20 yil	21	94,98		
	21-25 yil	15	95,67		
	26-35 yil	11	124,55		

Mazkur tahlilda MBI metodikasi asosida ish tajribasiga ko‘ra emotsional charchash ko‘rsatkichlari Kruskal–Uollis mezoni bilan solishtirildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ish tajribasi oshgani sari depersonalizatsiya darajasi ortadi, eng yuqori ko‘rsatkich 26–35 yil tajribaga ega guruhda, eng past ko‘rsatkichlar esa 1–10 yil tajribali xodimlarda kuzatiladi. Shuningdek, 1–5 yil tajribali guruhda kasbiy motivatsiya yuqoriroq bo‘lsa, 16–25 yil oralig‘ida bu ko‘rsatkich pasayishi aniqlangan. Umuman olganda, ish tajribasi emotsional charchash va depersonalizatsiya darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi: uzoq yillik faoliyat emotsional masofalanish va motivatsiya pasayishiga olib kelishi mumkin.



1-rasm. Sinaluvchilarning ish tajribasi o‘rtasidagi tafovutlari K. Maslach va S. Jeksonlarning “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” so‘rovnomasi (MBI) varianti bo‘yicha sinaluvchilarning ma’lumot darajasi bo‘yicha tafovutlari

Shkalalar	Ma'lumoti	Soni	O‘rtacha Rank	H	Ishonch darajasi, p
K. Maslach va S. Jeksonlarning “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” so‘rovnomasi (MBI) varianti					
"Psixo-emotsional charchoq"	o‘rta maxsus	35	105,07	5,816	,055
	oliy	125	89,65		
	tugallanmagan oliy	20	70,30		
"Depersonalizatsiya" (shaxsiy masofa)	o‘rta maxsus	35	107,70	9,563	,008**
	oliy	125	90,08		
	tugallanmagan oliy	20	63,03		
"Shaxsiy yutuqlarni kamaytirish" (kasbiy motivatsiya)	o‘rta maxsus	35	105,10	24,989	,000***
	oliy	125	79,01		
	tugallanmagan oliy	20	136,75		
Psixologik hissiy charchash	o‘rta maxsus	35	108,59	6,005	,050*
	oliy	125	87,62		
	tugallanmagan oliy	20	76,83		


Mazkur jadvalda K. Maslach va S. Jeksonlarning MBI metodikasi bo‘yicha sinaluvchilarning ma’lumot darajasiga ko‘ra ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ma’lumot darajasi hissiy charchoq sindromining ayrim komponentlariga ta’sir ko‘rsatadi:

depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlarni kamaytirish bo‘yicha statistik ahamiyatli tafovutlar mavjud;

psixo-emotsional charchoq va umumiy hissiy charchash bo‘yicha farqlar sezilarli emas.

Shunday qilib, ma’lumot darajasi asosan shaxsiy munosabatlar (depersonalizatsiya) bilan bog‘liq jihatlarga ta’sir ko‘rsatadi.



2-rasm. Sinaluvchilarning ma’lumot darajasi o‘rtasidagi tafovutlari

K. Maslach va S. Jeksonlarning “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” so‘rovnomasi (MBI) varianti bo‘yicha sinaluvchilarning lavozimi bo‘yicha tafovutlari

Shkalalari	Lavozim	Soni	O‘rtacha Rank	H	Ishonch darajasi, p
K. Maslach va S. Jeksonlarning “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” so‘rovnomasi (MBI) varianti					
"Psixo-emotsional charchoq"	direktor	30	36,65	77,469	0,000***
	direktor o‘rinbosari	30	103,42		
	tarbiyachi	30	138,43		
	yordamchi tarbiyachi	30	59,13		
	psixolog	30	90,07		
	defektolog	30	115,30		
	Jami	180			
"Depersonalizatsiya" (shaxsiy masofa)	direktor	30	62,67	61,742	0,000***
	direktor o‘rinbosari	30	111,87		
	tarbiyachi	30	144,67		
	yordamchi tarbiyachi	30	60,07		
	psixolog	30	70,87		
	defektolog	30	92,87		
	Jami	180			
"Shaxsiy yutuqlarni kamaytirish" (kasbiy motivatsiya)	direktor	30	34,15	56,570	0,000***
	direktor o‘rinbosari	30	106,25		
	tarbiyachi	30	106,40		
	yordamchi tarbiyachi	30	116,25		
	psixolog	30	108,63		
	defektolog	30	71,32		
	Jami	180			
Psixologik hissiy charchash	direktor	30	43,63	71,533	0,000***
	direktor o‘rinbosari	30	114,43		
	tarbiyachi	30	144,05		
	yordamchi tarbiyachi	30	62,20		
	psixolog	30	88,77		
	defektolog	30	89,92		
	Jami	180			

Yuqoridagi jadvalda K. Maslach va S. Jeksonlarning “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” so‘rovnomasi (MBI) varianti bo‘yicha sinaluvchilarning lavozimiga qarab ko‘rsatkichlaridagi tafovutlar Krusskal Uollis (H) mezoni yordamida tahlil qilindi.

Tarbiyachilar bolalar bilan bevosita va doimiy muloqotda bo‘lib, yuqori emotsional jalb etilganlikni talab qiladigan faoliyatni amalga oshiradi. Bu esa ularning hissiy resurslarini tezroq tugatadi. Direktorlar esa ko‘proq boshqaruv faoliyati bilan shug‘ullanganligi sababli to‘g‘ridan-to‘g‘ri emotsional yuklama nisbatan kamroq bo‘ladi.

Tarbiyachilar uzoq muddat davomida bolalar bilan ishlash natijasida emotsional charchoqni kamaytirish uchun himoya mexanizmi sifatida depersonalizatsiyaga (ya’ni emotsional masofalanishga) murojaat qilishi mumkin. Direktorlarda esa bu holat kamroq, chunki ular shaxslararo intensiv emotsional muloqotda kamroq bo‘ladi.

Yordamchi tarbiyachilar va tarbiyachilar ko‘pincha o‘z mehnatining natijasini tezda sezmaydi yoki yetarli darajada qadrlanmasligini his qilishi mumkin, bu esa kasbiy motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Direktorlar esa boshqaruv rolida bo‘lib, o‘z faoliyatining natijalarini aniqroq ko‘ra oladi, bu esa ularning o‘zini samarali his etish darajasini yuqori saqlaydi.


Umumiy psixologik hissiy charchash ko‘rsatkichi ham tarbiyachilarda yuqori bo‘lishi ularning kasbiy faoliyati yuqori emotsional zo‘riqish, mas’uliyat va doimiy kommunikatsiya bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Direktorlar esa strategik va boshqaruv faoliyatini bajarishi sababli hissiy yuklama boshqacha xarakterga ega va kamroq intensivdir.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, lavozim hissiy charchoq sindromining barcha komponentlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi:

tarbiyachilarda hissiy charchoq, depersonalizatsiya va umumiy hissiy charchash eng yuqori darajada; direktor o‘rinbosarlari va defektologlar o‘rta darajada; direktorlarda esa barcha ko‘rsatkichlar nisbatan past.

Bu holat kasbiy faoliyatning mazmuni va xarakteri bilan izohlanadi:

to‘g‘ridan-to‘g‘ri emotsional muloqot va pedagogik yuklama qanchalik yuqori bo‘lsa, hissiy charchoq shunchalik kuchli bo‘ladi; boshqaruv faoliyatida esa emotsional zo‘riqish nisbatan boshqacha va kamroq intensiv namoyon bo‘ladi.



3-rasm. Sinaluvchilarning lavozimi bo‘yicha tafovutlari

Xulosa va takliflar. Ish tajribasi bo‘yicha tahlillar muhim natijalarni ko‘rsatdi. Xususan, ish tajribasi ortgani sari depersonalizatsiya darajasi oshib borishi, ya’ni xodimlarning boshqalarga nisbatan emotsional masofalanishi kuchayishi aniqlandi. Shu bilan birga, shaxsiy yutuqlarni kamaytirish ko‘rsatkichi kam tajribali xodimlarda yuqoriroq bo‘lishi, ya’ni yosh va kam tajribali xodimlarda kasbiy motivatsiya yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa tajriba ortishi bilan kasbiy qoniqishning pasayishi ehtimolini ko‘rsatadi.

Ma’lumot darajasi bo‘yicha tahlillar hissiy charchoqning ayrim komponentlariga ta’sir mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlarni kamaytirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ahamiyatli farqlar aniqlangan. Bu esa shaxsning ta’lim darajasi uning kasbiy o‘zini baholashi va shaxslararo munosabatlariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishini bildiradi.

Hissiy charchash sindromi turli lavozim egalari orasida bir xil darajada namoyon bo‘lmaydi va bu holat kasbiy faoliyatning mazmuni, mas’uliyat darajasi hamda mehnat sharoitlarining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Shu bois, hissiy charchashni oldini olish va kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda lavozimga xos xususiyatlarni inobatga olish zarurligi asoslab berildi.

Shunday qilib, olingan natijalar hissiy charchoq sindromini chuqurroq tushunish, uning psixologik mexanizmlarini aniqlash va uni kamaytirishga qaratilgan amaliy choralarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Ayniqsa, emotsional barqarorlikni oshirish va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish hissiy charchoqning oldini olishda muhim yo‘nalishlar sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”: PF-5198-son Farmon, 30.09.2017. – URL: http://lex.uz (murojaat sanasi: ko‘rsatiladi).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”: PQ-4312-son Qaror, 10.05.2019. – URL: http://lex.uz (murojaat sanasi: ko‘rsatiladi).

3. Абрамов В.А., Алексейчук И.С., Алексейчук А.И. Исследование синдрома эмоционального выгорания на этапе метаобзоров. Ч. 1 // Журнал психиатрии и медицинской психологии. – 2008. – № 1 (18). – С. 117–123.

4. Орёл В.Е. Синдром психического выгорания личности. – Москва: Институт психологии РАН, 2005. – 330 с.

5. Маслач К. Профессиональное выгорание: как люди справляются // Практикум по социальной психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 528 с.

Qurbonova Shaxnoza Damin qizi
Acting Assistant Teacher University of Economics and Pedagogy, Karshi, Uzbekistan
Department of Philology and Teaching Languages (Romance-Germanic)
Faculty of Foreign Languages
Student: **Shokeldiyeva Sevinch**
Email: shaxnozaqurbonova35@gmail.com

CONCEPTUAL ANALYSIS OF ETHNOGRAPHISMS IN ENGLISH LINGUOCULTURE

Abstract. *This paper explores the semantic structuring of ethnographisms in English linguistics, focusing on their lexical, cultural, and historical dimensions. Ethnographisms are culturally marked lexical units that reflect the worldview, traditions, and everyday practices of a particular ethnic community. Using semantic field theory in combination with linguocultural analysis, the study identifies major semantic domains of English ethnographic vocabulary, including material culture, social organization, folklore, rituals, and traditional occupations. The findings demonstrate that ethnographisms play a significant role in preserving national identity, transmitting cultural heritage, and facilitating successful intercultural communication.*

Key words: *ethnographisms, national mentality, cultural heritage, linguocultural studies, intercultural communication, semantic specificity, methods, semantic fields.*

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЭТНОГРАФИЗМОВ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРЕ

Аннотация. *В данной работе исследуется семантическая организация этнографизмов в английской лингвистике с акцентом на их лексические, культурные и исторические аспекты. Этнографизмы - это лексические единицы с культурной маркировкой, отражающие мировоззрение, традиции и повседневные практики конкретной этнической общности. Используя теорию семантических полей в сочетании с лингвокультурным анализом, исследование выделяет основные семантические области английской этнографической лексики, включая материальную культуру, социальную организацию, фольклор, обряды и традиционные профессии. Результаты показывают, что этнографизмы играют важную роль в сохранении национальной идентичности, передаче культурного наследия и обеспечении успешной межкультурной коммуникации.*

Ключевые слова: *этнографизмы, национальный менталитет, культурное наследие, лингвокультурология, межкультурная коммуникация, семантическая специфика, методы, семантические поля.*

INGLIZ LINGVOKULTURASIDA ETNOGRAFIZMLARNING KONSEPTUAL TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilidagi etnografizmlarning semantik tuzilishi o‘rganiladi, ularning leksik, madaniy va tarixiy o‘lchamlari bilan bog‘liq jihatlariga e’tibor qaratilgan. Etnografizmlar - bu ma’lum bir etnik jamoaning dunyoqarashi, an’analari va kundalik amaliyotlarini aks ettiruvchi madaniy belgilangan leksik birliklardir. Semantik soha nazariyasini lingvokultural tahlil bilan birlashtirib, tadqiqot ingliz etnografik lug‘atining asosiy semantik sohalarini aniqlaydi: moddiy madaniyat, ijtimoiy tuzilmalar, folklor, marosimlar va an’anaviy kasblar. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, etnografizmlar milliy identitetni saqlash, madaniy merosni uzatish va muvaffaqiyatli madaniyatlararo muloqotni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.*

Kalit so‘zlar: *etnografizmlar, milliy mentalitet, madaniy meros, lingvokulturologiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, semantik o‘ziga xoslik, metodlar, semantik maydonlar.*

Introduction. The concept of culture has been interpreted differently across various academic fields, and its definition largely depends on the theoretical framework adopted by scholars. One influential approach was proposed by Clifford Geertz, who described culture as a historically formed system of meanings expressed through symbols, which enables people to communicate, maintain, and develop their understanding of reality. This interpretation emphasizes the symbolic nature of culture and highlights its close relationship with language.

Language functions not only as a means of communication but also as a storage of collective cultural experience. This relationship is especially visible in ethnographisms-lexical units that denote culturally specific objects, customs, rituals, and social institutions. Such words reflect both material and spiritual aspects of an ethnic group's culture and serve as linguistic markers of national identity.

In English linguistics, ethnographisms occupy a special position. Despite English being a global language, it contains numerous lexemes deeply rooted in the historical and cultural traditions of English-speaking societies. Words such as pub, thatch, paddock, clansman, Hogmanay, and Pancake Day convey meanings that extend beyond their dictionary definitions and require cultural knowledge for full interpretation.

Ethnographisms perform a dual function: they name culturally specific realities while also carrying historical, symbolic, and associative meanings. This semantic complexity makes them an important object of both semantic and linguocultural research. The purpose of this study is to classify English ethnographisms according to their semantic fields and to identify the cultural and linguistic factors shaping their meanings.

Literature Review. The term ethnographism originates from ethnolinguistic research and is commonly defined as a culturally marked lexical unit associated with traditional objects, customs, beliefs, and social practices of a particular ethnic group. Scholars such as Anna Wierzbicka emphasize that culturally specific vocabulary provides valuable insight into national mentality and cultural values.

The theoretical foundation of this study is semantic field theory, originally developed by Jost Trier and later expanded by scholars such as Lehrer. According to this theory, vocabulary is organized into interconnected semantic systems rather than functioning as isolated elements. This approach is particularly effective for the study of culturally bound lexemes, as it allows researchers to identify semantic domains and internal relationships among words.

Linguists including Leech, Crystal, Kramsch, and Gudykunst have highlighted the importance of culturally marked vocabulary for understanding cultural heritage and promoting intercultural communication. However, despite extensive research on the relationship between language and culture, the semantic organization of English ethnographisms has not been examined in sufficient detail. The present study aims to address this gap by applying semantic field analysis to English ethnographic vocabulary.

Methods. The research employs a combination of linguistic methods:

Descriptive analysis, used to identify and describe English ethnographisms on the basis of lexicographic and ethnographic sources;

Semantic field analysis, applied to classify ethnographisms into coherent semantic groups;

Linguocultural analysis, aimed at interpreting cultural meanings, symbolic associations, and historical backgrounds of ethnographic lexemes;

Comparative method, used to reveal shared and distinctive ethnographic concepts within English-speaking cultures.

The research material was collected from the Oxford English Dictionary, collections of British folklore, and historical and cultural sources related to English traditions.

Results and Discussion

According to semantic field theory, lexical units form structured systems organized around key cultural concepts. When applied to ethnographisms, this approach reveals how culturally specific vocabulary clusters around notions such as home, community, ritual, occupation, and tradition. Within these clusters, lexemes are connected through functional and hierarchical relationships.

For example, the semantic field of traditional celebrations in English includes central concepts such as Christmas, Easter, and Harvest, as well as peripheral ethnographisms like wassailing, Pancake Day, and Guy Fawkes Night. Together, these words reflect seasonal cycles, religious beliefs, and communal customs.

The analysis identifies five major semantic fields of English ethnographic vocabulary:

a) Material Culture

This field includes lexemes related to traditional housing, clothing, food, and tools. Examples such as thatch (a traditional roofing material), kilt (Scottish national dress), and alehouse (a historical public house) reflect rural life, traditional craftsmanship, and historical living conditions.

b) Social Institutions and Community Life

This category contains words denoting social organization and communal relationships, including clan, parish, guild, and yeoman. These ethnographisms represent historical social structures such as village communities, feudal systems, and professional associations.

c) Folklore and Mythology

Lexemes in this group are associated with traditional beliefs, mythological characters, and folk practices. Words such as fairy, banshee, maypole, and Midsummer Night embody collective imagination and ritual symbolism transmitted across generations.

d) Traditional Rituals and Celebrations

This semantic field includes terms connected with seasonal festivals and customary practices, such as Hogmanay, Pancake Day, and Harvest Home. These ethnographisms preserve agricultural traditions and religious customs that play a central role in communal life.

e) Traditional Occupations and Lifestyle

Lexemes such as blacksmith, ploughman, and shepherd denote professions historically characteristic of rural English society. These terms reflect economic activities and social roles typical of earlier stages of cultural development.

Conclusion. Ethnographisms function as linguistic carriers of cultural memory, preserving historical experience and collective values that are often difficult to translate into other languages. Their meanings are shaped by cultural context, symbolic associations, and historical change.

The study demonstrates that English ethnographisms are characterized by cultural specificity, symbolic depth, limited translatability, and diachronic variability. These features confirm that ethnographisms perform both linguistic and cultural functions.

The semantic system of English ethnographisms reflects the social, historical, and cultural realities of English-speaking communities. Classifying these lexemes into semantic fields-such as material culture, social institutions, folklore, rituals, and traditional occupations-highlights the close relationship between language and culture.

A comprehensive understanding of ethnographisms is essential for linguocultural studies, translation, intercultural communication, and English language education, as these lexical units reveal national mentality and cultural worldview. Future research may focus on historical changes and cross-linguistic comparisons of ethnographisms in English and other languages.

References.

1. Briggs J. The folklorist's guide to English traditions. – Oxford: Oxford University Press, 2000.
2. Crystal D. The Cambridge encyclopedia of the English language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
3. Gudykunst W.B. Bridging differences: Effective intergroup communication. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2004.
4. Kramsch C. Language and culture. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
5. Lehrer A. Semantic fields and lexical structure. – Amsterdam: North-Holland, 1974.
6. Leech G. Semantics. – London: Penguin Books, 1981.
7. Simpson J. A dictionary of English folklore. – Oxford: Oxford University Press, 2000.

Hotamova Nigina
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

ZAMONAVIY O‘QITUVCHILAR MALAKASINI OSHIRISHDA VIRTUAL PLATFORMALARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy ishda zamonaviy o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida virtual platformalarning o‘rni tahlil qilinadi. Ishda onlayn ta’lim platformalarining pedagogik jarayondagi samaradorligi, interaktiv imkoniyatlari, individual rivojlanishga ta’siri va global pedagogik hamjamiyat bilan integratsiyalashuvi yoritilgan. Tadqiqot natijalari virtual platformalarning pedagoglar malakasini oshirishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida ularning joriy etilishi va kelajakdagi istiqbollari ham ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchilar, kasbiy rivojlanish, virtual platforma, onlayn ta’lim, pedagogik kompetensiya, malaka oshirish, interaktiv ta’lim, raqamli ta’lim*

СОВРЕМЕННЫЕ ПЛАТФОРМЫ И ИХ РОЛЬ В ПОВЫШЕНИИ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. *В данной научной работе анализируется роль виртуальных платформ в профессиональном развитии современных педагогов. Рассмотрена эффективность онлайн-образовательных платформ в педагогическом процессе, их интерактивные возможности, влияние на индивидуальное развитие и интеграция с глобальным педагогическим сообществом. Результаты исследования показывают, что виртуальные платформы являются важным инструментом повышения квалификации педагогов. Также рассмотрено внедрение таких платформ в условиях Узбекистана и перспективы их развития.*

Ключевые слова: *учителя, профессиональное развитие, виртуальная платформа, онлайн-обучение, педагогическая компетенция, повышение квалификации, интерактивное обучение, цифровое образование*

THE ROLE OF VIRTUAL PLATFORMS IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF MODERN TEACHERS

Abstract. *This study analyzes the role of virtual platforms in the professional development of modern teachers. It examines the effectiveness of online educational platforms in the pedagogical process, their interactive capabilities, impact on individual development, and integration with the global educational community. The research results demonstrate that virtual platforms are a crucial tool for enhancing teachers’ qualifications. The implementation of these platforms in Uzbekistan and their future prospects are also discussed.*

Key words: *teachers, professional development, virtual platform, online learning, pedagogical competence, professional development, interactive learning, digital education*

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi global miqyosdagi eng muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ta’lim jarayonida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda va bu o‘zgarishlar o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalariga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Ayniqsa, virtual platformalar asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti pedagoglarning malakasini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llay olishi, masofaviy ta’limni tashkil eta bilishi va interaktiv metodlardan foydalanishi bilan ajralib turishi lozim. Shu nuqtai nazardan, virtual platformalar o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Virtual platformalar deganda internet tarmog‘i orqali ta’lim jarayonini tashkil etishga xizmat qiluvchi maxsus dasturiy vositalar va tizimlar tushuniladi. Bular qatoriga Moodle, Google Classroom, Coursera, EdX kabi platformalar kiradi. Ushbu platformalar yordamida o‘qituvchilar o‘z bilimlarini mustaqil ravishda oshirish, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, onlayn ta’lim platformalaridan foydalangan pedagoglarning kasbiy kompetensiyalari an’anaviy metodlar asosida rivojlangan o‘qituvchilarga nisbatan yuqori darajada shakllanadi. Virtual platformalarning asosiy afzalliklaridan biri – ularning moslashuvchanligi va ochiqligidir. O‘qituvchi istalgan vaqtda va istalgan joyda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ayniqsa band o‘qituvchilar uchun juda qulay hisoblanadi. Shuningdek, platformalar orqali o‘quv materiallari doimiy ravishda yangilanib boradi, bu esa o‘qituvchilarga eng so‘nggi ilmiy yutuqlar bilan tanishish imkonini beradi. Bundan tashqari, virtual platformalar interaktivlikni ta’minlaydi, ya’ni o‘qituvchilar forumlar, videokonferensiyalar va chatlar orqali o‘zaro muloqot qilishlari mumkin. Bu esa kasbiy hamjamiyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida uzluksizlik tamoyili muhim o‘rin tutadi. Virtual platformalar aynan shu uzluksizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Chunki ular orqali o‘qituvchilar o‘z bilimlarini muntazam ravishda yangilab borishlari mumkin. Masalan, xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, onlayn kurslarda qatnashgan o‘qituvchilarning 70 foizi o‘z pedagogik faoliyatida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni qayd etgan. Bu esa virtual platformalarning samaradorligini yaqqol isbotlaydi. Bundan tashqari, virtual platformalar o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mustaqil ta’lim esa zamonaviy pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchi o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib, kerakli kurslarni tanlaydi va o‘z rivojlanish strategiyasini mustaqil belgilaydi. Bu esa individual yondashuvni ta’minlaydi va ta’lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, virtual platformalar o‘qituvchilarga o‘z bilim darajasini baholash imkonini beruvchi testlar va topshiriqlarni ham taqdim etadi.

Abstract. *This article examines emotional intelligence, its historical development, and theoretical models developed by scholars. It analyzes measurement tools for assessing emotional intelligence, along with their advantages and limitations. Based on research findings, the study highlights the impact of emotional intelligence on personal and professional life, academic achievement, and the regulation of negative emotions.*

Key words: *emotional intelligence, emotional intelligence models, history of emotional intelligence, importance of emotional intelligence.*

Kirish. Emotsional intellekt (EI) - bu insonning o’z emotsiyalarini va boshqalarning emotsiyalarini tushunish, boshqarish va ularga mos ravishta javob berish qobiliyatidir.

Bugungi kunda emotsional intellektni ahamiyati katta, chunki odamlar shaxsiy va professional hayotlarida emotsional va ijtimoiy muammolarga duch kelishmoqda. Ish muhitini olsak, ishda faqatgina texnik bilimlarni bilish emas balki, ishchilardan ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, hamkorlikka asoslangan jamoalarni shakllantirish va stressni nazorat qilish qobiliyatini ham bilishi talab etiladi. Emotsional intellektda o’z hislarini aniqlay olishi, anglashi hamda boshqa insonlarni ham hislarini tushunishi va shunga ko’ra harakat qilishi va munosabatlarini boshqarishi tushuniladi. Inson ijtimoiy mavjudod ekanini hisobga olsak, emotsional intellekt atrofimizdagi insonlar bilan ijobiy munosabat qura olishimizga va konflikt yoki stressli vaziyatlar paydo bo’lganda

hislarni tushuna olishimiz va emotsional o'zimizni boshqara olishimizga yordam beradi, buni natijasida boshqalar bilan munosabatimiz yaxshilanadi.

Emotsional intellekt tarixi. 1920-yillargacha emotsiya va intellekt alohida shaklida o'rganilgan, chunki bu ikki mavzu bir biriga qarama-qarshi terminlar sifatida ko'rilgan [1]. Emotsional intellekt tushunchasiga zamin yaratgan ilk tadqiqotlardan biri R.Torndayk tomonidan amalga oshirilgan. R. Torndayk intellektni uch qismga ajratgan:

Mavhum intellekt

Mexanik intellekt

Ijtimoiy intellekt

U ijtimoiy intellektni boshqalarni tushunish va ularga nisbatan oqilona harakat qilish yoki munosabatta bo'lish qobiliyati sifatida ta'riflagan [5]. Bu intellekt turi boshqa intellekt turlaridan aniq ajratib bo'lmasligi sababli ko'p tanqid qilingan. Buning sababini ijtimoiy intellekt ta'rifi keng ekanligida deb bilishgan. Bundan tashqari ijtimoiy intellektni o'lchashga qaratilgan urinishlar ham bo'lgan va ko'pchiligi muvaffaqiyatsiz chiqqani isbotlangan. Ko'plab tadqiqodchilar bu tushunchani aniq ta'riflash va o'lchashdagi qiyinchiliklar sababli uni o'rganishga zarurat yo'q deb hisoblaganlar va bu yo'nalishdagi tadqiqotlar bir necha o'n yillar davomida susayib ketgan (Doğan & Şahin, 2007, p. 234).

1940-yillarda David Wechslar ushbu yondashuvni kengaytirib, intelektual xulq-atvorda kognitiv bo'lmagan omillarning ro'lini tan olgan hamda intellektni to'liq tushunish uchun ushbu elementlarni chuqurroq o'rganish zarurligini ta'kidlagan [6].

1983-yilda Howard Gardner "Fikrlash strukturasi. Ko'p uchraydigan intellekt nazariyasi" kitobi orqali hayotda muvaffaqiyatni uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yagona mustahkam aql emas, balki yettita asosiy turli ko'rinishga ega bo'lgan aqliy qobiliyatlarning keng doirasi ekanligi haqidagi g'oyani taqdim etgan [3].U aniqlagan yettita intellekt orasida shaxslararo va shaxsiy intellekt ham mavjud. Ushbu intellekt shakllari ya'ni boshqalarni va o'zini hissiyotlarini tushunish hamda boshqarish bilan bog'liq qobiliyatlar ananaviy IQ testlari orqali o'lchanadigan kognitiv qobiliyatlar kabi muhim ekanini ta'kidlagan. (Krishnan & Awang, 2025, p. 519)

Emotsional intellekt atamasi ilk bor 1985-yilda Wayne Leon Payne tomonidan yozilgan doktorlik dissertatsiyasida qo'llanilgan. U emotsional intellektni qo'rquv, og'riq va istak kabi emotsiyalar bilan ijodiy munosabat o'rnatishga doir qobiliyat sifatida tavsiflagan. 1987-yilda Bar-On doktorlik tadqiqoti doirasida Emotsional ko'rsatkichlar inventarini (EQ-i) ishlab chiqadi va emotsional intellektning ko'p o'lchovli tabiatini alohida ta'kidlaydi. 1990-yillarda P. Salovey va J. Mayer emotsional intellekt tushunchasini yanada aniqlashtirish va kengaytirishga qaratilgan bir qator ilmiy maqolalarni e'lon qilgan. Daniel Goleman 1995-yilda chop etilgan " Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ" nomli kitobi orqali emotsional intellekt tushunchasini keng ommaga tarqatadi. Emotsional intellekt shaxsiy va professional muvaffaqiyatda hal qiluvchi ro'l o'ynashini ilgari suradi (Krishnan & Awang, 2025, pp. 519-520).

J.Mayer bo'yicha emotsiyalar va intellekt tadqiqotlarida 5 ta asosiy davr ajratiladi:

1900-1969- yillar orasida intellekt va hissiyotlar alohida soha sifatida ko'riladi. Bu davrda intellekt bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi, intellektni psixometrik baholash bo'yicha yaxshilanishlar kuzatiladi, hissiyotlar o'rganiladi va "ijtimoiy intellekt" konsepsiyasi taqdim etiladi.

1970-1989- yillar orasidagi tadqiqotlarda kognitiv jarayonlarning emotsional jarayonlarga ta'siri keng darajada o'rganilgan. Gardner o'zining ko'p intellekt nazariyasini ishlab chiqqan. " Emotsional intellekt" atamasi qo'llanila boshlangan.

1990-1993- yillar davomida emotsional intellekt ko'plab tadqiqotlarning predmeti bo'lgan. Mayer va Salovey emotsional intellekt bo'yicha maqolalar yozgan va birinchi EI qobiliyat shkalasi ishlab chiqilgan.

1994-1997- yillarda EI tushunchasi keng tarqalgan va ommalashgan. Daniel Goleman o'zini " Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ" nomli kitobini yozadi. EI ning aralash model nazariyalari ishlab chiqiladi.

1998-yildan hozirgacha bu tushunchani mohiyati aniqlashtirib borilmoqda. EI bo'yicha modellar takomillashtirilmoqda va emotsional intellekt bo'yicha yangi o'lchovlar joriy etilmoqda [7].

Emotsional intellekt modellari. EI modellari ikki qismga bo'linadi: qobiliyat va aralash modellar. Yuqorida keltirib o'tilgandek eng birinchi model 1990-yilda Mayer va Salovey tomonidan ishlab chiqilgan. Bu model beshta aqliy qobiliyatlar hamda shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga olgan tarmoqlardan iborat edi. Ba'zi kamchiliklari tufayli 1997-yilda qayta tuzib chiqiladi va shaxsiy xususiyatlar olib tashlanadi (Krishnan & Awang, 2025, pp. 522-524). Bu model qobiliyatlarga asoslangan bo'lib, to'rtta tarmoqni o'z ichiga oladi:

Emotsiyalarni idrok etish;

Emotsiyalar yordamida fikrlashni qo'llab-quvvatlash;

Emotsiyalarni tushunish;

Emotsiyalarni boshqarish.

Qobiliyatga asoslangan modelda hissiy intellekt oddiy jarayonlardan murakkab jarayonlargacha bo'lgan to'rt bo'limda tartiblangan. To'rt bosqichli iyerarxiya jarayoniga ko'ra eng past bosqichda hissiyotlarni idrok qilish qobiliyati turadi. Hissiy idrok shaxslar o'z hissiyotlarini samarali tarzda aniqlay olganlarida yuzaga keladi. Hissiyotlarni idrok qilish yuz ifodalari, obyektlardagi, hikoyalardagi hissiyotlar mazmunini tushunishni anglatadi va bu o'zini, boshqalarni va obyektlarni hissiyotlarini aniqlay olish modelning keying bo'limlari uchun zarur bosqich hisoblanadi. Ikkinchi bosqichdagi qobiliyat - bu hissiyotlardan foydalanish. Bu daraja hissiyotlarning qanday ishlatilishini va fikrlash jarayoni yoki muammoni hal qilishda yordam berish uchun bilishga qanday ta'sir qilishini o'z ichiga oladi. Hissiyotlar fikrlashni boshlovchi mexanizm sifatida harakat qilishi yoki fikrlash jarayonini to'sib qo'yishi mumkin. Masalan, yaxshi ruhiy holatta bo'lgan shaxs berilgan vaziyatga nisbatan ko'proq ijodiy munosabat bildirsa, yomon ruhiy holatta bo'lgan shaxs salbiy munosabat bildiradi. Uchinchi bosqichga hissiyotlarni tushunish va hissiy ma'lumot bilan mulohaza yuritish qobiliyati kiradi. Murakkab emotsiyalarni anglash hamda bir hissiyotdan boshqasiga o'tish jarayonlarini aniqlay olish qobiliyatini anglatadi. Eng yuqori bosqichda hissiyotlarni tartibga solish va boshqarish turadi. Mayer va Saloveyning keltirilishicha, dushmanona harakatdan keyin ham hotirjam bo'lish qobiliyati hissiy boshqaruvning bir misolidir. Yuqori hissiy intellektga ega shaxslar salbiy hissiyotlarning ta'sirini nazorat qilib, ijobiy hissiyotlarni kuchaytirish orqali boshqalarning hissiyotlarini boshqarish qobiliyatiga ham egalar (Doğan & Şahin, 2007, pp. 236-241). Bu bosqichlar bo'yicha o'lchov testlari ham ishlab chiqiladi.

Emotsional intellektning aralash modellariga D.Goleman va Bar-On tomonidan tuzilgan modellar kiritiladi. Chunki bu ikkala muallif o'z modellarida emotsional intellektni ham kognitiv qobiliyat ham shaxsiy xususiyatlar misolida tushuntiradilar. Goleman hissiy intellektni "muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, o'z-o'zini rag'batlantirish va maqsadga erishish uchun qat'iyatlilik qobiliyati; sezgilarni ushlab turish va zavqlanishni kechiktirish; kayfiyatni nazorat qilish va histuyg'ularning aqlga soya solishiga imkon bermaslik; hamdardlik va umid qilish" deb ta'riflaydi (Goleman, 2023, p. 75). U ishlab chiqqan aralash model 5 ta asosiy bo'limdan iborat:

O'zini anglash – hozirda nima his qilayotganini bilish va bu tanlovlarni qaror qabul qilishga yo'naltirish, o'z qobiliyatlarini real baholash va mustahkam ishonchga ega bo'lish.

O'zini boshqarish – hissiyotlarni bajarilayotgan ishga to'sqinlik qilmasdan, aksincha, uni yengillashtiradigan tarzda boshqarish, vijdonli bo'lish va maqsadlarga erishish uchun zavqni kechiktirish, hissiy noqulayliklardan chiqib ketish.

O'z-o'zini motivatsiya qilish – shaxsni maqsadlariga yo'naltiradigan ichki motivlar, tashabbus ko'rsatish, rivojlanishga intilish, mag'lubiyat va to'siqlarga qaramay davom etish.

Empatiya – boshqalarning hislarini sezish, ularga ularning nuqtai nazaridan qaray olish va turli xil insonlar bilan munosabatlarni rivojlantirish.

Ijtimoiy ko'nikmalar – munosabatlar davomida hissiyotlarni boshqarish, ijtimoiy vaziyatlarni to'g'ri idrok etish, liderlik, kelishmovchiliklarni hal qilish va hamkorlik qila olish. (Doğan & Şahin, 2007, p. 241).

1998-yilda Goleman o'z modelini takomillashtirib, "emotsional kompetensiyalar" tushunchasini taklif etadi va uni "o'ziga yoki boshqalarga oid emotsional axborotni tanib olish, tushunish va undan foydalanish qobiliyati bo'lib, u samarali yoki yuqori darajadagi faoliyatga olib keladi yoki uni yuzaga chiqaradi" deb ta'riflaydi. Kompetensiyalarni shaxsiy va ijtimoiy toifalarga ajratadi. Bular esa to'rtta muhim kompetensiyalarga bo'linadi: o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy anglash va munosabatlarni boshqarish. Golemanga ko'ra, emotsional kompetensiyalar tug'ma istedodlar emas, balki yuqori darajagi samaradorlikka erishish uchun o'rganilishi va rivojlantirilishi lozim bo'lgan malakalardir (Krishnan & Awang, 2025, p. 525). D.Goleman emotsional intellekt kitobi orqali bu mavzuni ommalashtirgan bo'lsa-da, fikrlarining ilmiy tadqiqotga asoslanmagani va hayotdagi barcha muvaffaqiyatlarni emotsional intellektga bog'lash g'oyasi tanqid qilingan.

Bar-On emotsional intellektni " shaxsning atrof-muhitdan keladigan bosim va talablar bilan muvaffaqiyatli kurasha olishida unga yordam beradigan shaxsiy, hissiy va ijtimoiy yetarlilik va ko'nikmalar majmui" sifatida ta'riflaydi. Bar-Onning modeli ham aralash model turiga kiradi va bu model 5 ta tizimdan iborat: ichki intellekt (o'z his- tuyg'ularini anglashi, o'zini hurmat qilishi, o'zini namoyon qilishi hamda mustaqillik kabi psixologik unsurlardan iborat), shaxslararo munosabatlardagi intellekt (empatik munosabatlar, shaxslararo munosabatlar tizimi, ijtimoiy mas'uliyat kabi xususiyatlardan iborat), moslashishga nisbatan intellekt (muammolarni hal qilish, turli voqeliklarni baholash kabilarda namoyon bo'ladi), stressni boshqarishga nisbatan intellekt (shaxsga xos chidamlilik, salbiy impulslarni yengish holatlari bilan xarakterlanadi), umumiy kayfiyat (ijobiy hissiyotlarni ifoda etilishi va his qilishini, optimistik bo'lish) [8].

Bar-On va Goleman modellari bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ma'lum farqlar mavjud. Golemanning modeli asosan ish faoliyatidagi samaradorlikka qaratilgan, Bar-On modeli esa shaxs hayotining barcha sohalaridagi psixologik faravonlikka urg'u beradi.

Yuqorida keltirilgan modellar dastlab ishlab chiqilgan va asosiy nazariy modellar hisoblanadi. Bulardan tashqari boshqa olimlar ham o'z modellarini taklif qilishadi va ko'pchiligi Mayer va Salovey, Goleman, Bar-On va boshqa olimlarning modellariga tayangan holda ishlab chiqiladi (Kochetova, 2021, p. 24).

Emotsional intellektni o'lchash uchun olimlar tomonidan test va so'rovnomalar ishlab chiqilgan. Ko'rib chiqilgan yuqoridagi modellarga ko'ra emotsional intellektni o'lchash mumkin. Birinchi bo'lib Bar-On tomonidan EQ-i (Emotional Quotient Inventory) o'lchov vositasi yaratilgan. Bu o'z-o'zini baholash so'rovnomasi bo'lib, 5 ta asosiy komponentni o'lchaydi: ichki shaxsiy intellekt, shaxslararo intellekt, moslashuvchanlik, stressni boshqarish va umumiy kayfiyat. Mazkur so'rovnomaning ustunligi uning yuqori ishonchliligida, shuningdek bolalar va o'smirlarni testdan o'tkazish uchun mo'ljallangan bolalar versiyasining mavjudligidir. Kamchiligi esa o'z- o'zini baholashga asoslangan bo'lganligi uchun ijtimoiy maqbullik og'ishi va subyektiv o'zini idrok etish ta'siriga moyil bo'lib, bu uning obyektivligini qobiliyatga asoslangan EI testlariga nisbatan pasaytirishi mumkin (Kochetova, 2021; Krishnan & Awang, 2025).

Mayer – Salovey – Caruso tomonidan qobiliyatga asoslangan hissiy intellektni baholash uchun MSCEIT testi ishlatiladi. Ushbu test to'rtta shkala bo'yicha o'lchanadi: emotsiyalarni idrok qilish, emotsiyalardan foydalanish, emotsiyalarni tushunish va emotsiyalarni boshqarish. MSCEITni ishonchlilik darajasi yuqori hisoblanadi, lekin shunday bo'lsa-da ba'zi tanqidlar mavjud. Xususan, testda madaniy og'ish mavjudligi ta'kidlanadi, shu sababli ayrim mintaqalarda, masalan, Afrika va Osiyo mamlakatlarida yetarlicha samara bermasligi mumkin. Bundan tashqari bu testni o'tkazish ko'p vaqtni oladi, bu esa amaliyotta keng qo'llashda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin (Krishnan & Awang, 2025, pp. 529-530).

2000- yilda Boyatzis, Goleman va Rhee tomonidan "Emotsional kompetensiyalar inventari" ya'ni, ECI ishlab chiqiladi. Ushbu test aralash modelga asoslanadi va asosan ish joyidagi muvafaqiyatni baholash uchun yo'naltirilgan. MSCEIT va EQ-i dan farqli ravishta, ECI 360 darajali baholash usulidan foydalanadi, ya'ni bunda o'z-o'zini baholash, hamkasblar bahosi va rahbarlar bahosi birlashtirilishi mumkin. Bu o'lchash vositasi ham ko'pincha tanqid qilinadi, chunki u aniq emotsional intellektni emas, balki ko'proq yetakchilikdagi kompetentlikni o'lchashga

yo'naltirilgan, shuningdek uni samarali qo'llanilishi asosan menejment doirasi bilan cheklangan deb hisoblanadi (Kochetova, 2021, p. 17).

Ushbu o'lchov vositalari emotsional intellektni baholash uchun ko'p ishlatiladi va bulardan tashqari yana test va so'rovnomalar yaratilgan. Yuqoridagi baholash vositalarini har birini o'tkazish bo'yicha avzallik va kamchiliklari mavjud.

Emotsional intellekt ahamiyati. Goleman (2023) kitobida hayotdagi muvaffaqiyatni belgilovchi omillarda IQ koeffitsient holatda 20 % ni tashkil qilishi, qolgan 80% esa, boshqa holatlar va xususiyatlar bilan bog'liq ekanligi haqida yozilgan. Mana shu keltirilgan 80 % ni ma'lum qismini emotsional intellekt tashkil qilishini bildirgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt akademik muvaffaqiyatda, ruhiy va jismoniy salomatlikda, shuningdek professional sohalardagi yutuqlarda muhim ro'l o'ynaydi. Bar-On tadqiqotlari natijalariga ko'ra, yuqori darajadagi emotsional intellektga ega insonlar hayotda EI darajasi past bo'lganlarga nisbatan yaxshiroq natijalarga erishgan [4]. Yuqori darajadagi emotsional intellektga ega shaxs salbiy hissiyotlarni o'z vaqtida tanib olish va kuchayib ketishning oldini olish uchun ularga mos ravishta javob qaytarish darajasidagi yetarli o'zini anglashga ega bo'ladi. Nazoratsiz va tushunilmagan hissiyotlar stress, xavotir va depressiya kabi boshqa ruhiy salomatlik muammolariga nisbatan zaiflikni kuchaytirish mumkin. Emotsional intellekt bilan bog'liq ko'nikmalar shaxslarga stress kabi salbiy hissiy holatlar bilan samarali kurashishga va ularning o'rniga ijobiy hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi. Stressni e'tiborsiz qoldirish yoki uni boshqara olmaslik ruhiy holatning yana da yomonlashishiga olib kelib, o'z navbatida jismoniy salomatlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqori darajadagi emotsional intellekt hissiy og'ishlar asosida qaror qabul qilishning oldini olishda muhim omil hisoblanadi, past emotsional intellekt esa xavotirni kuchaytirib, notog'ri qarorlarga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatda hissiyotlarni qaror qabul qilish jarayonidan butunlay chiqarib tashlolmaymiz lekin his qilgan salbiy emotsiyalarimizni tanib olib, ularni yakuniy natijaga ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymasligimiz mumkin. Hissiyotlarni tanish, anglash, sabablari va oqibatlarini tushunish shaxsga hissiy holatni boshqarish va obyektiv qaror qabul qilish imkonini ham beradi.

Tadqiqotlarda keltirilishicha, emotsional intellekt akademik muvaffaqiyat bilan sezilarli darajada bog'liq hisoblanadi, hatto intellekt va shaxs xususiyatlari hisobga olingan taqdirda ham. Bu shuni anglatadiki, talabaning emotsional intellekti qanchalik yuqori bo'lsa, u emotsiyalarini yaxshi boshqara oladi, bu esa diqqat va kognitiv qobiliyatlarning yaxshilanishiga olib keladi. Emotsional intellekt shuningdek, talabalarga o'quv jarayonida akademik stressni boshqarish va emotsiyalarni tartibga solishda muhim ro'l o'ynaydi. Yuqori emotsional intellekt darajasiga ega talabalar emotsional jihattan barqaror bo'lib, akademik stressni samaraliroq yenga oladilar. EI talabalarning ruhiy barqarorligi, o'ziga ishonchi va hayotdan umumiy qoniqinishini oshirishga sezilarli hissa qo'shadi. Emotsional intellekt bilan talabalarning psixologik farovonligi o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud. Shuningdek, yuqori EI ga ega shaxslar yaxshiroq ruhiy salomatlik va hayotdan yuqoriroq qoniqishni boshdan kechirishlari ta'kidlangan [2]. Emotsional intellekt tug'ma emas, uni xususiyatlarini hayot davomida o'rganish va o'zlashtirish mumkin. Bundan kelib chiqib aytish mumkun-ki, har bir shaxs shaxsiy yoki professional hayotida muvafaqiyatga erishish uchun emotsional intellekt darajasini oshirishi mumkin.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan malumotlardan kelib chiqib, amaliy jihattan emotsional intellektni inson hayotining har sohasida foydasi borligini ko'rsak bo'ladi. Ayniqsa, kasbiy muvafaqiyatga erishishda va shaxsiy rivojlanishda ko'makchi bo'ladi va insonlarni ishlarini yengillashtiradi. EI boshqa mavzularga qaraganda nisbatan yangi bo'lsa-da, uni nazariy qismlari juda ko'p olimlar tomonidan ishlab chiqilgan, bu bir tomondan yaxshi bo'lsa-da, bir tomondan chalkashliklarga olib keladi. Chunki emotsional intellekt bo'yicha yagona nazariya va model mavjud emas. Uning foydali jihatlari bo'lishi bilan birga, nazariy yondashuvlarning ko'pligi emotsional intellektni kamchiligi hisoblanadi. EI ni o'lchov vositalarida ham huddi shunday holat kuzatiladi, ya'ni o'lchash uchun yagona hammaga to'g'ri keladigan test yoki so'rovnomalar mavjud emas. Ishlab chiqilgan mavjud so'rovnomalarni esa deyarli har birini ijobiy va salbiy ji-

hatlari bor. Umuman olib qaraganda, emotsional intellektni rivojlantirish har tomonlama insonlarni yuksalishini, muvafaqiyatga tezroq erishishini ta'minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Doğan S., Şahin F. Duygusal zekâ: tarihsel gelişimi ve örgütler için önemine kavramsal bir bakış // Ç.Ü. Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. – 2007. – C. 16. – No. 1. – S. 231–252.
2. Edwin, Sudatha I.G.W., Suartama I.K., Santosa M.H. Emotional intelligence in education: A systematic literature review of its influence on student performance and well-being // Jurnal Penelitian Pendidikan IPA. – 2025. – Vol. 11. – No. 7. – P. 25–36.
3. Goleman D. Hissiy intellekt: nima uchun u IQdan ko'proq narsani anglatishi mumkin / tarj. N. Igamova. – Toshkent: Zukko Kitobxon, 2023.
4. Houston E. The importance of emotional intelligence (incl. quotes) [Elektron resurs]. – 2019. – URL: https://positivepsychology.com/importance-of-emotional-intelligence/ (murojaat sanasi: ko'rsatiladi).
5. Kochetova Yu.A. Emotsional'nyy intellekt starshikh podrostkov: dis. … d-ra psixol. nauk. – Moskva: Moscow State University of Psychology & Education, 2021.
6. Krishnan H., Awang S.R. Emotional intelligence: Historical development, theoretical models, and assessment approaches // International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences. – 2025. – Vol. 15. – No. 2. – DOI: 10.6007/IJARBSS/v15-i2/24485.
7. Singh A., Prabhakar R., Kiran J.S. Emotional intelligence: A literature review of its concept, models, and measures // Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Vol. 6. – No. 10. – P. 2254–2275. – URL: http://journalppw.com (murojaat sanasi: ko'rsatiladi).
8. Turakulov B.N. Talabalar emotsional intellektining individual-tipik xususiyatlari: PhD dis. – Chirchiq: Chirchiq davlat pedagogika instituti, 2022.

Burxanova Dilnozaxon Ilxomjon qizi
Doctor of philosophy in philological sciences (PhD) Kokand state university

COGNITIVE LINGUISTIC ANALYSIS OF KINSHIP TERMS IN ENGLISH

Abstract. *This article examines English kinship terms from the perspective of cognitive linguistics. The study argues that kinship vocabulary is not only a list of family labels but a conceptual system through which speakers categorize social relations, negotiate proximity, and project culturally salient models of family. Drawing on prototype theory, frame semantics, cognitive grammar, semantic extension, and recent work on kinship terminology, the paper analyzes the semantic organization of such terms as mother, father, brother, sister, aunt, uncle, cousin, grandmother, and sibling. The discussion shows that English kinship terms combine biological, genealogical, social, evaluative, and pragmatic meanings. Their categorization is structured around prototypical family scenarios, but the categories are flexible enough to include adoptive, step- in-law, and fictive kinship relations.*

Key words: *cognitive linguistics, kinship terms, English semantics, prototype theory, categorization, frame semantics, family vocabulary.*

КОГНИТИВНО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ, ОБОЗНАЧАЮЩИХ РОДСТВО В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются английские термины, обозначающие родство, с точки зрения когнитивной лингвистики. В исследовании утверждается, что лексика родства - это не просто список семейных обозначений, а концептуальная система, посредством которой носители языка классифицируют социальные отношения, определяют степень близости и проецируют культурно значимые модели семьи. Опираясь на теорию прототипов, фреймовую семантику, когнитивную грамматику, семантическое расширение и последние работы по терминологии родства, статья анализирует семантическую организацию таких терминов, как мать, отец, брат, сестра, тетя, дядя, двоюродный брат/сестра, бабушка и брат/сестра. Обсуждение показывает, что английские термины родства сочетают в себе биологические, генеалогические, социальные, оценочные и прагматические значения. Их категоризация структурирована вокруг прототипических семейных сценариев, но категории достаточно гибкие, чтобы включать в себя приемные, сводные, фиктивные и родственные отношения.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, термины родства, английская семантика, теория прототипов, категоризация, фреймовая семантика, семейная лексика.*

INGLIZ TILIDA QARINDOSHLIK ATAMALARINING KOGNITIV LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inglizcha qarindoshlik atamalari kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda qarindoshlik lug'ati nafaqat oilaviy yorliqlar ro'yxati, balki so'zlovchilar ijtimoiy munosabatlarni tasniflaydigan, yaqinlik haqida muzokara olib boradigan va oilaning madaniy jihatdan muhim modellarini loyihalashtiradigan kontseptual tizim ekanligi ta'kidlanadi. Prototip nazariyasi, ramka semantikasi, kognitiv grammatika, semantik kengaytma va qarindoshlik terminologiyasi bo'yicha so'nggi ishlarga tayanib, maqolada ona, ota, aka, opa, xola, amaki, amakivachcha, buvi va aka-uka kabi atamalarning semantik tashkil etilishi tahlil qilinadi. Muhokama shuni ko'rsatadiki, inglizcha qarindoshlik atamalari biologik, genealogik, ijtimoiy, baholash va pragmatik ma'nolarni birlashtiradi. Ularning tasnifi prototipik oilaviy stsenariylar atrofida tuzilgan, ammo kategoriyalar asrab oluvchi, o'gay, qaynona va xayoliy qarindoshlik munosabatlarini o'z ichiga oladigan darajada moslashuvchan.*

Kalit so'zlar: *kognitiv tilshunoslik, qarindoshlik atamalari, ingliz semantikasi, prototip nazariyasi, tasniflash, ramka semantikasi, oilaviy lug'at.*

Introduction. Kinship terminology has long occupied a central place in linguistics, anthropology, and cognitive science because it lies at the intersection of language, culture, and social cognition. Speakers learn kinship terms early, use them frequently, and rely on them to structure highly consequential domains of experience: descent, care, authority, intimacy, marriage, inheritance, solidarity, and personal identity. In English, kinship terms may seem transparent at first glance. Words such as mother, father, brother, and sister appear simple because they are among the first lexical items acquired in childhood and remain stable across everyday communication. Yet once these items are examined more closely, their semantic behavior becomes substantially more complex. A cognitive-linguistic perspective makes this complexity visible by asking how speakers mentally organize kin categories, what prototypes anchor category membership, how meanings extend beyond biological reference, and how usage reflects shifting social models of family.

The aim of this article is to analyze English kinship terms as a cognitively organized semantic field. The discussion focuses on three interrelated questions. First, how are English kinship categories structured around prototypes and family-resemblance relations? Second, how do kinship terms activate larger conceptual frames concerning genealogy, domestic roles, affect, and social expectations? Third, what kinds of semantic extension and sociocultural change can be observed in contemporary English usage? By answering these questions, the paper seeks to show that English kinship terminology is both conceptually systematic and dynamically adaptive.

Theoretical Foundations: Cognitive Linguistics and Kinship Semantics. Cognitive linguistics emerged as a reaction against formal models that sharply separated linguistic structure from general cognition. In cognitive approaches, meaning is not autonomous from conceptualization; instead, it reflects broader mental capacities such as categorization, metaphor, attention, and perspective. Within this framework, categories are rarely treated as mechanically bounded sets. Rosch's work on categorization and Lakoff's development of prototype theory demonstrated that categories often have internal structure: some members are better examples than others, boundaries are gradient, and classification depends on experiential salience rather than solely on abstract logic (Lakoff, 1987). Taylor later showed how these insights transformed lexical semantics by replacing rigid taxonomies with models based on centrality, family resemblance, and contextual activation (Taylor, 2003).

Kinship terms are especially suitable for cognitive-linguistic analysis because they belong to a domain where lexical meaning is inseparable from cultural knowledge. A kin term does not simply encode a biological relationship. It also evokes expectations about age, authority, obligation, emotional closeness, co-residence, inheritance, gender roles, and norms of behavior. Cognitive grammar and frame semantics help explain this phenomenon by showing that lexical items profile one part of a larger knowledge structure. The term mother, for example, does not merely identify a female parent; it activates a broad frame involving birth or nurture, caregiving, family hierarchy, moral expectations, and social recognition. Likewise, aunt and uncle often evoke not only genealogical relations but stereotyped roles such as affectionate elder, occasional caregiver, intermediary, or family guest.

Prototype Structure in English Kinship Terms. Prototype theory provides one of the clearest entry points into the cognitive analysis of English kinship vocabulary. In prototype-based categorization, members of a category are not all equal. Some are central and unmarked, while others are peripheral, derived, or contextually dependent. In the English kinship system, unmodified forms such as mother, father, brother, sister, son, daughter, grandmother, and grandfather typically function as category centers. They evoke a conventional model of the family grounded in descent, birth, and socially recognized parent-child and sibling relations. These terms are frequent, early acquired, and semantically unmarked in comparison with forms such as stepmother, foster brother, half-sister, adoptive father, or ex-mother-in-law.

Semantic Dimensions of the English Kinship System. Although cognitive linguistics resists reducing meaning to feature lists alone, semantic dimensions remain analytically useful when understood as part of a conceptual network. English kinship terms are largely organized by several recurrent parameters: generation, sex, lineality, collaterality, affinity, and relative age or marital status when needed. Generation distinguishes parents from grandparents and children from grandchildren. Sex differentiates mother from father, sister from brother, aunt from uncle, and niece from nephew. Lineality distinguishes direct ascendants and descendants from collateral relatives such as siblings, cousins, aunts, and uncles. Affinity introduces relations created through marriage, as in mother-in-law or brother-in-law. These dimensions do not exhaust meaning, but they form the structural skeleton around which richer conceptual content is organized.

English is notable for combining structural clarity in the core system with lexical underspecification in the collateral system. The language sharply distinguishes mother and father, but it does not lexically distinguish maternal from paternal uncle or aunt. Likewise, cousin collapses multiple contrasts into one term. From a cognitive viewpoint, this pattern suggests that the English lexicon prioritizes some family distinctions over others. The nuclear family and direct lineal relations are encoded with relatively high salience, while more distant or laterally extended relations are grouped into broader categories. This supports the widespread observation that English kin terminology is comparatively bilateral and relatively economical in lexical detail.

A Cognitive Model of Selected English Kinship Terms. A compact way to summarize the cognitive organization of English kinship vocabulary is to distinguish between category core, radial extension, and pragmatic projection. The core includes high-frequency, unmarked terms anchored in prototypical family experience: mother, father, brother, sister, son, daughter, grandmother, and grandfather. Radial extensions include structurally related but marked forms such as stepmother, adoptive father, half-brother, mother-in-law, and great-grandmother. Pragmatic projections include fictive or metaphorical uses such as auntie for a respected non-relative, brother for a fellow community member, or Mother Nature as a personified source of life. The same lexical field therefore spans literal genealogy, socially recognized alternative relations, and symbolic or rhetorical uses.

Discussion. The analysis above suggests that English kinship terms are best understood as cognitively motivated categories shaped by prototype effects, frame-based knowledge, and usage-driven extension. The enduring value of structural descriptions should not be denied; generation, sex, lineality, and affinity remain indispensable dimensions of the system. Yet the cognitive-linguistic perspective explains phenomena that a purely componential approach leaves underdescribed. It explains why unmarked terms feel more basic than marked alternatives, why some kin terms extend more easily to non-relatives, why broad terms such as cousin require contextual supplementation, and why lexical innovations arise in response to new social salience patterns.

Finally, the ongoing emergence of inclusive kinship vocabulary reminds us that lexical systems are historically open. Cognitive linguistics is especially well placed to study these developments because it links semantic change to usage, entrenchment, and shifting conceptual priorities. The more social life diversifies and the more speakers seek forms that recognize that diversity, the more likely it becomes that kinship categories will be reorganized around new centers of salience. English therefore offers not a fixed family lexicon, but a moving conceptual map of relatedness.

Conclusion. English kinship terms constitute a highly productive domain for cognitive linguistic inquiry. They show that lexical meaning is not exhausted by genealogical reference or by a small set of formal semantic features. Instead, kinship vocabulary in English is organized through prototype structure, frame activation, radial extension, pragmatic projection, and usage-based change. Core terms such as mother, father, brother, and sister function as cognitively central categories, while marked forms such as stepmother, half-brother, or mother-in-law reveal patterned departures from prototype expectations. Terms such as aunt, uncle, and cousin illustrate how broad categories depend on contextual enrichment and how some kin roles are especially open to fictive or affectionate extension. Meanwhile, sibling and newer inclusive forms demonstrate that the system remains responsive to contemporary sociocultural pressures.

References.

1. Cambridge Dictionary. Brother [Elektron resurs]. – Cambridge: Cambridge University Press, 2026. – URL: https://dictionary.cambridge.org (murojaat sanasi: ko‘rsatiladi).
2. Cambridge Dictionary. Sibling [Elektron resurs]. – Cambridge: Cambridge University Press, 2026. – URL: https://dictionary.cambridge.org (murojaat sanasi: ko‘rsatiladi).
3. Ibsen C.A., Klobus J.C. Fictive kin term use and social relationships // Journal of Marriage and the Family. – 1972. – Vol. 34. – No. 4. – P. 615–620.
4. Jones D. Human kinship: From conceptual structure to grammar // Behavioral and Brain Sciences. – 2010. – Vol. 33. – No. 5. – P. 367–416.
5. Lakoff G. Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987.
6. Nerlove S.B., Romney A.K. A further examination of cognitive aspects of English kin terms // American Anthropologist. – 1972. – Vol. 74. – No. 3. – P. 596–603.
7. Passmore S., Greenhill S.J., Jordan F.M., Gray R.D., Maurits L. Kinbank: A global database of kinship terminology // Scientific Data. – 2023. – Vol. 10. – Art. 266.
8. Read D.W. Kinship terminology // International encyclopedia of the social & behavioral sciences / ed. by J.D. Wright. – 2nd ed. – Vol. 13. – Oxford: Elsevier, 2015. – P. 61–66.

Axmedov Anvar Botirovich
Qarshi davlat universiteti
Nemis tili va adabiyoti kafedrasi mustaqil izlanuvchisi, dotsent

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA NEOLOGIZMLAR FAOLLASHUVINING IJTIMOIY OMILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis va o'zbek tillarida neologizmlar faollashuviga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar sotsiolingvistik va qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqotda til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik neologik jarayonlar misolida yoritilib, ijtimoiy-siyosiy transformatsiya, media makoni, globallashuv, iqtisodiy va texnologik taraqqiyot hamda ijtimoiy guruh identifikatsiyasi kabi omillarning roli tahlil qilinadi. Nemis tilida institutsional diskurs va media makoni orqali shakllanuvchi neologizmlar, o'zbek tilida esa davlat til siyosati, modernizatsiya jarayonlari va raqamli kommunikatsiya muhitining ta'siri asosiy omil sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatib beriladi. Qiyosiy tahlil natijasida har ikki tilda neologizmlar faollashuvi umumiy sotsiolingvistik qonuniyatlarga bo'ysunishi, biroq ularning normativlashuvi va ijtimoiy qabul qilinishida muayyan farqlar mavjudligi aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *neologizm, sotsiolingvistika, til va jamiyat, globallashuv, media diskurs, ijtimoiy omillar, nemis tili, o'zbek tili.*

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ АКТИВИЗАЦИИ НЕОЛОГИЗМОВ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье рассматриваются социальные факторы активизации неологизмов в немецком и узбекском языках на основе социолингвистического и сопоставительного анализа. Особое внимание уделяется взаимосвязи языка и общества, проявляющейся в неологическом процессе. Анализируются такие факторы, как социально-политические трансформации, медийное пространство, глобализация, экономическое и технологическое развитие, а также социальная идентификация различных групп. Показано, что в немецком языке активизация неологизмов во многом связана с институциональным и медийным дискурсом, тогда как в узбекском языке важную роль играют государственная языковая политика, процессы модернизации и цифровая коммуникационная среда. Сопоставительный анализ позволяет выявить общие социолингвистические закономерности функционирования неологизмов, а также определённые различия в их нормативном закреплении и общественном восприятии.*

Ключевые слова: *неологизм, социолингвистика, язык и общество, глобализация, медийный дискурс, социальные факторы, немецкий язык, узбекский язык.*

SOCIAL FACTORS OF THE ACTIVATION OF NEOLOGISMS IN THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. *This article examines the social factors influencing the activation of neologisms in the German and Uzbek languages from a sociolinguistic and comparative perspective. The study highlights the interaction between language and society through the processes of lexical innovation. Particular attention is paid to the role of socio-political transformations, media space, globalization, economic and technological development, and social group identification in the emergence and spread of new lexical units. The analysis demonstrates that in German the activation of neologisms is largely associated with institutional and media discourse, whereas in Uzbek it is strongly influenced by state language policy, modernization processes, and the digital communication environment. Comparative analysis reveals both common sociolinguistic mechanisms and certain differences in the normalization and social acceptance of neologisms.*

Key words: *neologism, sociolinguistics, language and society, globalization, media discourse, social factors, German language, Uzbek language.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda neologizm muammosi til taraqqiyotining dinamik va ijtimoiy sohalaridan biri sifatida qaraladi. Til – jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ochiq va harakatchan tizim bo‘lib, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarga nisbatan sezgir munosabatda bo’ladi. Shu ma’noda, neologizm muayyan davrning ijtimoiy tajribasi, qadriyatlari va konseptual dunyoqarashini aks ettiruvchi leksik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Neologizm, nafaqat yangi nom berish vositasi, balki jamiyatda kechayotgan transformatsiyalarning tilda aks etishi ham. U ijtimoiy ehtiyoj, kommunikativ zarurat va madaniy qayta taqsimot natijasida yuzaga keladi hamda muayyan ijtimoiy muhitda faollashadi. Faollashuv jarayoni esa leksik birlikning nutqda qo‘llanish chastotasi ortishi, turli diskurslarda keng tarqalishi va asta-sekin meyorlashuvi bilan bog’liq holda kechadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nemis va o‘zbek tillari misolida neologizmlar faollashuvini tadqiq etish qiyosiy-sotsiolingvistik jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Germaniya kabi sanoatlashgan va globallashuv jarayonlarida faol ishtirok etayotgan mamlakat tilida yangilanish jarayonlari juda faol bo‘lib, bu holat ingliz tili ta’siri, media makoni va institutsional puristik harakatlar bilan bevosita bog’liq. O‘zbekiston sharoitida esa davlat til siyosati, milliy identifikatsiya jarayonlari va ijtimoiy modernizatsiya omillari neologizmlar faollashuvining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, neologizmlar faollashuvining ijtimoiy omillarini tahlil qilish til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlarini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi nemis va o‘zbek tillarida neologizmlar faollashuviga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni aniqlash, ularning umumiy va farqli jihatlarini ilmiy asosda yoritish hamda bu jarayonning sotsiolingvistik tabiatini asoslashdan iborat.

«Tilning faoliyati va rivojlanishiga ijtimoiy omillarning ta’siri» (Влияние социальных факторов на функционирование и развитие языка) nomli kollektiv monografiya [2] sotsiolingvistikaning fundamental tadqiqotlaridan biridir. Ushbu asarda ijtimoiy tuzilma, iqtisodiyot, madaniyat va migratsiya jarayonlarining til evolyutsiyasi, leksik tarkibi hamda tillarning funksional qo‘llanishiga ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Jamiyatdagi siyosiy islohotlar, qonunchilik sohasidagi yangilanish va davlat boshqaruvidagi institutsional o‘zgarishlar tilda yangi atov birliklarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Har qanday transformatsiya jarayoni yangi tushuncha, konsept va ijtimoiy realiyalarni shakllantiradi; ularni ifodalash esa leksik tizimda yangilanishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, neologizmlar ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning semiotik ko’rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, Germaniyada Energiewende atamasi energetika siyosatining strategik qayta yo‘naltirilishi bilan bog‘liq holda paydo bo‘lib, qisqa muddat ichida rasmiy va ommaviy diskursda muhim konseptga aylandi. Keyinchalik Zeitenwende birligi ham tashqi siyosat va xavfsizlik doktrinasidagi tub burilishni ifoda etuvchi kalit tushuncha sifatida qo‘llanildi. Bu kabi neologizmlar, dastlab siyosiy elita nutqida shakllanib, parlament muhokamalari, hukumat bayonotlari va mediamatnlar orqali ommalashdi. Natijada, ular umummilliy diskursda konseptual markazga aylanadi [5, 91-92].

O‘zbek tilida ham siyosiy-huquqiy modernizatsiya jarayonlari leksik yangilanishni kuchaytirishga xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyot, ochiq budjet, inson qadri kabi birliklar davlat dasturlari va islohot konsepsiyalarida faol qo‘llanilib, rasmiy-idoraviy uslubdan publitsistik va ilmiy uslubga ko‘chdi. Bu yerda neologizm, faqat nomlash vositasi emas, balki muayyan mafkuraviy va aksiologik mazmunni ham tashiydi. Masalan, inson qadri birligi ijtimoiy siyosatning antropotsentrik yo‘nalishini belgilaydigan konseptual mezon vazifasini bajaradi.

A. Melyayeva fikriga ko‘ra neologizmlarning qo‘llanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar quyidagilardir:

Jamiyatning ijtimoiy differensiyatsiyasi

Kommunikativ muhit omili

Ijtimoiy maqom va ta’lim darajasi [4, 301-302].

Ijtimoiy-siyosiy transformatsiya omillarining muhim xususiyati – neologizmning “yuqoridan quyiga” tarqalish mexanizmi orqali me’yorlashuvidir. Bunda:

yangi atama, avvalo rasmiy nutqda qo‘llanadi;

normativ-huquqiy hujjatlarda qo'llanish orqali barqarorlashadi;
OAV va tahliliy matnlarda keng tarqaladi;
ta'lim va ilmiy adabiyotlarda qo'llanish orqali meyorlashadi.

Shu tarzda, ijtimoiy-siyosiy transformatsiya neologizmning funksional maydonini kengaytiradi va uning semantik barqarorlashuviga olib keladi. Nemis tilida bu jarayon, ko'pincha institutsional va mediadiskurs orqali amalga oshsa, o'zbek tilida davlat siyosatining strategik yo'nalishlari va milliy rivojlanish konsepsiyalari muhim rol o'ynaydi.

Demak, ijtimoiy-siyosiy omillar neologizmning paydo bo'lishi, faollashuvi va me'yoriy maqomga ega bo'lishida muhim ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon til va hokimiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning yaqqol ko'rinishidir.

Media makoni neologizmlarning tarqalish tezligi va qamrovini belgilaydigan asosiy ijtimoiy maydon hisoblanadi. Gazeta, televideniye, radio, internet nashrlari va ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar yangi leksik birlikning qisqa vaqt ichida ommaviy qo'llanishga kirishiga turtki beradi. Axborot aylanish tezligining ortishi natijasida neologizm jamiyat ongida tez mustahkamlanadi va turli diskurs turlariga (rasmiy, publitsistik, ilmiy, maishiy) singib boradi [6, 182].

Pandemiya davri bu jarayonning yaqqol namunasi bo'ldi. Germaniya mediamakonida Lockdown, Booster-Impfung, 3G-Regel kabi birliklar qisqa muddatda yuqori chastotali so'zlarga aylandi. Dastlab, mutaxassislik yoki rasmiy axborot doirasida qo'llangan bu atamalar, tez orada ommaviy nutqqa o'tdi va umummilliy diskursning ajralmas qismiga aylandi. Media platformalarda doimiy takrorlanish, ularning semantik barqarorlashuvini ta'minladi [3, 51-52; 1, 58-59].

O'zbek tilida ham onlayn dars, masofaviy ta'lim, bloger, strim kabi birliklar ijtimoiy tarmoq va internet nashrlari orqali ommalashdi. Raqamli kommunikatsiya muhitida yangi so'zlar, nafaqat tarqaladi, balki interaktiv muhokama jarayonida semantik jihatdan takomillashadi. Foydalanuvchilar tomonidan qayta ishlanishi, qisqartirilishi yoki gibridlashuvi (masalan, inglizcha asos + o'zbekcha affiks) ularning funksional moslashuvini kuchaytiradi.

Muhokama. Iqtisodiy, texnologik va madaniy integratsiya jarayonlari tillararo ta'sir faolligini oshiradi va bu holat neologizmlar faollashuvining muhim ijtimoiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Globallashuv sharoitida axborot, kapital va inson resurslarining erkin harakati bilan birga leksik birliklar ham chegara tanlamaydi. Natijada, milliy tillar leksik tarkibida internatsional atamalar ulushi ortib boradi.

Germaniyada ingliz tilining xalqaro kommunikatsiya tili sifatidagi mavqei tufayli Homeoffice, Start-up, Streaming, Update kabi o'zlashmalar keng tarqalgan. Ayniqsa iqtisod, IT va biznes sohalarida inglizcha terminologiya yertakchilik qilmoqda. Bu jarayon tilning funksional samaradorligini ta'minlasa-da, milliy leksik an'analar nuqtayi nazaridan bahsli masalaga aylandi. Shu bois Verein Deutsche Sprache [7] kabi tashkilotlar nemis tilini ortiqcha anglitsizmlardan himoya qilish, muqobil milliy variantlarni taklif etish orqali puristik pozitsiyani ilgari surmoqda. Demak, nemis tilida globallashuv va purizm o'rtasida muayyan muvozanat mexanizmi shakllangan.

O'zbek tilida ham global iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasida marketing, brend, startap, frilanser, kontent kabi internatsional neologizmlar faol qo'llanmoqda. Ayniqsa, yoshlar va biznes muhitida bunday birliklar kommunikativ samaradorlik va zamonaviylik belgisi sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, davlat tili siyosati doirasida ayrim terminlarni milliylashtirish yoki o'zbekcha muqobillarini joriy etish tendensiyasi mavjud (masalan, sun'iy intellekt kabi kalka yoki tarjima usulidagi variantlar).

Tillararo aloqa jarayonida quyidagi lingvistik mexanizmlar kuzatiladi:
to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish;
kalkalash (semantik yoki tarkibiy ko'chirish);
gibridlashuv (chet til asosi + milliy affiks);
semantik kengayish.

Bu mexanizmlar neologizmning milliy til tizimiga moslashuv darajasini belgilaydi. Agar nemis tilida anglitsizmlar, ko'p hollarda asl shaklda saqlansa, o'zbek tilida ular morfologik jihatdan moslashib, milliy qo'shimchalar qabul qilishi kuzatiladi ("like bosmoq", "post qilmoq" kabi).

Shunday qilib, globallashuv neologizmlar faollashuvini kuchaytiruvchi kuchli tashqi omil bo‘lib, u til tizimini internatsionallashtirishga olib keladi. Biroq har ikki tilda ham milliylikni saqlab qolish va til siyosati omillari bu jarayonni muayyan darajada tartibga solib, global ta’sir va milliy meyor o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

Neologizm ko‘p hollarda muayyan ijtimoiy qatlam, yosh guruhi yoki kasbiy jamoani ajratib turuvchi nutqiy belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan, bunday birliklar guruh ichidagi hamjihatlikni mustahkamlash, “biz” va “ular” chegarasini belgilash hamda kommunikativ yaqinlikni ta’minlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Demak, neologizm nafaqat nomlash, balki identifikatsion vazifani ham bajaradi.

Germaniya yoshlar tilida cringe, lost, Digga kabi birliklar muayyan submadaniy muhitga mansublikni ifoda etadi. Bunday so‘zlar, aksariyat hollarda ingliz tili ta’sirida shakllanib, ijtimoiy tarmoq va videoplatformalar orqali ommalashmoqda. Ularning qo‘llanilishi muloqot ishtirokchilarining yosh, raqamli madaniyatga yaqin va global trendlardan xabardor ekanini anglatuvchi ramziy belgiga aylandi.

O‘zbek yoshlar nutqida ham trend, like bosmoq, top, xayp kabi gibrid yoki o‘zlashma birliklar keng tarqalgan. Bu yerda chet til asosi milliy morfologik vositalar bilan uyg‘unlashib, gibrid tuzilmalar hosil qiladi. Bunday leksemalar yoshlar orasida zamonaviylik, erkinlik va raqamli muhitga integratsiyalashganlikni ifoda etadi. Shu bilan birga, ular katta yoshdagi nutq egalari uchun noan’anaviy yoki me’yorga zid, deb baholanishi mumkin, bu holat tildagi avlodlararo farqni yaqqol namoyon qiladi.

Ijtimoiy guruhga xos neologizmlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

guruh identifikatsiyasi va ichki birdamlikni mustahkamlash;

nutqiy tejamkorlik (qisqa va ekspressiv ifoda);

emotsional baho munosabatini kuchaytirish;

kommunikativ yaqinlikni ta’minlash.

Shu ma’noda, bunday neologizmlar pragmatik jihatdan yuqori imkoniyatga ega bo‘lib, ular orqali kommunikant o‘z nuqtayi nazari, madaniy mansubligi va ijtimoiy maqomini bildiradi. Demak, ijtimoiy guruh va identifikatsiya omillari neologizmlar faollashuvini kuchaytiruvchi muhim sotsiolingvistik mezon hisoblanadi va ularning pragmatik hamda ekspressiv vazifasini kuchaytiradi.

Iqtisodiy modernizatsiya, innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiya jarayonlari zamonaviy jamiyatda yangi konsept, texnologiya va ishlab chiqarish modellarini shakllantirmoqda. Bu holat, tilda mutlaqo yangi terminologik maydonning yuzaga kelishini taqozo etadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida neologizmlar, avvalo, maxsus sohaviy diskursda (iqtisod, IT, startap muhiti, sanoat) paydo bo‘lib, keyinchalik umumxalq nutqiga ko‘chadi.

Germaniyada “Industrie 4.0” konsepsiyasi sanoatni raqamli boshqarish, avtomatlashtirish va kiber-fizik tizimlarni joriy etish g‘oyasi bilan bog‘liq holda shakllandi. Shuningdek, Künstliche Intelligenz, Big Data, Blockchain kabi atamalar ilmiy-texnik diskurs orqali ommalashib, iqtisodiy siyosat va ta’lim sohasiga ham kirib bordi. Bunday birliklar, dastlab mutaxassislar doirasida qo‘llansa-da, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tizimi orqali keng jamoatchilikka tarqaladi.

O‘zbek tilida ham iqtisodiy islohotlar va innovatsion ekotizim shakllanishi bilan bog‘liq holda sun’iy intellekt, raqamlashtirish, startap ekotizimi, venchur kapital, IT-park kabi neologizmlar faollashmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasida inglizcha terminlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilishi yoki kalkalash orqali kirib kelishi kuzatiladi. Bu jarayon tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, uning terminologik tizimini boyitadi.

Iqtisodiy va texnologik taraqqiyot ta’sirida neologizmlar quyidagi bosqichlar orqali faollashadi:

sohaviy mutaxassislik doirasida paydo bo‘lish;

normativ hujjatlar va strategiyalarda mustahkamlanish;

media va ta’lim orqali ommalashish;

umumleksik qo‘llanishga o‘tish.

Bunday neologizmlar, ko‘pincha xalqaro xususiyatga ega bo‘lib, global iqtisodiy makon bilan bog‘liq semantik birliklarni ifoda etadi. Shu jihatdan, iqtisodiy modernizatsiya tilning leksik tarkibini yangilashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va uni innovatsion jamiyat ehtiyojlariga moslashtiradi. Demak, iqtisodiy va texnologik taraqqiyot neologizmlar faollashuvining muhim ijtimoiy omillari bo‘lib, tilning terminologik tizimini yangilash bilan birga xalqarolashuv jarayonini tezlashtiradi.

Natijalar. Nemis va o‘zbek tillarida neologizmlar faollashuvi ijtimoiy ta’sir qonuniyatlariga bo‘ysunadi va umumsotsiolingvistik mexanizmlar asosida kechadi. Har ikki tilda ham neologik birliklar, avvalo, jamiyatdagi tub o‘zgarishlarga javob sifatida yuzaga keladi. Ijtimoiy-siyosiy transformatsiya, iqtisodiy modernizatsiya va madaniy yangilanish yangi konseptlarni nomlash ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Biroq qiyosiy tahlil ayrim farqli jihatlarni ham ko‘rsatadi. Nemis tilida puristik tendensiyalar muayyan darajada institutsionallashgan bo‘lib, Verein Deutsche Sprache kabi jamoat tashkilotlari orqali anglitsizmlarga nisbatan tanqidiy munosabat shakllantiriladi va milliy muqobillar ilgari suriladi. O‘zbek tilida esa til siyosati davlat darajasida tartibga solinadi; milliylashtirish, terminlarni tarjima qilish va meyorlashtirish jarayonlari rasmiy institutlar orqali amalga oshiriladi. Demak, nemis tilida purizm ko‘proq jamoatchilik tashabbusi ko’rinishida namoyon bo‘lsa, o‘zbek tilida normativ jarayonlar markazlashgan xarakterga ega. Shu tariqa, neologizmlar faollashuvi til tizimining ichki evolyutsiyasidan ko‘ra, ijtimoiy muhit, institutsional omillar va madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan sotsiolingvistik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon til va jamiyat o‘rtasidagi dialektik munosabatning yaqqol ifodasi bo‘lib, har ikki tilda ham global ta’sir va milliy meyor o‘rtasidagi muvozanat orqali shakllanadi.

Xulosa. Neologizmning faollashuvi tilning ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini ta’minlovchi murakkab mexanizmlar majmuasi bilan bog‘liq. Ijtimoiy o‘zgarishlar, yangi tajriba va kommunikatsiya shakllari tilda mavjud nomlash vositalarini kengaytirishni taqozo qiladi. Ana shu sharoitda neologizm ijtimoiy ehtiyojga javob beruvchi samarali leksik vosita sifatida shakllanadi. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va yoshlar submadaniyati yangi so‘zning tez tarqalishi va ijtimoiy qabul qilinishida muhim omil hisoblanadi. Neologizm orqali muayyan guruhga mansublik, ijtimoiy baho va emotsional munosabat ifodalanadi. Demak, yangi leksik birlik tilda nafaqat nomlash, balki ijtimoiy mansublikni ifodalash va kommunikativ samaradorlikni ta’minlovchi vosita vazifasini ham bajaradi. Bu holat til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning leksik darajada yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Voskresenskaya N.A. Semanticheskaya tipologiya leksiki pandemii: kovid-neologizmy v angliyskom, frantsuzskom i nemetskom yazykakh // Nauchnyy dialog. – 2022. – T. 11. – No. 3. – S. 48–61.

2. Desheriev Yu.D. Vliyanie sotsial’nykh faktorov na funktsionirovanie i razvitie yazyka. – Moskva: Nauka, 1988. – 200 s.

3. Dmitrieva O.A., Vanyushina N.A. Neologizmy epokhi pandemii COVID-19 (na materiale russkogo i nemetskogo yazykov) // Mir lingvistiki i kommunikatsii: elektronnyy nauchnyy zhurnal. – 2021. – No. 2. – S. 48–62.

4. Melyaeva A. i dr. Sotsial’naya obuslovlennost’ protsessov neologizatsii v sovremennoy kommunikatsii // International Journal of Humanities and Natural Sciences. – 2026. – Vol. 1–1 (112). – S. 301–304.

5. Busse D. Diskurslinguistik als Kontextualisierung – sprachwissenschaftliche Überlegungen zur Analyse gesellschaftlichen Wissens // Diskurslinguistik nach Foucault. Theorie und Gegenstände / hrsg. von I.H. Warnke. – Berlin; New York, 2007. – S. 81–105.

6. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 182 p.

7. Verein Deutsche Sprache [Elektron resurs]. – URL: http://www.vds-ev.de/ (murojaat sanasi: 24.11.2023).

Kosimov Ubaydullo Ahrorovich
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrasi mudiri,
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

TA'LIM METODINI TO‘G‘RI TANLASH SAMARADORLIK OMILI

Annotatsiya. *Maqolada dars shakli, turi, va vositasini tanlash va samarali qo‘llashning pedagogik jihatlari tavsiflangan va uni oqilona tanlashning afzalliklari zamonaviy o‘qituvchi faoliyatidagi roli ko‘rsatilgan*

Kalit so‘zlar: *metod, dars turi, oqilona tanlash, vosita*

ПРАВИЛЬНЫЙ ВЫБОР МЕТОДА ОБУЧЕНИЯ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ

Аннотация. *В статье описываются педагогические аспекты выбора и эффективного использования формы, типа и средств урока, а также показаны преимущества его рационального выбора и его роль в работе современного учителя.*

Ключевые слова: *метод, тип урока, рациональный выбор, средства.*

THE CORRECT SELECTION OF TEACHING METHODS AS A FACTOR OF EFFECTIVENESS

Abstract. *The article describes the pedagogical aspects of the choice and effective use of the form, type, and tool of the lesson, and the advantages of its rational choice are shown in the role of the modern teacher.*

Key words: *method, type of lesson, rational choice, tool*

Har bir o‘qituvchi metodlar xilma-xiligi mavjud ekanligidan ozmi ko‘pmi ma'lumotga ega bo‘lsada. lekin ayni shu darsda qaysi metodlarni tadbiq qilish kerakligi to‘g‘risida unga bevosita yo‘riqnoma berilmagan. Har bir fan uchun, har bir dars uchun standartlashtirilgan metodlar majmuasini berish amaliy jihatdan mumkin emas. Metodni o‘qituvchi o‘zi tanlaydi, bu uchun metodlarning umumiy turlarini bilish va ulardan foydalana bilish maxoratiga ega bo‘lishi kerak(metodlar shkalasi har bir o‘qituvchining yon daftarida yozalgan bo‘lishi kerak).Aslida metodni o‘qituvchiga darsni qanday tashkil etish bo‘yicha beriladigan tavsiyalar majmuasi deb tushunish mumkin. Metodlarning tanlanishi asosida darsning shakli aniqlanadi. Hozirgi kunda metodik adabiyotlarda ko‘plab o‘qitish metodlari ishlab chiqilgan bo‘lib ular o‘qituvchilarning amaliy faoliyati uchun tavsiya etilayapti.

Ayrim o‘qituvchilarning darslarini kuzatganda darsni qaysi metodda tashkil qilayotganligini aniqlashga qiynalib qolamiz, chunki o‘qituvchi goho u usulni, goho bu usulni qo‘llab bolalarda to‘g‘ri fikr oqimining bir maromda kechishiga xalaqit beradilar, natijada o‘quvchilar mavzu mazmuniga befarq, loqayd bo‘lib qoladilar. Metodni tanlashni nimadan boshlash kerak? Aynan shu darsga qaysi metodlarni qo‘llasa darsning maqsadi hal bo‘ladi? Bu savolarga o‘qituvchilar turlicha javob beradilar. Kimdir mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda tanlash lozim desa, boshqalari esa, dars ko‘rinishi va shaklidan kelib chiqqan holda tanlashni ma'qul ko‘radilar.

Metod darsning shakli, turiga qarab tanlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan: Dars amaliy mashg‘ulot darsi yoki, yozma ish olish(sinov) darsi bo‘lishi mumkin, bular darsning turi bo‘lib, shakl jihatdan jamoa faoliyati yoki indvidual faoliyat tartibida shakllantiriladi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, darsda qo‘llaniladigan metodlarini tanlash jarayoni quyidagi tartibda amalga oshadi:

Dastlab darsning turi aniqlanadi. Bular yangi bilimlar beriladigan dars, bilimlarni takomil-lashtirish(masala va mashklar ishlash, takrorlash) darsi, bilimlarni umumlashtiruvchi dars, amaliy mashg‘ulotlar; nazorat darslari va xokazo.

Keyin dars metodlarining shu dars turiga mosligi tanlanadi.

Dars turlariga muvofiq ayrim metodlarni tanlash namunasini quyidagi jadvalga keltiramiz:

Metodlar	Darslarning ko‘rinishlari				
	Yangi bilimlar beriladigan dars	Bilimlarni takomil-lashtirish (mashk msalalar yechish, tak-rorlash) darsi	Umumlash-tiruvchi dars	Amaliy mashgulotlar darsi	Nazor at darsi
Ma'ruza	+				
Lobarotoriya Metodi				+	+
Aqliy hujum	+		+		
Ish o‘yini		+	+		
Pinbord usuli		+	+		
Muammoli topshiriqli metod	+	+	+		
Indvidual metod			+	+	+
Loyixalash metod		+	+	+	

Har bir metodni qo‘llashda o‘qituvchi quyidagilarga amal qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Ma'ruza metodida: o‘quv materialni o‘z fikri orqali erkin ishonchli, mantiqiy, savodli, hissiyot bilan bayon eta olish, asosiy ma'noni ajrata olish va ko‘rsata olish mantiqiy izchilligi asosida bayon qilish, zarur hollarda yozdirish, nutq va pedagogik takt texnikasini mukammal bilish, o‘quvchilarni pedagogik usullar bilan faollashtirish.

Laboratoriya metodida: tajribalar o‘tkazish samarali texnikasini egallash, eksprement va tadqiqotlar bilan shug‘ullanish, zamonaviy laboratoriya asboblari bilan ishlash va virtual kompyuterli labora toriyalardan foydalanish malakasiga ega bo‘lish. Laboratoriya natijalarini hayot bilan bog‘lay olish.

Aqliy hujum metodida: muammoni to‘g‘ri qo‘ya bilish, g‘oyalarni to‘g‘ri ifodalash, fikrlarni asoslay bilish, darsining ssenariyasini ishlab chiqish va uni boshqarib borish.

Didaktik o‘yinlar metodida: uyining rejasini tuza olish, vaziyat yuzaga keltirish, uyinda ishtirok etuvchilarni tanlash, ishtirokchilarni o‘yin maqsadiga yo‘llash va natijaga erisha bilish. O‘quvchilarning umumlashtirish va xulosalar chiqarishga o‘rgatish, shuningdek savol berish texnikasiga o‘rgatish. Hayotda qo‘llanish jihatlarini ocha olish.

Pinbord usuli metodida: topshiriqni ifodalay olish, javoblar va savollar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni belgilash va xulosalar chiqara olish. savol –javobli ta'limni tashkil etish.

Muammoli topshiriqlar metodida: muammoli topshiriqlarni tayyorlay bilish, muammo doirasini belgilash. turli tipdagi muammoli mashqlarni ishlashni aniqlab tashkil etish va ularni hal qilishga o‘quvchilar faoliyatini yunaltira bilish, yakunlash va xulosalay olish.

Indvidual dars metodida: maxsus tayyorgarlik ko‘rish va individual psixologik xususiyatlarga mos kognitiv sifatlarni rivojlantiruvchi ta'lim-tarbiya texnikasini qo‘llay olish.

Loyihalash metodida: loyihaning mavzusini va maqsadlarini to‘g‘ri tanlay olish, tasniflash va amal qilish doirasini iщlab chiqish. uning ishtirokchilari bilan ishlashda ta'lim texnologiyalarini oqilona tanlay olish va o‘quvchilar faoliyatini unga yunaltira bilish.

Umuman olganda metodlarni oqilona tanlash ularni samarali qo‘llash o‘qituvchining mohirligiga bog‘liq. Ayrim o‘qituvchilar zarur metodni tanlay olmaydi, buning sababi shundaki, o‘qituvchi o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini bilmaydi, undan foydalana olmaydi. Masalan, o‘qituvchi nutqiy qobiliyati rivojlangan bo‘lsa, bunday o‘qituvchi uchun ma'ruza, suhbat, savol-javob darslari maqsadga muvofiq keladi.

Ayrim o‘qituvchilar darsini muammo qo‘yish bilan boshlaydi, bu ham o‘ziga xos usul bo‘lib o‘qituvchining indvidualligiga bog‘liq. Agar o‘qituvchi o‘z ustida ishlasa va nazariyani o‘qisa (pedagogik nazariya), metodlarni oqilona tanlashda o‘z imkoniyatini, mavzu mazmun va o‘quvchilar tayyorgarlik darajasini bir-biriga bog‘lay olsa, to‘g‘ri metodlarni tanlay oladi va ishlata biladi.

Har qanday ta'limni amalga oshirish biror–bir vositasiz bo‘lmaydi. So‘zlash, tushuntirish, ko‘rsatish, shittirish, jalb qilish. harakat qildirish va hakozolar bilimni o‘zlashtirish vositalari hisoblanadi. Odatda biz ko‘rgazma deganda; qog‘ozga chizilgan, yasalgan biror bir tasvir taqdimot yoki namunadan foydalanishni tushunamiz. Agar biz ko‘rsatayotgan narsalarimiz harakat qilsa, u texnika vositasiga aylanadi. Eng oddiy harakat vositasi bu o‘qituvchining doskaga bo‘r bilan chizayotgan holati. Ushbu harakat jamlanmasini ham texnika vositasi deb qarash mumkin. Aytish joizki, har qanday yangi tushunchani, bilimni idrok etish, uni tasavvur qilish uchun uning tabiiy nusxasi bo‘lishi kerak. Agar shunday nusxa bo‘lmasa uning modeli bo‘lishi zarur. Ko‘rgazma o‘qituvchi uchun yillar davomida xizmat qiladigan eng yaqin yordamchi hisoblanadi. Ko‘rgazmalar bevosita foydalanadigan, namoyish etiladigan va tajribalarda qo‘llaniladiganlarga bo‘linadi. Bevosita foydalanadigan ko‘rgazmalarga quyidagilar kiradi; didaktik ta'minotni boyituvchilar bularga topshiriqlar, savollar yozilgan kartotekalar, kichik hajmdagi rangli rasmlar, ko‘rgazmali slayd taqdimotlari, mulyajlar va boshqalar shular jumlasidandir. Namoyish etiladigan ko‘rgazma vositalariga kinolavhalar, videolavhalar, slayd taqdimotlar, rang tasvir chizilgan katta hajmdagi suratlar kiradi. Tajribalarda ishlatiladigan asboblar, qo‘llaniladigan ko‘rgazmalar hisoblanadi. Ta'lim vositalarini quyidagicha turlash mumkin:

1. Noverbal vositalar: imo-ishora, qo‘l, gavda harakatlari orqali biror ma'no-mazmunni ifodalash yoki ta'kidlash.

2. Vizual (ko‘rgazmali) ta'lim jarayonida o‘quvchilar ko‘z bilan ko‘rishlari uchun mo‘ljallangan barcha vositalar.

3. Audivizual vositalar: bir vaqtning o‘zida eshitish va ko‘rishga xizmat qiluvchi vositalar hisoblanadi.

4. Tabiiy vositalar: ta'lim jarayonida o‘rganish ko‘zda tutilgan barcha tibiiy vositalar (odam, jonivorlar, o‘simliklar, asbob-uskunalar, mashina mexanizimlar va boshqalar).

Ayrim o‘qituvchilar ko‘rgazma vaositalardan o‘z o‘rnida foydalana olmaydi, ularning darslarida ko‘rgazmalar shunchalik ko‘payib ketadiki natijada o‘qituvchi ko‘rgazmaning qaysi birini ishlatishni bilmay to‘g‘ri kelganini tadbiq qilaveradi. Bunday hollarda izchillik, mantiqiylik o‘z-o‘zidan so‘nadi, o‘quvchi asosiy fikrdan chalg‘iydi va jarayoning bundan keyingi borishiga e'tiborsizlik bilan qaraydi. Ta'lim vositalaridan oqilona foydalana olishlik, dars natijaviyligini oshiradi va o‘zlashtirishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Хасанбоева О. va boshq. Pedagogika tarixi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2004. – 312 b.

2. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – 112 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim portali [Elektron resurs]. – URL: https://www.edu.uz (murojaat sanasi: ko‘rsatiladi).

4. Ziyonet axborot-ta’lim portali [Elektron resurs]. – URL: https://www.ziyonet.uz (murojaat sanasi: ko‘rsatiladi).

Haydarov Anvar Askarovich
Buxoro davlat universiteti professori
E-mail: a.a.haydarov@buxdu.uz,
Shamsullayeva Dildora Sunnatullo Qizi
Buxoro davlat universiteti I bosqich magistr
E-mail:shamsullayevadildora@gmail.com

BUTUN–BO‘LAK MUNOSABATLARINING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada butun–bo‘lak munosabatlarining nazariy asoslari formal mereologiya va lingvistik meronimiya doirasida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu munosabatning tranzitivlik xususiyati, strukturaviy va funksional mezonlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, formal va noformal yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi inson tafakkuri modeli bilan bog‘liq holda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *butun–bo‘lak munosabati, mereologiya, meronimiya, partonomiya, tranzitivlik, semantik model.*

THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF PART–WHOLE RELATIONS AND THEIR SIGNIFICANCE

Abstract*. This article analyzes the theoretical foundations of part–whole relations within formal mereology and linguistic meronymy. The study focuses on transitivity, structural and functional criteria of part–whole relations and their role. The complementarity of formal and cognitive approaches is emphasized.*

Key words: *part–whole relation, mereology, meronymy, transitivity, semantic model.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОТНОШЕНИЙ ЧАСТЬ–ЦЕЛОЕ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. *В статье анализируются теоретические основы отношений часть–целое в рамках формальной мереологии и лингвистической меронимии. Рассматриваются вопросы транзитивности, структурных и функциональных критериев. Подчеркивается взаимодополняемость формального и когнитивного подходов.*

Ключевые слова: *отношение часть–целое, мереология, меронимия, транзитивность.*

Butun–bo‘lak munosabati inson tafakkurining eng qadimiy ontologik modellaridan biri hisoblanadi. Inson borliqni yaxlit holda emas, balki tarkibiy tuzilma sifatida idrok etadi. Har qanday obyekt, hodisa yoki jarayonni anglash jarayonida uning tarkibiy qismlarini ajratish va ularning o‘zaro aloqalarini aniqlash mexanizmi ishga tushadi. Shu sababli butun–bo‘lak aloqalari nafaqat mantiqiy-falsafiy, balki kognitiv jarayon sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

XX asrda Edmund Gusserl, Stanislav Leśniewski, Leonard va Gudman tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar mereologiyaning zamonaviy shakllanishiga asos bo‘ldi.

Mereologiyada ikki asosiy tamoyil mavjud:

Dekompizitsiya - butundan bo‘laklarga o‘tish;

Kompozitsiya - bo‘laklardan butun hosil qilish.

Formal nazariyada butun–bo‘lak munosabati quyidagi xususiyatlarga ega deb qaraladi:

tranzitivlik;

assimetriya;

refleksiv emaslik;

iyerarxiklik.

Biroq formal yondashuv inson tafakkurining barcha murakkab jihatlarini to‘liq qamrab ololmaydi. Formal nazariyada butun–bo‘lak munosabati mereologiya doirasida ishlab chiqilgan. Stanislav Leśnievski mereologiyani “butun va uning qismlari o‘rtasidagi umumiy formal munosa-

batlar nazariyasi" sifatida tavsiflaydi. Bu yondashuvda butun–bo‘lak aloqalari mantiqiy qat’iylik asosida quriladi va ularning asosiy xususiyatlari sifatida tranzitivlik, assimetriya va refleksiv emaslik belgilanadi.

Biroq Edmund Husserl butunni oddiy yig‘indi emas, balki strukturaviy birlik sifatida ko‘rib, “a whole is not merely a sum of parts, but a structured unity” deb ta’kidlaydi. Bu yondashuv inson tafakkurining strukturaviy idrok modelini aks ettiradi. Ya’ni inson butunni qismlarning oddiy yig‘indisi sifatida emas, balki ma’noli tizim sifatida qabul qiladi. Demak, mereologik model formal aniqlikni ta’minlasa-da, insonning tabiiy kognitiv jarayonlarini to‘liq qamrab olmaydi.

Butun–bo‘lak munosabatini aniqlashda eng muhim masalalardan biri “qism” (part) va “bo‘lak” (piece) tushunchalarini farqlashdir. Ontologik nuqtai nazardan qism butunning strukturaviy yoki funksional elementi hisoblanadi, bo‘lak esa tasodifiy yoki mexanik ajratilgan fragment bo‘lishi mumkin.

Gerstl va Pribbenow ta’kidlaganidek, “not every piece of an object qualifies as a part” Bu fikr qism tushunchasining quyidagi mezonlarga ega ekanini ko‘rsatadi:

1. Strukturaviy integrallik

Qism butunning ichki tuzilmasiga kiradi va u bilan sistematik bog‘langan bo‘ladi. Masalan, yurak tananing qismi hisoblanadi, biroq kesib olingan to‘qima parchasini tana qismi deyish qiyin.

2. Funksional aniqlik

Qism butun tizimda muayyan vazifa bajaradi. Masalan, g‘ildirak avtomobilning harakat funksiyasini ta’minlaydi. Tasodifiy singan detal esa funksional butunlikni yo‘qotgan bo‘lishi mumkin.

3. Noarbitrarlik

Qism sun’iy ravishda ajratilmaydi, balki tabiiy chegaralarga ega. Inson tafakkuri obyektni “tabiiy chegaralar” asosida qismlarga ajratadi.Bundan kelib chiqadiki, qism–bo‘lak farqi insonning obyektni qanday idrok etishi bilan bog‘liq. Bu yerda inson omili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Inson obyektni qismlarga ajratishda quyidagi mezonlarga tayanadi:

Perseptiv chegaralar – ko‘z bilan ajratish mumkin bo‘lgan tabiiy chiziqlar;

Funksional rol – qismning butundagi vazifasi;

Strukturaviy integratsiya – qismning butun tizimdagi barqaror o‘rni;

Prototipiklik – kognitiv modeldagi “tipik qism” tushunchasi.

Formal mereologiyada qism–butun munosabati tranzitiv hisoblanadi. Agar A - B ning qismi, B - C ning qismi bo‘lsa, unda A - C ning qismi bo‘ladi. Biroq Winston, Chaffin va Herrmann shuni ko‘rsatadiki, qism–butun munosabatlari bir xil mantiqiy xulq-atvorga ega emas: “Part-whole relations are not uniform; they differ in logical behavior and cognitive status”.

Nega tranzitivlik buziladi?

1. Domen chegaralari

Masalan:

Tutqich → eshik

Eshik → uy

Ammo: tutqich → uy (nutqda g‘alati)

Bu yerda inson kognitiv modeli “uy” tushunchasini yuqori darajadagi makro-struktura sifatida qabul qiladi va juda kichik detallarni bevosita bog‘lamaydi.

2.Funksional bog‘liqlik darajasi

Agar quyi darajadagi element yuqori darajadagi butun bilan bevosita funksional aloqaga ega bo‘lmasa, tranzitivlik intuitiv ravishda inkor qilinadi.

3.Kognitiv salohiyat

Inson tafakkuri iyerarxiyani cheksiz chuqurlikda qayta ishlamaydi. U o‘rtacha darajadagi abstraksiya bilan ishlaydi.Shu sababdan formal mantiqiy tranzitivlik va insonning kognitiv tranzitivligi har doim ham mos kelmaydi.

Partonomik munosabatni aniqlash uchun ikki asosiy sintaktik test qo‘llanadi:

“Y ning X lari bor” (Y has Xs)

“X - Y ning bir qismi” (X is a part of Y)

Masalan:

“Qo‘lning barmoqlari bor.”

“Barmoq - qo‘lning bir qismi.”

Faqat haqiqiy partonimlar har ikkala testdan ham muvaffaqiyatli o‘tadi. Biroq bu test ayrim intuitiv ravshan qism–butun munosabatlarini qamrab ololmaydi. Masalan:

“Xalta tutqichga ega.”

“Tutqich - xaltaning bir qismi.”

Shuningdek:

“Gul kosachabarglarga ega.”

“Kosachabarg - gulning bir qismi.”

Shu sababli kengroq test taklif qilinadi:

“Y ning qismlariga X, Z va boshqalar kiradi.”

Masalan:

“Gulning qismlariga kosachabarglar va gulbarglar kiradi.”

“So‘zning qismlariga o‘zak kiradi.”

“Eshikning qismlariga tutqich va qulf kiradi.”

Zaruriylik va ixtiyoriylik

Meronimik munosabatlarda muhim omillardan biri - zaruriylik va ixtiyoriylik darajasidir.

Masalan:

Barmoq qo‘lning zaruriy (kanonik) qismidir.

Tutqich eshikning ixtiyoriy (fakultativ) qismidir.

Zaruriylik mantiqiy majburiylikni anglatmaydi, balki odatiy, normativ holatni bildiradi. Masalan, inson bir qulog‘ini yo‘qotsa ham tana mavjud bo‘lib qoladi, biroq quloq baribir tananing kanonik qismi hisoblanadi. Meronim va holonim o‘rtasida kongruentlik (moslik) va tranzitivlik (o‘tuvchanlik) muammolari yuzaga keladi. Ba’zi hollarda meronimik munosabat to‘liq tranzitiv bo‘lmaydi.

Shu tarzda, partonimiyani aniqlash quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Qism va bo‘lak farqlari (funksional, strukturaviy, avtonomlik).

Zaruriy va fakultativ qism (kanonik va no-kanonik holatlar).

Kongruentlik va tranzitivlik masalalari.

Leksik semantika orqali qism–butun ierarxiyasini aniqlash.

Partonimiya inson omili bilan bog‘liq bo‘lib, axborotni qidirish, bilimlarni tashkil etish va ontologiyalarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Xulosa qilib aytganda, butun–bo‘lak munosabatlari inson tafakkuri va kognitiv modeli bilan chambarchas bog‘liq. Formal mereologik nazariyalar qism–butun aloqalarini mantiqiy qat’iylik asosida tushuntirsa-da, insonning obyektlarni idrok etishi, ularning funksiyasi va strukturasini tushunishi partonimiyaning intuitiv va amaliy ishlashida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli, axborot tizimlari, ontologiyalar va bilimlarni tashkil etishda qism–butun munosabatlarini inson omilini hisobga olgan holda loyihalash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Cruse D.A. Meaning in language: An introduction to semantics and pragmatics. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2004.

2. Gerstl P., Pribbenow S. Midwinters, end games, and body parts: A classification of part-whole relations // International Workshop on Formal Ontology in Conceptual Analysis and Knowledge Representation / ed. by N. Guarino, R. Poli. – Ladseb-CNR, 1993. – P. 251–260.

3. Husserl E. Logical investigations / trans. by J.N. Findlay. – London: Routledge & Kegan Paul, 1970.

4. Leśniewski S. Foundations of the general theory of sets // Stanisław Leśniewski: Collected works / ed. by S. Surma, J. Srzednicki, D. Barnett, V. Rickey. – Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1992. – P. 129–173.

5. Wierzbicka A. Semantics: Primes and universals. – Oxford: Oxford University Press, 1996.

Saidova Nilufar Nizomovna
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
Psixologiya yo'nalishi magistranti
E-mail: nilufarsaidova@gmail.com

MUVAFFAQIYATLI FARZAND KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY OTA-ONALAR TARBIYA USLUBLARIGA VA BOLA PSIXIKASIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada muvaffaqiyatli farzand konsepsiyasining zamonaviy ota-onalar tarbiya uslublariga ta'siri va bu konsepsiyaning bola psixikasiga olib keladigan oqibatlari tahlil qilinadi. Diana Baumrind klassifikatsiyasiga asoslanib, avtoritar, authoritative (muvozanatli), permissive va neglectful tarbiya uslublari batafsil ko'rib chiqiladi. Har bir uslubning "muvaffaqiyatli farzand" g'oyasi bilan bog'liqligi, bola psixikasiga (o'zini baholash, xavotir, motivatsiya, emotsional holat) va kelajak hayotiga (mustaqillik, ijtimoiy munosabatlar, ruhiy salomatlik, kasbiy muvaffaqiyat) ta'siri ochib beriladi. Avtoritar va qattiq nazoratga asoslangan uslublarning ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilinadi. Muvozanatli yondashuvning ahamiyati ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *muvaffaqiyatli farzand, tarbiya uslublari, bola psixikasi, avtoritar tarbiya, muvozanatli tarbiya, psixologik bosim, o'zini baholash, ruhiy salomatlik.*

ВЛИЯНИЕ КОНЦЕПЦИИ УСПЕШНОГО РЕБЕНКА НА СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ВОСПИТАНИЯ РОДИТЕЛЕЙ И ПСИХИКУ РЕБЕНКА

Аннотация. *В статье анализируется влияние концепции успешного ребенка на современные стили воспитания родителей и последствия этого влияния для психики ребенка. На основе классификации Дианы Баумринд подробно рассматриваются авторитарный, авторитетный (сбалансированный), permissive и neglectful стили воспитания. Раскрывается связь каждого стиля с концепцией «успешного ребенка», его влияние на психику ребенка (самооценка, тревожность, мотивация, эмоциональное состояние) и на будущее (самостоятельность, социальные отношения, психическое здоровье, профессиональный успех). Анализируются положительные и отрицательные стороны авторитарных и жестких стилей. Подчеркивается важность сбалансированного подхода.*

Ключевые слова: *успешный ребенок, стили воспитания, психология ребенка, авторитарное воспитание, сбалансированное воспитание, психологическое давление, самооценка, психическое здоровье.*

THE IMPACT OF THE CONCEPT OF A SUCCESSFUL CHILD ON THE PARENTING STYLES OF MODERN PARENTS AND THE CHILD'S PSYCHE

Annotation. *The article analyzes the influence of the successful child concept on modern parental parenting styles and the consequences of this influence on the child's psychology. Based on Diana Baumrind's classification, authoritarian, authoritative (balanced), permissive and neglectful parenting styles are examined in detail. The connection of each style with the "successful child" concept, its impact on the child's psyche (self-esteem, anxiety, motivation, emotional state) and on future life (independence, social relationships, mental health, professional success) is revealed. Positive and negative aspects of authoritarian and strict styles are analyzed. The importance of a balanced approach is emphasized.*

Key words: *successful child, parenting styles, child psychology, authoritarian parenting, balanced parenting, psychological pressure, self-esteem, mental health.*

Kirish. Farzand tarbiyasi har bir oila uchun asosiy mas'uliyat hisoblanadi. Ota-onalar farzandlarini muvaffaqiyatli qilish istagi bilan har xil yondashuvlarni qo'llaydi. Muvaffaqiyatli farzand g'oyasi bugungi oilalarda keng tarqalgan va ota-ona xatti-harakatlarini va jamiyatda ota-

onaning nufuzini belgilaydi. Bu konsepsiya bola kelajagini yuksak darajada tasavvur qilish, yuqori natijalarga erishish va jamiyatda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq. Ota-onalar farzandlarini maktabda, musobaqalarda va kasbiy faoliyatda ustun bo‘lishi uchun qat’iy qoidalar o‘rnatadi.Shu bilan birga nazoratning ham yuqoriligi bolaning individual hayot tarzini butkul izidan chiqaradi. Psixologiyada muvaffaqiyat sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuv tarbiya uslublarini o‘zgartiradi. Avtoritar va qattiq nazoratga asoslangan uslublar ko‘payishiga olib kelgan. Bola psixikasi esa bosim ostida qolgan. O‘zini baholash, motivatsiya va ijtimoiy munosabatlar buzilishini hozirgi vaqtda juda ko’p uchratishimiz mumkin.. Shu bilan birga, muvozanatli tarbiya bola rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (Baumrind, 1971; Nishanova & Alimova, 2006)[6;1].

Oila muhiti bola shaxsiyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar farzandlariga mehr berish bilan birga yuqori talablar qo‘yadi. Bu holat psixologik jihatdan murakkab vaziyatlar keltirib chiqaradi. Bolalar qo‘rquv, xavotir va past o‘z qadr-qimmat hissi bilan yuzlashadi. Bu jarayonda bolaning ichki o’ziga bo’lgan qoniqishi, hayotga bo’lgan qoniqishi pasayadi.Shu munosabat bilan bir qator tadqiqotchilar avtoritar tarbiyaning salbiy oqibatlarini ko‘rsatgan (Levine, 2006; Grolnick & Ryan, 1989).[5;4]

Muvaffaqiyat tushunchasi madaniy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Ba’zi oilalarda bu g‘oya oilaviy sharaf va kelajak kafolati sifatida qaraladi. Natijada ota-onalar bola hayotini to‘liq nazorat qilishga harakat qiladi. Psixologik adabiyotlarda bunday yondashuvning ijobiy va salbiy tomonlari muhokama qilinadi. Bolaning mustaqil fikrlash qobiliyati va emotsional barqarorligi xavf ostida qolishi mumkin.Ota-onalar tarbiya usullarini tanlashda bola individual xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Muvaffaqiyatli farzand g‘oyasi oila ichidagi munosabatlarni kuchaytirishi yoki zaiflashtirishi mumkin. Psixologik rivojlanish jarayonida ota-ona qo‘llab-quvvatlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqola mavzuni batafsil yoritishga qaratilgan. Tahlil orqali ota-onalar uchun foydali xulosalar chiqariladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy ota-onalar tarbiya amaliyotida “muvaffaqiyatli farzand” konsepsiyasining shakllanishi va ustuvor ahamiyat kasb etishi jamiyatdagi raqobat muhitining kuchayishi, ijtimoiy kutilmalar hamda muvaffaqiyatni asosan tashqi mezonlar (baholar, musobaqalar, qo‘shimcha darslar) asosida baholash tendensiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu jarayon bola shaxsining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, tarbiya va psixologiya sohasida muhim ilmiy muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Olimlarning ilmiy qarashlari bu masalaga turli nuqtayi nazardan yondashgan bo‘lsa-da, ularni yagona konseptual yo‘nalishda birlashtiruvchi jihat - bolaning psixologik farovonligini tarbiyaning markaziga qo‘yish zaruratidir. Xususan, rivojlanish psixologiyasi sohasida olib borilgan tadqiqotlarda Diana Baumrind ota-onalik uslublarining bola psixikasiga ta’sirini tizimli ravishda asoslab bergan. Uning fikricha, yuqori talab va qat’iy nazoratga asoslangan avtoritar uslublar bolaning tashqi intizomini kuchaytirishi mumkin, biroq ichki mustaqillik,ichki qoniqish emotsional barqarorlik va o‘ziga bo‘lgan ishonchni zaiflashtiradi. Bu holat “muvaffaqiyatli farzand” konsepsiyasining noto‘g‘ri talqin qilinishi bolaning psixologik rivojlanishiga xavf tug‘dirishini ko‘rsatadi. Baumrind ilgari surgan authoritative (muvozanatli) tarbiya modeli esa muvaffaqiyatni bola shaxsiy rivoji bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi (Baumrind, 1971).[6]

Mazkur qarashlar Carol Dweck tomonidan ishlab chiqilgan fikrlash modeli (mindset theory) nazariyasi bilan mantiqan uyg‘unlashadi. Dweckning tadqiqotlariga ko‘ra, muvaffaqiyatni faqat natija bilan o‘lchash bolada fixed mindset (qat’iy fikrlash)ni shakllantirib, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, psixologik bosim va ichki motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Aksincha, jarayon, sa’y-harakat va o‘sishga yo‘naltirilgan growth mindset (o‘sish fikrlashi) bolaning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi va muvaffaqiyatni shaxsiy rivojlanishning tabiiy natijasi sifatida qabul qilishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv “muvaffaqiyatli farzand” konsepsiyasini psixologik jihatdan sog‘lom shaklda qo‘llash zarurligini asoslaydi (Dweck, 2006).[2]

Mazkur ilmiy xulosalar o‘zbek pedagogik va psixologik tafakkurida ilgari surilgan g‘oyalar bilan hamohangdir. Zamonaviy o‘zbek psixologiyasi tadqiqotlari ota-onalarning yuqori kutilmalari va ijtimoiy taqqoslashga asoslangan tarbiya uslublarining bolada psixologik zo‘riqish,

emotsional beqarorlik va o‘zini past baholashni keltirib chiqarishini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Olimning fikricha, “muvaffaqiyatli farzand” konsepsiyasi bolaning individual imkoniyatlari, psixologik ehtiyojlari va yosh xususiyatlari bilan muvofiqlashtirilmagan taqdirda, tarbiya jarayoni ijobiy emas, balki salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin .

Shunday qilib, olimlarning ilmiy qarashlari o‘zaro uyg‘unlashgan holda shuni ko‘rsatadiki, “muvaffaqiyatli farzand” konsepsiyasi zamonaviy ota-onalar tarbiya uslublarida muvozanatli, insonparvar va psixologik jihatdan asoslangan yondashuv asosida qo‘llanilgandagina bolaning sog‘lom rivojlanishini ta’minlaydi. Muvaffaqiyatni faqat tashqi natijalar bilan emas, balki bolaning ichki farovonligi, motivatsiyasi va shaxsiy kamoloti bilan bog‘lab talqin qilish bugungi tarbiya jarayonining muhim ilmiy talabi hisoblanadi.

Metodologiya. Ushbu maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, mavjud ilmiy adabiyotlarning tizimli va sifatli ko‘rib chiqilishi asosida tayyorlangan. Adabiyotlar tanlashda quyidagi mezonlar qo‘llanilgan: mavzuning dolzarbligi, empirik va nazariy asoslanganligi, xalqaro (Baumrind, Dweck, Chua, Levine, Grolnick & Ryan) va milliy (Nishanova & Alimova, Jalilova) tadqiqotlarning uyg‘unligi.

Tahlil Diana Baumrindning tarbiya uslublari klassifikatsiyasi (Baumrind, 1971), Carol Dweckning fikrlash modeli (Dweck, 2006), Amy Chua ning “tiger parenting” tajribasi (Chua, 2011), Madeline Levine (Levine, 2006), Grolnick va Ryan (Grolnick & Ryan, 1989) ning ishlari, shuningdek, o‘zbekistonlik mualliflarning bolalar psixologiyasi va oilaviy muhit ta’siri bo‘yicha qo‘llanmalarini qamrab oladi.Tadqiqotning nazariy asosida Diana Baumrind(1971) tomonidan ishlab chiqilgan tarbiya uslublari klassifikatsiyasi tashkil etildi. Baumrinf ota-ona nazorati va hissiy qo’llab-quvvatlashning o’zaro mutanosibligiga ko’ra 4 xil modelini taklif etga. Tahlillar shuni sho’rsatadiki, demoktarik uslub bolada ijtimoiy kompitensiya va yuqori o’zini o’zi baholashni shakllantirsa, avtoritar va liberal uslub bolaning emotsional barqarorligiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Miliiy tadqiqotchilarimiz M.Nishanova va G.Alimova ham o’z ishlarida oiladagi muloqot madaniyatini bolaning xulq-atvor shakllanishida hal qiluvchi omil ekanligini takidlab, Baumrind modelining bizning madaniy muhitdagi o’ziga xos namoyon bo’lishini tahlil qiladilar.

Zamonaviy psixologiyada “muvaffaqiyatli farzand “ konsepsiyasi ikki qarama-qarshi qutbda muhokama qilinmoqda bir tomondan Ami Chua (2011) o’zining “tiger parenting” yondashuv orqali qatiiy intizom va o’ta yuqori akademik talablarni muvaffaqiyatning kaliti sifatida ko’rsatadi. Biroq Madeline Levine (2006) bu yondashuvni teskari effektini tadqiq etib, moddiy va akademik yutuqlarga qaramay, bolalarda ichki bo’shliq xavotir va o’zligini yuqotish hissi kuchayishini isbotlaydi. Levine bo’yicha ota-onalarning farzand hayotiga haddan tashqari aralashuvi bolaning mustaqil shaxs bo’lishiga to’sqinlik qiladi.

Bolaning muvaffaqiyatga bo’lgan munosabati Carol Dweak (2006) taklif etgan fikrlash modellari bilan bevosita bog’liq. Dweakning takidlashicha , bolaning tug’ma qobiliyati emas, balki uning mehnatini rag’batlantirish o’sishga yo’naltirilgan fikrlashni shakllantiradi. Bu qarash Grolnick va Ryan ning avtonomiyani qo’llab quvvatlash nazariyasi bilan uyg’unlashadi.Ularning tadqiqotlriga ko’ra, ota-onalar tomonidan beriladigan nazorat emas, balki tanlov huquqi va ichki tushuntirishlar bolaning ichki motivatsiyasini oshiradi.Bu esa uzoq muddatli muvaffaqiyatli garovidir.

S.Jalilova va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida oilaviy muhitning ruhiyatiga ta’siri o’zbekona mentalitet xususiyatlari mahalla-qarindoshlik aloqalari va jamoaviy tarbiya kontekstda o’rganiladi.G’arb modellaridagi shaxsiy avtonomiya tushunchasi milliy adabiyotlarda katta hurmat va ijtimoiy andisha bilan muvozanatlashtiriladi. Tahlilar shuni ko’rsatadiki, muvaffaqiyat konsepsiyasi bizning sharoitda nafaqat individual yutuq, balki oilaning ijtimoiy nufuzi va bolaning ma’naviy-axloqiy qiyofasi bilan yaxlit holda ko’riladi.

Shu nazariyatlar va tadqiqotlar asosida ma’lumotlar tematik guruhlash orqali tizimlashtirildi: “muvaffaqiyatli farzand” konsepsiyasining tarbiya uslublariga ta’siri, har bir uslubning bola psixikasiga va kelajak hayotiga ta’siri. Sifat tahlil usuli yordamida adabiyotlardan olingan asosiy xulosalar solishtirildi va umumlashtirildi.Tahlil jarayonida faqatgina akademik natijalar emas, balki oddiy ota-onaning “Mening farzandim muvaffaqiyatli bo’lsin “ degan istagi ortida

nima turgani o'rganildi.Ko'pchilik ota-onalar uchun bu ijtimoiy nufuz sohasidagi "bolamning kelajagi uchun" degan noto'g'ri fikr yotibdi.

Natija. Tahlil natijalariga ko'ra, "muvaffaqiyatli farzand" konsepsiyasi zamonaviy ota-onalar tarbiya uslublarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Diana Baumrindning tadqiqotlariga asoslanib, tarbiya uslublari to'rt turga bo'linadi: avtoritar, authoritative (muvozanatli), permissive va neglectful (Baumrind, 1971).[6]

Avtoritar uslub (yuqori talabchanlik – past mehr va muloqot). "Muvaffaqiyatli farzand" g'oyasi bu uslubni eng ko'p kuchaytiradi. Ota-onalar qat'iy qoidalar o'rnatadi, bola fikrini hisobga olmaydi, xatolar uchun jazo qo'llaydi va itoatkorlikni talab qiladi. Qisqa muddatda bola akademik jihatdan muvaffaqiyatli va itoatkor bo'ladi. Biroq psixik jihatdan bola xatolaridan qo'rqadi, o'zini past baholaydi, xavotir va depressiya darajasi yuqori bo'ladi. Kelajakda mustaqil qaror qabul qilish, ijodkorlik, ijtimoiy ko'nikmalar va emotsional barqarorlik zaiflashadi. "Tiger parenting" (Amy Chua) uslubi avtoritar uslubning zamonaviy shakli bo'lib, yuqori bosim natijasida emotsional charchoq va ota-onalar bilan aloqa uzilishi kuzatiladi (Baumrind, 1971; Chua, 2011).[6;3]

Authoritative (muvozanatli) uslub (yuqori talabchanlik – yuqori mehr va ochiq muloqot). Bu uslub "muvaffaqiyatli farzand" konsepsiyasini ijobiy yo'nalishga buradi. Ota-onalar yuqori natijalarni talab qiladi, lekin qoidalarni tushuntiradi, bola fikrini eshitadi va mehr ko'rsatadi. Natijada bola o'zini ishonchli his qiladi, ichki motivatsiyasi yuqori bo'ladi, o'zini baholashi yaxshi saqlanadi. Psixik jihatdan xavotir past, emotsional barqarorlik yuqori. Kelajakda akademik va kasbiy muvaffaqiyat, mustaqillik, ijtimoiy munosabatlar va ruhiy salomatlik eng yaxshi ko'rsatkichlarni beradi. Tadqiqotlar bu uslubni eng samarali deb baholaydi (Baumrind, 1971; Grolnick & Ryan, 1989).[6;4]

Permissive (erkin) uslub (past talabchanlik – yuqori mehr). "Muvaffaqiyatli farzand" g'oyasi bu uslubni zaiflashtiradi, chunki ota-onalar yuqori talablarni qo'ymaydi. Bola chegaralarni bilmaydi, o'zini boshqarish va mas'uliyat qobiliyati rivojlanmaydi. Psixik jihatdan o'zini baholashi ba'zan yuqori bo'lsa-da, intizom va o'quv motivatsiyasi past bo'ladi. Kelajakda akademik muvaffaqiyat pasayadi, impulsiv xatti-harakatlar kuchayadi, lekin ba'zan ijodkorlik saqlanadi (Levine, 2006).[5]

Neglectful (e'tiborsiz) uslub (past talabchanlik – past mehr). Bu uslub "muvaffaqiyatli farzand" konsepsiyasida deyarli uchramaydi. Ota-onalar bola bilan aloqani cheklaydi. Natijada bola psixikasi eng ko'p zarar ko'radi: o'zini baholash juda past, xavotir va depressiya kuchli, ijtimoiy munosabatlar buziladi. Kelajakda ruhiy muammolar, o'quv muvaffaqiyatsizligi va ijtimoiy moslashish qiyinlashadi (Jalilova, 2013).[7]

Umumiy kuzatuv xulosasi shundan iboratki, "muvaffaqiyatli farzand" konsepsiyasi zamonaviy oilalarda avtoritar va qattiq nazoratga asoslangan tarbiya uslublarini kuchaytirib, bola psixikasida psixologik bosim, past o'zini baholash va emotsional charchoq holatlarini oshirayotgani aniqlandi.Bu uslub orqali hozirgi statiska " raqamli autizim" holatidagi bolalar (hattoki katta yoshdagi o'smirlarda ham) yuqorilashganini ko'rish mumkin. Buning asosida "eshitilmaslik, ortiqcha bosim"ning roli katta. Muvozanatli (authoritative) uslub esa bu bosim sharoitida psixik barqarorlik va mustaqillikni yaxshiroq saqlab qolayotgan kuzatilmoqda.O'zbekistonlik tadqiqotchilar Z. Nishanova va S. Jalilova oilaviy muhitning ta'sirini ta'kidlab, mehr va talabchanlikni muvozanatlashtirish zarurligini ko'rsatadi (Nishanova & Alimova, 2006; Jalilova, 2013).[1;7]

Muhokama. "Muvaffaqiyatli farzand" konsepsiyasi zamonaviy oilalarda asosan avtoritar va tiger parenting uslublarini kuchaytirmoqda. Bu uslublar qisqa muddatli akademik va musobaqa muvaffaqiyatini berishi mumkin, lekin bola psixikasiga salbiy ta'sir qiladi: doimiy bosim o'zini baholashni pasaytiradi, xavotir va depressiyani oshiradi, ichki motivatsiyani yo'q qiladi. Natijada bola o'z qiziqishlarini qurbon qiladi, mustaqillik va ijodkorlik rivojlanmaydi.Shu navbatida o'z shaxsiy oilasida ham qiyinchiliklarga uchraydi. Buning isboti sifatida hozirgi ajrashishlar soning holatini olish mumkin.

Uzoq muddatli kelajakda avtoritar tarbiya quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi: past o'z qadr-qimmat, ruhiy salomatlik muammolari, ijtimoiy munosabatlarda qiyinchiliklar, stressga chid-

amlilik pastligi va kasbiy muvaffaqiyatda “natija”ga qaratilganlik emas, balki ichki qoniqishning yetishmasligi.Ko’plab o’smirlarda maqsadning yuqligi, 20 - 25 yoshdagi o’smirlarning hali hayotda qaysi kasbni egallashini bilmasligi (Levine, 2006; Chua, 2011).[5;3]

Muvozanatli (authoritative) uslub esa “muvaffaqiyatli farzand” g‘oyasini ijobiy tomonga o‘zgartiradi: bola ham yuqori natijalarga erishadi, ham emotsional jihatdan barqaror bo‘ladi. Kelajakda u mustaqil, ishonchli va baxtli shaxs bo‘lib yetishadi. Shu o’rinda bola yangi kashfiyotlar qilishida, yangi qirralarning ochilishiga poydevor bo’ladi. (Baumrind, 1971; Grolnick & Ryan, 1989).[6;4]

Permissive va neglectful uslublar zamonaviy bosim sharoitida kamaymoqda, lekin ular ham talabning yetishmasligi psixik muammolarga olib kelishini ko‘rsatadi. Psixologik bosimni kamaytirish uchun oilada ochiq muloqotni rivojlantirish, bolaga muvaffaqiyatsizlikni qabul qilishni o‘rgatish, yengib o’tishni o’rgatish va individual xususiyatlarni hisobga olish lozim. Qo‘shimcha darslar bilan birga bo‘sh vaqt, o‘yin va emotsional qo‘llab-quvvatlashni saqlash muhim.Uni doimiy ravishda eshitish, fikrlarini bo’lishishiga imkon berish zarur.

Xulosa. Muvaffaqiyatli farzand konsepsiyasi ota-ona tarbiya uslublarini shakllantiradi va bola psixikasiga ta’sir qiladi. Avtoritar va qattiq uslublar yuqori natijalar berishi mumkin, lekin ruhiy muammolarni keltirib chiqaradi. Authoritative (muvozanatli) yondashuv eng samarali hisoblanadi. Ota-onalar mehr va talabchanlikni muvozanatlashtirishi kerak. Bolalar mustaqil va ishonchli shaxs bo‘lib yetishadi. Oilaviy muhit psixik salomatlikni saqlashda asosiy omil bo‘lib qoladi.Oilada berilgan psixologik tarbiya bolani ijtimoiylashishi uchun dastlabki poydevor hisoblanadi. Tadqiqotlar bolalarning, umuman olganda insonlarning rivojlanishi uchun muvozanatli yondashuvni natijaviyligini va har bir inson qoniqish darajasini muvozanatda ushlab turishini ko’rsatdi.Xulosa qilib aytganda, haqiqiy muvaffaqiyat farandning nafaqat erishgan yutuqlari, balki uning ruhiy xotirjamligi va o’ziga bo’lgan ishonchi bilan o’lchanadi.Tarbiyada haddan tashqari qattiqqo’llik yoki o’ta bo’sh qo’yish kutilgan natijani bermaydi; eng to’g’ri yo’l - ota-onaning talabchanligi va mehri o’rtasidagi muvozanatni saqlashdir.Oila bola uchun har qanday vaziyatda ham tasalli va kuch oladigan xavfsiz maskan bo’lishi lozim. Agar bola kichikligidan o’z fikriga ega bo’lishga va xatolaridan xulosa chiqarishga o’rgatilsa, kelajakda jamiyatda o’z o’rnini topadigan mustaqil shaxsga aylanadi. Zero, tarbiya - bu bolani majburlab qoliplarga solish emas, balki unga mehr berish orqali ichki imkoniyatlarini ochishga yordam berishdir. Shundagina farzand ham muvaffaqiyatli, ham baxtli bo’lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.

2. Dweck C.S. Mindset: The new psychology of success. – New York: Random House, 2006.

3. Chua A. Battle hymn of the tiger mother. – New York: Penguin Press, 2011. – 237 p.

4. Grolnick W.S., Ryan R.M. Parent styles associated with children’s self-regulation and competence in school // Journal of Educational Psychology. – 1989. – Vol. 81. – No. 2. – P. 143–154.

5. Levine M. The price of privilege: How parental pressure and material advantage are creating a generation of disconnected and unhappy kids. – New York: HarperCollins, 2006. – 256 p.

6. Baumrind D. Current patterns of parental authority // Developmental Psychology Monographs. – 1971. – Vol. 4. – No. 1. – P. 1–103.

7. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Faylasuflar nashriyoti, 2013. – 496 b.

Ibragimova Mehribon Azimboy qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti, Psixologiya mutaxassisligi magistranti

EHTIYOJMAND OILADA VOYAGA YETAYOTGAN O‘SMIRLARDA O‘ZIGA ISHONCH HISSINI SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Har bir o‘smirda o‘ziga ishonchning individual darajasi mavjud bo‘lib, uning optimal darajasi shaxsning faoliyat samaradorligi va psixologik barqarorligini ta’minlovchi muhim ko‘rsatkich sifatida qaraladi. Mazkur holatni shartli ravishda “adaptiv o‘ziga ishonch” sifatida talqin etish mumkin. O‘ziga ishonch hissi yetarli darajada shakllanmagan hollarda o‘smir xulq-atvorida noaniqlik, passivlik, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar hamda o‘z-o‘zini past baholash kabi holatlar kuzatiladi. Ehtiyojmand oilalarda voyaga yetayotgan o‘smirlarda ushbu jarayon o‘ziga xos murakkablik kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘z-o‘zini baholash, xulq-atvor, ijtimoiy yo‘naltirilganlik, moslashuvchanlik, rag‘bat, psixologik barqarorlik, muloqot, ijtimoiy rol.*

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЧУВСТВА УВЕРЕННОСТИ В СЕБЕ У ПОДРОСТКОВ, ВОСПИТЫВАЮЩИХСЯ В НУЖДАЮЩИХСЯ СЕМЬЯХ

Аннотация. *У каждого подростка существует индивидуальный уровень уверенности в себе, оптимальная степень которой рассматривается как важный показатель, обеспечивающий эффективность деятельности и психологическую устойчивость личности. Данное состояние можно условно интерпретировать как «адаптивная уверенность в себе». В случаях недостаточного формирования чувства уверенности в себе у подростков наблюдаются такие особенности поведения, как неуверенность, пассивность, трудности социальной адаптации и заниженная самооценка. У подростков, воспитывающихся в нуждающихся семьях, данный процесс приобретает особую сложность.*

Ключевые слова: *самооценка, поведение, социальная направленность, адаптивность, стимул, психологическая устойчивость, общение, социальная роль.*

FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF SELF-CONFIDENCE IN ADOLESCENTS GROWING UP IN LOW-INCOME FAMILIES

Abstract. *Every adolescent has an individual level of self-confidence, the optimal degree of which is considered an important indicator ensuring effective performance and psychological stability of the personality. This condition can be conventionally interpreted as “adaptive self-confidence.” In cases where self-confidence is insufficiently developed, adolescents may demonstrate behavioral characteristics such as uncertainty, passivity, difficulties in social adaptation, and low self-esteem. In adolescents raised in low-income families, this process is particularly complex.*

Key words: *self-esteem, behavior, social orientation, adaptability, motivation, psychological stability, communication, social role.*

“O‘ziga ishonch” fenomeni uzoq yillardan buyon turli ilmiy yo‘nalish vakillarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Mazkur tushuncha tadqiqotchilar uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u ijtimoiy yo‘naltirilganlik xususiyatiga ega bo‘lib, insonning jamiyatdagi faoliyati va o‘zini namoyon etish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘ziga ishonch shaxs tuzilmasining muhim komponentlaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, individning turli faoliyat sohalarida muvaffaqiyatga erishish darajasini sezilarli darajada belgilaydi.

“O‘ziga ishonch” tushunchasi asosan insonning o‘z qobiliyatlari, malakalari va ko‘nikmalariga ijobiy munosabat bildirish qobiliyatiga tayangan. Bu qobiliyat ayniqsa muhim

ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini namoyon qiladi va shaxsning bunday vaziyatlarda faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Shu jihatdan, o‘ziga ishonch shaxsning o‘z-o‘zini baholash jarayonining markaziy elementi sifatida qaraladi. O‘ziga ishonch psixologiyada “o‘z-o‘zini samarali his qilish” kabi konstrukt bilan uzviy bog‘liqdir. U shaxsning ichki resurslari va imkoniyatlariga tayanib, maqsadga erishish jarayonida o‘zini samarali his qilishini ta’minlaydi. Shaxsiy omillar nuqtai nazaridan, o‘ziga ishonchni shakllantiruvchi asosiy sifatlar quyidagilar sifatida aniqlangan:

Muvaffaqiyatga bo‘lgan motivatsiya – maqsadlarga erishish istagi va qat’iyati;

O‘zini nazorat qilishdagi kuchli iroda – xatti-harakat va qarorlarni ongli ravishda boshqarish qobiliyati;

O‘zini qabul qilish qobiliyati – shaxsning o‘z salohiyati va kamchiliklarini ijobiy baholashga tayyorligi;

Ijtimoiy aloqalarni qurish qobiliyati – samarali muloqot va ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish qobiliyati.

O‘ziga ishonch shaxsning ichki barqarorligi va ijtimoiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilovchi ko‘p qirrali psixologik konstrukt sifatida qaraladi. “O‘ziga ishonch”ni o‘rganish masalasi psixologik konstruktlardan biri bo‘lgan “Men” konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu fenomenning uch asosiy jihati mavjud bo‘lib, ular o‘ziga ishonch bilan uzviy aloqada bo‘ladi:

O‘z-o‘ziga moslik – shaxsning motivlari, maqsadlari va amaldagi qobiliyatlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ifodalaydi. Bu yo‘nalish real “Men” va ideal “Men” konsepsiyalarining uyg‘unligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxsning o‘zini anglash va o‘ziga ishonch darajasini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Ichki uyg‘unlik – shaxsning “Men” konsepsiyasidagi ichki birlik va uyg‘unlik hissini anglatadi. Bu komponent shaxsning o‘zini bir butun sifatida qabul qilishi va ichki psixologik barqarorligini ta’minlash bilan bog‘liqdir.

O‘z imkoniyatlarini adekvat baholash – shaxsning o‘z qobiliyatlari, resurslari va imkoniyatlarini realistik va ob’ektiv tarzda baholash qobiliyatidir. Bu jihat o‘ziga ishonchning barqarorligini shakllantirishda va shaxsning ijtimoiy hamda shaxsiy faoliyatda samarali harakat qilishida muhim ahamiyatga ega.

“Men” konsepsiyasining ushbu uch jihati o‘ziga ishonchni shakllantirish va rivojlantirishning psixologik asosini tashkil qiladi. Shundan kelib chiqadiki, agar insonning “Men” konsepsiyasidagi birlik saqlansa va ichki ziddiyatlar, shu jumladan jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlar tizimi bilan qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lmasa, shaxsda “o‘ziga ishonch” psixologik konstrukti to‘liq va barqaror tarzda rivojlanishi mumkin. Bunday holatda shaxs o‘z qobiliyatlari, motivlari va ijtimoiy rolini uyg‘unlashtira oladi, ichki psixologik barqarorlik va o‘zini anglash darajasi oshadi.

V.G. Romekning fikricha, o‘ziga ishonch va insonning ishonchli xulq-atvor ko‘nikmalariga ega bo‘lishi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri, avtomatik bog‘liqlik mavjud emas ya’ni, shaxs ma’lum darajada ishonchli xulq-atvor ko‘nikmalariga ega bo‘lishi mumkin, ammo turli ichki yoki tashqi omillar tufayli ularni amalda qo‘llay olmasligi ehtimoli mavjud [2]. Olimning xulosasiga ko‘ra, ishonchli xulq-atvor ko‘nikmalari asosan madaniy kontekst bilan belgilangan bo‘lib, ular shaxsning tegishli ijtimoiy muhitda o‘zini samarali amalga oshirishini ta’minlaydi. Ushbu repertuar ikki asosiy omil orqali shakllanadi: bir tomondan, jamiyatning o‘ziga ishongan shaxsda bo‘lishi kerak deb hisoblagan xulq-atvor ko‘nikmalari; ikkinchi tomondan esa shaxsning o‘z individual xulq-atvor repertuari. Shu tariqa, ishonchli xulq-atvor ko‘nikmalari shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladigan psixologik-madaniy konstrukt sifatida qaraladi.

Ishonchli xulq-atvor ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligi ko‘pincha shaxsning o‘z maqsadlariga erishish jarayonida atrofdagi muhim shaxslar tomonidan ijobiy rag‘bat berilmasligi bilan izohlanadi. Bunday vaziyatda, atrofdagilarning ijobiy bahosi shaxsning o‘z ko‘nikmalari va malakalarini ijobiy baholashiga integratsiya qilinmaydi. Bu ko‘nikmalar shaxsning o‘z-o‘zini baholash jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi, ya’ni o‘ziga ishonch darajasi yetarlicha rivojlanmay qoladi. Ijtimoiy rag‘bat va atrof-muhitning qo‘llab-quvvatlashi o‘ziga

ishonch va ishonchli xulq-atvor ko‘nikmalarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon shaxsning ichki resurslari bilan tashqi ijtimoiy ta’sirlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik orqali amalga oshadi.

Psixolog E.D.Feldshteynning fikriga ko‘ra, o‘smirlarning o‘zini baholash shakllari bevosita oilaning ijtimoiy va kundalik hayot sharoitlari, oiladagi psixologik muhit bilan bevosita bog‘liqdir [1]. O‘ziga bo‘lgan ishonch bolalik davrida shakllanadi va bir qator asosiy mexanizmlarni o‘z ichiga oladi, ular shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligi, o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchi va ichki motivatsion jarayonlari barchasi oila muhiti bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ehtiyojmand oilalarda yashayotgan o‘smirlar ko‘pincha moddiy va ijtimoiy cheklovlarga duch keladi, bu ularning psixologik rivojlanishiga va o‘ziga bo‘lgan ishonchiga ta’sir ko‘rsatadi. Oila o‘ziga ishonch shakllanishida markaziy rol o‘ynaydi. Ota-onaning o‘smirga nisbatan iliq va mehribon munosabati, qo‘llab-quvvatlashi o‘zini qadrlash va o‘ziga ishonchning asosini tashkil qiladi. Ehtiyojmand oilalarda ota-onaning haddan tashqari stress ostida bo‘lishi, e’tiborsizlik yoki keskin tarbiya usullari bolalarning o‘ziga ishonchini pasayishiga olib keladi [7]. Oila ichida ochiq va samimiy muloqot o‘smirga o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga, muammolarini muhokama qilishga imkon yaratadi. Ehtiyojmand oilalarda muloqot yetishmovchiligi, oilaviy qarama-qarshiliklar yoki doimiy moliyaviy tashvishlar o‘zini ifoda etish qobiliyatini susaytiradi va shaxsiy ishonchni pasaytiradi. Ehtiyojmand oilalarda o‘smirlar ko‘pincha oilaviy majburiyatlarni erta o‘z zimmalariga olishadi. Bu holat ba’zan mas’uliyat hissini oshirsada, ko‘p hollarda psixologik yukni oshirib, shaxsiy o‘sish va o‘ziga bo‘lgan ishonch rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ehtiyojmand oilalarda voyaga yetayotgan o‘smirlar o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchni rivojlantirishda qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladilar.

Biz tomondan olib borilgan tadqiqotda Dembo–Rubinshteynning “O‘z-o‘zini baholash” metodikasi (A.M.Prihojan tomonidan modifikatsiya qilingan), Fillipsning “Maktabdagi umumiy xavotirlik” metodikasi, D. Amirxanning “Hayotiy muammolarni yengib o‘tish strategiyalarini o‘rganish” (V.M.Yaltonskiy va N.A.Sirot modifikatsiyasi) metodikasidan foydalandik.


Jadval-1.

Dembo–Rubinshteynning “O‘z-o‘zini baholash” metodikasi (A.M.Prihojan tomonidan modifikatsiya qilingan) so‘rovnomasining Mann-Uitni mezoni asosida jins tafovutlari tahlili (n=95)

Metodika shkalalari	O‘rtacha rang		U	P
	Qiz bolalar n=51	O‘g‘il bolalar n=44		
Aql va qobiliyatlar	47.25	48.88	1083.500	.769
Xarakter	52.96	42.25	869.000	.046 *
Tengdoshlar orasidagi obro‘ va e’tibor	50.89	54.65	974.500	.263
Mohir qo‘llar	53.37	41.77	848.000	.036 *
Tashqi qiyofa	49.36	46.42	1052.500	.595
O‘z-o‘ziga ishonch	50.28	65.35	1005.500	.041 *

Izoh: *p≤0,05 (95 %), **p≤0,01(99%)

Tadqiqot natijalari Dembo–Rubinshteynning “O‘z-o‘zini baholash” metodikasi (A.M.Prihojan tomonidan modifikatsiya qilingan) so‘rovnomasi asosida qiz bolalar va o‘g‘il bolalarda sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi.



1-rasm. Ishonchli farq ko‘rsatkichlari

Olingan natijalarga ko‘ra, xarakter shkalasi (U=869.000; p<0,05) natijani ko‘rsatmoqda, bunda ko‘rishimiz mumkinki, qiz bolalarda xarakter ko‘rsatkichi o‘g‘il bolalarga nisbatan yuqori darajada namoyon bo‘lmoqda. Bunday holat qizlarda ijtimoiy moslashuv, mas’uliyatlilik va o‘zini nazorat qilish kabi sifatlarning rivojlanganligi bilan izohlashimiz mumkin. Ehtiyojmand oilalarda qizlar ko‘proq oilaviy vazifalarni bajarishga jalb qilinishi natijasida ularda irodaviy sifatlar va xarakter barqarorligi kuchliroq shakllanishi mumkin.

Qo‘l bilan ko‘p narsani amalga oshira olish (mohir qo‘llar) shkalasi (U=848.000; p<0,05) natijani ko‘rsatmoqda, bunda qiz bolalarda ushbu ko‘rsatkich o‘g‘il bolalarga nisbatan yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Bu esa qizlarda amaliy faoliyat, nozik motorika va kundalik hayotiy ko‘nikmalarni bajarishga nisbatan ishonch yuqoriroq ekanini bildiradi. Ehtiyojmand oilalarda qizlarning uy-ro‘zg‘or ishlarida faol ishtiroki ularning o‘z imkoniyatlarini amaliy jihatdan anglashiga va shu asosda o‘ziga nisbatan ijobiy baho shakllanishiga olib kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘z-o‘ziga ishonch shkalasi (U=1005.500; p<0,05) natijani ko‘rsatmoqda, bunda o‘g‘il bolalarda o‘z-o‘ziga ishonch darajasi qizlarga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘g‘il bolalarda mustaqillik, qat’iyatlilik va tashabbuskorlik yuqori bo‘lishi bilan xarakterlanishi mumkin. Ehtiyojmand oilalarda o‘g‘il bolalarga nisbatan “tayanch” sifatida qaralishi, ularga ijtimoiy mas’uliyat yuklanishi natijasida ularda umumiy o‘ziga ishonch hissi shakllanishi mumkin. Bu holat ko‘proq gender rollari va ijtimoiy stereotiplar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Jadval-2.

Fillipsning “Maktabdagi umumiy xavotirlik” so‘rovnomasining Mann-Uitni mezoni asosida jins tafovutlari tahlili (n=95)

Metodika shkalalari	O‘rtacha rang		U	P
	Qiz bolalar n=51	O‘g‘il bolalar n=44		
Maktabdagi umumiy havotirlik	57.76	36.68	624.000	.000 **
Ijtimoiy stressni boshi-dan o‘tkazish	50.33	45.30	1003.000	.371
Muvaffaqiyatga erishish-iga bo‘lgan ehtiyoj frus-tratsiya	54.47	40.50	792.000	.012 *
O‘zini namoyon qi-lishdagi qo‘rquv	54.98	39.91	766.000	.007 **
Bilimlarni tekshirish vaziyatidagi qo‘rquv	54.95	39.94	767.500	.007 **
Atrofdagilarning tal-ablariga to‘g‘ri kelmas-lik qo‘rquvi	56.05	38.67	711.500	.002 **

Stressga qarshilik ko‘rsatishning past fizi-ologik xususiyati	48.03	47.97	1120.500	.991
O‘qituvchilar bilan munosabatdagi qo‘rquv.	46.94	49.23	1068.000	.680

Izoh: *p≤0,05 (95 %), **p≤0,01(99%)

Olingan natijalarga ko‘ra, maktabdagi umumiy havotirlik shkalasi (U=624.000; p<0,01) natijani ko‘rsatmoqda, bunda ko‘rishimiz mumkinki, qiz bolalarda (57.76) maktabdagi umumiy havotirlik darajasi o‘g‘il bolalarga (36.68) nisbatan sezilarli darajada yuqori. Bunday o‘smirlar emotsional jihatdan sezgir, tashqi bahoga ko‘proq e’tibor qaratadigan va maktab muhitini psixologik jihatdan kuchliroq qabul qiladigan shaxslar bo‘lishi mumkin. Bu holat ehtiyojmand oilalarda qo‘llab-quvvatlash yetishmasligi sababli qizlarda havotirlik darajasi yanada ortishi bilan izohlashimiz mumkin.

Muvaffaqiyatga erishishiga bo‘lgan ehtiyoj frustratsiyasi shkalasi (U=792.000; p<0,05) natijani ko‘rsatmoqda, bunda qiz bolalarda (54.47) ushbu ko‘rsatkich o‘g‘il bolalarga (40.50) nisbatan yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa qizlarda muvaffaqiyatga erishish istagi mavjud bo‘lsa-da, unga erisha olmaslik hissi (frustratsiya) kuchliroq ekanini bildiradi. Bunday holat o‘ziga nisbatan yuqori talablar qo‘yish va imkoniyatlarning cheklanganligi bilan izohlashimiz mumkin.

O‘zini namoyon qilishdagi qo‘rquv shkalasi bo‘yicha, (U=766.000; p<0,01) natijani ko‘rsatmoqda, bunda qiz bolalarda (54.98) o‘zini erkin ifoda etishdagi qo‘rquv o‘g‘il bolalarga (39.91) nisbatan yuqori. Bu o‘smirlar ijtimoiy bahodan qo‘rqish, xato qilishdan cho‘chish va o‘z fikrini ochiq bildirishda ikkilanish kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Ehtiyojmand oilalarda bu holat yanada kuchayib, o‘ziga ishonchning pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Bilimlarni tekshirish vaziyatidagi qo‘rquv shkalasi bo‘yicha, (U=767.500; p<0,01) natijani ko‘rsatmoqda, bunda qiz bolalarda (54.95) nazorat va imtihon vaziyatlaridagi qo‘rquv o‘g‘il bo-lalarga (39.94) nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan. Bunday o‘quvchilarda baholanishdan qo‘rqish, muvaffaqiyatsizlikdan xavotirlanish kuchli bo‘lib, bu ularning real bilim darajasini to‘liq namoyon eta olmasligiga olib kelishi mumkin.

Atrofdagilarning talablariga to‘g‘ri kelmaslik qo‘rquvi (U=711.500; p<0,01) natijani ko‘rsatmoqda, bunda qiz bolalarda (56.05) ushbu qo‘rquv o‘g‘il bolalarga (38.67) nisbatan yuqori. Bu natija qizlarda ijtimoiy moslashuvga bo‘lgan ehtiyoj yuqori ekanini va boshqalarning fikriga kuchli bog‘liqlik mavjudligini bildiradi. Natijada ular doimiy ravishda “kutilmalarga mos kelish” bosimi ostida bo‘lishi mumkin.

Jadval-3.

D. Amirxanning “Hayotiy muammolarni yengib o‘tish strategiyalarini o‘rganish” (V.M.Yaltonskiy va N.A.Sirot modifikatsiyasi) so‘rovnomasining Mann-Uitni mezoni aso-sida jins tafovutlari tahlili (n=95)

Metodika shkalalari	O‘rtacha rang		U	P
	Qiz bolalar n=51	O‘g‘il bolalar n=44		
Muammolarni hal etish strategiyasi	49.27	46.52	1057.000	.627
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish strategiyasi	59.12	35.11	555.000	.000 **
Muammolardan qochish strategiyasi	47.75	48.28	1109.500	.925

Izoh: *p≤0,05 (95 %), **p≤0,01(99%)

Olingan natijalarga koʻra, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashni qidirish strategiyasi shkalasi boʻyicha, (U=555.000; p<0,01) natijani koʻrsatmoqda, bunda koʻrishimiz mumkinki, qiz bolalarda (59.12) ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashni izlash strategiyasi oʻgʻil bolalarga (35.11) nisbatan sezilarli darajada yuqori. Bunday oʻsmirlar muammoli vaziyatlarda boshqalarga murojaat qilish, yordam soʻrash va emotsional qoʻllab-quvvatlash izlashga moyil boʻladi. Bu holat qizlarda kommunikativlik, emotsional ochiqlik va ijtimoiy munosabatlarga yuqori ehtiyoj mavjudligi bilan izohlanadi. Ehtiyojmand oilalarda qizlar ichki zoʻriqishlarni yengillashtirish uchun tashqi resurslarga - doʻstlar, oʻqituvchilar yoki yaqinlarga murojaat qilish orqali moslashuv strategiyasini shakllantiradi. Shu bilan birga, oʻgʻil bolalarda mazkur strategiyaning pastligi ularning muammolarni mustaqil hal qilishga intilishi yoki emotsiyalarni ochiq ifodalashga nisbatan cheklov mavjudligi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ehtiyojmand oilada voyaga yetayotgan oʻsmirlarda oʻziga ishonch hissining shakllanishi koʻp omilli va murakkab jarayon va u oilaviy muhit, ota-ona tarbiya uslubi, ijtimoiy solishtirish, maktab muhiti hamda shaxsiy muvaffaqiyat tajribasi bilan belgilanishi mumkin. Ushbu omillar orasida eng muhim jihat qoʻllab-quvvatlash va ijobiy ijtimoiy munosabatlar tizimidir. Hatto iqtisodiy cheklovlar mavjud boʻlgan sharoitda ham, toʻgʻri psixologik muhit oʻsmirda barqaror oʻziga ishonchni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Фельдштейн Д. И. Проблемы возрастной и педагогической психологии. – Москва: Международная педагогическая академия, 2015. – 366 с.
2. Ромек В. Г. Понятие уверенности в себе в современной социальной психологии // Психологический вестник. – 2006. – Вып. 1, ч. 2. – Ростов-на-Дону: Изд-во РГУ. – 132 с.
3. Вайнер И. В. Субъективная уверенность как фактор решения психофизической задачи. – Саратов: Саратовский университет, 2017. – 257 с.
4. Валеева Р. А., Соболева В. В. Аддиктивное поведение подростков: причины, профилактика // Актуальные проблемы педагогики и психологии. – Казань, 2015. – 307 с.
5. Liberman A. Self-expression and personality development. – New York: Academic Press, 1967. – 312 p.
6. Рудик П. А. Психология: краткий курс. – Москва: Академия, 2013. – 224 с.
7. Дурасова Е. А. Депрессивное состояние подростков, причины его возникновения // Педагогика: история, перспективы. – 2021. – Т. 4, № 6. – С. 45–52.
8. Ғозиев Э. Ғ. Онтогенез психологияси. – Тошкент, 2010. – 352 б.
9. Каримова В. М. Оила психологияси. – Тошкент, 2006. – 240 б.
10. Мухамедова Д. Г., Саломова Г. Ш. Психологик тадқиқотлар маълумотларини қайта ишлаш методлари ва технологиялари. – Тошкент, 2020. – 280 б.

O'rinova Yulduz Tursinniyozovna
Axborot texnologiyalar va menejmenti universiteti
Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: urinovayulduz180@gmail.com

RAQAMLI VOSITALAR YORDAMIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada raqamli vositalardan foydalanish yordamida emotsional intellektni rivojlantirish imkoniyatlari, usullari vaularni ng samaradorligi tahlil qilinadi. Emotsional intellekt zamonaviy jamiyatda shaxsiy va kasabiy muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri hisoblanadi. jtimoiy tarmoqlar, raqamli kommunikatsiya vositalari hamda onlayn ta'lim platformalarining emosional anglash, empatiya va o'zini boshqarish qobiliyatlariga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, raqamli muhitning ijobiy ta`sirlari hamda psixologik xavf omillari va ularni kamaytirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Maqolada nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *emosional intellekt, raqamli texnologiyalar, empatiya, raqamli muloqot, ijtimoiy tarmoqlar, psixologik moslashuv*

ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Аннотация. *В данной научной статье анализируются возможности, методы и эффективность развития эмоционального интеллекта с помощью цифровых инструментов. Эмоциональный интеллект является одним из важных факторов личного и профессионального успеха в современном обществе. На основе научных источников рассматривается влияние социальных сетей, цифровых средств коммуникации и онлайн-образовательных платформ на эмоциональную осведомленность, эмпатию и навыки самоорганизации. Также рассматриваются положительные эффекты цифровой среды, а также психологические факторы риска и механизмы их снижения. В статье подробно освещаются теоретические основы и практические подходы.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, цифровые технологии, эмпатия, цифровая коммуникация, социальные сети, психологическая адаптация*

DEVELOPING EMOTIONAL INTELLIGENCE WITH THE HELP OF DIGITAL TOOLS

Annotation. *This scientific article analyzes the possibilities, methods and effectiveness of developing emotional intelligence through the use of digital tools. Emotional intelligence is one of the important factors of personal and professional success in modern society. The impact of social networks, digital communication tools and online educational platforms on emotional awareness, empathy and self-management skills is covered based on scientific sources. The positive effects of the digital environment, as well as psychological risk factors and mechanisms for reducing them, are also considered. The article extensively covers theoretical foundations and practical approaches.*

Key words: *emotional intelligence, digital technologies, empathy, digital communication, social networks, psychological adaptation*

Kirish. Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda insonning nafaqat intellektual, balki emotsional salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Emotsional intellekt (EI) - bu shaxsning o'z hissiyotlarini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini tushunish va samarali ijtimoiy aloqalarni yo'lga qo'yish qobiliyatidir. Raqamli vositalar ushbu

ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Emotsional intellekt (EI) - bu shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatidir. XXI asrda raqamli vositalar ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki emotsional ko‘nikmalarni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilar o‘zini anglash, empatiya, stressni boshqarish va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar tahlili. Emotsional intellekt tushunchasi dastlab Salovey va Mayer (1990) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, keyinchalik Goleman (1995) tomonidan keng ommalashtirilgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, EI insonning ish samaradorligi, liderlik qobiliyati va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar psixologik rivojlanish vositasi sifatida faol qo‘llanilmoqda. Onlayn platformalar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt tizimlari insonning emotsional holatini tahlil qilish va uni yaxshilashga xizmat qilmoqda. amonaviy tadqiqotlarda esa EI va raqamli muhit o‘rtasidagi bog‘liqlik murakkab, ko‘p omilli jarayon sifatida baholanmoqda. Twenge tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar raqamli qurilmalardan intensiv foydalanish ijtimoiy muloqot sifati va empatiya darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlar raqamli texnologiyalar ta’limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarda qo‘llanilganda emosional ko‘nikmalarni mustahkamlash imkonini berishini ta’kidlaydi [1. 34]

Psixolog Peter Salovey va uning hamkasblari “hissiy intellekt” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan. Bu g‘oya shundan iboratki, insonning faqat aqliy qobiliyatlari (IQ) emas, balki hissiyotlarni anglash, boshqarish va ulardan to‘g‘ri foydalanish qobiliyati ham katta ahamiyatga ega. Aslida bu yangilik emas. Chunki yillar davomida hatto IQ tarafdorlari ham hissiyot va intellektni bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi jihatlar sifatida ko‘rishga harakat qilishgan. Masalan, XX asrning 1920–1930-yillarida IQ tushunchasini ommalashtirishda katta rol o‘ynagan psixolog E. L. Thorndike “ijtimoiy intellekt” haqida yozgan. U Harper’s Magazine jurnalidagi maqolasida insonning boshqalarni tushunish, ular bilan oqilona munosabatda bo‘lish qobiliyatini alohida ta’kidlagan. Thorndike fikricha, bu ham IQning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Oddiy qilib aytganda:

IQ – bu odamning mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati.

Hissiy intellekt (EI) – bu odamning o‘z hissiyotlarini va boshqalarning hissiyotlarini anglash, boshqarish, to‘g‘ri yo‘naltirish qobiliyati.

Ijtimoiy intellekt – bu odamlar bilan munosabatda oqilona yo‘l tutish, boshqalarni tushunish va ular bilan samarali aloqa qilish qobiliyati.

Shunday qilib, insonning muvaffaqiyati faqat “aqli”ga bog‘liq emas. U o‘z hissiyotlarini boshqara olsa, boshqalarni tushunib, ular bilan to‘g‘ri munosabat qura olsa, hayotda ko‘proq yutuqlarga erishadi. Salovey va Thorndike aytmoqchi, insonning haqiqiy kuchi – aql va hissiyotning uyg‘unligida. [2. 148]

Oddiy qilib aytganda, emotsional intellekt - bu odamning o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini sezish va ularga mos ravishda javob bera olish qobiliyatidir. Shaxslararo aqlning asosiy qobiliyatida misol tariqasida bir voqeani aytib o’tishni joiz deb bildik. Maktabgacha ta'lim muassasasida tanaffus va bir guruh o'g'il bolalar maysazor bo'ylab yugurib yurishadi. Reggie yiqilib, tizzasini og'ridi va yig'lay boshlaydi, lekin boshqa o'g'il bolalar yugurishda davom etishadi - Rojerdan tashqari, u to'xtaydi. Reggie yig'isini bosganda, Rojer cho'zilib, tizzasini ishqalaydi va baqiradi: "Men ham tizzamni og'ritib yubordim!". Rojerni Spectrum maktabidagi Howard Gardnerning hamkasbi Tomas Xetch namunali shaxslararo aql-zakovatga ega deb ta'kidlaydi. Bu maktab ko'p aqllilik kontseptsiyasiga asoslangan. Aftidan, Rojer o'yindoshlarining his-tuyg'ularini anglash va ular bilan tez va ravon aloqalar o'rnatishda g'ayrioddiy mahoratga ega. Reggiening ahvoli va azobini faqat Rojer payqagan va faqat Rojer unga taskin berishga harakat qilgan, hatto u faqat o'z tizzasini ishqalasa ham. Bu kichik qobiliyat yaqin munosabatlarni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan hissiy qobiliyatni, do'stlik yoki biznes sohasida

bo'ladimi, o'zaro tushunish qobiliyatini namoyon etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bunday ko'nikmalar hayot davomida pishib yetiladigan iste'dodlarning kurtaklaridir. Shunday ekan bu kichik hikoya asosida shaxslar a'ro aqlning to'rtta asosiy qobiliyatiga misollar keltiramiz. [3. 19]

Guruhlarni tashkil qilish – odamlarni bir maqsad atrofida birlashtirish va boshqarish.

Yechimlarni muzokara qilish – nizolarni hal qilish va kelishuvga erishish.

Shaxsiy aloqa (Rojerda ko'ringan) – boshqalarning his-tuyg'ularini sezish va ularga hamdardlik bildirish.

Ijtimoiy tahlil – odamlarning niyatlari va hissiyotlarini chuqurroq anglash.

Emotsional intellekt bilan bog'lanishi

O'zini anglash: Rojer o'z hissiyotini boshqasinikiga moslashtirdi.

Empatiya: U Reggiening og'riq va qayg'usini sezdi.

Ijtimoiy ko'nikma: U o'yin jarayonida boshqalar bilan munosabatni saqlashga harakat qildi. [4. 504]

Oddiy hayotiy misollar asosida emotsional intlektni tahlil qilsak.

Do'stingiz kayfiyati tushib qolsa, uni kuldirishga harakat qilishingiz - bu emotsional intellekt.

Ish joyida hamkasbingiz stressda bo'lsa, unga yordam taklif qilishingiz - bu ham emotsional intellekt.

Oilada sherigingizning kayfiyatini sezib, unga mos munosabatda bo'lishingiz - bu ham shaxsiy aloqa qobiliyati. [5. 213]

Natijalar va ularning tahlili. Ijtimoiy-emotsional ta'limda raqamli vositalar quyidagi yo'nalishlarda imkoniyatlar yaratadi:

1. Emotsiyalarni aniqlash va monitoring qilish: Sun'iy intellekt (SI) va sensor texnologiyalar yordamida o'quvchilarning yuz ifodasi, ovoz tonu, tana harakati kabi omillar tahlil qilinib, ularning emotsional holati aniqlanishi mumkin. Bu o'qituvchilarga o'quvchilar bilan individual tarzda ishlashga yordam beradi.

2. Individual yondashuv: Raqamli platformalar yordamida har bir o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan o'quv materiallari va mashqlar taqdim etilishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar: O'yinlash orqali ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish mumkin. Masalan, virtual holatlarda qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va muloqot qilish tajribasini oshirish uchun simulyatsiyalar yaratiladi.

4. Onlayn muloqot va hamkorlik: Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar masofadan turib ham o'zaro muloqot qilishi, guruhda ishlashi va bir-birini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bu esa ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. [6. 318]

Informatika fanida o'qitiladigan dasturlash, sun'iy intellekt, ma'lumotlar bazasi va kompyuter grafikasi kabi sohalar raqamli vositalarni yaratish va ularni ijtimoiy-emotsional ta'lim jarayoniga integratsiyalash imkonini beradi. Masalan:

• Sun'iy intellekt algoritmlari o'quvchilarning his-tuyg'ularini aniqlash va tahlil qilishda qo'llaniladi. Bu texnologiyalar yordamida emotsional holatga moslashtirilgan o'quv jarayonini tashkil etish mumkin.

• Interaktiv dasturlar va mobil ilovalar o'quvchilarning emotsional ko'nikmalarini mustahkamlash uchun maxsus yaratiladi. Bu dasturni yaratishda informatika fanining metod va texnologiyalari asos bo'ladi.

• Ma'lumotlar tahlili yordamida o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional holati va rivojlanish dinamikasi kuzatilib boriladi, natijalarga ko'ra o'quv jarayoni optimallashtiriladi. [7. 732]

Raqamli vositalarning afzalliklari

Interaktiv platformalar: Onlayn treninglar, simulyatsiyalar va o'yinlar orqali o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini boshqarishni o'rganadilar.

Virtual guruh ishlari: Xor san'ati, guruh qo'shiqchilik va boshqa jamoaviy faoliyatlar raqamli muhitda emotsional sinxronizatsiyani kuchaytiradi .

Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar: O'quvchilarning emotsional holatini tahlil qilib, individual yondashuvni ta'minlaydi.

Gamifikatsiya: O'yin elementlari orqali motivatsiya va ijobiy emotsiyalarni kuchaytiradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda aqamli vositalar yordamida emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan mobil ilovalar, onlayn trening platformalari va sun'iy intellekt asosidagi tizimlar insonning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish hamda boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aqamli vositalardan muntazam va maqsadli foydalanish shaxsning o'z-o'zini anglash darajasini oshiradi, empatiya ko'nikmalarini rivojlantiradi va stressni boshqarish qobiliyatini mustahkamlaydi. Ayniqsa, interaktiv va moslashuvchan o'quv platformalari foydalanuvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanishda ma'lumotlarning ishonchliligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va texnologiyaga ortiqcha bog'lanib qolish kabi muammolarni ham inobatga olish zarur. Kelgusida ushbu yo'nalishda kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish va ta'lim tizimiga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Goleman D. Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.
2. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Emotional intelligence: Theory, findings, and implications // Psychological Inquiry. – 2004.
3. Bar-On R. The Bar-On model of emotional-social intelligence // Psicothema. – 2006.
4. Petrides K.V. Trait emotional intelligence theory. – London: University College London, 2009.
5. Cabello R., Ruiz-Aranda D., Fernández-Berrocal P. Emotional intelligence and its relationship with mental health // Frontiers in Psychology. – 2016.
6. Redecker C. European framework for the digital competence of educators (DigCompEdu). – Brussels: European Commission, 2017.
7. O'rinova Y.T. The need to use information technologies in developing emotional intelligence // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar to'plami. – 2026. – B. 731.

Haydarov Anvar Askarovich
Buxoro davlat universiteti professori,
Hojiyeva R.T.
Buxoro davlat universiteti magistranti

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FONETIK VOSITALAR ORQALI KONNOTATIV MA'NO IFODASINING QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida fonetik vositalar orqali konnotativ ma'noning ifodalanish xususiyatlari qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Konnotativ ma'no nutq jarayonida so'zlovchining emotsional holati, subyektiv munosabati va baholovchi pozitsiyasini aks ettiruvchi muhim semantik qatlam sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot davomida intonatsiya, urg'u, pauza va nutq tempi kabi fonetik vositalarning konnotativ yuklamasi nazariy va amaliy misollar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, fonetik konnotatsiyaning milliy-madaniy omillar bilan bog'liqligi ochib berilib, o'zbek va ingliz tillaridagi umumiylik va farqli jihatlar aniqlanadi. Maqola natijalari fonetika, pragmalingvistika va qiyosiy tilshunoslik sohalarida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar. *konnotativ ma'no, fonetik vositalar, intonatsiya, prosodika, emotsional-ekspressivlik, pragmatik ma'no, qiyosiy tilshunoslik.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЫРАЖЕНИЯ КОННОТАТИВНОГО ЗНАЧЕНИЯ ЧЕРЕЗ ФОНЕТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительное исследование особенностей выражения коннотативного значения с помощью фонетических средств в узбекском и английском языках. Коннотативное значение рассматривается как важный семантический слой, отражающий эмоциональное состояние говорящего, его субъективное отношение и оценочную позицию в процессе речи. В ходе исследования анализируется коннотативная нагрузка таких фонетических средств, как интонация, ударение, пауза и темп речи, на основе теоретических и практических примеров. Кроме того, раскрывается связь фонетической коннотации с национально-культурными факторами, а также выявляются сходства и различия в узбекском и английском языках. Результаты статьи имеют важное значение для научных исследований в области фонетики, прагмалингвистики и сравнительного языкознания.*

Ключевые слова: *коннотативное значение, фонетические средства, интонация, просодика, эмоционально-экспрессивность, прагматическое значение, сравнительное языкознание.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE EXPRESSION OF CONNOTATIVE MEANING THROUGH PHONETIC MEANS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract*. This article presents a comparative study of the features of expressing connotative meaning through phonetic means in the Uzbek and English languages. Connotative meaning is interpreted as an important semantic layer reflecting the speaker's emotional state, subjective attitude, and evaluative position in the process of speech. The study analyzes the connotative load of phonetic means such as intonation, stress, pause, and speech tempo based on theoretical and practical examples. In addition, the relationship between phonetic connotation and national-cultural factors is revealed, and similarities and differences between the Uzbek and English languages are identified. The results of the study are of significant importance for research in the fields of phonetics, pragmalinguistics, and comparative linguistics.*

Key words: *connotative meaning, phonetic means, intonation, prosody, emotional expressiveness, pragmatic meaning, comparative linguistics.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining ma’nosini faqat denotativ jihatdan emas, balki nutq jarayonida yuzaga keladigan qo‘shimcha semantik qatlamlar asosida tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ana shunday qatlamlardan biri - konnotativ ma’no bo‘lib, u so‘zlovchining emotsional holati, subyektiv munosabati hamda kommunikativ niyatini ifodalashga xizmat qiladi.

Konnotativ ma’no ko‘pincha nutq vaziyati va kontekst bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga chiqadi va nutqning ta’sirchanligini oshiradi.

Konnotativ ma’noning ifodalanishida fonetik vositalar alohida ahamiyat kasb etadi. Intonatsiya, urg‘u, pauza va nutq tempi kabi prosodik birliklar orqali bir xil leksik birlik turli emotsional va baholovchi ma’nolarni anglatishi mumkin. Ayniqsa, og‘zaki nutqda fonetik vositalar so‘zlovchining munosabatini bevosita va bilvosita tarzda yetkazish imkonini beradi. Shu bois fonetikaning faqat tovush tizimi sifatida emas, balki semantik va pragmatik vosita sifatida o‘rganilishi hozirgi tilshunoslikda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sanaladi.

So‘nggi yillarda fonetik vositalarning konnotativ imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Biroq bu masala asosan alohida tillar doirasida yoritilgan bo‘lib, turli tillar materialida qiyosiy tahlil yetarli darajada amalga oshirilmagan. Xususan, o‘zbek va ingliz tillarida fonetik vositalar orqali konnotativ ma’noning ifodalanishi masalasi maxsus qiyosiy tadqiqot obyekti sifatida kam o‘rganilgan.

Mazkur maqolaga maqsadi - ingliz va o'zbek tillarida fonetik vositalar orqali konnotativ ma’noning ifodalanish mexanizmlarini aniqlash va ularni qiyosiy jihatdan tahlil qilish nazarda tutiladi. Tadqiqotning obyekti og‘zaki nutqda qo‘llaniladigan fonetik birliklar bo‘lsa, predmeti ularning konnotativ funksiyasidir. Tadqiqotning ilmiy yangiligi fonetik vositalarning konnotativ ma’no hosil qilishdagi roli o‘zbek va ingliz tillari materialida tizimli va qiyosiy yondashuv asosida yoritilganligi bilan belgilanadi.

Mazkur tadqiqotda fonetik vositalar orqali konnotativ ma’noning ifodalanishini aniqlash maqsadida kompleks lingvistik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy tahlil usullarini o‘z ichiga oladi. Jumladan, tavsifiy metod yordamida konnotativ ma’no va fonetik vositalarning lingvistik xususiyatlari izohlandi, qiyosiy metod orqali esa ingliz va o'zbek tillaridagi fonetik konnotatsiyaning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi og‘zaki nutq namunalari, badiiy matnlar hamda audiovizual manbalardan olingan fragmentlar tanlab olindi. Ushbu materiallar asosida intonatsiya, urg‘u, pauza va nutq tempi kabi fonetik vositalarning konnotativ yuklamasi kontekstual tahlil qilindi. Shuningdek, pragmatik tahlil usuli orqali fonetik birliklarning nutq vaziyatiga bog‘liq holda yuzaga keladigan baholovchi va emotsional ma’nolari ochib berildi.

Tadqiqot jarayonida kuzatish, tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar tizimlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarildi. Ushbu metodlar majmuasi fonetik vositalarning konnotativ funksiyasini chuqur va ishonchli tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o'zbek tillarida fonetik vositalar konnotativ ma’no ifodalashda muhim semantik va pragmatik yuklamaga ega. Har ikki tilda intonatsiyaning ifodalash darajasi, u orqali so‘zlovchining emotsional holati va subyektiv munosabati ifodalanadi.

O‘zbek tilida intonatsiya ko‘proq emotsional-ekspressiv xarakterga ega bo‘lib, nutqda ijobiy yoki salbiy baho berishda faol ishtirok etadi. Urg‘uning o‘zgarishi va tovushlarning cho‘zilishi nutqning ta’sirchanligini oshirib, konnotativ ma’noning kuchayishiga xizmat qiladi. Ingliz tilida esa fonetik vositalar, xususan, intonatsiya va pauzalar nutqning pragmatik ma’nosini aniqlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ko'tarilish va pasayish intonatsiyalar yordamida so‘zlovchining ishonchi, shubhasi yoki kinoyaviy munosabati ifodalanadi.

Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha, har ikki tilda fonetik konnotatsiya mavjud bo‘lsa-da, uning funksional ustuvorligi farqlanadi. O‘zbek tilida emotsional ta’sir kuchli bo‘lsa, ingliz tilida kommunikativ va pragmatik aniqlik ustunlik qiladi.

Tahlil va muhokama. Olingan natijalar fonetik vositalarning konnotativ ma’no hosil qilishdagi universalligi va shu bilan birga tilga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ingliz va o'zbek tillarida intonatsiya va urg‘u umumiy fonetik mexanizm sifatida namoyon bo‘lsa-da, ularning qo‘llanishi milliy-madaniy va kommunikativ omillar bilan belgilanadi.

O‘zbek tilida nutqning emotsional-ekspressiv jihati yetakchi o‘rin egallashi xalq og‘zaki ijodi va badiiy nutq an’analari bilan bog‘liq holda izohlanadi. Ingliz tilida esa fonetik vositalarning pragmatik vazifasi kuchli bo‘lib, nutqdagi aniqlik va muloqot samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu farqlar fonetik konnotatsiyaning faqat lingvistik emas, balki madaniy hodisa ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari fonetik vositalarning konnotativ ma’noni shakllantirishdagi rolini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, qiyosiy yondashuv fonetikaning semantik va pragmatik imkoniyatlarini kengroq yoritishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Crystal D. The Cambridge encyclopedia of language. – Cambridge: Cambridge University Press.
2. Ladefoged P., Johnson K. A course in phonetics. – Los Angeles: UCLA Department of Linguistics.
3. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press.
4. Lado R. Linguistics across cultures. – Ann Arbor: University of Michigan Press.
5. Yule G. The study of language. – Minneapolis: University of Minnesota.
6. Wells J.C. English intonation: An introduction. – London: University College London.
7. Sapir E. Language: An introduction to the study of speech. – New Haven: Yale University Press.
8. Haydarov A.A. Konnotativ ma’noning fonetik vositalarda ifodalanishi: filologiya fanlari doktori dis. avtoreferati. – Toshkent, 2009. – 21 b.

Pulatova Ziyoda Abdumalikovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xorijiy tillar ta'limi kafedrasi dotsenti, PhD

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak mutaxassislarni TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) xalqaro baholash dasturi asosida metodik tayyorlash mexanizmlari tahlil qilingan. Maqola zamonaviy ta'lim tizimida xalqaro standartlar va baholash metodikalarini qo‘llash orqali pedagog kadrlarning professional kompetentligini oshirish yo‘llarini ko‘rib chiqadi. Adabiyotlar tahlili asosida TIMSS dasturining metodik potentsiali, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ushbu dastur prinsiplarini integratsiyalash imkoniyatlari va metodik tayyorgarlikni takomillashtirish yo‘nalishlari aniqlangan. Natijalar va muhokama qismida TIMSS baholash tizimini pedagog ta'limiga joriy etishning nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlari taqdim etilgan.*

Kalit so‘zlar: *TIMSS, metodik tayyorgarlik, bo‘lajak mutaxassislar, xalqaro baholash, pedagog ta'limi, professional kompetentlik, baholash metodikasi.*

МЕХАНИЗМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРОГРАММЫ ОЦЕНКИ TIMSS

Аннотация. *В данной статье проанализированы механизмы методической подготовки будущих специалистов на основе международной программы оценки TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study). В статье рассматриваются пути повышения профессиональной компетентности педагогических кадров посредством применения международных стандартов и методик оценивания в современной системе образования. На основе анализа научной литературы выявлены методический потенциал программы TIMSS, возможности интеграции принципов данной программы в подготовку будущих учителей, а также направления совершенствования методической подготовки. В разделе результатов и обсуждения представлены теоретические основы и практические механизмы внедрения системы оценивания TIMSS в педагогическое образование.*

Ключевые слова: *TIMSS, методическая подготовка, будущие специалисты, международное оценивание, педагогическое образование, профессиональная компетентность, методика оценивания.*

MECHANISM FOR IMPROVING THE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS BASED ON THE TIMSS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM

Abstract. *This article analyzes the mechanisms for the methodological training of future specialists based on the international assessment program TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study). The article examines ways to enhance the professional competence of pedagogical personnel through the application of international standards and assessment methodologies in the modern education system. Based on a review of the literature, the methodological potential of the TIMSS program, the possibilities of integrating its principles into the training of future teachers, and the directions for improving methodological preparation are identified. The results and discussion section presents the theoretical foundations and practical mechanisms for implementing the TIMSS assessment system in pedagogical education.*

Key words: *TIMSS, methodological training, future specialists, international assessment, pedagogical education, professional competence, assessment methodology.*

Kirish. Hozirgi kunda global ta'lim tizimining rivojlanishi kontekstida xalqaro baholash dasturlari ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlarning professional tayyorgarligini takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) dasturi to‘rt yillik tsiklda 40 dan ortiq mamlakat o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim darajasini baholash orqali ta'lim tizimlarining samaradorligini taqqoslash imkoniyatini beradi [1]. Ushbu dastur nafaqat o‘quvchilar bilimini, balki ta'lim jarayonining barcha jihatlarini, shu jumladan o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini ham ko‘rib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida xalqaro standartlarga muvofiq kadrlar tayyorlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [2]. Shu munosabat bilan bo‘lajak mutaxassislarni TIMSS dasturi asosida metodik jihatdan tayyorlash zarurati tug‘iladi.

TIMSS dasturining asosiy xususiyati shundaki, u nafaqat o‘quvchilarning faktik bilimlarini, balki ularning muammolarni hal qilish qobiliyatlari, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari hamda o‘rganilgan bilimlarni real hayot vaziyatlarida qo‘llash malakalarini ham baholaydi [3]. Bu esa o‘qituvchilardan zamonaviy metodik yondashuvlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari va talabalarni baholashning ilg‘or usullarini egallashni talab qiladi. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida TIMSS prinsiplarini integratsiyalash ularning kelajakdagi professional faoliyatida xalqaro standartlarga javob beradigan ta'lim xizmatlarini ko‘rsatishga imkon yaratadi [4]. Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak mutaxassislarni TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida metodik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash va amaliy yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, taqqoslash-tahlil metodi hamda xalqaro ta'lim standartlarini o‘rganish usullari qo‘llanilgan. Adabiyotlar tahlili TIMSS dasturiga oid xalqaro tadqiqotlar, metodik tayyorgarlik nazariyalari va pedagog ta'limiga oid ilmiy manbalarni o‘z ichiga oladi. Mullis va Martin tomonidan amalga oshirilgan TIMSS dasturi hujjatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, dastur uch asosiy komponentni qamrab oladi: mazmuniy bilimlar, kognitiv faoliyat darajalari va baholash metodikasi [1]. Mazmuniy bilimlar matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlari asosida tuzilgan bo‘lib, kognitiv faoliyat darajalari bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish kabi ko‘nikmalarni baholashni nazarda tutadi. Bu tuzilma o‘qituvchilardan ham shunga mos metodik tayyorgarlikni talab qiladi.

Rossiya Federatsiyasining pedagog ta'limi bo‘yicha tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ishlar TIMSS natijalarini o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga integratsiyalashning samaradorligini tasdiqlaydi [5]. Xususan, Kovaleva va hamkasblari o‘qituvchilarning matematik-didaktik bilimlarini rivojlantirish va xalqaro baholash metodikalarini egallash o‘rtasida to‘g‘ri bog‘liqlik borligini aniqlagan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, TIMSS dasturi talablarini o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga kiritish ularning metodologik kompetentligini sezilarli darajada oshiradi [5]. Xalqaro tajribalar, xususan, Singapur va Yaponiya kabi yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning doimiy professional rivojlanishi va metodik tayyorgarligi ta'lim sifatining asosiy omillaridan biridir [6].

TIMSS dasturining nazariy asoslari konstruktivistik ta'lim nazariyasiga tayanadi, bu esa talabalarning faol ishtirokini va mustaqil bilim qurish jarayonini ta'kidlaydi [7]. Shu munosabat bilan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ham ushbu yondashuvni qo‘llash zarur. Cogan va Schmidt tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, TIMSS dasturi doirasida o‘qituvchilar o‘quv dasturlarini shakllantirish, dars rejalarini tuzish va baholash vositalarini ishlab chiqishda xalqaro standartlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [3]. Bu esa ularning metodik arsenalini kengaytiradi va zamonaviy ta'lim talablariga javob berishga yordam beradi. O‘zbek tilidagi adabiyotlar tahlili bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini shakllantirishda nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarning uyg‘unlikda rivojlanishi zarurligini ko‘rsatadi [8].

Metodik tayyorgarlik jarayonini tashkil etishda kompetentlik yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv bo‘lajak mutaxassislarda nafaqat bilimlar, balki ularni amaliyotda samarali qo‘llash qobiliyatlarini ham shakllantirishni nazarda tutadi [9]. TIMSS dasturi kontekstida metodik

kompetentlik quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: o‘quv materiallarini tanlash va tuzish, turli baholash usullarini qo‘llash, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirishdir [10]. Pedagogik fan-texnologiyalar rivojlanishi bilan TIMSS dasturi ham evolyutsiyaga uchradi va hozirgi paytda kompyuter asosidagi baholash (eTIMSS) formatini ham taklif etadi, bu esa bo‘lajak o‘qituvchilardan raqamli kompetentliklarni talab qiladi.

Natijalar va muhokama. Olib borilgan nazariy tahlil asosida bo‘lajak mutaxassislarni TIMSS dasturi asosida metodik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmining quyidagi komponentlari aniqланди. Birinchidan, oliy pedagog ta'limi muassasalarida TIMSS dasturi prinsiplari va metodikasi bo‘yicha maxsus kurslarni joriy etish zarur. Bunday kurslar bo‘lajak o‘qituvchilarga xalqaro baholash tizimi, uning tuzilishi, mazmuni va amaliy qo‘llanilishi haqida chuqur tushuncha berishi kerak. Kurslar doirasida talabalar TIMSS test topshiriqlari bilan ishlash, ularni tahlil qilish, o‘z darslarida shunga o‘xshash vazifalarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini egallashlari lozim. Bu jarayon nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalarning integratsiyasini ta'minlaydi va kelajakdagi professional faoliyatga mustahkam poydevor yaratadi.

Ikkinchidan, pedagogik amaliyot jarayonida TIMSS baholash metodikasini qo‘llash imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilar amaliyot davomida TIMSS formatidagi topshiriqlarni ishlab chiqishlari, sinov o‘tkazishlari va natijalarni tahlil qilishlari kerak. Bu ularning diagnostik qobiliyatlarini rivojlantiradi va talabalarning bilim darajasini ob'ektiv baholash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, amaliyot jarayonida mentor o‘qituvchilar bilan hamkorlik bo‘lajak mutaxassislarga professional tajriba almashish va metodik mahoratni takomillashtirish imkoniyatini beradi. TIMSS dasturi o‘quv dasturlarining qamrovliligi va chuqurligi o‘rtasidagi muvozanatga katta e'tibor beradi, shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar ham o‘quv materiallarini tanlashda ushbu prinsipni qo‘llashni o‘rganishlari zarur.

Uchinchidan, bo‘lajak mutaxassislarning metodik portfelini shakllantirish mexanizmi joriy etilishi maqsadga muvofiq. Metodik portfel TIMSS dasturi asosida ishlab chiqilgan dars ishlanmalari, test materiallari, didaktik vositalar va refleksiv tahlillarni o‘z ichiga olishi kerak. Bunday portfel nafaqat talabaning professional o‘sishini ko‘rsatadi, balki uni mehnat bozoriga taqdim etishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Portfel ishlab chiqish jarayonida talabalar o‘z metodik faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish va takomillashtirish ko‘nikmalarini egallaydilar, bu esa refleksiv professional kompetentlikning shakllanishiga yordam beradi. TIMSS dasturining turli kognitiv darajalarni baholash tamoyili portfelda aks ettirilishi va bo‘lajak o‘qituvchilarning har bir daraja uchun tegishli metodik yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini namoyish etishi lozim.

To‘rtinchidan, xalqaro hamkorlik va tajriba almashish dasturlarini tashkil etish orqali bo‘lajak mutaxassislarning metodik ko‘klamini kengaytirish mumkin. Boshqa mamlakat pedagog ta'limi muassasalari bilan hamkorlik, qo‘shma vebinarlar va onlayn platformalar orqali TIMSS dasturini muvaffaqiyatli qo‘llayotgan o‘qituvchilar tajribasini o‘rganish imkoniyati yaratilishi kerak. Bunday xalqaro aloqalar bo‘lajak mutaxassislarga turli ta'lim tizimlarining kuchli tomonlarini o‘rganish va ularni o‘z sharoitlariga moslashtirishga yordam beradi. TIMSS natijalarini taqqoslash va boshqa mamlakatlar tajribasini o‘rganish orqali talabalar global ta'lim tendensiyalarini tushunishlari va milliy ta'lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishlari mumkin.

Shuningdek bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish va TIMSS dasturi bilan bog‘liq mavzularda kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari yozishlarini tashkil etish zarur. Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida talabalar TIMSS metodikasini chuqur o‘rganadilar, empirik ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning analitik tafakkurini shakllantiradi va kelajakda mustaqil ravishda ilmiy-metodik ishlar olib borishga tayyorlaydi. TIMSS dasturi doirasida o‘tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar natijalariga tayanish bo‘lajak mutaxassislarga evidensga asoslangan yondashuvni egallashga yordam beradi va ularning professional qarorlarini ilmiy dalillarga asoslashni o‘rgatadi.

Raqamli texnologiyalar va zamonaviy baholash vositalarini qo‘llash bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarning kompetentligini rivojlantirish mexanizmi joriy etilishi zarur. TIMSS dasturi hozirgi

kunda kompyuter asosida baholash (eTIMSS) formatini keng qo‘llaydi va bu pedagoglardan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallashni talab qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagog ta'limi jarayonida elektron test tuzish platformalari, interaktiv baholash vositalari, ta'limiy dasturiy ta'minot va onlayn monitoring tizimlari bilan ishlash ko‘nikmalarini egallashlari lozim. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning individual ta'lim traektoriyalarini shakllantirish, ularning o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish va o‘quv jarayonini moslashtirishga yo‘naltirilgan metodik yechimlarni ishlab chiqish talab etiladi. Raqamli kompetentliklarni rivojlantirish nafaqat TIMSS formatiga moslashishni, balki umuman zamonaviy ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lib, bu bo‘lajak mutaxassislarning professional raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi va ularni XXI asr ta'lim talablariga javob berishga tayyorlaydi.

Bo‘lajak mutaxassislarda refleksiv amaliyot va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmi TIMSS asosidagi metodik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Refleksiv yondashuv pedagoglarga o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, metodik qarorlarning samaradorligini baholash va doimiy professional takomillashuv strategiyasini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z darslarini videoga olish, ularni tahlil qilish, hamkasblar bilan muhokama qilish va TIMSS standartlari nuqtai nazaridan baholash jarayonlarini o‘zlashtirishlari zarur. Bunday refleksiv sessiyalar davomida talabalar o‘z metodik yondashuvlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydilar, o‘quvchilarning turli kognitiv darajalariga moslashtirilgan topshiriqlarni qanday ishlab chiqish va taqdim etishni tahlil qiladilar. O‘z-o‘zini baholash portfeli yuritish, metodik kundalik yozish va doimiy monitoring olib borish bo‘lajak mutaxassislarda professional o‘sishga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. TIMSS dasturi doirasida refleksiv amaliyot nafaqat shaxsiy professional rivojlanishni, balki butun ta'lim tizimining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashga ham xizmat qiladi, chunki refleksiv pedagog o‘z tajribasini doimiy ravishda takomillashtiradi va zamonaviy ta'lim talablariga moslashib boradi.

Fanlararo integratsiya va kompleks metodik yondashuvni qo‘llash bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarning kompetentligini rivojlantirish mexanizmi joriy etilishi lozim. TIMSS dasturi matematik va tabiiy fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta'kidlaydi va real hayot kontekstida bilimlarni qo‘llashni talab qiladi, shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar turli fanlar o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatish va kompleks loyihalar ishlab chiqish ko‘nikmalarini egallashlari zarur. Fanlararo integratsiya matematika, fizika, kimyo, biologiya va boshqa fanlarni bir-biri bilan bog‘lovchi mavzular va vazifalar yaratishni nazarda tutadi, bu esa o‘quvchilarning sistemali tafakkurini rivojlantiradi va bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatlarini oshiradi. Bo‘lajak mutaxassislar pedagog ta'limi jarayonida STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi asosida darslar loyihalash, muammoli vaziyatlarni yaratish va talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb qilish metodikasini o‘zlashtirishlari kerak. Kompleks metodik yondashuv nafaqat TIMSS dasturi talablariga javob beradi, balki bo‘lajak o‘qituvchilarni keng qamrovli, innovatsion va samarali ta'lim jarayonini tashkil etishga tayyorlaydi, bu esa ularning professional moslashuvchanligi va kreativligini rivojlantiradi.

Xulosa. TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida bo‘lajak mutaxassislarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimi uchun strategik ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, TIMSS prinsiplarini pedagog ta'limiga integratsiyalash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning professional kompetentligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Taklif etilgan mexanizm besh asosiy komponentdan iborat: maxsus kurslar joriy etish, pedagogik amaliyotda TIMSS metodikasini qo‘llash, metodik portfelni shakllantirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish. Ushbu komponentlarning kompleks amalga oshirilishi bo‘lajak mutaxassislarda xalqaro standartlarga mos metodik kompetentliklarni shakllantirishga xizmat qiladi.

TIMSS dasturining mazmuniy va metodologik potentsiali bo‘lajak o‘qituvchilarga nafaqat baholash ko‘nikmalarini, balki o‘quv jarayonini loyihalash, o‘quv materiallarini tanlash va didaktik vositalarni ishlab chiqishda xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bunday yondashuv milliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshiradi va global ta'lim makonida

O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga hissa qo‘shadi. Kelajakda ushbu yo‘nalishda amaliy tadqiqotlar olib borish, TIMSS asosidagi metodik tayyorgarlik samaradorligini empirik baholash va doimiy takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mullis I.V.S., Martin M.O. TIMSS 2019 assessment frameworks. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2017. – 216 p.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”: PF-5712-son Farmon, 29.04.2019. – Toshkent, 2019.
3. Cogan L.S., Schmidt W.H. The concept of opportunity to learn (OTL) in international comparisons of education // Research in Comparative and International Education. – 2015. – Vol. 10. – No. 1. – P. 3–16.
4. Karimov Sh.N., Salimova D.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda xalqaro standartlar va milliy ta’lim tizimi integratsiyasi // Pedagogik ta’lim. – 2022. – № 3. – B. 45–52.
5. Kovaleva G.S., Krasnovskiy E.A. Mezhdunarodnye issledovaniya kachestva obrazovaniya kak sredstvo sovershenstvovaniya pedagogicheskogo obrazovaniya // Pedagogika. – 2018. – № 5. – S. 88–96.
6. Tan C.Y., Dimmock C. How a “top” performing Asian school system formulates and implements policy: The case of Singapore // Educational Management Administration & Leadership. – 2014. – Vol. 42. – No. 5. – P. 743–763.
7. Richardson V. Constructivist pedagogy // Teachers College Record. – 2003. – Vol. 105. – No. 9. – P. 1623–1640.
8. Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagog kadrlarni tayyorlashda metodik kompetentlikning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 168 b.
9. Hutmacher W. Key competencies for Europe // Report of the Symposium in Berne. – Strasbourg: Council for Cultural Cooperation, 1997. – 72 p.
10. Shulman L.S. Those who understand: Knowledge growth in teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15. – No. 2. – P. 4–14.

Tursunova Umidaxon Agzamovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xorijiy tillar ta'limi kafedrasi dotsenti, PhD

TALABALARNING TA'LIM NATIJALARINI BAHOLASHNING INNOVATSION TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI (ILMIY VA TAJRIBA ASOSIDA)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarning ta'lim natijalarini baholashning innovatsion tizimini takomillashtirish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda an'anaviy baholash tizimlarining kamchiliklari, zamonaviy innovatsion baholash usullarining afzalliklari hamda ularni joriy etishning pedagogik-psixologik asoslari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalarida talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda baholash mezonlarini ishlab chiqish, o‘qituvchilarning innovatsion baholash kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tavsiyalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion baholash, ta'lim natijalari, reyting tizimi, formativ baholash, summativ baholash, kompetentsiyaviy yondashuv, ta'lim sifati, pedagogik texnologiyalar, o‘quv jarayoni, baholash mezonlari.*

MECHANISMS FOR IMPROVING THE INNOVATIVE SYSTEM OF ASSESSING STUDENTS' LEARNING OUTCOMES (BASED ON SCIENTIFIC AND EXPERIMENTAL RESEARCH)

Аннотация. *В данной статье представлен научно-теоретический анализ механизмов совершенствования инновационной системы оценки образовательных результатов учащихся. В исследовании рассматриваются недостатки традиционных систем оценки, преимущества современных инновационных методов оценки, а также педагогические и психологические основы их внедрения. Результаты исследования содержат рекомендации по разработке критериев оценки с учетом индивидуальных особенностей учащихся, развитию инновационных оценочных компетенций учителей и повышению качества образования.*

Ключевые слова: *инновационная оценка, образовательные результаты, рейтинговая система, формирующая оценка, итоговая оценка, компетентностный подход, качество образования, педагогические технологии, образовательный процесс, критерии оценки.*

MECHANISMS FOR IMPROVING THE INNOVATIVE SYSTEM OF ASSESSING STUDENTS' LEARNING OUTCOMES (BASED ON SCIENTIFIC AND EXPERIMENTAL RESEARCH)

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the mechanisms for improving the innovative system of assessing students' educational outcomes. The study examines the shortcomings of traditional assessment systems, the advantages of modern innovative assessment methods, and the pedagogical and psychological foundations of their implementation. The results of the study provide recommendations for developing assessment criteria taking into account the individual characteristics of students, developing innovative assessment competencies of teachers, and improving the quality of education.*

Key words: *innovative assessment, educational outcomes, rating system, formative assessment, summative assessment, competency-based approach, quality of education, pedagogical technologies, educational process, assessment criteria.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning o‘zlashtirish darajasini ob'ektiv baholash masalasi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. An'anaviy baholash usullari ko‘pincha talabaning haqiqiy bilim va ko‘nikmalarini to‘liq aks ettira olmaydi, bu esa ta'lim sifatini pasayishiga olib keladi [1]. Bugungi kunda jahon ta'lim makonida innovatsion baholash tizimlarini joriy

etish tendentsiyasi kuchayib bormoqda, chunki ular nafaqat bilimlarni o‘lchash, balki talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida ham ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida baholash tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan [2]. Shu bois, talabalarning ta'lim natijalarini baholashning innovatsion tizimini nazariy jihatdan o‘rganish va uni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi talabalarning ta'lim natijalarini baholashning innovatsion tizimini takomillashtirish mexanizmlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va amaliyotga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda nazariy tadqiqot metodlari, jumladan, ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, sintez, deduksiya va induksiya, qiyosiy tahlil hamda modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot bazasini mahalliy va xorijiy olimlarning baholash tizimiga oid ilmiy ishlari, monografiyalari, dissertatsiyalari hamda ta'lim sifati bo‘yicha xalqaro tashkilotlarning hisobotlari tashkil etdi. Baholash tizimining nazariy asoslarini o‘rganishda birinchi navbatda an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni farqlash zarur. An'anaviy baholash tizimi asosan summativ xarakterga ega bo‘lib, u o‘quv jarayonining yakunida talabaning bilim darajasini baho orqali ifodalashga qaratilgan [3]. Biroq, bunday yondashuv bir qator kamchiliklarga ega: birinchidan, u talabaning o‘quv jarayonidagi rivojlanish dinamikasini hisobga olmaydi; ikkinchidan, sub'ektiv omillar ta'sirida baholash natijalari buzilishi mumkin; uchinchidan, an'anaviy baholash ko‘pincha faqat bilimlarni eslab qolish qobiliyatini o‘lchaydi, ammo ularni amalda qo‘llash kompetentsiyasini baholamaydi. Rossiyalik olim V.I. Zvonnikov ta'kidlaganidek, zamonaviy ta'lim paradigmasi talabadan nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishni, balki ularni yangi vaziyatlarda ijodiy qo‘llash qobiliyatini talab qiladi, shuning uchun baholash tizimi ham bu talabga mos kelishi lozim [4].

Innovatsion baholash tizimining asosiy xususiyatlaridan biri formativ va summativ baholashning uyg‘unlashuvidir. Formativ baholash o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshirilib, talabaga o‘z kamchiliklarini anglash va ularni bartaraf etish imkoniyatini beradi [5]. D. Wiliam va P. Black o‘zlarining fundamental tadqiqotlarida formativ baholashning ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini isbotlaganlar va uni "baholash uchun o‘qitish" (assessment for learning) kontseptsiyasi sifatida taqdim etganlar [6]. Ushbu yondashuv talabani baholash jarayonining passiv ob'ektidan faol sub'ektiga aylantirib, o‘z-o‘zini baholash va tengdoshlarni baholash (peer assessment) amaliyotlarini joriy etish imkoniyatini yaratadi. Shunday qilib, innovatsion baholash tizimi nafaqat nazorat funksiyasini, balki rivojlantiruvchi, motivatsiyalovchi va diagnostik funksiyalarni ham bajaradi.

Kompetentsiyaviy yondashuv innovatsion baholash tizimining yana bir muhim nazariy asosini tashkil etadi. Ushbu yondashuv doirasida baholash ob'ekti sifatida alohida bilim va ko‘nikmalar emas, balki ularning murakkab integratsiyasi – kompetentsiyalar qaraladi [7]. O‘zbekistonlik olim M.X. To‘xtaxo‘jayev ta'kidlaganidek, kompetentsiyaviy baholash talabalarning kasbiylashuvini ta'minlash va mehnat bozori talablariga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi [8]. Kompetentsiyalarni baholash uchun an'anaviy test va yozma ishlar yetarli emas; bu maqsadda portfel (portfolio), loyiha ishlari, keys-stadi, simulyatsiya va boshqa interaktiv baholash vositalaridan foydalanish talab etiladi. Shu bilan birga, kompetentsiyaviy baholash mezonlarini ishlab chiqishda aniq va o‘lchanadigan indikatorlar belgilash, ularni talabalar va o‘qituvchilarga tushunarli tarzda yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelishi baholash tizimini tubdan o‘zgartirishga imkon yaratdi. Elektron ta'lim platformalari, sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlari, adaptiv testlar va analitik tizimlar o‘qituvchilarga talabalarning individual rivojlanish dinamikasini kuzatish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda o‘quv jarayonini moslashtirishga yordam beradi [9]. Masofaviy ta'lim sharoitida onlayn baholash vositalarining ahamiyati yanada oshdi; biroq, bu bilan birga akademik halollik masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun innovatsion baholash tizimini joriy etishda texnologik imkoniyatlar bilan birga axloqiy va huquqiy jihatlarni ham hisobga olish zarur.

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili asosida talabalarning ta'lim natijalarini baholashning innovatsion tizimini takomillashtirish mexanizmlarini quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha tizimlashtirish mumkin. Birinchi yo‘nalish – baholash mezonlarini standartlashtirish va shaffoflashtirish. Innovatsion baholash tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan mezonlarning aniq va ob'ektiv belgilanganligiga bog‘liq. Buning uchun har bir fan bo‘yicha kutilayotgan o‘quv natijalari (learning outcomes) aniq formulalanishi, ularni baholash indikatorlari ishlab chiqilishi va talabalar hamda o‘qituvchilarga yetkazilishi lozim. Rubrikalar (baholash matritslari) bunday mezonlarni tizimlashtirish va qo‘llashning samarali vositasi sifatida o‘zini ko‘rsatgan; ular baholashning sub'ektivligini kamaytirish va talabalar uchun aniq yo‘nalish berish imkonini beradi.

Ikkinchi yo‘nalish – formativ va summativ baholashning muvozanatli integratsiyasi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, faqat yakuniy bahoga tayanadigan tizim talabalarni chuqur o‘rganishga emas, balki imtihondan o‘tishga yo‘naltiradi, bu esa sirt o‘zlashtirishga olib keladi. Shu bois, o‘quv jarayoni davomida muntazam formativ baholash tadbirlarini o‘tkazish, talabalarning rivojlanish dinamikasini kuzatib borish va ularni qayta aloqa (feedback) bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Formativ baholash natijalarini yakuniy bahoga ma'lum foizda kiritish talabalarni butun semestr davomida faol ishlashga undaydi va o‘quv motivatsiyasini oshiradi. Shu bilan birga, formativ baholashning haddan tashqari ko‘payishi talabalar va o‘qituvchilarni ortiqcha yuklashi mumkinligini hisobga olib, muvozanatli yondashuvni ta'minlash lozim.

Uchinchi yo‘nalish – talabalarni baholash jarayoniga faol jalb etish. O‘z-o‘zini baholash va tengdoshlarni baholash amaliyotlari talabalarning refleksiv kompetentsiyasini rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va baholash jarayoniga mas'uliyatli munosabatni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalariga ega talabalar mustaqil ta'lim olishda va kelajakda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘ladilar [10]. Biroq, bu amaliyotlarni joriy etishda talabalarni tegishli mezonlar va usullar bilan tanishtirish, bosqichma-bosqich o‘rgatish hamda ularning baholash kompetentsiyasini rivojlantirish zarur.

To‘rtinchi yo‘nalish – raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish. Elektron baholash tizimlari, avtomatlashtirilgan testlar, sun'iy intellekt asosidagi analitika vositalari baholash jarayonini tezlashtirish, ob'ektivlashtirish va individualizatsiyalash imkonini beradi. Adaptiv testlar talabaning bilim darajasiga qarab savollar murakkabligini avtomatik moslashtiradi, bu esa baholashning aniqligini oshiradi. Biroq, texnologiyalarning cheklovlari ham mavjud: ular asosan bilim va tushunishni baholashga mo‘ljallangan bo‘lib, ijodiylik, muloqot qobiliyati va boshqa "yumshoq" ko‘nikmalarni baholashda an'anaviy usullarga muhtoj. Shuning uchun texnologik va an'anaviy baholash usullarining oqilona kombinatsiyasi optimal natijaga olib keladi.

Beshinchi yo‘nalish – o‘qituvchilarning innovatsion baholash kompetentsiyalarini rivojlantirish. Hech qanday innovatsion tizim o‘qituvchilarning malakasi va tayyorgarligi yetarli bo‘lmasa samarali ishlay olmaydi. Shuning uchun innovatsion baholash usullarini joriy etish jarayonida o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ularni yangi usullar va texnologiyalar bilan tanishtirish, amaliy treninglar o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar orasida tajriba almashish, eng yaxshi amaliyotlarni tarqatish va ilmiy-metodik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish lozim.

Innovatsion baholash tizimining mohiyatini chuqurroq anglash uchun an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar o‘rtasidagi farqlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqish zarur. An'anaviy baholash tizimi o‘z tabiati jihatidan retrospektiv xarakterga ega bo‘lib, u talabaning ma'lum vaqt oralig‘ida nimani o‘zlashtirganini qayd etishga qaratilgan; bunda asosiy e'tibor natijaga, ya'ni yakuniy bahoga qaratiladi va jarayon ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib qoladi. Bunday yondashuv talabalarni chuqur o‘rganishdan ko‘ra, imtihondan muvaffaqiyatli o‘tishga yo‘naltiradi, natijada bilimlar uzoq muddatli xotiraga o‘tmaydi va amaliy faoliyatda qo‘llanilmaydi. Innovatsion baholash tizimi esa prospektiv xarakterga ega bo‘lib, u nafaqat o‘tmishdagi yutuqlarni qayd etadi, balki talabaning kelajakdagi rivojlanishi uchun yo‘nalish beradi, uning kuchli tomonlarini aniqlaydi va kamchiliklarini bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatadi. Shu ma'noda, innovatsion baholash tizimi ta'limning ajralmas qismiga aylanadi va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Baholash tizimini takomillashtirishda e'tiborga olish lozim bo‘lgan muhim jihat – bu baholashning ko‘p funksionalligidir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, samarali baholash tizimi bir vaqtning o‘zida bir nechta funksiyani bajarishi kerak: diagnostik funksiya talabaning boshlang‘ich bilim darajasini aniqlashga, formativ funksiya o‘quv jarayonini to‘g‘rilashga, summativ funksiya yakuniy natijalarni qayd etishga, motivatsiyalovchi funksiya esa talabani faol ishlashga undashga xizmat qiladi. An'anaviy tizimda bu funksiyalar ko‘pincha bir-biridan ajratilgan va asosan summativ funksiyaga ustunlik berilgan. Innovatsion tizimda esa barcha funksiyalar integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi, bu esa baholashning pedagogik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, innovatsion baholash tizimida talabaning individual xususiyatlari, o‘rganish uslubi va rivojlanish sur'ati hisobga olinadi, bu esa ta'limni differentsiyalash va personalizatsiyalash imkoniyatini yaratadi.

Innovatsion baholash tizimini joriy etishda bir qator muammolar va to‘siqlar mavjudligini ham e'tirof etish lozim. Birinchidan, ko‘plab o‘qituvchilar an'anaviy baholash usullariga ko‘nikkan bo‘lib, yangi usullarga o‘tish ular uchun qo‘shimcha vaqt va kuch talab qiladi; ba'zilari esa o‘zgarishlarga nisbatan psixologik qarshilik ko‘rsatadi. Ikkinchidan, innovatsion baholash usullarini qo‘llash uchun tegishli infratuzilma, texnik vositalar va metodik ta'minot zarur bo‘lib, bu qo‘shimcha moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Uchinchidan, formativ baholash va qayta aloqa berish o‘qituvchidan ko‘proq vaqt talab qiladi, bu esa yuqori o‘quv yuklamasi sharoitida qiyinchilik tug‘diradi. To‘rtinchidan, ba'zi innovatsion baholash usullari, masalan, tengdoshlarni baholash yoki o‘z-o‘zini baholash, talabalarning yetarli tayyorgarligini talab qiladi va noto‘g‘ri qo‘llanilganda sub'ektiv natijalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, innovatsion baholash tizimini joriy etish jarayonida ushbu muammolarni hisobga olish va ularni bosqichma-bosqich hal qilish strategiyasini ishlab chiqish zarur.

O‘zbekiston oliy ta'lim tizimi kontekstida innovatsion baholash tizimini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xalqaro ta'lim standartlariga moslashish va mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash zarurati baholash tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Hozirgi kunda ko‘plab oliy ta'lim muassasalarida reyting tizimi joriy etilgan bo‘lsa-da, uning amaliyotda qo‘llanilishi ko‘pincha formal xarakterga ega va innovatsion baholashning asosiy tamoyillari to‘liq amalga oshirilmayapti. Shuning uchun, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, o‘qituvchilarni innovatsion baholash usullariga o‘rgatish va tegishli metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bundan tashqari, xalqaro tajribani o‘rganish va uni milliy ta'lim an'analariga moslashtirib qo‘llash innovatsion baholash tizimining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy tadqiqot natijalaridan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Talabalarning ta'lim natijalarini baholashning innovatsion tizimi an'anaviy baholashdan tubdan farq qilib, nafaqat nazorat, balki rivojlantiruvchi, diagnostik va motivatsiyalovchi funksiyalarni bajaradi. Innovatsion baholash tizimining nazariy asoslarini kompetentsiyaviy yondashuv, formativ baholash kontseptsiyasi va talabaga yo‘naltirilgan ta'lim paradigmasi tashkil etadi. Baholash tizimini takomillashtirish mexanizmlari sifatida mezonlarni standartlashtirish, formativ va summativ baholashni integratsiyalash, talabalarni baholash jarayoniga jalb etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda o‘qituvchilar kompetentsiyasini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar aniqlandi. Innovatsion baholash tizimini joriy etish izchil, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim bo‘lib, u barcha ishtirokchilarning – ta'lim muassasasi rahbariyati, o‘qituvchilar va talabalarning faol hamkorligini talab qiladi. Kelajakda ushbu sohadagi tadqiqotlarni amaliy tajribalar bilan boyitish va innovatsion baholash modellarining samaradorligini empirik usullar orqali sinab ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bloom B.S. Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. – New York: Longman, 1956. – 207 p.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”: PF-5712-son Farmon, 29.04.2019. – Toshkent, 2019.

3. Popham W.J. Classroom assessment: What teachers need to know. – 8th ed. – Boston: Pearson, 2017. – 448 p.

4. Звонников В. И., Челышкова М. Б. Современные средства оценивания результатов обучения. — М.: Академия, 2016. — 304 с.

5. Sadler D. R. Formative assessment and the design of instructional systems // Instructional Science. — 1989. — Vol. 18. — P. 119–144.

6. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. — 1998. — Vol. 5, No. 1. — P. 7–74.

7. Biggs J., Tang C. Teaching for quality learning at university. — 4th ed. — Maidenhead: Open University Press, 2011. — 389 p.

8. Тухтахходжаев М. Х. Компетентностный подход в системе высшего образования Узбекистана // Вестник ТГПУ. — 2020. — № 3. — С. 45–52.

Mirzaraxmonova Shaxnoza Mirzaaxmadovna
Alfraganus universiteti dotsenti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: shaxnozamirzaraxmonova@gmail.com

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA EMOTSIONAL KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA LIMBIK TIZIM VA PREFRONTAL KORTEKSNING DIDAKTIK FUNKSIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarda emotsional kompetentlikni shakllantirish jarayonida miyaning asosiy neyrobiologik tuzilmalari - Limbik tizim va Prefrontal korteks ning didaktik funksiyalari tahlil qilinadi. Emotsional kompetentlik pedagogning kasbiy faoliyatida muhim psixologik-pedagogik omil sifatida qaralib, uning neyrofiziologik asoslari yoritiladi. Tadqiqotda emotsiyalarni boshqarish, qaror qabul qilish, stressga chidamlilik va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarining miya tuzilmalari bilan bog‘liqligi ilmiy asosda ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *emotsional kompetentlik, limbik tizim, prefrontal korteks, neyropedagogika, didaktik funksiyalar, stress boshqaruvi, pedagogik faoliyat.*

DIDACTIC FUNCTIONS OF THE LIMBIC SYSTEM AND THE PREFRONTAL CORTEX IN THE FORMATION OF EMOTIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Abstract. *This article analyzes the didactic functions of the main neurobiological structures of the brain - the limbic system and the prefrontal cortex - in the process of forming emotional competence in future teachers. Emotional competence is considered as an important psychological and pedagogical factor in the professional activity of a teacher, and its neurophysiological foundations are highlighted. The study scientifically reveals the connection between the skills of managing emotions, decision-making, stress resistance and social communication with brain structures.*

Key words: *emotional competence, limbic system, prefrontal cortex, neuropedagogy, didactic functions, stress management, pedagogical activity.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ЛИМБИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ И ПРЕФРОНТАЛЬНОЙ КОРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются дидактические функции основных нейробиологических структур головного мозга - лимбической системы и префронтальной коры - в процессе формирования эмоциональной компетентности у будущих учителей. Эмоциональная компетентность рассматривается как важный психолого-педагогический фактор в профессиональной деятельности учителя, и подчеркиваются ее нейрофизиологические основы. Исследование научно раскрывает связь между навыками управления эмоциями, принятия решений, стрессоустойчивости и социальной коммуникации со структурами головного мозга.*

Ключевые слова: *эмоциональная компетентность, лимбическая система, префронтальная кора, нейропедагогика, дидактические функции, управление стрессом, педагогическая деятельность.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim paradigmasida pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar keskin o‘zgarib, u nafaqat bilim beruvchi subyekt, balki murakkab psixologik, emotsional va ijtimoiy jarayonlarni boshqara oladigan kompetent shaxs sifatida talqin etilmoqda. Shu jihatdan bo‘lajak

pedagoglarda emotsional kompetentlikni shakllantirish muammosi pedagogika, psixologiya va neyrofanlar kesishmasida joylashgan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Emotsional kompetentlik shaxsning o‘z emotsiyalarini anglash, boshqarish, ijtimoiy vaziyatlarga adekvat javob qaytarish hamda empatiya asosida muloqot qurish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Neyropedagogik yondashuvga ko‘ra, ushbu jarayonlar miyaning murakkab neyrofiziologik mexanizmlariga tayanadi. Xususan, Limbik tizim emotsional reaksiyalarni shakllantiruvchi asosiy markaz sifatida faoliyat yuritsa, Prefrontal korteks esa ushbu emotsiyalarni nazorat qilish, tahlil qilish va ongli boshqarish funksiyalarini bajaradi.

Mazkur ikki tizim o‘rtasidagi funksional muvozanat pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy neyrobiologik omillardan biri bo‘lib, u o‘quv jarayonida stressga chidamlilik, qaror qabul qilish tezligi hamda ijtimoiy moslashuv darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida emotsional va kognitiv tizimlar integratsiyasiga asoslangan neyropedagogik yondashuvlarni joriy etish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston pedagogika va psixologiya ilmiy maktabida emotsional kompetentlik, shaxs rivojlanishi hamda pedagogik faoliyat psixologiyasi masalalari doirasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N.S. Saidova pedagogik jarayonda emotsional-intellektual rivojlanishning ahamiyatini yoritib, o‘qituvchining emotsional barqarorligi ta’lim samaradorligini oshirishini asoslab bergan. Shuningdek, M.G. Mahmudov ilmiy ishlarida pedagogik refleksiya va emotsional boshqaruv mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilgan. Sh.B. Karimova esa bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ va emotsional kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik shartlarini ishlab chiqqan. Mazkur tadqiqotlar O‘zbekiston ilmiy maktabida emotsional kompetentlik ko‘proq psixologik-pedagogik yondashuv asosida o‘rganilganini ko‘rsatadi, biroq neyrobiologik asoslar yetarlicha chuqur yoritilmaganligi bilan ajralib turadi.

MDH hududidagi olimlar tadqiqotlarida emotsional jarayonlarning psixofiziologik asoslari va pedagogik faoliyatdagi o‘rni keng yoritilgan. L.S. Vygotskiy emotsiyalar va tafakkur birligi konsepsiyasini ishlab chiqib, psixik rivojlanishda ijtimoiy muhitning rolini asoslab bergan. A.N. Leontyev faoliyat nazariyasi doirasida emotsional motivatsiyaning o‘quv faoliyatidagi o‘rnini ochib bergan. Shuningdek, V.D. Nebylitsyn va B.M. Teplov individual psixologik farqlar va nerv tizimi xususiyatlarining emotsional reaksiyalarga ta’sirini o‘rgangan. Zamonaviy rus psixologlaridan E.P. Ilyin emotsiya va motivatsiya integratsiyasini tahlil qilib, pedagogik faoliyatda emotsional barqarorlikning muhimligini ta’kidlagan. Ushbu ilmiy yondashuvlar emotsional kompetentlikni psixofiziologik asoslarda tushuntirishga xizmat qiladi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda emotsional kompetentlik va uning neyrobiologik asoslari keng o‘rganilgan. D. Goleman emotsional intellekt nazariyasini ishlab chiqib, emotsional boshqaruvni inson muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida asoslagan. A. Damasio o‘z tadqiqotlarida qaror qabul qilish jarayonida emotsiyalar va kognitiv tizimning ajralmasligini ko‘rsatib, “somatik markerlar nazariyasi”ni ilgari surgan. Shuningdek, J. LeDoux emotsional reaksiyalarning neyron yo‘llarini tahlil qilib, ayniqsa amigdalaning (limbik tizim tarkibi) tezkor emotsional javoblar uchun javobgar ekanini isbotlagan. R. Mayer va P. Salovey esa emotsional intellekt modelini ishlab chiqib, uni idrok, tushunish, boshqarish va qo‘llash bosqichlariga ajratgan. Ushbu ilmiy qarashlar emotsional kompetentlikni neyropsixologik asosda tushuntirishga katta hissa qo‘shgan.

Tahlil va muhokama. Limbik tizim inson emotsional faoliyatining markaziy neyrobiologik tuzilmasi bo‘lib, u o‘quv jarayonida motivatsiya, emotsional baholash va xotira konsolidatsiyasi kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Neyropedagogik yondashuvga ko‘ra, limbik tizim ta’lim jarayonida “emotsional kirish darvozasi” sifatida ishlaydi, ya’ni axborotning qabul qilinishi va mustahkamlanishi emotsional fon bilan bevosita bog‘liqdir.

Jadval-1.

Limbik tizimning didaktik funksional xaritasi

Funksiya turi	Neyrobiologik asos	Didaktik ahamiyati
Emotsional reaksiyalarni shakllantirish	Amigdala faolligi	Ta'limga tezkor emotsional javobni yuzaga keltiradi
Motivatsiyani kuchaytirish	Dopamin tizimi	O'quv faoliyatiga ichki qiziqishni oshiradi
Xotirani mustahkamlash	Gippokamp funksiyasi	Bilimlarning uzoq muddatli saqlanishini ta'minlaydi
Stress reaksiyalarini boshqarish	Gipotalamus–gipofiz o'qi	O'quv jarayonidagi xavotirni faollashtiradi yoki tartibga soladi

Jadvaldan ko'rinadiki, limbik tizim ta'lim jarayonida ikkiyoqlama funksiyani bajaradi: bir tomondan u o'quv motivatsiyasini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan stress reaksiyalarini ham faollashtirishi mumkin. Bu holat emotsional yuklama ortgan sharoitda kognitiv samaradorlikning pasayishiga olib kelishi ehtimolini ko'rsatadi. Shu sababli neyropedagogik nuqtayi nazardan limbik tizim faoliyatini optimal darajada ushlab turuvchi didaktik muhit yaratish muhim hisoblanadi.

Prefrontal korteks yuqori kognitiv funksiyalarni boshqaruvchi asosiy miya sohasi bo'lib, emotsional impulslarni nazorat qilish, refleksiya va qaror qabul qilish jarayonlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. U limbik tizimdan kelayotgan emotsional signallarni "filtrlash" va ijtimoiy-madaniy me'yorlarga moslashtirish funksiyasini bajaradi.

Jadval-2.

Prefrontal korteksning didaktik funksional xaritasi

Funksiya turi	Neyropsixologik mexanizm	Didaktik ahamiyati
Emotsional nazorat	Inhibitor neyron tarmoqlar	Impulsiv reaksiyalarni kamaytiradi
Qaror qabul qilish	Ijro funksiyalari (executive functions)	Pedagogik vaziyatlarda to'g'ri yechim tanlash
Refleksiya	Metakognitiv jarayonlar	O'z faoliyatini tahlil qilish va baholash
Ijtimoiy moslashuv	Prefrontal–limbik integratsiya	Empatiya va kommunikativ kompetentlikni oshirish

Prefrontal korteksning didaktik funksiyalari shuni ko'rsatadiki, u pedagogik faoliyatda "kognitiv boshqaruv markazi" sifatida ishlaydi. Ayniqsa, emotsional impulslarni tormozlash funksiyasi bo'lajak pedagogda stressli vaziyatlarda professional xulqni saqlash imkonini beradi. Bu esa pedagogik kompetentlikning neyrofiziologik asosini tashkil etadi.

Neyropedagogik yondashuvga ko'ra, emotsional kompetentlik alohida tizimlarning emas, balki ularning o'zaro integratsiyasining mahsulidir. Limbik tizim "tez emotsional javob"ni ta'minlasa, prefrontal korteks ushbu javobni "ongli boshqaruv"ga aylantiradi.

Jadval-3.

Limbik tizim va prefrontal korteks o'zaro ta'siri modeli

Ko'rsatkich	Limbik tizim roli	Prefrontal korteks roli	Natijaviy pedagogik effekt
Emotsiya paydo bo'lishi	Tez va avtomatik javob	Nazorat qilmaydi	Impulsiv reaksiya
Emotsiyani baholash	Cheklangan	Faol tahlil	Ongli emotsional qaror
Stress holati	Faollashadi	Tormozlaydi	Stress barqarorligi
Ijtimoiy xulq	Emotsional impuls	Moslashtirish	Empatik muloqot

Jadvaldan ko‘rinadiki, emotsional kompetentlikning shakllanishi ikki tizim o‘rtasidagi dinamik muvozanatga bog‘liq. Agar limbik tizim ustunlik qilsa, pedagogik faoliyatda impulsivlik va emotsional beqarorlik kuchayadi. Aksincha, prefrontal korteks yetakchi bo‘lsa, shaxsning reflektivligi va ijtimoiy moslashuv darajasi oshadi. Demak, optimal pedagogik rivojlanish ushbu ikki tizimning sinergetik faoliyatiga asoslanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarda emotsional kompetentlikni shakllantirish jarayoni oddiy psixologik hodisa emas, balki murakkab neyrofiziologik, kognitiv va didaktik integratsiyaga asoslangan ko‘p darajali tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tizimning markazida Limbik tizim va Prefrontal korteks o‘rtasidagi dinamik funksional muvozanat turadi.

Ilmiy tahlillar asosida aniqlanishicha, limbik tizim emotsional jarayonlarning boshlang‘ich generatori sifatida motivatsiya, affektiv reaksiyalar va emotsional xotira shakllanishini ta’minlaydi. Ayniqsa, amigdala va gippokamp strukturalari orqali ta’lim jarayonida axborotning emotsional “kodlanishi” amalga oshadi. Bu esa o‘quv materialining subyektiv ahamiyatini oshirib, uning uzoq muddatli xotirada saqlanish ehtimolini kuchaytiradi.

Biroq, faqat limbik tizim faoliyati pedagogik kompetentlikni to‘liq shakllantirish uchun yetarli emas. Chunki emotsional reaksiyalar nazoratsiz bo‘lsa, ular impulsiv xatti-harakatlar, stressga haddan tashqari sezgirlik va kognitiv jarayonlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, prefrontal korteks yuqori tartibli boshqaruv markazi sifatida emotsional impulslarni tormozlash, ularni tahlil qilish va ijtimoiy-madaniy me’yorlarga moslashtirish funksiyalarini bajaradi.

Shu bilan birga, emotsional kompetentlikning neyrobiologik modeli shuni ko‘rsatadiki, samarali pedagogik faoliyat limbik tizim va prefrontal korteks o‘rtasidagi uzluksiz neyron aloqalar - ya’ni “emotsional-kognitiv integratsiya”ga asoslanadi. Bu integratsiya qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo‘lsa, shaxsning reflektivligi, empatiyasi va stressga chidamliligi shunchalik kuchli bo‘ladi.

Neyropedagogik nuqtayi nazardan, ta’lim jarayonida ushbu ikki miya tuzilmasining muvozanatini ta’minlashga qaratilgan metodik yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Jumladan:

emotsional refleksiya mashqlari
kognitiv qayta baholash (cognitive reappraisal) texnikalari
stressni boshqarish treninglari
ijtimoiy-emotsional o‘qitish (SEL – Social Emotional Learning)
rolga kirish va pedagogik simulyatsiyalar

kabi interaktiv metodlar prefrontal korteksning ijro funksiyalarini faollashtiradi va limbik tizimning haddan tashqari reaktivligini kamaytiradi.

Shu asosda aytish mumkinki, emotsional kompetentlikni shakllantirish - bu emotsiyani bostirish jarayoni emas, balki uni ongli boshqarish va didaktik maqsadlarga yo‘naltirish jarayonidir. Bu jarayonda neyrobiologik asoslar bilan pedagogik texnologiyalar o‘zaro uyg‘unlashadi.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash lozimki, zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoni neyrodidaktik paradigma asosida qayta ko‘rib chiqilishi zarur. Chunki aynan limbik tizim va prefrontal korteks o‘rtasidagi optimal funksional muvozanat pedagogning kasbiy barqarorligi, emotsional yetukligi va ijtimoiy samaradorligini belgilovchi asosiy biologik-psixologik omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Fayzullayev M., Dexqonov T. Oila psixologiyasi: farzand tarbiyasida emotsional intellektning ahamiyati // Molodye uchenye. – 2025. – No. 3 (24). – S. 98–101.

2. Fayzullayev M., Xamraqulov M., Lutfiddinov M. O‘smirlik davrida kognitiv rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar // Nauka i tekhnologiya v sovremennom mire. – 2025. – No. 4 (17). – S. 22–25.

3. Fayzullayev M.M. Psychological literacy in adolescents as a factor of socialization // SHOKH LIBRARY. – 2025. – Vol. 1. – No. 12.

4. Fayzullayev M.M. O‘smirlarda psixologik savodxonlikni aniqlashda korrelyatsion tahlil // Russian-Uzbekistan Conference. – 2024. – Vol. 1. – No. 1.

5. Fayzullayev M.M. Psychological literacy and its assessment in youth // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Vol. 2. – No. 6. – P. 170–172.

6. Fayzullayev M.M. Concepts of formation and development of psychological literacy in continuous education // Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Vol. 2. – No. 5. – P. 495–497.

7. Fayzullayev M. O‘smirlarda psixologik savodxonlik konstruksiyalari // Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke. – 2023. – Vol. 2. – No. 19. – S. 129–133.

8. Fayzullayev M. Introducing psychological literacy // Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke. – 2024. – Vol. 3. – No. 22. – S. 32–35.

9. Fayzullayev M.M. Discrimination is a violation of human rights and is a problem for students, especially in times of psychological change // International Conference on Learning and Teaching. – 2022. – Vol. 1. – No. 4. – P. 429–431.

Djurayeva Sevinch
Nordik xalqaro universiteti
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti magistri
E-mail:sevinch571632@gmail.com

INGLIZ ADABIYOTIDA FANTAZIYA ELEMENTLARINI O'RGANISH: J.R.R TOLKIEN VA N.GEYMAN ASARLARI TIMSOLIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz adabiyotidagi asosiy fantaziya jihatlarini J.R.R. Tolkien va Neil Geymanning tanlangan asarlarini qiyosiy o'rganish orqali tahlil qiladi. Tadqiqot Tolkienning "Uzuklar hukmdori" va "Silmarillion", shuningdek, N. Geymanning "Amerika xudolari" va "Hech qayerda" romanlarida mif, g'ayritabiiy borliqlar, muqobil reallik, ramziylik, voqelik va tasavvur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Tolkien o'z-o'zidan ma'noga ega bo'lgan mif yaratish (mythopoeia), chuqur til va boshqa olamlardan foydalangan holda fantaziya qiladi. Boshqa tomondan, Geyman zamonaviy shahar sharoitida afsonani qayta ishlash orqali hozirgi hayotning madaniy, ijtimoiy va falsafiy qiyinchiliklarini ko'rsatish uchun fantaziyadan foydalanadi. Ushbu maqolaning xulosasiga ko'ra, ikkala muallif ham mifologik ramkalar va g'ayritabiiy elementlardan foydalangan bo'lsa-da, Tolkienning fantaziyasi epik yaratilishga moyil bo'lsa, Geymanning fantaziyasi afsonani zamonaviy hayotda qayta yozish, ko'chirish va qayta talqin qilishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Fantastik adabiyot,mif yaratish, fantastik dunyo qurilishi ,ikkinchi darajali dunyo,mifologik elementlar, Tolkien, Geyman, zamonaviy fentezi adabiyoti.*

ИЗУЧЕНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ ФЭНТЕЗИ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ДЖ. Р. Р. ТОЛКИН И НИЛ ГЕЙМАН

Аннотация. *В данной статье анализируются основные элементы фэнтези в английской литературе на основе сравнительного изучения избранных произведений Дж. Р. Р. Толкина и Нила Геймана. Исследование рассматривает взаимосвязь мифа, сверхъестественных существ, альтернативной реальности, символизма, а также соотношения реальности и воображения в произведениях Толкина «Властелин колец» и «Сильмариллион», а также в романах Н. Геймана «Американские боги» и «Никогде». В работе используется качественный сравнительный текстовый анализ в рамках исследований фэнтези. Гейман же, напротив, использует переработку мифа в условиях современного городского пространства, чтобы показать культурные, социальные и философские проблемы современной жизни. В статье делается вывод о том, что, хотя оба автора опираются на мифологические структуры и сверхъестественные элементы, фэнтези Толкина тяготеет к эпическому миротворчеству, тогда как фэнтези Геймана направлено на переписывание, перенос и переосмысление мифа в контексте современной жизни.*

Ключевые слова: *фантастическая литература, мифотворчество, построение фэнтезийного мира, вторичный мир, мифологические элементы, Толкин, Гейман, современная литература фэнтези.*

STUDY OF FANTASY ELEMENTS IN ENGLISH LITERATURE: BASED ON THE WORKS OF J. R. R. TOLKIEN AND NEIL GAIMAN

Annotation. *This article analyses the principal fantasy aspects in English literature via a comparative study of selected works by J.R.R. Tolkien and Neil Gaiman. The research examines the roles of myth, supernatural entities, alternate realities, symbolism, and the interplay between reality and imagination in Tolkien's The Lord of the Rings and The Silmarillion, as well as in Gaiman's American Gods and Neverwhere. The study employs a qualitative comparative textual analysis within the context of fantasy studies. On the other hand, Gaiman utilises fantasy to show*

the cultural, social, and philosophical difficulties of current life by reworking myth in modern urban settings. The article says that both writers use mythological structures and supernatural themes, but Tolkien's fantasy is more about epic sub-creation while Gaiman's fantasy is more about revising, relocating, and reinterpreting myth in current life.

Key words: *fantastic literature,mythopoeia,building fantasy world,secondary world,myth motifs,Tolkien,Geiman,modern fantasy literature.*

Kirish. Fantastika adabiyoti ingliz adabiyotshunosligida muhim o'rin tutadi, chunki u mualliflarga haqiqatni imkonsiz, ramziy va mifologik orqali tasvirlash imkonini beradi. Afsonalar, rivoyatlar, xalq ertaklari, ertak va diniy naqshlar zamonaviy fantaziyaga katta ta'sir ko'rsatgan va bu kelib chiqishlar janrning yangi shakllarida ham muhim ahamiyatga ega. Fantaziyashunos olimlar ham bu janr faqat o'yin-kulgi uchun emasligini ta'kidlaganlar; Shuningdek, bu bizga kim ekanligimiz, nimaga ishonamiz va qanday qilib uydirma olamlar va sodir bo'lishi mumkin bo'lmagan voqealar orqali narsalarni va borliq dunyoni anglashimizga yordam beradi.

J.R.R. Tolkien va Nil Geyman fantastikadagi eng muhim mualliflardan ikkitasi. Ularning har ikkalasi ham ushbu janrda muhim rol o'ynaydi , ammo har ikkisining uslubi bir-biridan farq qiladi. Tolkien zamonaviy yuqori fantaziyani va "ikkinchi darajali dunyo", "sub-yaratilish" va "ev-katastrofe" g'oyalarini birlashtirgani bilan mashhur bo'lib, ularning barchasi keyinchalik fantaziya janrida yangi asarlar yozish uchun muhim bo'ldi. Boshqa tomondan, Geyman ko'pincha afsonalarni qayta ko'rib chiqish, shahar fantaziyasi va ilohiy yoki g'ayritabiiy amerikalik asarlarni, xususan, zamonaviy va g'ayritabiiy xususiyatlar "Amerika Xudolari va Hech qayerda" asarlarda ko'rsatilgani kabi tasvirlaydi va bu uning o'ziga xos uslubi hisoblanadi.

Maqolada keyingi o'rinlarda quyidagi tadqiqot so'rovlari ko'rib chiqiladi:

Geyman va Tolkienning tanlangan asarlarida asosiy fentezi elementlar qaysilar?

Har ikki muallif mif va g'ayritabiiy elementlarni ishlatishda qanday farqlanadi?

Fantaziya elementlari ularning asarlarida qanday adabiy vazifalarni bajaradi?

Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, Tolkien va Geyman ikkalasi ham markaziy hikoya qiluvchi vositalar sifatida afsonaviy va fantastik elementlardan foydalanadilar, biroq Tolkien ulardan birinchi navbatda oddiy voqelikdan tashqari izchil epik dunyoni yaratish uchun foydalanadi, Geyman esa ulardan zamonaviy voqelikni qayta talqin qilish uchun foydalanadi.

Tadqiqot usullari: Ushbu tadqiqot sifat jihatidan qiyosiy matn tahlilidan foydalanadi. Tahlil qilish uchun tanlangan asosiy matnlar Tolkienning "Uzuklar hukmdori" va "Silmarillion" va Geymanning "Hech joyda" va "Amerika xudolari"dir. Ushbu asarlar mualliflarning fantaziyaga o'ziga xos yondashuvlarini aniq ifodalagani uchun tanlangan: Tolkienning mifopoetik dunyo qurishi va Geymanning mifdan shahar va revizionistik foydalanishi.

Maqolaning nazariy asosi Tolkienning "Fairy-stories" asaridagi fantaziya haqidagi o'z fikrlariga, shuningdek, keyinchalik fantaziyashunoslikdagi mif, fantaziya va dunyo qurilishi haqidagi tanqidiy munozaralarga tayanadi. Fantastik tanqid odatda janrni mif, afsona, romantizm va xalq og'zaki ijodiga yondashishga qaratilgan tarixiy asosiga e'tibor qaratadi, bu esa ayniqsa Tolkien va Geymanning asarlarini qiyoslashda samarali hisoblanadi.

Natijalar: Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, garchi har bir muallif bu mavzulardan turlicha foydalansa ham, Tolkien va Geyman asarlari beshta umumiy fantaziya xususiyatiga ega.

1. Mif strukturaviy asos sifatida

Eng aniq natijalardan biri shundaki, mif ikkala yozuvchi uchun ham tizimli asos bo'lib xizmat qiladi. Tolkienning fantastikasi mifologik an'anani ataylab qurayotgan mifopeyaga asoslangan. Silmarillionda yaratilish haqidagi ertak, xudolar ierarxiyasi, qahramonlik janglari va qudratli mavjudotlarning qulashi bor. Bu narsalar qadimgi epik an'analarga o'xshash mifologiyani tashkil qiladi. Tolkienning o'ylab topilgan dunyosi shunchaki go'zal joy emas; bu butun xayoliy kosmosdir.

Geyman ham afsonadan foydalanadi, lekin u buni boshqa eski koinotni yaratish orqali qilmaydi. Buning o'rniga, u afsonani jonlantiradi va uni hozirgi kunga olib boradi. Amerika xudolarida qadimgi xudolar hali ham zamonaviy Amerikada yashaydi, ammo odamlarning e'tiqodlari

o'zgarganligi sababli ular zaifroq. London Neverwhereda "oddiy London" va "London Below" o'rtasida bo'lingan. London Quyida metropolni metaforik yer osti olamiga aylantiradigan maxfiy, afsonaviy qatlam mavjud. Shunday qilib, Tolkien narsalarni uydirish orqali mifologik chuqurlikka erishadi, Geyman esa narsalarni o'zgartirish va harakatlantirish orqali amalga oshiradi.

2. G'ayritabiiy mavjudotlarning mavjudligi

Ularning yana bir umumiy tomoni shundaki, har ikkala ijodkor asarlarida hg'ayritabiiy mavjudotlar katta rol o'ynaydi. Tolkienning elflari, sehrgarlari, qorong'u lordlari, ajdarlari va abadiy kuchlari hammasi ierarxiya bo'yicha tuzilgan koinotda yashaydilar. Geymanning asarlarida g'ayritabiiy mavjudotlar ham muhimdir, garchi ular unchalik aniq emas, ko'proq istehzoli va ko'pincha psixologik yoki madaniy ma'nolarga ega. Geymanning g'ayritabiiy figuralari Tolkiennikiga qaraganda oddiy hayot bilan ko'proq bog'langan. Ular kundalik hayot, biznes, ommaviy axborot vositalari, sayohat va shahar hayotining bir qismidir.

3. Ikkilamchi dunyo va yashirin dunyo

Yakuniy natija kosmosdagi tasavvurning shakli bilan bog'liq. Tolkienning asarlari fantaziya nazariyasini ba'zan birlashgan "Ikkinchi darajali dunyo" deb atalishini misol qilib ko'rsatadi, uning ichki uyg'unligi o'quvchilarga u bilan chinakam mustaqil bo'lgandek munosabatda bo'lish imkonini beradi. O'rta Yerning o'z tillari, geografiyasi, irqlari, tarixi, shajaralari va afsonalari bor. Bu Tolkienning fantaziyasini har tomonlama qamrab olgan va jozibali qiladi.

Geyman hamma narsani boshqacha qiladi. Butunlay yangi epik koinot yaratish o'rniga u haqiqiy dunyoga g'ayrioddiy narsalarni qo'shadi. “Hech qayerda ” asarida, fantastika London ostida yotadi; Amerika xudolarida u magistrallar, mehmonxonalar, do'konlar va media madaniyati yonida joylashgan. Shunday qilib, Geymanning tasavvuri odatda narsalarni ajratish o'rniga ularni yashirish orqali ko’rsatadi,istisno tariqasida har kuni qayerningdir tashqarisida bo'lish o'rniga uning ichiga joylashgan.

4. Sayohat mavzusi

Sayohat ikkala muallifning asarlaridagi yana bir muhim fantaziya jihatidir. Tolkien izlanishni dostonlarga xos tarzda ishlatadi. "Uzuklar hukmdori" dagi sayohat bir vaqtning o'zida jismoniy, axloqiy va ma'naviydir. Frodoning O'rta Yer bo'ylab sayohati og'riqli, sinovli, qurbonlik va o'zgaruvchan tajribaga aylanadi. Safar shaxsiy burchni umumbashariy nizolar bilan bog'laydi.

Geyman shuningdek, kvest tizimlarini qo'llaydi, lekin ular odatda zamonaviyroq va parchalanadi. Richard Meyxyu “Hech joyda” asarida labirintga o‘xshash yer osti dunyosi bo‘ylab sayohat qiladi. “Amerika xudolari”da Soya Qo'shma Shtatlar bo'ylab sayohat qiladi, xudolar, ramzlar va boshqa e'tiqod tizimlari bilan uchrashadi. Geyman asarida sayohat odatda buzilgan dunyoda o'zlik va maqsadni izlashni ifodalaydi. Tolkienda qidiruv ko'proq tartibni qaytarishga qaratilgan; Geymanda bu ko'proq narsalar qanchalik beqaror ekanligini ko'rsatishga qaratilgan.

5. Fantaziya ijtimoiy va falsafiy masalalar haqida gapirish usuli sifatida

Va nihoyat, tergov fantaziya ham san'at, ham falsafa uchun foydali ekanligini ko'rsatadi. Tolkienning kitoblari yaxshilik va yomonlik, o'lim, vasvasa, sadoqat va umid kabi narsalarga qaraydi. Uning tasavvurida jiddiy axloqiy ohang va kuch va inoyat orqali reabilitatsiya tasviri mavjud.

Geymanning fantaziyasi esa zamonaviylikka nisbatan ochiqroq mulohazalarni bildiradi. Shahar fantaziyasi bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu janr odatda zamonaviy jamiyatdagi kamchiliklarni ko‘rsatadi yoki tanqid qiladi va Geymanning yozuvi bunga ajoyib misol bo‘la oladi.

Muhokama. Har ikki asarning muhokamasidan kelib chiqqan topilmalar shuni tasdiqlaydiki, Tolkien ham, Geyman ham fantaziyani asosiy tarkibiy qismlariga, jumladan afsona, g'ayritabiiy mavjudotlar, metaforik sayohatlar va g'ayrioddiy olamlarga bog'liq asarlar yaratgan. Boshqa tomondan qaraganda, ular yozadigan asarlarida fantaziya turi juda boshqacha.

Tolkienning tasavvuri birinchi navbatda mifopoikdir va koinotga qaratilgan. Uning maqsadi o'z-o'zidan ma'noga ega bo'lgan, til, tarix va kosmologiyaga ega bo'lgan dunyoni qurishdir va u "ikkinchi darajali e'tiqod" deb atagan narsani o'rnatadi. Bu uning fantastik hikoyasini buyuk, yuksak fikrli va me'moriy qiladi.

Bundan farqli o'laroq, Geyman ijodida o'tkazuvchan, zamonaviy va madaniy jihatdan moslashuvchan fantaziya yozadi. Mutlaqo alohida epik dunyoni qurish o'rniga, u afsonani hozirgi sharoitlarga olib keladi, bu esa fantaziyani madaniyatni qayta tushunishning bir usuliga aylantiradi. Uning badiiy adabiyoti zamonaviy zamonda mif yo‘qolmaganligini ko‘rsatadi; u faqat yangi joyga va yashash tarziga ko'chib o'tdi. Shu munosabat bilan, Gayman Tolkien tomonidan o'rnatilgan an'anani rad etish o'rniga kuchaytiradi. U rivoyat kontekstini o'zgartirib, afsonaviy xayolotni saqlab qoladi.

Qarama-qarshilik, shuningdek, fantaziya yozish kamida ikkita katta usulda ishlashi mumkinligini ko'rsatadi. Birinchidan, u siz adashib qolishingiz mumkin bo'lgan butunlay yangi koinotni qurishi mumkin. Ikkinchidan, uning yashirin afsonaviy qismlarini ko'rsatish orqali tanish dunyoni g'alati his qilishi mumkin. Tolkien dastlabki tendensiyani eng aniq namoyish etadi, Geyman esa keyingi tendensiyani tasvirlaydi.

Binobarin, tadqiqot fantaziya adabiyoti jiddiy adabiy tahlildan chetga chiqmaydi degan nuqtai nazarni tasdiqlaydi. Aslida, bu mafkura, axloq, xotira, o'ziga xoslik va madaniyatni xayoliy ifoda orqali o'rganish uchun eng mos janrlardan biridir.

Xulosa. Ushbu maqola J.R.R. Tolkien va Nil Geyman asarlaridagi fantastik jihatlarni ham adabiyot, ham tafakkur uchun juda muhimligini aniqladi. Ikkala yozuvchi ham afsonalar, g'ayritabiiy mavjudotlar, ramziy sayohatlar va boshqa turdagi voqeliklardan foydalanadilar, ammo ular buni juda boshqacha yo'llar bilan amalga oshiradilar. Tolkienning fantaziyasi sub-yaratilish, epik hajm va izchil afsonaviy ikkilamchi olamning rivojlanishi bilan mashhur. Geymanning badiiy asari eski afsonalarni olib, ularni yangi sharoitlarga, xususan, shaharlar va ijtimoiy kontekstlarga qo'yishi bilan mashhur, bu yerda fantastika madaniyat va falsafa haqida fikr yuritish usuliga aylanadi.

Tadqiqot Tolkien va Geymanni qarama-qarshiliklar sifatida emas, balki ingliz fantaziya adabiyotining rivojlanishidagi ikkita muhim qadam sifatida ko'rish kerak degan xulosaga keladi. Tolkien mifopoeik yuqori fantaziyaning yaratuvchisi, Geyman esa zamonaviy afsonaviy shaklda fantaziyaning muhim qayta talqin qiluvchidir. Ularning asarlari shuni ko'rsatadiki, tasavvur hali ham uydirma va haqiqiy dunyolar haqida haqiqatni gapirishning kuchli usuli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ekman S. Urban fantasy: Investigating modernity through magic. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 2016.
2. Tolkien J.R.R. On fairy-stories // Tree and leaf (yoki: The monsters and the critics and other essays) / ed. by C. Tolkien. – London: HarperCollins, 1997.
3. Nikolajeva M. Fairy tale and fantasy: From archaic to postmodern // Marvels & Tales. – 2003. – Vol. 17. – No. 1.
4. Gaiman N. Reflections on myth // The Horn Book Magazine. – 1999. – Vol. 75. – No. 3.
5. West R.C. Where fantasy fits: The importance of Tolkien // Mythlore. – 2014. – Vol. 33. – No. 1.
6. Sangster M. Introduction to fantasy. – Cambridge: Cambridge University Press, 2023.
7. Levi S. The structural study of myth in Neil Gaiman’s novels and graphic works: dis. – 2016.

Mamarayimova Dildora Baxtiyarovna
Termiz davlat universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti,
Fakultetlararo chet tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TURIZM SOHASI TALABALARINING INGLIZ TILI LEKSIKASINI O‘QITISHDA INTERFERENSIYANING RO‘LI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada turizm sohasi talabalariga ingliz tili leksikasini o‘qitish jarayonida interferensiyaning roli o‘rganiladi. Interferensiya ona tili va chet tili o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladigan lingvistik hodisa bo‘lib, u so‘zlarni o‘zlashtirish jarayoniga ijobiy hamda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqotda interferensiyaning leksik o‘zlashtirishdagi xatoliklar, ularni oldini olish yo‘llari hamda samarali o‘qitish metodlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *interferensiya, leksika, ingliz tili, turizm talabalari, o‘qitish metodikasi, ona tili ta’siri, til o‘zlashtirish, xatoliklar, kommunikativ kompetensiya*

THE ROLE OF INTERFERENCE IN TEACHING ENGLISH VOCABULARY TO TOURISM STUDENTS

Annotation. *This article examines the role of interference in teaching English vocabulary to students of the tourism field. Interference is a linguistic phenomenon that occurs as a result of interaction between the mother tongue and a foreign language, and it can have both positive and negative effects on the process of vocabulary acquisition. The study analyzes lexical errors caused by interference, ways to prevent them, and effective teaching methods.*

Key words:*interference, vocabulary, English language, tourism students, teaching methodology, mother tongue influence, language acquisition, errors, communicative competence*

РОЛЬ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИКЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТОВ ТУРИСТИЧЕСКОЙ СФЕРЫ

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль интерференции в процессе обучения лексике английского языка студентов туристической сферы.Интерференция представляет собой лингвистическое явление, возникающее в результате взаимодействия родного и иностранного языков, и может оказывать как положительное, так и отрицательное влияние на процесс усвоения лексики. В исследовании анализируются лексические ошибки, возникающие под влиянием интерференции, пути их предотвращения, а также эффективные методы обучения.*

Ключевые слова:*интерференция, лексика, английский язык, студенты туризма, методика обучения, влияние родного языка, усвоение языка, ошибки, коммуникативная компетенция.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida turizm sohasi mutaxassislarining chet tillarini, xususan ingliz tilini mukammal bilishi katta ahamiyatga ega. Ingliz tili turizm sohasida xalqaro muloqot vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Shu sababli talabalar ushbu tilning leksik birliklarini samarali o‘zlashtirishlari zarur.Biroq o‘qish jarayonida ona tili va chet tili o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ya’ni interferensiya holati yuzaga keladi. Interferensiya ba’zan so‘zlarni tez o‘zlashtirishga yordam bersa, ba’zan esa xatoliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, ushbu hodisani pedagogik nuqtai nazardan o‘rganish va uni to‘g‘ri boshqarish muhim hisoblanadi.Mazkur maqolada interferensiyaning turizm sohasi talabalarining ingliz tili leksikasini o‘rganish jarayonidagi o‘rni va uning ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda turizm sohasi talabalariga ingliz tili leksikasini o‘qitish jarayonida interferensiyaning ta’sirini o‘rganish uchun nazariy va amaliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodlari sifatida kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish hamda pedagogik tajriba natijalarini umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Shuningdek, talabalar nutqidagi leksik xatoliklar interferensiya nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlilida mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari o‘rganildi. V.V. Vinogradov va L.S. Vygotskiy kabi olimlarning til o‘zlashtirish va psixolingvistika bo‘yicha qarashlari interferensiya hodisasini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy metodik qo‘llanmalarda chet tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv va leksik kompetensiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interferensiya hodisasini hisobga olgan holda o‘qitish metodlarini to‘g‘ri tanlash talabalarning ingliz tili leksikasini samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi.[1]

Turizm sohasi talabalariga ingliz tili leksikasini o‘qitish jarayoni zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Chunki turizm sohasida ishlaydigan mutaxassislar xalqaro mijozlar bilan bevosita muloqotga kirishadi va ularning kasbiy kompetensiyasi ko‘p jihatdan ingliz tilini bilish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli leksik bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. Biroq bu jarayonda interferensiya hodisasi sezilarli rol o‘ynaydi va u talabalar tomonidan so‘zlarni o‘zlashtirishda turli qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Interferensiya ona tili va chet tili o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladigan lingvistik hodisa bo‘lib, u o‘quvchilarning nutqida xatoliklar paydo bo‘lishiga olib keladi. Turizm yo‘nalishidagi talabalar uchun bu holat ayniqsa dolzarb, chunki ular ko‘pincha o‘zbek yoki rus tilidagi leksik va grammatik tuzilmalarni ingliz tiliga bevosita ko‘chirib ishlatishga harakat qiladi. Natijada noto‘g‘ri so‘z tanlash, ma’noni buzib ifodalash yoki noaniq kommunikativ holatlar yuzaga keladi. Masalan, so‘zma-so‘z tarjima qilish natijasida “make excursion” o‘rniga “do excursion” kabi xatoliklar paydo bo‘lishi mumkin.[2]

Leksik interferensiyaning asosiy sababi talabalar ongida mavjud bo‘lgan ona tilidagi tayyor nutq modellari hisoblanadi. O‘quvchi yangi inglizcha so‘zni o‘rganayotganda uni avtomatik ravishda ona tilidagi ekvivalenti bilan bog‘laydi. Agar bu bog‘lanish noto‘g‘ri shakllansa, keyinchalik u mustahkam xatolik sifatida mustahkamlanib qoladi. Shu sababli interferensiya faqat til o‘rganish jarayonidagi vaqtinchalik holat emas, balki tizimli pedagogik muammo sifatida qaraladi.

Turizm sohasida interferensiyaning yana bir ko‘rinishi terminologik xatoliklardir. Masalan, “reservation”, “booking”, “tour package”, “itinerary” kabi atamalarni noto‘g‘ri qo‘llash xizmat ko‘rsatish jarayonida tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Talabalar ko‘pincha ushbu so‘zlarni ona tilidagi umumiy ma’noga asoslanib ishlatadi, bu esa kasbiy kommunikatsiyada noaniqlikni yuzaga keltiradi. Shu bois leksik birliklarni kontekst asosida o‘rgatish juda muhimdir.[3]

Interferensiyaning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish samarali hisoblanadi. Bu yondashuvda talabalar real hayotga yaqin vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanadi, masalan, mehmonxona bron qilish, sayyohlarni kutib olish yoki ekskursiya tashkil qilish kabi rolli o‘yinlar orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bunday mashg‘ulotlar talabalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishdan uzoqlashtiradi va ularni inglizcha fikrlashga o‘rgatadi.[8]

Leksik interferensiyani kamaytirishda kontrastiv tahlil usuli ham muhim ahamiyatga ega. Bu usulda ona tili va ingliz tili o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar taqqoslanadi. Masalan, so‘z birikmalari, fe’l birikmalari va iboralar solishtiriladi. Natijada talabalar qaysi holatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish mumkin emasligini tushunib yetadi. Bu esa xatoliklarning oldini olishga yordam beradi.

O‘qitish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish ham interferensiyani kamaytirishda samarali hisoblanadi. Audio va video materiallar orqali talabalar to‘g‘ri talaffuz va tabiiy nutq namunalarini eshitadi. Bu esa ularning leksik birliklarni faqat yozma shaklda emas, balki kontekstual holatda o‘zlashtirishiga yordam beradi. Ayniqsa, turizm sohasi uchun bu juda muhim, chunki real

muloqot tezkor va aniq nutqni talab qiladi.O‘qituvchi roli ham juda muhimdir. O‘qituvchi talabalar nutqidagi interferensiya xatolarini doimiy kuzatib borishi va ularni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishi kerak. Xatolarni darhol tuzatish emas, balki ularni tushuntirish va qayta ishlashga yo‘naltirish samaraliroq hisoblanadi. Bu yondashuv talabalarni qo‘rqmasdan gapirishga undaydi va ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi.[4]

Individual yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Har bir talabaning til o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lganligi sababli interferensiya darajasi ham har xil bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi differensial topshiriqlar berishi, kuchli va zaif talabalar uchun alohida mashqlar tizimini ishlab chiqishi lozim. Bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.Interferensiya turizm sohasi talabalarining ingliz tili leksikasini o‘zlashtirish jarayonida muhim omil hisoblanadi. U bir tomondan til o‘rganishga to‘sqinlik qilsa, ikkinchi tomondan to‘g‘ri yondashuv orqali ijobiy natijaga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli o‘qitish jarayonida zamonaviy metodlar, kommunikativ yondashuv va amaliy mashg‘ulotlardan samarali foydalanish zarur. Faqat shundagina talabalar ingliz tilini erkin va to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi.[7]

Interferensiya hodisasini tahlil qilishda psixolingvistik omillar ham muhim o‘rin tutadi. Talabalar yangi inglizcha so‘zlarni o‘rganayotganda ularni ona tilidagi mavjud bilimlar tizimi orqali qabul qiladi. Bu jarayonda miya avtomatik ravishda o‘xshash ma’noli yoki shakldosh so‘zlarni bog‘lashga harakat qiladi. Natijada noto‘g‘ri assotsiatsiyalar shakllanib, leksik xatoliklar yuzaga keladi. Ayniqsa, turizm terminologiyasida bu holat tez-tez kuzatiladi, chunki ko‘plab so‘zlar kundalik tilga nisbatan maxsus ma’noga ega bo‘ladi.[5]

Turizm sohasida ingliz tili leksikasini o‘qitishda interferensiyaning yana bir muhim jihati – bu madaniy interferensiyadir. Har bir til faqat so‘zlar majmuasi emas, balki madaniyatni ham aks ettiradi. Talabalar ba’zan ona tilidagi madaniy tushunchalarni ingliz tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chiradi, bu esa kommunikativ noaniqlikni keltirib chiqaradi. Masalan, mehmondo‘stlik, xizmat ko‘rsatish odoblari yoki muloqot uslublaridagi farqlar noto‘g‘ri ifodalarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli til o‘rgatishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish juda muhimdir.Interferensiya darajasi talabalarning til o‘rganish tajribasiga ham bog‘liq. Boshlang‘ich bosqichdagi talabalar ko‘proq ona tiliga tayanadi, bu esa interferensiyaning kuchli bo‘lishiga olib keladi. O‘rta va yuqori darajadagi talabalar esa asta-sekin ingliz tilida fikrlashga o‘rganadi va interferensiya kamayadi. Bu jarayonni tezlashtirish uchun muntazam mashqlar, dialoglar va real kommunikativ vaziyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

O‘quv jarayonida leksik interferensiyani kamaytirish uchun so‘zlarni guruhlash va semantik maydonlar asosida o‘qitish ham samarali usullardan biridir. Masalan, “transport”, “accommodation”, “tourism services” kabi mavzular bo‘yicha so‘zlar alohida bloklarda o‘rgatiladi. Bu yondashuv talabaga so‘zlarni kontekstda eslab qolishga yordam beradi va ularni alohida tarjima qilish odatini kamaytiradi.Iteraktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ham interferensiyani kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Onlayn platformalar, mobil ilovalar va virtual simulyatsiyalar orqali talabalar real turistik vaziyatlarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning lug‘aviy boyligini oshiradi va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.[5]Masalan, mehmonxonada mijoz bilan suhbat, aeroportda yo‘lovchini kutib olish yoki sayohatni rejalashtirish kabi vaziyatlar modellashtirilishi mumkin.O‘qituvchi tomonidan beriladigan lingvistik feedback (tuzatish va izohlar) ham juda muhimdir. Talaba xato qilganida uni faqat tuzatish emas, balki nima uchun xato bo‘lganini tushuntirish kerak. Bu yondashuv talabaning xatoni qayta takrorlash ehtimolini kamaytiradi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.Interferensiya nafaqat to‘siq, balki to‘g‘ri boshqarilganda o‘quv jarayonini chuqurlashtiruvchi omil ham bo‘lishi mumkin. Agar o‘qituvchi ona tili va ingliz tili o‘rtasidagi farqlarni aniq tushuntira olsa, talabalar tilni tezroq va to‘g‘ri o‘zlashtiradi. Shu sababli zamonaviy pedagogik yondashuvlar interferensiyani inkor etmaydi, balki uni boshqarish va undan samarali foydalanishga asoslanadi.[6]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, turizm sohasi talabalariga ingliz tili leksikasini o‘qitish jarayonida interferensiya muhim lingvistik va pedagogik omil hisoblanadi. U ona tili va chet tili o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga kelib, talabalar nutqida turli leksik xatoliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, to‘g‘ri yondashuv va samarali metodlar orqali

interferensiyaning salbiy ta’sirini kamaytirish va uni o‘quv jarayonida foydali vositaga aylantirish mumkin.Kommunikativ yondashuv, kontrastiv tahlil, semantik guruhlash hamda interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalar tomonidan ingliz tili leksikasini samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchining doimiy nazorati va to‘g‘ri pedagogik feedback berishi interferensiya xatolarini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.Interferensiyani inkor etish emas, balki uni to‘g‘ri boshqarish va ilmiy asosda yo‘naltirish zamonaviy til o‘qitish metodikasining asosiy talablaridan biridir. Bu esa turizm sohasi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va ularni xalqaro mehnat bozoriga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. — М.: Лабиринт, 1999. — 352 с.
2. Виноградов В. В. Введение в языкознание. — М.: Высшая школа, 2001. — 288 с.
3. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and methods in language teaching. — 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — 270 p.
4. Harmer J. The practice of English language teaching. — 4th ed. — Harlow: Pearson Education, 2007. — 448 p.
5. Thornbury S. How to teach vocabulary. — Harlow: Longman, 2002. — 185 p.
6. Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment. — Strasbourg: Council of Europe, 2001. — 273 p.
7. Журабекова Х. Талабалар коммуникатив компетентлигини орттиришда рус тилининг лисоний хусусиятлари // Acta NUUz. — 2024. — Т. 1, № 1.1. — С. 258–261.
8. Madaminovna J. X. The role of oral and written speech in the development of communicative competence // Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. — 2023. — Vol. 4, No. 3. — P. 40–45. — DOI: 10.51699/cajlpc.v4i3.756.

Aminova Matluba Anvarovna
Qarshi davlat universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistri

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA GENDER ONG VA MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsida gender ong va mas’uliyatni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari tahlil qilingan. Unda gender ong va mas’uliyat tushunchalari, ularning tarkibiy qismlari hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishidagi o‘rni tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoni orqali talabalarda gender ong va mas’uliyatni shakllantirishning samarali ijtimoiy-psixologik usullari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, shaxs, ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi, gender, gender mas’uliyat, gender tenglik, adolat, qadriyatlar.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГЕНДЕРНОГО СОЗНАНИЯ И ОТВЕТСТВЕННОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В статье рассмотрены социально-психологические факторы развития гендерного сознания и ответственности у будущих учителей. рассмотрены понятия гендерного сознания и ответственности, их составные части, а также их роль в личном и профессиональном развитии будущих педагогов. кроме того, в статье представлены эффективные социально-психологические методы формирования гендерного сознания и ответственности у студентов в процессе образования и воспитания в высших учебных заведениях.*

Ключевые слова: *общество, личность, образование, будущий учитель, гендер, гендерная ответственность, гендерное равенство, справедливость, ценности.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF GENDER AWARENESS AND RESPONSIBILITY IN FUTURE TEACHERS

Annotation. *The article examines the social-psychological factors influencing the development of gender awareness and responsibility in future teachers. It discusses the concepts of gender awareness and responsibility, their components, as well as their role in the personal and professional development of future educators. In addition, the article presents effective social-psychological methods for fostering gender awareness and responsibility among students in the process of education and upbringing in higher education institutions.*

Key words: *society, personality, education, future teacher, gender, gender responsibility, gender equality, justice, values.*

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng mamlakat hayotining ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy va madaniy sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu o‘zgarishlar jamiyat taraqqiyotida inson qadrini ulug‘lash, erkin fikrlashga sharoit yaratish, teng huquqlilikni ta’minlash, fuqarolik mas’uliyatini oshirish kabi asosiy tamoyillarning qaror topishiga xizmat qildi. Yangi ijtimoiy-siyosiy muhitda ta’lim tizimi ham tubdan yangilanib, pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Shu sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilarda gender ong va gender mas’uliyatni shakllantirish masalasi nafaqat pedagogika sohasining, balki umumiy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Mustaqillik yillarida demokratik qadriyatlar – tenglik, adolat, insonparvarlik va huquqiy madaniyatning ijtimoiy hayotda ustuvorlik kasb etishi gender masalalariga bo‘lgan munosabatning ham ilgarigidan tobora mukammallashuviga olib keldi. Bu qadriyatlar ta’lim siyosati, o‘quv dasturlari,

pedagogik texnologiyalar, davlat qarorlari va ta'lim muassasalarining ichki muhitida o'z ifodasini topib, gender madaniyatining institutsional asosda rivojlanishiga xizmat qildi.

Istiqlol yillarida ta'lim tizimida olib borilgan islohotlar o'qituvchi shaxsi, uning kasbiy kompetensiyasi, pedagogik madaniyati, kommunikativ faoliyati, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi kabi jihatlarning yangicha talqinini shakllantirdi. Bu jarayonda gender tenglik va gender mas'uliyat tushunchalari pedagogik kompetensiyaning ajralmas qismiga aylandi. Pedagog shaxsi endi nafaqat bilim beruvchi, balki adolat tamoyillarini o'quvchilarga yetkazuvchi, inson huquqlari va tenglikka asoslangan muhit yaratuvchi yetakchi omil sifatida qaralmoqda. O'tgan davr mobaynida jamiyatning demokratlashuvi gender stereotiplarning asta-sekin yemirilishiga olib kelmoqda. Ilgari mustahkam bo'lgan an'anaviy rol tasavvurlari o'rnini genderga sezgir, zamonaviy, adolatga yo'naltirilgan qarashlar egallay boshladi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari rivojlanishi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligi, ta'limda tenglik masalalarining keng yoritilishi bo'lajak o'qituvchilar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Talabalarning fikrlashi erkinlashib, ular genderga oid masalalarni tanqidiy tahlil qila oluvchi darajada rivojlana boshladi. Talabalarda refleksiya, empatiya, tolerantlik va o'zini anglash kabi muhim psixologik xususiyatlarning rivojlanishi ularda gender mas'uliyatni paydo bo'lishi va shakllanishi uchun qulay psixologik poydevor yaratilishigi asos bo'lmoqda.

Ta'lim muassasalarida demokratik muhitning kuchayishi, pedagogik munosabatlardagi ochiqlik va oshkoralik bo'lajak o'qituvchilarni gender masalalariga nisbatan yanada sezgir qildi. Dars jarayonida tenglik tamoyillariga amal qilish, o'quvchilarga jinsidan qat'i nazar bir xil talab qo'yish, iqtidorlarni ajratmaslik, baholashda adolatga rioya qilish kabi mezonlar gender mas'uliyatni amaliy shakllantiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ldi. Mustaqillikdan keyin ayollarning ijtimoiy mavqei oshishi bo'lajak o'qituvchilar uchun real ijobiy namuna bo'lib xizmat qildi. Rahbarlik lavozimlarida, fan, ta'lim, madaniyat, san'at va biznesda muvaffaqiyat qozonayotgan ayollarning ko'payishi talabalarning dunyoqarashida gender imkoniyatlari borasida yangi tasavvurlarni shakllantirdi. Bunday ijtimoiy ko'rinish erkak va ayolning teng imkoniyatga egaligini isbotlab, gender mas'uliyatning ijtimoiy motivatsiyasini kuchaytirdi. Mamlakatda gender tenglik bo'yicha qonunlar, davlat dasturlari, qo'mita va uyushmalar faoliyatining kuchayishi ham bo'lajak pedagoglar tarbiyasida muhim o'rin tutdi. Ta'lim muassasalari ana shu siyosiy-huquqiy asoslar bilan uyg'un holda genderga sezgir o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni yo'lga qo'ydi. Natijada talabalar gender masalalarining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlarini ham chuqur o'zlashtirish imkoniga ega bo'ldilar.

Shu tariqa, istiqlol yillarida shakllangan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va pedagogik o'zgarishlar bo'lajak o'qituvchilarda gender ong va mas'uliyatni rivojlantirish uchun keng ko'lamli sharoit yaratdi. Mazkur sharoitlar talabalarning dunyoqarashini boyitibgina qolmay, ularni gender adolatini hayotga tatbiq eta oladigan kasbiy yetuk shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qilmoqda. Gender ongning kengayishi va gender mas'uliyatning shakllanishi mustaqillik yillarida ta'lim tizimi erishgan eng muhim natijalardan biri bo'lib, bugungi pedagogik jarayonning mazmun-mohiyatini belgilab bermoqda. Shu jarayonda ta'lim muassasalarida demokratiya va tenglik tamoyillari asosida yaratilgan muhit bo'lajak o'qituvchilarda gender ong va mas'uliyatni amaliy jihatdan ham rivojlantirish imkonini berdi. Direktorlar, professor-o'qituvchilar va pedagogik jamoalarning genderga sezgirlik asosidagi pedagogik faoliyati talabalarni faqat nazariy bilim bilan ta'minlab qolmasdan, ularda ijtimoiy mas'uliyat, adolat va mehr-oqibat kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda psixologiyasida dastlabki tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlar doirasida olib borilgan bo'lib, bu sohadagi ilmiy izlanishlar mamlakatdagi ijtimoiy va madaniy an'analarni inobatga olgan holda amalga oshirilgan. Masalan, G'.Shoumarov, V.Karimova, I.Yoqubov, S.Mirxosilov, E.Usmonov, N.Sog'inov, F.Akramova, X.Karimov, R.Samarov, N.Salayeva, O.Abdusattorova, M.Fayziyeva va boshqalar oilaviy munosabatlar doirasida yuzaga keladigan gender farqlarini tadqiq qilishga alohida ahamiyat berganlar. Ularning ishlari oiladagi erkak va ayol roli, farzand tarbiyasidagi gender asimmetriya, oilada qaror qabul qilish jarayonidagi ijtimoiy stereotiplar va ularning psixologik oqibatlari masala-

larini o‘rganishga bag‘ishlangan. So‘nggi yillarda gender tadqiqotlari sohasi kengayib, shu bilan birga ishbilarmonlik, rahbarlik va kasbiy faoliyatdagi gender farqlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Mazkur yo‘nalishda V.Karimova, D.Muxamedova, O.Hayitov, I.Mahmudov, F.Akromova, O.Shamiyeva, E.Yoziyev va boshqa olimlar nazariy va metodologik jihatdan boyitilgan ilmiy asarlar hamda eksperimental tadqiqotlar olib borganlar. Ularning tadqiqotlari rahbarlikdagi gender farqlari, erkak va ayol rahbarlarning boshqaruv qobiliyatlari, kasbiy va shaxsiy xususiyatlari haqida muhim ma’lumotlar taqdim etgan.

Tahlil va natijalar. Bizning ilmiy izlanishlarimiz yuqorida tilga olingan olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlaridan farqli ravishda asosan bo‘lajak o‘qituvchilarda gender ong va gender mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi jarayonida genderga sezgirlikni shakllantirishga qaratilgan. Tadqiqotlarimizda e’tibor asosan oliy ta’lim muassasalarida pedagogik yo‘nalishda ta’lim olayotgan talabalarning gender stereotiplarini tahlil qilish, ularda tenglik va adolat tamoyillarini anglash darajasini baholash hamda gender mas’uliyatni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, talabalarning shaxsiy tafakkuri, ijtimoiy faolligi va muammolarni hal qilish salohiyati ularning gender ongini shakllantirishda muhim indikatorlar sifatida olingan.

Biz tomonimizdan olib borilgan eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, gender masalalariga oid targ‘ibot ishlari, maxsus seminar va treninglar, pedagogik vaziyatlar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda genderga sezgirlikning sezilarli darajada o‘sishi kuzatilgan. Shu bilan birga, ularda ijtimoiy mas’uliyat, rahbarlik va hamkorlik qobiliyatlari rivojlanib, kasbiy faoliyatda gender adolatini ta’minlash salohiyati ortadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida gender ong va mas’uliyatni rivojlantirish faoliyati tizimli, maqsadli va amaliyot bilan bog‘langan bo‘lsa, talabalarda kelgusida zamonaviy pedagog sifatida gender adolatini hayotga tatbiq etish qobiliyati shakllanadi. Bu esa nafaqat ularning shaxsiy kamoloti, balki maktab va ta’lim tizimida ijtimoiy adolatni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu tariqa, bizning ilmiy izlanishlarimiz gender tadqiqotlari sohasini oliy ta’lim va pedagogika yo‘nalishiga kengaytirib, yangi ilmiy va amaliy qirralarni ochmoqda, shu bilan birga bo‘lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun samarali zamin yaratmoqda.

Jadval-1.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda gender ong va mas’uliyatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari (n=120)

Omil	O‘quvchilar soni	Foiz (%)	Izoh
Yuqori darajada gender ong	45	37,5	Talabalarda genderga nisbatan kuchli ong va stereotiplardan xoli pozitsiya mavjud.
O‘rtacha darajada gender ong	55	45,8	Talabalarda gender ongining rivojlanishi o‘rta darajada bo‘lib, qo‘shimcha treninglar talab qilinadi.
Past darajada gender ong	20	16,7	Talabalarda genderga nisbatan ong past, stereotiplar kuchli ifodalanadi.
Yuqori darajada gender mas’uliyat	50	41,7	Talabalar kasbiy faoliyatda adolat va tenglik tamoyillarini samarali qo‘llashga tayyor.
O‘rtacha darajada gender mas’uliyat	52	43,3	Talabalarning mas’uliyati o‘rtacha darajada; qo‘shimcha pedagogik treninglar samarali bo‘ladi.
Past darajada gender mas’uliyat	18	15	Talabalar kasbiy mas’uliyat va tenglikni qo‘llashda yetarli darajada tayyor emas.

Jadvaldagi ushbu raqamlar va foizlar bo‘yicha tahlil bo‘lajak o‘qituvchilarda gender ong va mas’uliyatning ijtimoiy-psixologik jihatlarini batafsil aks ettiradi va ularning kasbiy hamda shaxsiy rivojlanishidagi o‘rni haqida tushuncha beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tala-

balar orasida gender ongning yuqori darajada rivojlanganlari (37,5%) o‘zaro hurmat, adolat va tenglik tamoyillarini chuqur anglab yetgan. Ular stereotiplardan xoli bo‘lib, pedagogik faoliyatda har bir o‘quvchiga teng yondashish va gender adolatini amalga oshirishga tayyor. Bu guruh kelajakda samarali va mas’uliyatli pedagog sifatida rivojlanish potentsialiga ega. O‘rtacha darajadagi gender ongga ega talabalar (45,8%) esa pedagogik amaliyotda gender masalalariga nisbatan sezgirlikni ko‘rsatadi, biroq ularning ongini yanada mustahkamlash va stereotiplarni kamaytirish uchun maxsus pedagogik treninglar, seminarlar va rolli o‘yinlar kabi metodlar zarur. Ushbu guruhning rivojlanishi, ayniqsa, yuqori darajadagi talabalar bilan hamkorlikda amalga oshirilsa, samarali natijalar beradi. Past darajadagi gender ongga ega talabalar (16,7%) esa gender masalalarida yetarlicha ongli qaror qabul qila olmaydi va stereotiplarga moyilligi yuqori bo‘ladi. Bu talabalar bilan individual ish olib borish, psixologik maslahatlar berish va amaliy mashg‘ulotlar orqali ularning gender ongini shakllantirish zarur.

Yuqoridagi jadvaldagi gender mas’uliyat bo‘yicha natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning 41,7% i yuqori darajada mas’uliyatga ega bo‘lib, ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi va adolat tamoyillarini qo‘llashga qobiliyati yuqori. O‘rtacha darajadagi mas’uliyatga ega talabalar (43,3%) esa kasbiy va ijtimoiy muhitda gender adolati tamoyillarini to‘liq tatbiq etish uchun qo‘shimcha pedagogik va psixologik ko‘nikmalarga muhtoj. Past darajadagi mas’uliyatga ega talabalar (15%) esa gender tengligini amaliyotga tatbiq etishda qiyinchiliklarga duch keladi, ularning professional va shaxsiy rivojlanishi uchun maxsus yo‘naltirilgan treninglar va mentorlik dasturlari zarur. Shu tariqa, ushbu tahlil bo‘lajak o‘qituvchilarda gender ong va mas’uliyatni shakllantirish jarayonining turli darajalarini aniqlash imkonini beradi. Bu raqamlar pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishda, talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda va o‘quv muhitini gender tenglikka moslashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, gender ong va mas’uliyatni rivojlantirish nafaqat individual talabalar uchun, balki butun ta’lim tizimi uchun samarali va strategik jihatdan muhim vazifa hisoblanadi.

Jadval-2.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda gender ong va mas’uliyatni shakllantirivchi ijtimoiy-psixologik omillar

Omillar	Mazmuni	Shakllanish mexanizmi	Natijaviy oqibatlar
Jamiyatning ijtimoiy qadriyatlari	Tolerantlik, adolat, inson huquqlari, gender tengligi kabi qadriyatlar	Jamiyatdagi madaniyat, oila tarbiyasi, ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladi	Talabalarda genderga nisbatan hurmat, adolatni qadrlash va stereotiplarga qarshi pozitsiya shakllanadi
Pedagogik muhit	Oliy ta’lim va maktab muhitida pedagoglarning genderga sezgirligi, teng imkoniyat yaratish	Ta’lim jarayoni, seminar va treninglar, rolli o‘yinlar orqali o‘zlashtiriladi	Talabalar orasida hamkorlik, empatiya va mas’uliyatning oshishi kuzatiladi
Shaxsiy psixologik omillar	O‘zini anglash, tanqidiy fikrlash, empatiya, adolat hissi	Psixologik treninglar, o‘qituvchilik amaliyoti va o‘z-o‘zini tahlil qilish orqali shakllanadi	Talaba kelajakda mas’uliyatli va adolatli pedagog sifatida rivojlanadi
Ijtimoiy muloqot va tajriba	Talabalarning jamoadagi o‘zaro aloqasi va guruh ishlari	Guruh loyihalari, seminar-bahslar, ijtimoiy faoliyat orqali	Liderlik, ijtimoiy mas’uliyat va muammolarni hal qilish qobiliyati rivojlanadi
Davlat siyosati va meyoriy hujjatlar	Ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlovchi qonun va qarorlar	Siyosiy va huquqiy asoslarda muhit yaratish, ta’lim dasturlarida inklyuziv yondashuv	Talabalarda qonuniy ong, adolatni qadrlash va kasbiy mas’uliyat hissi ortadi

Zamonaviy pedagogik jarayonlarda gender ongni rivojlantirish masalasi nafaqat individual pedagogning kasbiy tayyorgarligi, balki butun ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Gender ong – bu pedagogning o'quvchilarga yondashuvida jinsiy stereotiplardan xoli bo'lishi, tenglik, adolat va inklyuzivlik tamoyillarini hisobga olgan holda qaror qabul qilish qobiliyati va kasbiy xulq-atvoridir. Shu sababli pedagog faoliyatda gender ongni rivojlantirish nafaqat ma'naviy-axloqiy masala, balki zamonaviy ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi strategik vazifa hisoblanadi.

Pedagogning gender ongini rivojlantirish bir nechta yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi:

1) Nazariy bilimlarni oshirish: O'qituvchilar uchun gender psixologiyasi, sotsiologiyasi va pedagogik metodologiyasiga oid kurslar va treninglar tashkil etilishi pedagogning genderga sezgir qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu yo'nalish o'qituvchida jinsiy stereotiplarni aniqlash, ularni bartaraf etish va o'quvchilar bilan tenglik asosida ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

2) Amaliy pedagogik faoliyat: Gender ongni rivojlantirish uchun o'qituvchilarni amaliy mashg'ulotlar, guruh loyihalari, rol o'yinlari va seminar-diskussiyalarda faol ishtirok etishga yo'naltirish muhimdir. Bu jarayon pedagogning o'quvchilarga yondashuvi, baholash uslubi va ijtimoiy muhitni boshqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

3) Refleksiv faoliyat: Pedagoglarning o'z faoliyatini tahlil qilishi va gender jihatidan o'z xatti-harakatlarini baholashi, stereotiplar va nohaqliklardan qochishiga yordam beradi. Refleksiv yondashuv o'qituvchining o'z kasbiy ongini rivojlantirish, shuningdek, o'quvchilarda gender adolatini tatbiq etish strategiyalarini aniqlash imkonini beradi.

4) Ijtimoiy va madaniy muhitni hisobga olish: Ta'lim jarayonida gender ongni shakllantirish o'quvchilarning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy qadriyatlar va madaniy kontekstni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Pedagoglar gender masalalariga sezgirlikni jamiyatdagi qadriyatlar va normativlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni ham rivojlantiradi.

Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, gender ongning yuqori darajasi bo'lgan pedagoglar nafaqat o'quvchilarga teng yondashadi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, empatiya, ijtimoiy faollik va shaxsiy mas'uliyat kabi ko'nikmalar rivojlanadi, bu esa ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, gender ong pedagogning o'quvchilar bilan munosabatlarida adolatni ta'minlash, nizolarni hal etish va inklyuziv muhit yaratishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, pedagog faoliyatda gender ongni rivojlantirish nafaqat individual o'qituvchining kasbiy va shaxsiy kamoloti, balki butun ta'lim tizimining samaradorligini oshirish va zamonaviy jamiyatda adolatli, teng huquqli shaxslar shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Bu jarayonni tizimli ravishda amalga oshirish o'qituvchining professional rivojlanishini, o'quvchilarning ijtimoiy ongini va ta'lim jarayonining umumiy sifatini sezilarli darajada oshiradi.

